




DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
DEPARTAMENTI

IJTIMOIIY-SIYOSIIY
TERMINLARNING
QISQACHA
IZOHLI LUG'ATI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI
INSTITUTI

ABDUVAHOB MADVALIYEV, NE'MAT MAHKAMOV,
SHUHRAT KO'CHIMOV, ZUHRA MIRAHMEDOVA,
AKMALXO'JA SAIDNO'MONOV

IJTIMOIY-SIYOSIY TERMINLARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

*Filologiya fanlari doktori, professor
N.Mahmudov tahriri ostida*




SAHHOF
2021

UO'K: 316.334.3(038)

KBK: 60.56-3 66

I 26

I 26

A. Madvaliyev [va boshq.]

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati [Matn]: lug'at / A. Madvaliyev [va boshq.].

- Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. - 304 b.

ISBN 978-9943-6666-3-4

UO'K: 316.334.3(038)

KBK: 60.56-3 66

Mas'ul muharrir:

Nizomiddin Mahmudov,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ibrohim Yo'ldoshev,

filologiya fanlari doktori, professor

Yorqinjon Odilov,

filologiya fanlari doktori, professor

Muayyan tilning rivojlanishi jarayonida uning lug'aviy tarkibi, jumladan, terminologiyasi boshqa sohalarga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning obyektiv sabablari bor, albatta. Ijtimoiy-siyosiy terminologiyadagi taraqqiyot, o'zgarishlar ham yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ayrim lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bunday o'zgarishlar tegishli lug'atlarda aks ettirilgandagina ularning salmog'i, ko'lami yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlar bo'yicha bir qator terminologik lug'atlar tuzilgan bo'lsa-da, ular, birinchidan, izohli lug'at emas, ikkinchidan, ancha eskirgan. Qo'lingizdagi 4400 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy termin va terminologik birikmalar jamlangan "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati" ushbu bo'shliqni bir qadar to'ldirish maqsadida tuzilgan.

Lug'at ijtimoiy-gumanitar fanlar mutaxassislariga, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASINING MABLAG'LARI HISOBIDAN
CHOP ETILDI

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
ilmiy kengashining 2020-yil 11-noyabrdagi majlisida (7-bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-6666-3-4

© A. Madvaliyev [va boshq.], 2021

© "MASHHUR-PRESS", 2021



SO'ZBOSHI

O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi sharofati bilan bugungi kunda o'zbek davlatchiligi uzoq yillik tajribalar asosida qaytadan rivojlantirilmogda, odil fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borib, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy sohalarida ulkan islohotlar, buyuk o'zgarishlar amalga oshirilmogda.

Tabiiyki, bunday sharoitda har qanday milliy til doim rivojlanib, takomillashib boradi. Bu sohada O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ - 4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ona tilimiz - o'zbek tilining rivoji uchun tom ma'nodagi yangi davrni boshlab berdi, uning yaqin kelajakda rivojlanish tamoyilini belgiladi.

Binobarin, mustaqillik davrida tilimiz yangi so'zlar bilan ancha boyidi. Xususan, oxirgi yillarda O'zbekistonning butun dunyoga yanada "ochilishi" natijasida tilimizga ko'plab xorijiy so'zlar o'zlashdi. Ayniqsa, bu jarayon terminologiyada ko'zga yaqqol tashlandi.

Shu bois bugungi kunda hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan turli soha izohli lug'atlariga katta ehtiyoj sezilmogda. Xususan, mamlakatimizda hozirda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar nuqtayi nazaridan ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'atini tuzish muhim ahamiyat kasb etmogda. Chunki "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan dastlabki yillarda terminologiyamizda, xususan, ijtimoiy-siyosiy soha atamalarida murakkab holat, ya'ni atama-

lardagi xilmaxillik avj olib ketdi. Qisqa vaqt ichida bu sohadagi bahsli terminlarning ilmiy asoslangan muqobillari tanlandi va boshboshdoqlik bartaraf etildi. Endi esa bu terminlarning ma'lum bir tartibga solingan tizimli izohli lug'atini tuzish muhim vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug'aviy sistemaning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo'lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchan qatlamidir¹. Ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga nisbatan kengroq hodisa hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarkibi va chegarasini belgilash olimlar o'rtasida hozirgi kungacha ancha munozarali bo'lib kelmoqda. "Siyosat" tushunchasi o'zining ijtimoiy mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga ko'ra keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda u jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro'y beradigan voqea-hodisalar, o'zgarishlarni aks ettiradi. Tor ma'noda esa jamiyat hayotining alohida bir sohasida, ya'ni uning siyosiy sohasida ro'y beradigan o'zgarishlarni ifodalaydi va shu sohaning o'ziga nisbatan qo'llanadi"².

"Ijtimoiy-siyosiy" termini tarkibidagi "ijtimoiy" so'zi ushbu termin ko'lamini yanada kengaytiradi. Shu sababli mazkur lug'atda ijtimoiy-siyosiy terminlar qamrovi kengroq olindi va izohlandi. Lug'atda izohlangan terminlar ko'p ma'noli so'z bo'lsa, ularning barcha ma'nolari sanalmay, faqat ijtimoiy-siyosiy termin sifatida qo'llangan ma'nosigina izohlandi.

Ushbu lug'at so'zligi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning ko'p jildli asarlari to'plamidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridan, O'zbekiston hukumatining me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, vaqtli matbuot sahifalaridan, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan, 12 jildli "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"dan hamda shu sohaga doir mavjud lug'atlardan to'plandi va izohlandi.

Har bir fan sohasida terminlarni ilmiy jihatdan tartibga solib turish uzluksiz jarayondir. Bunda terminologik tamoyillar va me'yorlarga amal qilish bosh mezon bo'lmog'i kerak. Ushbu lug'at ana shu talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda tuzildi.

Lug'atda berilgan tub arabcha va forscha so'zlar haqidagi etimologik ma'lumotlarda, nashriyot va bosmaxonada qiyinchilik bo'lmasligini hisobga olib, bunday so'zlarning manba tillardagi yozuv shakli – arab alifbosidagi shakli ko'rsatilmadi. Ayni shu maqsadda qo'sh belgili katta Sh va Ch harflari izoh-matnlarda alifbo ro'y-

¹ To'raxojayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: filol. fan. nomz ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – B.9.

² Odilqoriyev X.T., Razaqov X.D. Siyosatshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B.104.

xatida ko'rsatilganiday Sh, Ch tarzida berildi, lug'at maqolasi sifatida qora harflarda yozilgan termin va birikmalar tarkibida kelganda esa SH, CH ko'rinishida berildi.

Lug'at O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining yetakchi olimlari tomonidan tuzildi. Lug'atni nashrga tayyorlash ishlari: lug'at so'zligini yig'ish, boshqa ba'zi texnik ishlar institut ilmiy xodimlari X.Mustafoyeva, S.Barliboyeva, O.Jumayev, Y.Haydarov, S.Sattorovalar tomonidan amalga oshirildi.

Bu masalalarning keng qamrovliligi sababli lug'atda munozarali o'rinlar bo'lishi tabiiy hol, albatta. Shu bois mualliflar lug'at yuzasidan bildiriladigan tanqidiy fikr va mulohazalarni samimiyat ila qabul qiladilar va buning uchun oldindan minnatdorchilik bildiradilar.






LUG'ATDA QO'LLANGAN SHARTLI QISQARMALAR RO'YXATI

a. – arab tiliga mansub soʻz
ayn. – aynan
buxg. – buxgalteriyaga oid soʻz
dan. – dan (dat) tiliga mansub soʻz
din. – diniy sohaga oid soʻz
dip. – diplomatiyaga oid soʻz
esk. – eskirgan soʻz
etn. – etnografiyaga oid soʻz
fls. – falsafaga oid soʻz
fors. – fors tiliga mansub soʻz
fr. – fransuz tiliga mansub soʻz
goll. – golland tiliga mansub soʻz
harb. – harbiy sohaga oid soʻz
huq. – huquqshunoslikka oid soʻz
ingl. – ingliz tiliga mansub soʻz
iqat. – iqtisodiyotga oid soʻz
isp. – ispan tiliga mansub soʻz
ital. – italyan tiliga mansub soʻz
km. – kilometr
kt. – kitobiy soʻz

lot. – lotin tiliga mansub soʻz
mas. – masalan
moʻgʻ. – moʻgʻul tiliga mansub soʻz
nem. – nemis tiliga mansub soʻz
pol. – polyak tiliga mansub soʻz
port. – portugal tiliga mansub soʻz
q. – qarang
rus. – rus tiliga mansub soʻz
shv. – shevaga oid soʻz
siyos. – siyosatga, siyosatshunoslik-
ka oid soʻz
sprt. – sportga oid soʻz
tar. – tarixiy soʻz
turkiy. – turkiy til(lar)ga mansub soʻz
va b. – va boshqa(lar)
va h.k. – va hokazo
va sh.k. – va shu kabi(lar)
yap. – yapon tiliga mansub soʻz
yun. – yunon (grek) tiliga mansub
soʻz



A

ABADIY HAQIQAT Bilish jarayonida mutlaq haqiqatlarni rad qilib bo'lmashligini bildiruvchi tushuncha. Masalan, islom ta'limotiga ko'ra, unda mutlaq e'tirof etilgan aqidalar: Allohning yagonaligi-ga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga va inson o'lganidan keyin qayta tirilishiga ishonish kabilardir.

ABANDON [*fr.* abandon] Sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta pulini to'liq olgan holda sug'urta qildiruvchining sug'urta qilingan mulka nisbatan huquqlaridan voz kechishi.

ABBOSIYLAR *tar.* 132-656-hijriy yoki 750-1258-milodiy yillarda Bag'dodda hukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi va uning vakillari.

ABDAL Urug' nomi. Abdallar Hindiston, Afg'oniston va xususan Turkiston xalqlari etnogenezida muhim o'rin tutgan eftaliylardir.

ABDIKATSIYA [*ingl.* abdication] Monarxning o'zi egallab turgan taxtidan rasman voz kechishi.

ABDOL [*a.* - avliyolar] *esk., kt.* Valiylikning belgili biror darajasiga erishgan guruh; avliyolar, xudoga yaqinlar.

ABITURIYENT [*lot.* abituriens, abiturientis - ketmoqchi bo'lgan kishi] Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtiga kirish uchun da'vogar shaxs.

ABJAD [*a.*] **1** Arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so'zning birinchisi va shu sakkiz so'z majmuining umumiy nomi. **2** Eski usuldagi maktablarda o'qitilgan boshlang'ich ta'lim alifbosi.

ABJAD HISOBI Arab harflarining abjad tizimidagi son qiymatiga muvofiq biror so'z yoki iboradan ma'lum bir son, sanoq, tarix chiqarish.

ABOLITSIYA [*lot.* abolitio - bekor qilish, yo'q qilish] Qonun yoki boshqa huquqiy hujjatni bekor qilish.

ABONEMENT [*fr.* abonnement] Muayyan xizmatdan (mas., telefon, teatrdagi o'rin, avtotransport va sh.k. dan) ma'lum muddat foydalanishga huquq beruvchi hujjat.

ABONENT [*fr.* abonné - yozilmoq, obuna bo'lmoq] Abonementga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilot.

ABSENTEIZM [*lot.* absens, absens - yo'q bo'lgan, hozir bo'lmagan]

Saylovchilarning vakillik organlari yoki mansabdor shaxslarni saylashdan, referendumda qatnashishdan bosh tortishi, voz kechishi.

ABSOLYUT [*lot.* absolutus – chegaralanmagan; shak-shubhasiz] Hech qanday shart-sharoitga bog'liq bo'lmagan, cheklanmagan, poyoniga yetgan, mukammal ma'nolarini bildiruvchi tushuncha.

ABSOLYUT MONARXIYA Cheklanmagan podsho hokimiyati va shunday hokimiyatga asoslangan idora usuli.

ABSOLYUT VETO Mutlaq taqiq: hozirgi davlatlar amaliyotida ayrim organlar qarorini to'xtatadigan yoki uni kuchga kiritmaydigan hujjat. Jumladan, parlament qabul qilgan qonun loyihasini davlat boshlig'ining imzolamasligi, aksincha, taqiqlashi veto hisoblanadi.

ABSOLYUT HUQUQ Subyektiv huquqlardan hisoblanadi. Absolyut huquqqa ega bo'lgan shaxs manfaatlariga nisbatan noaniq bo'lgan shaxslar qarama-qarshi turadi, lekin ular absolyut huquqqa ega bo'lgan shaxsning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin emas. Ayrim mulkiy munosabatlar (mulk huquqi) va barcha shaxsiy nomulkiy huquqlar absolyut huquq hisoblanadi.

ABSOLYUTIZM Cheklanmagan yakkahokimlik; mutlaq podsholik.

ABSTRAKT Aql va fikrlash orqali tasavvur etiladigan tushuncha.

ABSTRAKTLIK Mavhum holat, mavhum narsalardan iborat olam; mavhum ekanlik.

ABSTRAKSIONIZM [*lot.* abstractio – mavhumlik] XX asrda tasviriy san'atda vujudga kelib, keyinchalik haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazgan oqim. Uning tarafdorlari obyektiv voqelikni mavhum geometrik shakllar, palapartish chiziqlar, nuqtalar birikmasi (bog'lanmasi) sifatida tasvirlaydilar.

ABSTRAKSIONIST Abstraksionizm oqimi namoyandasi, vakili.

ABSTRAKSIYA [*lot.* abstractio – noma'lumlik, mavhumlik] **1** Narsa-hodisalarning muhim va muayyan belgi va qonuniyatlarini ajratish, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ularning juz'iy, ikkinchi darajali tomonlari yoki bog'lanishlaridan xayolan uzoqlashib fikr yuritish. **2** Abstraksiyalash yo'li bilan hosil qilingan mavhum tushuncha, nazariy umumlashtirma, nazariy xulosa.

AEROPORT [*yun.* aer – havo + *fr.* port] Havo kemalarini qabul qilish va jo'natishga, havo transportida tashishga, xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, zaruriy qurilmalarga ega bo'lgan inshootlar majmuasi.

AFISHA [*fr.* affiche – e'lon] Reklamaning bir turi: ma'ruza, konsert, turli tomoshalar to'g'risida maxsus e'lon.

AFFEKT [*lot.* affectus – tang vaziyatlarda yuzaga keladigan ehtiros, ruhiy hayajon] Turli tashqi yoki ichki ta'sirlar asosida tez paydo bo'lib, qisqa muddatli, ko'p holatlarda portlash tarzida kuchli ifodalangan hissiy holat.

AFV [*a.* – gunohidan o'tish, kechirish] *kt.* Kechirim, uzr.

AFV ETISH Sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning (mahkumning) iltimosnomasiga binoan uning gunohidan kechish. *Yana q. amnistiya.*

AFYUN [*a.* – qoradori] **1** Ko'knorining boshog'idan olib quritiladigan shira. **2** *ko'ch.* Kishi ongini zaharlaydigan narsaga nisbat beriladi.

ADAPTATSIYA [*lot.* adaptatio – moslashuv] **1** Davlatning ichki huquq tizimida qo'llanadigan me'yorlarning qonunchilikka biron-bir o'zgartirish kiritmasdan xalqaro huquq me'yorlariga moslashtirilishi. **2** *huq.* Boshqa, yangi joy yoki muhitda yashashga moslashish.

ADDENDUM [*lot.* addere – qo'shmoq, qo'shimcha kiritmoq] Dengiz savdosida qo'llanadigan charter shartnomasida taraflarning kelishuviga binoan kiritilgan yangi shartlar va shartlarga kelishilgan tartibda kiritilgan yangi qo'shimchalar.

ADEKVAT [*lot.* adaequatus – tenglashtirilgan, aynan bir xil, o'xshash] Biliş nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obyektiv mazmuniga to'g'ri keladigan, aniq va mos qilib bilib olish.

ADLIYA [*a.*] Sudlov muassasalari tizimi, sud idoralari faoliyati.

ADMINISTRATSIYA [*lot.* administratio – boshqaruv, rahbariyat] **1** Boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar majmui. **2** Muassasa, korxonona, tashkilot rahbarlari majmui.

ADMIRAL [*goll.* admiraal < *a.* – dengiz hukmdori] Harbiy dengiz flotida

oliy harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

ADOLAT [*a.* – odillik] Huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni odillik qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini yeyishni anglatuvchi tushuncha.

ADOLATLI Adolat bilan ish ko'ruvchi, odil.

ADOLATSIZLIK Adolatsiz xatti-harakat, adolatga zid holat.

ADOVAT [*a.* – dushmanlik, nafrat] Dushmanlik munosabati, shunday munosabatga xos his-tuyg'u; xusumat.

ADRES I [*fr.* adresse – yubormoq] **1** Biror kishi yoki tashkilot o'rnashgan joy, manzilning nomi. **2** Pochta orqali yuboriladigan narsalar ustidagi ularning boradigan joyi va oluvchining nomi ko'rsatilgan yozuv.

ADRES II Biror tantana munosabati bilan tashkilot yoki ayrim shaxs nomiga yuborilgan tabriknoma.

ADRES TILI Raqamli axborot texnologiyalarida ma'lumotni qayta o'zlashtirish jarayonlarini bayon etish uchun mo'ljallangan rasmiy til.

ADRESANT [*nem.* Adressant – yuboruvchi] Turli vositalar orqali telegramma, xat va sh. k. larni yuboruvchi shaxs yoki tashkilot.

ADRESAT [*nem.* Adressat – oluvchi] Nomiga kelgan xat, tabrik, qutlovni qabul qiluvchi kishi yoki tashkilot.

ADVOKAT [*lot.* advocatus < *advocare* – yordamga chaqirmoq] Sud jarayonida javobgarga maslahat beruvchi, aybdorni himoya qiluvchi yurist; oqlovchi, himoyachi.

ADVOKATLAR HAY'ATI A'zolikka asoslangan, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan notijorat tashkilot bo'lgan advokatlik tuzilmasi.

ADVOKATLIK BYUROSi Advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat(lar) tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkilot bo'lgan advokatlik tuzilmasi.

ADVOKATURA Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oluvchi huquqiy institut.

ADYUNKT [*lot.* adjunctus – qo'shilgan, birlashtirilgan] Harbiy yoki ichki ishlar vazirligiga qarashli oliy o'quv yurtlari va ilmiy institutlarida ilmiy tadqiqot olib boruvchi shaxs.

ADYUNKTURA Harbiy sohada oliy malakali harbiy-ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy shakli.

AGENT [*lot.* agens, agentis – harakatdagi; ish yurituvchi] **1** Tashkilot, muassasa va sh. k. larning ma'lum vazifalarni bajarish uchun tayinlangan vakili. **2** Qidiruv yoki razvedka xizmati xodimi.

AGENTLIK 1 Biror idora, muassasa yoki korxonaning joylardagi (mahalliy) bo'limi, shuningdek, axborot yig'ish va tarqatish, vositachilik qilish vazifasidagi ba'zi muassasalar nomi. **2** Agent faoliyati, ishi; josuslik, ayg'oqchilik.

AGENTURA 1 Maxfiy ma'lumotlar to'plash va qo'poruvchilik ishlarini olib borish maqsadida tashkil etilgan razvedka xizmati. **2** Ayg'oqchilar, shpionlar.

AGITATSIYA [*lot.* agitatio – harakatga keltirish, qo'zg'atish] Ommaga siyosiy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlar. *Yana q. tashviqot.*

AGLOMERATSIYA [*lot.* agglomerare – to'plamoq, qo'shmoq, birlashtirmoq] Biror narsani, masalan, tashkilot, korxon va sh.k. larni birlashtirish, qo'shish; ko'plab shahar va aholi maskanlarining yagona shahar sifatida qo'shilib ketishi.

AGNOSTITSIZM [*yun.* agnostos – bilib bo'lmaydigan; bilishni inkor etish] Falsafada moddiy tizimlar, tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimni voqelikka muvofiqligini isbotlash mumkin emas, deb hisoblovchi nazariya.

AGREMAN [*fr.* agrement – rozilik < agreer – ma'qullamoq] Xalqaro huquqda bir mamlakat tomonidan doimiy diplomatik vakili sifatida taklif etilgan shaxsni qabul qilish haqida ikkinchi bir mamlakatning oldindan rozilik bildirishi.

AGRESSIV Agressiyadan, bosqinchilikdan iborat bo'lgan, tajovuzkorlikka asoslangan.

AGRESSIYA [*lot.* aggressio – hujum] Bir davlat tomonidan boshqa davlatning yoki xalqning (millatning) suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga ko'ra g'ayriqonuniy hisoblangan har qanday kuch ishlatish; tajovuz, tajovuzkorlik.

AGRESSOR Tajovuzkor, bosqinchi; aggressiya siyosatini yurgizuvchi.

AGRESSORLIK Agressiv harakat, tajovuzkorlik, bosqinchilik.

AGRESSORLIK SIYOSATI Biror davlatga nisbatan bosqinchilik, tajovuzkorlik usulini qo'llash.

AHDLASHMOQ 1 Qat'iy va'da bermoq, qaror qilmoq. **2** Kelishuvchi tomonlar o'rtasida biror masala yuzasidan shartnoma, bitim tuzmoq.

AHDNOMA Rasmiy shartnoma, bitim.

AHOLI [a. – "ahl" (xalq) so'zining ko'pligi] Ma'lum bir hudud, viloyat, mamlakatda istiqomat qiluvchi odamlar.

AHOLI DAROMADLARI Barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromadidagi hissasi.

AHOLI MIGRATSIYASI Aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi.

AHOLI ZICHLIGI Muayyan hududda aholining joylashuv darajasi.

AHOLINING TABIIY O'SISHI Ma'lum davr ichida tug'ilganlar soni bilan vafot etganlar soni orasidagi farq.

AJIOTAJ [fr. agiotage – hovliqish, tartibsizlik] Birja bozorlarida chayqovchilik maqsadlarida ataylab yuzaga keltiriladigan jonsaraklik; qimmatbaho qog'ozlarning kursi va tovarlarning narxini sun'iy ravishda ko'tarish yoki tushirish.

AJRIM huq. Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan biri.

AKADEMIK Ayrim mamlakatlarda yuksak ilmiy unvon, akademiyaning haqiqiy a'zosi.

AKADEMIK LITSEY Ko'pchilik davlatlarda o'rta ta'lim o'quv yurti. O'zbekistonda akademik litsey – Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqur sohashtirilgan, tabaqalantirilgan, kasbga yo'naltirilgan o'rta maxsus ta'lim olishini ta'minlovchi o'quv muassasasi.

AKADEMIYA [yun. Academia] **1** Ilm-fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. **2** Ayrim oliy o'quv yurtlarining nomi.

AKADEMIZM 1 Quruq nazariyabozlik, hayotdan, amaliyotdan uzilib qolish. **2** Tasviriy san'atdagi yo'nalish: Uyg'onish davrining mumtoz namunalari ga ko'r-ko'rona ergashuvchi va ilg'or realistik oqimlarga qarshi kurashuvchi oqim.

AKKLAMATSIYA [lot. acclamatio – hayqiriq, xitob] Xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda ovoz bermasdan, qarsaklar asosida qarorlar qabul qilish amaliyoti.

AKKREDITATSIYA [lot. accreditare – ishonmoq, ishonch bildirmoq] huq. **1** Xalqaro huquqda diplomatik vakolatxona boshlig'i yoki davlatning biron-bir xalqaro tashkilotidagi doimiy vakili lavozimiga tayinlash va shu lavozimni bajarishga kirishish tadbirlari. **2** Jurnalistga muayyan hududda bo'lish va u yerda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni yoritish huquqini beruvchi hujjat.

AKKREDITIV [lot. accreditivus – ishonchli, vakolatli] iqt. **1** Naqd pulsiz

hisob-kitoblar olib boriladigan bank hisobvarag'i. **2** Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra amalga oshiriladigan o'zaro hisob-kitob turi. **3** Nomi yozib berilgan shaxsga ko'rsatilgan summani kredit muassasasidan olish huquqini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'oz. **4** huq. Diplomatik vakilning vakolatini tasdiqlovchi hujjat, yorliq.

AKKREDITIVLASH Turli shaharlar-da joylashgan korxonalar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitob muomalalarini amalga oshirish uchun maxsus bank hisobvarag'ini ochish.

AKKREDITLASH ayn. **akkreditatsiya**.

AKROPOL [yun. akros - yuqori, polis - shahar] Yunon shaharlarining muhofazalangan va balandlikka joylashgan qismi, yuqori shahar.

AKSEPT [lot. acceptus - qabul qilingan] Yetkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat uchun xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob shakllaridan biri.

AKSEPT KREDITI Tashqi savdolarni banklar tomonidan kreditlash turi.

AKSEPTANT [lot. acceptans, acceptantis - qabul qiluvchi] Ofertani qabul qilish shartnomasi asosida kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan shaxs.

AKSEPTSIZ TO'LOVLAR Bankka taqdim etilgan to'lov talabnomasiga asosan amalga oshiriladigan to'lovlar; ular-da to'lovchining roziligi talab etilmaydi.

AKSESSOR HUQUQIY MUNOSABATLAR Asosiy huquqiy munosabatga qo'shimcha huquqiy munosabatlar.

AKSESSOR SHARTNOMASI [lot. accessorius - qo'shimcha, to'ldiruvchi] Boshqa (bosh, asosiy) shartnomalar bilan bog'liq holda mavjud bo'lgan qo'shimcha shartnoma.

AKSIDENSIYA [lot. accidentia - tasodifiylik] Falsafiy termin bo'lib, narsalarning muhim bo'lmagan, muvaqqat xossa, xususiyatini ifodalovchi tushunchani bildiradi.

AKSILREKLAMA Noto'g'ri reklama keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tarqatiladigan raddiya.

AKSILTERROR [a. aksil - qarshi + lot. terror - qo'rquv; qo'rqish] Terrorni yo'q qilishga qaratilgan harakat.

AKSIOLOGIYA [yun. axia - qadr, qimmat + logos - fan, ta'limot] Qadriyatlar to'g'risidagi fan.

AKSIOMA [yun. axioma - asosiy qoida] Isbot talab qilmaydigan, isbotsiz qabul qilinadigan holat, fikr.

AKSIONER q. **aksiyador**.

AKSIYA I [fr. action - qimmatbaho qog'oz] Aksiyadorlik jamiyati chiqargan va o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

AKSIYA II [lot. actio - harakat] Ko'zlangan maqsadga erishish uchun qilinadigan ish, harakat.

AKSIYADOR Qonuniy asoslarda aksiyadorlik jamiyatida va shirkatlarida aksiyalarga egalik qiluvchi, aksiyada ko'rsatilgan va jamiyat a'zolarining ro'yxatga olish daftariga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

AKSIYADORLIK Aksiya ishlari bilan bog'liq faoliyat.

AKSIYADORLIK JAMIYATI Xususiy mulkchilik ko'rinishidagi jamiyatlardan biri bo'lib, turli korxonalar, tashkilot, bank, kompaniya (yuridik shaxslar), ayrim fuqarolar (jismoniy shaxslar) pul mablag'larini sherikchilik asosida va foyda olish maqsadida birlashtirgan xo'jalik jamiyati.

AKSIYADORLIK SERTIFIKATI O'z egasi jamiyat (kompaniya) kapitalining bir qismiga egaligini tasdiqlovchi hujjat.

AKSIZ [fr. *accise* < lot. *accidere* – kesmoq] Asosan, keng iste'mol tovarlari, muhim xomashyolar, shuningdek, xizmatlar uchun davlat tomonidan qo'yiladigan egri soliq.

AKT [lot. *actus*; *actum* – amal, harakat; hujjat, qaror] **1** Muassasa yoki ayrim shaxs (shaxslar)ga oid xatti-harakat (voqea, hodisa) yoki holatni tasdiqlash, guvohlik asosida qayd etuvchi, birdan ortiq kishi tomonidan tuzilgan hujjat; dalolatnoma. **2** huq. Yuridik ahamiyatga ega qaror yoki hujjat.

AKTIV [lot. *activus* – faol, ishchan] **1** Korxonalar yoki tashkilotning mulki, ya'ni bino, mashina, naqd pul, qimmatbaho qog'ozlar va b. **2** Balansning kirim, daromad qismi; buxgalteriya balansining bir qismi.

AKTIV SAYLOV HUQUQI Fuqaroning deputatlar va mansabdor shaxslar saylovida, referendumda ovoz berishda ishtirok etish huquqi.

ALAMDOR [a. + fors. – bayroqdor] Harbiy safar yoki muhoraba chog'ida biror bo'linma yoki qismning jangovar bayrog'ini ko'tarib yuruvchi, yalovbardor.

ALAYHISSALOM [a. – unga salom bo'lsin] Islomda payg'ambarlar nomi tilga olinganda aytiladigan duo so'zi.

ALDOV 1 Kishini qasddan adash-tirish, qo'lga tushirish, aldash; hiylanayrang, makr. **2** sft. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, noto'g'ri gap, narsa; uydirma.

ALIBI [lot. *alibi* – qayerdadir, boshqa joyda] huq. Aybdor deb gumon qilinayotgan shaxsning jinoyat sodir bo'lgan paytda shu joydan boshqa joyda bo'lishi (bu hol uning jinoyat qilmaganligini tasdiqlovchi dalildir).

ALIMENT [lot. *alimentum* – qaramog'idagi, boqimidagi] Ota-onaning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, bolalarning o'z ota-onasiga, er-xotinning, qarindoshlar va b. shaxslarning bir-biriga qonunga muvofiq beradigan ta'minoti.

ALIMENT MAJBURIYATLARI Ota-onalar voyaga yetmagan bolalariga, voyaga yetgan bo'lsa, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, qonunda belgilangan hollarda oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosi yoki a'zolarini moddiy ta'minlash uchun to'lanadigan majburiy to'lovlari.

ALKOGOLIZM Muntazam ravishda me'yoridan ortiq spirtli ichimliklar ichish, alkogolga berilish, odatlanish natijasida kelib chiqadigan kasallik; ashaddiy ichkilikbozlik.

ALKOGOLLI ICHIMLIKLAR Tarkibida spirt bo'lgan ichimliklar – aroq, uzum vinolari, bo'za, musallas, pivo va b.

ALKOGOLSIZ ICHIMLIKLAR Tarkibida spirt bo'lmagan chanqovbosdi ichimliklar.

ALLOH *ayn.* Oллоh.

ALLOMA [*a.* – eng bilimdon] Ilm egasi, bir yoki bir necha fan sohasini mukammal egallagan, yangi yo'nalishlar, kashfiyotlar yaratgan olim.

ALLONJ [*fr.* allonge – ulash, uloq, ulama] Vekselga qo'shib qo'yilgan qo'shimcha varaq bo'lib, unga veksell bo'yicha huquqlarni o'tkazish haqidagi yozuvlar kiritiladi (agarda veksellning orqa betiga bu yozuvlar sig'masa).

ALTERNATIV [*fr.* alternative < *lot.* alter – ikkitadan biri] Mumkin bo'lgan ikki yoki bir necha imkoniyatdan birini tanlashga asoslangan; muqobil.

ALTRUIST O'zgalarga beg'araz g'amxo'rlik qiluvchi va odamlar baxt-saodati yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor shaxs.

ALTRUIZM [*fr.* altruisme < *lot.* alter – boshqa] Egoizmga qarama-qarshi axloqiy tamoyil bo'lib, o'zgalar baxt-saodati yo'lida beg'araz xizmat qilish, o'zgalar uchun o'z shaxsiy manfaatlaridan voz kechish.

ALYANS [*fr.* alliance – birlashma] Odatda, davlatlar, tashkilotlar ittifoqi, birlashmasi.

AMAL [*a.* – ish, faoliyat, harakat] **1** Mansab, lavozim; hunar. **2** Islom ilohiyotida din aqidalariga ishonishdan tashqari dindor o'z faoliyati va harakati bilan bajarishi lozim bo'lgan barcha vazifalar va savob ishlarni ifoda etuvchi tushuncha.

AMALDOR Lavozimli shaxs; mansab, amal egasi.

AMALIYOT Amaliy jarayon, kundalik tajriba.

AMALIYOTCHI Nazariyani amaliyotga tatbiq qiluvchi; amaliyot bilan shug'ullanuvchi.

AMALPARAST Amalni sevuvchi, amalni yaxshi ko'ruvchi; mansabparast.

AMALPARASTLIK Amalga berilish, intilish, mansabparastlik.

AMFITEATR [*yun.* amphitheatron – ikki tomonlama tomosha] **1** Qadimgi Yunon va Rimda ommaviy tomoshalar, teatr spektakllari ko'rsatilgan katta bino. **2** Teatr (sirkdagi yoki auditoriyadagi).

AMIN [*a.* – halol, ishonchli; nazoratchi] *tar.* **1** Buxoro amirligida tuman yoki qishloq oqsoqoli. **2** Bozorda sotuvchilardan soliq undiruvchi mansabdor.

AMIR [*a.* – hokim, hukmdor; boshliq] **1** Ba'zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi. **2** Sharq musulmon mamlakatlarida hokimiyatdagi hukmdor lavozimi.

AMIRALMO'MININ [*a.* – mo'minlar hukmdori] Ilk Islom davridagi xalifalarning unvoni.

AMIRI LASHKAR Temuriylar, shayboniylar davrida hamda Turkiston xon-

liklarida keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvon; bosh qo'mondon.

AMIRLIK Sharq musulmon mamakatlarida amir tomonidan boshqariladigan davlat.

AMLOK [a. - mulklar] Mol-dunyo; yer-mulk.

AMLOKDOR Katta yer egasi; mulkdor, zamindor.

AMNISTIIYA [yun. amnestia - unustish; kechirish] Oliy hokimiyat qaroriga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsning jazosini afv etish asosida yumshatish yoki uni jazodan batamom ozod etish.

AMORALLIK Jamiyatda mavjud bo'lgan axloq qoidalarini rad etish, ularga nigilistik munosabatda bo'lish; axloqsizlik.

AMORTIZATSIYA [lot. amortisatio - qoplash] **1** iqt. Ishlab chiqarish vositasidan foydalanishda uning yemirilishi, jismoniy va ma'naviy eskirishi. **2** Alohida shaxs yoki tashkilotning uzoq muddatli qarzni asta-sekin (hissalarga bo'lib to'lab) yoki qarzni sotib olib uzishi. **3** Yo'qotish, o'g'irlatish va h.k. oqibatida qarz majburiyatini haqiqiy emas deb e'tirof etish.

AMRIMA'RUF [a. - yaxshilikka buyurish] **1** Savob ishlarga, haq yo'lga, yaxshilik va go'zal axloqqa, bajarilishi lozim bo'lgan barcha islomiy amallarga da'vat etish. **2** Shunday ishlarga bag'ishlangan marosim, maraka.

ANALOGIYA [yun. analogia - o'xshashlik] **1** Narsa va hodisalarda biror xususiyatning o'xshashligi. **2** Xulosa chiqarish shakli bo'lib, ikki narsa, hodisa o'rtasidagi biror jihatdan o'xshashlik asosida ularning o'xshashligi va boshqa

jihatlari haqida xulosa chiqarish. **3** Biror aniq harakat qonunda aksini topmagan holda, shunga o'xshash harakatni ko'zda tutadigan huquqiy me'yorni mazkur harakatga tatbiq etish.

ANARXIST//ANARXIYACHI Anarxizm tarafdori.

ANARXIYA [yun. anarshia - hokimiyatsizlik] Jamiyatning tashkilotchi hokimiyatning, hamma uchun majburiy qonun-qoidalarning, odob-axloq me'yorlarining yo'qligi bilan xarakterlanuvchi holati; hokimiyatsizlik, boshboshdoqlik.

ANARXIZM [yun. anarchia - beboshlik, hokimiyatsizlik, o'zboshimchalik; tartibsizlik] XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan, har qanday davlat hokimiyatining zarurligini rad etuvchi ijtimoiy-siyosiy oqim.

ANBIYO [a. "nabiy" (payg'ambar) so'zining ko'plik shakli] *din.* Nabiylar, payg'ambarlar.

ANIMIZM [lot. anima - jon, ruh] Jonga va ruhlarga ishonish.

ANJUMAN [fors. - yig'in, majlis] Biror tantana munosabati bilan bo'ladigan yig'in, majlis.

ANKETA [fr. enquete - surishtirish, xabar, ma'lumot olish] **1** Tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi; so'rovnoma. **2** So'roq (savol) orqali to'plangan ma'lumotlar; shunday yo'l bilan ma'lumotlar to'plash.

ANKETA SO'ROVI Anketa savollariga javoblar olish orqali jamoatchilik fikrini aniqlash, ijtimoiy so'rov.

ANNEKSIYA [lot. annexio - qo'shib olish] Aggressiya ko'rinishlaridan biri

bo'lib, bir davlat hududini (yoki uning bir qismini) boshqa davlat tomonidan zo'ravonlik bilan egallab olish yoki o'z davlatiga qo'shib olish siyosati.

ANNOTATSIYA [lot. annotatio – mulohaza, qayd; eslatma] Kitob va sh. k. haqida umumiy tasavvur tug'dirish uchun ularning mundarijasi to'g'risida qisqacha ma'lumot, qisqacha ta'rif.

ANNULYATSIYA [lot. annulare – yo'q qilmoq] Biror-bir hujjat, shartnoma, huquqlar yoki vakolatlarning bekor qilinishi, ularning haqiqiy emas deb topilishi.

ANONIM [yun. anonymos – nomsiz] Xat yoki asarda o'z nomini yashirgan muallif.

ANONIM XAT (MUROJAAT) Davlat organiga, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralariga yo'llangan, muallifining familiyasi, ismi va otasining ismi, uy yoki ish joyi manzili ko'rsatilmagan, imzolanmagan xat.

ANONS [fr. annonce – ommaviy axborot, e'lon] Spektakl, konsert va sh. k. haqida oldindan beriladigan e'lon.

ANSAMBL [fr. ensemble – birlik, ohangdorlik] **1** Ma'lum musiqa asarlarini, tomoshalarni birgalikda ijro etadigan artistlar guruhi; **2** Me'morchilikda: bir yerda joylashgan, bir-biriga uyg'un, mos binolar, inshootlar majmui.

ANTAGONISTIK Kelishtirib bo'lmaydigan, bartaraf qilib bo'lmaydigan.

ANTAGONIZM [yun. antagonisma – bahs, kurash] Bir-biriga qarama-qarshi kuchlar, g'oyalarning keskin kurashini ifodalaydigan ziddiyat.

ANTI... [yun. anti – qarshi, zid] So'zlarga old tomondan qo'shilib, o'zi qo'shilgan so'z ma'nosi biror narsaning qarama-qarshisi va ziddini anglatadigan qo'shimcha.

ANTIFASHIZM [anti..+fashizm] Jangari irqchilik, antisemitizm va shovinizm mafkurasiga tayanib ish ko'ruvchi siyosiy oqimlar, shuningdek, bir hukmron partiyaning oshkor terroristik diktaturasiga, u tomonidan yaratilgan va ilg'or ijtimoiy harakatlarni, demokratiyani yo'q qilishga va urushlar keltirib chiqarishga qaratilgan qatag'on rejimiga qarshi kurash harakati.

ANTIKONSTITUSIYAVIYLIK Davlatning Asosiy qonuniga, ya'ni konstitutsiyasiga zid bo'lgan holatlar; nokonstitutsiyaviylik.

ANTIMILITARISTIK Militarizm siyosatiga qarshi kurash.

ANTIMILITARIZM [anti..+lot. militaris – harbiy] Muayyan mamlakatning hukmron doiralari tomonidan davlat harbiy qudratini yanada kuchaytirish maqsadida foydalanadigan siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy vositalari tizimiga qarshi kurash.

ANTINOMIYA [yun. antinomia – qonunning ichki ziddiyati] Bilish jaryonidagi ziddiyat shaklining mavjudligi, bir-biriga zid bo'lgan, lekin ayni vaqtda asoslab berilgan ikki hukm.

ANTIPATIYA [yun. antipatheia – kimnidir xush ko'rmaslik] Xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik munosabati, sovuq munosabat.

ANTISEMITIZM [fr. antisemitisme < anti.. + Som – Nuh payg'ambar o'g'illaridan birining nomi] Milliy va diniy

murosasizlik shakllaridan biri bo'lib, u yahudiylarga dushmanlik ko'zi bilan qarashda ifodalanadi.

ANTITEZIS [yun. antithesis – qarama-qarshilik] Tezisga qarshi qo'yilgan hukm, muhokama, fikr; qarama-qarshi tezis.

ANTOLOGIYA [yun. anthologia – gullar dastasi < anthos – gul + lego – terish] Turli mualliflarning tanlangan asarlari to'plami.

ANTROPOGENEZ [yun. anthropos – inson + genesis – kelib chiqish] Inson jismoniy qiyofasining tadrijiy-tarixiy shakllanish jarayoni.

ANTROPOSOFIYA [yun. anthropos – inson, sophia – donolik, donishmandlik] Inson hissiy yuqori, juda ta'sirchan mavjudot, yashirin ruhiy kuchlarning egasi degan mistik ta'limot.

ANTROPOTSENTRIZM [yun. anthropos – inson + kentron – markaz] Bu tasavvurga ko'ra, inson – koinot markazi bo'lib, u olamdagi barcha voqea-hodisalar o'zgarishining asosidir.

ANSHLAG [nem. Anschlag – e'lon, afisha] **1** Teatr, konsert zali, sirk va b.larning oldida biletlar sotib bo'linganligi to'g'risidagi e'lon, xabar. **2** Teatr, konsert, sirk namoyishiga juda katta talabning mavjudligi.

AN'ANA [a. – nasldan naslga o'tuvchi qoida, odat] Avloddan avlodga o'tadigan, ma'naviy qadriyatlarga asoslangan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik (nasliy) uzviylikini ta'minlaydigan universal shakl. O'zbekistonda Navro'z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti va b.

xalq bayramlari an'analar sifatida hayotga singib ketgan.

AN'ANAVIY AN'ANAga aylangan, urf-odat bo'lib qolgan.

APARTEID [afrikaans tilida apartheid – alohida-alohida yashash] Insoniyatga qarshi, uning irqiy kamsitilishini nazarda tutuvchi xalqaro jinoyat, kishilarni irqlariga ajratish usuli; irqiy ayirmachilik, irqiy kamsitish, irqiy zulm o'tkazish.

APATRIDLAR [yun. a – inkor qo'shimchasi + patris, patridos – vatan] Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

APELLYANT Sud jarayonida apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qiluvchi taraf.

APELLYATSIYA [lot. arrellatio – murojaat, shikoyat] **1** Biron-bir qaror, fikr, olingan natija yuzasidan yuqori tashkilot yoki idoraga shikoyat arizasi bilan murojaat etish. **2** Sud hukmi yuzasidan norozilik bildirib, uni mohiyatiga ko'ra qayta ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan yuqori sudga shikoyat qilish shakllaridan biri.

APELLYATSIYA SUDI Qator davlatlarda qonuniy kuchga kiritilgan qaror va hukmlarning sud organida qayta ko'rib chiqilishi.

APPARAT [lot. apparatus] Muayyan tashkilot yoki muassasa boshqaruvi xodimlari majmui.

APROBATSIYA [lot. approbatio – ma'qullash, tasdiqlash] Tayyorlangan biror narsani tekshirish, sinash va tahlil qilish asosida rasmiy ma'qullash; sinovdan o'tkazish.

AQIDA [a. - e'tiqod, ishonch; tu-shuncha] **1** Ma'lum bir narsaga e'tiqod qilish; **2** Haqiqatga zid, ko'r-ko'rona qabul qilingan fikr, qoida.

AQIDAPARAST Biror narsaga ko'r-ko'rona e'tiqod qiluvchi.

AQIDAPARASTLIK Aqidalarga ko'r-ko'rona yopishib olishlik.

AQIQA [a. - chaqaloq sochini olish; qurbonlik qilish] *etn.* Oilada chaqaloq dunyoga kelgani munosabati bilan uning tug'ilganiga 7 yoki 14 yoxud 21 kun bo'lganda o'tkaziladigan ziyofat, marosim.

AQL [a. - es, hush] Tafakkur faoliyatining bosqichi, insonning narsalar mohiyatiga yetishtiruvchi bilish qobiliyati.

AQLIY MEHNAT Aql-idrok faoliyatiga oid, fikr yuritish bilan amalga oshiriladigan mehnat.

AQLI NORASOLIK Jinoyat huquqida: ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida shaxsning ruhiy kasalligi tufayli o'z harakatlari yuzasidan o'ziga hisob berolmaydigan va o'z harakatlarini idora qilolmaydigan holati.

AQLI RASOLIK Insonning ruhiy jihatdan sog'lom holati.

"AQLLI TIBBIYOT" Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va axborot berishning barcha jarayonlarini avtomatlashtirishning markazlashgan tizimi.

AQRAB [a. - chayon] **1** O'n ikki burjning biri; Mezon va Qavs burjlari o'rtasida joylashgan. **2** Shamsiya yil hisobida sakkizinchi oyning arabcha nomi (22-oktyabr-21-noyabr kunlariga to'g'ri keladi).

ARAFa [a. - bilmoq, tanimoq; Makka shahri yaqinidagi tog' nomi] **1** Ramazon yoki Qurbon hayitidan oldingi kun. **2** Bayram yoki biror tantanali kundan oldingi kun.

ARALASH IQTISODIYOT Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti modellaridan biri: bozor iqtisodiyotining rivojlangan, demokratlashgan, insoniy tus olgan turi.

ARALASH JAMIYAT **1** Xususiy va davlat kapitallari ishtirokidagi korxonalar; **2** Kapitali ikki yoki undan ortiq mamlakatning tadbirkorlariga yoki davlat muassasalariga tegishli bo'lgan korxonalar.

ARALASH MULK Turli mulk shakllarining birlashuvi natijasida paydo bo'lgan mulk.

ARALASHMASLIK SIYOSATI Hozirgi xalqaro siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir davlatdan bevosita yoki bilvosita yakka o'zi yoxud boshqa davlatlar bilan jamoa tarzida o'zga bir davlatning ichki va tashqi ishlariga aralashmaslikni taqozo etadi. Aralashmaslik siyosati boshqa davlatga nisbatan kuch bilan tahdid etishning har qanday shaklini qo'llashni, undagi tuzumni ag'darib tashlashga qaratilgan terrorchilik, qo'poruvchilik va boshqalarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ko'maklashishni rad etadi.

ARBITR [*fr.* arbitre < *lot.* arbiter - guvoh, tomoshabin; hakam, sudya] **1** Taraflar o'rtasidagi kelishmovchilikni, janjalni sudsiz bartaraf etuvchi, kelishtiruvchi xolis vositachi. **2** Sport o'yinlari, musobaqalarining qoidalari-

ga rioya qilinishini kuzatib baholovchi sudya; **3** Xo'jalik idoralari o'rtasidagi nizoli masalalarni ko'rib, bartaraf qiluvchi lavozimli shaxs, arbitraj a'zosi.

ARBITRAJ [*fr.* arbitrage – hakamlik sud] Nizoli masalalarni hal qilish uchun maxsus tashkil etilgan va doimo faoliyat ko'rsatuvchi sud organi, hakamlik.

ARBITRAJ-PROTSESSUAL HUQUQI Huquqning bir sohasi bo'lib, fuqaroviy, ma'muriy va b. huquqiy munosabatlarda vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etadi.

ARBOB [*a.* – janoblar, xo'jayinlar, amaldorlar] **1** Ijtimoiy-siyosiy va b. faoliyati bilan xalqqa tanilgan, el orasida obro' qozongan mashhur shaxslar – jamoat va davlat arbobi. **2** Fan va san'atda o'z ijodi va mehnatlari bilan tanilgan shaxslar.

ARENDA [*pol.* аренда < *lot.* arrendare – kiraga, ijaraga bermoq] *q.* ijarara.

AREOPAG Qadimgi Afinada oliy sud va siyosiy hokimiyat organi (hokimiyat organi kengashi Akropol yaqinidagi Ares tepaligi – Areopagda o'tkazilgan va shu nom bilan atalgan).

ARGUMENTATSIYA [*lot.* argumentatio – dalillash] Har qanday nuqtayi nazarni oqlash, ma'qullash yoki rad etish maqsadida asoslangan fikrlar, dalillar keltirish va muhokama qilish.

ARISTOKRATIYA [*yun.* aristokratia – yaxshilar hokimiyati] **1** Iqtisodiy hukmron sinf, zodagonlarning siyosiy hokimiyati, hukmronligi. **2** Quldorlik va feodal davlatlarda eng imtiyozli tabaqa.

ARIZA [*a.* – arznoma, iltimosnoma] Muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yozilgan iltimos, taklif, shikoyat mazmunidagi rasmiy hujjat.

ARIZABOZLIK Arizalar yozish bilan mashg'ullik.

ARIZACHO'P Ichiga hujjat solib, chopar orqali yetkazishga mo'ljallangan uzunchoq, ichi kovak, chiroyli ishlanib, sirti naqshlangan yog'och g'ilof. O'rta asrlarda Turkiston xonliklarida ishlatilgan.

ARK [*fors.* – ichki qal'a] Markaziy Osiyodagi ko'hna shaharlarda hukmdorlarning qarorgohi joylashgan qal'aband o'rda.

ARKON [*a.* – "rukn" (ustun) so'zining ko'plik shakli: ustunlar, asoslar] Ulug' martaba egalari; katta amldor, arboblilar.

ARKONI DAVLAT Davlat arboblari, yuqori martaba egalari.

ARKONI DIN Din asoslari; din arboblari.

ARMIYA [*lot.* armare – qurollantirmoq] **1** Davlatning barcha qurolli kuchlari majmui. *Harakatdagi armiya* – armiyaning urush vaqtida frontda bo'lgan qismlari. **2** *ayn.* **harakatdagi armiya.** **3** Quruqlikdagi qurolli kuchlar. **4** Bir yoki bir necha qo'shin turlarining bir necha korpus yoki diviziyadan tashkil topgan, urush harakatlarini olib borish uchun belgilangan qo'shilmasi.

ARTIST [*fr.* artiste – bilimdon < *lot.* ars, artis – kasb, hunar, san'at] Spektakl, kinoda rollar, opera va balet partiyalari, konsert va sirk nomerlari ijrochisi.

ARXEOGRAFIYA [*yun.* archaios – qadimiy + grapho – yozaman] Qo'lyozma

manbalarni tavsiflash va ularni nashrga tayyorlash usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha; tarix fanining ajralmas bir qismi.

ARXEOLGIK QAZISH Maxsus ruxsatnoma asosida yodgorliklar va madaniy qatlamni to'liq o'rganish imkoniyatini beruvchi uslubga rioya qilgan holda arxeologik yodgorliklarni tadqiq etish.

ARXEOLGIYA [yun. archaios – qadimiy + logos – fan, ta'limot] Qadimshunoslik – qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklariga asoslanib, kishilik jamiyati o'tmishini o'rganuvchi fan.

ARXITEKTOR [lot. architekton – binokor, bosh usta] q. **me'mor**.

ARXITEKTURA [lot. architectura – qur(il)ish san'ati] q. **me'morlik**.

ARXIV [yun. archeion va lot. archivum – mavjud o'rin] – **1** Biror-bir shaxs va tashkilot faoliyatiga tegishli bo'lgan hujjatlar, rasmlar, qo'lyozmalar to'plami; **2** Hujjatlar saqlanadigan muassasa.

ARXIYEPISKOP [yun. archiepiskopos – katta, bosh yepiskop] Ruhoniylik unvoni, xristian cherkovi iyerarxiyasidagi oliy darajalardan biri.

ASIR [a. – tutqun, bandi] Urush paytida dushman qo'lga tushib, ozodlikdan mahrum bo'lgan shaxs, bandi; asirlik holatidagi shaxs.

ASKAR [a. – lashkar, qo'shin] **1** Harbiy xizmatdagi shaxs. **2** Davlatning qurolli kuchlari majmui yoki ularning bir qismi; qo'shin.

ASKETIZM [yun. asketos – mashq qiluvchi; zohid] **1** Hamma dunyoviy narsalardan voz kechishni, tarkidun-

yo qilishni, zohidlikni targ'ib qiluvchi diniy-axloqiy nazariya. **2** Ehtiyojlarni qondirishdan, hayot lazzatlaridan, hamma dunyoviy ishlardan, baxt-saodatdan voz kechish, tarkidunyo qilish; zohidlik.

ASL NUSXA Biror narsa, matn yoki asarning asli.

ASOSIY BURCH Fuqaroning davlat konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan muayyan zarur xulq-atvori, ya'ni konstitutsiyaviy burchi.

ASOSIY KAPITAL Asos hisoblanuvchi, asosida yotuvchi, belgilovchi kapital.

ASSAMBLEYA [fr. assemblée – majlis] **1** Bir qator mamlakatlarda davlat hokimiyati oliy organining, shuningdek, ayrim xalqaro tashkilotlar oliy organining nomi. **2** Majlis, yig'ilish.

ASSISTENT [lot. assistens, assistentis – qatnashuvchi, yordam beruvchi] **1** Mutaxassisning yordamchisi. **2** Oliy o'quv yurtlarida kichik o'qituvchilik lavozimi va shu lavozim egasi.

ASSORTIMENT [fr. assortiment – tanlab olingan, saralangan] Muayyan belgilariga ko'ra guruhlangan tovarlar turlari, xillari, to'plami.

ASSOTSIATSIYA [lot. associatio – qo'shilma, birlashma] **1** Ma'lum maqsadga erishish uchun shaxslar, tashkilotlar, muassasalar, davlatlar o'rtasida tuzilgan uyushma, ittifoq, guruh. **2** Psixologiyada: muayyan sharoitda ikki yoki undan ortiq psixik hosilalar (histuyg'ular, tasavvurlar, g'oyalalar va h.k.) orasida paydo bo'ladigan aloqa.

ASTROLOGIYA [yun. astron – yulduz + logos – ilm] Ayrim kishilar va

xalqlar taqdirini osmon yoritqichlarining vaziyatlariga qarab aytish bilan shug'ullanadigan ta'limot.

ATAMASHUNOSLIK Atamaga oid ilm; atamalarga oid masalalar bilan shug'ullanuvchi soha; terminologiya.

ATEIST Ateizm tarafdori; xudosiz, dahriy.

ATEIZM [*fr.* atheisme < *yun.* atheon – xudosizlik, dahriylik; dinni inkor etish] Diniy ta'limotni, xudoni, umuman, ilohiy kuchlarga e'tiqod qilishni inkor etish; dahriylik.

ATOQLI El orasida tanilgan, biror sohada nom chiqargan, shuhrat qozongan, dongdor, mashhur.

ATRIBUT [*lot.* attributum – qo'shib berilgan, ta'minlangan, qo'shimcha qiligan] Narsa yoki hodisaning tasodifiy xususiyatlaridan farqli o'laroq, eng muhim, xarakterli belgisi, xossasi.

ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH Inson salomatligi va rivojlanishining me'yoriy faoliyati nuqtayi nazaridan zarur bo'lgan doirada tabiat elementlari aylanishining fizik, kimyoviy, biologik o'lchovlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro, hukumat, mintaqaviy, ma'muriy-xo'jalik siyosati va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

ATTASHE [*fr.* attache – birkutilgan]

1 Barcha davlatlar qonun hujjatlariga binoan diplomatik vakolatxonalar va idoralarning 2 – 3 yillik ish tajribasi bo'lgan xodimlariga beriladigan unvon.

2 Biror soha, mas., harbiy soha vakili bo'lgan diplomatik xodim – diplomatiyadagi eng kichik lavozimlaridan biri.

ATTESTAT *q.* shahodatnoma.

ATTESTATSIYA [*lot.* attestatio – guvohlik berish; guvohnoma] Xodim yoki tinglovchilarning malakasini, o'quvchilarning bilim darajasini belgilash; mahsulot, ish o'rinlari sifatini aniqlash.

ATTESTATSIYA KOMISSIYASI Xodim yoki tinglovchilarni attestatsiyadan o'tkazish uchun tuzilgan va muayyan vakolatlar berilgan maxsus hay'at.

ATTORLIK Bozorlarda pardo-an-do, mayda ro'zg'or mollari bilan savdo qiluvchi do'konlar rastasi, qatori.

AUDIENSIYA [*lot.* audientia – tinglash, quloq solish] Davlat va jamiyat arboblari tomonidan chet el diplomat vakillarining rasmiy qabul qilinishi.

AUDIT [*lot.* auditis – eshitish, tinglash] Auditorlar tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlar moliyaviy hisobotining ekspertizasi va tahlili; taftish.

AUDITOR [*lot.* auditor – tinglovchi] Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan va auditorlar kasbiy ro'yxatiga kiritilgan shaxs.

AUDITORLIK FIRMASI *ayn.* auditorlik xizmati.

AUDITORLIK XIZMATI Korxonalar, tashkilot va b.larning moliya-xo'jalik faoliyati holatini xolis tekshiruvchi firmalar.

AUKSION [*lot.* auctio, auctionis – o'sish, ko'payish; ommaviy savdo] Ommaviy kimoshdi savdosi.

AUTENTIK [*yun.* authentikos – haqiqiy, asl] Zarur asoslar mavjud bo'lgan holda, rasman asl manbaga to'liq

mos, haqiqiy deb topilgan muayyan hujjat matni, rasman asliga to'g'ri.

AUTIZM [yun. autos - o'zi, o'zim] Shaxsning jamiyatdan begonalashuvi, uning ijtimoiy shartnomalaridan voz kechuvi, individning voqealarga faqat o'z nuqtayi nazaridan baho berishi.

AVANGARD [fr. avant-garde - oldindagi qo'riqchi] 1 Harbiy yurishlarda asosiy kuchlarga dushman tomonidan bexosdan qilinadigan hujumlarga yo'l qo'ymaslik uchun oldinda boruvchi askariy qism. 2 Biror xalq, sinf yoki ijtimoiy guruhning ilg'or qismi.

AVANGARDIZM [fr. avant-gardisme - ilg'orlik] XX asr adabiyoti va san'atidagi bir qator zamonaviy oqimlarning umumiy nomi. Uning tarafdorlari adabiyot va san'atning avvaldan mavjud an'alarini tan olmay, uni tubdan yangilashni, uning tasviriy va shakliy imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilib qo'yanlar, shunga ko'ra, hatto realizmni ham rad etganlar.

AVTONOM OKRUG Davlat avtonomiyasining (viloyat, ma'muriy, milliy, hududiy avtonomiyaning) bir turi.

AVTONOM TUZILMA Avtonom respublikalar, avtonom viloyatlar, avtonom okruglar va b. avtonom birliklarga nisbatan qo'llanadigan umumlashtiruvchi tushuncha.

AVTONOMIYA [avto.+ yun. nomos - qonun] Konstitutsiyaviy huquqda: biron-bir hududning konstitutsiyada belgilangan qoidalar asosida davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi; muxtoriyat, o'zini o'zi boshqarish.

AVTOREFERAT [avto.+referat] Ilmiy asar yoki tadqiqotning uning muallifi tomonidan tayyorlangan qisqacha bayoni.

AVTORITAR [fr. avtoritaire - hukmini o'tkazadigan < lot. autoritas - hokimiyat, ta'sir] Hokimiyatga, nufuzli shaxsga so'zsiz bo'ysunishga asoslangan tuzum.

AVTORITAR DAVLAT Avtoritar rejimga asoslangan, fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklangan nodemokratik davlat.

AVTORITAR REJIM Davlat rejimining nodemokratik turlaridan biri: bunda hokimiyat yakka shaxsning yoki bir guruh shaxslarning qo'lida to'plangan bo'ladi.

AVTORITAR TUZUM Davlat hokimiyatining bir shaxs yoki bir guruh shaxslar qo'lida to'planishi. Avtoritar tuzumda vakillik organlari ham mavjud bo'ladi, referendumlar, xalq muhokamalari va h.k. o'tkazilishi mumkin.

AVTORITARIZM Davlatni boshqarish usuli; yakkahokimlik uning asosiy ko'rinishlaridan biridir.

AVANS [fr. avance] Bir jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan boshqasiga kelgusida to'lanadigan haq hisobidan oldindan beriladigan pul miqdori.

AVANTYURA [fr. aventure - qaltis harakat; sarguzasht] Osongina muvaffaqiyatga erishish uchun real kuch, sharoit va imkoniyatlarni hisobga olmay, tavakkaliga qilingan xatti-harakat.

AVANTYURACHI Avantiyurizmga, avantiyuraga moyil odam.

AVANTYURIZM Tasodifiy muvaffaqiyatga erishish, foyda olishni ko'zlab,

tavakkalchilik bilan qilingan ish, xatti-harakat; avanturaga moyillik.

AVANTYURISTIK Tavakkalchilik, avanturaga, avanturizmga asoslangan, avanturistlarga xos bo'lgan.

AVISTA [ital. a vista – ko'rsatilganda] To'lov muddati ko'rsatilmagan veksel, veksel oluvchining istalgan vaqtda vekselni veksel beruvchiga taqdim etib, vekselda ko'rsatilgan pulni to'lashni talab qilish huquqi.

AVIZO [ital. avviso < lot. avis – qush] **1** Bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob muomalalarining bajarilganligi yoki o'zgartirilganligi to'g'risida bir ahdlashuvchi tomonning ikkinchisiga yuboradigan rasmiy xabarnomasi. **2** Tovar jo'natuvchi tomonidan xaridorga tovar jo'natilgani haqidagi xat.

AVLOD [a. – o'g'illar, bolalar; nasl] Ota-bobo, uning nasli; sulola.

AVTARKIYA [yun. autarkeia – o'ziga to'qlik, o'zini ta'minlay olish] Mamlakat yoki hudud doirasida yopiq xo'jalikni tashkil etishga olib keluvchi siyosat, barcha hamkorlar bilan an'anaviy iqtisodiy aloqalarni uzish.

AVTO- [yun. autos – o'zi, o'zim] O'zlashma so'zlar tarkibida o'z qo'li bilan; o'zi harakatlanadigan, avtomatik; avtomobilga oid degan ma'nolarni bildiradi.

AVTOKRATIYA [yun. autokratia] Alohida subyekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan va uni to'liq egallab olgan holda boshqarish. Bunday sharoitda ushbu subyekt (davlat boshlig'i) davlat hokimiyatini idora etishning yagona manbai va egasi bo'ladi.

AVTONOM BOSHQARUV Alohida vakolatlar berilgan holda tuzilgan yoki tayinlangan organga, mansabdor shaxsga muayyan hududni mustaqil boshqarish huquqini berish.

AVTONOM DAVLAT Davlat maqomiga ega bo'lgan va davlatga tegishli ayrim xususiyatlarga (o'z konstitutsiyasi, qonunlari, hududi, fuqaroligi, oliy davlat organlari va b. ga) ega bo'lgan va yirik davlat doirasida tashkil etilgan avtonom davlat yoki avtonom birlik. Shu bois o'z pul birligiga, armiyasiga, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabatlarda to'la mustaqillikka ega bo'lmaydi.

AXBOROT [a. – "xabar" so'zining ko'pligi] **1** Bo'layotgan jarayonlar haqida xabar beruvchi ma'lumot. **2** Radioeshittirish, teleko'rsatuvlarda maxsus informatsion dasturning nomi.

AXBOROT ERKINLIGI O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga egalik qilishi.

AXBOROT OCHIQLIGI Axborot olish erkinligining asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, axborotning oshkoraligi, hamma olishi mumkinligini bildiradi.

AXBOROT RESURLARI Axborot tizimi tarkibida: elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi.

AXBOROTNI OSHKOR QILISH Qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat'i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olishini

kafolatlaydigan shaklda foydalanishni ta'minlash.

AXBOROTNOMA 1 Ish, voqea, hodisalar haqida yozma axborot. **2** Maxsus nashrning nomi.

AXLOQ [*a.* – kishining tabiati] Kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlari yig'indisi; har bir inson tan oladigan etnik qadriyat.

AXLOQ QOIDALARI Muomala, xatti-harakat odobi, qoidalari.

AXLOQ TUZATISH ISHLARI Axloq qoidalariga bo'ysunmaydigan, intizomsiz, axloqi buzuvchi shaxsni tarbiyalovchi harakat.

AXLOQ TUZATISH KOLONIYALARI Axloq tuzatish muassasalarining bir turi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan voyaga yetmagan mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'taydigan manzillar.

AXLOQSIZLIK Odob-axloq doirasidan chetga chiqish, uning qonun-qoidalariga xilof ish tutish.

AYAMAJUZ Qishning oxirgi kunlari: mart oyining birinchi haftasida bo'ladigan sovuq va izg'irin kunlar.

AYBDOR *huq.* Jinoyat qilgan, qonunni buzgan, jinoiy javobgar kishi.

AYBLANUVCHI *huq.* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ustidan javobgarlikka tortish to'g'risida ayblov qarori chiqarilgan shaxs.

AYBLANUVCHINING KO'RSATUVLARI Ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs bergan, ishning haqiqiy holatlarini isbotlash predmetiga oid bo'lgan ma'lumotlari va ish yuzasidan so'roq qilinganda ular bilan bog'liq tushuntirishlari.

AYBLOV HUKMI Tergov natijasida jinoyat yuzasidan aniqlangan holatlar va ayb mazmuni bayon etilgan hujjat.

AYBLOV NUTQI *huq.* Muayyan jinoiy ishni qilganlikda ayblangan shaxsning aybdorligini isbotlash uchun aytilgan nutq.

AYBLOV XULOSASI Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov jarayoni tamomlangandan so'ng hamda ayblanuvchi va uning himoyachisini jinoyat ishidagi barcha materiallar bilan tanishtirib bo'lgach tuzilgan xulosa.

AYBLOVCHI *huq.* Sudda jinoiy ish yuzasidan ayblov fikrini quvvatlovchi shaxs; qoralovchi.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI Guvon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining aybi qonunda belgilangan tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish.

AYIRBOSHLASH Iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o'zaro almashtirishlari.

AYIRBOSHLASH SHARTNOMASI Muayyan bir taraf boshqa tarafga bir mahsulotni boshqa to'varga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini olganligi haqidagi hujjat.

AYIRMACHI 1 Bir xil, teng munosabatda bo'lmaydigan, kimgadir bosh-

qacha ko'z bilan qaraydigan shaxs. **2** siyos. Ayirmachilik yo'lini tutuvchi shaxs; ayirmachilik tarafdori.

AYIRMACHILIK 1 Teng munosabatda bo'lmaslik, kimlargadir boshqacha ko'z bilan qarash. **2** siyos. Ko'pchilikdan ajralishga intilish, shunday xatti-harakat.

AYLANMA KAPITAL Muomalada yuradigan pul, mablag' va sh. k.

AYMOQLAR *etn.* O'zbekiston va Afg'onistonda yashovchi bir qancha turkiy qabila, urug'larning umumiy nomi, ittifoqi.

AYNANLIK Biron-bir narsaning boshqa narsaga aynan o'xshashligi, o'zaro bir-biriga to'la muvofiqligi.

AYNIYAT QONUNI To'g'ri mantiqiy fikrlashning muhim qonunlaridan biri. Bu qonun birinchi marta Aristotel tomonidan ta'riflab berilgan.

AYYOM [*a.* – kunlar] Bayram kuni; bayram kunlari.

AYG'OQCHI Maxfiy xabar yetkazuvchi; josus; biror shaxs yoki ijtimoiy guruhga qarshi ig'vo, tuhmat qiluvchi shaxs.

AZA [*a.* – sabr, bardosh tilash] Marhumning izzat-hurmati va xotirasi uchun ma'lum muddat tutiladigan motam. Aza tutish odati qadim zamonlardan mavjud bo'lib, xalqlarning diniy e'tiqodlariga ko'ra farqlanadi.

AZON [*a.* – namozga chaqirish] **1** *din.* Islom dinida har kuni o'qiladigan besh mahal namozga chaqiriq, da'vat. **2** *etn.* Islom dinida yangi tug'ilgan chaqa-

loqning qulog'iga aytiladigan tegishli duo(lar).

ASHADDIY IRQCHILIK Irqlar teng emas, shuning uchun go'yo "oily", "sara" irqlarning "past" irqlar ustidan hukmron bo'lishi tarixiy zaruratdir, deb da'vo qiluvchi nazariya va siyosat.

ASHTARXONIYLAR XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrni boshqargan sulola.

ASHYOVIY DALILLAR Tergov yoki sudda ishni odilona hal qilish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qiladigan narsalar (moddiy buyumlar).

ASHYOVIY HUQUQ Obyekti mulk hisoblangan, subyektiv fuqarolik huquqi.


A'LAM [*a.* – eng bilag'on, eng dono] Diniy-huquqiy masalalar yuzasidan fikr beruvchi diniy amaldor.

A'ROF [*a.* – arosat, o'rtalik] Islom mabalarida, xususan, Quronda tariflangan

A'YON [*a.* – ulug'lar, taniqli kishilar] Eng yuqori qatlamga mansub, hukmdorga yaqin turgan, baland martabali kishilar; amaldorlar.

A'ZO [*a.* – uzvlar, qismlar] Biror guruh, kengash, jamoa, jamiyat va sh. k.larga rasmiy qabul qilingan, saylangan, unda faoliyat ko'rsatuvchi shaxs, jamiyat, mamlakat.jannat bilan do'zax o'rtasidagi joy.

ANGLASHILMOVCHILIK 1 Xato tushunish yoki tushunib yetmaslik oqibatida sodir bo'lgan holat. **2** O'zaro tushunmovchilik, kelishmovchilik.



BADAL [*a.* – almashtiriladigan narsa; evaz] **1** Narsa o'rniga beriladigan haq. **2** Jamiyat, uyushma a'zolarining shu tashkilotga to'lagan yoki davriy to'lab turadigan puli.

BADARG'A [*fors.* – kuzatish; kuzatib boruvchi] Jazoning bir turi bo'lib, mahkumni yashash joyidan uzoqlashtirib, uning muayyan joylarda yashashini man etish.

BADARG'A BO'LMOQ Biror sabab, majburiyat bilan boshqa joyga haydaloq, quvg'un qilinmoq.

BADAVIY [*a.* – sahroyi, ko'chmanchi] Arabiston yarimoroli va Shimoliy Afrika cho'llarida yashaydigan ko'chmanchi va yarimko'chmanchi arab qabilalari.

BADAVLAT Katta boylikka va bisotga ega bo'lgan shaxs.

BADAVLATLIK Katta boylikka ega; davlatmandlik.

BADBAXTLIK **1** Omadsizlik, baxtga erishmaganlik. **2** Noxush holat va uning sababchisi bo'lgan hodisa. **3** Pastkashlik, ablahlik.

BADIIY AKADEMIYA Tasviriy san'atning eng yirik namoyandalari

uyushmasi, san'at masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy-nazariy markaz, muassasa, oliy badiiy o'quv yurti.

BADIIY KO'RGAZMALAR San'at asarlarini ommaviy namoyish etish shakli.

BAHAMJIHATLIK Bir yoqadan bosh chiqarish; birgalik, ahillik, inoqlik.

BAHO [*fors.* – narx, qiymat] Ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, xulqiga bo'lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan axloq me'yorlari va tamoyillariga mosligini ko'rsatish.

BAHODIR *tar.* **1** O'rta asrlarda turkmo'g'ul xalqlari qo'shinida janglarda ko'rsatgan ulkan jasorati va qahramonligi uchun beriladigan faxriy unvon. **2** Chingizxon hukmronligi zamonida xonning shaxsiy jangovar gvardiyasi a'zosi.

BAHS [*a.* – muhokama; tadqiqot, mubohasa] Biror holat yoki masalani yoqlash maqsadida o'tadigan munozara, tortishuv.

BAHSLASHMOQ Bahsda qatnashib, har xil fikrlardan birini, xususan, o'z fikrini yoqlab so'zlamok; tortishmoq.

BAHSLASHUV Biror holat, masala yuzasidan o'zaro tortishuv, munozara qilish.

BAKALAVR [*lot.* baccalaureus – vassalning yer-mulki] Ayrim mamlakatlarda va O'zbekistonda: oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

BAKALAVRIAT Ba'zi mamlakatlarda va O'zbekistonda: oliy ta'limning dastlabki bosqichi, mutaxassisliklar bo'yicha fundamental va amaliy ta'lim beriladigan, o'qish kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

BAKOVUL *tar.* 1 Oltin O'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajargan yuqori mansabdor. 2 XII – XIV asrlarda: belgilangan joylarda savdogarlarning tamg'a (boj) solig'ini to'lab o'tishlari ustidan nazorat qilib turgan kichik mansabdagi harbiy xizmatchi.

BALANS [*fr.* balance – tarozi < *lot.* bilanx – tarozining ikki pallasi] 1 Biror-bir faoliyatning bir-birini muvozanatlashi lozim bo'lgan tomonlari o'rtasidagi nisbatlarning miqdoriy ifodasi. 2 Doimo o'zgarishda bo'luvchi kirim-chiqim, daromad va buromadning o'zaro nisbati yoki muvozanatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar tizimi. 3 *buxg.* Biror korxonada yoki tashkilotning ma'lum bir muddatdagi kirim bilan chiqimini o'zaro qiyos qilib chiqarilgan yakun.

BALANS HISOBOTI Kirim-chiqim, daromad va buromadning o'zaro nisbati yoki muvozanatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar ifodalangan rasmiy axborot.

BALOG'ATGA YETISH Organizmning bir qator anatomik va fiziologik o'zgarishlar natijasida biologik jihatdan

asta-sekin voyaga yetishi hamda jinsiy jihatdan yetilib, ko'payishga, ya'ni nasl-ni davom ettirishga layoqatli bo'lib qolishi.

BANALITET [*fr.* banalite – syuzerenga tegishli] Feodalizm davrida G'arbiy Yevropadagi feodalarning o'z tasarrufidagi mol-mulklarga tanho egalik qilish huquqi.

BAND [*f.* – qism, modda] Qaror, bayonnoma, qonun, shartnoma kabi rasmiy hujjatlarning raqam yoki harf bilan bo'lib ko'rsatilgan kichik bo'lagi.

BANDA I [*f.* – qul, itoatkor; kamina] *din.* Olloh yaratgan, taqdiri uning qo'lida bo'lgan kishi; Ollohning quli.

BANDA II [*ital.* banda – to'da] Jinoyat huquqida: uyushgan jinoyatchilikning alohida shakli bo'lib, korxonada, muassasada yoki muayyan fuqarolarga hujum qilish maqsadida tashkil etilgan, uyushgan, qurollangan, barqaror guruh, to'da.

BANDALIK *din.* Insonning Olloh olidagi qarzi; o'lim, qazo qilish.

BANDIT [*ital.* bandito – quvg'un, qaroqchi] Bosqinchilik, o'g'rilik, kallakesarlik bilan shug'ullanuvchi qurollangan shaxs.

BANDITIZM [*ital.* bandito – quvg'un; qaroqchi] Jamoa xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat: fuqarolarga yoki korxonalarga hujum qilish maqsadida qurolli guruh tuzish, bunday guruhlarda ishtirok etish yoki guruh tomonidan uyushtirilgan hujumlarda qatnashish orqali sodir etilgan jinoyat.

BANDLIK Mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan

mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyat.

BANDLIK XIZMATI Mamlakat miqyosida aholini ish bilan ta'minlash siyosatini amalga oshiruvchi va fuqarolarga tegishli kafolatlarni ta'minlab beruvchi davlat xizmati.

BANDLIKKA KO'MAKLASHISH MARKAZI Ishidan va mehnat daromadidan vaqtincha mahrum bo'lib qolgan fuqarolarga ishga joylashishida, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kafolatlarning ta'minlanishida ko'mak ko'rsatuvchi organ.

BANK [*fr.* banque < *ital.* banco – pul almashtirish joyi] Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash, korxonalariga kredit berish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish, kredit mablag'larini muomalaga chiqarish va sh. k. bilan shug'ullanuvchi muassasa.

BANK AUDITI Qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlar tomonidan banklar faoliyatini davriy tekshirib turish.

BANK DEPOZITI Bankka saqlash va foydalanish uchun vaqtincha qo'yilgan pul yoki qimmatbaho qog'ozlar.

BANK FOIZ STAVKASI Bank ssudasidan foydalanilganlik uchun belgilangan haq miqdori.

BANK HUQUQI Banklar faoliyatini, banklar bilan ular xizmat ko'rsatadigan tashkilot va fuqarolar o'rtasidagi mu-

nosabatlarni tartibga solib turadigan huquqiy normalar majmui.

BANK KAFOLATI Kafil (garant) banklarning mijozlari qarzlarini o'z hisobidan va o'z muddatida to'lay olmagan hollarda banklar tegishli ta'minot (garov) asosida, ularning topshirig'iga ko'ra va ularning hisobidan majburiyatlarni zimmasiga olishi.

BANK KAPITALI Banklarning muomalaga kiritgan pul kapitallari majmui.

BANK KREDITI Banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun kapital berishi.

BANK MONOPOLIYALARI Konsentratsiyalashuv natijasida biror davlatdagi bank ishlarining bir necha yirik banklar qo'lida to'planishi.

BANK OPERATSIYALARI Banklar tomonidan joriy yoki boshqa hisobvaraqqa pul qabul qilish, foizli yoki foizsiz kreditlar berish, birja topshiriqlarini bajarish, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar sotib olish, mijozlarning topshiriqlarini bajarish, tovarlar yoki tovar hujjatlari garovi hisobiga ssudalar berish, shuningdek, boshqa har qanday pulli va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonlari.

BANK SERTIFIKATI Emitent bank tomonidan uning nomiga mijozning pul mablag'lari qo'yilgani to'g'risida berilgan yozma guvohnoma.

BANK SSUDASI Bankning foiz to'lovi sharti bilan kreditga berilgan pul mablag'i.

BANK TIZIMI U yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud

bo'lgan turli shakldagi banklarning o'zaro bog'liq bo'lgan majmui.

BANKET [fr. banquet – katta ziyofat; o'tirish] Biror kishi sharafiga, biror voqea munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali, rasmiy ziyofat; o'tirish.

BANKIR [fr. banquier – bank egasi < ital. banco – o'rindiql] Bank egasi yoki bankning yirik aksiyadori; bank xodimi.

BANKNOT [ingl. bank-note – bank bileti] Markaziy emissiya banklari chiqaradigan, muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan qog'oz pullarning asosiy turi.

BANKOMAT [bank + (avto)mat] Muayyan bankka qarashli avtomatik qurilma; bankning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda o'rnatilgan va bank mijozining uning o'zigagina berilgan qat'iy belgilangan kod bo'yicha naqd pul olishini ta'minlovchi qurilma.

BANKROT [nem. Bankrott < ital. bankarotta – singan kursi] Pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini to'lashga qurbi yetmay qolgan jismoniy shaxs yoki korxon.

BANKROTLIK Fuqaro yoki kompaniya, firma yoki banklarning mablag'i yo'qligi sababli o'z qarz majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi, qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi; qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovarga haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek, byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi.

BAPTIST Baptizm tarafdori.

BAPTIZM [yun. bartizo – suvga botiraman; cho'qintiraman] Protestantizmning sekta(mazhab)lardan biri.

BAQO VA FANO [a. "baqo" – abadiylik, manguilik; "fano" – o'tkinchi, vaqtinchalik] O'rta asr Sharq falsafasida cheksizlik ma'nosidagi dunyoning o'zaro uzviy bog'liq qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi tushunchalar.

BAQQOL [a. – oziq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi] Mayda-chuyda ro'zg'or mollari va oziq-ovqat (meva, shirinliklar va sh.k.) lar sotuvchi mayda savdogar.

BAQQOLLIK 1 Baqqol ishi, kasb-hunari. **2** Baqqol do'koni va shunday do'konlar joylashgan rasta.

BARHAYOT SIYMO Abadiy, mangu yashovchi zot.

BARIMTA tar. Ko'chmanchi qabilalarda bir uruqqa boshqa bir urug' tomonidan yetkazilgan zararni to'lashga majbur etish maqsadida garov tariqasida uning mollarini zo'rlik bilan haydab ketish odati.

BARJA [fr. barge < lot. bara – yengil kema] Shatakka olib yuriladigan yassi yuk kemasi.

BARKAMOL 1 Jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishgan, voyaga yetgan. **2** Yetuklikka erishgan, kamol topgan, bekam-u ko'st, mukammal

BARKAMOL AVLOD Jismonan, aqliy jihatdan kamolotga erishgan, ma'naviy yetuk, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan avlod.

BARKAMOLLIK Yetuklik, mukammal holati; kamolot cho'qqisi.

BARON [fr. baron < lot. baronis – an-qov, lapashang; yollanma askar] O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa zodagonlari, dvoryanlarining grafdan bir pog'ona past unvoni va shunday unvon olgan kishi.

BAROT [a. – oqlash; begunohlik; soddadillik] tar. **1** Podshoh, xon tomonidan biror soliq yoki jarimadan ozod etish yoki muayyan vakolatlar, huquqlar berish haqidagi maxsus guvohnoma, yorliq. **2** Biror narsa, chunonchi, unvon olganlik haqidagi yorliq, guvohnoma.

BAROT OYI Qamariya yil hisobida, ya'ni Oy taqvimida, musulmonlarning hijriy-qamariy yil hisobida sakkizinchi oy; sha'bon.

BARQAROR NARX-NAVOLAR Hech qanday o'zgarish ta'sir etmaydigan, doim birday turadigan, o'zgarmas narx-navolar.

BARQAROR SIYOSIY VAZIYAT Jamiyatning ustuvor hayotida vujudga kelgan barqaror obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning yig'indisi.

BARQARORLIK Tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti, qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muqim sharoit.

BARRIKADA [fr. barricade – to'siq, g'ov] Ko'chalar, yo'llar, ko'priklar va tog' yo'llarida duch kelgan narsalardan foydalanib quriladigan sun'iy mudofaa to'sig'i.

BARS YILI Muchal yili hisobining uchinchi yili nomi; yo'lbars yili.

BARTER [ingl. barter – tovar ayirboshlash] **1** Pul mablag'lari ishtirokisiz

bevosita tovarga tovar ayirboshlash. **2** Muayyan tovar miqdorining qiymati bo'yicha muqobil bo'lgan boshqa tovar miqdoriga almashtirish shartnomasi.

BARTER BITIMI Taraflar tomonidan pul mablag'lari ishtirokisiz bevosita tovarga tovar ayirboshlash haqida rasmiy ravishda tuziluvchi, qabul qilinuvchi ahdnoma, shartnoma, kontrakt.

BARSHCHINA [rus. барщина – baringa tekin ishlab berish] esk., tar. O'rta asrlarda Rossiyada: dehqonlarning o'z xo'jayinlariga majburan tekin ishlab berishi.

BASTAKORLIK Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida an'anaviy, mumtoz musiqa uslubi zaminida yuzaga kelgan badiiy an'ana, ijodiy kasb turi, musiqa ijodchiligi.

BASTION [fr. bastion – mustahkam qo'rg'on] Aтроfi mustahkam devor bilan o'ralgan, odatda, beshburchak shaklida qurilgan harbiy istehkom.

BATALYON [fr. bataillon – jangchilar bo'linmasi] Bir necha rotadan va maxsus bo'linmalardan iborat bo'lgan harbiy qism.

BATRAKLAR [rus. < turkiy.] tar. Boylar xo'jaligida yollanib ishlovchi dehqon.

BAVURCHI O'rta asrlarda turkiy xalqlarda saroy mansablaridan biri.

BAXILLIK Biror shaxsning yutug'i, obro'e'tibori, iste'dodi, axloqiy fazilat-lari va sh. k.larni ko'ra olmaslik, hasad bilan qarashdan iborat axloqiy tushuncha.

BAXT [fors. – taqdir; nasiba, ulush] Kishining o'z turmushidan mamnunli-

gi, o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushaliishi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushuncha.

BAXTSIZ HODISA Turli tabiiy ofat, avariya va b. ko'ngilsiz hodisalar oqibatida badanga shikast yetishi, mayib bo'lish yoki vafot etish hollari.

BAXSHI [mo'g' < sanskritcha - donishmand; duoxon; darvesh; ustod] **1** Xalq dostonchisi, dostonlarni yodda saqlovchi, ommalashturuvchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. **2** tar. Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob-kitobini nazorat qiluvchi lavozimli kishi.

BAY [a. - savdolanish, sotish, kelishish] O'zaro savdo muomalalarida, ishga yollash va yollanishda har ikki tarafning o'zaro kelishuvi.

BAY PULI Savdo-sotiq va ishga yollash-yollanish ishlarida o'zaro kelishuvdan so'ng bir tomonning ikkinchi tomonga to'lov hisobidan oldindan beradigan puli.

BAYONNOMA [a. + fors.] **1** ayn. **bayonot**. **2** Yig'ilish, kengash va b. anjumanlarning borishini va ular qabul qilgan qarorlarni siqiq holda qayd qiluvchi hujjat.

BAYNALMILAL [a. - millatlararo] Millatlararo, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatga doir.

BAYNALMILALCHI Siyosatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, baynalmilal g'oyalar, maqsadlarda olib bo-

rilgan xalqaro siyosiy harakatlar, ishlar, urushlar ishtirokchisi.

BAYNALMILALCHILIK Jahondagi turli millat va elatlarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birlarini tushunishlari va o'zaro ishonchning, madaniyatlar, qadriyatlar, bilimlar va texnologiyalarning o'zaro singib borishi asosi; **millatchilik**ning ziddi.

BAYNALMILLIY Millatlararo mushtarak bo'lgan; umumbashariy, umumxalqiy; turli millat va irqarga mansub kishilarning xalqaro birdamligiga oid.

BAYONOT [a. - bildirish, e'lon qilish] Xalqaro huquqda bir yoki bir necha davlatning siyosiy partiyasi yoki hukumatning muhim masalalar yuzasidan o'z rasmiy fikrlarini, qarashlari hamda maqsadlarini, ma'lum xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashi yoki, aksincha, qoralashlarini, ularga e'tiroz bildirishlarini ifodalaydigan hujjat.

BAYRAM 1 Madaniy-ma'naviy an'analarga ko'ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni. **2** Biror-bir munosabat bilan o'yin-kulgi ishtirokida tantanali ravishda o'tkaziladigan tadbir.

BAYRAM KUNLARI Muhim voqealarga bag'ishlangan, an'ana sifatida nishonlanadigan, ish kuni hisoblanmaydigan kunlar.

BAYROQ Davlat ramzlaridan biri: davlatning mustaqilligi va suverenitetini ifodalaydigan, uning g'urur-iftixoriga aylangan ramz.

BAYROQ QONUNI Xalqaro xususiy huquqda: kema qaysi davlat bayrog'i ostida suzayotgan bo'lsa, unda o'sha davlatning qonuni qo'llanishini anglatishi.

BAYROQDOR Namoyishchilar oldida bayroq ko'tarib boradigan shaxs; yalovbardor.

BAYTULLOH [a. - Oллоhning uyi] Makka Islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ka'baga berilgan nom.

BAYTULMOL [a. - xazina] esk. **1** Davlat xazinasi; davlatga qarashli bo'lgan boyluk va u turadigan joy. **2** Egasiz qolib, davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulk.

BAZA [fr. base < yun. basis - asos, negiz] **1** Muayyan moddiy narsalar to'plami, majmui; zaxirasi. **2** Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy sohalarining asosi, negizi, tayanchi. **3** Qo'shin joylashgan hudud. -

BAZIS [yun. basis - asos] iqt. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum tarixiy bosqichida yuzaga kelgan ishlab chiqarish munosabatlari yig'indisi.

BAZIS DAVR Iqtisodiyotda hisobot davri ma'lumotlarini qiyoslash uchun qabul qilingan bir vaqt yoki sana.

BAZIS NARX Iqtisodiyotda doimiy deb qabul qilingan va xalq xo'jaligi ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni, indekslarni hisoblashda asos qilib olingan narx.

BASHARIYAT [a. - odamzod, insoniyat] Umuminsoniyat; kishilik; insonlar.

BASHORAT [a. - xushxabar, suyunchli xabar] Hali fanga to'la ma'lum bo'lmagan, imkoniyat tariqasidagi ho-

disalar, turli jarayonlar xususida oldindan aytilgan fikr.

BAG'RIKENGLIK Masalaga har tomonlama ochiqko'ngillik bilan yondashish.

BANGILIK Giyohvandlikning bir turi: nashavandlikka butunlay berilib ketish, nashani tamakiga aralashtirib chekish.

BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH Nom-nishonsiz, daraksiz ketgan shaxsni muayyan muddat o'tgandan keyin yetarli dalillar asosida yo'qolgan deb hisoblash.

BEDIN Shariat talab va qoidalariga amal qilmaydigan, dinga, xudoga ishonmaydigan; dahriy; kofir.

BEK tar. Xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon.

BEKA tar. Bekning va umuman hukmdorlarning, boyonlarning xotini.

BEKLIK **1** Bek mavqeyi, lavozimi yoki vazifasi. **2** Bek qaramog'idagi ma'muriy hudud.

BENEFIS [fr. benefice - foyda, imtiyoz, afzallik] Tushumi, foydasi to'liq yoki qisman teatr jamoasi yoki ayrim aktyorga to'lanadigan spektakl yoki konsert.

BENEFITSİY [lot. beneficium - ehson, yaxshilik] **1** Ilk o'rta asrda G'arbiy Yevropada qirol yoki yirik feodal tomonidan vassalga muayyan ishni bajarish, ko'pincha harbiy xizmatni o'tash sharti bilan umrbod in'om qilinadigan yer; keyinchalik mulkiy meros. **2** Ka-

tolik cherkovida – ruhoniy tomonidan daromadli lavozim yoki mukofot sifatida olingan yer mulki.

BEQAROR Qarorsiz, hadeb o'zgaraveradigan, bir gapda turmaydigan, burdi, tuturigi yo'q.

BEQARORLIK Bir zaylda, bir holatda turmaslik; o'zgaruvchanlik.

BETARAF Janjal yoki qurolli to'qnashuvlarda qatnashmaydigan, kurashga aralashmaydigan, betaraflikni saqlovchi.

BETARAF ZONA Manfaatdor davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan, harbiy harakat maydoniga aylantirilmaydigan, harbiy baza sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydigan hudud.

BETARAFLASHTIRISH Biron sinf, ijtimoiy guruh yoki davlatni betaraf qilishga, boshqa sinflarning, guruhlarining yoki davlatlarning hal qiluvchi to'qnashuvga aralashmaydigan qilishga qaratilgan siyosat.

BETARAFLIK 1 Ikki tomon nizo va tortishuvlariga aralashmaslik. **2** Xalqaro huquqqa binoan urushda ishtiroq etmaslik, tinchlik davrida esa, hech qanday harbiy bloklarning a'zosi bo'lmaslik.

BEVA-BECHORA Birovning g'amxo'rligiga muhtoj, qarovchisi yo'q, nochor kishilar.

BEVATAN 1 Vatani, uy-joyi, boshpanasi yo'q; darbadar. **2 tar.** Xiva xonligidagi yersiz dehqon.

BEVOSITA DEMOKRATIYA Xalqning o'z hokimiyatini bevosita amalga oshirish shakllaridan biri.

BEVOSITA MEROSXO'RLIK Marhum qoldirgan mulkka to'g'ridan-to'g'ri vorislik qilish.

BEVOSITA SOLIQ Korxonalar yoki fuqarolarning daromadidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan soliq.

BEVOSITA TAHDID Biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning to'g'ridan-to'g'ri sodir bo'lish xavfi.

BEZORI [fors. – nafrat, yomon ko'rish] Nojo'ya xatti-harakatlari bilan ijtimoiy tartibni, ko'pchilikning tinchligini buzuvchi, hammani bezor qiluvchi shaxs.

BEZORILIK Jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish, do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish bilan bog'liq harakatlar.

BESHIKKERTTI etn. Bolalarni (o'g'il bola va qizaloqni) beshikdaligidayoq unashtirib qo'yish odati.

BEG'ARAZ HUKM O'z manfaatini ko'zlamasdan, xolisona chiqarilgan hukm.

BEG'ARAZ YORDAM O'z manfaatini ko'zlamasdan, xolisona yordam berish.

BIBLIYA [yun. biblia – kitoblar] Yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmui.

BID'AT [a. – yangilik; yangilik yaratish; dinga xilof xatti-harakat] Diniy aqidalarga kiritilgan o'rinsiz isloh; din aqidalariga xilof yangilik.

BIKAMERALIZM [fr. bicameralisme] huq. Parlamentning ikki palatali tizimi.

BILDIRISHNOMA Muayyan muassasa rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabar yetkazish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

BILIM Kishilarda tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil bo'lgan ma'lumotlar, tushunchalar majmui; voqelikning inson tafakkurida aks etishi.

BILIM OLISH HUQUQI Fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlaridan biri.

BILISH Inson faoliyatining ijtimoiy-tarixiy jarayoni, obyektiv voqelikni inson ongida aks ettirishga qaratilgan ma'naviy faoliyat.

BILISH NAZARIYASI Bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv borliqqa munosabati haqidagi falsafiy ta'limot, falsafaning bir bo'limi.

BILINGVIZM [*lot. bis - ikki + lingua - til*] Ikki tilda so'zlay olishlik; ikki tilni bilishlik; ikkitalilik.

BILVOSITA SAYLOV Biron-bir organni bilvosita ovoz berish yo'li bilan shakllantirish, mansabdor shaxsni saylash.

BIMETALLIZM [*lot. bis - ikki, ikkita + metallizm*] *huq., iqt.* Qiymat o'lchovi vazifasini ikki nodir metall - oltin yoki kumush bajaradigan pul tizimi va shu ikki metallardan yasalgan tangalarning mamlakat pul muomalasi asosini tashkil etishi.

BIOETIKA [*yun. bios - hayot + ethos - odat, xulq-atvor*] Hozirgi zamon etikasining muhim yo'nalishlaridan biri

bo'lib, unga ko'ra, inson hayoti eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraladi.

BIOGENEZ [*yun. bios - hayot + genesis - tug'ilish, paydo bo'lish*] Tirik mavjudotlar yerda anorganik materiyadan paydo bo'lganligini inkor etuvchi qarash, nazariya.

BIOTSID [*yun. bios - hayot + lot. caedere - o'ldirmoq*] Hayotdan mahrum etish; genotsidning bir turi.

BIPATRID [*lot. bis - ikki + yun. patris, patridos - vatan*] Bir paytning o'zida ikki yoki bir necha davlat fuqarosi bo'lgan shaxs.

BIR OVOZDAN QABUL QILMOQ Barcha ishtirokchilarning roziligi bilan, yuz foiz ovoz bilan, bir og'izdan qabul qilmoq.

BIR PALATALI PARLAMENT Parlamentning bir palatali turi.

BIR PALATALI TIZIM Demokratik mamlakatlarda saylov asosida tuziladigan, bir palatadan iborat oliy vakillik va qonunchilik organi tizimi.

BIR TOMONLAMA AKT Xalqaro huquq subyekti tomonidan bir tomonlama amalga oshirilayotgan va xalqaro-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakat.

BIRINCHI JAHON URUSHI 1914-1918-yillarda davlatlarning ikki koalitsiyasi: markaziy davlatlar va Antanta (jami 34 davlat) o'rtasidagi urush.

BIRINCHI INTERNATSIONAL Proletariatning tarixdagi xalqaro birinchi uyushmasi bo'lib, 1864-yilda tuzilgan.

BIRJA [*nem. Börse < lot. bursa - hamyon*] Tovarlar, qimmatbaho

qog'ozlar, valyutalar bilan savdo-sotiq qiladigan yirik savdo muassasasi; bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli.

BIRJA BOJI Birja savdosida ishtirok etish huquqi uchun olinadigan pul yig'imi.

BIRJA KURSI Fond birjasida muomalada bo'lgan qimmatbaho qog'ozning sotilish narxi.

BIRJA MIJOZI Birja a'zosi bo'lmagan, lekin birja qo'mitasining ruxsati bilan birja operatsiyalarini amalga oshiradigan shaxs.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT) Tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlar o'rtasida tinch hamkorlik qilish maqsadida suveren davlatlarning ixtiyoriy kelishuvi asosida 1945-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

BIRLASHMA Ma'lum maqsadlarni ko'zda tutib yoki ma'lum asosda uyushish natijasida vujudga kelgan tashkilot, uyushma.

BIRLASHMOQ Ma'lum maqsadlarni ko'zlab yoki ma'lum asosda birga qo'shilmoq, uyushmoq.

BIRYOQLAMALIK Subyektiv yondashishlik, bir tomonga tortishlik.

BITIKCHI O'rta asrlarda xon va mahalliy hokimlarning barcha yozuv-hujjat ishlarini olib boruvchi shaxs; kotib, mirza.

BITIM *huq.* **1** Fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakati. **2** Ikki va undan ortiq tomonning shart-

lari, o'zaro munosabatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab beruvchi kelishuv.

BIY *tar.* **1** Ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbeklarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon. **2** Yuqori mansabli kishilarni ulug'lash uchun ishlatilgan so'z yoki ularga berilgan unvon.

BIYENNALE [*ital.* biennale < *lot.* bini – ikki, ikkov + *annus* – yil] Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, grafika, kino, musiqa va sh. k. bo'yicha har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan ko'rgazma-tadbirlar.

BIYLAR SUDI *tar.* Shayboniylar davrida: shariatga, urf-odatlarga asoslanib ish ko'radigan sud.

BIYLIK Urug' yoki qabila boshlig'i vazifasini ado etishlik.

BIZNES [*ingl.* business – ish, mashg'ulot, kasb; tijorat; foydali bitim] **1** Daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati. **2** Ishbilarmonlik; tijorat.

BIZNES-FOND Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi.

BIZNES-INKUBATOR Kichik va o'rta biznesni yuritish malakalarini berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan muassasa.

BIZNES-KLINIKA Ma'lum bir moliyaviy qiyinchilik sharoitida tadbirkorlarga, mas., pandemiya davrida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kel-

gan tadbirkorlarga biznesni tiklash va davlat tomonidan beriladigan imtiyoz va preferensiyalar bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha bepul maslahatlar berish, muammoni tezda aniqlab, ular bo'yicha yechim topish, inqirozga qarshi samarali boshqaruv kabi yo'nalishlar bilan shug'ullanish tizimi.

BIZNESMEN [ingl. businessmen – bizneschi, ishbilarmon kishi] Har qanday ishda foyda olishga, daromad topishga intiluvchi korchalon; ishbilarmon.

BIZNES-NAVIGATOR Tadbirkorlik faoliyati (biznes) bilan shug'ullanishni osonlashtirish, shu jumladan, tadbirkor-ga bir qancha imkoniyatlarni beruvchi servislardan real vaqt rejimida foydalanishga yordam beruvchi axborot tizimi.

BIZNES-REJA Aniq bir ishbilarmonlik korxonasi (kompaniya) uchun tovar va uni ishlab chiqarish, ko'rsatiladigan xizmatlar, mahsulot sotiladigan potensial bozorlar, marketing strategiyasi, operatsiyalarni amalga oshirishni tashkil etish va ularning samaradorligi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan reja.

BLANK [fr. blanc – oq, toza] Bosma ish qog'ozi: grafalarining bo'sh, ochiq qolgan o'rinlarini kerakli vaqtda to'ldirish uchun mo'ljallab, bosmaxonada nashr etilgan tayyor varaqa.

BLANKET DISPOZITSIYA [nem. Blankett] Muayyan jinoyat belgilarining boshqa huquq sohasiga oid qonunlar yoki qonunosti hujjatlar asosida aniqlanishi.

BLANKET ME'YOR Davlat organlari va mansabdor shaxslarga mustaqil

ravishda qonun-qoidani o'rnatish yoki man etish huquqini beruvchi huquqiy me'yor.

BLANKIZM Fransuz utopist-kommunisti O. Blanki nomi bilan bog'liq siyosiy oqim: uning vakillari yangi ijtimoiy tuzum inqilobchilar tashkiloti tomonidan hokimiyatning bosib olinishi orqali o'rnatilishi mumkin deb hisoblaydilar.

BLINDAJ [fr. blindage – qalqon, g'ov, to'siq] Urush maydonida yerni chuqur qazib, yo'g'on xodalar, beton va tuproq bilan mustahkamlangan harbiy istehkom.

BLITSKRIG [nem. Blitz – chaqmoq, yashin + Krieg – urush] "Yashin tezligidagi urush" – bunday urushda hujum qilayotgan tomonning juda katta yo'q qiluvchi kuchni to'satdan ishga solish yo'li bilan qisqa muddat ichida keskin g'alabaga erishishi ko'zda tutiladi.

BLOGGER [ingl. blogger – blog egasi] Internet jahon axborot tarmog'idagi o'zining veb-saytiga yoki veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va b. axborotlarni undan foydalanuvchilar tomonidan muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs.

BLOK [fr. bloc – birlashma] Davlatlar, partiyalar, tashkilotlar yoki kishilar guruhining biror umumiy maqsad yo'lidagi birgalikda harakat qilish uchun doimiy yoki vaqtinchalik tuzilgan ittifoqi.

BLOKADA [ingl. blockade – qamal; qurshamoq] 1 *harb.* Harbiy harakatlar-

ni amalga oshirishning alohida shakli bo'lib, blokada qilinuvchi obyekt tashqi aloqalarga kirishining oldini olish maqsadida ajratib qo'yiladi. **2** Biror davlatni muayyan talabni bajarishga majbur etish maqsadida uning tashqi aloqalariga putur yetkazishga qaratilgan siyosiy tadbirlar tizimi. **3** Biror davlatning xo'jalik taraqqiyotini izdan chiqarish maqsadida uni iqtisodiy jihatdan yakkalab qo'yish.

BMT BOSH ASSAMBLEYASI Suveren davlatlarning haqiqiy demokratik vakillik organi.

BMT BOSH KOTIBI BMT Ustaviga asosan, bu tashkilot ma'muriyatidagi bosh mansabdor shaxs.

BMT XAVFSIZLIK KENGASHI BMTning asosiy, doimiy ishlovchi siyosiy organi; BMT Ustavi 24-moddasiga binoan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun asosiy javobgarlik BMT Xavfsizlik kengashi zimmasiga yuklatilgan.

BMTNING INSON HUQUQLARI UMUMDEKLARATSIYASI BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya.

BMTNING IQTISODIY VA IJTIMOY KENGASHI BMTning asosiy organlaridan biri: uning xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohasidagi vazifalarining ijrosi uchun mas'ul tashkilot.

BOBIYLIK tar. XIX asrning 40 - 50-yillarida Eronda shialik ichida vujudga kelgan diniy harakat (mazhab).

BOBON QO'ZG'OLONI tar. Zarafshon vohasida chorizm mustamla-

kachilik istibdodi va mahalliy amaldorlar zulmiga qarshi ko'tarilgan dehqonlar qo'zg'oloni.

BOBURIYLAR tar. 1526-1858-yillarda Hindistonda hukmronlik qilgan, Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan sulola va uning vakillari.

BOJ [fors. - o'lpon, boj, soliq] 1 O'rta asrlarda Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlari savdogarlar, hunarmandlardan olingan soliq. **2** Mamlakat chegarasidan olib o'tilgan import tovarlar, mol-mulk, qimmatbaho buyumlar va b.lar uchun davlat bojxona nazoratida undiriladigan pul yig'implari.

BOJ IMTIYOZLARI Bojxona huquqida yuridik va jismoniy shaxslarga boyliklar, shaxsiy buyumlar, boshqa predmetlarni olib kirish, olib chiqish yoki o'tkazishda beriladigan afzalliklar.

BOJ TARIFI Davlat chegarasi orqali o'tadigan tovardan undiriladigan boj stavkalari majmui.

BOJGIR [fors. - boj oluvchi, soliq yig'uvchi] Boj yig'uvchi, oluvchi; bojdor; boj undirish lavozimiga ega shaxs, bojxona xodimi.

BOJXONA Davlat chegarasidan o'tadigan va o'tkaziladigan mol-mulklar hamda transport vositalarini nazorat qiluvchi, shuningdek, yuk egalaridan belgilangan tartibda boj va b. yig'implarni undiruvchi davlat muassasasi.

BOJXONA BAYONOTI Qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjat.

BOJXONA DEKLARATSIYASI Chegara orqali o'tadigan yuk (eksport tovar-

lari, kishilarga tegishli yuklar, qo'ldagi anjomlar, valyuta, qimmatbaho buyumlar)lar haqidagi asosiy ma'lumotlar qayd etiladigan, milliy qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtiriladigan hujjat.

BOJXONA HUQUQI Bojxona sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisi.

BOJXONA SIYOSATI Davlat chegarasida va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tuvchi mollarga boj solig'i solishda tegishli tartib o'rnatish maqsadida qo'llangan chora-tadbirlar tizimi.

BOJXONA TO'LOVLARI Mamlakat chegarasi orqali o'tkaziladigan tovar-moddiy boyliklar uchun to'lanadigan haq.

BOJXONA CHEGARASI Muayyan davlatning bojxona hududini chegaralovchi shartli chiziq.

BOLSHEVIZM [rus. больше, большевой - katta, ko'p] tar. Rossiya bolsheviklar partiyasi amal qilib kelgan nazariya va siyosiy-partiyaviy oqim.

BOMBARDIMON QILISH Biror joyni to'pga tutish yoki havodan hujum qilib, samolyotlardan bomba tashlash.

BOMDOD [fors. - sahar, tongotar] din. Erta bilan kun chiqmasdan o'qiladigan birinchi namoz.

BOQIMONDA Qonunda belgilangan muddat ichida to'lanmagan va undirilishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovlar yoxud ularning to'lanmagan qoldig'i; qoldiq qarz.

BORLIQ Obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

BOSMAXONA Bosma asarlar chop qiladigan korxonasi; matbaa, tipografiya.

BOSMACHILIK 1 Zo'rvonlik va bosqinchilikka tayanuvchi harakat; bosqinchilik, o'g'rilik, banditlik. **2 tar.** Turkistonda 1918-1925-yillarda keng xalq ommasi vakillarining bosqinchi Qizil armiyaga qarshi olib borgan qurolli harakatiga sho'ro hukumati tomonidan berilgan nom.

BOSQINCHILIK 1 huq. O'zganing mol-mulkini talash maqsadida oshkora amalga oshirilgan o'ta og'ir ijtimoiy jinoyat. **2** O'zga yurtni bosib olish, istilochilik, tajovuzkorlik, agressorlik.

BOSQINCHILIK SIYOSATI O'zga yurtni bosib olish, istilochilik, tajovuzkorlik, agressorlik yo'li bilan davlatni boshqarish.

BOSQICHMA-BOSQICH O'TISH Jamiyat taraqqiyotining, ya'ni uning bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishining asosiy tur va shakllaridan biri.

BOSQOQ tar. Mo'g'ul xonlari tomonidan o'zlariga qaram o'lkalarga maxsus yorliq bilan yuboriladigan va nazorat ishlarini olib boradigan mansabdor shaxs.

BOYKOT [ingl. boycott - Angliyadagi yer egasi Boykot ismidan] **1** Siyosiy va iqtisodiy kurash shakli bo'lib, alohida shaxs, tashkilot yoki davlatni yakka-lab qo'yish maqsadida u bilan munosabatlarni to'liq yoki qisman to'xtatish. **2** BMT Ustaviga ko'ra, xalqaro munosabatlarda tinchlikni saqlash maqsadida ko'riladigan majburiy choralardan biri.

BOYKOT QILISH Ayrim shaxslar, tashkilotlar va davlatlar bilan aloqa qilishdan to'la yoki qisman bosh tortish.

BOYLIK 1 Boy bo'lishlik, boy mavqeyi; mol-mulkning yig'indisi, majmui; mo'llik. **2** Tabiiy, moddiy resurslar majmui.

BOZOR [*fors.* – bozor; savdo rastasi] *iq.* Sotuvchi bilan xaridorlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash joyi.

BOZOR INFRASTRUKTURASI Ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmatlar tizimi.

BOZOR ISLOHOTI Davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi, iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi.

BOZOR IQTISODIYOTI Tovar-pul munosabatlariga asoslangan, raqobat asosida tartibga solib turiladigan demokratik iqtisodiyot.

BOZOR MARKETINGI Bozorni o'rganish, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bo'yicha reja, chora-tadbirlar majmui.

BOZOR MEXANIZMI Sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlarining ichki tuzilishi, sistemasi.

BOZOR MUVOZANATI Bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkib jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

BOZOR MUNOSABATLARI Kishilar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, moliyaviy munosabatlar.

BOSH ASSAMBLEYA Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri.

BOSH BOSHQARMA Davlat boshqaruvi tizimida biror yirik tarmoq yoki xo'jalik sohasida yuqori (oliy) yoki o'rta bo'g'indagi idora, tashkilot

BOSH KOTIB Idora va muassasa kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas'ul xodim.

BOSH PROKUROR Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi oliy mansabdor shaxs.

BOSH QO'MONDON Harbiy harakatlarga, mamlakat qurolli kuchlari tarkibiga kiradigan qo'shin turlariga qo'mondonlik qiluvchi oliy harbiy mansabdor shaxs.

BOSH VAZIR O'zbekiston Respublikasida: Vazirlar Mahkamasining boshlig'i, hukumat rahbari.

BOSHBOSHOQLIK O'zboshimchilik, har kim o'zicha ish tutishlik, beboshlik; anarxiya.

BOSHLANG'ICH PARTIYA TASHKILOTI Ish yoki yashash joyida partiyaning kamida uch a'zosi bo'lganda tuziladigan tashkilot.

BOSHLANG'ICH TA'LIM Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi, 1 – 4-sinflardagi ilk ta'lim.

BOSHLIQ Idora, muassasa, tashkilot va sh. k.larga rahbarlik qiluvchi shaxs; rahbar.

BOSHPANA Jon saqlash, yashirinish yoki vaqtincha istiqomat qilish uchun yaroqli joy; panoq, maskan.

BOSHPANA HUQUQI Biror mam-lakatda muayyan sabablarga ko'ra o'zga davlatdan qochib kelgan siyosiy muhojirlarga doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun beriladigan huquq.

BOSHQARISH Xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish.

BOSHQARMA Davlat boshqaruv tizimida biror yirik tarmoq yoki xo'jalik sohasida yuqori (oliy) yoki o'rta bo'g'in-dagi boshqaruv idorasi.

BOSHQARUV Davlatni idora qilish usuli.

BOSHQARUV BO'G'INI Tashkilot va sh. k.larning har bir halqasi, bosqichi, pog'onasi.

BOSHQARUV IDORASI Ma'lum bir ijtimoiy, davlat, xo'jalik, savdo va sh. k. tar-moqlarni boshqarish uchun shtatli xodim-lari, ma'muriyati bo'lgan tashkilot, muas-sasa, boshqarma va ular o'rnashgan bino.

BOSHQARUV LAVOZIMI Muassa-sa, idora, tashkilot va sh. k.larda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog'liq bo'lgan amal, o'rin, vazifa.

BOSHQARUVCHI Boshqarma, kor-xona, muassasa yoki tashkilot boshlig'i, boshqaruvchi rahbar.

BRAKONYERLIK [fr. brakonier – it bilan ov qiluvchi] Yovvoyi hayvonlar, parranda va baliqlarni man qilingan joy-da noqonuniy ov qilish.

BRIFING [ingl. briefing – yo'l-yo'riq < brief – qisqa, qisqacha xulosa] Rasmiy

shaxslarning ommaviy axborot vosita-lari vakillari bilan ularga rasmiy nuqtayi nazarini bildirish yoki rasmiy xulosalar-ni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.

BROKER [ingl. broker – o'rtada tu-rib vositachilik qiluvchi, dallol, mak-ler] Fond, tovar va valyuta birjalarida bitimlar tuzish chog'ida vositachilik bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxs yoki firma.

BROKERLIK FAOLIYATI Qimmatli qog'ozlar bozorida professional vosi-tachilik (dallollik) faoliyatini amalga oshirish.

BUDDIZM [Buddaviylikning afso-naviy asoschisi Buddha nomidan olin-gan] Miloddan avvalgi VI asr oxirlarida Hindistonda paydo bo'lgan va bir qator Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan dinlardan biri; budda dini, buddaviylik.

BUFER DAVLAT [ingl. buffer < buff – zarbani yumshatish] siyos. O'zaro dushmanlik yoki urush holati-da bo'lgan yirik davlatlar o'rtasida joylashgan, ular orasidagi ziddiyatni, qarama-qarshilikni zaiflashtiruvchi, yumshatuvchi, uncha katta bo'lmagan, iqtisodiy-siyosiy hamda harbiy jihat-dan kuchsiz davlat.

BUM [ingl. boom – shov-shuv] 1 Mamlakatning iqtisodiy hayotida yoki uning biror sohasida yirik sarmoyador-lar vujudga keltiradigan qisqa mud-datli sun'iy jonlanish. 2 Jamoatchilik fikrini qo'zg'atish va uni sarosimaga tushirib qo'yish maqsadida qilinadigan shov-shuvlar.

BUNYODKOR G'OTALAR Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

BURGOMISTR [*nem.* Bürgermeister] Ayrim mamlakatlarning mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarida oliy mansabdor shaxs.

BURJ Quyoshning yillik ko'rinma harakati doirasidagi 12 yulduz turkumi; ulardan har birining nomi.

BURJUA I [*fr.* bourgeois - shaharlik] Burjuaziya sinfiga mansub kishi.

BURJUA II Burjuaziya.

BURJUZIYA [*fr.* bourgeoisie - shaharliklar] Savdo-sotiq, sanoat, kredit-moliya kabi tadbirkorlik faoliyati orqali foyda oluvchi sarmoya egalarining ijtimoiy sinfi.

BURCH Shaxsning jamiyat, davlat va oila kabi tizimlar oldidagi majburiyati.

BUXGALTER [*nem.* Buch - kitob + halter - kitob, daftar olib boruvchi, tutib turuvchi] Idora, muassasa, korxonalarining hisob-kitob ishlarini olib boruvchi mutaxassis, hisobchi.

BUXGALTERIYA [*nem.* Buch - kitob - halten - ushlamoq] **1** Hisob-kitob nazariyasi va amaliyoti. **2** Tashkilot, korxonalar va muassasalarning moliyaviy ishlarni qayd etib borish, nazorat qilish, xodimlarga ish haqi yozish, buxgalteriya hisoboti va b. hisobotlar tuzish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linma.

BUYRUQ Tashkilot, muassasa, korxonalar, harbiy qism va sh. k.lar rahbari-

ning o'z tasarrufidagi tashkilot, muassasa, korxonalar bo'yicha chiqaradigan rasmiy amri va uni o'zida aks ettirgan hujjat.

BUYRUQBOZLIK Hamma ishni faqat buyruq berish yo'li bilan olib borish, bo'lar-bo'lmasga, o'rinsiz buyruqlar beraverish.

BUYRUQBOZLIK SIYOSATI Hamma ishlar faqat buyruq berish yo'li bilan olib boriladigan siyosat; bo'lar-bo'lmasga, o'rinli-o'rinsiz buyruq beraverish.

BUYUK DAVLATLAR Xalqaro maydonda yetakchi rol o'ynovchi eng qudratli davlatlar.

BUYUKDAVLATCHILIK **SHOVINIZMI** Bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

BUYUK IPAK YO'LI Xitoy, O'rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari, keng ma'noda esa Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat, diplomatik va madaniy aloqalar yo'li.

BUYURTMA Shartnoma bo'yicha bir tarafning ikkinchi tarafga muayyan ishni bajarish va uning natijasini topshirish yoki muayyan xizmat ko'rsatish bo'yicha topshirig'i.

BUYURTMANOMA Biror narsani yasab, tayyorlab yoki ishlab berish haqidagi talab (taklif, iltimos) yozilgan rasmiy hujjat.

BUYURTMACHI Shartnoma bo'yicha o'ziga yoki uchinchi shaxslarga xizmat ko'rsatilishi, ish bajarilishi, ashyo

yoxud mol-mulk topshirilishi to'g'risida topshiriq bergan shaxs yoki subyekt.

BUZG'UNCHI To'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, orani buzuvchi, oraga raxna soluvchi, ig'vogar, g'alamis.

BYUDJET [*ingl.* budget – hamyon; mablag'] **1** *iq.* Davlat, korxonalar, muassasaning muayyan vaqt (yil, yilchorak) uchun ishlab chiqilgan, qonuniy tarzda tasdiqlangan pul daromadlari va xarajatlari ro'yxati, yig'indisi. **2** Shaxsning, oilaning muayyan vaqtdagi kiritim-chiqimlar yig'indisi.

BYUDJET HUQUQI Byudjet tizimi daromadlari va xarajatlari tuzilmasi, ularning turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi, bunda davlat, nodavlat hamda ma'muriy-hududiy tuzilmalar vakolati, byudjet jarayoni va byudjet nazoratini belgilovchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar majmui bo'lib, u moliyaviy tizimning bo'lagi sifatida byudjetni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish yuzasidan vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

BYUDJET INTIZOMI Barcha tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan, byudjetga pul o'tkazish va byudjet mablag'larini sarflashning o'rnatilgan tartibi.

BYUDJET JARAYONI Barcha darajadagi, bo'g'inlardagi byudjetlarni tayyorlash, muhokama qilish, tasdiqlash hamda ularni ijro etish tartib-qoidalari.

BYUDJET NAZORATI Barcha darajadagi byudjetlar ijrosi ustidan davlat

hokimiyati organlarining muntazam nazorati.

BYUDJET TAQCHILLIGI Muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

BYUDJET TASHKILOTI Aksariyat yoki butunlay davlat yoki mahalliy byudjet mablag'lari bilan ta'minlanadigan tashkilotlar.

BYUDJET TIZIMI Davlat, ma'muriy hudud, ba'zi muassasalar byudjetlarining iqtisodiy munosabatlar va huquqiy me'yorlarga asoslangan majmui.

BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMA Davlatning davlat byudjetiga kirmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'i.

BYULLETEN [*fr.* bulletin < *ital.* bulletino – kichik xat, varaqa] **1** Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan biror muhim voqea-hodisaning borishi haqida e'lon qilib turiladigan axborot. **2** Biror muassasaning vaqti-vaqti bilan e'lon qilib turiladigan bosma nashri nomi; axborotnoma. **3** Ma'lum shakldagi saylov varaqasi.

BYURO [*fr.* bureau – devonxona, idora] Biror tashkilot, jamiyat, muassasada muayyan ishni olib borish maqsadida saylanadigan yoki ta'sis etiladigan kollegial organ; shu organ o'tkazadigan majlis.

BYUROKRAT [*fr.* bureaucrate] Ishga, o'z vazifasiga rasmiyatchilik va sovuqqonlik bilan qarovchi, quruq rasmiyatchilik bilan ish tutuvchi shaxs; shaxsiyatparast.

BYUROKRATIYA [*fr.* bureaucratie < bureau – devonxona, idora – *yun.* kratos

- qudrat, hokimiyat] Rasmiyatchilikka asoslangan boshqaruv guruhi, ma'muriyat tizimi.

BYUROKRATIZM [*fr.* bureau - devonxona, idora + *yun.* kratos - qudrat, hokimiyat] **1** Ijrochi hokimiyat apparatini jamiyat a'zolari idorasidan ajratib qo'yishga asoslangan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv tizimi. **2** Ishga, o'z vazifasiga rasmiyatchilik va sovuqqonlik bilan qarash, quruq rasmiyatchilik bilan ish tutish; qog'ozbozlik, to'rachilik.

BYUROKRATLIK 1 Eski va qotib qolgan usulda ish tutish; to'rachilik, rasmiyatchilik. **2** Byurokratlarga xos xatti-harakat, ish; to'rachilik.

BO'HTON [*a.* - yolg'on, tuhmat] Birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; tuhmat.

BO'HTONCHI Bo'hton qiluvchi, bo'hton tarqatuvchi; tuhmatchi.

BO'LIM Idora va turli ishxonalarining ma'lum ish bilan shug'ullanadigan har bir qismi; muayyan idoraga qarashli quyi idora, shu'ba.

BO'LIM BOSHIG'I Muayyan idoraga qarashli quyi idoraga rahbarlik qiluvchi shaxs.

BO'LINMA *harb.* Yirikroq harbiy qism tarkibidagi kichikroq harbiy birlik.


BO'LINMAS FOND Jamoa xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklarining a'zolari o'rtasida taqsimlanmaydigan jam'armalar.

BO'NAK *tar.* Biror ish yuzasidan ish beruvchilarning ish bajaruvchilarga oldindan beradigan qarzi; avans.

BO'SH VAQT Kishining majburiy ijtimoiy mehnatdan tashqari vaqtining bir qismi; o'z xohishiga ko'ra, ma'naviy va jismoniy rivojlanish, dam olish uchun sarflanadigan vaqt.

BO'SHAMOQ Ishdan, amaldan, mansabdanda qutulmoq, ozod bo'lmoq.

BO'SHLIQ Jamiyatda bir siyosiy tizimdan boshqa tizimga o'tish jarayonida yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmagani oqibatida yuzaga keladigan holat.



DABDABABOZLIK Haddan tashqari tantana, quruq hashamga to'liq bo'lgan xatti-harakat; amaliy ish o'rniga quruq va'dalar, balandparvoz gaplar bilan ovo-ra bo'lish.

DAFN [*a.* - marhumni ko'mish, qabrga qo'yish] O'lgan kishini qabrga qo'yish marosimi, ko'mish.

DAHA [*fors.* - qishloq] O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida: qishloq joylarida bir necha qishloqdan, yirik shaharda esa bir qancha mahalla, mavzedan iborat bo'lgan ma'muriy-hududiy birlik.

DAHABOSHI *tar.* Buxoro xonligida: dahani boshqarish uchun saylab qo'yilgan ma'mur, amin.

DAHO [*a.* - ziyraklik; zakovat; ayyorlik] Favqulodda kuchli aql, xotira va ijodiy iste'dod; shunday fazilatga ega bo'lgan kimsa.

DAHOLIK Daholarga xos fazilatga egalik.

DAHRIY [*a.* - asriy; xudosiz, ateist] **1** Dinga ishonmaydigan kishi; dunyo hodisalarini tabiat qonunlaridan deb biluvchi, materialist. **2** Ollohning borligiga ishonmovchi; xudosiz, shakkok.

DALV [*a.* - chelak; mesh] O'n ikki burjning biri; shamsiya yil hisobida o'n birinchi oyning arabcha nomi.

DALIL [*a.* - belgi, iz; isbot, sabab] *huq.* Jinoyatni tasdiqlovchi narsa, fakt yoki holat.

DALLOL [*a.* - jarchi; vositachi] Sharq mamlakatlarida: savdo-sotiq ishlarida xaridor bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo'yib, ularni kelishtiruvchi kishi.

DALOLATNOMA [*a.* - ko'rsatma; isbot, dali] Biror-bir faoliyatda sodir bo'lgan voqea-hodisa yoki holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha shaxslar tomonidan muayyan shaklda tuzilgan rasmiy hujjat.

DARBADAR [*fors.* - eshikdan eshikka; uy-joysiz; daydi] Muhtojlik tufayli eshikma-eshik yuruvchi; boshqa ellarda g'urbatda kezuvcchi.

DARBADARLIK Daydilik, o'zga ellarda kezishlik.

DAROMAD [*fors.* - kirim; foyda; boshlanish] Savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan davlat yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan pul va b. xil tushumlar; kirim.

DAROMAD SOLIG'I Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning jami daromadlaridan undiriladigan umumdavlat solig'i.

DARVESH [fors. – qashshoq, gado] Tarkidunyo qilgan, go'shanishinlikka berilgan odam; so'fiy.

DARVESHLIK Darveshlarga xos holatda bo'lishlik.

DARVOZABEGI, darvozabon tar. Shahar yoki xon saroyi darvozalarini nazorat qilib turuvchi mansabdor (shaxs).

DASTMOYA [fors. – ozgina pul, mablag'; mo] Savdo-sotiq ishlarida aylantirib turiladigan va shu asosda foyda ko'riladigan dastlabki asosiy mablag'.

DASTUR [fors. – yo'l-yo'ruq, ko'rsatma; tartib-qoida] Siyosiy partiyalar, tashkilotlar, alohida arboblar faoliyatining asosiy qoidalari va maqsadlari bayoni; biron-bir faoliyat, ishning mazmuni va rejasi.

DASTURLASH Kompyuter dasturlarini yaratish, sinash va o'zgartirish jarayoni.

DASTURCHI Kompyuter dasturlarini yaratuvchi, sinovchi va o'zgartiruvchi mutaxassis.

DASTXAT [fors. – qo'l bilan bitilgan] Ma'lum shaxsning o'z qo'li bilan yozgan xati.

DAXLDORLIK Ma'lum ish-harakatga, jarayonga aloqadorlik; sheriklik.

DAXLSIZ Hech kim daxl qila olmaydigan, qo'l tegiza olmaydigan, har qanday qasd va tajovuzdan himoya qilingan.

DAXLSIZLIK Har qanday xavf yoki tajovuzdan himoya etilganlik; aloqasi yo'qlik.

DAXMA [fors. – yer ostidagi sag'ana, qabr] Marhumning qabri ustiga o'rnatilgan yodgorlik; maqbara.

DAVLAT [a. – mamlakat] Jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiluvchi, o'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakat.

DAVLAT APPARATI Bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, muayyan tizimga birlashgan va jamiyat oldida turgan vazifalarini bajarishga safarbar etilgan davlat organlari majmui.

DAVLAT AYBLOVCHISI Jinoyat ishi bo'yicha sudlanuvchiga qo'yilgan aybni sudda davlat nomidan qo'llab-quvvatlaydigan prokuror.

DAVLAT BANKROTLIGI Muayyan mamlakatning ichki va tashqi qarzlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasligining huquqiy oqibati.

DAVLAT BAYROG'I Davlatning asosiy ramzlaridan biri: davlatning rasmiy, boshqa davlatlardan farqlovchi belgisi, emblemasi.

DAVLAT BOJI Davlatning maxsus vakolatli idoralari tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berilganlik uchun olinadigan majburiy to'lovlar.

DAVLAT BOSHIG'I Davlatning ichki va tashqi ishlariga oliy rahbarlikni amalga oshiruvchi shaxs yoki organ; yurtboshi.

DAVLAT BOSHQARUV ORGANI Hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan boshqaruv harakatlari maxsus shakl va usullaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishga, davlat hokimiyati vakolatlariga, davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilot.

DAVLAT BUYURTMASI Davlat talabi bilan korxonalar, tashkilotlar, xo'jaliklarga muayyan mahsulotni belgilangan muddatlarda yetkazib berish, davlat ehtiyojlari uchun tegishli xizmatlar ko'rsatish, xo'jalik aloqalarini davlat tomonidan bevosita boshqarish shakli.

DAVLAT BYUDJETI Davlatning ma'lum vaqt uchun mo'ljallangan, davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi, yo'nalishlari va miqdori aks etadi.

DAVLAT DASTURI Mamlakatni maqsadli va samarali rivojlantirish uchun davlat tomonidan ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar dasturi, rejasi.

DAVLAT GERBI Davlat ramzlaridan biri bo'lib, unda davlatning milliy-siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy va davlat tuzumi, geografik va b. belgilari o'z ifodasini topadi.

DAVLAT HOKIMIYATI Davlat, uning tuzilmalarining ayrim investorlar, kishilar guruhlari yoki butun jamiyat xulq-atvorini davlatning umumiy xohish-irodasiga qonuniy vositalar yordamida bo'ysundiruvchi organi.

DAVLAT HOKIMIYATIGA QARSHI JINOYATLAR O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlarning bir turi bo'lib, ular sud hokimiyatiga qarshi jinoyatlarini, ya'ni odil sudlovga qarshi jinoyatlarini ham qamrab oladi.

DAVLAT KOTIBI Yevropa va Amerikaning bir qator davlatlarida oliy davlat amaldorlarining nomi.

DAVLAT MADHIYASI Davlat gerbi va davlat bayrog'i bilan bir qatorda davlatning rasmiy ramzi hisoblanadigan, she'riy-musiqiy tantanavor asar; gimn.

DAVLAT MOL-MULKI Davlat mulkida turgan moddiy obyektlar. O'zbekiston Respublikasida: respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulkdan) iborat bo'lgan davlat mulki.

DAVLAT MONOPOLIYASI Ma'lum tovarlar ishlab chiqarish, muayyan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha davlatning yagona egalik qilish huquqi.

DAVLAT MUASSASASI Davlat tomonidan tashkil etilgan va vakolatlari davlat tomonidan belgilab qo'yilgan muassasa.

DAVLAT MUKOFOTI Fuqarolar-ni iqtisodiyot, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish, davlat qurilishi, maorif, sog'liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, xayriya faoliyatida-gi ulkan xizmatlari va davlat oldidagi boshqa xizmatlari uchun taqdirlashning oliy shakli.

DAVLAT NAZORATI Davlat organ-lari chiqaradigan qonunlar va b. huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlay-digan davlat hokimiyatini amalga oshi-rish shakllaridan biri.

DAVLAT ORGANI Ijtimoiy hayot-ning aniq bir sohasini boshqarish yu-zasidan davlat vazifalarini bajaradigan va tegishli davlat hokimiyat vakolatla-riga ega bo'lgan tashkilot va muassasa.

DAVLAT PREZIDENTI Boshqa-ruvning respublika shaklida bo'lgan davlatlarda davlat va ijroiya hokimiyat boshlig'i, parlamentar respublikalarda esa faqat davlat boshlig'i.

DAVLAT QARZI Davlatning ichki mablag'i va xorijdan jalb qilingan mab-lag' o'rtasida vujudga kelgan majburi-yatlar yig'indisi.

DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zR Vazirlar Mahka-masi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zR Markaziy bankining obligatsi-yalari.

DAVLAT QO'MITALARI Umumdav-lat boshqaruv vazifalarini bajaradigan sohalararo davlat boshqaruvi markaziy organlari.

DAVLAT RAMZLARI Muayyan bir davlatning milliy suverenitetini ifoda-laydigan, tarixan tarkib topgan alohida belgilari. Davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat madhiyasi davlatning ramzlari hisoblanadi.

DAVLAT SEKTORI Davlatga tegishli bo'lgan, davlat organlari tomonidan bosh-qariladigan va davlat mulkiga asoslangan barcha korxonalar, muassasa va tashkilot-larning umumiy majmui, yig'indisi.

DAVLAT SIRI Davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli mutlaqo maxfiy va harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va b. xil ma'lumotlar.

DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQA-RISH Davlat korxonalari va tashkilotla-rini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish, xususiyashtirish.

DAVLAT TILI Biror mamlakatda ko'pchilik aholi gaplashadigan til bo'lib, u qonun hujjatlari asosida davlat tili si-fatida belgilanadi va u davlat hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning rasman ish yuritish tili hisoblanadi.

DAVLAT TUZUMI Konstitutsiyaviy huquq me'yorlari bilan belgilanadigan va mustahkamlab qo'yiladigan ijti-moiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy mu-nosabatlar tizimi.

DAVLAT TO'NTARISHI Davlat hokimiyatini zo'ravonlik, ya'ni konsti-tutsiyaga zid yo'l bilan egallab olish.

DAVLAT XIZMATI Ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK Davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, shu haqdagi loyihani amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi.

DAVLAT YURISDIKSIYASI Davlatning sud va ma'muriy organlar ishlarini o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqish va hal qilish huquqlari.

DAVLAT ZAXIRASI Davlatning maxsus moddiy boyliklaridan iborat zaxirasi hisoblanib (xomashyoning muhim turlari, yoqilg'i, texnologiya, don mahsulotlari va b.), kelajakda foydalanish uchun saqlab, g'amlab qo'yiladigan narsa.

DAVLAT CHEGARALARI Davlatlar hududini bir-biridan ajratib turuvchi, yer va suv ustidan o'tuvchi chiziqlar; ular muayyan davlatning hududlari nihoyasini aniq belgilab beradi. Davlat chegaralari daxlsiz va ularning buzilishi davlat suverenitetining buzilishi hisoblanadi.

DAVLATLARARO Bir qancha davlat o'rtasida bo'lgan yoki bo'ladigan, bir qancha davlatga tegishli.

DAVLATCHILIK Davlat tuzumi, davlat sifatida uyushishning siyosiy-iqtisodiy, mafkuraviy asos va tamoyillari.

DAVRIY Vaqti-vaqti bilan bo'lib, takrorlanib turadigan, muntazam takrorlanadigan.

DAVRIYLIK Vaqti-vaqti bilan sodir bo'lishlik, takrorlanishlik.

DAYDI Doimiy yashash joyi va aniq kasbi bo'lmagan, bir joyda qo'nim topmaydigan; darbadar; sang'ib yuradigan shaxs.

DAYDILIK Darbadarlik; sang'ib yurishga odatlanganlik.

DAYJEST [ingl. digest – to'plam; ma'lumotnoma; rezyume] **1** Boshqa nashrlar materiallarini qisqartirilgan holda ko'chirib bosuvchi jurnal turi. **2** Ommabop badiiy adabiyot namunalarining qisqacha, sodda bayonidan iborat ommaviy nashr.

DA'VAT [a. – chaqiriq, undash; tashviqot] Ma'lum bir harakatga, ma'naviy, mafkuraviy maslakka undash, chaqirish; rag'batlantirish.

DA'VAT XATI Chaqiruv xati, taklifnoma.

DA'VATNOMA **1** Biror g'oyaviy-ma'naviy maslakka yoki ish-harakatga da'vat etuvchi, undovchi varaqa. **2** Yozma taklif, taklifnoma, taklif xati.

DA'VO [a. – arz, shikoyat, iddao] Buzilgan yoki cheklangan huquqni yoki qonun tomonidan muhofaza qilinadigan manfaatni sud orqali himoya qilish haqida murojaat, arz.

DA'VOGAR Qonuniy manfaatlari buzilgan va shu huquqni tiklash maq-

sadida sudga, arbitraj yoki hakamlar sudiga rasmiy ravishda murojaat qilgan fuqaro yoki yuridik shaxs.

DA'VOGARLIK O'zini da'vo qilishga haqli deb hisoblash; da'volashish.

DA'VOLASHMOQ Bir-biridan haq talab etib, janjallashib yurmoq, o'zaro haq-huquq talashmoq.

DE [*lot. de* - inkorni ifodalovchi old qo'shimcha] **1** Ajratish, uzoqlashtirish, bekor qilish ma'nosini ifodalaydi. **2** Pastga qarab harakatlanishni, pasayishni bildiradi.

DEBAT [*ingl. debate* - munozaralar, bahslar] Dolzarb masalalar bo'yicha tomonlar o'rtasida fikr almashish uchun maxsus tashkil etilgan munozaralar.

DEBENTURA [*lot. debere* - qarzdor bo'lmoq] Bojni qaytarish haqidagi boj-xona guvohtonasi.

DEBITOR [*lot. debitor* - qarzdor] Biror idora, tashkilot yoki muassasadan qarzdor bo'lgan shaxs yoki tashkilot.

DEBITORLIK Qarzdorlik, to'lanadigan qarzlarga aloqadorlik.

DEBITORLIK QARZI Yuridik va jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan qarzlarning miqdori.

DEBYUT [*fr. debut* - boshlanish; dastlabki qadam] Kishining biron-bir sohada birinchi marta o'zini namoyon etishi.

DE-FAKTO [*lat. de facto* - amalda, haqiqatda] Xalqaro huquqda: yangi davlat yoki hukumatning qisman (yuridik jihatdan rasmiylashtirilmagan holda) e'tirof etilishi.

DEFITSIT [*lot. defisit* - yetishmaydi] Tanqislik; kamchilik, kamyob; daro-

madga qaraganda xarajatlarning oshib ketishi.

DEFLYATSIYA [*lot. deflare* - puf-lash, shishirish] Pulning qadrini, sotib olish qobiliyatini oshirish maqsadida inflyatsiya davrida chiqarilgan ortiqcha pul massasining bir qismini muomaladan chiqarish.

DEHQON XO'JALIGI O'zi egalik qiladigan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi subyekt.

DEIZM [*fr. deisme* < *lot. deus* - xudo] Xudoni mukammal tabiat "mashinasi"ni yaratib, unga qonunlar va harakatlarni baxsh etgan, dunyoning yaratuvchisi sifatida tan oluvchi, ammo uning tabiat taraqqiyotidagi rolini inkor etuvchi diniy-falsafiy ta'limot.

DEKADENTLIK [*lot. desadentia* - tanazzul] Tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezish kabi hissiyotlarda o'z aksini topish holatlarini umumiy tarzda ifodalovchi nom.

DEKAN [*lot. desanus* - o'nboshi] Oliy o'quv yurtida fakultet rahbari.

DEKANAT Oliy o'quv yurtlarida dekan rahbarligida fakultetni boshqaruvchi ma'muriy-ilmiy bo'linma.

DEKLARATSIYA [*lot. declaratio* - ma'lum qilish, bildirish, e'lon qilish] **1** Xalqaro huquqda va siyosat sohasida tomonlar (bir necha hukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro tashkilotlar va b.lar) tarafidan ma'qullangan dasturiy hujjat; muhim xalqaro voqea, qonun va b.lar yuzasidan umum e'tiboriga

yetkaziladigan bayonot; asosiy umum-siyosiy tamoyillarni tantanali e'lon qilish. **2** Soliqqa tortiladigan fuqaroning muayyan davrda olgan daromadlari turi va miqdori haqidagi ma'lumotnomasi.

DEKRET [lot. decretum - qaror; to'xtam] Oliy hokimiyat yoki boshqaruv organi chiqargan, qonun kuchiga ega bo'lgan muhim qaror, farmon.

DELEGAT [lot. delegatus - yuborilgan, yo'llangan] Ma'lum korxonada, biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

DELEGATSIYA [lot. delegatio - yuborish, tayinlash] Biror tashkilot yoki davlat tomonidan belgilangan, yuborilgan vakillar guruhi.

DELIKT [lot. delictum - huquqni buzish] Qonunbuzarlik; noqonuniy ish, xatti-harakat, jinoyat.

DELIMITATSIYA [fr. delimitation < de.. + lot. limitare - chegaralamoq, ajratmoq] Davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofiq tavsiflash va xaritalashtirish asosida belgilash; belgilangan chegaralarni qayta ko'rib chiqish.

DEMAGOG [yun. demagogos - xalq dohiysi] Yunonistonda xalqni orqasidan ergashtirgan siyosiy guruh rahbari; demokratik kayfiyatdagi siyosiy arbob; keyinchalik bu so'z salbiy ma'no olgan.

DEMAGOGIYA [yun. demos - xalq + ago - boshlayman] Yolg'on-yashiq va'dalar berish, laqillatish, xushomadlar qilish yo'li bilan ommani o'ziga moyil qilish; g'arazli, ko'pincha siyosiy maq-

sadlarni yashirgan holda balandparvoz muhokama yuritish.

DEMARKATSIYA [fr. demarcation - ajratish] Qo'shni davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra mamlakatlar orasidagi chegarani aniqlash, belgilash.

DEMARKATSIYA CHIZIG'I *harb., siyos.* Urushuvchi tomonlarning qo'shinlarini bir-biridan ajratib turgan muvaqqat chegara; urushda yengilgan mamlakat hududini ishg'ol qilingan zonalarga bo'luvchi chiziq, doira.

DEMARSH [fr. demarche - chiqish; xuru] Biror davlat tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik vakillarining biror masala bo'yicha boshqa davlatga norozilik, iltimos, taklif yoki ogohlantirish bilan murojaat qilishi.

DEMILITARIZATSIYA [de.. + lot. militaris - harbiy] **1** Xalqaro huquqda: biror davlat yoki hududda armiya saqlashni, qurol-yarog' ishlab chiqarishni, istehkomlar, harbiy bazalar qurishni man etish; qurolsizlantirish. **2** Urush tamom bo'lgandan yoki xizmat muddatini o'tab bo'lgandan keyin harbiy xizmatdan bo'shatish yoki zaxiraga o'tkazish.

DEMobilizatsiya [de.. + lot. mobilis - harakatchan] Shartnomaga binoan, muayyan hududdagi harbiy istehkomlar va inshootlarni yo'qotish hamda shu hududda harbiy bazalar va qurolli kuchlar saqlashni taqiqlash.

DEMOGRAFIK SIYOSAT Aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, aholining miqdoriy o'sishini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

DEMOGRAFIYA [*yun.* demos – xalq + grapho – yozaman] Muayyan hudud, mamlakat, birdan ortiq mamlakatlar yoki dunyo aholisi o'zgarishlarini (soni, geografik taqsimlanishi, tarkibi, o'lish, tug'ilish jarayonlarini) o'rganuvchi fan tarmog'i.

DEMOKRAT Demokratiya tarafdori, demokratiya uchun, xalqning siyosiy ozodligi va huquqi uchun kurashuvchi; xalqparvar.

DEMOKRATIK Demokratiya tamoyillariga asoslangan, demokratiyani amalga oshiruvchi; demokratiya tamoyillarini himoya qiluvchi.

DEMOKRATIK SENTRALIZM *tar.* Sobiq sho'rolar davrida davlat ishlariga rahbarlik qilish prinsiplaridan biri bo'lib, yagona bir markazga bo'ysundirilgan va uning ko'rsatmalari asosida faoliyat yuritadigan boshqaruv tizimini bildiradi.

DEMOKRATIYA [*yun.* demokratia – xalq hokimiyati < demos – xalq + kratos – hokimiyat] Davlat bilan inson munosabatlarini belgilovchi, fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum.

DEMOKRATIZM Demokratiya va uning tamoyillarini e'tirof etish va uni amalga oshirish.

DEMOKRATLASHTIRMOQ Demokratik tartibotlarni hayotga olib kirmoq, demokratik tamoyillar asosida barpo qilmoq.

DEMONOPOLIZATSIYA [*de..+ yun.* mono – yakka, tanho + poleo – sotaman]

Iqtisodiyotda monopoliyadan erkin, teng huquqli raqobatga asoslangan egalik faoliyatiga qaytish; monopoliyadan chiqarish.

DEMPING [*ingl.* dumping – arzon eksport] Tovarni tashqi bozorda ichki bozordagiga qaraganda pastroq narxda sotish.

DENATSIONALIZATSIYA [*de..+ natsionalizatsiya*] Davlat mulk obyektlarini xususiy lashtirish; davlat ixtiyoridagi mulklarni xususiy mulkka aylantirish.

DENATURALIZATSIYA [*fr.* denaturalization – fuqarolikdan mahrum bo'lish] Shaxs tomonidan biron-bir davlat fuqaroligini yo'qotish; fuqarolikdan chiqarish.

DENOMINATSIYA [*lot.* denominatio – qayta nomlash] Valyutaning barqarorligini oshirish va hisob-kitobni ixchamlashtirish maqsadida qog'oz pullarning qiymatini pasaytirish; eski pulni ma'lum nisbatda yangi pulga almashtirish.

DENONSATSIYA [*fr.* denoncer – e'lon, ma'lum qilmoq] Davlat tomonidan ilgari imzolangan xalqaro shartnoma ning bir tomonlama bekor qilinishi yoki undan chiqish.

DEPARTAMENT [*fr.* departement – boshqarma, idora] **1** Fransiya va b. ayrim mamlakatlarda asosiy ma'muriy-hududiy birlik. **2** Ayrim davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda: mahkama, idora va vazirliklar yoki ular tarkibidagi bo'linmalar nomi.

DEPESHA [*fr.* depeche – shoshilinch xabar] Diplomatik yoki harbiy shoshilinch xabar, shoshilinch ma'lumot.

DEPONENT [lot. deponentis – joylashtiruvchi] **1** Davlat muassasasiga vaqtincha saqlash uchun qimmatbaho buyum yoki mablag' qo'ygan shaxs yoki tashkilot. **2** O'ziga tegishli pul daromadi yoki to'lovlarni o'z muddatida olmagan shaxs va olinmagan ana shunday mablag'.

DEPORTATSIYA [lot. deportatio – badarg'a qilish, haydash; surgun] Jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida ijtimoiy-siyosiy jihatdan xavfli kishi yoki kishilarni doimiy yashash joyidan ko'chirib yuborish.

DEPOZIT [lot. depositum – saqlashga qo'yilgan buyum, omonat] Kredit muassasalariga saqlash va foydalanish uchun vaqtincha qo'yilgan pul yoki qimmatbaho qog'ozlar.

DEPOZIT SERTIFIKATI Bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikat bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyali qimmatli qog'oz.

DEPOZITAR OPERATSIYALAR Hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

DEPOZITAR TILXATLAR Nominal qiymatga ega bo'lmagan qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi; uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan de-

pozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishni hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarining depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

DEPOZITARIY [fr. depositaire] **1** Depozitlarga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. **2** Xalqaro shartnoma ning asl nusxasini, uning tasdiqlangani haqidagi hujjatlarni saqlovchi davlat yoki xalqaro tashkilot.

DEPOZITOR ayn. **deponent 1**.

DEPUTAT [lot. derutatus – vakil etilgan, yuborilgan] Xalqning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlaridagi ishonchli vakili; davlat vakillik organining saylab qo'yilgan a'zosi.

DEPUTAT SO'ROVI Deputatning tegishli hududda joylashgan hukumatdan yoki ayrim vazirdan hukumatning umumiy siyosati masalalari yoki muayyan tadbirlar bo'yicha rasmiy tushuntirishni talab qilish huquqi.

DEPUTATLAR DAXLSIZLIGI Demokratiya tamoyillariga ko'ra, davlat hokimiyati vakolatli organlarining deputati shu organning rozligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

DEPUTATLARNING FRAKSIYALARI Deputatlarning o'zaro kelishuv asosida tashkil topgan birlashmalari. Deputatlarning siyosiy qarashlari bo'yicha

rasmiy fraksiyalar, bloklarning doimiy va muvaqqat deputatlar guruhlariga birlashishi.

DESANT [*fr.* descente – tushirish] Dushman egallagan hududda jang olib borish uchun tuzilgan va shu hududga samolyot va vertolyotdan tushirilgan qo'shin.

DESANTCHI Desant qo'shinlarining jangchisi; biror g'arazli maqsadda favqulodda jo'natilgan shaxs.

DESPOTIYA [*yun.* despoteia – cheklanmagan hokimiyat] Mustabid davlat; hech qanday qonun bilan huquqi cheklanmagan mustabid podsho, despot qo'lidagi davlat; cheklanmagan monarxiya.

DESPOTIZM [*yun.* despoteia – cheklanmagan hokimiyat] Zolimlik, zo'ravonlik qilish, xo'rlash; huquqi cheklanmagan, mustabid podsho boshliq bo'lgan davlat idora usuli; mustabidlik.

DETERMINIZM [*lot.* determinare – aniqlamoq; qismlarga ajratmoq] Barcha hodisalarning o'zaro obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

DEVALVATSIYA [*de.* + *fr.* evaluation – baho, narx; qiymat] **1** Milliy valyuta qiymatining chet el valyutalari kursiga nisbatan pasayishi. **2** Muomaladagi qadrsizlangan pullarni bekor qilib, boshqa biletlar bilan almashtirish; pul islohoti.

DEVON [*fors.* – davlat idorasi, sud mahkamasi] *tar.* Davlatning bosh idorasi.

DEVONBEGI *tar.* O'rta asrlarda Buxoro va Xiva xonliklarida: xon saroyida

kirim-chiqim, pul va oziq-ovqat hisobini olib boruvchi amaldor.

DEVONXONA *ayn.* devon.

DE-YURE [*lot.* de jure – qonuniy, rasmiy] Qonunga asoslangan huquq; xalqaro huquqda: davlat va hukumatning to'la e'tirof etilishi.

DEZERTIR [*lot.* desertor – qochoq] Xizmat qilayotgan harbiy qismini o'zboshimchalik bilan tashlab ketgan yoki harbiy xizmat chaqiruvidan bo'yin tovlagan shaxs; qochoq.

DEZINFEKSIYA [*de(s)*... + *lot.* inficere – buzmoq, zararlamoq; yuqtirmoq] Ma'lum bir obyektida infeksiyon kasalliklar, toksin moddalar va ayrim mikroblar va viruslarni yo'q qilish uchun amalga oshiriladigan ishlar majmui.

DIALEKTIK MATERIALIZM Materializm va dialektikaning uzviy birligidan tashkil topgan marksizmning falsafiy ta'limoti.

DIALEKTIKA [*yun.* dialektike – suhbatlashish, bahs qilish] **1** Tabiat, kishilik jamiyati va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan. **2** Biror narsaning harakati, rivojlanishi, taraqqiyot jarayoni. **3** Tabiat va jamiyatning abadiy harakatlanib va o'zgarib turuvchi ichki ziddiyatlari, qarama-qarshiliklarini ochish hamda bu ziddiyatlar o'rtasidagi doimiy aloqadorlik va kurash mohiyatini aniqlash.

DIASPORA [*yun.* diaspora – tarqalish; yoyilish] Zo'rlab, majburlab ko'chirish, genotsid xavfi va b. ijtimoiy-tarixiy, diniy sabablarga ko'ra o'z vatanidan boshqa mamlakatda yashovchi etnik guruh.

DIDAKTIKA [*yun.* didaktikos – ibratli; o'rgatuvchi] Pedagogikaning ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tarmog'i.

DIFFAMATSIYA [*lot.* diffamare – haqorat qilmoq, yaxshi nomdan mahrum qilmoq, kamsitmoq] Biror fuqaro yoki yuridik shaxsning sha'nini haqoratlaydigan, haqiqiy yoki shubhali ma'lumotlarni ommaviy tarqatish.

DIKTAT [*nem.* Diktat < *lot.* dictatus – buyruq; buyurilgan] **1** Zaif davlatga majburan yuklatilgan xalqaro bitim. **2** Biron bitim tuzishda kuchli imperiya tomonidan zaif davlatga o'z shart va talablarini o'tkazish siyosati; zo'ravonlik.

DIKTATOR [*lot.* dictator – mutlaq hokimiyat egasi] Qadimgi Rimda yuqori lavozimdagi shaxs; cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan hokim, yakka hukmdor; biror sohada, masalada o'z hukmini, so'zini o'tkazuvchi shaxs.

DIKTATURA [*lot.* dictatura – diktatorlik; cheklanmagan hokimiyat] Davlat hokimiyatini nodemokratik, siyosatda zo'ravonlik va terror usullari bilan amalga oshirish; totalitar rejim.

DILER [*ingl.* dealer – birja dalloli, agent] Qimmatli qog'ozlar, valyutalar, qimmatbaho materiallar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi, o'z nomidan va o'z mablag'i hisobidan harakat qiluvchi fond birjasi a'zosi, jismoniy shaxs yoki firma.

DILERLIK Qimmatli qog'ozlar bozoridagi kasbiy faoliyat turlaridan biri; diler kasbi.

DIN [*a.* – e'tiqod, ishonch] Insonning ilohiy kuchga, Xudoga ishonch tuyg'usi bo'lib, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui.

DINDOR Dinga ishonuvchi va unga e'tiqod qiluvchi; xudojo'y.

DINIY Dinga tegishli bo'lgan, dinga oid.

DINIY EKSTREMIZM Ayrim diniy tashkilotlar yoki Ba'zi dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati. Diniy ekstremizm ko'pchilik dinlarda mavjud bo'lib, uning tarafdorlari o'z oldiga siyosiy maqsadlarni qo'yadi, ya'ni Islom davlatini barpo qilish va jamiyatni to'lig'icha islomlashtirish kabilar.

DINIY E'TIQOD Insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilovchi tushuncha.

DINOR [*a.* – tilla pul] Qadimda musulmon mamlakatlarining oltin tangasi; hozirda bir qator arab mamlakatlarida amal qiluvchi pul birligi.

DINSIZ Dinga, Xudoga ishonmovchi; kofir, shakkok.

DIPLOM [*fr.* diplome < *yun.* diploma – ikki buklangan varaq, hujjat] Ma'lum bir o'quv yurtini tugatganligi yoki biror ilmiy unvon, ilmiy daraja berilganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

DIPLOMANT Oliy o'quv yurtini bitirish vaqtida diplom ishi yozayotgan talaba.

DIPLOMAT [*yun.* diploma – ikki buklangan varaq, hujjat] Ma'lum bir davlatning xorijiy davlatlar bilan rasmiy

aloqalarini yuritib turadigan va buning uchun o'z hukumati tomonidan vakil qilib yuborilgan lavozimli shaxs, elchi.

DIPLOMATIK AGENT Elchixonona, vakolatxonona va diplomatik missiya boshlig'i xizmatchisi.

DIPLOMATIK AKT Turli xil diplomatik xatti-harakatlarni bajarish tartibini yo'lga qo'yuvchi qoidalar majmui.

DIPLOMATIK BOSH PANNA Biron-bir shaxsga, siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib qilinganida, xorijiy diplomatik vakolatxonada yashirinish imkonini berish.

DIPLOMATIK IMMUNITET Xalqaro huquqda: chet el diplomat vakillariga, maxsus missiyalarga, davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi vakillariga, ularning rahbarlari va xodimlariga beriladigan huquq va imtiyozlar majmui.

DIPLOMATIK KORPUS Ma'lum mamlakatda akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalarning barcha diplomatik xodimlari.

DIPLOMATIK MISSIYA Xalqaro huquqda: elchi yoki ishonchli vakil boshchilik qiladigan diplomatik vakolatxonona turi.

DIPLOMATIK NOTA Diplomantik yozishmaga oid hujjat. Xalqaro amaliyotda bu hujjatning ikki turi: shaxsiy va verbal nota turlari ishlatiladi.

DIPLOMATIK VAKILLIK Davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaradigan elchixonona yoki missiya.

DIPLOMATIK VAKOLATXONA O'zaro kelishuv asosida bir davlatning boshqa davlat hududida yoki xalqaro tash-

kilot qoshida doimiy rasmiy aloqalarni davom ettirish maqsadida ta'xis etilgan tashqi aloqalar xorijiy davlat organi.

DIPLOMATIK YOZISHMALAR

Davlatlar, hokimiyatlar, tashqi ishlar tashkilotlarining, chet el davlatlari, bu davlatlarning vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalarning o'zaro barcha rasmiy yozishmalari.

DIPLOMATIYA [*yun.* diploma – ikki buklangan qog'oz varag'i] Davlatning tashqi xalqaro siyosatni amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati.

DIPLOMATIYA TILI Diplomantik aloqalar va shartnomalarda umumiy qoidaga binoan o'z milliy tillaridan hamda BMT Bosh assambleyasida rasmiy ish yuritiladigan olti tildan, ya'ni arab, ingliz, ispan, rus, fransuz va xitoy tillaridan foydalaniladi.

DIREKSIYA [*lot.* directio – yo'naltirish, yo'l ko'rsatish] Tashkilot, korxonona, muassasa, o'quv dargohlarining direktor boshchiligidagi rahbarlik apparati; shu apparat o'rnashgan xona, bino.

DIREKTIV Yo'naltiruvchi, rasmiy yo'l-yo'riq ko'rsatib beradigan, dastur bo'lib xizmat qiladigan, dasturiy.

DIREKTIVA [*fr.* directive < *lot.* dirigere – yo'llamoq] Yuqori rahbar organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo'l-yo'riq, ko'rsatma.

DIREKTOR [*lot.* director < dirigere – yo'naltirmoq] Korxonona, tashkilot, muassasa yoki o'quv dargohining rahbari.

DIREKTORLAR KENGASHI Yirik korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlarining saylanadigan rahbar ijroiya organi.

DIREKTORLIK Direktor vazifasini bajarishlik.

DISKRIMINATSIYA [*lot.* discriminatio – ajratish, farqlash] Xalqaro va milliy munosabatlarda davlatning, yuridik yoki jismoniy shaxslar huquqlarining boshqa davlatlar, yuridik yoki jismoniy shaxslar huquqlariga nisbatan cheklanishi, kamsitilishini anglatadigan umumhuquqiy termin.

DISKUSSIYA [*lot.* discussio – muhokama qilish] Munozarali masalani to'g'ri hal qilish uchun matbuotda yoki ilmiy yig'inlarda o'tkaziladigan erkin, ommaviy muhokama.

DISSERTANT [*lot.* dissertantis – tushuntiruvchi] Ilmiy daraja olish maqsadida o'z ilmiy ishi – dissertatsiyasini maxsus ilmiy kengash majlisida himoya qilish uchun taqdim etuvchi, himoya qiluvchi shaxs.

DISSERTATSIYA [*lot.* dissertatio – fikr yuritish, tadqiq qilish] Ilmiy daraja olish maqsadida yoziladigan va maxsus ilmiy kengash majlisida himoya qilish uchun taqdim etiladigan ilmiy-tadqiqot ishi.

DISSIDENT [*lot.* dissidentis – qarshilik qiluvchi] O'zgacha fikr yurituvchi, hukmron tuzum, mafkura bilan kelishmaydigan; bir qator mamlakatlarda mavjud tuzumga qarshi bo'lganlarning umumiy nomi.

DIVERSIFIKATSIYA [*lot.* diversificatio – o'zgarish] Korxonalarning turli

variantlardagi taraqqiyoti, ya'ni ishlab chiqarishning mukammallashuvi, mahsulot va xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish, iqtisodiy foyda olish, yuqori foyda beradigan sohalarga kirib borish.

DIVERSIFIKATSIYALASH [*lot.* diversificatio – o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot] Ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va b. maqsadlarda amalga oshiriladigan, korxonalarining faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi va yangilanib turishi.

DIVERSIYA [*lot.* diversio – chalg'itish, diqqatni tortish] Biror mamlakatning harbiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarini buzish, portlatish, vayron qilish maqsadida chet el agentlari yoki dushman tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan qo'poruvchilik harakati.

DIVIDEND [*lot.* dividendum – taqsimlangan narsa] Aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi.

DIVIZIYA [*lot.* divisio – bo'linish] Ko'pgina davlatlarning turli xildagi qurolli kuchlari va qo'shin turlarida asosiy taktik birlashma.

DODXOH [*fors.* – da'vogar; odillik istovchi] **1 esk.** Adolat istovchi, da'vogar. **2 tar.** Qal'a boshlig'i, qo'rboshi. **3 tar.** Qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor. **4 tar.** Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilar-

dan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi.

DOGMATIK Qotib qolgan aqidalar tarafdori, aqidaparast.

DOGMATIZM Eskirgan, qotib qolgan nazariya va qonun-qoidalarga tanqidiy nuqtayi nazardan qaramay, aniq sharoitni hisobga olmay, ko'r-ko'rona fikr yuritish; aqidaparastlik.

DOKTOR [lot. doctor – o'qituvchi, ustoz] **1** Bemorlarni davolovchi oliy ma'lumotli tibbiyot xodimi; shifokor. **2** Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga beriladigan oliy ilmiy daraja va shu darajani olgan olim.

DOKTORANT [lot. doctorantis – ta'lim olayotgan] Doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun biror ilmiy muassasaga birlashtirib qo'yilgan ilmiy xodim.

DOKTORANTURA Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash shakli.

DOKTRINA [lot. doctrina – ta'limot] Ilmiy yoki falsafiy nazariya; asosiy nazariy yoki siyosiy nuqtayi nazar.

DOLLAR [ingl. dollar – oltin yoki kumush tanga < nem. Taler] Amerika Qo'shma Shtatlarining, shuningdek, Avstraliya, Kanada, Malayziya, Singapur kabi 30 ga yaqin katta-kichik davlatlarning pul birligi.

DONISHMAND [fors. – olim, bilimli, dono] O'qimishli, bilimli, dono, shuningdek, ba'zi voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qila oladigan; olim.

DONISHMANDLIK Bilimlilik, donolik, aql-u zakovatga egalik.

DOPING [ingl. doping – narkotik iste'mol qilish] Sport o'yinlari natijalarini yaxshilash maqsadida qo'llanadigan, organizmning ruhiy va jismoniy faoliyatini qisqa muddatga kuchaytiradigan moddalar.

DOTATSIYA [lot. dotatio – hadya, tuhfa] Ma'lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir subyekti tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan berilgan pul, mablag'.

DOTSENT [lot. docens, docentis – ta'lim beruvchi] Ba'zi mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ilmiy unvoni va lavozimi.

DONGDOR Xalq orasida tanilgan, dong chiqargan, dovrug'i ketgan; mashhur.

DUALIST Dualizm, ya'ni dualistik qarash tarafdori.

DUALISTIK MONARXIYA Konstitutsiyaviy monarxiyaning ikki turidan biri bo'lib, mutlaq monarxiyadan parlamentar monarxiyaga o'tishning tarixiy shakli hisoblanadi. Bunda monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklab qo'yiladi, ammo monarx ham rasman, ham amalda keng hokimiyat vakolatlarini saqlab qoladi va mazkur davlat siyosiy tizimining markazida turadi. Bunday sharoitda hukumat rasman monarx va parlament oldida javobgar bo'ladi, lekin amalda, qoida tariqasida, faqat monarxga bo'ysunadi.

DUALIZM [lot. dualis – ikki yoqlama, qo'shaloq] Plyuralizm ko'rinishlaridan biri: bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik

tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot.

DUBLIKAT [*lot.* duplicatus – ikkilangan] Biror yozma hujjatning asl nusxasi bilan bab-baravar rasmiy, yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa nusxasi.

DUEL [*fr.* duel – olishuv, jang < *lot.* duellum] Ikki shaxsning or-nomus talashib, ma'lum shartlar asosida yakka-ma-yakka kurashi, qilichbozlik qilishi yoki otishuvi.

DUNYO [*fors.* – jahon, olam] **1** Yer kurrasi va undagi barcha mavjudot; butun borliq; olam. **2** Ma'lum bir ijtimoiy tuzumga, o'ziga xos madaniy, ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilik jamiyati. **3** Diniy tasavvurlarga ko'ra yerdagi va oxiratdagi hayot.

DUNYOQARASH Tabiat va jamiyatga, ularning ayrim voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimi.

DUNYOVIY Real, moddiy dunyoga, hayotga oid, hayotiy.

DUNYOVIY DAVLAT Davlat bilan din o'rtasidagi nisbat, ya'ni davlatning dinga munosabati, dindan xoli bo'lishi va rivojlanishi tushuniladi. Hech bir dinga davlat dini, rasmiy din maqomi berilmaydi, dinning siyosiy lashuviga yo'l qo'yilmaydi, ta'lim tizimi va davlat boshqaruvini din ta'siridan xoli qilib, o'z yurisdiksiyasida tutuvchi davlat hisoblanadi.

DUO [*a.* – iltijo, chaqirish, da'vat] Xudoga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar

uchun uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarishni so'rash.

DUOGO'Y [*a.* + *fors.*] Duo qiluvchi, duo o'quvchi; duolar o'qib yoki yozib, go'yo ins-jinslarni qaytaruvchi, shu yo'l bilan kasalliklarni davolovchi shaxs.

DUOXONLIK Duo o'qish, dam solish bilan shug'ullanish.

DURRONIYLAR *etn.* Afg'on millatini tashkil etuvchi yirik qabilalar uyushmasi.

DUSHMAN [*fors.* – yov; muxolif; badxoh] **1** Dunyoqarashi, manfaatlari, xatti-harakati bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, o'zaro g'anim, raqib sifatidagi tomonlarning har biri. **2** *harb.* Bir-biriga qarshi urush e'lon qilgan tomonlardan har biri.

DO'ST [*fors.* – o'rtoq, oshno; yor] Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o'rtoq.


DO'STLARCHA Do'stlarga xos ravishda; do'stona.

DO'STLIK Do'st maqomida bo'lishlik.

DO'STONA Do'st kabi, do'stlarcha, do'stlik bilan.

DO'ZAX [*fors.* – jahannam] Ko'pchilik diniy ta'limotlarga ko'ra: din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy; jahannam.

DO'G'LAT *etn.* O'zbek xalqi tarkibiga kirgan qadimiy turkiy qabilalardan biri.



EGALIK QILISH HUQUQI Mulk huquqining tarkibiy qismi: mulkdorning yoki mulkka qonuniy asoslarda egalik qiluvchi (mas., ijarachi)ning mol-mulki o'z qo'lida, ixtiyorida yoxud o'z xohish-irodasini amalga oshirish uchun zaruriy ta'sir doirasida ushlab turishi, saqlab turishi.

EGASIZ MOL-MULK Qonun bo'yicha ham, vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmasa yoki merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa, yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

EGOIZM [*fr.* egoisme < *lot.* ego - men] O'z foydasi, manfaatini ko'zlovchi xatti-harakat, o'z manfaatini boshqa kishilar manfaatidan ustun qo'yish.

EGOTSENTRIZM [*lot.* ego - men + centrum - markaz, o'rtalik] Manmanlik va xudbinlik (egoizm)ning uchiga chiqqan shakli: shaxsning faqat o'z qiziqish doirasigagina bog'lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, faqat o'z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo'yishdan iborat xislati.

EGRI SOLIQLAR Tovarlar, ishlar va xizmatlarga narx yoki tarifga qo'shimcha shaklida belgilanadigan soliq.

EHROM [*a.* - chegaralanish, ibodat holatiga o'tish] **1** Musulmonlarning katta va kichik haj qilish vaqtidagi alohida xolati. **2** Ehrom holatiga kirganda tanaga o'raladigan mato.

EHSON [*a.* - yaxshilik, samimiylik, muruvvat; xayr-sadaqa] **1** Xayrli, savobli ish. **2** *din.* Xudo yo'lga beriladigan ziyofat, xayr-sadaqa, xayr-saxovat, xayr-ehson, xudoyi. **3** Umuman, hadya, in'om.

EHTIYOT CHORALARI O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, ehtiyot choralari ayblanuvchining sud surishtiruvidan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish; uning ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlarga yo'l bermaslik.

EKLEKTIZM [*yun.* eklektikos - tanlovchi, saylab oluvchi] Turlicha, hatto bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikr, qarash, g'oya va nazariyalarni birlashtirishga urinish, prinsipsizlarcha qorishtirib yuborish.

EKOLOGIK BARQARORLIK Inson faoliyati va tabiat "injiqlik"lari (zilzila, toshqin, sunami va b.)ning atrof muhitga ta'sir etmaydigan darajasi, ya'ni ma'lum bir hudud, kenglik va mintaqada ekologik xavfsiz muhit holatini bir me'yorda ushlab turish.

EKOLOGIK HUQUQ Tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi fan.

EKOLOGIK JAVOBGARLIK Ekologik xavfsiz muhitni ta'minlashdagi davlat, jamiyat va shaxslarning kelajak avlodlar oldidagi burchlari, majburiyatlari hamda ularning bajarilmasligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik xarakterdagi oqibatlariga ko'ra javobgarligi.

EKOLOGIK JINOYATLAR Atrof tabiiy muhitga ijtimoiy xavfli zarar yetkazadigan qilmishlar yig'indisi.

EKOLOGIK NAZORAT Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarining bajarilishini tekshirish.

EKOLOGIK SISTEMA Tirik organizmlar va ularning yashash muhitlaridan hosil bo'ladigan yaxlit kompleks.

EKOLOGIK TIZIM Tabiat qonunlariga mos ravishda o'zaro uzviy funksional bog'langan tirik organizmlar va ularning yashash muhiti, elementlari yig'indisi.

EKOLOGIK URUSH Raqibga uning hududiga ta'sir qilish orqali zarar yetkazish (havo, suv, tuproqni ifloslantirish yoki flora va faunasini yo'q qilish).

EKOLOGIYA [*yun.* oikos – vatan, uy+ logos – fan, ta'limot] Birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo'lgan munosabatini, shuningdek, odam va biosfera o'rtasidagi o'zaro munosabat masalalarini o'rganuvchi fan.

EKOSAN ["ekologik sanitariya" birikmasining qisqartmasi] Xalqaro ekologiya va salomatlik tashkiloti.

EKSPANSIYA [*lot.* expansio – kengaytirish, yerini kengaytirib yuborish] Davlatlarning, ijtimoiy guruhlar yoki tashkilotlarning o'zga hudud va bozorlar, xomashyo manbalariga nisbatan kuch ishlatish yoki boshqa vositalar orqali o'z siyosiy va iqtisodiy ta'sir doirasini kengaytirish yo'lidagi harakati.

EKSPANSIYACHI Ekspansiya siyosatini yurituvchi, ekspansiya tarafdori.

EKSPATRIANT Vatanini tark etishga majbur bo'lgan va fuqaroligini yo'qtongan shaxs.

EKSPATRIATSIYA [*lot.* ex – -dan + patria – vatan] Kimsaning ixtiyoriy yoki majburiy ravishda, ko'pincha fuqarolikdan mahrum bo'lgan holda, vatanidan tashqariga ko'chirib yuborish.

EKSPERIMENT [*lot.* experimentum – tajriba; sinov] Aniqlash, sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladigan ilmiy tajriba; sinov ishlari.

EKSPERT [*lot.* expersus – tajribali] Ilmiy muassasalar tomonidan eksperiza o'tkazish uchun chaqirilgan mutaxassis.

EKSPERTIZA [*fr.* expertise < *lot.* expersus – tajribali; sinalgan] Qiyin yoki chigal masalani yechish va hal

qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirish o'tkazuvchi mutaxassislar hay'ati.

EKSPLUATATOR [fr. *exploiteur*] Boshqalarning kuchidan, mehnatidan foydalanuvchi mulkdor shaxs.

EKSPLUATATSIYA [fr. *exploitation* < *lot. explicitare* - foydalanmoq, ishlatmoq] **1** Ishlab chiqarish vositalari egalarining o'zgarar mehnati mahsulini o'zlashtirib olishi. **2** Tabiiy boyliklarni qazib olib, ulardan foydalanish; yer, sanoat korxonalarini, transport vositalari, binolar va sh. k.lardan foydalanish, ularni ishlatish.

EKSPORT [ingl. *export* < *lot. exportare* - chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] Sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish va chiqarilgan mol, kapital.

EKSPORT KVOTASI Eksporning iqtisodiyot, uning ba'zi tarmoqlari uchun ahamiyatini ko'rsatuvchi miqdor ko'rsatkichi.

EKSPPROPRIATSIYA [fr. *expropriation* < *lot. ex* - dan + *proprius* - shaxsiy, xususiy] siyos. Davlat organlari tomonidan majburiy ravishda (haqini to'lab yoki tekin) mulkdan mahrum etish.

EKSTERN [lot. *externus* - sirtqi; chet, begona] O'quv yurtida: o'qimasdan, mustaqil tayyorlanib, imtihon topshiruvchi kishi.

EKSTERRITORIALLIK [lot. *ex* - dan, tashqari + *territoralis* - ma'lum hududda joylashgan] *jur.* Xalqaro huquqda: davlatlar tomonidan diplomatik vakil-

larga o'zaro beriladigan huquq va imtiyozlar: shaxs va turarjoy daxlsizligi, mahalliy sudlar tomonidan sud qilinmaslik va sh. k.

EKSTRADITSIYA [fr. *extradition* < *lot. ex* - dan, tashqari + *traditio* - topshirish, berish] Muayyan chet davlat qonunlarini buzgan shaxsni shu davlatga topshirish.

EKSTRASENS [lot. *extra* - dan tashqarida, ortiq + *sensitivus* - ta'sirchan, sezgir] Atrof muhitni, borliqni (sezgi a'zolari ishtirokisiz) idrok qilish hamda o'zga kishilar va hayvonlarga ta'sir ko'rsatishda g'ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lgan shaxs.

EKSTREMIST Ekstremizm tarafdori, keskin fikr va choralarni yoqlovchi, amalga oshiruvchi.

EKSTREMISTIK Ekstremizmga oid, ekstremizmga moyil bo'lgan.

EKSTREMIZM [lot. *extremus* - eng oxirgi, ashaddiy, keskin] Siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo'l tutishga, keskin choralar ko'rishga tarafdorlik.

EKZEKVATURA [lot. *exsequare* - aniqlamoq, belgilamoq; bajarmoq] **1** Konsulni qabul qilayotgan davlat tomonidan uning tan olinishi to'g'risidagi rasmiy hujjat. **2** Muayyan mamlakatda boshqa davlatlarda chiqarilgan sud qarorining ijro etilishi.

EKZOGAMIYA [yun. *exo* - tashqari + *gamos* - nikoh] Ibtidoiy jamiyatda bir urug' yoki jamoa a'zolari orasida nikohning, jinsiy munosabatlarning taqiqlanganligi.

EKZOTIKA [yun. exotikos – begona, o'zga yerli] Bir mamlakatga xos bo'lib, boshqa uzoq mamlakat xalqiga qiziq, g'alati, g'ayrioddiy bo'lib ko'rinadigan narsalar, urf-odatlar.

ELAT 1 Kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi. **2** Bir qabilaga, urug'ga mansub kishilar (bir-biriga nisbatan).

ELBEGI El, elat boshlig'i, sardor.

ELDOSH Bir joyda yashovchi, bir elga mansub kishilar (bir-biriga nisbatan).

ELEKTORAL ADLIYA Ba'zi davlatlarda saylov kampaniyalari, davlat organlariga saylovlar bilan bog'liq nizolarini ko'rib chiqish va hal qilish maqsadida tashkil etilgan maxsus sud organlari.

ELEKTORAT [ingl. electorate – saylovchilar kontingenti < lot. elector – saylovchi] Barcha saylovchilarning umumlashgan nomi.

ELEKTR STUL Amerikalik Jorj Vestingauz tomonidan ixtiro etilgan, o'lim jazosiga hukm etilgan mahkumlarni elektr toki orqali qatl etishga mo'ljallangan stul.

ELEKTRON DAVLAT XIZMATI Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan davlat xizmati.

ELEKTRON HUJJAT Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

ELEKTRON HUKUMAT Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxs-

larga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishiga doir faoliyati, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

ELEKTRON MUHOJAJAT Belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan, davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat; real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og'zaki murojaatlar bundan mustasno

ELEKTRON POCHTA (E-mail) Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i orqali axborotlarni bir foydalanuvchi elektron qutisidan boshqasining jo'natish, qabul qilish va ma'lum vaqtgacha saqlanishini ta'minlovchi dasturiy-texnik vositalar to'plami.

ELEKTRON RAQAMLI IMZO Elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

ELEKTRON RAQAMLI IMZONING OCHIQ KALITI Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning

yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

ELEKTRON RAQAMLI IMZONING YOPIQ KALITI Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

ELFURUSH O'z elini, vatanini sotuvchi; vatanfurush, sotqin.

ELLIKBOshi *tar.* 1 O'rta asrlarda: qirq-ellik otliq askar boshlig'i. 2 O'rta Osiyo xonliklarida kichik amaldor, oqsoqol.

ELCHI *dip.* Bir suveren davlatning boshqa suveren davlatdagi diplomatik vakillarining eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. Tarixiy manbalarda bir davlat hukumati tomonidan ikkinchi davlat hukumatiga diplomatik vazifa bilan yuboriladigan doimiy yoki muvaqqat vakil *elchi* bilan birga, *yalavoch* atamasi bilan ham ifodalangan.

ELCHIXONA 1 Elchi yoki boshqa birinchi darajali diplomatik vakil tomonidan boshqariladigan diplomatik vakillik. 2 Shu vakillik joylashgan bino.

EMANSIPATSIYA [*lot.* emancipatio – ozod bo'lish, ozod qilish] Ozod bo'lish, ozodlikka chiqish; huquqiy jihatdan teng bo'lish.

EMBARGO [*isp.* embargo – taqiqlash, man qilish] 1 Chet el tovarlarini yoki valyuta boyliklarini kiritish yoki shunday narsalarni mamlakatdan olib chiqib ketishni davlat tomonidan taqiqlash. 2 Chet davlatga qarashli kemalarning mamlakat portlariga kirishini davlat tomonidan taqiqlash yoki boshqa davlatga qarashli kemalar, yuklar, qurol-yarog'larni vaqtincha to'xtatib turish.

EMBLEMA [*yun.* emblema – bo'rtma naqsh, bezak] Biror tashkilot, uyushma va sh. k.larning xos belgisi, ramzi.

EMIGRANT [*lot.* emigrans, emigrantis – ko'chuvchi, ko'chib ketuvchi] O'z vatanini tark etib, boshqa mamlakatga ketib qolgan odam; muhojir.

EMIGRATSIYA [*lot.* emigrare – ko'chib ketmoq, ko'chmoq] Boshqa mamlakatga ko'chib ketish.

EMISSAR [*lot.* emissarius – vakil] Bir davlat tomonidan boshqa davlatga muayyan (odatda, maxfiy) topshiriq bilan yuboriladigan shaxs, agent.

EMISSIYA [*lot.* emissio – chiqarish] Davlat tomonidan yoki uning nazorati ostida pul va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish.

EMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR Bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar.

EMITENT [*lot.* emittere – chiqarmoq] Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar

chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs.

EMPIRIOKRITITSIZM [*yun.* *empeiria* - tajriba + *kritike techne* - tanqidiy muhokama qilish san'ati] *fls.* XIX asr oxirida paydo bo'lgan, moddiy dunyoning mavjudligini inkor etib, materiyani ongning mahsuli deb qaraydigan idealistik oqim.

EMPIRIZM [*yun.* *empeiria* - tajriba] *fls.* Tajribaga asoslangan idrokni, ya'ni hissiy idrok va tajribani bilishning birdan-bir manbai deb biladigan va nazariyaning ahamiyatini inkor qiladigan falsafiy ta'limot, yo'nalish.

ENEOLIT [*lot.* *aeneus* - mis, bronza + *yun.* *lithos* - tosh] Neolitdan bronza davriga o'tish davri.

ENSIKLOPEDIYA [*fr.* *encyclopedie* < *yun.* *enkyklopaideia* - keng bilimlar doirasi] Ilm-fanning hamma sohalarini o'z ichiga olgan yoki biror soha bo'yicha keng, to'liq ma'lumot beradigan, lug'at tarzidagi ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr, to'plam; qomus.

EPOPEYA [*yun.* *epopoïa* - epik she'riyat; qo'shiqlar, rivoyatlar to'plami] Umuman, tarixiy voqealar, xalq muammosi tasvir etilgan yirik hajmli epik asar.

ERA [*lot.* *aere* - boshlang'ich berilgan son, sana] **1** Biror yil hisobi boshlangan payt va shunday yil hisobining o'zi. **2** Qandaydir tarixiy va ijtimoiy xususiyatlari bilan boshqalaridan (avvalgilardan) tubdan farq qiladigan davr.

ERKIN Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mustaqillikka ega bo'lgan, ozod, hur.

ERKIN BOJXONA ZONASI Erkin bojxona zonasi; bunda chet el tovarlarini muayyan hududlar va joylarda boj soliqlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmasdan joylashtirish va ishlatish mumkin bo'ladi.

ERKIN BOZOR Narxlar biror-bir tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmagan holda faqat talab va taklifga ko'ra shakllanadigan bozor.

ERKIN HARAKAT QILISH Insonning asosiy konstitutsiyaviy shaxsiy huquqlaridan biri: har bir kishining ma'lum bir qonunlarga rioya qilgan holda, davlatning istagan yerida yashashi, bo'lishi.

ERKIN IQTISODIY ZONA Ma'lum mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan hudud.

ERKIN MANDAT Vakillik hokimiyati organining deputati saylovchilar toshirig'i bilan bog'liq bo'lmagan va ular oldida hech qanday javobgarlikka ega bo'lmaydigan holat qoidasi.

ERKSEVAR Ozodlik, erkinlikni sevuvchi.

ERKSIZLIK Erksiz holat, o'z erki o'zida emaslik.

ERRAYIM Tekin daromaddan bosartusarini bilmay qolgan yoki birovlarining mulki, boyligi ustidan kattakonlik qiluvchi shaxs; zo'ravon; vallamat.

ESKADRA [*fr. escadre*] Bir yoki bir necha turdagi harbiy kemalarning yirik operativ-taktik qo'shilmasi.

ESKADRON [*fr. escadron*] XX asr o'rtalarigacha mavjud bo'lgan, bir necha vzwoddan iborat otliq askarlar bo'linmasi.

ESKALATSIYA [*ingl. escalation* – zina bilan yuqoriga ko'tarilish] Biror narsa yoki hodisaning asta-sekin tadrijiy ravishda kuchayib, zo'rayib, ko'payib borishi.

ESKI DUNYO Qadimiy dunyo va o'rta asr kishilariga ma'lum bo'lgan uch qit'a – Yevropa, Osiyo va Afrikaning umumiy nomi.

ESKI O'ZBEK TILI Turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan biri; mahalliy turkiy lahjalar negizida o'zidan oldingi davrlarning adabiy-lisoniy an'analari ostida shakllangan va XIV asr 2-yarmidan XIX asr oxirlarigacha mavjud bo'lgan yozma kitobiy til (ba'zi manbalarda "eski o'zbek tili" atamasi o'rnida "turkiy", "chig'atoy tili" atamaları ham qo'llangan).

ESPERANTO [*esperantocha* esperanto – ishonuvchan] Xalqaro sun'iy tillardan eng keng tarqalgani. 1887-yilda varshavalik vrach L.L.Zamengof tomonidan yaratilgan.

ESTETIKA [*yun. aisthetikos* – hissiy idrokka (bilishga) oid] Badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati va shakllarini, inson va olam o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganuvchi falsafiy fan.

ETATIZM [*fr. etat* – davlat] Davlatni jamiyat taraqqiyotining yuqori nati-

jasi va maqsadi, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy, hal qiluvchi omili deb hisoblovchi ijtimoiy tafakkur yo'nalishi.

ETIKA [*lot. ethica* < *yun. ethos* – xulq-atvor] Axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o'rni, axloqning shakllanish shart-sharoitlarini va shakllarni o'rganuvchi falsafiy ta'limot.

ETIKET [*fr. etiquette* – odob-axloq; marosim tartibi] Biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh. k.da qabul qilingan o'zaro muomala, odob-axloq, yurish-turish, o'zini tutish qoidalari.

ETNIK BIRLIK Kishilarning ma'lum bir tarixiy davrda va ijtimoiy tuzumda tarkib topgan alohida barqaror etnik uyushmasi.

ETNIK GURUH Muayyan bir xalq (qabila, qabila ittifoqi, elat)ning parchalanib, alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladigan guruh.

ETNOGENEZ [*yun. ethnos* – xalq + *genesis* – kelib chiqish] Biror-bir xalqning kelib chiqishi, nasl-nasabi, paydo bo'lishi.

ETNOGRAFIYA [*yun. ethnos* – qabila, xalq + *grapho* – yozaman] 1 Tarix fanining xalqlarning kelib chiqishini, tarkibini, joylashishini, turmushini, rasm-rusumlarini, moddiy-ma'naviy va ijtimoiy madaniyatini kuzatish yo'li bilan o'rganadigan bo'limi. 2 Biror xalqning madaniyati, urf-odatlariga xos xususiyatlar majmui.

ETNONIM [*yun. ethnos* – qabila, xalq + *onyma* – nom] Xalq, qabila, urug' va b. etnik uyushmalar nomi.

EVAKUATSIYA [lot. evacuare - bo'shatmoq, xoli qilmoq] **1** Jangovar harakatlar bo'layotgan yerlardan yarador, bemor, asirlarni, shuningdek, ta'mirga muhtoj va ortiqcha asbob-uskunalar, harbiy o'ljalari va b. moddiy vositalarni front ortiga jo'natish. **2** Harbiy va siyosiy sabablar, shuningdek, tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida qo'shinnlarni ilgari egallab turgan joylaridan olib chiqib ketish. **3** Dushman hujumi xavfi ostida qolgan yoxud tabiiy ofat (suv toshqini va b.lar)ga uchragan joylardan fuqarolar, korxonalar, idoralar, badiiy va b. qadriyatlar, mulklarni olib chiqish, boshqa joyga ko'chirish.

EVIKSIYA [lot. evictio - o'z mulkini sud orqali undirish] Mol-mulkdan qonuniy asosda mahrum qilish, narsa-buyumni olib qo'yish.

EVOLYUTSIYA [lot. evolutio - avj oldirish, kuchaytirish] Uzlüksiz tadrijiy rivojlanish, o'zgarish; tabiat va jamiyatda uzluksiz va tadrijiy ravishda davom etadigan va sifat o'zgarishlariga olib boradigan miqdor o'zgarishlari.

EYFORIYA [yun. euphoria < eu - yaxshi + phero - boshdan kechiraman, o'tkazaman] Mavjud holat bilan bog'liq bo'lmagan dimog'chog'lik, o'z-o'zidan, g'ayriixtiyoriy ko'tarinki xursand holat (asosan, ruhiy kasalliklarda, narkotik moddalar qabul qilganda kuzatiladi).

ESHİK OG'ASI Markaziy Osiyo xonliklarida: xon saroyidagi bosh xizmatkor;

oliy hukmdorning turli qabul marosimlarini o'tkazish ishlariga mutasaddi bo'lgan shaxs.

ESHON [fors. - ular; mulla, shayx] So'fiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni. Odatda, eshonlar darveshlik, so'fiylik oqimlarining biriga mansub bo'lgan.

ESHONZODA [fors. - eshon bolasi] Otasi eshon bo'lib o'tgan, eshonlardan tarqalgan shaxs; eshon bolasi.

ENG YANGI TARIX Jahon tarixini davrlashtirishda, asosan, tarix fanida XX asr boshlari (Birinchi jahon urushi boshlanishi)dan to hozirgi kungacha bo'lgan davrning nomlanishi.

ENGEL QONUNI Bir mamlakat miqyosida daromad bilan iste'mol o'rtasidagi aloqadorlikni tavsiflaydigan qonun

E'LON [a. - ma'lum qilish, bildirish; xabarnoma] Ko'pchilikka yetkazilishi zarur bo'lgan xabar, yangilik, buyruq, farmon; shunday xabar yozilgan hujjat.

E'TIMODNOMA [a. - tayanch; ishonch, ishonish + fors. - noma] esk. Ishonch yorlig'i, vakolatnoma; vakolat haqidagi rasmiy hujjat.

E'TIQOD [a. - ishonch, ishonish; imon, maslak] **1** Qattiq ishonch, nuqtayi nazar, qarash. **2** Xudoga yoki, umuman, biror g'ayritabiiy kuchga ishonish; imon.

E'TIQOD QO'YMOQ E'tiqod bilan munosabatda bo'lmoq, bog'lanmoq.

E'TIROF [a. - tanish, tan olish; iqrar bo'lish] Biror gap, fikr, ish-harakat va sh. k.larni to'g'ri, haqiqat deb bilish, qabul qilish.

F

FAKSIMILE [*lot.* fac simile – aynan shunday bajar] Fotografik yoki bosma usul bilan aynan aks ettirilgan asl nusxa (hujjat, qo'lyozma, imzo, biror-bir manzara, tasvir).

FAKTORIYA [*ingl.* factory < *lot.* factoria – idora, qarorgoh] Yevropalik savdogarlarning mustamlaka mamlakatlardagi savdo idoralari va qarorgohlari.

FAKULTATIV [*fr.* facultatif < *lot.* facultatis – imkoniyat, qobiliyat] Ixtiyoriy ravishda tanlab olinadigan, majburiy bo'lmagan.

FAKULTET [*nem.* Fakultät < *lot.* facultatis] Oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitadigan bo'limi.

FALSAFA [*a.* < *yun.* philosophia < phileo – sevaman + sophia – donolik; hikmat] Tabiat, kishilik jamiyati va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonunlari haqidagi fan; olam va unda insonning tutgan o'rni haqidagi g'oyalar, dunyoqarashlar tizimi.

FALSIFIKATSIYA [*lot.* falsificare – soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq] Asl narsani soxta bilan, haqiqatni yolg'on

bilan almashtirish; hujjat yoki tarixiy dalillarni soxtalashtirish.

FAMILIYA [*lot.* familia – qullar, tobelar; oila, xonadon, qarindosh-urug']
1 Qadimgi Rimda qon-qarindoshlar bilan birga qullarni ham o'z ichiga olgan, xo'jalik-huquqiy munosabatlarga asoslangan oilaviy birlik. **2** Bir ota-onadan tarqalgan avlod, urug'.

FAN [*a.* – san'at, mahorat; ilm, bilim; tarmoq] **1** Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. **2** Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari.

FANATIK **1** O'zining o'ta dindorligi, boshqa dinlar, e'tiqodlarga toqat qila olmasligi bilan ajralib turuvchi kishi; o'taketgan mutaassib. **2** Biror g'oya, ish yoki mashg'ulotga butun vujudi bilan berilib mukkasidan ketgan, o'ta ishqiboz odam.

FANATIZM [*lot.* fanaticus – asabiy-lashgan, jazavaga tushgan; ashaddiy e'tiqod] **1** O'z dini va e'tiqodiga ortiq darajada yopishib olib, boshqa har qanday

qarashlarni rad etish, fanatiklarcha fikr yuritish va harakat qilish; o'taketgan mutaassiblik, johillik. **2** Biror g'oya, ish yoki mashg'ulotga butun vujudi bilan berilib ketish, mukkasidan ketganlik, o'ta ishqibozlik.

FANO [a. - o'lim; yo'q bo'lish; halokat] Tasavvuf falsafasining g'oyaviy asoslarini tashkil etuvchi teran va murakkab tushuncha.

FANTAZYOR [yun. phantasia - tasavvur, xayol] Xayolparast; amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan xayoliy tasavvurlar bilan yashovchi odam.

FANSHUNOSLIK Fanlarning vazifasi va taraqqiyot qonuniyatlari, ilmiy faoliyat strukturasi va dinamikasini, fanning jamiyat hayotidagi o'rni va sh.k.ni tadqiq qiluvchi ilmiy soha.

FAOL SAYLOV HUQUQI Fuqarolarning hokimiyatning vakolatli organlariga bo'ladigan saylovlarda ishtirok etishi.

FAOLIYAT [a. - harakatchanlik; ta'sirchanlik; samaradorlik] Kishilik jamiyati mavjudligining shakli: borliqni, tashqi dunyoni, insonning o'zini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishga qaratilgan, u yoki bu ijtimoiy ahamiyatli maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan, tadrijiy amalga oshiriladigan harakatlar.

FAQIH [a. - tushunuvchi, idrok qiluvchi; shariat qonunshunosi, huquqshunosi] Musulmon qonunshunosligi ilmining bilimdoni, huquqshunos olim.

FAQIR [a. - kambag'al, qashshoq, muhtoj] **1** Tasavvuf - so'fiylik maslaklaridan biriga mansub kishi. **2** Mehnat qilmasdan darbadarlik, gadolik va xayr-eh-

son yig'ish bilan kun kechiruvchi, hayot lazzatlari va mashaqqatlaridan voz kechib, tarkidunyo qilgan kimsa.

FARMON [fors. - amr, hukm; ko'rsatma; qat'iy qaror; hujjat] Muayyan bir davlat oliy rahbarining huquqiy hujjati; davlat hayotining eng muhim masalalari bo'yicha hukumat qabul qilgan qonun, qaror.

FARMOYISH [fors. - buyruq, topshiriq, buyruq berish; buyurtma; hujjat] Davlat hokimiyati yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi yoki mansabdor shaxsning o'z vakolati doirasida chiqarigan va hamma uchun majburiy bo'lgan hujjati.

FARZ [a. - farmoyish, amr, ko'rsatma; majburiyat] Shariatda hamma musulmonlar bajarishi qat'iy buyurilgan amallar.

FATAL [lot. fatalis - taqdirda bo'lgan, muqarrar] Muqarrar, qaytarib bo'lmaydigan, go'yo taqdir tomonidan, xudo amri bilan oldindan hal qilingan (hodisa yoki voqea).

FATALIZM [lot. fatalis - muqarrar, peshonaga yozilgan; taqdirda bo'lgan] Butun olam, jumladan, insonning hayoti oliy iroda tomonidan tole, taqdir sifatida azaldan belgilab qo'yilganligi to'g'risidagi diniy-falsafiy ta'limot. Fatalizm jamiyatni o'zgartirish uchun kurashda odamlar, partiyalar, sinflarning faol o'rni mavjudligini inkor etadi, ularni passiv va itoatkor bo'lishga mahkum qiladi.

FATVO [a. - tushuntirish, izoh; hukm, qaror] Islomda muftiy yoki ulamo-

lar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh; biron ishning shariat nuqtayi nazaridan amalga oshirish mumkinligi haqidagi ko'rsatma, buyruq.

FATVO BERUVCHI *ayn. muftiy.*

FAVQULODDA [*a.* - odatdan tashqari, g'ayriodatiy] Nihoyat kam uchraydigan; boshqalarga o'xshamagan; kutilmaganda yuz bergan; tasodifiy; odatdan tashqari, haddan tashqari.

FAVQULODDA VAZIYAT (HOLAT)

Halokatli vaziyatlarda tezkorlik bilan xizmat ko'rsatish; fuqarolar, tashkilotlar va muassasalarning huquq va erkinliklarini qonun bilan belgilangan tartibda cheklashga va ularga qo'shimcha vazifa yuklashga yo'l qo'yuvchi maxsus huquqiy tartibot.

FAVQULODDA DEKRETLAR Alohida yuridik kuchga ega bo'lgan yuridik hujjatlar tizimi. Uni ijro etuvchi hokimiyat organlari favqulodda holat davrida qonun chiqarish tartibiga rioya qilmay chiqaradi. Bu qonunlar fuqarolik, siyosiy huquq va erkinliklarni cheklab qo'yadi yoki bekor qiladi.

FAVQULODDA QONUN Muayyan davlatda alohida holat (*mas.*, urush) munosabati bilan qabul qilinadigan va, odatda, davlat boshlig'iga alohida vakolatlar beradigan qonun.

FAVQULODDA VA MUXTOR ELCHI

Oliy darajadagi diplomatik rang, unvon; diplomatik elchixonona yoki vakolatxonalarning protokol jihatidan yuqori darajadagi rahbarlariga beriladi.

FAXRIY KONSUL Konsullik shtat birligida mansabdor shaxs hisoblanmaydigan, qabul qilayotgan davlat nomidan o'sha davlat hududida alohida konsullik vazifalarini bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs.

FAY [*a.* - qaytarish] Musulmonlar g'ayridinlardan tinch yo'l bilan oladigan barcha narsalar: soliqlarning barcha turi va baytulmol (islom mamlakatlari da davlatga qarashli mol-mulk; qimmatbaho narsalar saqlanadigan bino).

FAYLASUF [*a.* < *yun.* philosophos - donolikni, hikmatni sevuvchi] Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug'ullanuvchi olim, mutaxassis.

FAYZI [*a.* - nazoratchi] Buxoro amirligida XVI - XX asrlarda mavjud bo'lgan, sayidlar yoki ulamolar tomonidan tayinlangan amaldor. Unga shahardan tashqarida va qo'shinlar qo'nog'idan tashqari joylarda belgilangan narx-navoning va tosh-tarozining to'g'riligini hamda diniy urf-odatlariga amal qilinishini nazorat qilish yuklatilgan.

FASHIZM [*ital.* fascismo < fascio - aloqa; bog', bog'lam; dasta; birlashma] Totalitar tipdagi ijtimoiy-siyosiy oqim, mafkura va davlat tartiblari. Har qanday demokratik erkinlikni yo'q qilish, bosqinchilik urushlarini olib borish siyosatini amalga oshiruvchi diktatura shakli. Xalqning har qanday demokratik erkinliklari va huquqlarini yo'q qilish, fuqarolarning inqilobiy harakatini bostirish, boshqa xalqlarni qul qilishga qaratilgan qatag'on rejimi. Fashizm

dastlab Italiyada, so'ngra Germaniya va Ispaniyada paydo bo'lgan.

FASHIZM MAFKURASI Irqiy kamsitish, yahudiylarni qirg'in qilish, tinchliksevar kuchlarga va b. demokratik harakatlarga qarshi ochiqdan-ochiq kurash g'oyasi.

FEDERALIZM [*fr.* *federalisme* < *lot.* *foedus* – ittifoq, birlashma, uyushma] Davlat hududiy tuzilishi shakllaridan biri: davlat ichki tuzilmasining, markaz bilan federativ davlat qismlari o'rtasidagi aloqalarning, markaz hamda federativ davlat subyektlari huquqlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

FEDERATIV DAVLAT Davlat tuzilishining murakkab shakli: ma'lum siyosiy mustaqillikka ega davlatlarning birlashishi natijasida vujudga keladi. Federativ davlatlarda bir necha konstitutsiya, bir necha fuqarolik bo'ladi.

FEDERATIV ERKIN TASHKILOT Quyidan yuqoriga qarab boradigan ishchilar uyushmasi; guruhlar, jamoalar, viloyatlar, xalqlar tashkiloti.

FEDERATSIYA [*lot.* *foederatio* – ittifoq, birlik; birlashma] Davlatlar birlashmasi: bunda birlashuvchi davlatlar, qonun bilan belgilangan mustaqilliklarini saqlab qolgan holda, yagona ittifoq fuqaroligiga, yagona ittifoq armiyasiga, yagona ittifoq davlat organlariga ega bo'lgan davlat birligini tashkil etadilar.

FELDMARSHAL [*nem.* *Feldmarschall* – feldmarshal] Ayrim davlatlar armiyalaridagi oliy harbiy (generallik) unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

FELYETON [*fr.* *feuilleton* < *feuille* – varaq, varaqa] Kundalik hayotda ro'y beradigan salbiy hodisalarni yoki biror kimsani o'tkir til bilan tanqid qilib, uning ustidan kulib, dolzarb mavzuda yozilgan gazeta yoki jurnal maqolasi; badiiy-publitsistik janr.

FEMIDA [*yun.* *Themis, Themidos* – iloha] Qadimgi yunon mifologiyasida: bir qo'lida tarozi va boshqasida qilich, ko'zlarida bog'ich bilan (beg'arazlik ramzi) tasvirlangan odil sudlov ilohasi; odil sudlov ramzi.

FEMINIZM [*fr.* *feminisme* < *lot.* *femina* – ayol] Ayollarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib qiladigan, erkak va ayollarning jamiyatdagi huquq va burchlarini tenglashtirishga qaratilgan ijtimoiy harakat.

FEMLAR [*yun.* *themata* – harbiy-ma'muriy okruglar] Vizantiyada VII – XII asrlarda sud, moliya, harbiy hokimiyatga ega strateglar boshqargan harbiy-ma'muriy okruglar.

FENOMENALIZM [*yun.* *phainomenon* – voqeyi, sodir bo'luvchi] Obyektiv dunyoning mavjudligini inkor qiluvchi, u faqat inson tasavvurida, xayolida mavjud bo'ladi, deb hisoblovchi g'ayriilmiy falsafiy ta'limot.

FENOMENOLOGIYA [*yun.* *phainomenon* – voqeyi, sodir bo'luvchi + *logos* – ta'limot] Ongning, ruhning o'z-o'zidan rivojlanishi haqidagi soxta ta'limot; mavjudotga va hissiy tajribaga bog'liq bo'lmagan ilohiy «mohiyatlar» haqidagi, dunyoni ilmiy bilishga qarshi soxta fan.

FEOD [*lot.* feod – yer-suv, mol-mulk; pul, mablagʻ] Maʼlum xizmatlari uchun podsho yoki katta yer egasi tomonidan vassal (xizmatkor)ga berilgan, lekin meros qilib qoldirilmaydigan shaxsiy mulk (yer-suv).

FEODAL [*lot.* feodalis – vassal egasi] Feodalizm davrida hukmron sinf vakili; katta yer egasi, zamindor; pomeshchik.

FEODAL DAVLATLAR Tarixan quldorlik davlatlarining oʻrniga kelgan davlatlar. Ular ikki yoʻl bilan tarkib topgan: birinchi yoʻl – asta-sekinlik bilan quldorlik tuzumining yemirilishi va uning negizida feodal tuzum asoslarining paydo boʻlishi; ikkinchi yoʻl – ibtidoiy jamiyat rivojlanib, oʻz taraqqiyotining choʻqqisiga chiqqandan soʻng asta-sekinlik bilan yemirilib, uning asosida feodal tuzumning vujudga kelishi.

FEODAL IYERARXIYASI [*lot.* feodalis – katta yer egasi + *yun.* hierarchia – muqaddas hokimiyat] Feodalizm davrida hukmron sinf – feodallarning harbiy-siyosiy tashkiloti; feodallarning jamiyatda tutgan oʻrnini koʻrsatuvchi tartib, mansab zinapoyasi.

FEODAL MUNOSABATLAR Hukmron sinf – feodallar va feodal iyerarxiya bilan moddiy boyliklarni yaratuvchilar – krepostnoy dehqonlar va hunarmandlar oʻrtasida boʻysunish va hukmronlik qilishga asoslangan munosabatlar.

FEODAL TARQOQLIK Feodalizm davrida mahalliy feodallar vakillarining mustaqil boʻlish yoʻlida olib borgan kurashlari natijasida feodal davlatning mayda feodal mulklarga boʻlinib ketishi.

FEODALIZM [*ingl.* feudalism < *lot.* feodum – yer-mulk] Quldorlik tuzumi negizida paydo boʻlib, uning oʻrnini egallagan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. Feodalizm davrida yer egasining ishlab chiqarish vositalariga toʻla huquqi mavjud boʻlgan. Asosiy ishlab chiqaruvchi – dehqonlarga egaligi ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etgan. Dehqon feodalga soliq toʻlashga, uning turli-tuman yumushlarini bajarishga majbur boʻlgan. Xoʻjalik asosan natural xarakterda boʻlib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ayirboshlash, xususan, tovar-pul munosabatlari juda kam taraqqiy etgan.

FERMER [*ingl.* farmer < *lot.* firmus – mustahkam] Oʻz imkoniyati, shuningdek, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan ishchi kuchi bilan mehnat qiladigan va faoliyat olib boradigan qishloq xoʻjalik uyushmasining egasi; fermer xoʻjaligi rahbari.

FERMER XOʻJALIGI Uzoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shugʻullanuvchi, mustaqil xoʻjalik yurituvchi subyekt.

FESTIVAL [*fr.* festival < *ital.* festivus – bayramona; shod, quvnoq] Sanʼatning biror sohasi yoki hamma sohalarini boʻyicha vaqti-vaqti bilan oʻtkaziladigan ommaviy koʻrik va shu munosabat bilan boʻladigan bayram, tantana.

FETISH [*fr.* fetiche < *port.* feitico – sehrli narsa, tumor] Taqvodor kishilarning tasavvuriga koʻra, unga sigʻingan kishilarning mushkulini oson qiluvchi

g'ayritabiiy, sehrli kuchga ega bo'lgan buyum. Fetishlar tosh, tayoq, ko'zmunchoq, tumor va har qanday buyum bo'lishi mumkin. Barcha ibtidoiy xalqlarda mavjud bo'lgan.

FETISHIZM [*fr.* fetichisme < *port.* feitico – sehrli narsa, tumor] Najot qidirib turli narsalarga – g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar – fetishlarga sig'inish. U ko'rkona ishonishni targ'ib qiladi.

FETSIALLAR [*lot.* fetiales – jamoa] Qadimiy Rimda yigirma nafar umrbod saylangan a'zoldardan iborat koinlar jamoasi. Ular urush e'lon qilinganda yoki sulh tuzilganda muqaddas marosimlarni o'tkazishgan.

FIDEIZM [*fr.* fideisme < *lot.* fides – ishonch, e'tiqod] Ilm-fandan, aql-idrokdan ko'ra imon-e'tiqodni afzal hisoblovchi nazariya.

FILA [*yun.* phylei – uyushma] Qadimiy Yunonistonda uch urug'-qabila uyushmasi; keyinchalik ma'muriy okruglarga aylantirilgan.

FILANTROPIYA [*yun.* philanthropia – odamsevarlik < *phileo* – sevaman + *anthropos* – odam, inson] Muhtoj insonlar va tashkilotlarga beg'araz yordam berish, homiy hisobiga kishilarni ne'matlar bilan ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish.

FILANTROPIZM [*yun.* philanthropos – odamsevar] Jamiyatga foyda keltiruvchi fuqaroni tarbiyalash va ta'limni tubdan isloh etishni targ'ib qiladigan pedagogik oqim.

FILIATSIYA [*fr.* filiation < *lot.* filius – o'g'il] Shaxsning tug'ilishi bilan davlat fuqaroligini olishi.

FILOSOFIYA [*yun.* philosophia < *phileo* – sevaman va *sophia* – donolik] *ayn. falsafa.*

FIQH [*a.* – bilim; tushuncha; musulmon huquqi] Musulmonlarning xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi islom huquqshunosligi, islom ijtimoiy me'yorlari majmuasi, ya'ni musulmon huquqi; ilohiyot.

FIRIBGAR [*fors.* – hiylagar, aldoqchi] Aldamchilik, tovlamachilik bilan shug'ullanuvchi shaxs; tovlamachi, hiylagar.

FIRMA [*ital.* firma – imzo] **1** Biror korxonada nomidan ish olib borish va unga oid hujjatlarga imzo chekish vakolati. **2** Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi va mustaqil yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan xo'jalik, ishlab chiqarish yoki savdo korxonalari uyushmasi.

FIRQA [*a.* – guruh, to'da; partiya; jamoa] Bir yoki bir necha masala yuzasidan mushtarak fikrga ega bo'lgan kishilarning tashkiliy guruhi; guruh; jamoa; partiya.

FIR'AVN [*a.* – timsoh; zolim, mustabid] Qadimgi Misr podsholarining unvon, faxriy nomi.

FISK [*lot.* fiscus – davlat xazinas] Qadimgi Rimda imperator Avgust davrida shakllantirilgan maxsus imperator xazinas.

FISKAL IMMUNITET Diplomatlarning shaxsiy, mulkiy, davlat, tuman va munitsipal soliq va to'lovlardan ozod etilishi; bilvosita va meros soliqlar bundan mustasno.

FISKALLAR [*lot. fiscalis* – xazina-ga aloqador < *fiscus* – davlat xazinası] Pyotr I tomonidan 1711-yilda joriy etilgan, markaziy va mahalliy muassasalarining faoliyatini, ayniqsa, moliya va sud ishlari sohasida hukumat farmoyishlarining qanday ijro etilishini maxfiy kuzatib yuradigan va qing'irliklar haqida maxfiy ma'lumot berib turadigan mansabdor shaxslar.

FITNA [*a.* – yo'ldan ozdirish; isyon, g'alayon] 1 Omma o'rtasida tayanchi bo'lmagan bir guruh fitnachilarning davlat to'ntarishi o'tkazish maqsadida qurolli xuruj qilishi; qonuniy hukumatni ag'darishga qaratilgan harakat. 2 Bir yoki bir necha shaxs tomonidan davlatga, siyosiy rahbarga, tashkilotga, shaxsga, haqiqiy maqsadni niqoblab amalga oshiriladigan dushmanlik harakatlari; g'alamislik.

FITR SADAQASI, sadaqayi fitr [*a.* – ro'za tutishni to'xtatish; ro'za yakuni sadaqasi] Islomda ramazon oyi tugashi munosabati bilan biror uzrli sabab tufayli ro'za tuta olmay qolgan kishi tomonidan uning evaziga masjid, ruhoniylar yoki beva-bechoralarga ma'lum miqdorda beriladigan sadaqa, xayr-ehson; fitri ro'za.

FOLKETING [*dan. folketing* – qonun chiqaruvchi organ, quyi palata] Daniya davlatining bir palatali parlamenti, qonun chiqaruvchi oliy davlat organi.

FOND [*fr. fond* < *lot. fundus* – asos] 1 Fond, jamg'arma, resurslar, zaxiralar. 2 Muayyan maqsadga ajratilgan pul mablag'lari yoki moddiy vositalar; muayyan

tartibda shakllanadigan va foydalaniladigan mablag'lar. 3 Ijodkorlarga moddiy yordam ko'rsatuvchi tashkilot, muassasa.

FOND BIRJASI Ishchi kuchidan oqilona foydalanish va shu asosda ishga joylash masalalari amalga oshiriladigan ish joyi.

FORIN-OFFIS [*ingl. Foreign Office* – *ayn. chet el masalalari bilan shug'ullanuvchi idora*] Muayyan bir davlatning xorijiy davlatlar ishtirokida hal qilinadigan masalalar bilan shug'ullanuvchi ma'muriy tashkiloti; tashqi ishlar vazirligi.

FORMAL MUNOSABATLAR Guruh va tashkilotlarda rasmiy hokimiyat me'yor va qoidalariga mos ravishda o'rnatilgan munosabatlar.

FORMALIZM [*fr. formalisme* < *lot. forma* – shakl, tashqi ko'rinish; rasmiyatchilik] 1 Ishning mohiyatiga zarar yetkazgan holda, tashqi tomonlarni, shakllarni birinchi o'rinda bo'rttirib ko'rsatish. 2 Mantiq, san'at, adabiyot kabi fanlarda shaklni mazmundan, nazariyani amaliyotdan ajratishga intiluvchi idealistik yo'nalish, oqim.

FORMALLASHTIRISH [*lot. forma* – tuzilish, tashqi ko'rinish] Bilimlar majmuasini, mazmunini muayyan shakl yordamida sun'iy til belgilari orqali ifodalash; tasavvur qilingan xayoliy mazmunni mantiqiy shakllar orqali ifodalash.

FORMATSIYA [*lot. formatio* – tashkil topish, shakllanish] Kishilik jamiyati taraqqiyotidagi ma'lum tarixiy bosqich

(ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va h.k.): jamiyatning ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichida unga xos bo'lgan kishilar o'rtasidagi mavjud ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyatning ijtimoiy va davlat tuzumi, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'z ichiga oladi.

FORPOST [*nem.* Vorposten - oldindagi post] Harbiy qismni himoya qilib turish uchun qo'yilgan ilg'or soqchilar guruhi.

FORS-MAJOR [*fr.* force-majeure - favqulodda holat; yengib bo'lmas kuch] Huquq sohasida: yengib bo'lmas kuch (tabiiy ofatlar, urush va h. k.) ta'sirida va oldini olib yoki bartaraf etib bo'lmaydigan favqulodda holatning yuzaga kelishi natijasida majburiyatdan ozod qilish holati.

FORUM [*lot.* forum - bino oldidagi maydon, savdo-sotiq joyi (bozor), markaziy maydon] **1** Qadimgi Rimning Kapitoliy va Palatin balandliklari o'rtasida joylashgan markaziy maydoni. Bu yerda xalq yig'inlari, sud o'tkazilgan va savdo-sotiq olib borilgan. **2** Keng vakolatga ega bo'lgan xalqaro yig'ilish.

FOSIQ [*a.* - yo'ldan adashgan, buzuq, axloqsiz] Islom an'anasida diniy majburiyatlarni ado etmagan gunohkor; axloqiy ma'noda fahsh, buzuq odam.

FOTIH [*a.* - ochuvchi, boshlovchi; fath etuvchi] Davlat, mamlakat yoki shaharni urushib qo'lga kiritgan, zabt etgan g'olib.

FOTIHA [*a.* - ochish, ochilish; boshlanish; muqaddima; Qur'onning birinchi

surasi] **1** Qur'oni Karimning yetti oyatdan iborat birinchi surasining nomi. Uning mazmunida Ollohning ta'rif va tavsifi hamda Olloh va inson o'rtasidagi munosabatni belgilovchi asosiy islom g'oyalari ifodalangan; unda islom diniy asosiy talablari o'z aksini topgan. **2** Biror voqea-hodisa, marosim munosabati bilan o'qiladigan duo, odatda, Qur'onning ayrim qisqa suralaridan birini tilovat qilish.

FOYDA [*a.* - afzallik; imtiyoz; naf, bahra] Ishlab chiqaruvchi xodimlarning jamiyat foydasi uchun qilgan mehnati tufayli barpo qilinadigan sof daromadning bir qismi; manfaat, qulay vaziyat.

FRAKSIYA [*fr.* fraction - qism, bo'lak < *lot.* fractio - buzish, sindirish; sinish, parchalanish] **1** siyos. Biron-bir siyosiy partiyaning, qonunchilik organining siyosatini parlamentda, mahalliy boshqaruv organlari yoki jamoat tashkilotlarida ifoda etuvchi tashkiliy guruh. **2** Siyosiy partiya ichidagi partiyaning asosiy yo'lidan farq qiluvchi qarashlarga, o'zining tashkilot markaziga, o'z platformasiga ega bo'lgan va partiyaning ko'pchilik a'zolari qabul qilgan siyosatga qarshi kurashuvchi guruh.

FRANSUZ ALYANSI Ta'lim berish, o'qitish bilan shug'ullanuvchi o'quv dar-gohi.

FRATRIYA [*yun.* phratria - birodarlik] Qabilalarning qismlari: bir necha urug' yig'indisidan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi bitta dastlabki urug'dan kelib chiqqan. Fratriya ibtidoiy jamoa tuzumining boshlarida paydo bo'lgan

va sinfiy jamiyat paydo bo'lgach, o'z ahamiyatini yo'qota borgan.

FREYLINA [nem. Fräulein - qiz, oyimqiz] Malika (qirolicha) huzurida xizmat qiluvchi, asilzoda oiladan chiqqan qiz. Rossiyada imperator Pyotr I davridan XX asr boshlarigacha: saroy unvoni.

FRIGOLDER [ingl. freeholder < free - erkin, holder - mulk egasi] Meros qoldirilgan yoki umrbod foydalaniladigan feodal mulk egasi. Frigolder-dehqonlar shaxsiy erkinlikka, mulkni meros qoldirish, tartib olish, qirollik sudida himoyalaniş huquqiga ega bo'lganlar.

FRONT [nem. Front < fr. front - peshona] Fuqarolar jamoat birlashmalarining shakllaridan biri; biron-bir faoliyat sohasidagi ommaviy harakatning keng tarqalgan nomi.

FUNDAMENTALIZM [lot. fundamentalis - asos bo'luvchi, asos qilib olinuvchi] Biror ta'limot aqidalarining, ilohiy kitoblardagi ta'limotlarning dastlabki, sof holatini saqlab qolishni as-toydil himoya qiladigan, ularni majoziy ma'noda talqin etishni rad qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo'nalish.

FUNKSIYA [lot. functio - ijro qilish, bajarish] Davlat yoki biror muassasaning ish doirasi, faoliyati, vazifasi.

FUQARO [a. - "faqir" so'zining ko'plik shakli; grajdanin] Ma'lum bir davlatga huquqiy asosda tegishli bo'lgan jismoniy shaxs; biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan) aholisi, grajdanlar.

FUQARO MUROJAATI Davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish

organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar nomiga fuqarolar tomonidan yo'llangan yakka tartibdagi yoki jamoaviy murojaatlar: arizalar, shikoyatlar, takliflar, iltimosnomalar va h.k.

FUQAROLAR URUSHI Bir mamlakat ichidagi ijtimoiy guruhlar o'rtasida, ijtimoiy keskinliklar sababli yuzaga keladigan, davlat hokimiyati uchun olib boriladigan qurolli kurash.

FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI Jahondagi rivojlangan, ma'rifatparvar, demokratik davlatlarning tajribasini o'rganish natijasi o'laroq mamlakat fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari: mehnat qilish, dam olish, bilim olish, moddiy ta'minot; fuqarolarning jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, saylash va saylanish huquqi, so'z va matbuot erkinligi; uy-joy daxlsizligi, shaxsiy huquqlar va b. siyosiy huquq va demokratik erkinliklar hisoblanadi.

FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI Fuqarolik va konstitutsiyaviy yashash huquqi, qiynoqqa solishning taqiqlanishi, adolatli sudlov huquqi, xususiy hayotning daxlsizligi huquqi, fikr va so'z erkinligi huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va b. materiallar bilan tanishib chiqish huquqi, har bir insonning xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi, davlat va jamiyat tomonidan oilaning himoya qilinishi huquqi, erkak

va ayolning ma'lum bir yoshga yetganda nikohdan o'tish va oila qurish huquqi, bolaning oila tomonidan, davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishi huquqi, fuqarolikka ega bo'lish huquqi va b.lardan iborat.

FUQAROLARNING TASHABBU-SI Fuqarolarning o'z xohish-istaklarini jamoa tarzida bildirish shakli; unga ko'ra, ma'lum bir guruh yoki fuqaro o'z fikrlarini vakolatli davlat organlariga bildirishni imzo to'plash yoki turarjoylarda yig'inlar o'tkazish orqali amalga oshirishlari mumkin.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI Fuqarolarning xalq hokimiyatini amalga oshirish, davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish vositalaridan biri. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning (aholining) yig'inlari hisoblanadi va ular shaharcha, qishloq, ovullarda, ularning tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda tashkil qilinadi.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISHI Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlantirishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishdagi mustaqil faoliyati.

FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR Ma'lum bir davlat hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan,

biron-bir davlat fuqaroligiga tegishliligi haqida muayyan hujjatga ega bo'lmagan shaxslar. Bunday shaxslar har qanday mamlakatda mavjud bo'lib, ular siyosiy huquqlardan foydalanmaydilar.

FUQAROLIK Shaxsning mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham muayyan davlatga mansub ekanligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar orqali tasdiqlanganligi; fuqaroning huquqiy holati.

FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI YOZISH (FHDY) Fuqaro hayotidagi asosiy voqea (holat)larni fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan majburan yozma ro'yxatga olish.

FUQAROLIK HOLATI HUJJATLARI Inson hayotidagi eng muhim voqea-hodisalarni aks ettiruvchi hujjatlar. U fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish idoralari tomonidan beriladi. Fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari aholi soni, tarkibi, yoshi, qarindoshlik va nikoh munosabatlarini aniqlashda asosiy dalil hisoblanadi.

FUQAROLIK HUQUQI Fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchilarning huquqiy holatini, mulk huquqi va b. ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilash va b. huquqiy me'yorlar yig'inidan iborat.

FUQAROLIK ISHI Har qanday ishning fuqarolik sudida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi.

FUQAROLIK JAMIYATI Insonning barcha huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) ta'minlanadigan jamiyat tuzilishi; huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning tashkil etilishi. Fuqarolik jamiyati jamiyatga xizmat qiluvchi davlat faoliyatini nazorat qiladi.

FUQAROLIK KODEKSI Fuqarolik huquqining eng muhim va asosiy qoidalarini belgilaydigan qonun hujjatlari majmui bo'lib, u fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

FUQAROLIKDAN CHIQUISH Davlatning fuqarolikni tugatish usullaridan biri: muayyan bir davlatning fuqarolik to'g'risidagi qonunida belgilangan tartibda, shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, shu davlatning fuqaroligidan chiqishiga ruxsat etish.

FUQAROLIKKA EGA BO'LISH Fuqarolikka tug'ilish bilan ega bo'linadi: muayyan davlat fuqarolarining farzandlari, qaysi davlatda tug'ilishidan qat'iy nazar, ota-onasi istiqomat qiladigan davlatning fuqarosi hisoblanadi.

FUQAROLIKKA EGA EMASLIK Biror-bir davlat fuqarosi hisoblanmaydigan shaxsning huquqiy holati.

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB BILISH Fuqaroning qayerdaligi

haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq, sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

FUQAROVIIY DA'VO Jinoyat sodir bo'lishi yoki shartnomaga asoslanmagan majburiyatlarning vujudga kelishi natijasida fuqaroga yoki tashkilotlarga yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilish haqidagi da'vo.

FUTURIZM [*ital.* futurisme < *lot.* futurum - kelajak] XX asr boshlarida Yevropa adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan, adabiyot va san'atdagi badiiy va ma'naviy meros an'analarini inkor etib, an'anaviy madaniyat bilan aloqani uzishni, zamonaviy urbanistik madaniyatni targ'ib qilgan avangardlik oqimlaridan biri.

FUTUROLOGIYA [*lot.* futurum - kelajak + *yun.* logos - ta'limot] Insoniyatning va jamiyat hayoti ayrim sohalarining kelajak holatini bashorat va tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi ilmiy soha.

FYURER [*nem.* Führer - rahbar, yo'l boshchi; dohiy] Fashistlar Germaniyasidagi natsional-sotsialistlar yo'l boshchisi Adolf Gitlerni fashistlar shunday nom bilan atashgan.



GAAGA TRIBUNALI Niderlandiya-ning Gaaga shahrida joylashgan xalqaro sud organi.

GALAKTIKA [yun. galaktikos – sutli, sutsimon] Umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan hamda Quyoshni ham o'z ichiga olgan 200 milliarddan ortiq yulduzlarning ulkan gravitatsion sistemasi; Somon yo'li.

GANDIZM Mahatma Gandi tomonidan ishlab chiqilgan va hind milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylangan ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy ta'limot.

GARNIZON [fr. garnison < garnir – ta'minlamoq; qurollantirmoq] Muayyan aholi punkti yoki ma'lum chegaraga ega hududda doimiy yoki vaqtincha joylashgan harbiy qismlar, muassasalar, harbiy o'quv yurtlari majmui.

GAROV [fors. – kafolat] Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni o'z majburiyatlarini ta'minlash uchun berishi.

GAROV HUQUQI Bir shaxs boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni o'z majburiyatlarini ta'minlash uchun beradigan munosabatlarni

tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquqiy me'yorlar yig'indisi.

GAROV MAJBURIYATI Qarzdor tomonidan kreditorga beriladigan hujjat.

GAROV REYESTRI Qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek, qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi.

GAROV SIFATIDA TUTQUNLIKKA OLISH Davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilib, garov sifatida ushlab turilgan shaxsni ozod qilish shartini qo'yish.

GAROVGA OLUVCHI Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda, bu majburiyat bo'yicha o'z talabini qonunda

belgilab qo'yilgan chegirishlardan keyin garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasining boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirishga haqli bo'lgan shaxs.

GAROVXONA Aholidan narsalarni garovga olib, qarz beradigan joy, muassasa; lombard.

GASTARBAYTER [*nem.* Gastarbeiter < Gast – mehmon + Arbeiter – ishchi] G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari boshqa mamlakatlardan kelgan yollanma ishchi.

GASTROLYOR JINOYATCHILAR Jinoyatchilikni o'z turar joylaridan tashqarida sodir etuvchi jinoyatchilar.

GAUPTVAXTA [*nem.* Hauptwache – bosh, asosiy qorovu] Qamoqqa hukm qilingan harbiy xizmatchilar saqlanadigan joy.

GAZETA [*ital.* gazzetta – chaqa pu] Siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-ommabop maqolalar bosiladigan, shuningdek, turli sohalarga oid voqea-hodisalar yoritiladigan vaqtli nashr.

GANGSTER [*ingl.* gangster – bandid, kallakesar] Jinoiy do'q-po'pisa, tovlamachilik, odam o'g'irlash va o'ldirish kabi ishlar bilan shug'ullanuvchi uyushgan jinoyatchilar to'dasining a'zosi, ishtirokchisi.

GEDONIZM [*yun.* hedone – rohat, huzur, lazatlanish] Huzur-halovatga, lazatlanishga intilish insonning oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta'limot.

GEGEMON [*yun.* hegemon – dohiy; yo'l boshchi] Hokim, hukmron; rahbar, yetakchi.

GEGEMONLIK Boshqa mamlakatlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilishga asoslangan siyosat.

GENDER [*ingl.* gender < *lot.* genus – jins] Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati.

GENDER STATISTIKASI Davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi.

GENEALOGIYA [*yun.* genealogia – shajara; kelib chiqish] Tarix fanining urug' va oilalarning kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalarini o'rganuvchi bo'limi.

GENERAL [*lot.* generalis – umumiy; bosh, oliy] Oliy qo'mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

GENERAL-GUBERNATOR Rossiya yada 1917-yilgacha bir necha guberniya yoki viloyatlarni o'z ichiga olgan, ma'muriy-hududiy birliklarning ma'muriy huquqlarga ega bo'lgan hokimi.

GENERALISSIMUS [*lot.* generalissimus – eng yuqori, oliy] Ba'zi mamlakat-

lar qurolli kuchlarida eng oliy harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

GENERALITET [*nem.* Generalität < *lot.* generalis – oliy, bosh] Armiyaning oliy qo'mondonlik tarkibi; generallar.

GENEZIS [*yun.* genesis – paydo bo'lish, tug'ulish] Ma'lum obyektning vujudga kelishi va keyingi rivojlanishini belgilovchi tushuncha; paydo bo'lish tarixi.

GENIAL [*lot.* genialis – iste'dodli] Oliy darajada iste'dodli, zakovatli.

GENIY [*lot.* genius – o'ta iste'dodli] Ijodiy iste'dodning eng yuksak darajasi, ulkan talant; shunday hususiyatli shaxs.

GENOFOND [*yun.* genos – paydo bo'lish + *lot.* fundus – asos] Millatning asosiy irsiy belgilari; bir tipdagi organizmlarga xos bo'lgan xususiyatlar majmui.

GENOTSID [*yun.* genos – urug', qabila + *lot.* saedere – o'ldirmoq] Xalqaro jinoyatlarning bir turi bo'lib, muayyan milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhlar vakillarini o'ldirish, salomatligiga zarar yetkazish, tug'ilishiga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ularni qisman yoki batamom yo'q qilish harakati.

GEOSIYOSAT [*yun.* ge – yer + siyosat] Muayyan bir mamlakat o'rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va b. geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga ta'sirini ifodalovchi siyosatshunoslik nazariyasi.

GEOSIYOSIY Geosiyosatga, geografik siyosatga asoslangan, aloqador.

GEOSTRATEGIK [*yun.* ge – yer + strategia – qo'shinni boshlab borish] Hududiy-strategik jihatdan muhim.

GERB [*nem.* Erbe – meros] Ma'lum bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy g'oyalarini, o'ziga xos milliy va tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi alohida ramziy belgi.

GERBSHUNOSLIK Tarix fanining gerblarni o'ziga xos tarixiy manbalar sifatida o'rganuvchi yordamchi sohasi.

GERMENEVTIKA [*yun.* hermeneutike (techne) – izohlash, talqin qilish san'ati] Qadimiy matnlarni talqin qilish san'ati: gumanitar fanlar metodologiyasi hamda inson borlig'ining maqsadi va vositasi tushunishdan iborat degan fikrga asoslangan falsafiy ta'limot.

GERSOG [*nem.* Herzog – saylangan harbiy boshliq] G'arbiy Yevropada yuqori tabaqa dvoryanlarga, knyazlarga beriladigan oliy unvonlardan biri va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

GESTAPO [*nem.* Gestapo – maxfiy davlat politsiyasi] Gitlerchilar Germaniyasida antifashistlarga nisbatan qonli kurash yo'lini tutgan yashirin davlat politsiyasi.

GID [*fr.* guide – yo'l boshlovchi] Sayyohlarni biror hududning diqqatga sazovor, xushmanzara joylari bilan tanishtiradigan shaxs.

GILOZOIZM [*yun.* hyle – modda + zoe – hayot] Materiyaning barcha tur-larini jonli deb hisoblaydigan, materiyaning barcha shakllari sezish va fikrlash qobiliyatiga ega deb biladigan ta'limot.

GILYOTINA [*fr.* guillotine < vrach J.Giloten nomidan] O'lim jazosiga hukm etilganlarning boshini tanasidan judo etish moslamasi.

GIMN [yun. hymnos – tantanavor qo'shiq] Qadimgi Yunonistonda xudolar va qahramonlar maqtoviga bag'ishlangan qo'shiq. *Yana q. madhiya.*

GIMNAZIYA [yun. gymnasion – qadimgi Yunonistonda ta'limni gimnastika bilan qo'shib olib boruvchi o'quv-tarbiya muassasasi] O'zbekistonda va ayrim xorijiy mamlakatlarda: bir qator fanlarni, odatda, gumanitar fanlarni chuqur o'rgatishga ixtisoslashgan o'rta umumta'lim o'quv yurti.

GINEKOKRATIYA [yun. gyne, gynaikos – ayol + kratos – hokimiyat] Ayollar hokimiyati; ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollar hukmronligidan iborat bosqich.

GIPERINFLYATSIYA [yun. hyper – ust, yuqori + lot. inflatio – ko'tarilish] Narx-navoni mutlaqo tartibga solib bo'lmaslik, tovarlar narxining shiddat bilan ko'tarilishi, muomaladagi pul massasining ko'payishi, pul birligi qadrlining keskin pasayishiga, to'lov muomalasining izdan chiqishiga, xo'jalik aloqalarining uzilishiga olib keluvchi iqtisodiy halokat.

GIPOTEZA [yun. hypothesis – asos; taxmin, faraz] Ilmiy bilishni rivojlantirish uchun asos bo'ladigan, lekin hayotda hali sinalmagan, isbot qilinmagan ilmiy taxmin; faraz, faraziya.

GIYOHVAND Tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, bangi qiluvchi tabiiy va sintetik moddalarni iste'mol qilishga moyil shaxs.

GIYOHVANDLIK Narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qilish. Ularni

vaqtincha yoki doimiy iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik; bangilik.

GIYOHVANDLIK VOSITALARI Davlat tomonidan maxsus ro'yxatga kiritilgan va nazoratga olingan, giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi vositalar va o'simliklar.

GLOBAL MUAMMOLAR [fr. global – umumiy < lot. globus – shar] Xalqaro siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda va ijtimoiy sohada, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan, umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari.

GLOBALLASHUV 1 Voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, butun yer sharini qamrab olishi. 2 Jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi.

GNOSEOLOGIYA [yun. gnosis – bilish + logos – ta'limot] Ilmiy bilishning manbalari, shakllari va metodlarini o'rganadigan falsafiy ta'limot.

GRAF [nem. Graf] G'arbiy Yevropada va chor Rossiyasida oliy tabaqali dvoryanlarning knyazdan quyi, barondan yuqori unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

GRAFLIK 1 Chet ellardagi yirik ma'muriy-hududiy birlik. 2 O'rta asrlarda: graf boshqargan merosiy feodal mulk.

GRAN-PRI [fr. Grand Prix – katta, bosh mukofot] Turli tanlov va muso-

baqalarda g'olibga beriladigan oliy mukofot.

GRANT [*ingl.* grand - hadya; ko'mak, yordam; stipendiya] Davlat tomonidan biror ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish uchun yoki boshqa maqsadlarda ayrim shaxslar, jamoalar, tashkilotlarga beriladigan maqsadli o'rin yoki pul mablag'i.

GRANT ASOSIDA TA'LIM OLISH

Bilim olish uchun sarflangan barcha xarajatlarning davlat tomonidan qoplanishi.

GRIF [*fr.* griffe] Biror kimsaning imzosi, tashkilot, muassasa va sh. k.lar nomi bitilgan muhr, shtempel va ularning hujjat ustiga bosilgan nusxasi.

GRIGORIY KALENDARI Rim Papasi Grigoriy XIII [*lot.* Gregorianus] tomonidan Yuliy kalendari (eski stil) o'rniga 1582-yilda joriy etilgan kalendar.

GROSSMEYSTER [*nem.* Großmeister - katta usta] Shaxmat va shashka ustalariga beriladigan eng oliy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxmatchi yoki shashkachi.

GUBERNATOR [*lot.* gubernator - hukmdor] Hozirgi bir qator federativ davlatlar (Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya va b.lar)da saylab qo'yiladigan oliy ma'muriy shaxs: viloyat, shtat, graflik ma'muriyatining boshlig'i.

GUDVILL [*ingl.* goodwill - yaxshi niyat; nomoddiy kapital] Korxonadan alohida identifikatsiya qilinishi va baholanishi mumkin bo'lmagan omillar (korxonaning nomi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning mashhurligi, muayyan

obro' va ishga doir aloqalar mavjudligi, joylashgan yer va b. shunga o'xshash omillar) ta'sirida vujudga keladigan nomoddiy aktiv.

GULAG [*rus.* Главное управление лагерей - axloq tuzatish-mehnat lagerlari, surgun va qamoq joylari bosh boshqarmasi] Sobiq sho'rolar davrida 1934-1956-yillarda ichki ishlar xalq komissariati (NKVD)ning axloq tuzatish-mehnat lagerlari tizimiga rahbarlik qilgan bo'linmasi.

GUMANITAR HUQUQ Xalqaro huquq uchun xarakterli bo'lgan tushuncha bo'lib, ko'pgina davlatlarning konstitutsiyaviy huquqida o'z aksini topgan.

GUMANITAR YORDAM *q. insonparvarlik yordami.*

GUMANIZM [*lot.* humanus - insoniy, odamiy] *q. insonparvarlik*

GUMON QILINUVCHI Biror shaxsning jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxs.

GUNOH [*fors.* - ayb] Diniy-axloqiy tushuncha: shariat qonunlariga, diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakat; jinoyat; ayb.

GUNOHKOR Shariat qonunlariga xilof ish qilgan yoki odob-axloq doirasidan tashqari nojo'ya ish qilgan shaxs; jinoyatchi.

GURUHBOZLIK Bir guruh kishilarning o'z manfaatlari yo'lida jamoada qarama-qarshi guruhlar uyushtirishga qaratilgan harakati.

GUVOH [*fors.* - shohid] Biror voqeadan, narsadan yoki shaxsga oid holatlardan xabardor shaxs.


GUVOH IMMUNITETI Ayrim shaxslarni guvoh sifatida ko'rsatma berish majburiyatidan, ko'rsatma berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi.

GUVOHNOMA Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni yoki shaxs huquqini

rasmiy tasdiqlaydigan, imzo qo'yilgan va muhr bosilgan hujjat.

GUZAR [*fors.* - o'tish joyi; ko'cha; mahalla] *q. mahalla.*

GVARDIYA [*ital.* guardia - soqchilar, qo'riqchilar] **1** Harbiy qo'shinning saralangan, imtiyozli qismi. **2** Muayyan ijtimoiy guruh yoki tashkilotning eng yaxshi, saralangan namunali qismi.



HADIS [a. – xabar, soʻz, suhbat; hikoya, rivoyat] Islom dinida Qurʻondan keyingi muqaddas manba. Muhammad paygʻambarning faoliyati, aytgan soʻzlari, qilgan ishlari, koʻrsatmalari toʻgʻrisidagi rivoyatlar toʻplami.

HADYA [a. – sovgʻa, tuhfa] Muayyan bir shaxs yoki tarafning maʼlum bir ashyo, pul, qimmatbaho sovgʻa, koʻchmas mulk kabilarni boshqa bir shaxs yoki tarafga tekinga mulk qilib berishi yoki mulk qilib berish majburiyatini olishi; taqdim etilgan narsa; sovgʻa, tortiq, tuhfa.

HADYA SHARTNOMASI Hadya qiluvchi hayot vaqtida ashyoni, mol-mulkni boshqa shaxs (hadya oluvchi) egaligiga tekinga berishi yoki berish majburiyatini olishi.

HAFTALIK Yetti kun, bir hafta mobaynida oʻtkaziladigan turli xil ijtimoiy-siyosiy tadbirlar.

HAJ [a. – muqaddas joylarni ziyorat qilish] Islomda musulmonchilikning besh asosiy shartlaridan biri. Unga koʻra, imkoniyati bor musulmonlar oy taqvimining oʻn ikkinchi oyi – zulxijjaning sakkizinchi – oʻn ikkinchi kunlari

Makkada boʻlib, Kaʼba va b. muqaddas joylarni ziyorat qilishi, diniy marosimlarda va Qurbon hayitida ishtirok etishi hamda qurbonlik qilishi lozim.

HAJARUL ASVAD [a. – qora tosh] Makkada hojilar tavof qiladigan katta qora tosh: osmondan tushgan qora tusli meteorit parchasi.

HAKAM [a. – sudya, qozi; trener]
1 Tarafalar oʻrtasidagi kelishmovchilikni, janjalni sudsiz bartaraf etuvchi, kelishtiruvchi xolis vositachi; arbitr. **2** Sud organlarida sudga tushgan ishlarni koʻruvchi va shu ishlar boʻyicha hukm chiqaruvchi lavozimli shaxs. **3** Sport oʻyinlarida, musobaqalarida: oʻyin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib boruvchi va yuzaga kelgan nizolarni hal qiluvchi shaxs; arbitr.

HAKAMLAR SUDI Bahslashayotgan tomonlarning kelishuviga koʻra (qoida tariqasida, ishonchga sazovor mutaxassislardan) tuziladigan sudlov tarkibi. Unga bahslashayotgan tomonlar oʻz oʻrtalarida chiqqan nizoni mohiyatiga koʻra hal qilishni topshiradilar.

HAMD [a. – ulugʻlash, maqtoʻv, madh] Biror kimsa shaʼniga aytiladigan

maqtoʻv she'r. Sharq mumtoz adabiyotida Ollohni madh etuvchi hamdlar ko'p yaratilgan. Ular, odatda, doston muqaddimasining maxsus bobi bo'lgan.

HAMJIHATLIK PRINSIPI Xavfsizlik kengashi doimiy a'zolari (Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy)ning "veto huquqi" deb nomlanuvchi huquqi. Ushbu prinsip BMTning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish va mustahkamlashdek g'oyat muhim harakatlarining samarali va adolatli bo'lishini kafolatlashga da'vat etilgan.

HAQIQAT [a. - chinlik, rostlik, to'g'rilik; chin, to'g'ri gap; tub ma'no] Voqelikka muvofiq keladigan tasavvur va fikr; obyektiv voqelik qanday bo'lsa, uni fikrlarda shunday tasvirlash. Obyektiv dunyoni to'g'ri aks ettiruvchi haqiqat murakkab dialektik bilish jarayonining natijasidir.

HARAKATLAR STRATEGIYASI 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan davlat dasturi, choratadbirlar rejası.

HARAM [a. - xos, begonalar kirishi man etilgan joy; muqaddas, aziz joy; xotinlar, ayollar] **1 din.** Muqaddas deb ajratib qo'yilgan, kirish taqiqlangan joy (mas., Makka shahridagi Muhammad payg'ambarning maqbarasi). **2 din.** Musulmonlarda muqaddas deb hisoblanadigan, qon to'kish, qurol olib kirish taqiqlanadigan joy, hudud. **3 tar.** Pod-

sho, xon va amirning xotinlari istiqomat qiladigan joy. **4** Umuman, xotinlar turadigan ichkari hovli.

HARBIY BILET Harbiy komissarlik tomonidan haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilgan yoki zaxiraga o'tkazilgan (iste'foga chiqarilgan) fuqarolarga beriladigan hujjat.

HARBIY BLOK Davlatlarning umumiy siyosiy, iqtisodiy va harbiy masalalarni hal etish uchun birgalikda harakat qilish maqsadida tuzgan harbiy-siyosiy ittifoqi yoki shartnomasi.

HARBIY BOSHQARUV Saylangan rasmiy shaxslarning emas, harbiy yetakchilarning boshqaruvi. Harbiy boshqaruvning bir necha turlari bor. Ba'zi hollarda boshqaruvni harbiylarning o'zlari, boshqa hollarda esa harbiy hokimiyat tomonidan tayinlangan va harbiylarga bevosita tobe bo'lgan amaldorlar amalga oshiradilar. XX asrda ko'p mamlakatlarda harbiy boshqaruv mavjud bo'lgan.

HARBIY DIKTATURA Butun hokimiyat harbiylar qo'lida bo'lgan davlat tuzumi.

HARBIY DOKTRINA Harbiy qurilish vazifalarini mamlakat va qurolli kuchlarni ehtimol tutilgan urushga tayyorlash yo'llarini, urush olib borishning usullarini belgilab beruvchi rasmiy qarashlar va qoidalar tizimi; davlat rahbarlari tomonidan ishlab chiqiladi.

HARBIY HOLAT Odatda, davlat hokimiyatining oliy organlari qarori bilan favqulodda holat (urush, tabiiy ofat va b.) yuz bergan vaqtda butun

mamlakatda yoki uning ayrim joylarida o'rnatiladigan maxsus huquqiy tartib.

HARBIY JINOYATCHILAR Tinchlikka, insoniyatga qarshi jinoyat qilgan (zo'ravonlik va bosqinchilik, harbiy asirlarni o'ldirish, tinch aholini qirib tashlash, gaz yoki bakteriologik urush olib borish, atom qurolini qo'llash, fuqaro aholini qullikka olib ketish), urushning umum tomonidan e'tirof etilgan qonun va odatlarini buzuvchi shaxslar.

HARBIY KOMMUNIZM Sobiq sovet davlatining 1918-1920-yillardagi, fuqarolar urushi va harbiy intervensiya davridagi iqtisodiy siyosati. Unga ko'ra, butun sanoat korxonalari, don va non savdosi davlat ixtiyoriga olingan, chakana don savdosi man etilgan, barcha tabaqa kishilari uchun jismoniy mehnat majburiyati joriy qilingan.

HARBIY PROKURATURA Ma'lum bir davlat prokuratura organlari tizimiga kiruvchi, ixtisoslashtirilgan prokuratura. Bu prokuratura tizimi viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan.

HARBIY QOZI, qozi askar Musulmon Sharq mamlakatlarida harbiy xizmatdagilarning qozisi; Xiva xonligida: lashkar va qo'shindagi qonun-qoidalar ustidan nazorat qilib, shar'iy masalalarni hal etgan; Usmonli turk imperiyasida: XIV asr o'rtalaridan harbiy-sud tabaqasi boshlig'i, sulton devoni a'zosi.

HARBIY SOLIQ Urush vaqtida harbiy xizmatga jalb etilmagan kishilardan olinadigan soliq.

HARBIY SUD Muayyan bir mamlakat qurolli kuchlarida, boshqa qo'shirlarda sud hokimiyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan sud. Ilgari "harbiy tribunal" deb atalgan.

HARBIY TARIX Harbiy ishning qadim zamonlardan hozirga qadar bo'lgan rivojlanish jarayonini, o'tmishdagi urushlar va qurolli kuchlarni o'rganuvchi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beruvchi fan.

HARBIY TRIBUNAL Qurolli kuchlar xavfsizligiga qarshi, harbiy intizom va harbiy xizmatni o'tash tartiblariga qarshi qilingan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuzilgan sud organi.

HARBIY XIZMAT Ma'lum bir fuqaroning qurolli kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi. Harbiy xizmat davlat tashkilotida va uning manfaatlari yo'lida o'taladi.

HAROM [a. - foydalanish, iste'mol etish shar'an man qilingan, taqiqlangan narsa; muqaddas; noqonuniy] Islom dinida, shariatda: hech qanday shubhasiz, ochiq-oydin ravishda foydalanish man qilingan narsa.

HASADGO'YLIK [a.+fors.] O'zga shaxslarning mavqeyi, qobiliyati, iste'dodi, faoliyatidagi yutuqlari, mol-mulki kabilarga nisbatan g'arazgo'ylik munosabatini ifodalaydigan salbiy xarakter xislati.

HAVORIYLAR [a. - izdosh, shogird; Iso payg'ambar izdoshi] Islomga ko'ra, Iso Masihning eng yaqin 12 ta izdoshi;

xristianlarda "apostollar" deb atalib, ular xristian dinining targ'ibotchilari sanalishadi.

HAYBARAKALLACHI Asossiz, o'rin-siz, quruq maqtovlar aytuvchi, shu tarzda qo'llab-quvatlovchi shaxs.

HAYBARAKALLACHILIK Haybarakallachiga xos ish tutish, amaliy ishdan ko'ra quruq maqtovlar, qo'llab-quvvatlashga berilish.

HAYFSAN Ayrim davlatlarning mehnat kodeksida belgilangan intizomiy choralardan biri: kimsaga biror gunohi yoki xatosi uchun jazo sifatida rasmiy beriladigan tanbeh, jiddiy ogohlantirish.

HAYIT [a. iyd - bayram, tantana] Musulmon davlatlarida har yili ramazon va qurbon oyi tugaganidan so'ng uch kun nishonlanadigan umumiy bayram, xursandchilik.

HAYOT [a. - yashash, mavjud bo'lish, tiriklik] **1** fls. Materiyaning o'z rivojlanishining muayyan bir davridagi harakatlanish shakli. **2** Kishi va jamiyatning yashash tarzi, holati; turmush, tirikchilik.

HAYOT FALSAFASI Hayotning mazmuni, maqsadi, qadr-qimmati haqidagi muammolarni tadqiq va talqin qiluvchi falsafiy oqim. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Germaniya va Fransiyada paydo bo'lgan.

HAY'AT [a. - shakl, surat, ko'rinish; tarkib; tashkilot, muassasa] Biror vazifani bajarishga belgilangan, saylangan kishilar guruhi; tarkib.

HAZRATI OLIYLARI [a. - oliy martabali janob] Podsholarni, imperatorlarni

ulug'lash uchun ularning nomiga qo'shib aytilgan so'z birikmasi.

HASHAR [a. - yig'in, to'da; yig'ilish; qiyomat; bir joyga to'planish] **1** tar. Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston va Eronda xalqni bir joyga to'plab bajariladigan davlat, jamoat yoki ayrim feodallar yumushi (qal'a, qasr qurish, yo'l chiqarish, kanal qazish, dehqonchilik ishlarida ko'maklashish). **2** Hozirgi vaqtda ayrim mamlakatlarda va O'zbekistonda: biror ishni bajarishda ko'pchilikning ixtiyoriy, beg'araz ishtiroki, ixtiyoriy, do'stona ko'magi.

"HIDOYA" [a. - to'g'ri yo'l ko'rsatish, to'g'ri yo'l topish, to'g'ri yo'lga kirish] Islom dinidagi hanafiylik mazhabida keng tarqalgan shariat qo'llanmasi.

HIDOYAT [a. - to'g'ri yo'ldan boshlab borish; boshlash, boshqarish] **1** O'lgah o'z bandalari uchun ko'rsatgan eng to'g'ri yo'l; **2** Haqiqiy e'tiqod yo'ldan yurish.

HIJRA, hijrat [a. - ko'chish, ko'chirish; boshqa mamlakatga ko'chib ketish] Muhammad payg'ambarning Quraysh mushrikleri (xudoning sheriklari bor, degan tushunchaga amal qiladiganlar)ning unga nisbatan dushmanligi kuchayishi natijasida 622-yil 16-iyulda o'z sahobalari, tarafdorlari bilan Makkadan Madinaga ko'chishi (Islom tarixi va musulmonlarning yil hisobi tizimi shu kundan boshlanadi).

HIJRIYA Musulmon mamlakatlari-da yil hisobi boshi va yil hisobi tizimi: Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga ko'chib o'tishi bilan bog'liq va

oy taqvimiga asoslanadi. 638-yili xalifa Umar ibn Xattob buyrug'i bilan musulmonlar o'rtasida 622-yil muharram oyidan hijrat (hijriy) yili hisobi joriy qilingan.

HISBA [a. – nazorat qilish] Vijdon amri yoki xizmat yuzasidan shariat me'yorlariga amal etilishini nazorat qilish. Uni amalga oshiruvchi shaxs "muhtasib" [a. – nazorat qiluvchi] deb ataladi.

HISOR [a. – qurshov, qamal; o'rab olingan, chegaralangan] O'tmishda Markaziy Osiyo xonliklarida qal'a devori; mudofaa maqsadida devor bilan o'rab olingan shahar.

HISSADORLIK JAMIYATI Mulchilik ko'rinishlaridan biri. Turli korxonalar, tashkilot, bank, kompaniya (yuridik shaxslar) va fuqarolar (jismoniy shaxslar) pul mablag'larini sherikchilik asosida va foyda olish maqsadida birlashtirgan xo'jalik yuritish uyushmasi.

HOJI [a. – haj qiluvchi, hajga borgan] Haj marosimlarini to'la-to'kis bajaragan shaxs; Ka'bani ziyorat qilgan shaxsning faxriy unvoni. Hajga borib kelganlarning ismlari oldiga yoki oxiriga *haji* so'zi qo'shib aytiladi. Hajga o'zi bormay, boshqa birovga haq (badal) to'lab, sirdan haj qilgan odam ham hoji hisoblanadi.

HOJIB [a. – xizmatkor; darvozabon] O'rta asr saltanatlarida hukmdor qabulxonasi boshlig'i, eshikog'a. Hojibdan davlat ishlarida hushyor bo'lish, sir saqlash, mamlakat g'a-

nimlari, muxoliflari bilan muzokaralar yurita olish qobiliyati talab qilingan.

HOKIM [a. – hukm yurituvchi, hukmdor; boshqaruvchi, boshliq] **1 tar.** O'rta Osiyo xonliklarida belgili bir shahar va uning atrofidagi qishloqlar ustidan xon va beklar amrini o'tkazish uchun belgilab qo'yilgan amaldor. **2 tar.** Sobiq Turkiston o'lkasidagi ayrim shahar va muzofotlarda chor hukumatining siyosatini o'tkazish uchun belgilab qo'yilgan yuqori mansabli amaldor. **3** O'zbekiston Respublikasida: viloyat, shahar va tumanlarning birinchi rahbarlik lavozimidagi shaxs; hokimlikning birinchi rahbari.

HOKIMI MUTLAQ Ma'lum bir hududda cheksiz hokimlikka ega bo'lgan mansabdor (podshoh, amir va sh. k.).

HOKIMIYAT [a. – davlatchilik; boshqaruv; hokimiyat] **1** Davlatni boshqarish huquqi; siyosiy hukmronlik; davlat organlarining huquq va vakolati. **2** Davlat boshqarmasi va uning organlari; hukumat.

HOKIMIYATLAR MUVOZANATI Davlatda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining konstitutsiyada mustahkamlangan va (yoki) amalda tarkib topgan umumiy holati va vakolatlarining o'zaro nisbati.

HOKIMIYATLAR TAQSIMLANISHI TAMOYILI Davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etishning asosiy tamoyili; kishilarning erkin ravnaq topishi va qonun ustuvorligini ta'minlashning eng muhim sharti.

HOKIMIYATNING LEGITIMLIGI

Ijtimoiy tartib va siyosiy faoliyatning davlat qonunlariga huquqiy mosligi: siyosiy munosabatlar tizimida barqarorlikni ta'minlaydi.

HOMIY [a. - himoya qiluvchi, yordam beruvchi, ko'maklashuvchi] Ma'lum bir jismoniy yoki yuridik shaxs(lar)ni himoya qiluvchi, ularga beg'araz moliyaviy ko'maklashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs(lar) yoki tashkilot; biror kimsani himoya qilish ishonib topshirilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

HOMIY SHAXS Biror loyihani, ijtimoiy, madaniy tadbir o'tkazishni moliyalashtiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs (tashkilot).

HOMIYLIK Qisman va cheklangan darajada muomalaga layoqatli shaxslar, shuningdek, jismoniy kamchiligi tufayli o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda majburiyatlarini bajara olmaydigan fuqarolar to'g'risida davlat g'amxo'rligining alohida shakli.

HOMIYLIK TASHKILOTLARI

Muassasalar va dasturlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi turli xil tashkilotlar, birlashmalar, hokimiyat idoralari.

HOZIRGI ZAMON DEMOKRATIYASI Konstitutsiyada umumiy, teng, to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladigan saylov huquqining rasmiy e'lon qilinganligi; hokimiyat organlarining umummillat, umumxalq vakillik organi deb atalganligi; fuqarolarning tengligi, daxlsizligi; so'z, matbuot,

yig'ilish, mitinglar, ko'cha namoyishlari o'tkazish va vijdon erkinligi va b.

HUDUD [a. - "had(d)" so'zining ko'pligi: chegaralar] Mamlakat, uning viloyati, shahri kabilarning muayyan maydoni, chegarasi.

HUDUDIY BIRLIK Davlat hududining davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan va faoliyat ko'rsatadigan ayrim bir qismi.

HUDUDIY USTUNLIK Muayyan bir davlatning hududini uning roziligisiz o'zgartirish mumkin emasligi. Davlat o'z hududida ustunlikni amalga oshiradi.

HUDUDIY YAXLITLIK Davlat sifatida ma'lum bir mamlakatga asos qilib olingan prinsiplardan biri; zo'rlik bilan hududni parchalash yoki hududning bir qismini bosib olishni taqiqlovchi xalqaro huquqiy tamoyillardan biri.

HUJJAT [a. - dalil, isbot; sabab, bahona] **1** Kimsaning kimligini (shaxsiyatini), mashg'ulotini, biror tashkilotga a'zolicini tasdiqlovchi guvohnoma: pasport, guvohnoma, talabalik bileti, a'zolik bileti va sh. k. **2** Biror ish-faoliyat yoki narsaga haq-huquq va sh. k.ni ko'rsatuvchi, tasdiqlovchi ish qog'ozi. **3** Ilmiy, ijtimoiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yozuvlar, suratlar, asar yoki adabiyotlar.

HUKM [a. - hukmronlik, hokimiyat; tuzum; qaror, to'xtam, buyruq; fikr] *huq.* Sud, huquqiy mahkama yoki shaxsning jinoiy ish yuzasidan chiqarilgan uzil-kesil, qat'iy qarori; shuning-

dek, biror ish yuzasidan bo'lgan ajrim xulosasi, qarori.

HUKM QILMOQ Jinoiy jazo yoki biror ish haqidagi qarorni belgilamoq, sud qarori bilan jinoiy jazoni belgilamoq.

HUKMDOR [*a.+fors.* – hukm qilish huquqi bo'lgan, hokimiyat egasi] Ayrim mamlakatlarda mutlaq hokimlik qiluvchi hukmdorlarning unvoni va shunday unvonga ega bo'lgan shaxs.

HUKMNI IJRO ETISH Sud hukmini ijro etish faoliyati: hukmni ijro ettirish uni qabul qilgan sud zimmasida bo'ladi.

HUKMRON PARTIYA Demokratiya sharoitida parlamentning quyi palatasida ko'pchilik deputatlik mandatiga ega bo'lgan va shunga ko'ra hukumatni shakllantirishga ta'sir etadigan partiya.

HUKUMAT [*a.* – boshqarish, boshqaruv; boshqaruv mahkamasi] Davlat hokimiyatining davlat boshqaruvini bevosita amalga oshiruvchi, farmoyish beruvchi va ijro etuvchi oliy organi.

HUKUMAT BOSHIG'I Davlatda ijro etuvchi yoki farmoyish beruvchi oliy organga boshchilik qiladigan kishi. Odatda, hukumat boshlig'i "bosh vazir" yoki "premyer-ministr" deb ataladi.

HUQUQ [*a.* – "haq(q)" (to'g'ri, rost, haqqoniy; adolat) so'zining ko'pligi] **1** huq. Davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini va b.ni tartibga soladigan qonun-qoidalar, me'yorlar majmui. **2** Kimsaga biror ish-harakat qilish uchun berilgan, davlat qonunlari yoki

boshqa xil qonun-qarorlar bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyor. **3** ayn. **yurisprudensiya; huquqshunoslik.**

HUQUQ FUNKSIYALARI

Huquqning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatuvchi funksiyalar; ularning haqqoniy, aniq mohiyati va ijtimoiy ahamiyati ko'p jihatdan davlatning xususiyati bilan belgilanadi.

HUQUQ IJODKORLIGI Davlat va jamiyat taraqqiyoti yo'lida yagona va bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan huquqiy me'yorlar tizimini yaratish va takomillashtirish. U orqali jamiyatdagi turli xil ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.

HUQUQ IJODKORLIGI TASHABBUSI Vakolatli organga huquqiy hujjat qabul qilish taklifi bilan chiqish va hujjat loyihasini taqdim etish.

HUQUQ MANBALARI Huquqiy me'yorlar qayd qilingan hujjatlar: konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, farmonlar va hokimiyat organlarining hujjatlari va b.

HUQUQ SUBYEKTI Davlat tomonidan subyektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar egasi bo'lish layoqatiga ega deb e'tirof etilgan, huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shaxs yoki tashkilot.

HUQUQ TIZIMI Har bir mamlakatda mavjud bo'lgan turli huquq tarmoqlarining yig'indisi. Uning konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, xo'jalik huquqi kabi va b. tarmoqlari mavjud.

HUQUQBUZARLIK Huquq me'yorlariga, qonun va b. hujjatlarga rioya qilmaslik; huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ham bo'lishi mumkin.

HUQUQIY DAVLAT Fuqarolarning huquq va erkinliklari huquq jihatidan har tomonlama kafolatlanadigan, huquq va qonunning ustuvorligi hamda mas'uliyati ta'minlanadigan, qonunlarning to'g'ri amal qilishi, fuqarolarning davlat oldidagi va, aksincha, davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, demokratiya, qonuniylik va konstitutsiyaviylik tartiblari mavjud bo'lgan davlat.

HUQUQIY HARAKAT Amaldagi qonun me'yorlari asosida vujudga keladigan hamda shu me'yorlar bilan tartibga solinadigan harakat.

HUQUQIY HUJJAT Davlat hokimiyati yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakolatli organlari, mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadigan rasmiy yozma hujjat.

HUQUQIY KAFOLAT Huquq va erkinliklarni qonunlarda yozib qo'yish bilan cheklanmay, shu qonunlarda ularni amalga oshirish yo'llarining belgilanishi.

HUQUQIY LAYOQAT Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati. Fuqaroning huquqiy layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

HUQUQIY MADANIYAT Umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi, fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi me'yor. Bu tushuncha

huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi idroki, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'si singari qismlardan tashkil topgan.

HUQUQIY ME'YOR Huquqni belgilovchi, huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar; davlat tomonidan qonun bilan belgilangan va barcha uchun bajarilishi majburiy hisoblangan axloqiy qoidalar.

HUQUQIY MUNOSABAT Huquq me'yorlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar.

HUQUQIY ODAT Jamiyatda ko'p marta va uzoq muddat qo'llanishi natijasida vujudga kelgan va davlat tomonidan ma'qullangan fe'l-atvor qoidasi.

HUQUQIY ONG Huquqiy hodisalarni aks ettiruvchi va huquqiy qadriyatlar, huquqni anglash, huquqni tushunish, zarur huquqiy tartibni saqlash bilan bog'liq ijtimoiy va individual ongga mansub tushuncha.

HUQUQIY VORISLIK Bir shaxsdan ikkinchi shaxsga huquq va majburiyatlarining yoki majburiyatlar bir qismining o'tishi. Huquqiy vorislik qonun kuchi bilan, shartnoma yoki boshqa yuridik asoslarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR Qonuniylikni va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat asosiy funksiyalarni amalga oshiruvchi davlat organlari.

HUQUQNI QO'LLASH Vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan huquq me'yorlarining qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishi; hokimiyat faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri.

HUQUQNING MAJBURIYLIGI Davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan yurish-turish qoidalari va xatti-harakatlari.

HUQUQSHUNOSLIK [*a.+fors.*] Huquqni o'rganuvchi, huquqqa oid fanlar majmui.

HURFIKRLILIK Xalq hokimiyati (demokratiya)ning asosiy tamoyillaridan biri; shaxs erkinligini, shaxs bilan jamiyatning uyg'unligini ta'minlovchi omil.

HURMUZD, AHURAMAZDA Zardushtiylik dinida tasavvur etilgan ezgulik xudosi. U yorug'lik, obodonlik, salomatlik, tinchlik, farovonlik kabi barcha ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchidir.



IBODAT [a. – qulluq qilish; sig'inish, topinish] *din*. Dindorning xudoga muayyan tartibda yakka yoki ko'pchilik bo'lib sig'inishi.

IBODATXONA [a.+fors.] Dindorlarning ibodat qiladigan joyi yoki binosi.

IBTIDOIY [a. – boshlang'ich, dastlabki, ilk] Insoniyat tarixining birinchi, eng qadimgi, dastlabki davriga oid.

IBTIDOIY JAMIYAT Ibtidoiy odamlarning paydo bo'lishidan to davlat, davlatchilik yuzaga kelguniga qadar bo'lgan davr.

IBTIDOIY JAMOA TUZUMI Kishilik tarixidagi birinchi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya.

IDEAL [fr. ideal < yun. idea – g'oya, tushuncha, tasavvur] **1** Jamiyat, shaxs orzu-intilishlarining eng oliy maqsadi, eng yuksak namunasi, kamoloti. **2** U yoki bu narsa, hodisaning eng yaxshi, eng qadrlil, eng mukammal holati.

IDEALIST Idealizm tarafdori.

IDEALISTIK Idealizmga tegishli, idealizmga xos yoki unga asoslangan.

IDEALIZM [fr. idealisme < yun. idea – g'oya, tushuncha] Falsafadagi asosiy oqimlardan biri; ong, ruh, tafak-

kur birlamchi, materiya, tabiat, borliq ikkilamchi deb talqin etuvchi qarashlar tizimi.

IDEALLASHTIRISH 1 Aslida mavjud bo'lmagan, lekin real olamda timsoli bor bo'lgan obyektlar, jarayonlar va hodisalar haqidagi tushunchalarni fikran modellashtirish. **2** Bir narsani aslida bo'lganiga qaraganda yaxshilab ko'rsatish yoki tasvirlash, bo'yab ko'rsatish. **3** Biror kishini yoki biror narsani juda yuksak qilib tasvir etish, uning ijobiy tomonlarini ko'rttirib ko'rsatish.

IDENTIFIKATSIYA [lot. identificare – aynanlashtirmoq, tenglashtirmoq] **1** Kriminalistikada – umumiy va xususiy belgilariga qarab obyekt yoki shaxsning aynanligini aniqlash. **2** Shaxsning o'zini boshqa inson, guruh, namunaga o'xshatishi

IDEOLOGIYA [yun. idea – g'oya, tushuncha + logos – fan, ta'limot] Jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik va falsafiy qarashlar va g'oyalar tizimi: kishilarning voqelikka bo'lgan munosabatlari, shular orqali baholanishi.

IDORA [a. – boshqaruv, ma'muriyat, muassasa] **1** Belgilangan tartibda bosh-



qarish, yo'lga solib borish, boshqarish. **2** Ma'lum bir ijtimoiy, davlat, xo'jalik, savdo va sh.k. tarmoqlarni boshqarish uchun shtatli xodimlari va ma'muriyati bo'lgan tashkilot, muassasa, boshqarma va ular o'rnashgan bino.

IDROK [a. - fahmlash; ong, tushuncha] **1** Bevosita sezgi a'zolariga ta'sir etayotgan obyektiv mavjudot, predmet va hodisalarning kishi ongidagi in'ikosi. **2** Tashqi dunyo voqea-hodisalarini bilish, tushunish qobiliyati; zehn, fahm, farosat.

IJARA [a. - biror narsani foyda, haq evaziga berish yoki olish] **1** Mustaqil xo'jalik yuritish yoki boshqa biron faoliyatni amalga oshirish maqsadida biror shaxs yoki tashkilotga tegishli yer, suv, korxon, uy-joy va b. mulkka vaqtincha egalik qilish va undan foydalanish. **2** q. ijara haqi.

IJARA HAQI Ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga olingan mol-mulkka vaqtinchalik egalik qilish yoki undan foydalanish evaziga to'lanadigan haq.

IJARA (LIZING) TO'LOVI Ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) va ijarachi o'rtasida tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to'lanadigan summa.

IJARA SHARTNOMASI Ijaraga beruvchi bilan ijaraga oluvchi o'rtasida taraflarning tenghuquqliligi asosida tuzilgan kelishuv, bitim.

IJARACHI **1** Uy-joyini, yerini yoki narsalarini ijaraga beruvchi kishi. **2** Birovning uyida ijarada turuvchi.

IJOD ERKINLIGI Fuqarolarning o'zlari xohlagan sohada, xohlagan

mavzuda ilmiy-ijodiy, ijodiy-badiiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

IJRO [a. - joriy bo'lish, amalga oshish] Amalga oshirish, bajarish.

IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat va sud hokimiyati kabi mustaqil tarmoqlaridan biri.

IJRO VARAQASI huq. Sud hukmini majburiy amalga oshirish uchun yozilgan hujjat.

IJRO YIG'IMI Sud ijrochisi tomonidan ijro hujjatlarini majburiy ijro etish bo'yicha harakatlar amalga oshirilganligi uchun qarzdordan undiriladigan yig'im.

IJROIYA [a. - ijro etuvchi, bajaruvchi] Amalga oshiruvchi, bajaruvchi tashkilot, organ.

IJROIYA QO'MITASI Tuman, viloyat, shahar kengashlarining ijro etuvchi va boshqaruvchi organi.

IJTIMOY [a. - jamoa, jamiyatga oid] Inson va jamiyat hayotiga oid.

IJTIMOY ADOLAT Ijtimoiy-axloqiy tushuncha bo'lib, bunda insonning tevarak-atrofdagi yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarga haqqoniy munosabati aks etadi; jamiyatga oid odillik, odilona ish tutish.

IJTIMOY DAVLAT Davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi bo'yicha sifat tavsifi bo'lib, unga ko'ra, inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari konstitutsiyaviy kafolatlanishi taqozo etiladi.

IJTIMOY FALSAFA Falsafa fanining jamiyat va uning taraqqiyot qonuniyat-

larini, undagi hodisa va jarayonlarni yaxlit tizim sifatida o'rganuvchi sohasi.

IJTIMOY FANLAR Inson va jamiyat hayotiga oid ilmlar majmui.

IJTIMOY FIKR Jamiyatda amalga oshayotgan jarayonlar, turli vaziyatlar, voqealar va xatti-harakatlarning jamiyat a'zolari ongidagi in'ikosi.

IJTIMOY GURUHLAR Muntazam ravishda bir-biri bilan o'zaro munosabatga kirishadigan shaxslar guruhi.

IJTIMOY HAMKORLIK Ijtimoiy hayotda faoliyat yuritayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi birdamligi, birgalikda ish yuritishi.

IJTIMOY HARAKAT Harakatning o'ziga xos shaklini, ijtimoiy borliqdagi har qanday o'zgarishlar va o'zaro aloqalarni ifodalovchi tushuncha.

IJTIMOY HIMOYA Jamiyatda qaror topgan va mamlakat aholisining ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

IJTIMOY-IQTISODIY FORMATSIYA Tarixiy materializmning jamiyat taraqqiyotidagi muayyan bosqichi.

IJTIMOY-IQTISODIY UKLAD Ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy xo'jalik yuritish tizimi.

IJTIMOY ISHLAB CHIQRISH Jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'ladigan ne'matlarni yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmui.

IJTIMOY JAMG'ARMA Fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida ta'sis etilgan tashkilot.

IJTIMOY KAPITAL Jamiyatda o'zini o'zi ko'paytirish uchun foydalaniladigan, o'z egasiga foyda, daromad keltiradigan boylik.

IJTIMOY MAHSULOT Jamiyatda ma'lum bir davr davomida, odatda, bir yilda yaratilgan barcha milliy ne'matlar yig'indisi.

IJTIMOY-MAISHIY INFRATUZILMA Aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalari – maorif, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat va b.

IJTIMOY MAQOM Shaxsning yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoriga ko'ra jamiyatda tutgan o'рни.

IJTIMOY MEHNAT Moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda va turli xizmat jarayonida bevosita o'zaro munosabatda bo'lgan kishilar mehnati.

IJTIMOY MEHNAT TAQSIMOTI Ijtimoiy mehnatning mustaqil vazifalarni bajaruvchi mehnat turlariga ajralishi, ya'ni mehnat faoliyati turlarining alohidalashuvi.

IJTIMOY MOBILLIK Kishilar va ijtimoiy guruhlarining turli pozitsiyalarni egallashi, ijtimoiy o'rin almashinuvini anglatuvchi tushuncha.

IJTIMOY MOSLASHUV Individning ijtimoiy mehnatga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi.

IJTIMOY MUNOSABATLAR Jamiyatda kishilar o'rtasida yuzaga keladi-



gan ongli, maqsadga yo'naltirilgan aloqalar.

IJTIMOY NAFAQA Mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaganligi tufayli, davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan sug'urtalanmagan va tegishli mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga davlat tomonidan byudjet hisobidan amalga oshiriladigan to'lov turi.

IJTIMOY OQIM Ijtimoiy faoliyat, ilm-fan, nazariya va sh. k.larning biror sohasidagi yo'nalishi.

IJTIMOY QATLAM Jamiyatda ijtimoiy jihatdan bir xil bo'lmagan, alohida guruhlar, tabaqalar.

IJTIMOY QONUNCHILIK Fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini belgilash, ularning amalga oshirilishi va kafolatlanishini, himoyalashini ta'minlashni nazarda tutuvchi qonunchilik.

IJTIMOY-SIYOSIY TAFAKKUR Jamiyatdagi mavjud siyosiy munosabatlar, nazariya va qarashlarni o'zida aks ettiruvchi siyosiy ong shakli.

IJTIMOY-SIYOSIY G'OYALAR Har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlari, maqsadlarini ifodalovchi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etuvchi umuminsoniy g'oyalar.

IJTIMOY SUG'URTA Xodimlar qariganida, mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotganida, boquvchisidan mahrum bo'lganida, shuningdek, ularning yo'qotilgan ish haqlarini qoplash hamda sog'liqlarini muhofaza qilish maqsadlarida moddiy ta'minot olishlari uchun maxsus yordam ko'rsatish tizimi.

IJTIMOY TA'MINOT Muayyan holatlar yuzaga kelganda aholining barcha qatlamlariga davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maxsus fondlardan beriladigan moddiy yordamlar yoki natural shaklda ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar.

IJTIMOY TUZUM Jamiyat rivojining muayyan bosqichida kishilar o'rtasida tarixan qaror topgan va ana shu jamiyatga xos bo'lgan munosabatlar tizimi.

IJTIMOY YORDAM Moddiy jihatdan qiynalgan fuqarolar va oilalarni davlat yoki jamiyat mablag'lari hisobidan moddiy-ijtimoiy himoyalash shakllaridan biri.

IJTIMOYLAHV Inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, me'yorlar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilish jarayoni.

IKKI FUQAROLILIK Shaxsning tegishli hujjatlar asosida bir yo'la ikki davlatning fuqaroligiga mansubligi.

IKKI HAQIQAT NAZARIYASI Falsafa va ilohiyotni haqiqatni bilish hamda xudoga yaqinlashishning ikki mustaqil yo'li deb talqin etuvchi ta'limot.

IKKI PALATALI TIZIM Davlat huquqida: vakolatli organ tarkibida boshqa-boshqa nomga ega bo'lgan va, odatda, alohida-alohida ish ko'radigan ikki palataning mavjudligi.

IKKI PARTIYALI TIZIM Hokimiyat uchun asosiy saylovoldi kurashida ikki ta partiya ishtirok etadigan va ularning har ikkisi davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniga ega bo'lgan tizim.

IKKINCHI FRONT Ikkinchi jahon urushi davrida AQSH va Buyuk Britaniya tomonidan shimoli-g'arbiy Fransiya desant tushirilgandan keyin fashistlar Germaniyasiga qarshi G'arbda ochilgan front.

IKKINCHI INTERNATSIONAL tar. Sotsialistik partiyalarning xalqaro uyushmasi.

IKKINCHI JAHON URUSHI Insoniyat taraqqiyotida jahonning ikki yirik harbiy-siyosiy koalitsiyasining qonli qurolli to'qnashuvi (1939-yil 1-sentyabr-1945-yil 2-sentyabr). Unda o'sha paytdagi 73 ta mamlakatdan 62 tasi (Yer sharining 80 foiz aholisi) ishtirok etgan.

IKKINCHI JAHON URUSHI QAT-NASHCHILARI 1939-1945-yillarda harbiy xizmatda, partizanlik harakatida, umuman, fashizmga qarshi harbiy janglarda qatnashgan shaxslar.

ILLAT [a. - kamchilik, nuqson; sabab] Me'yoriylikni buzuvchi, yomon oqibatlarga olib boradigan zararli xatti-harakat.

ILM [a. - bilim; fan; nazariya] O'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui.

ILMIY BASHORAT Tabiat va jamiyatning ayni paytda noma'lum, lekin kelajakda yuzaga kelishi yoki o'rganilishi mumkin bo'lgan hodisalarini ilmiy qonuniyatlar asosida aytib va tasvirlab berish.

ILMIY DARAJA Muayyan fan sohasidagi mutaxassisning ilmiy malaka darajasi.

ILMIY EKSPERTIZA Mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarning o'rganilishi.

ILMIY IZLANISH Ilmiy tadqiqotning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yangiliklar topishga qaratilgan faoliyat; yangi natijalar olishda davom etish hamda yangi bilim hosil qilishdan iborat.

ILMIY ISHLANMALAR BOZORI Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va turli loyihalar oldi-sotti qilinadigan bozor.

ILMIY KENGASH Ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlarida ilmiy-o'quv ishlarini tashkil etuvchi hamda uning bajarilishini nazorat qiluvchi organ.

ILMIY SAVIYA Shaxs, narsa yoki hodisaning sifat, taraqqiyot darajasi.

ILMIY TADQIQOT Yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri.

ILMIY TAFAKKUR Obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; ilmiy fikrlash.

ILMIY UNVON Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va ilmiy-tekshirish institutlari ilmiy xodimlariga beriladigan unvon.

ILOHIYOT [a. - xudo to'g'risidagi ta'limot; teologiya] Xudo va din aqidalari haqidagi ilohiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot majmui.

ILOHIY [a. - Ollohga, xudoga oid] Xudoga, ilohiyotga oid, xudoning qudratiga bog'liq, deb tasavvur qilinadigan.

ILOHIYLASHTIRISH Ilohga, ilohiyotga bog'lash, ilohiy tus berish.

ILOVA [a. - qo'shilgan, tirkalgan narsa] **1** Bayon etilgan asosiy fikr yoki rasmiy hujjatga qo'shimcha izoh, tafsilot. **2** Kitob, gazeta yoki jurnalga qo'shib chiqariladigan alohida nashr.

ILTIMOSNOMA [a. + fors.] Jinoyat-protsessual huquqda: sud jarayoni ishtirokchilarining o'z vakolatlari doirasiga kirmagan harakatning amalga oshirilishini so'rab, davlat organi va mansabdor shaxslarga qilgan murojaatlari.

IMKONIYAT [a. - mumkinlik] **1** Zarur yoki qulay shart-sharoit; imkon **2** Yuzaga chiqish, chiqarish uchun mavjud kuch-qudrat, qobiliyat; vosita.

IMMIGRANTLAR [lot. immigrants, immigrantis - ko'chib keluvchi] Bir davlatdan boshqa bir davlat hududiga doimiy yoki uzoq vaqt istiqomat qilish uchun ko'chib kelgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

IMMIGRATSIYA [lot. immigrare - ko'chib kelmoq] Chet ellik kishilarning biron mamlakatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun ko'chib kelishi.

IMMIGRATSIYA KVOTASI Biron-bir davlat hududiga kiritilishi mumkin bo'lgan immigrantlar sonining cheklanishi.

IMMUNITET [lot. immunitas - biron narsadan xalos bo'lish, xalos qilish; qutulish] **1** Xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va ularning xodimlari foydalanadigan alohida huquq va imtiyozlar. **2** Qonun chiqaruvchi davlat or-

ganlari a'zolari (deputatlar)ning daxlsizligi. **3** Mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiluvchi qadriyatlar tizimi. **4** Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar.

IMOM [a. - boshliq, rahbar; peshvo, namozda oldinda turuvchi] **1** Musulmonlarda diniy rahbar, ustoz. **2** Musulmon jamoasining boshlig'i, g'oyaviy rahbar. **3** Masjidda jamoat oldida turib, namozni boshqaruvchi.

IMON [a. - Ollohga ishonch, diniy e'tiqod] Islomning besh ruknidan biri; Allohga, uning farishtalariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga va o'lgandan keyin tirilishga ishonish.

IMPERATIV MANDAT Saylovchilarning deputat orqali vakolatli organlarga topshirig'i, talabi.

IMPERATOR [lot. imperator - hukmdor, qo'mondon] **1** tar. Monarxiya davlatlarida qirollik va podsholik oliy unvoni. **2** Ayrim yirik, ko'p millatli davlatlarda podshohlarga berilgan unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

IMPERIALIZM [fr. imperialisme < lot. imperium - hokimiyat] Hududlarni bosib olishga, qaram qilishga, boshqa davlatlar ustidan siyosiy yoki iqtisodiy nazorat o'rnatishga qaratilgan davlat siyosati.

IMPERIYA [lot. imperium - hokimiyat] **1** Imperator boshqargan monarxiya davlatining nomi; ba'zi qadimgi zamon, o'rta asr yirik monarxiya davlatlari. **2** Mustamlakalari bo'lgan yirik totalitar davlat.

IMPICHMENT [*ingl.* impeachment – tanbeh berish, ayblash] Bir qator mamlakatlarda parlament tomonidan oliy davlat lavozimidagi shaxslarni sodir qilgan xatolari, jinoyatlari uchun javobgarlikka tortishning alohida tartibi.

IMPLEMENTATSIYA [*lot.* implere – (ortig'i bilan) bajarmoq, ijro etmoq] Davlat tomonidan xalqaro-huquqiy me'yorlarning o'z hududida amalga oshirilishi.

IMPORT [*ingl.* import < *lot.* importare – keltirmoq, olib kelmoq] Mamlakatga chet ellardan tovarlar yoki kapital keltirish.

IMPORT BITIMI Tovar yoki xizmatlarni boshqa mamlakatlardan sotib olish va davlat hududiga olib kelish.

IMPORTYOR [*fr.* importeur < *lot.* importare – olib kirmoq] Chet eldan tovarlar, qimmatli qog'ozlar olib kirish bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki tashkilot.

IMTIHON [*a.* – sinov; tajriba] O'quvchi va talabalar bilimni tekshirish usullaridan biri.

IMTIYOZLAR [*a.* – ortiqcha huquq, yengillik] Muayyan sabablarga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan afzalliklar.

IMTIYOZLI AKSIYA Dividend, olingan foydaga qarab emas, balki oldindan belgilangan qat'iy foizlarga qarab beriladigan aksiya.

IMTIYOZLI KREDIT Dividend, olingan foydaga qarab emas, balki oldindan belgilangan qat'iy foizlarga qarab beriladigan kredit.

IMZO [*a.* – qo'l qo'yish, tasdiqlash] Muayyan shaxsning o'z qo'li bilan max-

sus yozuvda ifoda etilgan va uning o'zi ekanini bildiruvchi belgi; qo'l qo'yish.

IMZOLAMOQ Imzo qo'yimoq, imzosi bilan tasdiqlamoq, qo'l qo'yimoq.

INAUGURATSIYA [*ingl.* inauguration – lavozimni bajarishga kirishmoq < *lot.* inaugurare – bag'ishlamoq; nom (unvon) bermoq] Davlat boshlig'ining shu oliy lavozimni bajarishga kirishishi munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali marosim.

INDEKSATSIYA [*ingl.* indexation < *lot.* index – ko'rsatkich; ro'yxat] Iste'mol tovarlari va ko'rsatilayotgan xizmat narxlari ko'tarilishini qisman qoplash maqsadida aholining pul daromadlarini oshirish mexanizmi.

INDEKSLASH [*lot.* index – ko'rsatkich, ro'yxat] Iste'molchilarni inflyatsiyadan himoya qilish usullaridan biri bo'lib, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxining o'sib borishiga mos ravishda davlat tomonidan fuqarolarning pul daromadlarini oshirib borish.

INDETERMINIZM [*lot.* in – inkor qo'shimchasi + determinare – aniqlamoq; chegaralamoq; qismlarga ajratmoq] Tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarining obyektiv sababiy bog'lanishlarini inkor etuvchi ta'limot.

INDIVIDUALIST O'z qarashlari, xatti-harakatida individualizm belgilarini namoyon qiluvchi shaxs.

INDIVIDUALIZM [*fr.* individualisme < *lot.* individuum, individuus – bo'linmas, ajralmas] Shaxsiy manfaatlarini jamiyat, jamoa manfaatlaridan yuqori qo'yuvchi yoki ayrim shaxsni jamiyatga

qarama-qarshi qo'yishga asoslanuvchi nuqtayi nazar.

INDIVIDUALLIK Muayyan hodisa, alohida jonzot, insonning beqiyos o'ziga xosligi; betakror, xususiy belgilar.

INDUKTIV MANTIQ Xususiylkdan umumiylikka qarab xulosalar chiqarishning mantiqiy jarayonlari bilan shug'ullanuvchi soha.

INDUKTIVIZM [*lot.* inductio – yo'qlash] Bilish tamoyili, unga ko'ra, bilim ayrim kuzatish va eksperimentlar natijalarining umumlashtirish mahsulidir.

INDUSTRIYA [*lot.* industria – faoliyat; mehnatsevarlik, tirishqoqlik] Xalq xo'jaligining jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhim tarmog'i.

INFLYATSIYA [*lot.* inflatio – shishish, bo'rtish, ko'tarilish] Qog'oz pullarning muomalaga g'oyat darajada ortiq chiqarilishi tufayli ko'payib ketishi, qadrsizlanishi, xarid qilish quvvatining pasayishi.

INFORMATSION AGENTLIK Matbuot organlari, radioeshittirish va televideniye davlat va jamoat tashkilotlari, ishbilarmonlar va b. uchun axborot yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanadigan tashkilot.

INFORMATSIYA [*lot.* informatio – tushuntirish, bayon qilish] Axborot, ya'ni kishilar tomonidan og'zaki, yozma va b. usullar bilan beriladigan ma'lumotlar, xabarlar.

INFRATUZILMA [*lot.* infra – ostida] Ishlab chiqarish va tovar muomalasi,

shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

INJIL [*a.* < *yun.* euangelion – xush, yaxshi habar] Bibliyaning bir qismi: Iso Masih haqidagi hikoyalardan tuzilgan to'rt diniy kitobning umumiy nomi.

INJINIRING [*ingl.* engineering – ixtirochilik] Ishlab chiqarishni tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda tashkil etishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish va b. yuzasidan maslahat berish.


INKORNI INKOR QONUNI Dialektikaning asosiy qonunlaridan biri bo'lib, uning mohiyati tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti jarayonining mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

INKVIZITOR [*lot.* inquisitor – izlovchi, qidiruvchi; ayg'oqchi] Inkvizitsiya sudining a'zosi.

INKVIZITSIYA [*lot.* inquisitio – qidiruv, tergov] *tar.* XII – XIX asrlar katolik cherkovining davlat hokimiyatidan mustaqil ravishda ish yurituvchi maxsus sud-tergov va jazo muassasasi; murakkab josuslik, maxfiy qidiruv, yashirin sud tashkiloti.

INNOVATSION Innovatsiyaga oid; innovatsiya natijasida paydo bo'lgan.

INNOVATSIYA [*ingl.* innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro] Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, ularning turli sohalarda faoliyat doiralarida qo'llanishi.



INOYATNOMA [*a.* inoyat - g'amxo'rlik + *fors.* noma] **1** Podshoh, xon, amir, shuningdek, boshqa ulug' mansabdor kishilardan kelgan va ma'lum iltifot bayon qilingan maktub. **2** XV - XVIII asrlarda biror soliq va jarimadan ozod qilinganlik yoki biror imtiyoz olganlikni ko'rsatuvchi rasmiy hujjat. **3** Qo'qon xonligida nufuzli kishilar safarga chiqqanlarida xon tomonidan qatag'on qilingan yer, o'rmon, ko'l va h.k.dan yo'l-yo'lakay foydalanish uchun berilgan ruxsatnoma.

INQILOB [*a.* - o'zgarish, to'ntarish; isyon] **1** Jamiyat hayoti va uning sohalarida bo'ladigan chuqur sifat o'zgarishi; tubdan o'zgarish. **2** Bir ijtimoiy tuzumni boshqasi bilan almashtirish orqali bo'ladigan o'zgarish, to'ntarish.

INQIROZ [*a.* - oxir bo'lish, bitish, tugalish] Taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul, tushkunlik.

INSON HUQUQLARI Insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha.

INSONIYLIK Insonga xos fazilat, xususiyat, tariqat.

INSONPARVARLIK Insonning erkinligi, qadri, baxt-saodati, teng-huquqligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha.

INSONPARVARLIK YORDAMI Tabiiy ofatlar, texnolog halokatlar yoki ij-

timoiy nobarqarorlik tufayli jabr ko'rgan hududlarning aholisiga, shuningdek, qashshoq aholiga xalqaro tashkilotlar, milliy gumanitar institutlar tomonidan ko'rsatiladigan moddiy-ma'naviy yordam.

INSPEKSIYA [*lot.* inspectio - kuzatish, nazorat] **1** Ma'lum soha, tarmoqdagi organlar va shaxslar faoliyatining to'g'riligini nazorat qiluvchi hamda muayyan sohalarda qonunlar ijrosini tekshiruvchi tizim.

INSPEKTOR [*lot.* inspector - nozir, kuzatuvchi] Inspeksiya ishi bilan shug'ullanuvchi shaxs; nozir, nazoratchi.

INSTANSIYA [*lot.* instantia - bevosita yaqinlik] Bir-biriga bo'ysunadigan tashkilotlar, davlat boshqarmalari, sud organlari, jamoat va b. tashkilotlar tizimidagi bosqich.

INSTITUT [*lot.* institutum - tartibot; tuzish, ta'sis etish; muassasa] **1** Turli ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. **2** Muayyan doiradagi ijtimoiy munosabatlar, huquq me'yorlarini tashkil etishning alohida shakli.

INSTRUKSIYA [*lot.* instructio - nasihat; yo'l-yo'riq; qo'llanma] Muayyan ishni bajarish, asbob-uskunadan foydalanish tartibi va usullari to'g'risidagi yo'l-yo'riq, ko'rsatma; yo'riqnoma.

INSTRUKTOR [*lot.* instructor - tashkilotchi, tashkil qiluvchi] **1** Muassasa, ijtimoiy tashkilot va qo'l ostidagi shaxslarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, biron-bir ishni to'g'ri yo'lga qo'yishni o'rgatuvchi

shaxs. **2** Ma'lum bir mutaxassislikka o'rgatuvchi, malaka beruvchi kishi.

INTEGRATSIYA [*lot.* integratio - qayta tiklash, butlash, to'ldirish] **1** Milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi: mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ikki yoki undan ortiq davlatlar xo'jaliklarining ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etish jarayoni. **2** Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni.

INTELLEKT [*lot.* intellectus - aql, idrok, tasavvur; idrok qilish] Insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati.

INTELLEKTUAL MULK Ijodiy, aqliy faoliyat mahsuli (ilmiy kashfiyot, tadqiqot va b.).

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI Intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq.

INTELLEKTUALIZM [*lot.* intellectualis - aqliy, aqlli] Falsafiy ta'limot: intellekt vositasida bilishni birinchi o'ringa qo'yish va uni hissiy bilishdan hamda amaliyotdan metafiziklarcha ajratib qo'yish.

INTELLIGENSIYA [*lot.* intelligens, intelligentis - aqlli; biluvchi, tushunuvchi] Ijtimoiy tizimda muayyan o'rniga ega bo'lgan, asosan, aqliy mehnat faoli-

yati bilan shug'ullanadigan ziyolilar ijtimoiy tabaqasi.

INTENSIVLASH Intensiv (tezkor) holatli qilish, mahsuldorlik, hosildorlikni oshirish.

INTENSIYA [*lot.* intentio - yo'nalish, intilish] Ongning, tafakkurning biron-bir predmetga, obyektga yo'naltirilganligi.

INTERAKSIYA [*ingl.* interaction - o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir] Shaxslararo o'zaro ta'sir usuli.

INTERAKTIV [*ingl.* interactive] *q.* interfaol.

INTERFAOL Axborotni kompyuter tarmog'i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslangan.

INTERLINGVA [*lot.* inter - orada, o'rtada + lingua - til] Xalqaro yordamchi tillardan biri.

INTERLINGVISTIKA Tilshunoslikning xalqaro muomalaga mo'ljallangan sun'iy tillar (volapyuk, esperanto va b.), matematik va informatsion tillar qurilishini o'rganuvchi sohasi.

INTERNAT [*lot.* internus - ichki] **1** O'quvchilari davlat tomonidan oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanadigan o'quv yurti; **2** Nogironlar va nuroniylar uyi. **3** O'quv yurti qoshidagi o'quvchilar yotog'i.

INTERNATSIONAL [*fr.* internationale < *lot.* inter - orada, o'rtada + natio, nations - xalq] Tarixda ishchilarning, sotsialistik, kommunistik partiyalarning xalqaro uyushmalari.

INTERNATSIONALIZM [*lot.* inter - aro + nationis - xalq] Ijtimoiy guruhlarning xalqlar, millatlar ozodligi, mus-

taqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o'zaro hamkorlik prinsipi; baynalmilalchilik.

INTERNET [ingl. Internet < lot. inter(national) + ingl. net - to'r, o'rgimchak to'ri: umumjahon tarmog'i] Katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi; butun jahon bo'yicha tarqalgan va telefon hamda optik-tolali liniyalar, modemlar va b. bilan o'zaro bog'langan, har qanday axborotni o'zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui.

INTERPOL [ingl. Interpol < inter(national) - xalqaro + pol(icy) - politsiya] Xalqaro jinoiy politsiya tashkilotining barcha tillar uchun qisqartirilgan nomi.

INTERVAL [lot. intervallum - oraliq, masofa; vaqt oraliq'i] Bir hodisa bilan ikkinchi hodisa o'rtasidagi oraliq, o'tgan va o'tadigan vaqt; tanaffus.

INTERVENSIYA [lot. interventio - aralashuv] Bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashuvi, uning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlari.

INTERVENT Intervensiya uyushtiruvchi yoki unda qatnashuvchi.

INTERVIDENIYE [lot. inter - orada, o'rtada + video - qarayman, nazar solaman] Qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasida dasturlar ayirboshlash maqsadida 1960-yilda tuzilgan xalqaro televi-deniyeh tashkiloti.

INTERVYU [ingl. interview - uchrashuv] Jurnalistika janri; matbuot,

radio yoki televideniye ga uzatish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbatlari va shu suhbat matni.

INTIQOM [a. - o'ch, qasos] O'ch olish, ya'ni kimsaning qilgan yomonligi, yetkazgan ziyoni, tahqirlaganiga yarsha javob qaytarish, jazolash.

INTIZOM [a. - tartib, tartibli tuzilish] Kishilarning jamiyatda tarkib topgan huquq va axloq me'yorlariga, shuningdek, muayyan tashkilot talablariga javob beruvchi ma'lum xatti-harakatlari tartibi.


INTIZOMIY JAVOBGARLIK Mehnat intizomini buzuvchilarga intizomiy jazo qo'llash yo'li bilan ta'sir ko'rsatish shakli.

INTIZOMLI Intizomni mahkam tutuvchi, unga amal qiluvchi, bo'ysunuvchi; tartibli.

INTUITSIYA [lot. intuitio < intueri - sinchiklab, diqqat bilan qaramoq] Haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita, shuningdek, avvalgi tajribalariga asoslangan holda anglab olish qobiliyati.

INVENTAR [lot. inventarium - mol-mulkni ro'yxatga olish; xo'jalik buyumlari] Xo'jalik ehtiyojlari va ishlab chiqarish maqsadlarida qo'llanadigan turli narsa va jihozlar majmui.

INVENTARIZATSIYA [nem. Inventarization < lot. inventarium - mol-mulkni ro'yxatga olish] Korxonah, muassasah, xo'jalik va sh. k.ning balansida turgan ashyolarning mavjudligini, qanday saqlanayotganligini, shuningdek, ombor va xo'jalik ma'lumotlarini davriy ravishda tekshirishdan o'tkazish.



INVESTITSIYA [*lot.* investire – qoplamoq; kiyintirmoq] Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsion, tadbirkorlik loyihalariga foyda ko'rish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritish.

INVESTITSIYA AKTIVLARI Qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulklar.

INVESTITSIYA BANKI Sanoat korporatsiyalarining aksiyalarini sotib olish orqali investitsiya siyosatini amalga oshiradigan ixtisoslashtirilgan bank.

INVESTITSIYALASH *ayn.* investitsiya.

INVESTOR [*ingl.* investor < *lot.* investire – kiyintirmoq] Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs, tashkilot yoki davlat.

IN'IKOS [*a.* – aks etish] *fls.* Materiyaning muayyan obyekt yoki jarayon xususiyatlarini aks ettirishdan iborat umumiy xossasi; bilish nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri.

IN'OM [*a.* – hadya, ehson] Tortiq qilib berilgan narsa, hadya, sovg'a.

IPOTEKA [*yun.* hypotheke – garov] Uzoq muddatli qarz, kredit olish uchun biron-bir ko'chmas mulkni garovga qo'yish.

IPOTEKA BANKI Ko'chmas mulk garovi hisobiga kreditlar berish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan tijorat banki.

IQTISOD [*a.* – xo'jalik; tejab-tergash] Sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab qolish.

IQTISODIY Iqtisodga, iqtisodiyotga oid; iqtisodiyotga bog'liq bo'lgan.

IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI A'zo mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligi asosida tashkil etilgan xalqaro mintaqaviy tashkilot.

IQTISODIY HUQUQ Insonning iqtisodiy sohadagi faoliyatini yuridik jihatdan belgilovchi konstitutsiyaviy huquqlar majmui.

IQTISODIY JINOYATLAR Milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan va qonunchilikda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar.

IQTISODIY INTEGRATSIYA Iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'p hollarda bir xil bo'lgan milliy iqtisodiyotlar o'rtasida chuqur iqtisodiy aloqalar va mehnat taqsimoti rivojlanishi jarayoni.

IQTISODIY ISLOHOTLAR Xo'jalik yuritish tizimida, iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'llari va usullarida yirik qayta qurishlar, o'zgarishlar: samaradorligi past muayyan iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoki eski tizimdan yangisiga o'tkazish maqsadlarida amalga oshiriladi.

IQTISODIY MANFAATLAR Iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'zlari tomonidan anglangan va ularni faoliyatga undovchi hayotiy ehtiyojlari; iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch.



IQTISODIY MUSTAQILLIK Har qanday iqtisodiy masala va maqsadlarni mustaqil, boshqalarga qaram bo'lmasdan hal etish.

IQTISODIY POTENSIAL Mamlakatning muayyan iqtisodiy maqsadlar va ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlovchi iqtisodiy imkoniyatlar yig'indisi.

IQTISODIY QONUNLAR Kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol munosabatlarini boshqarib turuvchi obyektiv qonunlar.

IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIK Milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy hamkorlik doirasida o'z ta'sir darajasini saqlab tura olish va uni kuchaytirish hamda sharoitga moslashuvchan bo'lish qobiliyati.

IQTISODIY SAMARADORLIK Xo'jalik faoliyati natijalari bilan mehnat sarflari o'rtasidagi nisbat.

IQTISODIY SIYOSAT Iqtisodiyotni boshqarish, mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo'nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo'nalishi, tadbirlari tizimi.

IQTISODIY TARAQQIYOT MODELI Mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish va rivojlantirishning strategiyasi, maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmui.

IQTISODIY TANGLIK Iqtisodiy siklning tushkunlik holati bilan tavsiflanuvchi maxsus bosqichi; mamlakat

iqtisodiyotida vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan chuqur nomutanosiblik.

IQTISODIY TIZIM Iqtisodiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonida paydo bo'ladigan asosiy iqtisodiy munosabatlarning shakl va mazmunini belgilab beradigan, mamlakatda tarixan paydo bo'lgan yoki joriy etilgan, amal qiladigan tamoyillar, qoidalar, qonun yo'li bilan mustahkamlangan me'yorlar majmui.

IQTISODIY XAVFSIZLIK Mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoyalanih bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmui.

IQTISODIYOT [a. - xo'jalik ma-salalari; xo'jalik] **1** Kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan holda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirik-chilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan ishlab chiqarish munosabatlari majmui. **2** Xalq xo'jaligi ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. **3** Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan.

IQTISODIYOT NAZARIYASI Iqtisodiyotning qonun-qoidalari, tushunchalari va rivojlanish tamoyillarini o'rganuvchi umumiqtisodiy va nazariy fan.

IQTISODIYOTNING SIYOSAT-DAN USTUVORLIGI O'zbekiston Respublikasida davlat qurilishini va



iqtisodiyotni isloh qilishdagi, bozor munosabatlariga o'tishdagi beshta muhim tamoyillardan biri bo'lib, ular bilan birgalikda, mamlakatdagi o'tish davri siyosatining nazariy va amaliy asosini tashkil etishi.

IQTISODCHI 1 Iqtisodiyot fanlari va iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis.

2 Tejab-tergab sarf etuvchi, tejamkor.

IQTO [a. – chek, taqsimlab berilgan yer; hadya qilingan yer maydoni] *tar.* O'rta asrlarda ko'pchilik Sharq mamlakatlarida, jumladan, Movarounnahrda katta, alohida xizmatlar uchun hukmdor tomonidan in'om qilingan chek yer.

IRODA [a. – qasd, niyat, istak] Odamning o'z faoliyati va ruhiy jaryonlarini o'zi boshqarishda namoyon bo'ladigan qobiliyati.

IRQ [a. – ildiz] Kishilarning tarixan tashkil topgan, umumiy irsiy belgilari (teri, ko'z, soch rangi, kalla shakli va b.) bilan xarakterlanuvchi guruhi.

IRQIY [a. – irqqa oid, tegishli] Irqqa xos, irqqa oid.

IRQCHI Irqchilik tarafdori, irqchilik siyosatini yurgizuvchi.

IRQCHILIK Irqiy kamsitish siyosati; irqqlar teng emas, shuning uchun go'yo "oliy", "sara" irqqlarning "past" irqqlar ustidan hukmron bo'lishi tarixiy zaruratdir, deb da'vo qiluvchi nazariya va siyosat.

ISLOH [a. – tuzatish, yaxshilash] **1** O'zgartirish kiritib yaxshilash, tuzatish. **2** Tubdan yoki asosan o'zgartirish, yangilash.

ISLOHOT [a. "isloh" so'zining ko'plik shakli] Ijtimoiy hayotning biron-bir to-

monini jiddiy o'zgartirish, qayta qurish, yangidan tashkil qilish.

ISLOM [a. – Oллоhga sig'inish, itoat etish] Jahonda keng tarqalgan uchta dindand biri; musulmon dini.

ISLOM MAZHABCHILIGI Islom dinidagi turli oqim va firqalarning umumiy nomi.

ISLOMIY Islomga, islom diniga, musulmon olamiga oid.

ISLOMNI MODERNLASHTIRISH Musulmon g'oyalari va dinini davlatning u yoki bu davr amaliyotidagi sharoitga moslashtirish.

ISTEHKOM [a. – mustahkamlik, mustahkamlanish; mudofaa inshooti] *harb.* Dushmandan saqlanish uchun lashkargoh atrofi yoki front liniyasida barpo qilingan mustahkam inshoot.

ISTE'DODLI [a. – qobiliyat] Iste'dodga ega bo'lgan; qobiliyatli, layoqatli.

ISTE'FO [a. – kechirish haqida iltimos qilish; vazifadan chekinish, bo'shashni istash] **1** Ofitserlar, generallar va admiralarni yoshi o'tganligi, kasalligi va sh. k. tufayli harbiy xizmatdan bo'shatish. **2** *huq.* Hukumatning, uning boshlig'i yoki alohida vazirlarning hukumatga ishonchsizlik bildirilishi, hukumatdagi ichki ixtiloflar tufayli, o'z mansabi yoki xizmatidan voz kechishi, ketishi.

ISTE'FO BERMOQ Mansab vazifasidan ketmoq, ketish haqida murojaat etmoq.

ISTE'FOGA CHIQQOQ Mansab vazifasini to'xtatmoq, undan ketmoq.

ISTE'MOL [a. – ishlatish, foydalalanish] Iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish ja-

rayonida moddiy va ma'naviy ne'matlar-dan foydalanish, takror ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

ISTE'MOL BYUDJETI Joriy iste'mol-ni qondirish uchun xonadon yoki ayrim shaxs tomonidan sarflanadigan pul mablag'lari.

ISTE'MOL FONDI Milliy daromad-ning aholi shaxsiy iste'moli, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatuvchi muassasa-lardagi, ilmiy muassasa va boshqarma-lardagi moddiy sarflar uchun ketadigan qismi.

ISTE'MOL KREDITI Iste'mol ehti-yoqlarini qondirish uchun qaytarishlik sharti bilan aholiga beriladigan pul mab-lag'lari yoki tovardan iborat kredit.

ISTE'MOL ME'YORLARI Aholining salomatligini ta'minlash va ish qobili-yatini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat va xizmatlarni iste'mol qilishning miqdoriy me'yori.

ISTE'MOL TOVARLARI Inson ehti-yojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli.

ISTE'MOLCHI Foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi, shu niyatda bo'lgan fuqaro.

ISTE'MOLCHILAR JAMIYATI Iste'molchilar manfaatini himoya qiluv-chi nodavlat, jamoa uyushmasi; bozor-ing zarur unsurlaridan biri.

ISTIBDOD [a. – o'zboshimchalik, zo'raonlik; mutlaq hokimiyat] Zulm-korlarning mahkumlar, mazlumlar us-tidan cheklanmagan huquqiga asos-

langan jabr-zulm, ezish; shu asosda qurilgan idora usuli.

ISTIBDOD MAFKURASI Bosib olin-gan xalq yoki yurtni turli yo'l va vosi-talar bilan tutqunlikda saqlab qolishga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi.

ISTIBDODCHI HUKUMAT Zolim podshoh hukumati.

ISTILO [a. – qo'lga kiritish, egallash, bosib olish] O'zga mamlakatni qurol ku-chi bilan bosib olish, zabt etish.

ISTILOCHILIK Qurol kuchi bilan o'zgalar mamlakatini bosib olish, shun-day maqsad yo'lidagi xatti-harakat, si-yosat; tajovuzkorlik.

ISTIQBOLLI [a. – kutib olish, qarshi olish; kelajak zamon] Istiqboli porloq, kelajagidan yaxshi umid qilsa bo'ladi-gan.

ISTIQLOL [a. – mustaqillik, mustaqil, erkin bo'lish] Inson, millat va davlatning erkin rivojlana olish imkoniyati, o'zini o'zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik.

ISTIQLOL FALSAFASI Mustaqil rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi.

ISTIQLOL MAFKURASI Millat va davlatning mustaqil rivojlanishi-ni ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi.

ISYON [a. – bo'yin tovlash, itoatsiz-lik; qo'zg'olon] Milliy, sinfiy, huquqiy manfaatlarni himoya qilib ko'tariladigan qo'zg'olon; g'alayon.

ISYONKOR Isyonga chorlovchi, isyonga da'vat etuvchi, isyon qiluvchi shaxs.

ISYONKORLIK Isyonkor kishiga, isyonkorga xos xatti-harakat; bo'yin egmaslik, bo'ysunmaslik.

ITOATKOR Itoat qiluvchi, itoatli, kimsaga bo'ysunuvchi, tobe.

ITTIFOQ [a. – bir fikrga kelish; bitim, shartnoma; moslik] Guruh, jamiyat, sinf yoki davlatlarning birgalikda ish olib borish uchun tuzgan birlashmasi.

ITTIFOQ SHARTNOMASI Ikki yoki bir necha davlatlar o'rtasidagi shartnoma.

ITTIFOQDOSH Hamkorlik qiluvchi, o'zaro ittifoqlikda birga harakat qiluvchi; hamkor.

IXROJ [a. – chiqarish, haydash; surgun, badarg'a qilish] Biror kishi yoki kishilarni o'z yashash joyidan (shahar yoki qishloqdan) chiqarib yuborish, badarg'a qilish.

IXTILOF [a. – harxillik; qarama-qarshilik] Qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo.

IXTILOFCHI Ixtilof chiqaruvchi, ixtilof, nizo urug'ini sochuvchi.

IXTIRO [a. – yangilik, yangilik yaratish, o'ylab chiqarish] Xalq xo'jaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy qurilish va mudofaa sohalarida ijobiy samara beradigan, o'ziga xos texnikaviy yechimga ega bo'lgan yangilik.

IXTIROCHI Ixtiro qiluvchi; kashfiyotchi.

IXTIROCHILIK Ixtiro qilish, yangilik ochish, kashf etish.

IXTIROCHILIK HUQUQI Fan-texnika sohasida ixtiro yaratish, uning rasman tan olinishi va qo'llanishi bilan

bog'liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turadigan huquqiy me'yorlar majmui.

IXTISOS [a. – ish, vazifa doirasi; bilimlardan chuqur xabardorlik] Muayyan sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lish; mutaxassislik; kasbiy malaka.

IXTISOSLI Ilm-fan, texnika yoki sanoatning ma'lum bir sohasi bo'yicha ixtisos olgan, bilim-malaka hosil etgan; ixtisosga oid.

IYD [a. – bayram, hayit] Musulmonlarning diniy bayrami, hayit.

IYDI RAMAZON Ramazon hayiti.

IYDI QURBON Ramazon hayitidan 70 – 72 kun keyin o'tkaziladigan diniy bayram, Qurbon hayiti.

IYD NAMOZI Ramazon va Qurbon hayitlarining birinchi kuni erta bilan asosan jamoa bo'lib o'qiladigan namoz.

IYERARXIYA [yun. hieros – muqaddas + arche – hokimiyat] **1** Quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo'ysunish tartibi. **2** Bir butun narsa yoki hodisalarning ayrim qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga tomon bir tartibda joy olishi.

ISH Sud yoki ma'muriy organlarda ko'rilayotgan jarayon.

ISH BERUVCHI Xodimni ishga olish huquqi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxs.

ISH BILAN TA'MINLASH Fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalga oshirish shakllaridan biri.

ISH DAVRI Xodimning ijtimoiy tashkil etilgan mehnatga ishtirokining davomiyligi me'yori.



ISH HAQI Mehnatga pul shaklida to'lanadigan haq; qiymatning o'zgargan shakli, ish kuchining bahosi.

ISH KUCHI Insonning tirikchilik ne'matlari ishlab chiqarishda foydalanadigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlari majmui.

ISH VAQTI Bevosita mehnat qilish va mahsulot qiymatini yaratish vaqti.

ISH YURITISH Muassasa, tashkilot va sh. k. ga oid ish-hujjatlarni olib borish, yurgizish.

ISH YURITUVCHI Ish yuritishni olib boruvchi, amalga oshiruvchi shaxs.

ISH O'RNI Muayyan kasbdagi bir xodimning mehnat vazifalarini amalga oshirishi uchun moslashtirilgan va ishni bajarish uchun ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan jihozlangan joy.

ISHBAY Bajaradigan ishiga qarab, ish o'lchovi asosida haq to'lash usuli.

ISHBILARMON Ishning ko'zini biladigan, ko'p ishga aqli yetib uddalaydigan.

ISHBILARMONLIK Ishbilarmonga xos xususiyat, xatti-harakat.

ISHBOSHI Biror ishning borishini kuzatib, rahbarlik qilib turuvchi shaxs; sarkor.

ISHBOSHQARUVCHI Idora, boshqarma va sh. k.larda rasmiy yozishma ishlarini olib boruvchi xodim, kotib.

ISHGA JOYLASHTIRISH Mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy tUSDagi davlat tadbirlari tizimi.

ISHDAN BO'SHATISH Mehnat shartnomasining mehnat qonunchiligi-

da ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinishi.

ISHLAB CHIQRISH Muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida kishi mehnati tufayli jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar yaratish.

ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASI Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi sohalar - transport, elektr va issiqlik ta'minoti, suv xo'jaligi, aloqa-axborot xizmatlari va b.

ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARI Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida ularning bajaradigan vazifalariga bog'liq holda shakllanadigan munosabatlar.

ISHLAB CHIQRISH OMILLARI Ishlab chiqarishda qo'llanadigan resurslar: yer, mehnat, mablag', tadbirkorlik faoliyati kabi omillar.

ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGI Korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirkorlarning foydali natijalar berishi.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilingan pul sarflari.

ISHLAB CHIQRISHNI IXTISOSLASHTIRISH Ijtimoiy mehnat taqsimoti va uni ratsional tashkil etish shakli.

ISHLAB CHIQRISHNI KOOPERATSIYALASH Korxonalar, tarmoqlar, mamlakat tumanlari va mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarini tashkil etish.

ISHLAB CHIQRUVCHI Iste'molchilarga yetkazib berish, sotish uchun

tovar ishlab chiqaradigan korxonona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.

ISHLAB CHIQRUVCHI KUCHLAR

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlab chiqarish vositalari va kishilar majmui; ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida inson bilan tabiat o'rtasidagi "modda almashuvi"ni amalga oshiradigan subyektiv (odam), ashyoviy unsurlar tizimi.

ISHLANMA Foydalanish, qo'llash uchun ishlab chiqilgan narsa.

ISHONCH YORLIG'I Bir shaxs muayyan davlatning diplomatik vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat.

ISHONCHLI VAKIL 1 O'zbekiston Respublikasida: Oliy Majlis deputatligiga nomzod yoki Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi deputatligiga nomzodning vakili. **2** Biron-bir shaxs tomonidan muayyan huquqiy oqibatlarini keltiruvchi xatti-harakatlarni sodir etish, muayyan vazifalarni bajarish majburiyati yuklangan shaxs.

ISHONCHNOMA Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolat; rasmiy hujjat.

ISHSIZLIK Bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topolmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi.

ISHSIZLIK NAFAQASI O'zbekiston Respublikasida ishidan, ishidagi daromadidan mahrum bo'lib qolgan fuqarolarga qonunda ko'zda tutilgan tartibda va miqdorda, davriy ravishda beriladigan pullik yordam; ishsiz shaxslarga moddiy kafolatlarining asosiy turi.

ISHCHI KUCHI Insonning mehnat qilish qobiliyati, ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan ijtimoiy va ma'naviy quvvati majmui.

ICHKI ISHLARGA ARALASHMASLIK Xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri: bir davlatning boshqa bir davlat ishlariga aralashmasligi.

ICHKI SIYOSAT Muayyan davlat ichida sinflar, ijtimoiy guruhlar va millatlarning o'zaro munosabatini ifoda etuvchi siyosat.

IG'VO [a. - yo'ldan urish, ozdirish; aldash] Nizo, nifoq solishga, ittifoqni buzishga, buzg'unchilikka qaratilgan xatti-harakat.

IG'VOGAR Ig'vo bilan shug'ullanuvchi, ig'vo tarqatuvchi shaxs.



JABBORIYLAR *tar., din.* VII asr oxiri - VIII asr boshida Islom ilohiyotida paydo bo'lgan oqimlardan biri.

JABR [*a.* - zulm] Jismoniy yoki ruhiy azob; zulm, adolatsizlik.

JABRLANUVCHI Jinoyat natijasida ma'naviy, jismoniy yoki moddiy zarar ko'rgan shaxs.

JADID [*a.* - yangi; oxirgi] *tar.* Yangilik tarafdori; jadidchilik harakatining qatnashchisi.

JADIDIZM *ayn.* jadidchilik.

JADIDCHILIK *tar.* XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida turkiy xalqlar orasida yuzaga kelgan, Turkiston xalqlarining manfaatlarini ifodalagan, ma'rifat uchun kurashgan, o'qish-o'qitish ishlarini isloh qilgan, diniy maktablarning dasturlariga dunyoviy fanlarni kiritishga intilgan ma'rifatparvar oqim.

JADIY, jady [*a.* - echki bolasi; oy nomi] Shamsiya yil hisobida o'ninchi oyning arabcha nomi (22-dekabr-21-yanvarga to'g'ri keladi).

JAFO [*a.* - qo'pollik; zulm] Ma'naviy, ruhiy va jismoniy ezilish, azob-uqubat, kulfat.

JAFOKASH 1 Azob-uqubatlar tortgan, boshidan kulfatlar, og'irchiliklar o'tgan, ezilgan. **2** Mehnatkash, mehnatsevar.

JAHOLAT [*a.* - nodonlik, ilmsizlik] Ilmsizlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik.

JAHOLATPARAST Eskilikka yopishib olgan, eskilik, qoloqlik tarafdori, ilm-ma'rifat dushmani.

JAHON [*fors.* - dunyo, olam] Yer yuzi va undagi butun borliq; dunyo, olam.

JAHON BOZORI Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi.

JAHON HAMJAMIYATI Jahonda mavjud davlatlarning hozirda insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishdagi hamjihatligini, birligini anglatuvchi tushuncha.

JAHON PULLARI To'lov vositasi sifatida tan olingan, xalqaro miqyosda hamma uchun xarid vositasi, boylıklarning umumiy o'lchov birligi, qiymatning xalqaro ifodasi bo'lgan pullar.

JAHONGASHTA [*fors.* – dunyoni kezuvchi] Dunyoni kezgan, ko'p yerlarni ko'rgan, ko'p sayohat qilgan.

JAHONGIR [*fors.* – jahonni egallovchi] Dunyoni egallagan; jahonni zabt etgan hukmdor.

JAHONSHUMUL *q. olamshumul.*

JAHRIYA [*a.* – tariqat yo'nalishi]

1 Oshkor ovoz chiqarib zikr qiluvchilar.

2 Tariqat yo'nalishlaridan biri.

JALLOD [*a.* – o'lim jazosini ijro etuvchi] O'rta Osiyo xonliklarida: o'lim jazosiga hukm qilinganlarning boshini oluvchi, o'lim jazosi haqidagi hukmni ijro etuvchi shaxs.

JALLODLIK Jallod kasbi, jallod mavqeyida bo'lishlik; o'lim hukmini ijro etishlik.

JALOYRLAR Turkiy xalqlarga mansub, o'zbek xalqining genetik tarkibiga kirgan qabilalardan biri.

JAMIYAT [*a.* – yig'ilish; uyushma]

1 Muayyan faoliyat jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli.

2 Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot.

JAMIYATSHUNOSLIK **1** *esk.* Sho'rolar davrida o'tgan asrning 60-yillaridan barcha o'rta maktablarda o'qitilgan, jamiyat va uning taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi o'quv fani. **2** *ayn.* **sotsiologiya.**

JAMOA [*a.* – birlashma, uyushma]

1 Muayyan bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi. **2** Qishloq, mahalla va uning aholisi.

JAMOA XO'JALIGI Mulkiy pay va jamoaviy mehnat asosida ixtiyoriy uyushgan kishilarning shirkat tashkiloti.

JAMOA SHARTNOMASI Korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat.

JAMOAT BIRLASHMASI Ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida, qonunda belgilangan tartibda uyushgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi.

JAMOAT FONDI Fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy, foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan nodavlat tashkilot.

JAMOATCHI **1** Jamoat ishlarida jonbozlik ko'rsatuvchi; faol. **2** Biror idora, tashkilotga a'zo emas, ko'ngilli.

JAMOATCHILIK ASOSIDA Xalq kuchi, faoliyati bilan; hashar yo'li bilan, pulsiz.

JAMOATCHILIK NAZORATI Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari, shuningdek, davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat.

JAMG'ARMA **1** Ma'lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan ijtimoiy guruhiga yordam berish maqsadida tuzilgan tashkilot; fond. **2** Pul va moddiy

vositalarni ma'lum bir maqsad yo'lida foydalanish uchun jalb etish. **3** Aksiyalar nazorat paketini qo'lga kiritish maqsadida, narxiga ta'sir etmagan holda, ularni doimiy ravishda sotib olish.

JANDARMERIYA [*fr.* gendarmerie < gens d'armes – qurollangan kishilar] Demokratik harakatlarni shafqatsizlik bilan bostirish, shuningdek, davlat tuzumiga zid ish olib boruvchilarga qarshi kurash uchun xizmat qiladigan siyosiy politsiya.

JANOZA [*a.* – ko'mish; dafn marosimi] Vafot etgan musulmonning jasadini ko'mish oldidan marhum haqiga bag'ishlab o'qiladigan namoz.

JANUB [*a.* – janub, kunbotar] Dunyoning to'rt asosiy tomonlaridan biri; ziddi **shimol**.

JARAYON [*a.* – oqim; borish, sodir bo'lish] Biron-bir natijaga erishish uchun bo'ladigan ketma-ket harakatlar majmui.

JARIMA [*a.* – jinoyat, gunoh] Qonunda belgilangan hollarda qoidani buzganlik, qonun-qoidaga xilof xatti-harakat yoki yetkazilgan moddiy zarar uchun undiriladigan, to'lanadigan pul.

JARCHI 1 *tar.* O'tmishda hukmdorning farmonlarini, rasmiy e'lonlarni odamlar ko'p to'planadigan joylarda baland ovoz bilan eshittirib yuruvchi kishi. **2** Targ'ibot qiluvchi, tashviqotchi.

JASORAT [*a.* – mardlik, shijoat] Qahramonlik, mardlik, botirlik, dovyuraklik.

JAVZO [*a.* – ma'lum burj nomi] **1** O'n ikki burjning biri; Saraton va Savr burjlari o'rtasida joylashgan. **2** Shamsiya yil

hisobida uchinchi oyning arabcha nomi (22-may–21-iyunga to'g'ri keladi).

JAVOGBAR [*a.* + *fors.*] **1** Sud tomonidan da'vogarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari yuzasidan javob berish uchun jalb qilingan shaxs. **2** Mas'uliyatni bo'yniga olgan, zimmasiga mas'uliyat yuklangan shaxs, mas'ul.

JAVOGBARLIK 1 O'z zimmasidagi vazifaning bajarilishi uchun mas'uliyatli holat; mas'uliyat. **2** *huq.* Xatti-harakati, qilmishi uchun biron-bir mas'uliyatga yoki jazoga tortishni talab qiladigan holat.

JAVOBNOMA So'roqqa, murojaatga qaytariladigan javob xati.

JAVONMARDLIK [*fors.* – saxovat] *tar.* Oliyhimmatlilik, saxovatpeshalik.

JAZO [*a.* – qasos; mukofot; jarima] Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan majburlov chorasi.

JAZO OTRYADI *tar.* Chor Rossiyasi va xonliklar davrida mehnatkashlarning norozilik g'alayonlarini yoki qo'zg'olonlarini bostirish uchun tuzilgan harbiy politsiya otryadi.

JAZO TAYINLASH Jinoyat sodir etganlik uchun sud tomonidan belgilangan javobgarlik; jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini aniqlagan holda aybdorga nisbatan jazo muddatini belgilash.

JAZODAN OZOD QILISH Ba'zi jinoyat qilganlarga jazo tayinlamaslik,

tayinlangan jazoni o'tashdan batamom yoki qisman ozod qilish.

JANG [fors. - urush] **1** Harbiy qismlarning, qurolli kuchlarning qonli to'qnashuvi; urush. **2** Qarama-qarshi ijtimoiy guruhlarning to'qnashuvi.

JANGARILIK Urushqoqlik, urushga, janjalga to'ymaslik.

JANGGOH [fors. - jang maydoni] Jang bo'lib o'tgan, jang bo'ladigan maydon.

JANGNOMA Urush hamda janglar haqidagi tarixiy va afsonaviy asar, qissa.

JANGOVAR VAZIYAT Ma'lum joyda muayyan davrda jangovar harakatlarga ta'sir ko'rsatadigan omil va sharoitlar majmui.

JANGOVAR VARAQA esk. Shiddatli ishlarni yoritadigan yoki unga da'vat qiladigan varaqa.

JANGCHI Urush qatnashchisi, urushda qatnashayotgan kishi; harbiy.

JIDDIYLASHMOQ **1** Jiddiy tus olmoq; keskinlashmoq. **2** Og'irlashmoq, yomonlashmoq.

JIHOD [a. - kurash; olishuv] *din*. Musulmonlarning Islom dinining tarqalishi yo'lidagi g'ovlarni bartaraf etish, uni har taraflama muhofaza qilish yo'lida g'ayridinlarga qarshi muqaddas urushi; g'azovot.

JILOVBARDOR *tar.* O'rta Osiyo xonliklarida mansabdorlarning otlariga qarovchi va ularga yo'lga chiqishida otni rostlab berib, yo'ldan qaytayotganida kutib oluvchi xizmatkor.

JILOVDOR esk. O'tmishda hukmdor otiga qarab turuvchi shaxs.

JINOIY *huq.* Jinoyatga oid, jinoyat bilan bog'langan, jinoyat deb qaraladigan, jinoyatdan iborat bo'lgan.

JINOIY JAVOBGARLIK Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm chiqarish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llashda ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati; yuridik javobgarlik turlaridan biri.

JINOIY JAZO Jinoyat sodir etishda ayblangan shaxsga nisbatan davlatning majburlov chorasi.

JINOIY UYUSHMA Ikki yoki undan ortiq uyushgan shaxsning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi.

JINOYAT [a. - ayb, gunoh; jinoiy ish] Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat.

JINOYAT HUQUQI Huquqshunoslikning bir tarmog'i bo'lib, oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan, ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarning jinoyat ekanligi va jazoga loyiqligini, jazo choralari tayinlash shartlarini hamda jazodan ozod qilishni belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisi.

JINOYAT KODEKSI Jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplarini belgilaydigan, shaxs, jamiyat yoki davlat uchun qaysi xavfli qilmishlar jinoiy ekanligini aniqlab beradigan, jinoyat sodir etganlik uchun jazo turlarini va boshqa

jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini belgilaydigan qonun.

JINOYAT MOTIVI Jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgilaridan biri.

JINOYAT OBYEKTI Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar, jinoyatning nimaga qaratilganligi.

JINOYAT-QIDIRUV BO'LIMI Ichki ishlar organlarining alohida tizimi bo'lib, tezkor qidiruvni va o'z vakolat doirasiga kiruvchi boshqa ishlarni, shaxsga, fuqarolarning shaxsiy mulkiga, jamoat tartibiga va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish, payini qirqish hamda ularni ochish kabi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Jinoyat alomatlarini, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, qidirish va topish ishlari O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan jarayondir.

JINOYAT QUROLI Jinoyatni sodir etish uchun tayyorlangan yoki foydalanilgan har qanday predmet.

JINOYAT TARKIBI Sodir etilgan harakatlarni jinoyat sifatida xarakterlaydigan, jinoyat qonunchiligida ko'zda tutilgan belgilar yig'indisi.

JINOYATKORONA Jinoiy yo'l bilan, jinoyatkorlarcha.

JINOYATCHI Jinoyat sodir etgan shaxs.

JINOYATCHILIK Jamiyat uchun xavfli xatti-harakat; ma'lum bir davlatda sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisi.

JIRKANCH 1 Odam hazar qiladigan; kishini jirkantiradigan, iflos. **2** Razil, qabih.

JIROV shv. Doston, terma aytib kuylovchi baxshi.

JISMONIY [a. – tanaga oid; moddiy] Jonli organizmlarning jismiga oid; muskul harakatlari bilan bog'langan; jismonan.

JISMONIY MADANIYAT Umuminsoniy madaniyatning bir qismi, inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat sohasi.

JISMONIY MASHQLAR Kishining jismoniy taraqqiyot darajasini oshirish uchun maxsus tanlangan harakatlar.

JISMONIY ZARAR Shaxsning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar.

JIZYA [a. – soliq turi] Dastlab arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, Markaziy Osiyo)da musulmon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon solig'i.

JODUGAR [fors. – sehrgar] **1** Sehrgar, afsungar; sehr qiluvchi. **2** O'taketgan ayyor, makkor.

JODUGARLIK Afsungarlik, sehr qilishlik.

JOHILIYA [a. – johillik] Arablar tarixining islomdan ilgari davriga berilgan nom.

JOME MASJID Shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi juma namozi o'qiladigan asosiy va eng katta masjid.

JONKUYARLIK Jon kuydirib ishlashlik, fidokorlik, g'amxo'rlik.

JONLIQ *din.* Xudo yo'liga, aziz-avliyolarga qurbonlik uchun atalgan uy hayvoni yoki tovuq, xo'roz.

JOUSUS [*a.* - ayg'oqchi, xufiya] Biror davlat haqida maxfiy ma'lumot to'plash bilan shug'ullanadigan shaxs; ayg'oqchi, shpion.

JOUSUSLIK Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning davlat siri hisoblangan ma'lumotlarni chet el davlatiga yetkazishi; ayg'oqchilik.

JOYNAMOZ [*fors.* - namoz gilamchasi] Islom dinida namoz o'qish uchun solinadigan maxsus gilamcha, maxsus palos, mato va sh.k.

JUDOLIK Yaqin kishilardan ayrilish, ayriliq, hijron.

JUMALIK *tar.* Juma kuni munosabati bilan o'tkaziladigan turli marosimlar.

JURNAL [*fr.* journal - gazeta; kundalik daftar] **1** Kitobcha yoki majmua shaklida belgili vaqtda chiqib turadigan davriy nashr. **2** Kundalik ish, voqea, hodisa va sh.k. yozib boriladigan qayd daftar.

JURNALIST Davriy matbuotda adabiy-publitsistik maqolalar bilan qatnashuvchi adib, matbuot xodimi.

JURNALISTIKA Jurnalistik kasbi, jurnalistik ishi, jurnalistikaga oid bilimlar majmui.


JUVONMARG [*fors.* - yosh o'lgan] Yosh paytida halok bo'lgan, nobud bo'lgan.

JUVONMARDLIK Mardlik, botirlik; oliyjanoblik,

JUZ'IY [*a.* - qismga oid; oz, kam] Unchalik muhim va jiddiy bo'lmagan; arzimagan.

JUZYA *q. jizya.*

JYURI [*fr.* jury - hakamlar guruhi < *lot.* juro - qasam, ont ichaman; *qasamyod qilaman*] **1** Musobaqa, tanlov, ko'rgazma va sh.k.larda g'oliblikni va mukofot berishni belgilovchi mutaxassislar, hakamlar guruhi. **2** Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH va ayrim boshqa davlatlarning jinoyat ishlarini ko'rib chiqish va sud hukmini chiqarish uchun tuzilgan sud maslahatchilari kollegiyasi.



K

KABINET [*fr.* cabinet] **1** Korxonada, muassasa va sh. k.larda mas'ul lavozimli rahbar o'z vazifasini bajaradigan xona. **2** Muassasa, korxonada va b.larda ilmiy, amaliy va sh. k. ishlarni olib borish, o'tkazish uchun jihozlangan, moslangan xona.

KABISA [*a.* - kalendarni tuzatish]: **kabisa yili** To'rt yilda bir keladigan, 366 kunlik yil. Oddiy yildan bir kun ortiq bo'lgan yil (bunda fevral oyi 29 kun bo'ladi).

KADASTR [*fr.* cadastre < *yun.* katastichon - varaq, ro'yxat, reestr] Ma'lum obyektlar to'g'risida tartiblashtirilgan aniq va zaruriy ma'lumotlar majmui, ro'yxati, reestri.

KADR [*fr.* cadre - shaxsiy tarkib] Korxonada, firma, muassasada, hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarida malakali xodimlarning asosiy tarkibi.

KADRLAR BO'LIMI Korxonada yoki muassasaning kadrlarni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va sh. k. bilan shug'ullanadigan bo'limi.

KADRLAR REZERV Sanoat, qishloq ho'jaligi, davlat apparati va ijtimoiy

tashkilotlarning safini to'ldirish uchun tayyorlangan kishilar; ishchi va mutaxassislar.

KAFOLAT [*a.* - kafillik; ta'minlash, garov] **1** Mulkiy majburiyatni bajarish, chunonchi, qarzni to'lash usullaridan biri. **2** Biror shaxsning murojaatiga ko'ra, uning kreditori talab qilgan ma'lum miqdordagi pulni to'lash haqida bank va b. kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti bergan yozma majburiyat.

KAFOLATLI TO'LOVLAR O'zbekistonda: mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladigan pulli to'lovlar.

KALENDAR [*lot.* calendarium - qarz daftari yoki Calendae - har oyning birinchi kuni] **1** Yil, oy, hafta va kunlarni hisoblash tizimi. **2** Yilning barcha oy-kunlari tartibi bilan ko'rsatilib, boshqa ma'lumotlar ham berilgan jadval va kitobcha, taqvim. **3** Qilinadigan ish yoki mashg'ulotlarning bajarilish muddatlari ko'rsatilgan jadval, ma'lumot.

KALENDAR YILI Buxgalteriya hisobotida o'n ikki oylik davr (1-yanvar - 31-dekabr).

KALIMA(YI) SHAHODAT *din.* Musulmonlikka iqror bo'lish uchun yoki

musulmonlik dalili, asosi sifatida aytildigan arabcha ibora.

KALOMULLO [a. - Olloh kalomi, Qur'on] ayn. **Qur'on**.

KAMBAG'AL [fors.+a. - qashshoq, yo'qsi] Qashshoqlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bo'lmagan kishi; muhtoj, bechora.

KAMBAG'ALPARVAR Kambag'al-larga yordam ko'rsatuvchi, shafqat qiluvchi; kambag'allar huquqini himoya qiluvchi.

KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVI Soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud boshqa ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv.

KAMIKADZE [yap. - ilohiy shamol] 1 Ikkinchi jahon urushi davrida dushmanni kema, tank va b. obyektlarga, o'limiga rozi bo'lgan holda, hujum qilgan yapon uchuvchisi. 2 Biror kimsa yoki narsa uchun o'zini qurbon qiluvchi shaxs.

KAMPANIYA [fr. campagne - harbiy safar < ital. campagna -jang maydoni] 1 Alohida ijtimoiy-siyosiy yoki xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajarish uchun ma'lum bir davrda safarbarlik yo'li bilan o'tkaziladigan ishlar, ko'riladigan tadbir-choralar tizimi. 2 *harb.* Ma'lum vaqt ichida o'tkazilgan va muayyan strategik maqsadni ko'zda tutgan harbiy harakatlar, urush-janglar majmui.

KAMPANIYABOZLIK Har qanday ikkinchi darajali ishlar uchun butun kuchni safarbar qilish; rejasiz, tartibsiz, noizchil ish olib borish.

KANSLER [nem. Kanzler < lot. cancellaria] Ba'zi davlatlarda oliy davlat lavozimi va shu lavozimdagi amaldor.

KANTCHILIK Nemis faylasufi Immanuel Kant va uning izdoshlari tomonidan yaratilgan idealistik falsafiy oqim.

KAPITAL [nem. Kapital < lot. capitalis - bosh, asosiy] iqt. O'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat.

KAPITAL BOZORI Bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, so'ngra uni ishlab chiqarish sohalari o'rtasida taqsimlash munosabatlari.

KAPITAL KONSENTRATSIYASI Kapitalning jamg'arish hisobiga o'sishi, ya'ni qo'shimcha qiymat bir qismining kapitalga aylanishi.

KAPITAL MABLAG'LAR Ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga tegishli asosiy fondlarni yaratish, ularni yangilashga va harakatdagi fondlarni ko'paytirishga, obyektlarni qurishga sarf qilinadigan, ishlab chiqarishga qo'yilgan mablag'lar.

KAPITALIST [nem. Capitalist - kapital egasi] Kapital egasi; o'z mablag'larini, ba'zan yollanma mehnatni foyda olish uchun ishlatadigan shaxs.

KAPITALISTIK MONOPOLIYALAR Ko'p foyda olish maqsadida sanoat va savdoning muayyan sohasini o'z qo'l os-

tida birlashtirgan va shu sohada tanho hukmronlik qiluvchi yirik birlashmalar.

KAPITALIZM [*nem.* Kapitalismus < *lot.* capitalis – bosh, asosiy] Yuqori ishlab chiqarish darajasi, fuqarolik jamiyati; rivojlangan bozor iqtisodiyotiga hamda xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy tuzum.

KAPITALNING MARKAZLASHUVI

Bir necha kapitalning birlashishi yoki bir kapitalning boshqasiga singib ketishi natijasida kapital miqdorining o'sishi.

KAPITAN [*fr.* capitaine < *lot.* capitaneus – peshqadam, sardor] Ko'pchilik davlatlar, jumladan, O'zbekiston qurolli kuchlari, ichki ishlar tizimida katta leytenantdan yuqori, mayordan kichik ofitserlik (zobitlik) unvoni va shu unvonga ega bo'lgan ofitser (zobit).

KAPITULYATSIYA [*lot.* capitulare – muayyan shartlar bilan kelishib olish < capitulum – qonun moddasi] Taslim bo'lish, g'olib tomonning shartlarini qabul qilib, qarshilik ko'rsatishni to'xtatish.

KARANTIN [*fr.* quarantaine – qirq] O'ta xavfli yuqumli kasalliklar va qishloq ho'jalik zararkunandalari tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o'tkaziladigan sanitariya tadbirlari.

KARDINAL [*lot.* cardinalis – bosh, asosiy] Katolitsizmda Rim papasidan keyin, yepiskopdan oldin turuvchi oliy martabali ruhoni.

KAROMAT [*a.* – saxovat, saxiylik; mo'jiza, g'ayritabiiy hodisa] 1 Diniy va mifologik tasavvurlarda xudoning, g'ayritabiiy kuchlarning aralashuvi bi-

lan vujudga keladigan g'ayritabiiy hodisa. 2 *din.* Biror voqea-hodisaning qachon va qanday bo'lishini ilohiy bilim asosida oldindan bilish, oldindan aytib berish, bashorat.

KAROMATLI *din.* G'oyibdan xabar beruvchi, oldindan aytuvchi, karomat qiluvchi.

KARSER [*lot.* carcer – zindon, qamoq] Ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi rejimni buzganlar, ichki tartib-qoidaga bo'ysunmaganlar kiritib qo'yiladigan xona.

KASABA UYUSHMASI Ishchi, xizmatchilarni mehnat sohalari bo'yicha birlashtirgan va ularning manfaatlarini himoya qiladigan ommaviy tashkilot.

KASABACHILIK HUQUQLARI Ishchi, xizmatchilarning manfaatlarini himoya qiladigan umumiy majburiy me'yorlar tizimi.

KASANACHILIK Hunarmandlarning mehnat shartnomasi asosida yollanib, o'z uyida ishlashi; yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.

KASB KASALLIKLARI Og'ir mehnat sharoitlari va kasbga aloqador zararlarining organizmga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar.

KASB-HUNAR KOLLEJI Davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratuvchi o'quv muassasasi.

KASBIY MALAKA Kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba.

KASBIY TA'LIM Kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui.

KASOD [a. - tovarga bo'lgan talabning pasayishi] Talab yoki xaridor yo'qligi tufayli savdo-sotiq, kasb-hunar va sh. k.larning to'xtab qolishi.

KASOD MOLLAR Bozorda mollarning yoki Ba'zi mollarning sotilmayotganlik holati.

KASSA [ital. cassa < lot. capsula - biror narsa saqlanadigan idish, quti] Korxonalar va muassasalarning turli xil pul operatsiyalarini amalga oshiradigan, pul qabul qilib oladigan va pul beradigan bo'limi.

KASSATSION BOSQICH Fuqarolik jarayoni, jinoyat jarayoni huquqi bo'yicha sudning ikkinchi bosqichi, ya'ni birinchi bosqich sudining qarori yoki hukmi ustidan berilgan kassatsion shikoyat, e'tiroz bo'yicha ishni ko'radigan sud.

KASSATSION SUD Ba'zi davlatlarda quyi, birinchi bosqich sudlarining chiqargan qarorlari va hukmlarini ko'rib chiquvchi yuqori sud.

KASSATSIYA [lot. cassatio - bekor qilish, yo'q qilish] **1** Sud hukmidan norozi bo'lib, ishni qayta ko'rib chiqish to'g'risida bitilgan ariza, shikoyat arizasi. **2** Qonunga yoki saylov qoidasiga xilof ravishda o'tkazilgan saylovni bekor qilishni so'rab murojaat qilish.

KASSATSIYA INSTANSIYASI Sudning hukmlariga, qarorlariga kassatsiya shikoyati yoki protesti hamda birinchi instansiya sudining sudyasi qarorlari va ajrimlariga xususiy shikoyat bo'yicha ishni ko'ruvchi sud.

KASSATSIYAVIY SHIKOYAT Protessual qonunlarda belgilangan, sud hukmi yoki qarori ustidan yuqori instansiya sudlariga shikoyat qilish huquqining amalga oshirilishi.

KASSIR [lot. cassare - bekor qilmoq, yo'q qilmoq] **1** Pul va qimmatbaho qog'ozlarni qabul qilish, berish, biletlar sotish va sh. k. ishlarni bajaruvchi xodim. **2** Kassa apparatida ishlovchi xodim.

KATOLIK Katolitsizm mazhabidagi, katolitsizmga e'tiqod qiluvchi kishi.

KATOLITSIZM [yun. katholikos - umumjahon, umumiy] Xristian dinining asosiy oqimlaridan biri.

KATTA ILMIY XODIM O'zbekistonda: ilmiy-tekshirish muassasalari va oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy unvon va lavozim.

KAVSAR [a. - serob, mo'l-ko'l] Islomga ko'ra, jannatdagi ajib daryo yoki hovuz.

KAYVONI Ulug' yoshli, ko'pni ko'rgan, ko'p narsani biladigan.

KASHFIYOT [a. - ixtiro; topilma; izlanish] **1** Tabiat va jamiyatni ilmiy bilish jarayonida erishilgan yangi ilmiy yutuq. **2** Ilgari ma'lum bo'lmagan, obyektiv ravishda mavjud moddiy olam xususiyatlari, qonuniyatlari va hodisalarini aniqlash.

KASHFIYOTCHI Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi.

KA'BA [a. – kub, kub shaklidagi inshoot] Saudiya Arabistonining Makka shahrida joylashgan, musulmonlarning eng muqaddas ibodatxonasi, bosh sajdagohi.

KELGINDI Mahalliy yerlik bo'lmagan, o'zga joydan, boshqa yurtdan kelgan shaxslar.

KELISHMOVCHILIK Fikr, tushunish, dunyoqarash va sh.k.da bir-biriga mos emaslik, qarama-qarshilik.

KELISHUV BITIMI Taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi.

KELISHUV KOMISSIYASI Davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati palatalari o'rtasida vujudga kelgan nizolarni, kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun palatalar orasidan tenglik asosida tuziladigan komissiya.

KENAGAS etn. O'zbek halqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri.

KESKINLASHMOQ Ma'lum bir muammoning hal etilishi qiyinlashmoq, murakkablashmoq, keskin tus olmoq, jiddiylashmoq.

KESKINLIK Og'ir oqibatlariga, to'qnashuvga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab, og'ir holat, ziddiyat.

KENGASH 1 O'zaro, birgalikdagi muhokama; shunday muhokama majlisi. **2** Biror korxonaga, muassasa, jamiyatning farmoyish yoki maslahat beruvchi organi.

KENGASH-SEMINAR Turli mutaxassislardan bo'lgan amaliy xodimlar

o'zlarining nazariy bilimlari va ish malakalarini oshirish bo'yicha guruh-guruh bo'lib mashg'ulot o'tkazish shakli.

KILLER [ingl. killer] Yollangan qotil.

KIMOSHDI SAVDOSI Kimoshdi tartibida savdoga qo'yilgan tovar yoki mulk uchun eng yuqori narx to'lab g'olib chiqish. *Yana q. auksion.*

KIMYOVIY QUOLLAR Ommaviy qirg'in qurollari turlaridan biri.

KIRIM Muayyan davr mobaynida turli manbalardan kelib tushadigan pul, moddiy boylik; tushum.

KISHILIK JAMIYATI Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui.

KICHIK BIZNES Daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan kichik tashkiliy, xo'jalik faoliyati.

KLASSIFIKATSIYA [lot. classis – daraja + facere – qilmoq] Narsalarni, voqea, hodisa yoki tushunchalarni ularning o'ziga xos belgilari va xususiyatlariga ko'ra turli kategoriyalarga, sinflarga va h.k.ga ajratish.

KLASTER [ingl. cluster – dasta, bog'lam] Bir hududdagi bir necha korxonaga yoki tadbirkorlarning kreativ yechim uchun umumiy intilishi.

KLERIKALIZM [lot. clericalis – cherkovga oid] Ayrim mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda cherkov va ruhoniylarning ta'sirini kuchaytirishga, ularning hukmronligini o'rnatishga urinuvchi siyosiy oqim.

KLIRING [ingl. clearing - hisob-kitob qilish] Mamlakatlar, kompaniyalar, korxonalar o'rtasidagi o'zaro talab va majburiyatlar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimi.

KLUB [ingl. club - bir joyga yig'ilmoq] Bir maqsad yo'lida uyushgan kishilarning siyosiy, ilmiy, badiiy, sport va b. sohalar bo'yicha shug'ullanishi, ko'ngilli dam olishi uchun xizmat qiladigan madaniy-ma'rifiy muassasa, jamoat tashkiloti.

KOALITSION HUKUMAT Bir necha siyosiy partiyalarning vakillaridan tuzilgan hukumat.

KOALITSIYA [lot. coalitio - uyushma, ittifoq] **1** Xalqaro munosabatlarning ayrim masalalarida birgalikda ish ko'rish haqida o'zaro ahdlashgan davlatlarning siyosiy yoki harbiy ittifoqi. **2** Bir nechta siyosiy partiyalarning shu partiya vakillaridan iborat hukumat tuzish to'g'risidagi kelishuvi.

KODEKS [lot. codex - kitob; qonunlar, qarorlar to'plami] Ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdagi sohasini tartibga soluvchi tizimlashtirilgan, yagona qonunlar to'plami.

KODIFIKATSIYA [lot. codificatio - kodeks tuzish < codex - qonunlar majmui + lot. facere - qilmoq] Ma'lum bir davr ichida chiqarilgan va amalda joriy bo'lgan qonunlarni to'plab tartibga solish yo'li bilan ularni bir butunlikka keltirish jarayoni.

KOLLEGIAL [lot. collegialis - birlashgan, birgalikdagi] Kollegiyaga taalluqli, oid; bir qancha kishi bilan birgalashib, kengashib amalga oshiriladigan.

KOLLEGIALLIK Maxsus tayinlangan yoki saylangan bir guruh kishilar tomonidan ishni muhokama va hal qilinishi.

KOLLEGIYA [lot. collegium - shirkat; uyushma < collega - o'rtoq, birodar] **1** Biror rahbarlik qiluvchi yoki maslahat beruvchi, boshqaruvchi organni tashkil qiluvchi kishilar guruhi. **2** Ayrim kasb kishilarining ixtiyoriy uyushmasi. **3 tar.** XVIII asrda Rossiyadagi markaziy boshqaruv muassasalarining nomi.

KOLLEJ [ingl., fr. sollege - o'rtoq, birodar: o'quv yurti] **1** AQSH, Buyuk Britaniya va b. ba'zi mamlakatlarda: o'rtadan oliygacha bo'lgan turli xil o'quv yurtlari. **2** Fransiya, Shveytsariya va b. ba'zi mamlakatlarda: o'rta va to'liqsiz o'rta o'quv yurti. **3** O'zbekistonda: o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurti.

KOLLEKTIV [lot. collectivus - to'plangan, jamlama] Biror korxonada, muassasa yoxud tashkilotda birga ishlaydigan kishilar majmui; jamoa.

KOLLEKTIV XAVFSIZLIK Davlatlarning tinchlikni ta'minlash, agressiyaning oldini olish va zarur bo'lib qolganda agressiya harakatlarini bostirish yuzasidan ular o'rtasida tuzilgan bitimlarga muvofiq va xalqaro tashkilotlar orqali tadbirlar amalga oshirishda hamkorlik qilishi.

KOLLEKTIVLASHTIRISH **1** Jamoaga birlashtirish, jamoalashtirish yo'lidan borish. **2 tar.** Sho'ro davrida: XX asrning 20 - 30-yillarida mayda-mayda dehqon xo'jaliklaridan ommaviy tarzda yirik kollektiv xo'jaliklarni tashkil qilish.

KOLONIYA [*lot. colonia* – manzilgoh, turarjoy] **1** Xorijiy davlat hukmronligi ostidagi, siyosiy va iqtisodiy jihatdan unga qaram bo'lgan mamlakat, mustamlaka. **2** Biror maqsadda, mas., davolash, axloq tuzatish uchun barpo qilingan joy.

KOLONIZATSIYA [*< lot. colonia* – manzilgoh, turarjoy] **1** O'z mamlakati chekkasidagi yoki undan tashqaridagi bo'sh yotgan yerlarga joylashish va u yerlarda koloniyalar tashkil qilish, xo'jalik jihatdan o'zlashtirish. **2** Biron-bir mamlakat yoki hududni bosib olish.

KOMANDIR [*fr. commandeur < lot. commendare* – ishonib topshirmoq] Qurolli kuchlar bo'linmalariga rahbarlik qiluvchi mansabdor shaxs.

KOMENDANTLIK SOATI Sutkaning belgilangan vaqtida ko'chalarda va b. jamoat joylarida fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi ruxsatnoma yoki hujjatsiz yurishni taqiqlash.

KOMILLIK Insonning kamolotga erishuvi jarayonidagi barkamollik darajasini ifodalovchi tushuncha.

KOMINTERN, kommunistik internatsional *tar.* 1919–1943-yillarda: ayrim mamlakatlarning kommunistik partiyalarini birlashtirgan, faoliyatida razvedka ishlarini ham olib borgan xalqaro tashkilot.

KOMISSAR [*fr. commissaire < lot. comissarius* – vakil, vakolatdor] **1** Ijtimoiy-siyosiy yoki ma'muriy vakolatlariga ega bo'lgan ma'muriy shaxs. **2** Ba'zi mamlakatlarda ma'muriy yoki politsiya vazifalarini bajaruvchi amaldor shaxs.

KOMISSIYA [*lot. commissio* – topshirish; topshiriq] **1** Saylab yoki tayinlab qo'yiladigan davlat yoki jamoat kollegial organi bo'lib, uning vazifasi, odatda, muayyan masalalarni tayyorlash yoki ishlab chiqishdan yoki nazorat, taftish va sh. k. vazifalarni bajarishdan iborat. **2** Ma'lum vazifani bajaradigan davlat boshqarmasi. **3** Aholidan ma'lum haq olib, bir narsani sotib berish uchun qabul qilish.

KOMITET [*fr. comite < lot. comitere* – topshirmoq, yuklamoq] **1** Maxsus tadbirlar o'tkazish yoki muayyan tarmoqqa rahbarlik qilish uchun tuziladigan davlat organi. **2** Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarida: saylab qo'yiladigan kollegial rahbariy organ.

KOMMERSANT [*lot. commercantis* – savdogar; sotib oluvchi] Tijorat, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi shaxs.

KOMMERSIYA [*lot. commercium* – savdo] Savdo va savdo-vositachilik faoliyati, tovar va xizmatlarni sotish yoki sotilishiga ko'maklashishda ishtirok etish.

KOMMUNAL [*lot. communis* – umumiy, ommaviy, jamoaviy] **1** Jamoa bo'lib yashashga oid; jamoaviy. **2** Shahar xo'jaligiga oid, shahar xo'jaligiga bog'liq.

KOMMUNAL MULK O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, ma'muriy-hududiy tuzilma mulki.

KOMMUNAL TO'LOV Shahar, shaharcha, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalariga, xizmatlarga to'lanadigan mablag'lar.

KOMMUNAL XO'JALIK Shahar, shaharcha va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, xizmatlar va xo'jaliklar majmui.

KOMMUNISTIK 1 *tar.* Kommunizmga oid; kommunizm prinsiplariga asoslangan. **2** Kommunizm g'oyalari asoslangan, unga amal qiladigan.

KOMMUNISTIK DOGMA *tar.* Konkret tarixiy sharoitga mos kelmay qolsa ham ko'r-ko'rona qo'llanadigan qoida.

KOMMUNISTIK MAFKURA *tar.* Kommunistik qarashlar, kommunistik g'oyalar tizimi.

KOMMUNISTIK PARTIYA *tar.* Kommunizm g'oyalari asoslangan, unga amal qiladigan partiya.

KOMMUNISTIK TARBIIYA *tar.* Kommunistik jamiyatni barpo etishda mehnatkashlarni ijtimoiy tarbiyalashning ko'p qirrali jarayoni.

KOMMUNISTIK TUZUM *tar.* Xususiy mulkchilikni inkor qilishga asoslangan turli qarashlar tizimi.

KOMMUNIZM [*lot. communis* – umumiy, ommaviy] **1** Xususiy mulkchilikni inkor qilishga asoslangan turli qarashlarning umumiy nomi. **2** *tar.* Marksizmda: kapitalizm o'rnini egallovchi va o'z rivojlanishi tarixida ikki bosqich (faza)ni – sotsializm deb ataluvchi quyi hamda to'liq kommunizm deb ataluvchi yuqori bosqichni o'tuvchi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya.

KOMMYUNIKE [*fr. communique* < *lot. communicare* – xabar qilmoq] Xalqaro muzokaralar, davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar, mamlakat ichki hayotidagi

muhim voqealar, harbiy harakatlar va b. haqidagi hukumatning rasmiy xabari.

KOMPANIYA [*fr. compagnie* < *lot. compages* – birlashtirish; birlashma] Iqtisodiy faoliyat olib borish uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar, ishbilarmonlar birlashmasi.

KOMPENSATSIYA [*lot. compensatio* – tenglashtirish; o'rnini to'ldirish] **1** Biror narsaning o'rnini qoplash, haq to'lash, tovon. **2** *huq.* Mehnat qonunchiligida: qonunda belgilangan hollarda mehnat majburiyatlarini bajarishdagi qo'shimcha xarajatlar uchun ishchi va xizmatchilarga beriladigan to'lov; tovon puli.

KOMPETENSIYA [*lot. competere* – layoqatli, munosib bo'lmoq] Muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; vakolat.

KOMPLEKS DASTUR Muayyan maqsad, ish-harakat yoki tadbirning oldindan belgilab chiqilgan yo'l-yo'rig'i.

KOMPRADOR [*isp. comprador* – sotib oluvchi] Chet el kapitali bilan mahalliy bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi yerli savdogar.

KOMPROMISS [*lot. compromissum* – o'zaro va'dalashuv, kelishuv, bitim] Boshqa tomonga (mas., raqibga) uning ba'zi talablarida yon berish; u bilan kelishish natijasida o'z talablarining bir qismidan kechish; shu asosdagi bitim.

KOMPYUTER [*ingl. computer* < *lot. computare* – hisoblamoq, hisoblab chiqmoq] Oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigan, murakkab quril-

maga ega bo'lgan elektron-hisoblash mashinasi (EHM).

KOMPYUTER MADANIYATI

Odamning o'z faoliyatida axborot texnologiyalari majmuidan tegishli tarzda foydalana olishi.

KOMPYUTER TARMOG'I Axborotlarni uyg'unlashtirib almashinishi maqsadida uzatish liniyalari orqali bog'langan alohida kompyuterlar majmui; EHM tarmog'i.

KOMPYUTERLASHTIRISH Inson faoliyatini turli sohalariga kompyuterlarni joriy qilish, ularni kompyuter bilan ishlashga o'tkazish.

KOMSOMOL *tar.* Kommunistik Yoshlar Uyushmasi.

KONDOMINAT [*lot. co(n) - birga + dominium - egalik; boshqarish*] Biror hududni ikki yoki bir necha davlatlarning birgalikda boshqarishi.

KONDOMINIUM [*lot. condominium < con - birgalikda + dominium - egalik qilish*] Ikki yoki undan ortiq davlatning ma'lum bir hududga birgalikda egalik qilib, o'z suverenitetini amalga oshirishi.

KONFEDERATSIYA [*lot. confoederatio - ittifoq, uyushma, birlashma*] **1** Bir necha davlatlar tomonidan, o'z mustaqilligini saqlagani holda, muayyan maqsadlarni ko'zlab tuzilgan o'zaro ittifoq, davlat qurilishi shakli. **2** Muayyan tashkilotlar birlashmasi, ittifoqi.

KONFERENSIYA [*lot. conferentia < conferre - bir joyga to'plamoq*] Hukumat, partiya, jamoatchilik va olimlar

vakillarining biror masalani hal qilish yoki muhokama etish uchun yig'ilishi, majlisi.

KONFESSIYA [*lot. confessio - tan olish, e'tirof etish*] Diniy ishonch, e'tiqod; mazhab.

KONFISKATSIYA [*lot. confiscatio - xazina uchun tortib olish*] Xususiy kishilarga qarashli mol-mulkni batamom yoki qisman davlat ixtiyoriga o'tkazish, musodara qilish.

KONFLIKT [*lot. conflictus - to'qnashish; qarama-qarshilik*] **1** Qarama-qarshi tomonlarning, fikr, kuch va h.k.larning to'qnashuvi; jiddiy kelishmovchilik, keskin nizo. **2** Xalqaro munosabatlarda ba'zan qurolli to'qnashuvlargacha olib keladigan janjal, mojaro.

KONFLIKTOLOGIYA [*lot. conflictus - to'qnashish + yun. logos - fan, ta'limot*] Mojarolar mohiyatini o'rganish va ular muammolarining yechimiga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish haqidagi bilim sohasi.

KONFORMIZM [*lot. conformis - o'xshash, muvofiq*] Mavjud ijtimoiy tartib, hukmron g'oya va fikrlarga moslashish, muvofiqlashishni anglatuvchi axloqiy-siyosiy tushuncha.

KONFUTSIYLIK Qadimgi Xitoyda kelib chiqqan falsafiy-axloqiy ta'limot (asoschisi Konfutsiy nomidan).

KONGRESS [*lot. congressus - uchrashuv, yig'ilish*] **1** Odatda, siyosiy, ilmiy va b. masalalar yuzasidan o'tkaziladigan xalqaro konferensiya, kengash. **2** Ayrim davlatlarda parlamentning yoki siyosiy partiyalarning nomi.

3 Ba'zi xorijiy mamlakatlarda qonun chiqaruvchi organ.

KONGRESSMEN [ingl. congressman] Kongress a'zosi.

KONKLYUDENT [lot. concludere – xulosa chiqarmoq] Shaxsning erki, xohish-irodasi og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham ifoda etilmagan bo'lsa-da, shartnoma tuzish uchun niyati, maqsadi haqida o'z-o'zidan guvohlik berib turadigan harakat.

KONKURENSIYA [lot. concurrentia < concurrere – to'qnashmoq, duch kelmoq] Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash.

KONKURENT [lot. concurrens, concurrentis – musobaqalashuv < concurrere – birga yugurmoq] Raqobat qiluvchi, raqobatda qatnashuvchi.

KONKURS [lot. concursus – to'qnashish, duch kelish] Musobaqa qatnashchilaridan, taqdim etilgan asarlar va sh.k.lardan eng yaxshisini tanlab olish maqsadida o'tkaziladigan sinov.

KONSALTING [ingl. consulting – maslahat berish, maslahatlashish] Maxsus kompaniyalarning iqtisodiy, moliya, tashqi iqtisodiy faoliyat, firmalarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, tovarlar va xizmatlar bozorini, innovatsiyalarni tadqiq etish, tavsiyalar berishdan iborat faoliyati.

KONSENSUS [lot. consensus – yakdillik, kelishuv] Xalqaro shartnomalar

tuzishda parlament yoki kengashlarga tegishli qaror qabul qilish, munozaralar natijasida nizoli, bahsli masalalar bo'yicha erishilgan umumiy bitim.

KONSENTRATSION LAGER Fashist rejimi hukmron bo'lgan mamlakatlarda: siyosiy mahbuslar qamaladigan maxsus lager.

KONSEPSIYA [lot. conceptio – idrok etish; tizim] Qandaydir muammo yoki vaziyatni hal etish, oydinlashtirib olishga qaratilgan nuqtayi nazar tizimi.

KONSERN [ingl. concern – ishtirok; manfaat; korxonalar] Rasman o'z mustaqilligini saqlab qoluvchi, lekin amalda markazlashgan moliyaviy nazorat va rahbariyatga bo'ysunuvchi bir qancha sanoat, moliya va savdo korxonalarining iqtisodiy faoliyat olib borish uchun barpo qilgan birlashmasi, qo'shilmasi.

KONSERVATIV [lot. conservativus – himoya qiluvchi, saqlovchi] Eski, qolib ketgan tartiblarni, eskilik sarqitlarini saqlashga intiluvchi.

KONSERVATIZM [fr. conservatisme < lot. conservare – himoya qilmoq, saqlamoq] Ijtimoiy hayotning mavjud holatini, tartib va qoidalarini, eskilikni saqlab qolish va yangilikka, o'zgarishga qarshilik qilish; mutaassiblik.

KONSERVATOR [lot. conservator – saqlovchi] Konservatizm maslagidagi, eski, qolib ketgan tartiblarni saqlashga intiluvchi odam; konservativ siyosiy partiyaga a'zo bo'lgan shaxs.

KONSESSIYA [lot. concessio – ruxsat berish, yon berish] Chet ellik inves-

torlarga xo'jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug'ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma.

KONSIGNATSIYA [lot. consignatio – yozma dalil; hujjat] Tovarlarini komission sotish shakli bo'lib, bunda tovar egasi tovarni ma'lum shartlar asosida sotish uchun vositachiga yuboradi va u vositachi ombori orqali sotiladi.

KONSOLIDATSIYA [lot. consolidare – mustahkamlamoq, mahkamlamoq] **1** Ayrim shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning umumiy maqsadlar uchun kurashni kuchaytirish yo'lida birlashuvi, jipslashuvi. **2** Davlatning qisqa muddatli qarzlarini uzoq muddatli yoki muddatsiz qarzga aylantirish.

KONSORSIUM [lot. consortium – sheriklik, birga ishtirok etish] Kompaniyalar, banklar yoki sanoat korxonalarining qarzlarni birgalikda joylashtirish, juda yirik ko'lamda moliyaviy yoki tijorat ishlarini, investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun tuzilgan vaqtinchalik birlashmasi.

KONSPIRATSIYA [lot. conspiratio – til biriktirish, fitna] Biror faoliyat sohasida sir saqlash; nolegal, yashirin tashkilotlarning o'z ishini (faoliyatini) sir tutish va a'zolarini yashirish uchun qo'llagan usullari, chora-tadbirlari.

KONSTITUSION BURCH Demokratik, huquqiy davlat va zamonaviy jamiyat qurishning hamda ular rivojlantirishining zaruriy shartlaridan biri.

KONSTITUSIONALIZM [lot. constitutio – belgilash, o'rnatish; qonunlashtirish] Jamiyat hayotini qabul qi-

lingan qoida va qonunlarga qat'iy rioya etgan holda tashkil etish va boshqarish jarayonini ifoda etuvchi tamoyil.

KONSTITUTSIYA [lot. constitutio – belgilash, o'rnatish; tartib] Davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatini tashkil etish tartibi va tamoyillarini belgilovchi asosiy qonuni; barcha joriy qonunlarning asosi.

KONSTITUSIYAVIY ASSAMBLEYA Ta'sis majlisi me'yorlaridan biri.

KONSTITUSIYAVIY JARAYON Yuqori davlat hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy tuzum doirasidagi faoliyati, shuningdek, jahonda yoki muayyan jamiyatda konstitutsiyaviy huquq institutlarini rivojlantirish va takomillashtirish.

KONSTITUSIYAVIY HUQUQ Huquq tizimining yetakchi sohasi bo'lib, asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi.

KONSTITUSIYAVIY HUQUQBULARLIK Konstitutsiya me'yorlarining davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan buzilishi.

KONSTITUSIYAVIY JAVOBGARLIK Ijtimoiy javobgarlikning o'ziga xos turi.

KONSTITUSIYAVIY NAZORAT Davlatning huquqni nazorat qilish faoliyatining o'ziga xos turi.

KONSTITUSIYAVIY PRINSIPLAR Davlat konstitutsiyasida mustahkamlangan, konstitutsiyaviy-huquqiy bosh-

qarish obyektini hisoblangan ijtimoiy munosabatlar mohiyatining belgilanishi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUNCHILIK Davlat va jamiyat qurilishining alohida, asosiy elementlarini tartibga soluvchi normativ huquqiy akt.

KONSTITUTSIYAVIY SUD Bir qator mamlakatlarda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi alohida organ.

KONSTITUTSIYAVIY TUZUM Davlatda amaldagi konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqlar tomonidan o'rnatiladigan hamda muhofaza qilinadigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimi.

KONSUL [*lot. consul* – maslahatchi] **1 tar.** Qadimgi Rimda, ilk respublika davlatlarida vujudga kelgan oliy mansabdor shaxs. **2** Biror davlatning boshqa bir davlat shahri yoki viloyatidagi rasmiy doimiy vakili va o'z davlati va uning fuqarolari manfaatlarini himoya qiladigan mansabdor shaxs.

KONSULLIK 1 Konsul lavozimi, ishi, vazifasi. **2** Biror davlatning boshqa bir mamlakat shahar va viloyatidagi konsul tomonidan boshqariladigan vakilligi, vakolatxonasi.

KONSULLIK HUQUQI Davlatlar o'rtasidagi konsullik aloqalarini tartibga solishga xizmat qiluvchi xalqaro huquq.

KONSULLIK IMMUNITETI Konsullik muassasasi va uning xodimlariga beriladigan yengillik va imtiyozlar majmui.

KONSULLIK KONVENSIYALARI Konsullik munosabatlari bo'yicha davlatlar o'rtasida tuzilgan bitim.

KONSULLIK PATENTI Konsul vakolatlarini tasdiqlovchi guvohnoma

KONSULTATIV [*lot. consultare* – maslahatlashmoq] Maslahat beruvchi, maslahat huquqiga ega bo'lgan.

KONSULTATIV FIRMA Mutaxassislar maslahati orqali aholiga yordam ko'rsatuvchi muassasa.

KONSULXONA Konsullik vazifasini bajarish uchun bir davlatning boshqa bir davlat hududida ta'sis etilgan tashqi aloqalar organi.

KONTRABANDA [*ital. contrabando* < *lot. contra* – qarshi + *bando* – hukumat farmoyishi] **1** Davlat chegarasidan g'ayriqonuniy ravishda yashirincha, boj to'lamay tovar o'tkazish yoki taqiqlangan tovar va b. qimmatbaho narsalarni olib o'tish. **2** Shunday yo'l bilan o'tkazilgan tovar va b. qimmatbaho narsalarning o'zi.

KONTRABANDA TOVARLARI Kontrabanda yo'li bilan o'tkaziladigan mol-lar.

KONTRAKT [*lot. contractus* – kelishuv, bitim] Tomonlarning huquq va majburiyatlari asosida tuzilgan, ikki yoki ko'p tomonlama shartnoma, bitim.

KONTRAKT BO'YICHA HARBIIY XIZMAT Harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan Qurolli kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turi.

KONTRAKT SHARTNOMASI Ol-di-sotdi shartnomasining turlaridan biri.

KONTRAKTATSIYA [lot. contractus – kelishuv, bitim] **1** Biron kishi bilan shartnoma tuzish. **2** Tayyorlov tashkilotlarining xususiy fermerlar bilan tuzadigan shartnomalari asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash tizimi.

KONTRASIGNATURA [lot. contra – qarshi + signare – imzolamoq] Hal qilinishi lozim bo'lgan masala yuzasidan davlat boshlig'i (monarx, prezident) qarorining hukumat, hukumat rahbari yoki alohida vazir tomonidan dastlabki tarzda ma'qullanishi. Kontrasignatura kollegial organning tegishli hujjat yuzasidan qaror qabul qilishi yoki mansabdor shaxsning hujjat loyahasiga o'z imzosini qo'yishi bilan amalga oshirildi.

KONTRATAKA [fr. contre-attaque – qarshi hujum] Dushman hujumini qaytarish, egallab turgan hududdan surib chiqarish maqsadida mudofaadagi tomonning shiddatli qarshi hujumi.

KONTRIBUTSIYA [lot. contributio – badal, to'lov] **1** Urushda yengilgan davlatning g'olib davlatga to'laydigan to'voni. **2** Urush mahalida dushman tomonidan bosib olingan hudud aholisiga solinadigan majburiy soliq.

KONTRRAZVEDKA [lot. contra – qarshi + rus. разведка – qidiruv, tekshiruv] Dushman razvedkasiga, josuslarga, diversantlarga qarshi kurash olib boruvchi maxsus tashkilot.

KONVENSIONALIZM [lot. conventio – bitim, shartnoma] XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan falsafiy-ilmiy yo'nalishlardan biri.

KONVENSIYA [lot. conventio – bitim, kelishuv] Davlatlar o'rtasida xalqaro munosabatlarga doir maxsus masalalar yuzasidan tuzilgan shartnoma, bitim.

KONVENSIYA IJROSI Davlatlar o'rtasida xalqaro munosabatlarga doir maxsus masalalar bo'yicha ijro etuvchi organ.

KONVENT [lot. conventus – yig'ish, to'planish] Ba'zi mamlakatlarda alohida vakolatga ega bo'lgan va saylab qo'yiladigan davlat organi.

KONVERGENSIYA [lot. convergere – yaqinlashmoq, o'xshamoq] Siyosiy g'oya va konsepsiya sifatida XX asrning 2-yarmida G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, siyosiy tuzumlari turli-tuman mamlakatlar va siyosiy guruhlar pirovardida o'zaro o'xshashlik sari boradi degan fikr ilgari surilgan.

KONVERSIYA [lot. conversio – aylantirish, o'zgartirish] Ilgari chiqarilgan davlat zayomlarini ularning muddatlari va zayom foizi hajmini o'zgartirish maqsadida yangilari bilan almashtirish.

KONVERTATSIYA [lot. convertatio – o'zgartirish, aylantirish] Milliy valyutaning amaldagi kurs bo'yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

KONYUNKTURA [lot. conjunctura < conjungere – biriktirmoq, qo'shmoq] **1** Ijtimoiy hayotning biror sohasida yuzaga kelgan holat, vaziyat, muvaqqat sharoit. **2** Iqtisodiyotning ma'lum davrdagi joriy

holatini ko'rsatuvchi belgilar majmui; bozorda u yoki bu tovarga bo'lgan talab va taklifning o'zaro nisbati.

KOOPERATSIYA [lot. cooperatio - hamkorlik, birgalikda ishlash] **1** Jismoniy yoki yuridik shaxslarning birgalikda tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun ixtiyoriylik asosida birlashuvi. **2** Ikki yoki bir necha mamlakatlarning xorijiy sheriklar ishtirokida qo'shma yoki o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishning universal shakli.

KOOPERATSIYA MUNOSABATLARI Kishilar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasidagi bordi-keldi, oldi-berdi muomalalari.

KOOPTATSIYA [lot. cooptatio - qo'shimcha saylanish, qo'shimcha saylash] Saylab qo'yiladigan organlar tarkibiga, qo'shimcha saylovlar o'tkazmay turib, yangi a'zolar yoki nomzodlar kiritish.

KOORDINATSIYA [lot. coordinatio - o'zaro kelishuv; tartib bo'yicha joylash-tirish] Ish, harakat, faoliyat va sh.k.larni bir-biriga muvofiqlashtirish, moslashtirish.

KORPORATIV BOSHQARUV Guruh a'zolari o'rtasidagi interfaol muloqot.

KORPORATIV HUQUQ Fuqarolik huquqining tarkibiy qismi, xo'jalik jamiyatlar va shirkatlarining huquqiy maqomini, ularni tashkil etish va ularning amal qilishi masalalarini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmui.

KORPORATSIYA [lot. corporatio - birlashma, uyushma, hamjamiyat] Rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyati;

biron-bir faoliyat uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar majmui.

KORRESPONDENSIYA [lot. correspondere - javob bermoq, xabardor qilmoq] Muxbirlar tomonidan ommaviy axborot vositalari uchun joylardan yuboriluvchi xat, xabar, jo'natmalar.

KORRUPSIYA [lot. corruptio - poraga sotilish; yo'ldan ozdirish; tanaz-zul] Mansabdor shaxslarning boyish maqsadida, o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarini suiiste'mol qilishidan iborat jinoyati, pora olish va pora berish kabilar.

KORXONA [f. - ishxona] Biror mahsulotni tayyorlashda yoki biron ishni bajarishda kishilar foydalanadigan ishlab chiqarish qurollari va vositalariga ega bo'lgan, bir qancha bo'limlar va bo'linmalardan iborat ishxona, ishlash joyi.

KORXONA BANKROTLIGI Korxonaga mablag'i yetmasligidan o'z majburiyat-lari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi holati.

KORXONA MULKI Korxonaga tegishli asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, shuningdek, boshqa moddiy va moliyaviy resurslar.

KORXONANI PASPORTLASH-TIRISH Butun sanoat korxonasining, shuningdek, undagi ayrim sex, uchastkaning texnika bilan ta'minlanganligini ifodalovchi hamda ishchilar tarkibini ifodalovchi hujjat tuzish.

KOSMIZM [yun. kosmos - tartibli olam] Koinot haqidagi bilimlar va insonning dunyo fuqarosi ekanligi to'g'risi-

dagi qarashlarga asoslanuvchi falsafiy dunyoqarash.

KOSMOPOLIT [*yun.* kosmopolites – dunyo fuqarosi] Kosmopolitizm va uning mafkurasi tarafdori.

KOSMOPOLITIZM [*yun.* kosmopolites – dunyo fuqarosi] "Kishi butun dunyo fuqarosidir" degan soxta shior ostida vatanparvarlikni, milliy madaniyat an'analarini, xalqning milliy mustaqilligini inkor etuvchi mafkura.

KOTIB [*a.* – (xat) yozuvchi, (kitob) ko'chiruvchi] **1** Korxonada, muassasada, idoralarda, lavozimli kishilar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xizmatchi. **2** Muassasada, idora va sh. k.lar kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas'ul xodim. **3** Majlis, kengash qarorlarini yozib boruvchi shaxs. **4** Ilmiy muassasalar, tahririyatlar va b. kundalik ishlarga rahbarlik qiluvchi shaxs.

KOTIBIYAT 1 Muassasa va tashkilotlarda, anjuman va sh. k. yig'inlarda joriy ishlarga rahbarlik qiluvchi yoki tashkiliy-texnik ishlarni bajaruvchi, saylab qo'yilgan organ yoki ma'muriy bo'lim. **2** Shunday organ, bo'limlarda ishlaydigan xodimlar.

KREDIT [*lot.* creditum – qarz < credere – ishonmoq] Pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish.

KREDIT INTIZOMI Pul yoki tovarlarni, odatda, ma'lum bir muddatda foiz to'lab, qaytarib berish jarayonida

yuzaga keladigan munosabatlarda belgilangan tartib qoidaga rioya qilish.

KREDIT ISLOHOTI Kredit tizimini o'zgartirishga qaratilgan davlat aktlari majmui.

KREDIT KARTOCHKASI Bank yoki savdo tashkiloti tomonidan chiqarilgan, egasiga chakana savdoda tovar va xizmatlarni naqd pulsiz sotib olish huquqini beruvchi, egasining nomi yozilgan to'lov hisob-kitob hujjati.

KREDIT-PUL SIYOSATI Umumxo'jalik siyosati elementlaridan biri bo'lib, davlat tomonidan ma'lum iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun o'tkaziladigan pul-kredit tadbirlari tizimi.

KREDIT VARAQASI Bankning o'z mijozlariga, ularga mahsulot va ko'rsatilgan xizmat uchun beriladigan to'lov hujjati.

KREDITLARNI SUG'URTALASH Qarzdor (debitor)ning qarz to'lash qobiliyati pasaygan yoki yo'qolgan holda pulni kreditorga qaytarish kafilligini oluvchi shartnoma.

KREDITOR [*lot.* creditor – qarz beruvchi] Majburiyat bo'yicha qarzdor (debitor)dan biror harakatni amalga oshirishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan tomon.

KREDITORLIK QARZI Korxonada, tashkilot va muassasaning tegishli yuridik va jismoniy shaxslarga to'lash uchun ajratilgan pul mablag'lari.

KRIMINAL [*lot.* criminalis – jinoyit] Jinoyit ish, jinoyat.

KRIMINALIST Kriminalistika mutaxassisi.

KRIMINALISTIK Kriminalistikaga oid.

KRIMINALISTIKA [*lot. criminalis* – jinoiy, jinoyatga doir, aloqador] Huquq ilmining jinoyatlarni tekshirish, aniqlash va ochish metodikasi, taktikasi va usullari bilan shug'ullanadigan bo'limi.

KRIMINOLOGIK RETSIDIV Oldin ham jinoyat sodir qilgan shaxslar tomonidan yangi jinoyatlarning sodir etilishi.

KRIMINOLOGIYA [*lot. crimen, criminis* – jinoyat + *yun. logos* – fan, ta'limot] Jinoyatchilik va uning sabablarini, jinoyatchi shaxsini o'rganadigan, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadigan fan.

KRITERIY [*yun. kriterion* – fikrlash, yechish vositasi] Biror narsani baholash, ta'riflash yoki tasniflash uchun asos bo'la oladigan belgi; baholash mezon.

KRITITSIZM [*lot. kritike* – fikr, mulohaza yuritish] Insonning bilish jarayonidagi faoliyati to'g'ri yoki noto'g'ri tashkil etilganini e'tirof etadigan ta'limot.

KRIZIS [*yun. krisis* – hal qilish; burilish nuqtasi; oqibat] **1** Biron hodisada yuz bergan tub burilish, tang va xatarli, mushkul holat. **2** *iq.* Nizoning keskin shakli bo'lib, maqsad va mablag', taktika va strategiyaning qarama-qarshiligini, qimmatli qog'ozlarning qayta baholanishini aks ettiradi.

KULTUROLOGIYA [*yun. cultura* – madaniyat + *yun. logos* – fan, ta'limot] Madaniyatning shakllanish, rivojlanish qonuniyatlari, madaniyat tipologiyasi haqidagi fan; madaniyatshunoslik.

KUNBAY HAQ Kun hisobi bilan to'lanadigan haq.

KUNBAY ISH Kun hisobi bilan haq to'lanadigan mehnat.

KUPYURA [*fr. coupure* – qirqim, kesim] Ustiga qiymati yozib qo'yilgan qog'oz pullar, banknot, obligatsiya yoki qimmatbaho qog'ozlar.

KURATOR [*lot. curator* – homiy, tarbiyachi] Biror ish ustidan nazorat qilib turish vazifasi yuklatilgan, topshirilgan shaxs.

KURS [*lot. cursus* – chopish, yurish; oqim] **1** Biror fan yoki uning biror qismining to'liq bayoni. **2** Oliy o'quv yurti, litsey va kollejda ta'lim olish bosqichi. **3** Bir mamlakat pul birligi bahosining boshqa mamlakat pul birligidagi ifodasi. **4** Birjada aksiya va b. qimmatbaho qog'ozlar yoki tovarlarning shu bugungi sotilgan va sotib olingan bahosi.

KURYER [*fr. courrier* – chopar; xat-xabar < *lot. currere* – yugurmoq, shoshilmoq] Xat va jo'natmalarni tashuvchi.

KUCHGA KIRISH Me'yoriy-huquqiy hujjat amal qilishining boshlanishi.

KUCHLI IJTIMOY SIYOSAT Ijtimoiy tuzum tarkibiy qismlari o'rtasidagi barqaror va tartiblashgan aloqalar tarmog'i.

KVARTAL [*nem. Quartal* < *lot. quartus* – to'rtinchi] Yilning to'rttdan bir qismi, choragi.

KVITANSIYA [*ital. quitanza* < *lot. quitantia* < *quitare* – tinchlantirmoq; majburiyatdan ozod qilmaoq] Pul, hujjat, qimmatbaho narsalarni qabul

qilib olganlik yoki to'laganlik haqidagi rasmiy hujjat.

KVORUM [lot. quorum - qatnashuvchi] Yig'ilish, kengash qonuniy qarorlar qabul qilishi uchun unda qatnashishi shart bo'ladigan xodimlarning eng kam miqdori.

KVOTA [lot. quota - qism, hissa] Umumiy ishda ishtirok etuvchilarning har biriga to'g'ri keladigan hissa, qism, pay.

KO'P BOSQICHLI SAYLOVLAR Davlat boshlig'ini yoki mansabdor shaxsni saylash, biron-bir organni ta'sis etish, hokimiyat oliy organlariga vakillar saylashni ko'p pog'onali, ya'ni bilvosita saylovlar yo'li bilan amalga oshirishning eng yuqori pog'ona vakillik organi.

KO'P MILLATLI DAVLAT Har bir qavm, xalq, millatning jinsi, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ixtiyoriyligi, teng-huquqliligi, erkin irodasi tamoyillarini tan olish va hurmat qilish zamiriga qurilgan davlat.

KO'PPARTIYAVIYLIK 1 Jamiyatda bir necha siyosiy partiyalarning mavjudligi. **2** Jamiyatning erkinlik, demokrat-

lashuv va siyosiy xilmaxillik darajasining muhim ko'rsatkichi.

KO'P TOMONLAMA SHARTNOMALAR Ikki nafardan ortiq shaxslar hamkorligida tuziladigan shartnomalar.

KO'P UKLADLI IQTISODIYOT Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning o'ziga xos asosiy xo'jalik shakli.

KO'RSATMA huq. Tergov-sud jaryonlarida biror ahamiyatli holat haqida shaxs(guvoh) bergan ma'lumot; dalil.

KO'TARA SAVDO Katta miqdorda amalga oshiriladigan savdo-sotiq.


KO'CHMA YIG'ILISH Biror masala yuzasidan tegishli shaxslarning kerakli, belgilangan joyda tezkor to'planishi.

KO'CHMAS MULK Fuqarolik huquqi obyektiga ko'ra, mustahkam qurilgan bino, inshoot va b. obyektlar.

KO'CHMAS MULK BIRJASI Ko'chmas mulk savdosi bilan shug'ullanadigan yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati.

KO'CHMAS MULK GAROVI Ko'chmas mulk majburiyatini ta'minlash usuli.

KO'CHMAS MULK KADASTRI Ko'chmas mulk to'g'risida tartiblashtirilgan, aniq va zaruriy ma'lumotlar majmui.



LABIRINT [*yun.* labyrinthos < Labyrinthos – Krit orolidagi afsonaviy saroy nomi] Bir-biriga o'xshash ko'plab xonalari, kishi yursa adashib qoladigan chalkash yo'llari bo'lgan ulkan inshoot.

LABORANT [*lot.* laborantis – ishlovchi] Laboratoriya yoki ilmiy muassasada ilmiy-texnik ishlarni bajaruvchi xodim.

LABORATORIYA [*lot.* laboratorium < laborare – ishlamoq] **1** Ilmiy muassasa, vazirlik, korxonalar, o'quv yurti tarkibidagi ilmiy-ishlab chiqarish nazorat tajribalari yoki o'quv mashg'ulotlari olib boruvchi mustaqil muassasa yoki bo'lim. **2** Yozuvchi, rassom va sh. k.larning ijodiy faoliyat sohasi.

LAGER [*nem.* Lager – qarorgoh, joy] **1** Vaqtincha turish uchun qurilgan joy, qarorgoh. **2** Mahbuslar va harbiy asirlar saqlanadigan joy.

LAHJA [*a.* – til; sheva; talaffuz] Mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi.

LAKONIZM [*yun.* lakonismos – qisqalik] Fikrni bayon qilishdagi qisqalik va aniqlik.

LAMAIZM Budda dinining Tibet va Mo'g'ulistonda, shuningdek, ularga

tutash hududlarda yashaydigan aholi o'rtasida tarqalgan bir ko'rinishi.

LAMINATSIYA [*lot.* lamina – plastinka; metall, yog'och va b.lardan qilingan yupqa lavha] Qog'oz, karton, faner, taxtadan yasalgan buyumlar sirtiga yuqori harorat ostida shaffof polimer parda qoplash yo'li bilan jilo berish.

LAQAY O'zbek urug'laridan birining nomi: shu uruqqa mansub kishi.

LATENT [*lot.* latens, latents – yashirin] U yoki bu sabablarga ko'ra, jinoyatlar haqidagi rasmiy ma'lumotlarda o'z aksini topmagan (jinoyatchilik).

LAUREAT [*lot.* laureatus – lavr barglaridan qilingan chamber taqilgan] Fan, san'at va sh. k. sohalarda ko'rsatgan juda katta xizmatlari uchun (Davlat va xalqaro) mukofotga sazovor bo'lgan yoki ko'rik-tanlovlar g'olibi bo'lib, maxsus mukofot olgan kishi.

LAVHA [*a.* – taxa; peshlavha] Xotira yoki qisqacha tarixiy ma'lumot yozib, biror joyga o'rnatib qo'yilgan tosh yoki marmar taxa va unga yozilgan matn, xat.

LAVOZIM [*a.* – kerakli, zarur narsalar] Muassasa, idora, tashkilot va sh.

k.larda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'rin, vazifa o'ri; amal, mansab.

LAVOZIMSIZ MINISTR Ba'zi mamlakatlarda maxsus topshiriqlarni bajaruvchi, muayyan tarmoqqa tayinlanmagan ministr.

LAYLATUL QADR [a. – Qadr kechasi] *din.* Islom aqidasiiga ko'ra, ramazon oyining 26-dan 27-ga o'tar kechasi.

LAYOQATLI 1 Biror ishga qobiliyati bor (shaxs). **2** *ayn.* **iste'dodli.**

LAYOQATSIZ Biror ishni bajarish qo'lidan kelmaydigan, qobiliyatsiz (shaxs).

LASHKAR [*fors.* – qo'shin, armiya] *esk. harb.* Davlatning qurolli kuchlari majmui yoki uning bir qismi; qo'shin, armiya.

LASHKAR TORTMOQ Qo'shin bilan hujum qilmoq.

LA'NATI La'natga, qarg'ishga duchor bo'lgan, la'natlangan.

LA'NATLAMOQ Nafrat, g'azab bilan qoralamoq, la'nat aytib qarg'amoq.

LEGAL [*lot.* *legalis* – qonuniy] Qonun bo'yicha ruxsat etilgan, rasman tan olingan; oshkora, ochiqcha.

LEGALLASHTIRISH Legal, oshkor holga o'tkazish, qonuniy tusga kiritish.

LEGALLIK Oshkoralik, qonuniylik.

LEGIONER [*lot.* *legionarius* – legionga mansub, legion tarkibiga kiruvchi] **1** Legion tarkibidagi askar. **2** *sprt.* Shartnoma bo'yicha o'z klubidan boshqa (odatda, xorijiy) klubga o'tib, o'sha klub uchun o'ynovchi sportchi (futbolchi, xokkeychi va b.).

LEGITIM [*lot.* *legitimus* – qonuniy, qonunlarga mos] Qonuniy huquqi bo'lgan, umum tomonidan tan olingan.

LEGITIMATSIYA [*lot.* *legitimus* – qonuniy] *ayn.* **legitimlash.**

LEGITIMLASH 1 Davlat hokimiyatining biron-bir ijtimoiy tuzilma, maqom, vakolatlarining, huquqlarining qonuniyligini e'tirof etish yoki ma'qullash, tasdiqlash: ushbu jarayon muayyan jamiyatda tan olingan qadriyatlariga tayanadi. **2** Qonuniylikni yoki vakolatlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

LEKSIYA [*lot.* *lectio* – o'qish] **1** Oliy o'quv yurti yoki omma orasida biror mavzu yuzasidan og'zaki bayon tarzidagi o'qish, o'quv mashg'uloti. **2** Shunday bayonning yozma yoki bosma matni.

LEKTOR [*lot.* *lector* – o'quvchi] Ma'ruza (leksiya) o'quvchi kishi.

LEKTORIY [*lot.* *lectorium*] Ma'ruza o'qiladigan bino.

LENINIZM Marksizmning asosiy qoidalarini ilgari suruvchi, takomillashtiruvchi ta'limot.

LEYBORISTLAR PARTIYASI [*ingl.* *labourist* – ishchi] Buyuk Britaniyaning ishchi partiyasi: shu mamlakatning ikki yetakchi partiyasidan biri.

LEYTENANT [*fr.* *lieutenant*] Armiya va flotda katta va kichik leytenantlar oralig'idagi unvon va shu unvonga ega bo'lgan ofitser.

LEYTMOTIV [*nem.* *leitmotiv* – asosiy, yetakchi sabab] Qayta-qayta takrorlanib ta'kidlanadigan asosiy fikr, asosiy maqsad.

LIBERAL [*lot.* liberalis – ozodlikka oid; ozod, erkin, hur] **1** Liberalizm tarafdori; liberallar partiyasining a'zosi. **2** Ijtimoiy munosabatlarni liberallashtirish, erkinlashtirish siyosati tarafdori.

LIBERALIZATSIYA, liberallashtirish [*lot.* liberalis – erkin, ozod] Mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng erkinliklar berish; iqtisodiyotga va fuqarolar shaxsiy hayotiga davlat aralashuvini bekor qilish yoki kamaytirish.

LIBERALIZM XVII – XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan va fuqaroviy, siyosiy-iqtisodiy erkinliklarga oid asosiy qoidalarni e'lon qilgan g'oyaviy va ijtimoiy-siyosiy oqim.

LIDER [*ingl.* leader – yetakchi, rahbar] Biror siyosiy partiya yoki tashkilotning rahbari, yo'l boshchisi.

LIKVID [*lot.* liquidus – suyuq, oquvchan]: **likvid mablag'lar** Qarz majburiyatlarini qoplash uchun foydalanish mumkin bo'lgan pul hamda naqd pulga aylanadigan qimmatdor narsalar (veksellar va b. qimmatbaho qog'ozlar).

LIMIT [*lot.* limes, limitis – chek, chegara] Biror narsaning cheklangan me'yor, foydalanish uchun belgilangan chegaraviy, chekli miqdor; cheklov.

LIMITLAMOQ Limitni belgilamoq; cheklamoq.

LIRA [*ital.* lira < *lot.* libra – qadoq, funt] Turkiya davlatining asosiy pul birligi.

LITSENZIYA [*lot.* lisentia – ijozat; ruxsatnoma] **1** Amaldagi qonunlarga ko'ra muayyan faoliyatni amalga oshi-

rish uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsat. **2** Vakolatli davlat organlari tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beradigan ruxsatnoma: eksport va importni, valyuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biri. **3** Iqtisodiy ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun shartnoma asosida beradigan ruxsati. **4** Muayyan shaxslarga mavjud, rasmiy tan olingan ixtiro, texnologiya, ishlab chiqarish sirlari va b.lardan foydalanish huquqini berish.

LITSENZIYALASH Litsenziya berish to'g'risida arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar majmui.

LITSEY [*fr.* lycee < *lot.* lyceum < *yun.* Lykeion – o'rmon nomi] Ko'pchilik davlatlarda o'rta ta'lim o'quv yurti; O'zbekistonda: akademik litsey.

LIZING [*ingl.* lease, leasing – ijara; ijara shartnomasi; ijaraga bermoq] Tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun qarzni asta-sekin uzish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish yoki olish.

LINGVISTIK FALSAFA Kundalik til va undan foydalanish asoslarini o'rganuvchi neopozitivizm falsafasining bir ko'rinishi.

LOBBIZM [*ingl.* lobby – yo'lak, ayvon] Iqtisodiy qudratli tuzilmalar vakillari guruhining davlat siyosatiga, qonun yaratuvchilar va yuqori amaldorlarga ta'siri, tazyiq o'tkazishi.

LOGISTIKA [ingl. logistics] Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi.

LOGISTIKA TIZIMI U yoki bu ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish muassasalari, o'quv yurtlari asosiy faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlovchi infratuzilmalar tizimi.

LOKALIZATSIYA [lot. localis - mahalliy, biron joyga xos] Biror narsani aniq bir joy, o'ringa daxldor qilish; biror-bir voqea yoki jarayonning harakatini, tarqalib ketishini chegaralash, to'xtatish.

LOKAUT [ingl. lock-out - eshikni yopmoq] siyos. Korxonani yopib qo'yish va ishchilarni yoppasiga ishdan bo'shatish - ishchilarni o'z talablaridan voz kechishga majbur qilish, shu yo'l bilan ish tashlashning oldini olish yoki bostirish usullaridan biri.

LOMBARD [nem. Lombard < ital. lombardo - sudxo'r, bankir] Shimoliy Italiyaning Lombardiya qishlog'i nomidan olingan bo'lib, ushbu viloyatdan ko'plab sudxo'r va bankirlar chiqqan. Ko'chmas mol-mulk va buyumlarni garovga olib, vaqtincha foydalanish uchun qarz berib turuvchi kredit muassasasi; garovxona.

LOQAYD [a. - beg'am, beparvo] Be-parvolik bilan, befarq, ahamiyatsiz.

LOQAYDLIK Be-parvolik; loqayd munosabat, loqayd holat.

LOYIHA [a. - ro'yxat; nizom, qoida; reja, dastur] Qaror, farmon, qonun va sh. k. hujjatlarning dastlabki xomaki matni.

LUQMONI HAKIM Sharq halqlari orasida tengi yo'q hakim va donolik tim-soli hisoblangan afsonaviy shaxs.

LUG'AT [a. - til, sheva; so'z, ibora] Biror tildagi so'zlar alifbo tartibida izohlangan yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob.

LUG'ATCHILIK Lug'at tuzish va u bilan bog'liq ishlar.


LYUKS [fr. luxe - hasham, zeb-ziyinat, ulug'vorlik] Yuqori sifatli buyum, qimmatbaho narsalar bilan bezatilgan magazin, mehmonxona nomeri, poyezd, paroxod kupesi va sh. k.larni ifodalovchi so'z.

LYUMPEN-PROLETARIAT [nem. Lumpen - juldur kiyim, uvada + proletariat] tar. Jamiyatda o'z sinfiy qiyofasini yo'qotgan, tubanlashgan sayoqlar, qashshoqlar.

LO'LILAR Asli Hindistondan tarqalgan va dunyoning ko'p joylarida (Osiyo, Afrika va Yevropada) to'dalashib, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechiruvchi xalq.

LO'TTIBOZ [a. + fors. - Lut payg'ambar nomidan = axloqsiz; ayyor] Firibgar, hiylagar, aldoqchi, nayrangboz.

LO'TTIBOZLIK Lo'ttiboza xos ish, xatti-harakat.



MABLAG' [*a.* – naqdina, tayyor pul; o'lcham] Biror narsa yaratish, qurish, o'tkazish va sh. k.lar uchun sarflanadigan, ishlatiladigan ma'lum miqdordagi pul va b. narsalar.

MADANIY MEROS Insoniyatning tabiat bilan va o'zaro munosabatlari asosida yaratilgan, ijodiy-amaliy tajribasi, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlarida aks etgan xalq madaniyati boyliklari majmui.

MADANIYAT [*a.* – tamaddun, sivilizatsiya] **1** Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. **2** Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi. **3** O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.

MADDOH [*a.* – madh qiluvchi; xudoga hamd-u sano aytuvchi] **1** Bozor va ko'cha-ko'yalarda odam to'plab, diniy mazmunda va'z, pand-nasihat aytib tirikchilik qiluvchi shaxs. **2** Maqtovchi; xushomadgo'y.

MADHIYA [*a.* – maqtov qo'shig'i; qasida] **1** Biror shaxs, voqea yoki narsaning maqtoviga bag'ishlangan badiiy

asar. Ba'zan asarning bir qismi ham madhiyadan iborat bo'lishi mumkin. Arab, fors va o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari ko'ra, har bir yirik epik asarning bosh qismida maxsus maqtovlar berilgan. Odatda, bu maqtovlar falsafiy oqimlarning asoschilari, asar yozilgan paytdagi hukmdor va b.larga bag'ishlangan. **2** Muayyan davlatga bag'ishlangan she'riy-musiqiy asar.

MADRASA [*a.* – maktab, o'quv yurti] Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, shuningdek, chor Rossiyasining ko'pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida: diniy oliy o'quv yurti.

MAFIYA [*ital.* mafia, maffia – maxfiy uyushma] Zo'rlik, qo'rqitish, terror, qotillik, ig'vogarlik yo'li bilan iqtisodiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun tuziladigan maxfiy uyushma; uyushgan, tarmoqlangan jinoyatchilik tashkiloti.

MAFKURA [*a.* – fikr yurgizish, tafakkur; e'tiqodlar tizimi] Muayyan ijtimoiy guruhlarining millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, diniy va b. qarashlari, g'oyalari tizimi.

MAFKURAVIY Mafkuraga oid; mafkura jihatidan.

MAGISTR [lot. magister – boshliq; murabbiy, ustoz] Ayrim mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda: universitetning va unga tenglashtirilgan oliy o'quv yurtining magistraturasida o'qiyotgan yoki uni tugatib, magistrlik diplomiga ega bo'lgan shaxs.

MAGISTRATURA [lot. magistratus – davlat mansabi, amali; mansabdor shaxs] **1** Qadimiy Rimda: davlat lavozimi. **2** Ko'p davlatlarda oliy ta'lim bosqichi; **3** O'zbekistonda: aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim tizimi.

MAGNAT [lot. magnatus – boy, mashhur kishilar] Sanoatda yoki tijoratda yirik pul summasini to'plagan mulk egasi.

MAHALLA [a. – joy, o'rin, makon] **1** O'zbekistondagi ma'muriy-hududiy birlik; o'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli va shakli. **2** Mahalla kengashi va u o'rnashgan bino; mahalla guzari.

MAHALLIY Mahallalarga, atrof-joylarga oid; tegishli yerdagi.

MAHALLIY HOKIMIYAT Davlat apparati boshchiligida, joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-siyosiy boshqaruv.

MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI Mahalliy sharoitda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, xomashyo va materiallar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va tegishli tasdiqlanadigan chora-tadbirlar dasturi.

MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONI Mahalliy sharoitda import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) bilan bog'liq jarayon.

MAHALLIYCHILIK Mahalliy manfaatlarinigina ko'zlab ish tutish.

MAHBUS [a. – qamalgan, qamoqqa olingan] Qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum etilgan kishi; tarixda: zindonga solingan shaxs.

MAHDUD [a. – chegaralangan, atrofi o'ralgan] Chegara bilan o'ralgan, chegaralangan, cheklangan.

MAHDUDLIK Cheklanganlik, cheklanib qolish.

MAHKAMA [a. – oliy sud, tribunal; sudlov] Hukm chiqaruvchi, hukm qiluvchi idora; sud.

MAHKAMACHILIK O'z mahkamasining, idora yoki tashkilotining manfaatinigina ko'zlab ish tutish.

MAHKUM [a. – hukm qilingan, qoralangan] Qonun bilan taqiqlangan muayyan jinoyatni sodir etgani uchun sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs.

MAHOBAT [a. – qo'rquv; hurmat; ulug'vorlik; haybat] Haybat, salobat, ulug'vorlik.

MAHR [a. – sep, qalin puli] Nikoh shartnomasi tuzilayotgan vaqtda kuyov tomonidan kelinga ajratiladigan doimiy va shaxsiy mulk.

MAHRAM [a. – man, xarom qilingan; haramga kirish huquqi bor] Shari-

atga ko'ra, ayol kishi uchun o'zaro nikoh man etilgan va eng yaqin qarindosh hisoblangan erkak.

MAHRUM [a. – benasib, bebahra qolgan; chetlashtirilgan] Muyassar, bahramand yoki ega bo'lish, foydalanish uchun huquqi bo'lmagan; bebahra, benasib.

MAJBURIY DAVOLASH Sudning tibbiy yo'sindagi majburlov choralari. Bunday choralar jinoyat qonunchiligi bo'yicha jazo turi hisoblanadi. Majburiy davolash choralari ruhiy kasallikka, giyohvandlikka, alkogolizmga va b.ga chalingan shaxslarni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi.

MAJBURIY SUG'URTA Davlat sug'urtasi shakllaridan biri, qonun asosida belgilangan shartlarga binoan, davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy sug'urta bo'yicha tashkilotlar, qonunda ko'rsatilgan sug'urta holatlari yuz berganda, yetgan zarar miqdorini sug'urta qildirgan shaxsga yoki sug'urta qildirilgan mol-mulk egasiga to'laydi.

MAJBURIY TA'LIM O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. Bunga ko'ra, muayyan yoshdagi barcha bolalar umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari davlat tomonidan majburiy tarzda amalga oshiriladi.

MAJBURIYAT [a. – majburlik; noilojlik; burch] **1** G'ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat, ehtiyoj. **2** Mehnat ahllarining biror ishni bajarish uchun bergan qat'iy va'dasi.

MAJLIS [a. – o'tirish joyi; yig'ilish; uyushma, kengash] **1** Tashkilot, korxonayoki idora a'zolarining biror masala muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi va uning ishtirokchilari. **2** Ba'zi Sharq davlatlarida (mas., O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon va Eronda) qonun chiqaruvchi organ (parlament); hukumat hay'ati.

MAJLISBOZLIK Bo'lar-bo'lmasga majlis qilaverish.

MAJMUA [a. – to'plam; bir butun narsa; turkum] Ma'lum tartibda to'plangan matnlar, ma'lumot va sh.k. yig'indisi; to'plam shaklida chiqarilgan nashr.

MAJRUH [a. – yaralangan, jarohatlangan] Yarador; nogiron, mayib.

MAISHIY XIZMAT Aholiga noishlab chiqarish va ishlab chiqarish xizmati ko'rsatish sohasining bir usuli. Maishiy xizmat kishilarning kasbiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda, moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarni bevosita qondirish bo'yicha amalga oshirilgan ijtimoiy-tashkiliy usul va shakllar bilan tavsiflanadi.

MAKLER [nem. Makler – vositachi, dallo] Fond, tovar va valyuta birjalarida tuziladigan kelishuvlarda dallo; pulli vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi ishbilarmon.

MAKROIQTISODIY Makroiqtisodiyotga oid, tegishli.

MAKROIQTISODIYOT [*yun.* makros – katta, uzun + iqtisodiyot] Bozor xo'jaligi umumiy nazariyasining bo'limi: mamlakat iqtisodiyoti, umuman, milliy xo'jalikka oid katta miqyosdagi iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o'rganadi.

MAKROKO'RSATKICH Asosiy (yirik, muhim) ko'rsatkich.

MAKRUH [*a.* – yoqimsiz, rad etilgan, iste'moli lozim ko'rilmagan] Musulmonlar nazarida, nopok, harom narsa.

MAKTAB [*a.* – o'qish joyi; yozuv stoli; bo'lim, idora] O'qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o'rgatib, uni ma'lumotli qiluvchi ta'lim-tarbiya muassasasi.

MAKULATURA [*lot.* makulare – ifloslantirmoq] Ishlatib bo'lingan, yaroqsiz holga kelgan qog'oz, karton, eski gazeta, qog'oz chiqindilari.

MALIKA [*a.*] **1** Ayol podsho. **2** Podsho oilasiga mansub ayol.

MALIKUL-KALOM [*a.* – so'z podshohi] O'tmishda yuksak qobiliyat, badiiy-poetik mahorat egasi, shu sohada yetakchi mavqe va obro'-e'tiborga ega bo'lgan shoiru adiblarga berilgan unvon.

MALIKUSH-SHUARO [*a.* – shoirlar podshohi] O'tmishda Sharqda eng mahoratli, o'tkir shoirlarga berilgan unvon va saroyda shunday shoirga berilgan amal.

MAMLAKAT [*a.* – saltanat, davlat, podshohlik] **1** Muayyan chegaralarga va davlat suverenitetiga ega bo'lgan hudud. **2** Geografik holati, tabiiy sharoitlari bilan farqlanadigan, ajraladigan joy.

MAMLAKATSHUNOSLIK Geografiyaning aniq hududlar (materiklar, mam-

lakatlar, yirik mintaqa)ni o'rganish bilan shug'ullanadigan tarmog'i.

MANBASHUNOSLIK Tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, to'plash, o'rganish va muomalaga kiritish nazariyasi va amaliy usullari haqidagi fan.

MANDAT [*lot.* mandatum – topshiriq] Biror shaxsning vakolatini, muayyan narsaga huquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

MANDAT KOMISSIYASI Syezd, qurultoy, kongress, konferensiya, sessiya va sh. k.da ishtirokchilarning vakolatini tekshiruvchi hay'at.

MANFAAT [*a.* – foyda, daromad] Moddiy, ma'naviy, jismoniy va b. jihatdan foyda, naf.

MANFAATDOR [*a.* + *fors.*] Biror ishdan manfaati bor, manfaati bo'lgan.

MANFAATPARAST [*a.* + *fors.*] Shaxsiy manfaatini ko'zlovchi.

MANFUR [*a.* – nafratga yo'liqqan, loyiq] Kishini nafratga keltiruvchi, nafratga loyiq, jirkanch.

MANIFEST [*lot.* manifestum – da'vat, chaqiriq] **1** Oliy davlat hokimiyatining muhim siyosiy voqea munosabati bilan aholiga qarata tantanali yozma murojaati. **2** Siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va b.larning o'z dasturi, qarashlari, qarorlari va sh. k. bayon qilingan yozma murojaati.

MANIPULYATSIYA [*fr.* manipulation < *lot.* manipulus – hovuch < manus – qo'l] Noqonuniy operatsiya; faol savdo fikrini uyg'otish yoki oldi-sotdida qimmatli qog'oz bahosini tushirish yoki oshirish.

MANQURT O'tmishda, ba'zi ko'chmanchi xalqlarda, bandi (asir) tushganlarning sochi qirtishlab olingan, boshiga yangi so'yilgan tuyaning bo'yin terisi qoplanib, terining boshni tobora qattiq qisishi oqibatida xotirasi, aql-idroki, umuman, insonga xos xislat-fazilatlaridan mahrum etilgan shaxs; ana shunday xislat, xususiyatga ega bo'lgan shaxs.

MANSAB [a. – ish, amal; axvol, holat] Mas'ul vazifa; amal, lavozim.

MANSABDOR SHAXS Davlat va nodavlat organlarida, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida, shuningdek, Qurolli Kuchlarda hokimiyat vakili vazifalarini doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha amalga oshiruvchi, tashkiliy-boshqaruvchilik, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajaruvchi shaxs.

MANSABPARASTLIK Mansabni yaxshi ko'rish, mansabga intilish.

MANTIQIY XULOSA Bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarish.

MANUFAKTURA [lot. manufactura < manus – qo'l + factura – tayyorlash, bajarish] Qo'l kuchi va hunarmandchilik texnikasi asosida mehnatning taqsimlanishini xarakterlovchi ishlab chiqarish shakli.

MANYOVR [fr. manoeuvre – qo'l bilan ishlayman] Qo'shin yoki flotning dushmanga zarba berish maqsadida eng qulay vaziyatni egallash uchun qiladigan harakati.

MANZIL [a. – maskan, turarjoy; uy, xonadon] Safarda, yo'lda to'xtab o'tiladigan, qo'nib turiladigan yoki yetib borish mo'ljallangan joy.

MANG'IT Yirik o'zbek qabilalaridan birining nomi; shu qabilaga mansub kishi.

MAORIF [a. – bilim, fan; ma'lumot]
1 Kishining bilim va ongini oshirish, umumiy saviyasini ko'tarishga qaratilgan ta'lim-tarbiya, ilm-fan; ma'rifat.
2 Ta'lim-tarbiya va madaniy, ma'rifiy muassasalar tizimi; shunday ishlarni boshqaruvchi idora.

MAOSH [a. – turmush; tirikchilik; ish haqi] Xizmat, ish uchun muassasa tomonidan belgilanadigan, beriladigan pul; oylik

MAQBARA [a. – qabriston, go'riston] Biror qabr ustiga qurilgan me'moriy inshoot yoki toshtobut; daxma, sag'ana.

MAQOLA [a. – nutq, kichik asar] Jurnal, gazeta, to'plam va sh. k.lar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo'lmagan ilmiy yoki publitsistik asar.

MAQOM [a. – vaziyat, mavqe; o'rin; daraja, martaba] **1** Martaba, mavqe.
2 Saylab qo'yiladigan shaxslar, fuqarolar, davlat idoralari, tashkilot, muassasa, xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjat bilan rasmiylashtirilgan huquqiy holati.

MAQTOV Maqtab aytilgan yoki yozilgan so'z.

MAQTOV QOG'OZI O'rnak bo'larli ishlari, yutuqlari, xulqi uchun beriladigan rasmiy hujjat.

MARDIKOR [fors. – tajribali, ish-bilarmon odam; xizmatkor] **1** Vaqtin-

cha yoki kundalik yollanib ishlovchi ishchi. **2** 1914–1918-yillardagi Birinchi jahon urushi davrida chor hukumati tomonidan chekka o'lkalardan, jumladan, Turkistondan front ortidagi, mamlakat ichkarisidagi qora ishlarga safarbar etilgan erkak kishi.

MARHAMAT [a. – rahm-shafqat; rahmdillik; iltifot] Rahm-shafqat yuzasidan ko'rsatiladigan iltifot; himmat, yaxshilik.

MARHUM [a. – rahm-shafqat ko'rsatilgan; o'lgan, o'lik] Vafot etgan, o'lgan kishi.

MARHUMA Vafot etgan, o'lgan ayol.

MARIONETKA [fr. marionette – Bibi Maryam tasviridagi qo'g'irchoq haykalcha nomi] **1** Qo'g'irchoqboz ip-lar yordamida harakatga keltiradigan qo'g'irchoq teatrining turli ko'rinishlari. **2** O'zga qo'llarda "qo'g'irchoq" bo'lgan inson, hukumat, davlat.

MARIXUANA [isp. mariguana, marihuana] Hind nashasi (bhangi) mevasidan olinadigan narkotik modda.

MARKA [nem. Mark, fin. markka] **1** Pochta haqi va b. xil davlat yig'implari to'langanligini ko'rsatuvchi, turlicha qiymatga ega bo'lgan, odatda, biror tasvir tushirilgan to'rtburchak qog'ozcha. **2** Tovarga, mahsulotga uning tayyorlovchisini aniq ko'rsatish maqsadida qo'yilgan fabrika tamg'asi, firma belgisi.

MARKAZ [a. – o'rtalik, o'rta yer, holat, vaziyat] **1** Aholi yashaydigan joyning ma'muriy binolar, savdo va muassasalar o'rnatilgan asosiy qismi.

2 Biror faoliyat sohasida asosiy ish olib boriladigan joy.

MARKAZIY 1 Quyi tashkilotlarga rahbarlik qiluvchi. **2** Biror ish, faoliyat sohasidagi kichik mahalliy bo'limlarni birlashtirib, boshqarib turuvchi; bosh.

MARKETING [ingl. marketing < market – bozor; sotish, pullash] Iqtisodiyotning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish muammolari bilan shug'ullanuvchi sohasi; bozor ehtiyoji talablaridan kelib chiqqan holda korxonaning yangi xil mahsulotlar ishlanmalarini tayyorlash, tovarlar ishlab chiqarish va sotish yoki turli xil xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatini boshqarish va tashkil etish tizimi.

MARKET-MEYKER Qimmatli qog'ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o'z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi.

MARKSIZM Nemis faylasuf-iqtisodiyotchilari K.Marks, F.Engels asos solgan falsafiy, iqtisodiy, siyosiy ta'limot: ilmiy kommunizm nazariyasi va amaliyoti.

MARODYORLIK [fr. maraudeur – talonchi] Halok bo'lganlarning yoki yaradorlarning buyumlarini, davlat va nodavlat do'konlarni talon-toroj qilish.

MAROSIM [a. – urf-odatlar; udum] Diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in.

MAROSIM QO'SHIQLARI Musiqiy folklorning asosiy va qadimiy turlaridan biri: turli (mavsum, mehnat, oilaviy, diniy va b.) marosimlar jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar.

MARSIYA [a. - motam she'ri] Biror mashhur kishi yoki kekxa oila a'zosi va-foti munosabati bilan g'am-alam va has-ratni ifodalaydigan xalq og'zaki poetik va musiqa ijodining aza-motam janri.

MARTABA [a. - daraja; obro'; mavqe] Mansab, lavozim, amal.

MARSHAL [fr. marechal] Ayrim davlatlarda alohida xizmatlari uchun oliy qo'mondonlik tarkibidagi kishilarga beriladigan, generallik unvonlaridan yuqori harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

MASJID [a. - sajdagoh, namozgoh, machit] Musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasi.

MASLAHAT OVOZI Huquqshunoslikda: saylab qo'yiladigan organlar yoki xalqaro tashkilotning ishida ovoz berish huquqsiz ishtirok etish.

MASLAHATXONA Ishni ko'rayotgan sud tarkibi qonun talablariga muvofiq qaror, hukm yoki ajrim chiqaradigan alohida xona.

MASLAHATCHI 1 Biror idorada, muassasada yoki biror lavozimli shaxs huzurida maslahat berish vazifasida ishlovchi xodim. **2** Sud ishlarida qatnashish uchun saylangan jamoat vakili.

MASLAK [a. - yo'l, yo'nalish; e'tiqod] O'ziga xos aqidalari bilan ajralib turuvchi ijtimoiy, siyosiy, ilmiy yoki diniy yo'l, oqim.

MASLAKDOSH Maslagi bir bo'lgan, bir maslakdagi, hammaslak.

MAS'UL [a. - javob beruvchi, javobgar] Mas'uliyat yuklatilgan, javobgarligi zimmasida bo'lgan; javobgar.

MAS'ULIYAT [a. - javobgarlik, hisob berishlik] Biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik.

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT A'zolari jamiyat majburiyatlari bo'yicha, faqat qo'shgan ulushi doirasida, javobgar bo'ladigan jamiyat.

MATBAA [a. - bosmaxona, tipografiya] ayn. **bosmaxona**.

MATBAACHILIK Matbaa ishi, noshirlik, nashriyotchilik.

MATBUOT [a. - bosma asarlar, nashrlar] Barcha bosma mahsulotlar majmui: tor ma'noda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi.

MATBUOT ERKINLIGI So'z, shaxs, vijdon erkinligi singari siyosiy huquqlardan biri bo'lib, matbuotning erkin faoliyat ko'rsatishini, kishilarning matbuotda o'z fikr va tuyg'ularini to'siqsiz bildira olishlarini ifodalaydi.

MATBUOT KONFERENSIYASI Keng ommani qiziqtiruvchi masalalar yuzasidan davlat, jamoat, ilm-fan arboblarning matbuot vakillari bilan uchrashuvi, suhbat.

MATERIALIST Materializm tarafdori; hayotga faqat o'zining moddiy manfaati nuqtayi nazaridan yondashuvchi kishi.

MATERIALISTIK Materializmga oid, materializm tamoyillariga asoslangan.

MATERIALIZM [lot. materialis - moddiy] Moddiy, tabiiy, jismoniy olamning obyektiv ravishda, ya'ni uning iro-

da, ruh, onga bog'liq bo'lmagan holda mavjudligini va ularga nisbatan birlamchiligini ta'kidlashga asoslangan falsafiy ta'limot; falsafadagi asosiy oqimlardan biri.

MATERIYA [*lot.* materia – modda, mohiyat] Kishi ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektiv borlik.

MATNSHUNOS [*a.+fors.* – matn o'rganuvchi] Matnshunoslik sohasi mutaxassisi; tekstolog.

MATNSHUNOSLIK Adabiyot va folklorga oid qo'lyozma asarlarni, tarixiy hujjatlarni, ularning haqiqiy, asl matnlarini aniqlash va tanqidiy o'rganish, sharhlab e'lon qilish maqsadida ular ustida tadqiqotlar olib boruvchi yordamchi tarix-filologiya sohasi.

MATRIARXAT [*lot.* mater, matris – ona + *yun.* arche – hokimiyat] Urug'chilik jamiyatining oilada va jamiyatda ona boshchilik qilgan, qarindoshlikda va meros qoldirishda ona tomon asos hisoblangan iqtisodiy shakli.

MAVJUDOT [*a.* – barcha bor bo'lgan, aniq narsalar] Olam, tabiatda bor narsalar majmui, dunyoda mavjud narsalar, butun borlik.

MAVZE [*a.* – joy, o'rin; vaziyat] Shahar va shahar atrofidagi aholi yashaydigan joylarning kichik hududi, mahallasi.

MAVZOLEY [*lot.* mausoleum < *yun.* Mausoleion – miloddan avvalgi IV asrda Kichik Osiyoda Kariya shohi Mavsol uchun qurilgan mashhur maqbara] Qabr ustiga ishlangan mahobatli, ulug'vor yodgorlik; maqbara.

MAVZU [*a.* – joylashtirilgan; tema, syujet] Badiiy asar, ilmiy tadqiqot, fikr mulohaza yuritish, suhbat, ma'ruza va sh. k.lar uchun tanlab olingan obyekt.

MAVLONO [*a.* – janob, hukmdor; homiy] Musulmon davlatlarida (Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Pokistonda) eng yuqori lavozimdagi amaldorlar, yozuvchi, olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z. *Mavlono* so'zi hurmat ma'nosida shaxs nomlaridan avval aytilgan (mas., *Mavlono Alisher Navoiy*, *Mavlono Jomiy*).

MAVLUD [*a.* – tug'ilgan; tug'ilish] **1** Tug'ilgan kun va shu munosabat bilan beriladigan ziyofat. **2** *din.* Muhammad payg'ambarning tug'ilgan kuni bilan bog'liq bayram.

MAVLUD OYI Qamariya yil hisobida, ya'ni Oy taqvimida, shuningdek, musulmonlarning hijriy-qamariy yil hisobida uchinchi oyning arabcha nomi.

MAXFIY [*a.* – yashirin, bekitilgan] Boshqalardan sir tutiladigan, yashirin, xufiya.

MAXFIYLIK GRIFI Ma'lumotlar bazasidagi tegishli ma'lumotlarning maxfiylik darajasini bildiruvchi rekvizit.

MAYDA BEZORILIK Jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratimiz so'zlar aytish, shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va osoyishtaligini buzish, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan menimaslik harakatlari mayda bezorlik ko'rinishlaridir.

MAYIT [a. - o'lik, o'lgan] O'lik, jasad, murda.

MAYOR [lot. major - katta] Kapitan-dan bir daraja yuqori ofitserlik unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi.

MAZDAKIYLIK *din.* V - VI asrlarda Eronda oqsuyaklarga va ruhoniylarga qarshi bosh ko'targan xalq harakati.

MAZHAB [a. - yo'l, harakat tarzi; diniy ta'limot; dinnig bir tarmog'i] *din.* Islomda: diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari umuman, an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farqlanuvchi oqimlar.

MAZHABCHILIK Bir mazhab tarafdorlarining ikkinchi mazhab tarafdorlariga qarshi xatti-harakati; mazhab ajratish.

MAZLUM [a. - jabrlangan, zulm ko'rgan] Zulm ko'rgan, ezilgan.

MASHHUR [a. - taniqli, dovruqli] Nom chiqargan, shuhrat qozongan, dong'i ketgan; atoqli, taniqli.

MASHOYIX [a. - shayxlar] Hikmatli so'zlarni aytib o'tgan ulug' ota-bobolar.

MASHRIQ [a. - sharq, kunchiqar] Sharq, kun chiqish tomon.

MASHVARAT [a. - kengash, ko'rsatma; yo'l-yo'riq] *esk., kt.* Kengash, maslahatlashish.

MASH'AL [a. - chiroq, shamchiroq; mayoq] 1 Yo'l ko'rsatib turadigan, namuna bo'ladigan narsa; mayoq. 2 Mehnat faoliyatida o'rnak bo'lgan ilg'or shaxs, ho'jalik va sh. k.

MANGULIK Abadiylik, abadiyat; mangu ekanlik.

MA'BUDA [a. - iloha; mahbuba] Ayol obrazida tasavvur qilingan xudo.

MA'LUMOT [a. - axborot, xabarlar; bilim] 1 O'qish, o'rganish natijasida olingan bilim, ko'nikmalar hajmi va darajasi. 2 Xabar, axborot; dalil bo'ladigan hujjat, raqam va sh. k. materiallar.

MA'LUMOTLAR BAZASI Kompyuter yordamida topish hamda ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan, obyektiv shaklda ifodalangan ma'lumotlar majmui.

MA'LUMOTLI Ma'lumoti bor; o'qimishli.

MA'LUMOTNOMA [a.+fors.]

Kishilarning turmushi va ish faoliyatiga oid voqea, hodisa va holatlarni aks ettirib tasdiqlab beradigan va talab qilingan joylarga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.

MA'MURIY [a. - boshqaruvga, ma'muriyatga oid, aloqador] Ma'muriyatga doir, boshqarish va ijro bilan shug'ullanadigan.

MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISH

Unitar davlat hududi yoki federativ davlat subyektlari hududining ma'lum qismlari (viloyatlar, gubernyalar, departamentlar va sh. k.)ga bo'linishi. O'zbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iborat.

MA'MURIY HUQUQ Davlatning ijro va farmoyish faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar majmui.

MA'MURIY JAVOBGARLIK Fuqaro yoki mansabdor shaxsning huquqni buzganlik uchun majburiy (jinoiy bo'lmagan) javobgarligi.

MA'MURIY JAZO Ma'muriy huquqni buzuvchi shaxslarga nisbatan davlat organi yoki mansabdor shaxslar tomonidan ko'riladigan chora.

MA'MURIY NAZORAT Davlat va maxsus vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) faoliyatining alohida turi: qonuniylikni va intizomni ta'minlash usullaridan biri.

MA'MURIYAT [*a.* – amal, mansab; vazifa, topshiriq] **1** Boshqaruv ishini amalga oshiruvchi davlat organlari majmui. **2** Muassasa, tashkilot, korxonalarini boshqaruvchi mansabdor shaxslar.

MA'NAVIY ZARAR Fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatiga dog' tushirish yoki ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazish.

MA'NAVIYAT [*a.* – axloqiy holat; barcha axloqiy xususiyatlar] Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, ahloqiy va sh. k. tasavvurlari va tushunchalari majmui.

MA'RAKA [*a.* – jang, urush; yig'in] Biror muhim voqea, to'y, ta'ziya va b. munosabatlar bilan o'tkaziladigan marosim, yig'in.

MA'RIFAT [*a.* – bilim, fan; ma'lu-mot; tanishish] Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat.

MA'RIFATPARVAR [*a.+fors.*] Ma'rifat uchun kurashuvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori.

MA'RIFATPARVARLIK Ma'rifatga aloqador ish, faoliyat.

MA'RIFATCHILIK Madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim: G'arbda XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida, Sharqda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida maydonga kelgan, negizini fan, bilim imkoniyatlariga ishonch tashkil etgan yo'nalish.

MA'RIFIY Ma'rifatga oid.

MA'RUZA [*a.* – yozma arz, ariza; xabarnoma] Biror mavzuda ko'pchilik oldida aytilgan (so'zlangan) nutq.

MAG'LUB BO'LMOQ Yengilmoq, mag'lubiyatga uchramoq, jangda yengilmoq; bahs, bellashuv, musobaqa kabilarda yutqazmoq.

MAG'RIB [*a.* – g'arb, kun botadigan joy, vaqt] G'arb, kunbotar.

MEDAL [*fr.* medaille < *lot.* metallia – metall tanga] Alohida xizmatlari yoki muvaffaqiyatlari uchun beriladigan, turli shaklda yasaladigan, tegishli bo'rtma tasvir va yozuvi bo'lgan nishon.

MEGAPOLIS [*yun.* megas – katta + polis – shahar] Yonma-yon joylashgan bir qancha shahar va aholi yashaydigan maskanlarning o'sib rivojlanishi va qo'shilib ketishi natijasida hosil bo'lgan ulkan shahar.

MEHMONDO'ST [*fors.* – mehmonni do'st ko'ruvchi] Mehmonni, mehmon kutishni yaxshi ko'radigan, mehmonsevar.

MEHNAT [*a.* – sinov; mashaqqat, og'irchilik] Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish.

MEHNAT BIRJASI Ishsizlarni, ish joyini o'zgartirishni istovchi shaxslarni

ishga joylashtirish bilan shug'ullanadigan maxsus davlat muassasasi.

MEHNAT DAFTARCHASI Xodimning mehnat faoliyati to'g'risidagi asosiy hujjat. Mehnat daftarchasiga xodim, u bajarayotgan ish haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

MEHNAT INTIZOMI Davlat tomonidan o'rnatilgan, mehnat jarayonida barchaning amal qilishi lozim bo'lgan umumiy tartib.

MEHNAT JAMOASI Mehnat shartnomasi asosida o'z mehnati bilan korxonada faoliyatida ishtirok etayotgan xodimlarning barchasi.

MEHNAT KODEKSI Mehnat haqidagi qonunlarning muayyan tizimga solingan majmui.

MEHNAT STAJI Xodimning belgilangan tartibda hisoblanadigan mehnat faoliyati davri.

MEHNAT SHARTNOMASI Xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tatibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va b. me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida, haq evaziga muayyan ish bajarish haqidagi kelishuv.

MEHROB [a. - ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi] Masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy.

MEMORANDUM [lot. memorandum - eslashga arziydigan, eslash kerak bo'lgan narsa] Biror davlatning diplomatik yozishmalar orqali hal qilinadigan

masalalar mohiyatini o'z nuqtayi nazaridan batafsil bayon qilib yozgan diplomatik hujjati.

MEMORIAL [lot. memorialis - xotiraga oid, xotiradagi] Biror shaxs yoki voqea xotirasini nishonlash yoki abadiylashtirish uchun xizmat qiluvchi yodgorlik.

MEMUAR [fr. memoires - esdaliklar < lot. memoria - xotira] O'tmish haqida, esdaliklar shaklida yozilgan adabiy asar.

MENEJER [ingl. manager - boshqaruvchi] Korxonada va kompaniya egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchi.

MENEJMENT [ingl. management - boshqarish, mudirlik; tashkil etish] Zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish), shuningdek, ishlab chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish; boshqarish to'g'risidagi fan.

MENTALITET [nem. Mentalität < lot. mens, mentis - aql, idrok] Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi).

MENTOR [fr. mentor < yun. Mentor - afsonaviy tarbiyachi nomidan; tarbiyachi, murabbiy] Muayyan loyihani rivojlantirish va ilgari siljitish

maqsadida uni o'z bilimlari va tajribasi bilan qo'llab-quvvatlaydigan maslahatchi.

MENSHEVIZM [rus. меньше - kichik; oz] tar. Menshiviklar partiyasi amal qilib kelgan nazariy va siyosiy-partiyaviy oqim.

MENSHEVIKLAR PARTIYASI tar. Rossiya sotsial-demokratik ishchilar partiyasining 1903-yildagi II syezdida kam ovoz olgan a'zolari tomonidan tuzilgan partiya.

MER [fr. maire < major - katta, bosh; boshliq] Munitsipalitet boshlig'i, mahalliy hokimiyat boshqaruvchisi; shahar hokimi.

MERKANTILIZM [fr. mercantilisme < ital. mercante - savdogar] Hukmron, hokimiyat va savdogarlar mafkurasi-ni nazariy asoslashga xizmat qiluvchi iqtisodiy ta'limot va siyosat.

MEROS [a. - voris(lar)ga qoladigan yoki qolgan mulk] Marhumdan voris-larga qolgan mulk.

MEROSHO'R [a.+fors. - meros yeyuvchi; voris] Meros olishga haqi bo'lgan kishi; voris.

METAFIZIKA [yun. "Meta ta physica" ("Fizikadan keyin") - Aristotelning falsafiy asari nomidan] Borliqning avvali o'zgarimas, azaliy va abadiy deb qarovchi, uning hodisalarini esa bir-biridan uzilgan va turg'un holda tekshiruvchi falsafiy ta'limot.

METIS [fr. metis - ikki turning chatishuvidan paydo bo'lgan] Turli irqqa mansub er-xotindan bunyodga kelgan avlod; duragay.

METOD [yun. methodos - tadqiqot usuli] Tabiat va jamiyat hodisalarini bi-lish, tadqiq qilish usuli.

METODIKA [yun. methodike] Bi-ror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish usullarining yig'indisi; o'qitish usullari haqidagi ta'limot.

METODIST Metodika mutaxassisi.

METODOLOGIYA [yun. methodos - metod + logos - fan, ta'limot] Tadqiqot-chining nazariy-amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot.

METROPOLIYA [yun. metropolis < meter - ona + polis - shahar] O'zga mamlakatlarni bosib olib, o'z mustam-lakasiga aylantirgan davlat.

MEZANA [a. - (azon aytiladigan) minorat] Masjid minorasining muazzin azon aytadigan yuqori qismi.

MEZOLIT [yun. mesos - o'rtanchi + lithos - tosh] Qadimgi tosh davridan yangi tosh davriga o'tishdagi oraliq; o'rta tosh davri.

MESHCHAN [rus. мещанин - sha-harlik] Chor Rossiyasida: shahar mayda burjuaziyasiga mansub mayda savdo-gar; hunarmand; quyi xizmatchilar ta-baqasiga mansub shaxs.

MESHCHANLIK Meshchanga xos xislat, xatti-harakat.

ME'YOR [a. - o'lchak, asosiy o'lchov; andoza] Rasmiylashtirilgan, umum to-mondan qabul qilingan, hamma tomon-dan majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida.

ME'YORIY Me'yorga oid, me'yor ji-hatdan.

ME'YORIY-HUQUQIY AKT Davlat, hokimiyati organlarining huquq me'yorlarini (qonun, kodeks, qaror, buyruqnom va h.k.) qabul qilish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonlarini amalga oshiruvchi rasmiy hujjatlari.

ME'YORIY-HUQUQIY HUJJAT Qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari me'yorlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

MIF [*yun.* mythos – afsona, rivoyat, asotir] Qadimgi kishilarning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi.

MIFOLOGIYA [*yun.* mythos – afsona, rivoyat + logos – fan, ta'limot] **1** Miflar haqidagi fan. **2** Biror xalqning miflari, afsonalari majmui.

MIGRANT [*lot.* migrans, migrantis – ko'chib ketayotgan (kelayotgan)] O'z yashash joyini o'zgartirgan shaxs.

MIGRATSIYA [*lot.* migratio – ko'chish, joyini o'zgartirish] Aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishi.

MIJUZ [*a.* – ruxsat etilgan, guvohnomasi bor] Muassasa, tashkilot, korxon xizmatlaridan foydalanadigan shaxs; doimiy xaridorlar, buyurtmachilar.

MIKRO- [*yun.* mikros – kichik, kichkina] Baynalminal o'zlashma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, "kichik, juda mayda" kabi ma'nolarini bildiradi.

MIKROIQTISODIY Mikroiqtisodiyotga oid.

MIKROIQTISODIYOT Iqtisodiyotning ayrim bir xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxon, shaxs) faoliyati bilan bog'liq bir qismi.

MIKROKREDIT Qarz oluvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun to'lovli, muddatli va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'i.

MIKROLIZING [mikro.. + lizing] Lizing oluvchining topshirig'iga binolan, uchinchi tarafning mol-mulkni olish hamda uni egallash va foydalanish uchun lizing oluvchiga pul mablag'larini shartnomada belgilangan shartlar asosida, haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmat.

MIKORAYON [mikro.. < + *fr.* rayon – rayon, hudud] Turarjoy binolari majmui; shaharning o'ziga mustaqil kichik hududi.

MILITARIZATSIYA [*lot.* militaris – harbiy] Mamlakatning butun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini militarizm maqsadlariga bo'ysundirish; harbiy tashkilot metodlarini kundalik ishlarga tatbiq qilish.

MILITARIST Militarizm tarafdori, militarizm siyosatini yurituvchi.

MILITARIZM [*fr.* militarisme < *lot.* militaris – harbiy] Muayyan mamlakat hukmron doiralarning davlat harbiy qudratini yanada kuchaytirish maqsa-

dida foydalanadigan siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy vositalar tizimi.

MILLAT [a. - xalq; din, mazhab] Kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLATCHI Millatchilik tarafdori, millatchilik yo'lidan boruvchi.

MILLATCHILIK Millat ayirish: o'z millatining haq-huquqlarini boshqa millat haq-huquqlaridan yuqori qo'yish, o'z ehtiyojlari va manfaatlarini o'ylab, boshqa millatning ehtiyoji va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik va h.k.

MILLIARDER [fr. milliardaire - milliardlar egasi] Milliardlar bilan hisoblanadigan boylikka ega bo'lgan kishi.

MILLIONER [fr. millionnaire - millionlar egasi] Millionlar bilan hisoblanadigan boylikka ega bo'lgan kishi.

MILLIY [a. - xalqona, millatga tegishli] Biror millatning, xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi.

MILLIY DAVLAT Davlatning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi bo'lib, muayyan davlat, aniq bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi shakli hisoblanishini anglatuvchi tuzilmadir.

MILLIY MAFKURA Muayyan millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g'oyalar hamda qarashlar tizimi.

MILLIY MALAKALAR TIZIMI Ta'lim, o'qitish, malaka oshirish va qayta

tayyorlash tizimi tomonidan mehnat bozoringa malakali xodimlarga ehtiyoji va malakali ishchi kuchi taklifining butun umr davomida muvofiqligini ta'minlovchi, huquqiy va institutsional tartibga solish mexanizmlari majmui.

MILLIY TIL Umumiy hudud, iqtisod va ma'naviy boyluk bilan birga millatni tashkil etuvchi ijtimoiy, tarixiy kategoriya. Millatning o'zaro aloqa vositasi.

MILLIY VALYUTA Muayyan davlat tomonidan chiqariladigan valyuta.

MILLIY G'OYA Muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi.

MILLIYLIK Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma'naviy, ruhiy, madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.

MILOD [a. - tug'ilish] Iso payg'ambarning tug'ilgan kuni; milodiy yil hisobi.

MILODIY Miloddan boshlangan (yil hisobi haqida).

MINBAR [a. - baland joy; o'rindiq] **1** Masjidlarda imom va'z aytishi uchun mehrob yoniga ishlangan zinali supa, baland joy. **2** Jamoat majlislarida notiq nutq so'zlaydigan, ma'ruza qiladigan maxsus moslama (tribuna).

MINISTR [fr. ministre < lot. minister - xizmatchi, xodim, yordamchi] ayn. **vazir**.

MINISTRLIK *ayn. vazirlik.*

MINNATDORLIK Minnatdor, mamnun holat, shunday his-tuyg'uga ega.

MINORA [*a.* - yorug'lik manbai bo'lgan joy; mayoq] Biror binoga qo'shib yoki alohida qurilgan, mezana shaklidagi baland inshoot.

MINTAQA [*a.* - kamar, belbog'; iqlimiy hudud; soha, doira] Yer yuzining biror xususiyati bilan ajralib turadigan bo'lagi.

MINTAQAVIY Mintaqaga oid, tegishli.

MIRZA [*a.+fors.* - "amirzoda" so'zining qisqargan shakli] *tar.* Yozuv-chizuv ishlarini olib borgan la-vozimli kishi; kotib.

MIRZABOSHI *tar.* O'zbek xonliklarida, asosan, Qo'qon xonligida mirzaxona boshlig'i.

MIRZAXONA *tar.* Amir va xonlarning mirzalar yozuv-chizuv ishlarini olib boradigan idorasi.

MIRSHAB [*a.+fors.* - tungi qorovul boshlig'i] *tar.* Markaziy Osiyo xonliklarida: tungi shahar soqchisi va ularning boshlig'i.

MIRSHABXONA Mirshab mahkamsi va qamoqxonasi.

MISSIONER [*fr.* missionnaire < *lot.* missio - yuborish, jo'natma] Cherkov tomonidan, odatda, hukumat yordamida boshqa dindagi kishilarni tashviqot qilib, xristian diniga kiritish uchun qaram va mustamlaka mamlakatlarga yuborilgan targ'ibotchi.

MISSIYA [*lot.* missio - jo'natish, yuborish] **1** Muayyan topshiriq bilan

boshqa mamlakatga yuborilgan vakillar. **1** Bir davlatning boshqa davlatdagi (elchixonadan farqli ravishda) yoki xalqaro tashkilotlardagi vakili tomonidan boshqariladigan doimiy diplomatik vakolatxonasi.

MISTIK 1 G'ayritabiiy narsalarga, mo'jizalarga ishonuvchi; mistitsizm tarafdori; **2** Mistikaga, mistitsizmga oid, tasavvufdan iborat bo'lgan, mistitsizm ruhidagi.

MISTIKA [*fr.* mystique < *lot.* mystic < *yun.* mystikos - yashirin, sirlil] G'ayritabiiy olamga, ilohlar va ilohiy kuchlarga, insonning ilohiyat olami bilan aloqa qila olishiga ishonishdan iborat diniy e'tiqod.

MISTITSIZM [*fr.* mysticisme < mystique - yashirin, sirlil] Mistikaga, tasavvufga asoslangan idealistik diniy dunyoqarash; mistikaga moyillik.

MITING [*ingl.* meeting - yig'in, majlis, yig'ilish] Biror muhim voqeaga, ko'pincha siyosiy masalalarni muhokama etishga bag'ishlab o'tkaziladigan ommaviy yig'in.

MITINGBOZLIK Bo'lar-bo'lmasga miting o'tkazaverish.

MITROPOLIT [*yun.* metropolites - metropoliya fuqarosi] Pravoslav xristian cherkovida yepiskoplarning oliy unvoni va shu unvonga ega bo'lgan ruhoni.

MOBILIZATSIYA [*fr.* mobilisation < *lot.* mobilis - harakatchan, qo'zg'aluvchan] **1** Urush e'lon qilinishi munosabati bilan zaxiradagi harbiylarni yoki ularning bir qismini haqiqiy xizmatga chaqirish. **2** Muhim topshiriqni bajarish uchun aholini, sanoatni safarbar qilish.

MODERNIZATSIYA [fr. moderniser – yangilamoq] Biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish.

MODERNIZATSIYALASH Zamona-viyalashtirish, modernizatsiya qilish.

MODERNIZM [fr. modernisme < lot. modernus – yangi] XIX asr oxiri va XX asrda AQSH va Yevropa san'ati va adabiyotida realizmga qarshi bo'lgan, an'anaviy shakllar va estetikani inkor qiluvchi oqimlarning umumiy nomi.

MOHIYAT [a. – haqiqat, har narsaning asli, negizi] Biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun, mag'iz.

MOJARO [a. – o'rtada bo'lgan narsa, ayni shu sababli] Janjal, tortishuv, g'alva; salbiy voqea-hodisalar.

MOJAROLASHMOQ Kelishmovchilik orqasidan aytishib qolmoq, janjallashmoq.

MOLIYA [a. – pul mablag'lari] **1** Maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui. **2** Biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari. **3** Moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat organlari.

MOLIYA BOZORI Oldi-sotdi obyektini pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) bo'lgan bozor.

MOLIYA OLIGARXIYASI [yun. oligarchia – ozchilik hokimiyati] Eng yirik sanoat korporatsiyalari va banklar egalari guruhi: amalda mamlakat iqtisodiyotida, shuningdek, siyosiy hayotida hukmronlik qiladi.

sodiyotida, shuningdek, siyosiy hayotida hukmronlik qiladi.

MOLIYA SIYOSATI Davlat umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi: davlat faoliyatini ta'minlash, mamlakat farovonligini oshirish maqsadlarida moliya tizimini tashkil etish, moliyaviy imkoniyatlarni safarbar etish va ulardan foydalanish, davlat oldida turgan ichki va tashqi siyosat vazifalarini bajarish bo'yicha amalga oshiriladigan barcha davlat tadbirlarini o'z ichiga oladi.

MOLIYA YILI Davlat byudjeti amal qiladigan yoki moliya hisoblari muddati hisoblanadigan, o'n ikki oydan iborat davr.

MOLIYAVIY Moliyaga oid, moliya jihatdan, pul mablag'lari va ularni to'plash, taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan.

MOLIYAVIY FAOLIYAT Markazlashgan va markazlashmagan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat.

MOL-MULK SOLIG'I Jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovi.

MOMOHAVO [qadimiy yahudiy va islom manbalarida Havo – hayot manbai] Islomga ko'ra, Odamatoning xotini, birinchi ayol va inson zotining onasi.

MONARX [yun. monarchos < monos – bir, yakka + archos – hukmdor] Monarxiya davlatining boshida turuvchi hukmron shaxs (shoh, imperator, qirol, xon, sulton va sh. k.).

MONARXIYA [*yun.* monarchia – yakkahokimlik] akkahokimiyatchilik; davlatning oliy hokimiyati yakka hukmdor – monarx qoʻlida boʻlgan boshqaruv shakli va shunday boshqaruv shakliga ega boʻlgan davlat.

MONARXIZM Monarxiyani davlat tuzumining yagona, eng maʼqul shakli deb hisoblovchi siyosiy yoʻnalish; monarxiya shaklidagi boshqaruvga tarafdorlik.

MONASTIR [*yun.* monasterion – chekka, xilvat, ovloq] Tarkidunyo qilgan xristianlar – monaxlarning muyyaan qoida va meʼyorlar, belgili nizomga amal qilib yashovchi diniy jamoasi; shunday jamoaga qarashli cherkov, yer-mulk va b.

MONETARIZM [*fr.* monetarisme < *lot.* monetarius – tangaga, tanga pulga oid, aloqador] *iqt.* Muomaladagi pul massasi davlatning iqtisodiy siyosatida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi iqtisodiy nazariya.

MONISTIK Monizmga asoslangan, monizmga oid.

MONIZM [*yun.* monos – yakka, bir] Dunyodagi turli hodisalar negizida bitta ibtido, yagona substansiya (materiya yoki ruh, jon) yotadi, deb hisoblovchi taʼlimot.

MONITORING [*ingl.* monitoring – kuzatish, nazorat qilish] Maʼlum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash, istiqbolini belgilash.

MONOGAMIYA [*yun.* monos – yakka, bir + gamos – qoʻshilish, nikoh] Yak-

kanikohlilik; bir erkakning faqat bir xotini bilan birga barqaror hayot kechirishidan iborat nikoh shakli.

MONOGRAFIYA [*yun.* monos – bir, yakka + grapho – yozaman] Bir mavzu, bir masalani har tomonlama yoritishga bagʻishlangan ilmiy asar.

MONOMARKAZ Ishsiz, maʼlum bir kasb-hunarga ega boʻlmagan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash markazlari

MONOPOLIST *ayn.* monopoliyachi.

MONOPOLIYA [*yun.* monos – bir, yakka + poleo – sotaman] Iqtisodiyotning biron sohasida tanho hukmronlik; davlat, korxonalar yoki jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish, savdo, hunarmandchilik sohasida faoliyat olib borishi uchun berilgan alohida huquq.

MONOPOLIYACHI Maʼlum sohani tanho monopoliya qilib olgan, savdo va ishlab chiqarish sohasida yoki boshqa biror sohada juda katta huquqlarga ega boʻlgan shaxs, tashkilot yoki davlat; yirik ishbilarmon.

MONOTEIZM [*yun.* monos – bir, yakka + theos – xudo] Faqat bitta xudoga sigʻinuvchi, birgina xudoni eʼtirof etuvchi diniy eʼtiqod; yakkaxudolilik.

MONUMENT [*lot.* monumentum – esdalik, yodgorlik; hayka] Biror tarixiy voqea yoki buyuk shaxs sharafiga qoʻyilgan katta haykal yoki meʼmoriy inshoot.

MONUMENTAL 1 Hashamatliligi bilan katta taassurot qoldiradigan; ulkan, salobatli; monumentga xos. 2 Ulugʻvorligi bilan ajralib turuvchi va yuksak shakllarda ifodalangan.

MORATORIY [lot. moratorius - to'xtatib turuvchi, sekinlatuvchi] siyas. Muayyan majburiyatlarning bajari-lishini davlat hokimiyatining maxsus hujjatlari vositasida noma'lum mud-datga yoki biron-bir favqulodda hodisa (urush, tabiiy ofat va sh. k.lar) tugagun-cha kechiktirish, to'xtatib turish

MORFINIZM Giyohvandlik turla-ridan biri, morfinga o'rganib qolib, uni qabul qilmay tura olmaslik.

MOTAM [a. - dafn marosimi; aza yig'ini] Yaqin yoki mo'tabar kishining o'limi tufayli yuzaga kelgan qayg'uli ho-lat; azadorlik va u bilan bog'liq ma'raka, ta'ziya va b. rasm-rusumlar.

MOTAM TUTMOQ Motam holatida bo'lmoq, shunday holatni kechirmoq.

MOYIL [a. - egilgan, engashgan; qiya] Biror narsa ta'siriga beriluvchan, yaqin; moyil, ko'ngli bor.

MUALLIF [a. - yaratuvchi, ijodkor] Biror asar, loyiha, kashfiyot va sh. k.lar-ni yaratgan shaxs.

MUALLIFLIK HUQUQI 1 Ijodiy faoli-yat bilan shug'ullanuvchi shaxsning o'z faoliyati mahsuliga nisbatan o'z muallifligini hamma tomonidan tan olinishi-ni talab qilish huquqi. **2** Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni huquqiy himoya qilish bo'yicha huquqiy me'yorlar maj-mui.

MUAMMO [a. - g'alati, sirli nar-sa, jumboq; boshqotirma] Hal qilinishi lozim bo'lgan murakkab masala.

MUAMMOLI MASALA Muam-modan iborat bo'lgan, jumboqli masala.

MUARRIX [a. - tarixchi] Tarix yozuvchi, tarixchi.

MUASSASA [a. - idora, korxon-a, tashkilot] Xo'jalik, savdo-sotiq ishlari va sh. k.larning biror sohasini bosh-qaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi, belgili shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot.

MUASSIS [a. - asos soluvchi, tash-kil etuvchi] Ta'sis etuvchi, asos soluv-chi.

MUAZZIN [a. - azon aytuvchi, namozga chaqiruvchi] Masjidda azon aytib, namozga chaqiruvchi shaxs; so'fi.

MUBOHASA [a. - muhokama, bahs] Bahslashish, bahs, munozara.

MUBOSHIR [a. - bajaruvchi; bosh-liq; nazoratchi] **1** Biror ishga boshchilik qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq. **2** tar. Soliq yig'uvchi amaldor.

MUDARRIS [a. - dars beruvchi; o'qituvchi] Madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o'qituvchisi.

MUDDATLI HARBIY XIZMAT Chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli kuchlar safida maj-buriy xizmatda bo'lishi.

MUDHISH [a. - hayron qoldiradi-gan, ajoyib] Kishini dahshatga soladi-gan, dahshatli, qo'rqinchli.

MUDIR [a. - boshqaruvchi; ido-ra qiluvchi] Muassasa, tashkilot yoki uning biror bo'limini yoxud biror ishni idora qiluvchi, boshqaruvchi shaxs.

MUHOJIR [a. - nimoya qilishi; hi-moya to'saq] Ijtimoiydan saqlanish, o'zini nimoya qilish uchun zarur bo'ladigan yoki tozirlanigan vosita va choralar majmui.

MUFTI(Y) [a. - fatvo beruvchi] Musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniy, fatvo beruvchi; diniy-huquqiy masalalarni izonlash, talqin qilish, shariatni tatbiq etish borasida hal qiluvchi huquqqa ega; odatda, uning fikr va qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun qo'llanma, yo'l-yo'riq sanaladi.

MUHADDIS [a. - hikoyachi; hadis olimi, hadis aytuvchi] Hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullangan (shug'ullanuvchi) ilohiyotchi.

MUHANDIS [a. - injener; texnik; quruvchi usta] Texnikaning biror sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis.

MUHOJIRLAR [a. - hijrat qilgan, boshqa joyga ko'chib ketgan] O'zi fuqaro bo'lib turgan yoki doimiy yashayotgan mamlakatni tashlab, boshqa davlatga, doimiy yashash uchun jo'nab ketuvchi kishilar.

MUHR [a. - muhr; tamg'a; shularning izi] Yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi to'liq yozilgan matnning qavariq yoki botiq tasviri bo'lgan bosma shakl.

MUHRDOR [a.+fors. - muhr egasi] tar. Xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi va bosuvchi amaldor.

MUJOHID [a. - e'tiqod uchun, muqaddas ish uchun kurashchi] Xudo yo'lida jang qiluvchi.

MUKOFOT [a. - taqdirlash, to'lov tovon puli] Biron-bir faoliyat sohasida alohida yutuqlar uchun rag'batlantirish shakli.

MULK [a. - shaxsiy boylik, mo'ljodiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishi. Mul' obyektiga yer va yerosti boyliklari, ko'xona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari bo'lishi mumkin.

MULK HUQUQI Shaxsning o'zig' qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

MULKDOR [a. + fors. - mulk egasi] Mulk subyekti; mulk obyektiga egalik, foydalanish, tasarruf etish huquq tamoyillari asosida mustahkamlangan huquqlarga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxs.

MULKDORLIK Katta yer-suv egalik.

MULKCHILIK Kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar.

MULLA [a. - o'qimishli, taqvod odam] O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta'limini olgan shaxs; ulamo.

MULTIMILLIONER [lot. multum ancha, ko'p + millioner] Ko'p million boylik egasi.

MUNITSIPALIZATSIYA [*fr.* municipalisation < *lot.* municipium - o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa] Xususiy yer-mulk va boyliklarni mahalliy hukumat organlari tomonidan majburiy ravishda olib qo'yish.

MUNITSIPALITET [*nem.* Munizipalität < *lot.* municipium - o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa] Ba'zi mamlakatlarda mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organi va u egallagan, joylashgan bino.

MUNOFIQ [*a.* - ikkiyuzlamachi, mug'ombir] Tili boshqa va dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, nosamimiy, ikkiyuzlamachi shaxs.

MUNOFIQLIK Munofiqona ish, xatti-harakat.

MUNOJOT [*a.* - iltijo; maxfiy suhbat] Islomdagi farz namozlaridan tashqari, ixtiyoriy ravishda o'qiladigan namozlar

MUNOZARA [*a.* - bahs, mubohasa, tortishuv] Ilmiy, adabiy, siyosiy, diniy va sh. k. masalalar yuzasidan tortishuv; baxs.

MUNTAZAM [*a.* - tartibga keltirilgan, tartibli; bir tekis] **1** Tartibli ravishda uzluksiz davom etadigan, kanda bo'lmaydigan. **2** Belgilangan tartibda, reja asosida amalga oshirilgan.

MUNTAZAM ARMIYA Qat'iy harbiy tartibga ega bo'lgan, rejali harbiy tayyorgarlik ko'rib boruvchi doimiy qo'shin.

MUNSHI(Y) [*a.* - asoschi, yaratuvchi; quruvchi; tuzuvchi] *tar.* Markaziy Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi; sa-

royda yozuv-chizuv ishlarini olib borgan shaxs.

MUOMALA [*a.* - o'zaro munosabat, aloqa] **1** Kishilar bilan munosabat, so'zlashuv. **2** Ish, xizmat bilan bog'liq bo'lgan aloqa. **3** Mehnat mahsulotlarini oldi-soldi vositasida ayirboshlash.

MUOVIN [*a.* - yordamchi] Boshliq yoki rahbarning o'rinbosari.

MUOVINLIK Muovin lavozimi; o'rinbosarlik.

MURABBIY [*a.* - tarbiyachi] Ish yoki biror-bir faoliyatda rahbarlik, rahnamolik qiluvchi; ustoz, tarbiyachi.

MURABBIYLIK Murabbiyga xos ish, faoliyat.

MURDA [*fors.* - o'lgan, o'lik; jonsiz] O'lgan kishining jasadi; o'lik.

MURDASHO'Y [*fors.* - o'likni yuvuvchi kishi] *etn.* G'assol, o'likni yuvuvchi; yuvg'uchi.

MURID [*a.* - izdosh, ergashuvchi; so'fiylar shogirdi] Pir yoki eshon (muroshid)ga qo'l berib, so'fiylik yo'liga kirgan shaxs.

MUROJAAT [*a.* - ko'rib chiqish; taqqoslash; biror narsa so'rash] Birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq va sh. k.lar.

MUROJAATNOMA Yozma murojaat, murojaat xati.

MUROSA [*a.* - bir-biridan rozilik; o'zaro kelishish] O'zaro kelishuvli munosabat; kelishuv, kelishuvchilik.

MUROSASIZ Kelishuvchilikka yo'l qo'ymaydigan, murosaga kelmaydigan.

MUROSASOZLIK Kelishuvchanlik, kelishuvchilik bilan yon berish.

MUHOJIR [a. - timoya qilisti; timoya to'saq] Ijtimoiydan saqlanishi, o'zini timoya qilishi uchun zarur bo'ladigan yoki tozirlangan vosita va choralar majmui.

MUFTI(Y) [a. - fatvo beruvchi] Musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniy, fatvo beruvchi; diniy-huquqiy masalalarni izonlash, talqin qilish, shariatni tatbiq etish borasida hal qiluvchi huquqqa ega; odatda, uning fikr va qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun qo'llanma, yo'l-yo'riq sanaladi.

MUHADDIS [a. - hikoyachi; hadis olimi, hadis aytuvchi] Hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullangan (shug'ullanuvchi) ilohiyotchi.

MUHANDIS [a. - injener; texnik; quruvchi usta] Texnikaning biror sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis.

MUHOJIRLAR [a. - hijrat qilgan, boshqa joyga ko'chib ketgan] O'zi fuqaro bo'lib turgan yoki doimiy yashayotgan mamlakatni tashlab, boshqa davlatga, doimiy yashash uchun jo'nab ketuvchi kishilar.

MUHR [a. - muhr; tamg'a; shularning izi] Yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi to'liq yozilgan matnning qavariq yoki botiq tasviri bo'lgan bosma shakl.

MUHRDOR [a.+fors. - muhr egasi] tar. Xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi va bosuvchi amaldor.

MUJOHID [a. - e'tiqod uchun, muqaddas ish uchun kurashchi] Xudo yo'lida jang qiluvchi.

MUKOFOT [a. - taqdirlash, to'lo tovon puli] Biron-bir fauliyat tohasida alohida yutuqlar uchun rag'batlantiri shakli.

MULK [a. - shaxsiy boylik, ma' Moddiy va ma'naviy ne'matlarni muayyan kishilar egaligida bo'lishi ular tomonidan o'zlashtirilishi. Mu obykti yer va yerosti boyliklari, k xona, bino, inshootlar, mashina uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qi matli qog'ozlar, san'at va adabiyot aslari bo'lishi mumkin.

MULK HUQUQI Shaxsning o'zi qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qili undan foydalanish va uni tasarruf eti huquqi.

MULKDOR [a. + fors. - mulk ega Mulk subyekti; mulk obyektiga eqlik, foydalanish, tasarruf etish huquq tamoyillari asosida mustahkamlang huquqlarga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxs.

MULKDORLIK Katta yer-suv egalik.

MULKCHILIK Kishilar o'rtas ishlab chiqarish vositalari va mehn mahsulini o'zlashtirish yuzasidan poldo bo'lgan va tarixan aniq shaklda imoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabat

MULLA [a. - o'qimishli, taqvo odam] O'rta Sharq, Markaziy Osiya mamlakatlarida madrasa ta'limini olgan shaxs; ulamo.

MULTIMILLIONER [lot. multum ancha, ko'p + millioner] Ko'p millik boylik egasi.

MUNITSIPALIZATSIYA [fr. municipalisation < lot. municipium - o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa] Xususiy yer-mulk va boyliklarni mahalliy hukumat organlari tomonidan majburiy ravishda olib qo'yish.

MUNITSIPALITET [nem. Munizipalitäts < lot. municipium - o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa] Ba'zi mamlakatlarda mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organi va u egallagan, joylashgan bino.

MUNOFIQ [a. - ikkiyuzlamachi, mug'ombir] Tili boshqa va dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, nosamimiy, ikkiyuzlamachi shaxs.

MUNOFIQLIK Munofiqona ish, xatti-harakat.

MUNOJOT [a. - iltijo; maxfiy suhbat] Islomdagi farz namozlaridan tashqari, ixtiyoriy ravishda o'qiladigan namozlar

MUNOZARA [a. - bahs, mubohasa, tortishuv] Ilmiy, adabiy, siyosiy, diniy va sh. k. masalalar yuzasidan tortishuv; baxs.

MUNTAZAM [a. - tartibga keltirilgan, tartibli; bir tekis] **1** Tartibli ravishda uzluksiz davom etadigan, kanda bo'lmaydigan. **2** Belgilangan tartibda, reja asosida amalga oshirilgan.

MUNTAZAM ARMIYA Qat'iy harbiy tartibga ega bo'lgan, rejali harbiy tayyorgarlik ko'rib boruvchi doimiy qo'shin.

MUNSHI(Y) [a. - asoschi, yaratuvchi; quruvchi; tuzuvchi] tar. Markaziy Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi; sa-

royda yozuv-chizuv ishlarini olib borgan shaxs.

MUOMALA [a. - o'zaro munosabat, aloqa] **1** Kishilar bilan munosabat, so'zlashuv. **2** Ish, xizmat bilan bog'liq bo'lgan aloqa. **3** Mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash.

MUOVIN [a. - yordamchi] Boshliq yoki rahbarning o'rinbosari.

MUOVINLIK Muovin lavozimi; o'rinbosarlik.

MURABBIY [a. - tarbiyachi] Ish yoki biror-bir faoliyatda rahbarlik, rahnamolik qiluvchi; ustoz, tarbiyachi.

MURABBIYLIK Murabbiyga xos ish, faoliyat.

MURDA [fors. - o'lgan, o'lik; jonsiz] O'lgan kishining jasadi; o'lik.

MURDASHO'Y [fors. - o'likni yuvuvchi kishi] etn. G'assol, o'likni yuvuvchi; yuvg'uchi.

MURID [a. - izdosh, ergashuvchi; so'fiylar shogirdi] Pir yoki eshon (murshid)ga qo'l berib, so'fiylik yo'lga kirgan shaxs.

MUROJAAT [a. - ko'rib chiqish; taqqoslash; biror narsa so'rash] Birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq va sh. k.lar.

MUROJAATNOMA Yozma murojaat, murojaat xati.

MUROSА [a. - bir-biridan rozilik; o'zaro kelishish] O'zaro kelishuvli munosabat; kelishuv, kelishuvchilik.

MUROSASIZ Kelishuvchilikka yo'l qo'ymaydigan, murosaga kelmaydigan.

MUROSASOZLIK Kelishuvchanlik, kelishuvchilik bilan yon berish.

MUROSACHILIK *ayn.* **murosasozlik.**

MURTAD [*a.* - o'z maslagidan, dinidan qaytgan; xoin] **1** *din.* Dindan qaytgan, xudoga shak keltirgan odam. **2** O'z siyosiy maslagidan qaytib, dushman tomoniga o'tgan kishi; sotqin.

MURSHID [*a.* - to'g'ri yo'lga soluvchi; pir; rahbar] Tasavvufda: tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz.

MUSLIM [*a.* - islomni qabul qilgan, musulmon] Islom dinidagi kishi; musulmon.

MUSOBAQA [*a.* - tortishuv; tanlov] Yuqori natijalarga erishish yo'lidagi bellashuv.

MUSODARA [*a.* - mol-mulkni tortib olish] Shaxslarga tegishli mulk va sh. k.larni pul to'lamay, qisman yoki batamom davlat ixtiyoriga olish, umumlashirish.

MUSOFIR [*a.* - safarga chiqqan, sayohatchi; mehmon] **1** Safardagi kishi; sayyoh. **2** Boshqa yerdan kelgan yoki boshqa yerda yashovchi; kelgindi.

MUSOHABA [*a.* - birga hamsuhbat bo'lib borish] Davlat, jamoat, fan, madaniyat arboblarning muxbir bilan ommani qiziqtiradigan biror masala yuzasidan matbuot uchun o'tkazgan suhbat; suhbatlashish; intervyu.

MUSTABID [*a.* - o'z xohishicha ish qiluvchi; zolim, zulmkor] Mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan hokim.

MUSTABIDLİK Yakka shaxs hukmronligiga asoslangan siyosiy tuzum shakli.

MUSTAMLAKA [*a.* - egallab olingan, qaram mamlakat] Kuchli davlat tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat.

MUSTAMLAKACHILİK Kuchli davlatlar tomonidan zo'rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etib, o'ziga bo'sundirish, qaram qilish, talash siyosati.

MUSTAQILLİK [*a.* - erkin, ozod; tobe bo'lmagan] Mustaqil holat; davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi.

MUSULMON Islom dinidagi kishi.

MUSULMONLIK Islom diniga mansublik, taalluqlilik.

MUSULMONCHILİK Islom diniga, musulmonlarga xos tartib, qonun-qoidalar.

MUTAASSIBLIK [*a.* - o'ta fidoyi, berilgan] Biror e'tiqodga yoki dunyoqarashga o'ta berilganlik, boshqa har qanday qarashlarga toqat qila olmaslik.

MUTAFAKKIR [*a.* - fikr yurituvchi, o'ylovchi] Chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi.

MUTASADDI [*a.* - boshqaruvchi; tashabbuskor; boshlovchi] Biror ishni boshqarish uchun tayinlangan kishi; ishboshi, boshliq.

MUTAXASSIS [*a.* - biror ixtisos egasi] Biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan kishi, ixtisoslik egasi.

MUTAVALLI [*a.* - mudir, boshqaruvchi] **1** *tar.* Islom tarixida vaqf mulkiga, undan keladigan daromadga vasiylik qi-

luvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor.
2 Diniy muassasalarning xo'jalik noziri.

MUTELIK [a. - itoat etuvchi, bo'ysunuvchi] Birovga qaramlik, tobelik.

MUTLAQ HOKIMIYAT Cheklanmagan podsho hokimiyati va shunday hokimiyatga asoslangan idora usuli; absolyut monarxiya.

MUTTAHAM [a. - ayblanuvchi, ayblangan; shubhaga olingan] Oldi-berdi muomalalarida nopok; firibgar, qallob shaxs.

MUT'A [a. - vaqtinchalik nikoh] Musulmon huquqida nikoh turlaridan biri - vaqtinchalik nikohni anglatuvchi tushuncha.

MUVAFFAQIYAT [a. - yaxshi natija, yutuq] Biror ishda erishilgan natija, yaxshi natija; yutuq, g'alaba.

MUVAFFAQIYATLI Muvaffaqiyat bilan tugagan, ijobiy natijaga olib kelgan.

MUVAFFAQIYATSIZ Muvaffaqiyati bo'lmagan, ijobiy natijasiz, samarasiz.

MUVAQQAT [a. - vaqtincha, qisqa vaqtli] Vaqtinchali, doimiy bo'lmagan.


MUXOLAFAT, muxolifat [a. - kelishmovchilik; huquqbuzarlik] Rasmiy hukumat va uning siyosati bilan kelishmay, amaldagi qonunlar doirasida muxolif faoliyat yuritish.

MUZEY [lot. museum < yun. museion - muzalar ibodatxonasi] San'at, texnika, tabiat namunalarini, tarixiy, ilmiy va tabiiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni yig'ish, saqlash, o'rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug'ullanadigan muassasa.

MUZOKARA [a. - muhokama qilish; suhbat] Majlisda muhokamaga qo'yilgan masala yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, shu munosabat bilan gapirilgan nutq; tomonlarning talablari haqida fikr almashish.

MUSHOHADA [a. - kuzatish; ko'zdan kechirish] Fikr yuritish, o'ylash; ko'zdan kechirib tekshirish.

MUSHRIK [a. - Ollohning yakkaligi-ga shak keltiruvchi; politeist; butparast] Ollohga sherik keltiruvchi, ko'pxudolilik tarafdori; but, sanamlarga topinuvchi.



NABI [a. – paygʻambar, ilohiy xabar yetkazuvchi] *din.* Xudoning xohishini bandalariga yetkazuvchi; paygʻambar.

NABOB, navob [a. – “noib” soʻzining koʻpligi] Boburiylar saltanatida va keyinchalik undan ajralib chiqqan hind viloyatlarida viloyat hokimi unvon.

NAFAQA [a. – xarajat; aliment] **1** Muhtoj odamlarga yordam sifatida beriladigan pul; yordam puli. **2** Oʻzidan boʻlak turadigan xotin yoki erga (yetim, balogʻatga yetmagan bolalari uchun) yoki mehnatga yaroqsiz ota-onaga qonunchilik asosida toʻlab turiladigan taʼminot puli; aliment.

NAFSONIYAT [a. – xudbinlik; yoq-tirmaslik] Kishining oʻz nazaridagi qadr-qimmati, obroʻ-eʼtibori; izzat-nafs.

NAKAZ [*rus.* “наказать” feʼlidan: talab, topshiriq] Saylovchilarning oʻzlari saylagan deputat yoki organga bergan topshiriqlari, talab va istaklari.

NAMOYANDA [*fors.* – vakil, vakolatli] Biror ijtimoiy guruhga yoki sohaga mansub boʻlgan shaxs; vakil.

NAMOYISH [*fors.*] Ommaviy tadbirlarning bir koʻrinishi boʻlib, biror maqsad bilan uyushtiriladigan, biror

bayram munosabati bilan oʻtkaziladigan ommaviy yurish, harakatni bildiradi.

NAMOZ [*fors.* – Alloh taolaga ibodat, duolar] Islom koʻrsatmalari boʻyicha bajariladigan maxsus ibodat turi: musulmonlarning kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlar majmui va ularning har biri.

NAMOZ KUNI Hayitning namoz oʻqiladigan birinchi kuni.

NAMOZZOXN [*fors.* – namoz oʻquvchi] Namoz oʻqishni kanda qilmaydigan dindor kishi.

NAMUNALI Hammaga oʻrnak boʻla oladigan, ibrat olsa boʻladigan.

NAMUNAVIY HUJJAT Boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bogʻliq, bir-biriga oʻxshash va koʻp takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuziladigan hujjatlar.

NARKOBIZNES [*yun.* narkotikos – gangituvchi + biznes] Giyohvand moddalar ishlab chiqarish va tarqatish bilan shugʻullanuvchi uyushgan jinoyatchi guruh va toʻda.

NARKOMAFIYA [*yun.* narkotikos – gangituvchi + mafiya] Narkotik moddalarni sotish va olish bilan shugʻullanadigan jinoy uyushma.

NARKOMANIYA [*yun.* narkotikos – gangituvchi + mania – qattiq berilganlik, qiziqish] Narkotik va psixotrop moddalarni doimiy iste'mol qilishga o'rganib qolishlik; giyohvandlik.

NARKOTIK MODDALAR Giyohvandlikka sabab bo'luvchi tabiiy va sun'iy moddalar.

NARKOTIK VOSITALAR Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar.

NAQSHBANDIYLIK, naqshbandiya Tasavvufning XIV asrda asos solingan tariqatlaridan biri.

NARX [*fors.* – baho, qiymat] Tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

NARYAD [*rus.* “нарядить” (topshiriq bermoq, tayinlamoq) fe'lidan] **1** Biror ishni bajarish uchun beriladigan yozma yoki og'zaki farmoyish. **2** *harb.* Maxsus xizmat vazifalarini bajaruvchi yoki bajarayotgan harbiy xizmatchilar guruhi.

NASL-NASAB [*a.* “nasl” – avlod, urug'; bola-chaqa + “nasab” – qon-qarindoshlik; aloqa, munosabat] Bir avlod-ajdodga mansub kishilar urug'i, ularning kelib chiqishi, zoti, nasabi.

NASRONIY [*a.* – masihiy, xristian] Xristian diniga mansub kishi; nasroniylikka aloqador.

NASRONIYLIK Xristianlik, xristian diniga mansublik.

NATO [*ingl.* – North Atlantic Treaty Organisation (NATO) birikmasining qisqartmasi] Shimoliy Atlantika shart-

nomasi tashkiloti, 1949-yil 4-aprelda tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq.

NATSIZM Gitler rejimining mafkurasi; german fashizmi.

NATSIONALIZATSIYA [*fr., ingl.* nationalization < *lot.* natio, nationis – millat, xalq] Fuqarolar va yuridik shaxslarning xususiy mulki bo'lgan yer, ishlab chiqarish korxonalari, transport, bank va b.larni, to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazish, davlat mulkiga aylantirish.

NATURAL FALSAFA [*nem.* Naturphilosophie – tabiat falsafasi] Tabiatni falsafiy tamoyillar asosida bir butun tizim holda sharhlashning umumiy manzarasini ko'rsatib berishga urinish. Tabiatni bir butun tizim sifatida, asosan, jonli mushohada negizida yoki tabiatshunoslikdan o'zlashtirilgan bilimlar orqali talqin etish va tushuntirish, uning umumiy manzarasini tasvirlash borasidagi falsafiy urinishlar majmuasi.

NATURALIZATSIYA [*fr.* naturalization < *lot.* naturalis – haqiqiy, qonuniy] Chet ellik shaxsning biror-bir davlatning fuqaroligiga qabul qilinishi; chet ellikning shunday huquqqa ega bo'lishi.

NATURALIZM [*fr.* naturalisme < *lot.* natura – xossa; kishining xulq-atvori; tabiat] XIX asrning 2-yarmida avval Fransiyada, so'ng Yevropa, AQSH adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan va real borliqni obyektiv (o'z holicha), aniq va hissiz aks ettirishga intilgan oqim.

NATURALLASHISH Tug'ilgandan keyin (shaxsning iltimosiga ko'ra, ni-

koh yoki bolani asrab olish holatlarida) biron-bir davlatning fuqaroligini qabul qilish. Shaxsning iltimosiga ko'ra naturallashish fuqaroligi bo'lgan yoki chet el fuqarosi bo'lgan holatlarda eng ko'p tarqalgan.

NAVKAR [*mo'g.* no'xo'r - do'st, o'rtoq] Harbiy xizmatchi, askar; xizmatkor.

NAVRO'Z [*fors.* - yangi kun] Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi).

NAVRO'Z BAYRAMI Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram.

NAYMAN O'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi.

NAZORAT INSTANSIYASI Birinchi instansiya, apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi; sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari va ajrimlarining keltirgan protestlar bo'yicha nazorat tartibi qonuniy, asosli va adolatli ekanligini qayta ko'radigan sud.

NAZORAT QILUVCHI ORGANLAR Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirlik va idoralar.

NAZORATCHI Nazorat idoralarida ishlovchi; nazorat qiluvchi; qarab, tekshirib turuvchi; nozir.

NASHR [*a.* - tarqatish; chop etish] Bosma asar chop qilish, chiqarish.

NASHRIYOT [*a.* - nashr va targ'ibot ishlari] Bosma asarlar tayyorlash va

nashr etish ishlari va ular bilan shug'ullanuvchi muassasa.

NEOFASHIZM [*yun.* neos - yangi + fashizm] O'zining aniq shiorlari va faoliyat usullarini hozirgi zamonga moslab o'zgartirgan, lekin g'oyaviy-siyosiy asosini, qonun-qoidalarini saqlab qolgan fashizm.

NEOFREYDIZM Avstriyalik ruhshunos Zigmund Freyd psixoanalizining zamonaviylashtirilgan g'oya va qoidalaridan foydalanadigan ta'limotlar guruhiga berilgan nom.

NEOKOLONIALIZM [*yun.* neos - yangi + *lot.* colonia - manzilgoh] Dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari tomonidan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mustaqil mamlakatlarga nisbatan qo'llanayotgan, huquqiy jihatdan teng bo'lmagan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi; yangicha mustamlakachilik siyosati.

NEOLIT [*yun.* neos - yangi + lithos - tosh] Tosh asrining eng so'nggi davri.

NETTING [*ingl.* netting - to'r bilan ov qilish] Mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli.

NEYTRALITET [*nem.* Neutralität < *lot.* neutralis - betaraf] *huq.* Davlatlarning xalqaro-huquqiy holati: urush paytida - urushda ishtirok etmaslik, tinchlik paytida - harbiy uyushma va ittifoqlarga qo'shilmaslik.

NEYTRALLASHTIRISH 1 Biror davlatni yoki hududni betaraf deb e'lon qi-

lish. **2** Biror narsa yoki shaxsning ta'sirini bo'shashtirish.

NIFOQ [a. - ikkiyuzlamalik, munofiqlik, riyokorlik] Kelishmovchilik, nizo, ixtilof, janjal.

NIGILIZM [lot. nihil - hech nima, hech narsa] Mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy me'yorlarini, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish.

NIKOH [a. - uylanish, erga tegish; er-xotinlik] Erkak va ayolning tarixan shakllangan va qonun bilan yoki din tomonidan mustahkamlangan oila qurish shakli: **1** Erkak va ayolning o'zaro roziligi bilan huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoq. **2** Er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domla tomonidan o'qiladigan shartnoma.

NIKOH YOSHI Qonunga ko'ra, nikohning erkaklar uchun o'n sakkiz, ayollar uchun o'n yetti yosh qilib belgilangan chegarasi.

NIKOH SHARTNOMASI Er va xotinning nikohda bo'lgan davrida yoki nikohdan ajratilgan taqdirda, ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuv.

NIKOHNI QAYD QILISH Nikohni nikohlanuvchi shaxslardan biri yoki ularning ota-onalari turadigan joydagi FHDY organlarida qayd etish.

NISBIY HUQUQLAR Egarliga majburiyatli shaxslarning muayyan miqdori, nisbati bilan bog'liq subyektiv huquqlar.

NIZO [a. - bahs, tortishuv; janjal; kurash] O'zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik; ixtilof.

NIZO SOLMOQ Qarama-qarshilikni, kelishmovchilikni vujudga keltirmoq.

NIZOLARNI TINCH YO'L BILAN HAL ETISH Xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri; unga muvofiq, davlatlar orasidagi nizolar xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostiga qo'ymaslik uchun tinch yo'llar bilan hal qilinadi.

NIZOM [a. - tartib, tizim; tuzum; ustav] Ma'lum bir sohadagi ijtimoiy munosabatlarni kompleks tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjat.

NOBAKOR [fors. - ishga yaramaydigan; yovuz; axloqsiz; bekorchi] Xatti-harakati, yurish-turishi, hulq-atvori yomon odam.

NODAVLAT Davlat tasarrufida bo'lmagan.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOT Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

NODAVLAT SEKTORI Milliy iqtisodiyotning davlat tasarrufida bo'lmagan sohalari.

NOEMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR Qonunga muvofiq, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar.

NOGIRON [fors. - ta'sir o'tkazish qobiliyati yo'q] Jismoniy va aqliy nuqsonlari tufayli ishga yaroqsiz bo'lib qolgan,

ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs.

NOGIRONLIK Ishga yaroqsiz bo'lib qolishlik.

NOHUKUMAT Hukumatga tegishli emas, hukumatniki bo'lmagan.

NOIB [a. – o'rinbosar; yordamchi; deputat] tar. O'rta asrlarda musulmon davlatlarida tobe o'lka yoki viloyat hokimi, oliy hukmdorning shu yerdagi vakili, o'rinbosari.

NOMENKLATURA [lot. nomenclatura – nomlar, ismlar ro'yxati] Yuqori turuvchi organ tomonidan yoki alohida tartibda tayinlanadigan, tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar, lavozimlar ro'yxati.

NOMINAL ISH HAQI Pul shaklidagi ish haqi; ishchi va xizmatchilarning soat, kun, hafta, oy davomida o'z mehnati evaziga oladigan daromadi.

NOMINAL QIYMAT Pul belgilari, banknotlar va qimmatli qog'ozlarning ustiga yozib qo'yilgan qiymati, narxi.

NOMINALIZM [lot. nomina – ismlar, nomlar] O'rta asr falsafasidagi olamda faqat yakka narsalar mavjud, umumiy tushunchalar esa narsalarning nomlaridagina iborat deb hisoblaydigan yo'nalish.

NOMMA-NOM OVOZ BERISH Davlatning oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organida muhokama qilinadigan va hal qilinadigan masalalar yuzasidan deputatlar xohish-irodasini aniqlash usuli.

NOMODDIY NE'MATLAR Inson sezgilari orqali his qilinishi mumkin

bo'lgan, ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushlash mumkin bo'lmagan mavhum narsalar.

NOMOZ ayn. **namoz**.

NOMZOD [fors. – unashtirilgan; nomi ko'rsatilgan] Davlat yoki jamoatchilik organiga saylash, biron-bir lavozimga tayinlash, biron-bir tashkilotga qabul qilish uchun belgilangan, ko'rsatilgan shaxs.

NONSINDIRISH etn. O'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan, nikoh to'yi oldidan o'tkaziladigan marosimlardan biri; unashtirish.

NOQONUNIY Qonunga zid, qonuniy bo'lmagan.

NORASMIY Rasmiy, qonuniy bo'lmagan.

NOREAL Aniq bo'lmagan, real emas.

NORENTABEL Xarajatlarni oqlamaydigan, foyda bermaydigan.

NOREZIDENTLAR O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha bu: **1** Xorijda muqim yashash joyi bo'lgan, shu jumladan, vaqtincha O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxslar. **2** O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan, ajnabiy davlatlarning qonunlariga muvofiq tashkil etilgan va shu qonunlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining korxon va tashkilotlari ishtirokidagi yuridik shaxslar. **3** O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, immunitetga va diplomatik imtiyozlarga ega bo'lgan chet el diplomatiya, savdo va b. rasmiy

vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari.

NORMA [*lot.* norma - me'yor, o'lchov; qoida, qonun] Umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida; me'yor.

NOROZILIK NOTASI Davlat rahbariga yo'llangan nota: bir hukumatning boshqa hukumatga xalqaro nizo tufayli taqdim etadigan talablari bayon qilinadigan yozishma; diplomatik hujjat.

NOSTRIFIKATSIYA [*nem.* Nostri-fikation < *lot.* noctrum - bizniki; mahalliy + *facere* - qilmoq, ijro etmoq] Muayyan davlat tomonidan chet el diplomi, unvoni, ilmiy darajasini o'z mamlakatidagiga muqobil, teng deb tan olinishi.

NOTA [*lot.* nota - mulohaza, qayd etish; xat, maktub] Bir davlatning boshqa bir davlatga yozgan rasmiy diplomatik murojaatnomasi.

NOTARIAL HARAkatLAR Davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslarining faoliyati: bitimlarni tasdiqlash; vasiyatnomalarni tasdiqlash; er-xotinning umumiy mol-mulkdagi ulushiga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish; mol-mulknii o'zga shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish; merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish; meros mol-mulknii qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish; hujjatlar nusxalarini va hujjatlarining bir tildan

boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlash; hujjatlardagi imzolarning haqiqiyiligini shahodatlash; ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi to'g'risida guvohnoma berish va h.k.

NOTARIAT [*lot.* notarius - mirza, kotib] Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qiluvchi organlar tizimi.

NOTARIUS [*lot.* notarius - mirza, kotib] Turli xil yuridik hujjatlarni (dalolatnoma, shartnoma, vasiyatnoma, ishonchnoma va sh. k.) guvohlantirish, tasdiqlash ishlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs.

NOTIFIKATSIYA [*lot.* notificare - ma'lum, oshkor qilmoq; xabardor qilmoq] Xalqaro huquqda: bir davlatning vakolatli organlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan xalqaro hayotning u yoki bu masalalari yuzasidan o'z nuqtayi nazarini ma'lum qilishi va shu nuqtayi nazar bayon qilingan rasmiy bildirishnoma.

NOTIJORAT Tijoratga oid, taalluqli bo'lmagan.

NOTINCHLIK Osoyishta bo'lmagan holat.

NOU-XAU [*ingl.* know-how - bilishimcha] Qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan, hali hammaga ma'lum bo'lmagan texnikaviy bilimlar, tajriba, ko'nikmalar, hujjatlar, ishlab chiqarish sirlari.

NOVATOR [*lot.* novator - yangilik yaratuvchi] Kishilar faoliyatining biror


sohasida yangicha g'oya, usul kirituvchi va uni amalga oshiruvchi.

NOVATORLIK Kishilarning bunyodkorlik faoliyatidagi yangilik; novatorga xos xatti-harakat.

NOZIR [a. – kuzatuvchi, nazoratchi; boshliq; vazir] Bajarilayotgan ish-harakatning to'g'riligini, mavjud

qonun, qaror va nizomlarga rioya qilib amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

NULLIFIKATSIYA [lot. nullificatio – yo'qotish] Biror hujjatni yuridik kuchdan, qonuniylikdan mahrum etish, bekor qilish.



OBELISK [*yun.* obeliskos – qilich, shamshir] Memorial inshoot turi: yuqoriga tomon ingichkalashib boradigan, tosh ustun shaklidagi yodgorlik.

OBIDA [*a.*] Arxeologik yodgorlik; uzoq o'tmishdan qolgan moddiy yodgorlik.

OBLAST [*qad. rus.* об + волость – hudud; davlat] *q.* viloyat.

OBLIGATSIYA [*lot.* obligatio – majburiyat] Qiymatiga nisbatan, egasiga qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz; qarzni qaytarib berish va foiz to'lashni tasdiqlovchi majburiyatnoma.

OBODONLASHTIRISH Ko'rkamlashtirish; obodlashtirish, chiroyli tusga kiritish.

OBROGATSIYA [*lot.* obrogatio – mavjud qonunni yangisi bilan bekor qilish] Qonunni o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan yangilash.

OBUNA [*fr.* abonner – imzolamoq; yozilmoq] Gazeta, jurnal va sh.k.ga oldindan haq to'lab yozilish.

OBYEKT [*lot.* objectum – narsa] Subyektga qarama-qarshi bo'lgan, inson onigiga bog'liq bo'lmagan holda

mavjud bo'lgan hamda inson (subyekt) ning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan tashqi olam, borliq; obyektiv reallik.

OBYEKTIVIZM *fls.* Ijtimoiy hayot voqea-hodisalarini qayd etish, ularning zarurligini ta'kidlash bilangina cheklanuvchi nuqtayi nazar.

OBYEKTIVLIK Obyektiv borliqqa aloqadorlik; obyektiv borliqqa moslik; xolislik, betaraflik.

OBZOR [*rus.* “обозреть” (ko'rib chiqmoq, tekshirmoq, tahlil qilmoq) fe'li-dan] O'zaro bog'langan masalalarga doir ma'lumotlarni xulosalab, qisqacha qilib berilgan og'zaki yoki yozma axborot.

ODAM [*a.* – Odamato; inson] Fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson.

ODAM SAVDOSI Kuch ishlatish yoki boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki shaxsni nazorat qiluvchining roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish va shu maqsadda ularni yollash,

tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish.

ODAMATO [*a.* – Odamoto; inson] Islomga ko'ra, Oloh tomonidan yaratilgan yer yuzidagi birinchi odam va inson zo-tining otasi.

ODAMKUSH [*a.* + *fors.* – odam o'ldiruvchi] Odam o'ldiruvchi; qotil; jallod.

ODAMKUSHLIK Odam o'ldirish bilan shug'ullanish.

ODAT HUQUQI Jamiyatda uzoq vaqt amal qilinaerib, uning a'zolari uchun o'rganish bo'lib ketgan va davlat tomonidan ruxsat etilgan, lekin qonunlashtirilmagan tartib-qoidalar majmui.

ODIL SUDLOV Haqiqiy holatni aniqlab, odamlar o'rtasidagi kelishmovchilik va nizolarning faqat sud tomonidan hal etib berilishi.

ODILLIK Adolat yuzasidan xolisona ish tutish; odil kishilarga xos xatti-harakat.

ODOBNOMA [*a.* + *fors.*] **1** Odob-axloqqa oid fikrlar bayon qilingan kitob yoki darslik. **2** O'quv-tarbiya muassasalarida odob-axloq haqida ta'lim beruvchi o'quv fani.

OFERTA [*lot.* offertus – taklif etilgan] Bitim tuzish to'g'risidagi taklif, xabarnoma.

OFITSER [*nem.* Offizier < *lot.* officarius – mansabdor shaxs] Qurolli kuchlar, politsiya va jandarmeriyaning komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchi.

OGOHL [*fors.* – biluvchi, xabardor; hushyor] Bo'lib o'tgan yoki bo'ladigan ish, harakat, voqea-hodisa va sh. k.dan xabari borlik; xabardor, voqif.

OGOHLANTIRISH 1 Ma'lum ish-harakat haqida xabardor, ogoh qilish. **2** Ishda kamchilikka yo'l qo'ygan, xato qilgan xodimlarni rasmiy yo'l bilan jazolash chorasi, tanbeh.

OGOHLIK Ogoh bo'lishlik, hushyorlik.

OILA [*a.* – bola-chaqa, xonadon; urug', avlod] Kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, hududiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan, jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy birlik; er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat, birga yashovchi kishilar majmui.

OILA HUQUQI Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohalaridan biri.

OILA KODEKSI Oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy, mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjatlari majmui.

OILA PUDRATI Mehnatni tashkil etishning ichki xo'jalik shakli, jamoa pudrati ko'rinishlaridan biri.

OILANI BUZMOQ Er-xotinlikka barham bermoq, ajralmoq, ajratmoq.

OKEANORTI Amerika; Amerika qit'asi.

OKKULTIZM [*lot.* occultus – yashirin, sirli] Insonda va kosmosda, umuman, dunyoda sirli, yashirin kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limotlarning umumiy nomi.

OKKUPATSIYA [*lot.* occupatio – egallash, bosib olish] Qurolli kuch vosi-

tasi bilan boshqa davlat yerlarini bosib olib, uning suveren huquqlarini poymol qilgan yoki cheklagan holda vaqtincha egallab turish.

OKRUG [rus. округ – tevarak, atrof]

1 Ba'zi davlatlardagi ma'muriy-hududiy birlik. **2** Saylov o'tkazish uchun vaqtinchalik tuzilgan hududiy bo'g'in.

OLAMPANOH [a.+fors. – olamni saqlovchi] esk. Podshohlar, xonlar epiteti.

OLAMSHUMUL [a. – olamni qamrab oluvchi] Jahon ahamiyatiga ega bo'lgan; ahamiyati juda katta, jahonshumul.

OLDINI OLMOQ Xavf-xatarning yuz berishidan ilgari chorasini ko'rmoq; biror xavf-xatarning yuz berishiga yo'l qo'ymaslik.

OLIGARXIYA [yun. oligarchia – ozchilik hokimiyati] Davlat boshqaruv shakli; unda siyosiy va iqtisodiy hukmronlik aristokratlar yoki boylarning kichik guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

OLIGOPOLIYA [yun. oligos – oz, kam + poleo – sotaman] Bozorni tashkil etish shakllaridan biri; bunda bir qancha yirik firma va kompaniyalar norasmiy kelishuvlar asosida asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilib turadi.

OLIMPIADA [yun. Olympias, Olympiados – Yunonistonda Olimpiya shahrida Zevs (Oliy ma'bud) sharafiga har to'rt yilda o'tkaziladigan tantanali bayram va sport musobaqalari] Butunjahon sport musobaqalari.

OLIMPIADA O'YINLARI Yunonistonning Olimpiada o'yinlarini eslatuvchi xalqaro zamonaviy sport musobaqalari, Olimpiada o'yinlari.

OLIJ ATTESTATSIYA KOMISSIYASI (OAK) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi – O'zbekistonda ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarga fan, texnika, xalq ta'limi va madaniyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha ilmiy daraja va ilmiy unvon beruvchi davlat organi.

OLIJ BOSH QO'MONDON Mamlakat Qurolli Kuchlarining oliy rahbari.

OLIJ MAJLIS O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – O'zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi. Dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan va fuqarolarning umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida shakllantirilgan. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendumda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi O'zbekiston xalqi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hozirda Oliy Majlis 2 palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirilgan.

OLIJ SUD Bir qator mamlakatlarda oliy sudlov instansiyasining eng ko'p qo'llanadigan nomi. Fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi.

OLIJ TA'LIM Oliy o'quv yurtlarida oliy malakali, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi.

OLIJ O'QUV YURTI Xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli tarmoqlari

uchun malakali mutaxassislar, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlab berishga yo'naltirilgan o'quv muassasalari.

OLLOH [a. – ilohiy kuch, xudo] Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi; Alloh.

OLTINTAMG'A O'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi.

OLCHIN O'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi.

OMBUDSMAN [shvedcha ombudsman – biror kimsa manfaatlarining himoyachisi] Inson huquqlari bo'yicha vakil: maxsus saylab yoki tayinlab qo'yiladigan lavozim; O'zbekistonda Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili.

OMMA [a. – umumiylik; oddiy xalq] Biror ijtimoiy guruhning ko'pchilik qismi, umum, ko'pchilik, xalq.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI Turli mazmundagi axborotlarni keng ommaga yetkazib beruvchi vositalar – davriy matbuot, radio, televideniye kabilarning umumlashma nomi.

OMMAVIY-MADANIY Omma o'rtasida o'tkaziladigan madaniy ishlarga oid, shunday ishlarni amalga oshiradigan.

OMMAVIY MADANIYAT Axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzi-

ning ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdid.

OMMAVIY MULK Davlatga qarashli bo'lgan mol-mulk majmui.

OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARI Dushmanning kuchlariga, qurol-aslahalariga, inshootlariga yalpi talafot yetkazuvchi qurollar.

OMMAVIY-SIYOSIY Omma o'rtasida o'tkaziladigan siyosiy ishlarga oid, shunday ishlarni amalga oshiradigan.

OMMAVIYLIK Ommaviy xususiyatga egalik.

OMONAT 1 Saqlab berish, vaqtincha foydalanish yoki boshqa bir kishiga eltib berish uchun topshirilgan. **2** Omonatga saqlangan pul va b. narsalar, buyum. **3** Mijozning ma'lum bir shartlar asosida bankka qo'ygan pul mablag'i.

OMONAT DAFTARCHASI Omonat kassaga pul qo'yilganini tasdiqlovchi hujjat.

OMONAT KASSASI Aholining pulini vaqtincha saqlab berishga ixtisoslashgan muassasa.

OMONATCHI Omonat kassasiga pul qo'ygan kishi.

ONA TILI Bolaning go'daklikdan ma'lum bir ijtimoiy til muhitida ulg'ayib, uni maxsus tayyorgarliksiz, kattalarga taqlid qilib o'rgangan tili.

ONALAR VA BOLALAR MUHOFAZASI Onalar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom, jismonan va aqlan barkamol bolalarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va ijtimoiy-tibbiy tadbirlar tizimi.

ONTOLOGIYA [*yun.* ontos – borliq + logos – fan, ta'limot] Falsafaning borliq, uning tamoyillari, asoslari, tuzilishi va qonuniyatlari haqidagi bo'limi.

OPERATSIYA [*lot.* operatio – ish, harakat, faoliyat] **1** Biror maqsadni ko'zlab yoki biror operativ, strategik vazifani bajarish uchun yagona reja bo'yicha va kelishilgan vaqtda olib boriladigan jang harakatlari majmui. **2** Savdo, moliya, sanoat, pochta, kompyuter, sug'urta va b. bilan bog'liq vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyat yoki xatti-harakat.

OPPONENT [*lot.* opponens, opponens – e'tiroz bildiruvchi] **1** Ilmiy munozarada muxolif bo'lgan shaxs. **2** Dissertatsiya yoki ma'ruzani tanqidiy baholay oladigan, tahlil qila biladigan mutaxassis.

OPPORTUNIZM [*fr.* opportunisme < *lot.* opportunus – foydali, qulay] Moslashuvchanlik, zamonasozlik, ikkiyuzlamachilik; shunday xislatlarni o'ziga asos qilib olgan siyosiy oqim.

OPPOZITSIYA [*lot.* oppositio – qarama-qarshi qo'yish] **1** Qarama-qarshi harakat; ixtilof; o'z dunyoqarashini, siyosatini boshqalarning qarashlariga, siyosatiga qarshi qo'yish. **2** Hukmron mafkura yoki hukumat siyosatiga qarshi chiquvchi va masalani boshqacha hal qilish yo'lini, boshqacha siyosatni taklif etuvchi partiya yoki ijtimoiy guruhlarining umumiy nomi.

OPTANT [*lot.* optans, optantis – xohlovchi] Fuqarolikni tanlash huquqiga ega bo'lgan shaxs.

OPTATSIYA [*lot.* optatio – tanlash; istak, xohish] Bir davlatdan boshqa davlatga o'tuvchi hudud aholisiga fuqarolikni tanlash yoki undan voz kechish imkoniyatini berish.

OPTIMIST Optimizm ruhi bilan sug'orilgan, har narsaga, hayotga komil ishonch bilan qarovchi, undan zavqlanuvchi kishi.

OPTIMIZM [*lot.* optimus – eng yaxshi, eng maqbul] Kelajakka va, umuman, har ishga ishonch bilan qarash; har bir narsaning yaxshi va porloq tomonini ko'rishga moyillik.

OQIM Ijtimoiy faoliyat, ilm-fan, nazariya va sh. k.larning biror sohasidagi yo'nalishi; qarash.

OQIN Qozoq va qirg'izlarda: badiha-go'y shoir, kuychi; xalq shoiri; baxshi.

OQLAMOQ *huq.* Biror kishining gunohsiz ekanini tasdiqlamoq, kimsani aybdor emas deb topmoq.

OQPADAR [*a.* – bo'ysunmas, itoatsiz, hurmat qilishni bilmaydigan + *fors.* "padar" – ota] Juda qattiq gunohi, nojo'ya xatti-harakati uchun otasi oq qilgan, la'natlagan shaxs.

OQSOQOL O'zbekistonda: qishloq fuqarolar yig'inlari va shaharlar mahalla qo'mitalarining raisi.

OQSOQOLLAR KENGASHI O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o'rinbosarlarini saylash uchun deputatlar orasidan ko'pi bilan 15 kishidan iborat saylangan guruh bo'lib, mazkur kengash vakolatlari Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari saylangach tugaydi.

OQSUYAK Eksploatatorlik jamiyatida imtiyozli tabaqalarga, zodagonlarga mansub kishi; aristokrat.

ORDEN [*nem.* Orden < *lot.* ordo, ordinis – daraja; tartib; tuzum] Harbiy yoki fuqarolik burchini namunali bajar-ganlik uchun beriladigan turli daraja va nomdagi nishon, mukofot.

ORDER [*nem.* Order < *lot.* ordo – qator, tartib] Biror narsani olish, berish, biror ishni bajarish haqida berilgan ijozat qogʻozi, buyruq varaqasi, rasmiy hujjat.

ORGAN [*yun.* organon – qurol, asbob] **1** Hayotning muayyan bir sohasida belgili vazifalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot. **2** Biror partiya, tashkilot va muassasa tomonidan nashr qilinadigan va shu tashkilotning qarashlarini aks ettiradigan vaqtli matbuot.

ORGANIK QONUNLAR Koʻpincha davlat organlari maqomini, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish asoslarini belgilaydigan yoki muhim davlat tadbirlari, mas., referendumlarni tartibga soladigan qonunlar.

OROMIYLAR Arabiston yarimorolidan chiqqan va miloddan avvalgi XIV – XI asrlarda Gʻarbiy Osiyo boʻylab tarqalgan koʻchmanchi somiy qabilalar.

OTALIQ 1 Moddiy, madaniy yoki boshqa xil yordam koʻrsatish, shu yoʻl bilan tashkilotlar va kishilarni bir-biriga bogʻlashdan iborat ijtimoiy burch, faoliyat. **2** Shunday yordam koʻrsatishni oʻz zimmasiga olgan kishi yoki tashkilot. **3 tar.** Xonlar saroyida eng yuqori amallardan biri, xonning maslahatchisi.

OTASHPARAST Oʻtga topinuvchi, oʻtga sajda qiluvchi; majusiy.

OTASHPARASTLIK *ayn.* zardush-tiylik.

OTIN 1 tar. Eski maktablarda qizlar oʻqituvchisi; din va shariat bilimdoni hisoblangan ayol. **2 etn.** Ayollar oʻrtasida diniy marosimlarga boshchilik qiladigan ayol.

OTINBIBI, otinoyi 1 Uyida xotin-qizlar uchun maktab ochgan ayol. **2 ayn.** otin **2.**

OTRYAD [*rus.* “отрядить” (biror topshiriq, vazifa bilan yubormoq) feʼli-dan: biror topshiriq olgan guruh] **1** Jangovar yoki maxsus vazifalarni bajarish uchun tuziladigan vaqtinchalik yoki doimiy harbiy tuzilma. **2** Biror ish, faoliyat, xizmat uchun uyushgan kishilar guruhi.

OVOZ [*fors.* – tovush, sado; shovqin; mish-mish] Davlat va jamoatchilik tashkilotlarida saylov oʻtkazish yoki biror masalani hal qilishda saylovchilar yoki majlis ishtirokchilaridan har birining alohida fikri, oʻz fikrini bayon qilish huquqi va usuli.

OVOZ BERISH Saylov oʻtkazish yoki biron masalani hal qilishda saylovchilar yoki majlis ishtirokchilaridan har birining oʻz fikrini bayon etishi.

OXIRAT [*q.* – soʻng, nihoya; nari-gi dunyo; oxirgi kun] Odam oʻlgandan keyingi dunyo, olam; dunyoning tugash kuni, qiyomat.

OXIRZAMON *din.* Dunyoning, ha-yot va borliqning soʻnggi damlari, qiyomatga yaqin qolgan zamon.

OXLOKRATIYA [*yun.* ochlos – omma, olomon + kratos – hokimiyat] Omma, olomon boshchilik qiladigan hokimiyat, tuzum.

OYLIK 1 Oy mobaynida davom etadigan; bir oyga mo'ljallangan. **2** Bir oy mobaynida qilingan mehnat uchun tegadigan haq, maosh.

OYLIK BAY Qilingan ishga har oyda haq to'lash sharti bilan (yollash-yollanish).

OYNOMA *ayn. jurnal.*

OYTAMG'ALI O'zbek xalqining qo'ng'iroq, qipchoq, do'rmon kabi yirik qabilalari tarkibiga kirgan urug'lardan biri.

OZOD [*fors.* – erkin, hur; asoratdan qutulgan] O'z erki, haq-huquqi o'z qo'lidagi bo'lgan, ozodlikka erishgan; erkin, hur.

OZODLIK Erkinlik, hurlik; biron-bir majburiyat bilan bog'lanmaganlik.

OZODLIK DAN MAHRUM QILMOQ Sud tomonidan chiqarilgan hukmga asosan jinoyat sodir etgan shaxsni maxsus ajratilgan tarbiya muassasalarida majburiy saqlashdan iborat jazo turi.

OZODLIK KA CHI QMOQ Asoratdan, qullikdan chiqmoq; qutulmoq; erkinlikka erishmoq, ozod bo'lmoq.

OZODLIK NI CHEKLASH Sud hukmida belgilangan sanagacha o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni jamiyatdan ajratmay, maxsus muassasada nazorat ostida saqlash. Ushbu jazo chorasi o'taladigan muassasalar axloq tuzatish muassasalari deb nomlanadi.

OSHKORA Yashirmasdan, oshkor, ochiqchasiga.

OSHKORALIK Oshkora xususiyatga egalik; ochiq-oydinlik.

OSHNA-OG'AYNIGARCHILIK Oshna-og'aynilar manfaatini ko'zlab, ishga zarar keltirish, oshna-og'aynilar manfaatini xizmat manfaatidan yuqori qo'yish.

OCHARCHILIK Iqtisodiy tanazzul va tanglik yoki tabiiy ofat, turli sabablar tufayli jamiyat miqyosida yuzaga keladigan keskin oziq-ovqat tanqisligi; qahatchilik.

OCHI Q AKSIYADORLIK JAMIYATI Ishtirokchilari o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligi-siz erkin tasarruf etishi mumkin bo'lgan aksiyadorlar jamiyati.

OCHI Q IQTISODIYOT Jahon miqyosida tovarlar, xizmatlar, kapitalar va ishchi kuchi harakatida, milliy iqtisodiyotlar o'rtasida o'zaro to'sqinliklar bo'lmaydigan iqtisodiyot.


OCHI Q JAMIYAT Hayotiy demokratik qadriyatlar, mas., so'z, vijdon, e'tiqod erkinligi yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy tuzum turi.

OCHI Q OVOZ BERISH Ovoz beruvchining xohishi boshqa shaxslar ko'z o'ngida ifoda etiluvchi va ularga ko'rinib turuvchi ovoz berish usuli.

OCHLIK E'LON QILISH Iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy norozilik belgisi sifatida ovqat yeyishdan bosh tortish.

OG'MACHI *siyos.* Bosh yo'ldan chetga chiquvchi, og'uvchi.

ONG Faqat insonga xos psixik faoliyatning oliy shakli; kishining fikrlash qobiliyati; aql, idrok.



PAGUOSH HARAKATI Turli mamlakat olimlarining yadro urushining oldini olish, tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik, ilmiy hamkorlik qilish uchun yo'naltirilgan ijtimoiy harakati. Harakat tarafdorlarining 1-konferensiyasi 1957-yili Kanadaning Pagoush shahrida bo'lib o'tgan.

PAKT [lot. pactum - shartnoma, bitim] Muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro shartnoma, bitim.

PALATA [lot. palatium - saroy, qasr] **1** Turli mamlakatlarda davlat hokimiyatining vakillik organi. **2** O'zbekistonda: parlament - Oliy Majlisning ikki tarkibiy qismi: quyi palata - Qonunchilik palatasi, yuqori palata - Senat. **3** Ayrim davlat yoki jamoat tashkilotlari va muassasalarining nomi.

PAMFLET [ingl. pamphlet - risolacha; kichik asar] Ijtimoiy-siyosiy mavzuga bag'ishlangan, aniq bir shaxs yoki ijtimoiy hodisani mazax qilib, ularning illatlarini fosh qilishga qaratilgan kichikroq badiiy-publitsistik asar.

PANAFRIKANIZM [yun. pan - hamma + Afrika] G'oyaviy-siyosiy

harakat: XX asrning 50-yillaridan boshlab Afrikaning barcha xalqlarini ozodlikka chiqarish, ozodlik kuchlarini mustamlakachilikka, neokolonializmga, irqchilik va sionizmga qarshi kurashga da'vat qilib jipslashtirish harakati.

PANDEMIYA [yun. pandemia - butun xalq < pan - butun, barcha + demos - xalq] Epidemik kasallikning bir mamlakat, bir necha mamlakat yoki qit'ada, jahonda yoppasiga tarqalishi

PANISLOMIZM [yun. pan - hamma + islom] siyos. Yaqin va O'rta Sharqdagi musulmon mamlakatlarida XIX asr oxirida vujudga kelgan, islom dinidagi barcha xalqlarni yagona musulmon davlatiga birlashishga da'vat qilgan diniy-siyosiy oqim.

PANPSIXIZM [yun. pan - hamma, barcha + psyche - ruh] Tabiatda barcha narsa jonlangan va butun tabiat psixikaga (ruhga) ega, deb ko'rsatuvchi idealistik dunyoqarash.

PANTEISTIK G'OYA Panteizmga oid g'oya, ta'limot.

PANTEIZM [yun. pan - hamma, barcha + theos - xudo] din., fls. Xudo bilan butun borliq bir narsa, ular bir

butunlikni tashkil qiladi, deb qaraydigan diniy-falsafiy ta'limot.

PANTURKIZM [yun. pan – hamma, barcha + turkiy] tar. Turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasini ilgari surgan oqim.

PARAD [fr. parade < isp. parade – to'xtash, yetib kelish joyi < lot. paro – tayyor qilaman, tayyorlayman] Rasmiy bayramlar munosabati bilan yoki reja-ga ko'ra harbiy qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan tantanali ko'rik.

PARADOKS [fr. paradox < yun. para – qarshi + doxa – fikr] Umum tomonidan qabul qilingan fikrga, ilmiy qoidalarga, tasavvurlarga zid, aqlga to'g'ri kelmaydigan, kutilmagan fikr, mulohaza.

PARALOGIZM [yun. para – qarshi + logismos – mantiq] Mantiq qonunlari va qoidalarining tasodifiy buzilishi natijasida kelib chiqqan mantiqan noto'g'ri xulosa, xato, yangilish fikr; xatolik.

PARITET [lot. paritas, paritatis – tenglik, baravarlik] **1** O'zaro munosabatlarda tomonlarning tenglik, teng-huquqlilik, teng vakillik asoslarida biron-bir iqtisodiy harakatda ishtirok etishi. **2** Turli mamlakatlar valyutalari va pullarining oltinga nisbatan qiymati yoki muayyan tovarlar va xizmatlar to'plami bo'yicha xarid kuchi (qobiliyati) nisbatlari.

PARITET PRINSIPI Tomonlar vakillarining tenglik.

PARITET SUDLARI Qator mamlakatlarda davlatning mehnat nizolari va shunga o'xshash masalalarni hal etish uchun ta'sis etilgan maslahatlashuv organlari.

PARLAMENT [fr. parlement – rasmiy so'zlashish joyi < parler – gapirmoq, so'zlashmoq] Demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

PARLAMENT ASSAMBLEYASI Demokratik mamlakatlarning xalqaro tashkilotlarida ayrim rahbarlik organi.

PARLAMENT DAXLSIZLIGI HUQUQI Parlament deputatlari daxlsizligi, ba'zida esa boshqa hokimiyat vakillik organlarining ham daxlsizligi: deputatni barcha harakatlari uchun, shu jumladan, ularni parlament majburiyatlarini bajarmaganligi harakatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoki qamoqqa olishning man etilishi.

PARLAMENT DELEGATSIYASI Parlament tomonidan belgilangan, yuborilgan vakillik guruhi.

PARLAMENT FRAKSIYASI Parlamentdagi deputatlar birlashmalarining turlaridan biri.

PARLAMENT GURUHI Parlament deputatlari tuzadigan birlashmalarining umumiy nomi.

PARLAMENT HUQUQI Parlament reglamenti va b. parlament a'zolarining faoliyatini belgilovchi me'yorlar yig'indisi.

PARLAMENT IMMUNITETI Parlament deputatlarining daxlsizligi va javobgarlikka tortilmasligi.

PARLAMENT INDEMNITETI [ingl. indemnity < lot. indemnitus – zarar yetkazmasdan] **1** O'z parlament faoliyatini baja-

rishi uchun deputatga turli imtyozlarning berilishi, mas., uning deputatlik majburiyatini bajarishda (parlamentdagi chiqishlarda, ovoz berishda, komissiya ishlarida ishtirok etishda) uni ta'qib qilishni taqiqlash, deputatlik daxlsizligini ta'minlash va h. k. **2** Deputatga o'z parlament faoliyatini bajarishi uchun turli moddiy imtiyozlarning berilishi (mas., yashash joyi, yozishmalari, safarlari xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan to'lovlar).

PARLAMENT KOALITSIYASI Parlamentda boshqa partiya, harakatlarga qaraganda ko'proq deputatlik o'rnini olgan partiyaning koalitsion hukumat tuzish va parlamentni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida boshqa biron-bir partiya, harakat bilan birlashuvi.

PARLAMENT KOMISSIYALARI Parlament tomonidan tuziladigan yordamchi organlar.

PARLAMENT NAZORATI Davlat nazoratining bir ko'rinishi, asosan, siyosiy maqsadni ko'zlab amalga oshirilishi.

PARLAMENT PALATASI Parlamentning tarkibiy bo'linmasi. Palatalar o'rtasidagi munosabatlarning tenghuquqlilik va deputatlar sonining tengligi prinsipi asosida yoki yuqori va quyi palatalar prinsipi asosida qurilishi.

PARLAMENT QARORI Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar yuzasidan oliy qonun chiqaruvchi organlar – parlamentlar chiqaradigan me'yoriy-huquqiy hujjat.

PARLAMENT SESSIYASI Parlament va uning hay'atining plenar (umumiy, yalpi) majlislari bo'lib o'tadigan vaqt.

PARLAMENT SO'ROVI Parlamentar davlatlarda hukumat faoliyati ustidan parlament nazorati shakllaridan biri.

PARLAMENT TIZIMI Jamiyatning siyosiy tuzilishi va jamiyat a'zolarini davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishining qabul qilingan hamda e'tirof etilgan qoidasi.

PARLAMENT CHAQIRIG'I Hokimiyatning, muayyan vakillik organining vakolatlari muddati.

PARLAMENTAR RESPUBLIKA Boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan davlat turi: unda parlament hokimiyatga to'liq ega bo'ladi, prezidentni saylaydi; prezident esa faqat davlat boshlig'i bo'lib, ijro hokimiyatining boshlig'i hisoblanmaydi.

PARLAMENTARIZM siyos. Konstitutsiyaga binoan, davlat organlari tizimidagi rahbarlik roli parlamentga taalluqli bo'lgan davlat hokimiyati tuzumi.

PARLAMENTGACHA REFERENDUM Hali tasdiqlanmagan hujjatlarning parlament tomonidan saylovchilar umumxalq ovoz berishiga qo'yilishi.

PARLAMENTLARARO ITTIFOQ Milliy parlament guruhlarini birlashtiruvchi xalqaro tashkilot.

PARLAMENTSIZ REFERENDUM Saylovchilarning muayyan masala yoki qonun loyihasi bo'yicha parlament tadbirlari o'rniga, uni chetlab ovoz berishi.

PARLAMENTYOR [fr. parlementaire < parler – gapirmoq, so'zlamoc] O'zaro urushayotgan tomonlardan birining boshqa (dushman) tomon bilan

muzokara olib borish uchun yuborgan vakili; elchi.

PARLAMENTCHILIK Parlamentga asoslanganlik, parlamentarizm.

PARTIYA [*fr.* parti < *lot.* pars, partis – bo'lak, qism; guruh] G'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

PARTIYA BILETI Partiya a'zosining partiyaga a'zoligi haqidagi guvohnomasi.

PARTIYA TIZIMI Jamiyatning siyosiy tuzilishi va jamiyat a'zolarining davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishining qabul qilingan va e'tirof etilgan qoidasi.

PARTIYA YACHEYKASI Partiyaning quyi boshlang'ich tashkiloti.

PARTIYAVIY Ma'lum partiya, guruhning mafkurasiga, manfaatlariga mos bo'lgan; ma'lum partiya tamoyillarini amalga oshiradigan.

PARTIYAVIY DASTUR Ma'lum partiyaning yo'l-yo'rig'i, uni amalga oshirishning tartibi, qonun-qoidasi.

PARTIYAVIY FRAKSIYA Ma'lum bir partiyadagi deputatlar guruhi.

PARTIYAVIY HUJJAT Ma'lum bir partiyaning huquqini yuridik jihatdan tasdiqlovchi hujjat.

PARTIYAVIY QONUN Ma'lum partiyaning jamiyatdagi xatti-harakatini belgilab beruvchi yo'l-yo'riq, qoidalar yig'indisi.

PARTIZAN [*fr.* partisan < *ital.* partigiano – tarafdor, ixlosmand] *tar.* Dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun qurolli kurash olib borgan ko'ngilli xalq armiyasining a'zosi.

PARVARDIGOR [*fors.* – yaratuvchi, xalloq; rizq beruvchi; xudo] Borliqni yaratuvchi; olloh, xudo.

PARVONACHI *tar.* Xonliklar davrida: hukmdor farmoni va buyruqlarini bituvchi kotib; oliy darajadagi saroy mansabdorlaridan biri.

PASPORT [*fr.* passeport < *ital.* passaporto – portga kirish yoki u orqali o'tish uchun ruxsatnoma] Biror davlat fuqarosi ekanligini va egasining shaxsini ko'rsatuvchi va tasdiqlovchi asosiy rasmiy hujjat.

PASPORT TIZIMI Aholini hisobga olish va uning ko'chib yurishini tartibga solish qoidalari majmui.

PASSEIZM [*fr.* passéisme < *passe* – o'tmish] O'tmishni qo'msash va hozirgi kunga, taraqqiyotga befarq yoki dushmanlik bilan qarash.

PASSIV SAYLOV HUQUQI Fuqarolarning vakolatli organ deputatligiga yoki saylab qo'yiladigan davlat lavozimiga yoxud mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimidagi lavozimga saylanish huquqi.

PATENT [*lot.* patens, patentis – aniq, ochiq] **1** Davlat organlari tomonidan ixtiro muallifiga beriladigan, uning muallifligini tasdiqlovchi guvohnoma. **2** Ayrim davlatlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

PATENT LITSENZIYA Patent berishga rasmiylashtirilgan ruxsat, shuningdek, ruxsatni tasdiqlovchi hujjat.

PATRIARX [yun. patriarches – urug' boshlig'i < pater, patros – ota + archo – boshqaraman] Pravoslav cherkovida: eng oliy huquqqa ega bo'lgan ruhoniyy va uning unvoni; pravoslav cherkovi boshlig'i.

PATRIARXAT [yun. rater, patros – ota + arche – hokimiyat] tar. Ibtidoiy tuzumning patriarxatdan keyingi, oilada, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronlik qilgan davri, otalik davri.

PATRONAJ [fr. patronage – homiylilik < lot. patronatus – homiy] Tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, voyaga yetmagan bolalarning maqbul oilaga tarbiyaga berilishi.

PATRUL [fr. patrouille – qo'riqchi, qorovul] Muayyan hududning xavfsizligini ta'minlash va tartib saqlash uchun qo'yilgan qurolli kishilar yoki harbiy samolyot, kema kabilar guruhi.

PATSIFIZM [lot. pacificus – kelishtiruvchi, tinchlantiruvchi] Har qanday urushga qarshi bo'lgan va yer yuzida tinchlik bo'lishini yoqlovchi dunyoqarash, oqim.

PATSIFIKATSIYA [lot. pacificatio – tinchlantirish; tinchlikni saqlash] Qo'zg'olon, xalq noroziligi (g'alayoni), milliy-ozodlik harakatlarini kuch ishlatish yo'li bilan bostirish.

PAY Muayyan shirkat, aksiyadorlar jamiyati ishida qatnashish uchun qo'shiladigan ulush, hissa.

PAY ULUSH Sherikchilik asosida qo'lga kiritilgan ulush.

PAYG'AMBAR [fors. – xabar beruvchi, oldindan xabar keltiruvchi] Ollohning xohish-irodasini bandalariga yetkazuvchi ilohiy vakil, nabi, rasul.

PAYCHI Sheriklik asosidagi ish uchun pay qo'shgan kishi; hissador.

PAYCHILIK Sherikchilik asosida ish yuritish.

PEDAGOG [yun. paidagogos – tarbiyachi] Pedagogika mutaxassisi, bolalar va yoshlarni tarbiyalash hamda o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, o'qituvchi.

PEDAGOGIKA [yun. paidagogike < pais, paidos – bola + ago – olib boraman, tarbiyalayman] Inson ta'lim va tarbiyasi to'g'risidagi fan; tarbiya mohiyati, maqsadlari, vazifalari va qonuniyatlarini, uning jamiyat hayoti va shaxs taraqqiyotidagi rolini, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmui.

PEDANTIZM [fr. pedantisme < ital. pedante – pedagog, o'qituvchi] Rasmiyatchilikka, amaldagi tartib va qoidalariga yopishib olish, o'taketgan sinchkovlik, rasmiyatchilik.

PENOLOGIYA [lot. poena – jazo, jazolash + yun. logos – fan, ta'limot] Jazoni ijro etish to'g'risidagi ta'limot.

PENSIONER [fr. pensionnaire < lot. pensio, pensionis – to'lov] Pensiya oluvchi kishi.

PENSIYA [lot. pensio – to'lov; to'lov muddati] Fuqarolarga qariganida, mehnat qobiliyatini yo'qotganida, uzoq yillar xizmat qilgan hamda boquvchisidan judo bo'lgan kishilarni moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida ularga davlat tomonidan doimiy berib boriladigan pul; nafaqa.

PENSIYA JAMG'ARMASI Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar, ajratmalar va to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash, aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan, byudjetdan tashqari jamg'arma; yuridik shaxs.

PENSIYA YOSHI Pensiya to'lash uchun davlat tomonidan belgilangan yosh.

PERIFERIYA [yun. periphēria – tavarak-atrof] Markaziy tashkilotlardan farqli o'laroq mahalliy tashkilot.

PERSONA GRATA [lot. persona grata – matlub shaxs] huq., siyos. Biror davlatga diplomatik vakil sifatidagi nomzodi shu davlat hukumati tomonidan ma'qullangan shaxs.

PERSONA NON GRATA [lot. persona non grata – nomatlub shaxs] huq., siyos. Biror davlatga diplomatik vakil etib tayinlanishiga o'sha davlat hukumati tomonidan rozilik berilmagan shaxs, shuningdek, muayyan mamlakat hukumati tomonidan kelishi nomatlub deb topilgan diplomatik vakil.

PESSIMIZM [fr. pessimisme < lot. pessimus – eng yomon] Ruhiiy tushkunlik: kelajakka ishonchsizlik, umidsizlik bilan qarash, har bir narsaning yomon tomonini ko'rishga moyillik.

PETITSIYA [lot. petitio – shikoyat, ariza, iltimos] esk. Oliy davlat organiga yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda berilgan rasmiy yozma ariza, iltimosnoma.

PETITSIYA HUQUQI Fuqarolarning davlat boshliqlariga yoki idoralarga u yoki bu ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yuzasidan yozma ravishda qilinadigan murojaatlarining konstitutsiyaviy kafolati.

PETITSIYAVIY REFERENDUM Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga oid qonun qabul qilishda muayyan davlatning bir guruh yoki bir qism aholisi tomonidan petitsiyani yoqlab, biror qonun qabul qilishning talab qilinishi.

PESHKASH [fors. – kichiklarning kattalarga sovg'asi, hadyasi] O'rta asrlarda o'zbek xonliklarida va Sharqning ayrim mamlakatlarida mahalliy hokimlar tomonidan hukmdorlar – xonlar, sultonlar va oliy darajali davlat mansabdorlariga aholidan to'plab berilgan sovg'a.

PESHLAVHA [fors.+a. – old tomonga osiladigan lavha] Korxonalar, idora, muassasa, o'quv yurti kabilar haqida qisqa, ixcham, aniq ma'lumot yozilgan va yuqoridagilarning kiraverishida ko'rinarli joyga o'rnatiladigan maxsus taxta.

PISTIRMA 1 To'satdan hujum qilish uchun foydalaniladigan yashirin quril-

ma, joy. **2** Shunday maqsad uchun belgilangan kishi yoki kishilar guruhi; harbiy bo'linma.

PLAKAT [*nem.* Plakat < *fr.* placard – e'lon, afisha < *lot.* plaquer – yopishtirmoq] Targ'ibot, tashviqot, axborot yoki reklama maqsadlarida ko'chalarga, jamoat muassasalariga osib qo'yiladigan qisqa matnli rasm, tasvir.

PLASDARM [*fr.* place d'armes – qo'shinlar to'planadigan maydon] Muayyan davlatning boshqa bir davlatga hujum qilishga tayyorgarlik chog'ida qo'shinlar va jangovar texnikani to'plash, harbiy harakatlarni kengaytirish uchun baza, urush maydoni sifatida foydalaniladigan hudud.

PLASTIK KARTOCHKA Bank tomonidan o'z omonatchilariga ularning shaxsiy hisobida saqlanayotgan mablag'laridan naqd pul to'lamasdan tovarlar va xizmatlar sotib olishi uchun beriladigan hujjat-guvohnoma

PLATFORMA [*fr.* plate-forme – tekis, yassi, shakl; maydoncha] **1** siyos. Muayyan siyosiy partiya, ijtimoiy tashkilot yoki arbobning dunyoqarashi, maslagi, tutgan yo'li, ish, harakat dasturi. **2** Biror partiya, guruh, jamoat tashkiloti tomonidan oldinga surilgan siyosiy vazifalar va talablar majmui, tizimi.

PLATONIZM [*fr.* platonisme < *yun.* Platon – yunon faylasufi Platon nomidan] **1** Antik falsafada I asrdan III asrga qadar hukm surgan yo'nalish. **2** Platon ta'limotiga asoslangan har qanday falsafiy yo'nalish.

PLEBEYLAR [*lot.* plebeili, plebs – oddiy xalq] Qadimgi Rimda: dastlabki urug' jamoasiga kirmagan va jamoa yeridan foydalanishga haqi bo'lmagan ozod aholi.

PLEBISSIT [*lot.* plebiscitum < plebis – oddiy xalq + scitum – qaror] Muayyan muhim masalani hal qilish uchun umumxalq ovozigiga qo'yish; umumxalq muhokamasi; referendum.

PLEBISSIT DEMOKRATIYA Jamiyat va davlatda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini avval muhokamadan o'tkazib, so'ng xalq ovozigiga qo'yib hal etishdan iborat demokratiya.

PLENAR [*lot.* plenarius – to'liq, hammasi] Biror tashkilotning saylab qo'yilgan barcha a'zolari, ilmiy sessiya va sh.k.larning barcha ishtirokchilari qatnashgan; yalpi, umumiy.

PLENUM [*lot.* plenum – to'liq, to'lato'kis narsa] Biror partiya, jamoat, davlat tashkilotining saylab qo'yilgan rahbar organi a'zolari ishtirokidagi yalpi majlisi yoki plenar kengashi.

PLEYADA [*yun.* Pleias, Pleiados – Yunonistonning 7 ta tragik shoirlaridan iborat guruhning nomi] Ma'lum bir davrda yoki vaqtda biror sohada qarashlarining, vazifalarining, g'oyaviy yo'nalishlarining birligi bilan bog'langan atoqli arboblar guruhi.

PLUTOKRAT O'zining g'oyat boyligi tufayli obro' qozongan va siyosiy hokimiyatdan foydalanuvchi odam.

PLUTOKRATIYA [*yun.* plutokratia < plutos – boyluk + kratos – kuch-qudrat,

hokimiyat] Hokimiyat rasman va bata-mom jamiyatning eng boy, mulkdor tabaqa vakillari – plutokratlar qo'lida bo'lgan davlat tuzumi; boylar hukmronligi.

PLYURAL VOTUM [ingl. plural vote] Konstitutsiyaviy huquqda: bitta saylovchiga bir necha marta ovoz berish huquqining berilishi.

PLYURALISTIK DEMOKRATIYA NAZARIYASI Insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzoq o'tmishidan to hozirga qadar uzluksiz ravishda takomillashib va rivojlanib kelayotgan ma'naviy-axloqiy va siyosiy-huquqiy qarashlar majmui.

PLYURALIZM [lot. pluralis – ko'p uchraydigan, ko'p miqdordagi] **1** Siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli xil shakllarining bir vaqtda birga yashashi, mavjud bo'lishi – huquqiy jamiyat tuzilishining asosiy tamoyili. **2** G'oyalar, qarashlar, manfaatlar va sh.k.ning tanlash erkinligiga imkon beruvchi xilmaxilligi, ko'pligi.

PODPOLKOVNIK [rus. под – ostida, quyida + полковник] *harb.* Bir qator davlatlar qurolli kuchlarida mayordan yuqori, polkovnikdan past zobitlik unvoni, shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

PODSHOH [fors. – ulug', buyuk hukmdor] Yaqin va O'rta Sharqdagi Ba'zi mamlakatlar hukmdorlari; mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni.

POLEMIKA [fr. polemique < yun. polemikos – jangari, dushmanona, dushmanlik < polemos – urush] Biror masala yuzasidan bo'lgan tortishuv, munozara; biror masalada fikrlar to'qnashuvi.

POLIGENIZM [yun. poly – ko'p + genos – kelib chiqish; irq] Antropologiyadagi insoniyat irq-lari go'yo mustaqil vujudga kelgan, har xil tur yoki urug'lardan kelib chiqqan degan g'ayriilmiy nazariya.

POLIGON [yun. polygonos – ko'p burchakli < poly – ko'p + gonia – burchak] *harb.* Quruqlik yoki dengizning maxsus inshootlar, qurilmalar bilan jihozlangan va har xil qurollar va jangovar texnikani sinab ko'rish, shuningdek, harbiy mashqlar o'tkazish uchun mo'ljallangan qismi.

POLIKLINIKA [nem. Poliklinik < yun. polis – shahar + klinike – davolash < kline – o'rin-ko'rpa] Qatnab davolanadigan, shuningdek, uyda yotgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatadigan davolash-profilaktika muassasasi.

POLITEIZM [yun. poly – ko'p + theos – xudo] Bir yo'la bir necha xudoni e'tirof etuvchi din yoki diniy e'tiqod; ko'pxudolilik.

POLITOLOGIYA [yun. politike (techné) – davlatni boshqarish san'ati + logos – fan, ta'limot] Davlatni boshqarish san'ati to'g'risidagi fan; siyosat, siyosiy munosabatlar to'g'risidagi ta'limot.

POLITSENTRIZM [yun. poly – ko'p + lot. centrum – to'planish, markaz] Hozirgi zamon odami Homo sapiens va uning irq-lari paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariya.

POLITSIYA [nem. Polizei < yun. politeia – davlatni boshqarish; ma'muriyat] **1** Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tuzilgan maxsus organlar tizimi. **2** Ayrim

mamlakatlarda: mavjud ijtimoiy va davlat tuzumini himoya qiluvchi, jamoat tartibini saqlovchi, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashuvchi ma'muriy organlar tizimi.

POLKOVNIK [pol. polkownik] *harb.* Bir qator davlatlarda podpolkovnikdan yuqori bo'lgan harbiy zobitlik unvoni va shunday unvonga ega bo'lgan kishi.

POLYARIZATSIYA [fr. polarisation < lot. polaris – qutbga oid] Tarixiy jarayon borayotganda antagonistik sinflar va ijtimoiy kuchlarning ajralib ketishi.

POMESHCHIK [rus. помещик < поместье – xizmatkorlar uchun berilgan chek yer] *tar.* Chor Rossiyasida, shuningdek, yer xususiy mulk bo'lgan mamlakatlarda katta yer egasi.

PONSAD [fors. – besh yuz] *tar.* Xonliklar davrida: askar boshliqlari unvonlaridan biri: 500 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan shaxs.

POPULIZM [fr. populisme – xalqchilik < lot. populus – xalq] *siyos.* Keng xalq ommasini turli moddiy boyliklarga erishish, barcha ijtimoiy muammolarni tez orada hal qilish haqida quruq va'dalar berib, o'z tomoniga ag'darib olish siyosati.

POPULYATSIYA [fr. population – aholi < lot. populus – xalq, aholi] Uzoq muddat muayyan joyni egallab yashaydigan va bir qancha avlodlar osha aslidagiday tiklanib turadigan, bir turga mansub zot (organizm)lar yig'indisi.

PORA [fors. – mayda pul, chaqa; xayr-sadaqa; rishva, pora] Ma'lum ishni noqonuniy tarzda bitirib bergani uchun

mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa yoki pul.

PORA BERISH Manfaatdor shaxsning ishni o'z foydasiga hal qilishini ko'zlab mansabdor shaxsga pul, buyum va b. narsalar berishi.

PORA OLISH Mansabdor shaxsning o'z xizmat mansabidan foydalanib, qilishi lozim yoki mumkin bo'lgan biron-bir harakatni pora beruvchi shaxs manfaatini ko'zlab bajarganligi yoki bajarmagani uchun shaxslardan o'zi yoki vositachilar orqali pul olishi.

PORAXO'RLIK Pora olish, pora berish, bu ishda vositachilik qilish kabi mansabdorlik jinoyatlari.

PORNOGRAFIYA [fr. pornographie < Yun. pornos – buzuq, axloqsiz + grapho – yozaman] Badiiy adabiyotda, san'at turlarida jinsiy hayotni qo'pol, yalang'och holda, behayolarcha tasvirlash, namoyish qilish.

PORTAL [nem. Portal < lot. porta – eshik, darvoza] **1** U yoki bu mavzu bo'yicha internetda doimo to'ldirilib, yangilanib boruvchi, to'liq ma'lumotlarni qamrab oluvchi universal tisdagi axborot sahifasi. **2** *ayn.* **xalq qabulxonasi.**

PORTFELSIZ VAZIR Vazirlik yoki ijro hokimiyatining boshqa markaziy organiga rahbarlik qilmaydigan, lekin hukumat majlislarida ovoz berish vakolatiga ega bo'lgan, bosh vazirning maxsus topshiriqlarini bajaradigan hukumat a'zosi.

PORTO-FRANKO O'z doirasida boj to'lamay, tovar olib kirish va chiqarish huquqiga ega bo'lgan port.

POSBON [*fors.* – qorovul, qo'riqchi] Muayyan kimsa yoki narsaning xavfsizligini, daxlsizligini ta'minlash uchun postda turgan kishi; qo'riqchi, soqchi, qorovul.

POST [*fr.* poste – muayyan joyga qo'yilgan] **1** Qo'riqlash va mudofaa qilish uchun soqchiga topshirilgan obyekt. **2** Maxsus topshiriqlarni bajaruvchi jangchi yoki kichik harbiy bo'linma. **3** Mas'uliyatli lavozim, o'rin.

POSTINDUSTRIAL JAMIYAT Ijtimoiy falsafa va ijtimoiy fanlar doirasida tarixiy jarayonga sivilizatsion yondashuvga hamda sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichiga asoslangan jamiyat.

POSTPOZITIVIZM [*lot.* post – keyin + positivis – ijobiy] XX asrning 50 – 70-yillarida neopozitivizm g'oyalari tanqid qilish jarayonida yuzaga kelgan, G'arb falsafasining qator konsepsiyalarini ifodalovchi termin.

POSTULAT [*lot.* postulatium – talab; talab qilingan] Biror ilmiy nazariyada isbotsiz qabul qilinadigan, lekin uning vositalari bilan isbotlab bo'lmaydigan hukm.

POTENSIAL [*lot.* potentia – kuch, quvvat; salohiyat] Biror vazifani hal qilish va ko'zlagan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, zaxiralar; ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyati.

POTENSIAL XAVF-XATAR Tinchlikka xavf-xatar soluvchi holat; imkoniyat.

POTENSIYA [*lot.* potentia – salohiyat] Yashirin, biron muayyan sharoitlar-

da yetarli kuch bilan yuzaga chiquvchi va foydalanish mumkin bo'lgan qobiliyat, imkoniyat.

POTSDAM BITIMI Rossiya bilan Germaniya o'rtasida Eron davlati va Bag'dod temir yo'li masalalari yuzasidan tuzilgan bitim.

POTSDAM DEKLARATSIYASI Buyuk Britaniya, AQSH va Xitoy hukumatlari nomidan 1945-yil 26-iyunda Potsdamda e'lon qilingan deklaratsiya.

POYTAXT [*fors.* – taxtning quyi, etak qismi, asosi] Davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy va madaniy markazi.

POZITIV HUQUQ Tarixan inson tabiatiga xos ravishda barcha xalqlar uchun birdek huquqiy holatni yechib beruvchi, kundalik huquq maktabi asosida shakllangan tushuncha.

POZITIVIZM [*fr.* positivisme < *lat.* positivus – ijobiy] Haqiqiy bilim manbai faktlarni tavsiflash va sistemalashtirish bilangina cheklanuvchi maxsus fanlardir deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.

POZITSIYA [*lot.* positio – holat, vaziyat] **1** Biron-bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtayi nazar; voqea-hodisaning muayyan bahosi. **2** *harb.* Qo'shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan yoki joylashish va jang olib borish uchun oldindan belgilangan yer.

POCHTA ALOQASI Xat, davriy nashrlar, jo'natma, pul va sh.k.larni qabul qilib olib, tayinlangan kishiga yoki joyga transport vositalari yordamida jo'natadigan muassasalar tizimi.

PRAGMATIZM [yun. pragma, pragmatos – ish, amal] XIX asrning 70-yillarida AQSHda keng tarqalgan falsafiy ta'limot: bilish obyektlari ongdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, balki amaliy masalalarni hal qilish jarayonidagi bilish harakatlari orqali shakllanadi, amaliyotda insonga nima ko'proq foyda bersa, o'shanga ko'proq ahamiyat berish zarur, degan g'oyani ilgari suruvchi oqim.

PRAVOSLAVIYE [rus. православие – to'g'rilikka e'tiqod] Xristian dinining asosiy oqimlaridan biri: XI asrda Vizantiyada shakllangan sharqiy xristianlik.

PREAMBULA [fr. preambule – kirish, so'zboshi < lot. preambulus – oldingi, oldinda boruvchi] Qonun yoki huquqqa oid boshqa hujjatlarning kirish qismi bo'lib, unda tegishli hujjatning e'lon qilinishiga sabab bo'lgan holat, shart-sharoit ko'rsatiladi.

PREFERENSIYA [lot. praeferre – afzal ko'rmoq, imtiyoz bermoq] Muayyan faoliyat turini qo'llab-quvvatlash uchun ayrim davlatlar, korxonalar, tashkilotlarga beriladigan afzallik, imtiyozlar.

PREMYER-MINISTR [fr. premier ministre – birinchi, bosh vazir] Bosh vazir, hukumat boshlig'i, Vazirlar Mahkamasini kengashi raisi.

PREROGATIVA [lot. praerogativus – birinchi navbatda so'ralgan, birinchi bo'lib ovoz beruvchi] Davlat organi yoki mansabdor shaxsgagina taalluqli bo'lgan huquq.

PRESSA [fr. presse – matbuot] Om-maviy davriy matbuot (gazeta va jurnallar).

PRESS-ATTASHE [fr. press-attashe] Diplomatik vakillik tarkibida matbuot masalalari bilan shug'ullanuvchi attashe, vakil.

PRESS-BYURO [ing. press-bureau] Qurultoy, konferensiya, kengash, xalqaro muzokara va sh.k.lar vaqtida matbuotga material, xabar berib turish uchun tuzilgan muharrirlar va muxbirlar hay'ati.

PRESS-KONFERENSIYA [fr. press-conference] Davlat, ilm-fan, madaniyat va b. soha arboblarning keng ommani qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha vaqtli matbuot xodimlari bilan uchrashuvi, suhbat.

PRESS-SEKRETAR [ingl. presse-secretary] Prezident yoki bosh vazirning matbuot bo'yicha kotibi.

PREVENTIV CHORALAR Tinchlikka xavf tug'ilganda yoki boshqa davlatlarga bostirib kirish holatlarining oldini olish maqsadida, BMT Ustaviga asosan, davlatlar hamkorligida qo'llanadigan chora-tadbirlar.

PREZENTATSIYA [lot. praesentatio – taqdim etish, ko'rsatish] Biror yangi, yaqinda paydo bo'lgan, yaratilgan, tuzilgan muayyan narsaning jamoatchilikka rasmiy taqdim etilishi.

PREZIDENT [lot. praesidens, praesidentis – oldinda o'tiruvchi] **1** Respublika boshqaruvi shaklidagi mamlakatlarda xalq tomonidan ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. **2** Ayrim

ilmiy muassasa yoki jamiyatlarning ma'lum muddatga saylab qo'yilgan boshlig'i, rahbari. **3** Firma, bank, kompaniya va sh.k.lardagi yuqori mansabdor shaxs.

PREZIDENT ADMINISTRATSIYA-SI O'zbekistonda Prezidentning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan hokimiyat idorasi.

PREZIDENT SIYOSATI Davlat rahbarining, davlat hokimiyatining mamlakatni boshqaruvda va xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li.

PREZIDENTLIK 1 Prezident lavozimi, mansabi. **2** Respublika tuzumidagi mamlakatlarning ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan rahbarligi.

PREZIDENTLIK BOSHQARUVI Favqulodda holatlar joriy etilganda, davlat boshqaruvida qo'llanadigan vaqtinchalik boshqaruv shakli.

PREZIDENTLIK HOKIMIYATI Prezident ishlagan davrda davlatni boshqarish huquqi; siyosiy hukmronlik.

PREZIDENTLIK RESPUBLIKASI Respublika boshqaruvi shaklidagi davlat ko'rinishi.

PREZIDENTURA Vakolat muddatida va o'z vazifalarini bajarish jarayonida prezident mansabida xizmat qilish davri.

PREZIDIUM [lot. praesidere – oldinda o'tirmoq, raislik qilmoq] **1** Majlis, kengash va sh.k katta yig'ilishlarga rahbarlik qilish uchun saylangan kishilar guruhi; hay'at. **2** Ba'zi tashkilot, jamiyat yoki ilmiy muassasaning saylab qo'yiladigan rahbarlik organi.

PRINSIP [lot. principium – asos, negiz, boshlanish] Nazariya, ta'limot, dun-

yoqarash va sh.k.larning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida.

PRINSIPIAL [lot. principialis – bosh, asosiy] Prinsipdan kelib chiqadigan, muhim, jiddiy.

PRINSIPIAL MULOHAZALAR Biror masala yuzasidan bildirilgan yoki o'ylab qo'yilgan izchil fikr.

PRINSIPIAL ZIDDIYATLAR Muhokama yuritishda, matnda, nazariyada va umuman predmet, hodisalarda biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi va ular o'rtasidagi munosabatlarga izchil yondashish.

PRINSIPIALLIK 1 Prinsipial holatga xoslik, muhimlik, jiddiylik. **2** Ishda o'z prinsipini izchillik bilan amalga oshirish, bir prinsipda mahkam turish.

PRIVATIZATSIYA [lot. privatus – xususiy, ayrim shaxsga tegishli yoki aloqador] iqt. Davlat yoki mahalliy boshqaruvga tegishli mol-mulkni pulga yoki tekin xususiy mulk qilib berish; xususiy lashtirish.

PROFESSIONAL [lot. profissio – rasmiy belgilangan kasb] Muayyan ishni o'ziga kasb qilib olgan, o'z kasbining mutaxassisi bo'lgan shaxs.

PROFESSIONAL ARMIYA Harbiy xizmat shaxsiy tarkibning asosiy ixtisos va faoliyat turi bo'lgan qurolli kuchlar.

PROFESSIONAL JINOYATCHILIK Jinoiy jazo beriladigan xatti-harakatlarni doimiy mashg'uloti va asosiy tirikchilik manbaiga aylantirib olgan shaxslarning jinoiy faoliyati.

PROFESSIONAL PARLAMENT

Demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

PROFESSIONAL SUD Muayyan davlat qonuni bilan mustahkamlangan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va b. toifadagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishni amalga oshiruvchi davlat organi.

PROFESSIONAL TA'LIM Aniq kasb va ixtisoslik bo'yicha muayyan darajada bilim va ko'nikma egallash jarayoni.

PROFESSIONALIZM [lot. profes-sio - kasb-kor, mutaxassislik] **1** Biror kasb-hunar sohasi vakillari nutqiga xos so'z yoki ibora. **2** Muayyan kasb-hunar, mutaxassislikni yuqori darajada o'zlashtirish; yuksak mahorat.

PROFESSOR [lot. professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy] Oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimga ega bo'lgan shaxs.

PROFILAKTIK FAOLIYAT Vakolatli subyektlar tomonidan jamiyatdagi muayyan salbiy ijtimoiy holat, voqea, hodisa, jarayonni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan harakatlar.

PROFILAKTIK TADBIRLAR Ichki ishlar organlari tomonidan jinoyatlar-ni oldini olish faoliyatida turli huquqbuzarliklar va uning sabab-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish-ga qaratilgan choralar.

PROFILAKTIK USULLAR

Ichki ish-lar organlari tomonidan umumiy va yak-ka tartibda jinoyatlarning oldini olishda qo'llanadigan chora-tadbirlarning yig'in-disi.

PROFILAKTIKA [yun. prophylak-tikos - saqlovchi, oldini oluvchi] Inson sog'ligini saqlash, kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalib ketmasligini oldini olish, aholining jismoniy rivojlanishi-ni yaxshilash va uzoq umr ko'rishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

PROGRAMMA [yun. programma - e'lon; ko'rsatma, yo'l-yo'riq] Hukumat, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti yoki ayrim davlat, jamoat arbobi tomonidan mo'ljallangan asosiy vazifa va maqsad-lar bayon qilingan hujjat.

PROGRESS [lot. progressus - olg'a qa-rab harakatlanish, muvaffaqiyat] Taraqqi-yotga yo'naltirilgan ilgarilanish shakli bo'lib, bunda quyidan yuqoriga, oddiyluk-dan mukammallikka o'tish sodir bo'ladi.

PROKURATURA [lot. procurare - g'amxo'rlik qilmoq] Ayrim mamlakat-larda qonunlarga to'la amal qilinishi va ularning to'g'ri qo'llanishi ustidan nazorat qilib turuvchi va sudda davlat manfaatlari-ni, davlat nomidan tuzilgan aybnomani himoya qiluvchi davlat organi.

PROKUROR [fr. procureur < lot. procurare - g'amxo'rlik qilmoq] **1** Qonun-larga to'la amal qilinishi va ularning to'g'ri qo'llanishi ustidan davlat nazora-ti olib boruvchi mansabdor shaxs. **2** Sud jarayonida: davlat ayblovcisi, qoralovchisi.

PROLETARIAT [lot. proletarius - qadimgi Rimda: yo'qsil, kambag'al, qashshoq kishi] esk. O'tmish davrlarda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmagan, yollanib ishlaydigan kishilar guruhi, sinfi.

PROLETARIAT DIKTATURASI tar. Sotsialistik revolyutsiya natijasida o'rnatilgan ishchilar sinfi hokimiyati.

PROLONGATSIYA [lot. prolongare - uzaytirmoq, cho'zmoq] huq. Xalqaro huquqda: zayom, veksel va xalqaro shartnomalarning amal qilish muddatini uzaytirish.

PROMULGATSIYA [lot. promulgatio - ommaviy e'lon qilish] Vakolatli organ tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan qonunning davlat boshlig'i tomonidan Konstitutsiyada yoki qonunda belgilangan muddatda rasmiy bosma nashr orqali e'lon qilinishi.

PROPAGANDA [lot. propaganda < propagare - yoymoq, tarqatmoq] **1** Ma'lum ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qilish. **2** Mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat.

PROTESTANTIZM [lot. protestans, protestantis - qarshilik bildiruvchi, norozil] Xristianlikdagi uch asosiy yo'nalishdan biri: XVI asrda Rim katoлик cherkoviga norozilik tarzida paydo bo'lgan.

PROTOKOL [yun. protokollon - birinchi varaq < protos - birinchi + kol-

lao - yopishtiraman, yelimlayman] **1** Mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan va muayyan voqea-hodisa yoki holatni tasdiqlovchi hujjat. **2** Xalqaro konferensiyalarning xalqaro shartnoma, bitim kuchiga ega bo'lgan qarori. **3** Jamoat tartibi va qonunchilikni buzganlik to'g'risida tuzilgan dalolatnoma. **4** Turli diplomatik hujjatlarni amalga oshirish tartibini boshqarib turuvchi qoidalar majmui.

PROTSESS [lot. processus - ilgirilash, ilgari siljish] **1** Hodisalarning izchil almashinib turishi, biror narsaning taraqqiyot holati, jarayoni. **2** Muayyan natijaga erishish uchun izchillik bilan bajariladigan harakatlar majmui. **3** Sud ishi; tergov, ma'muriy va sud organlari faoliyatini amalga oshirish tartibi.

PROTSESSUAL [lot. processus] Sud yoki ma'muriy jarayonlarga oid: sud jarayoni bilan bog'liq bo'lgan; sudda ishning ko'rilish tartibini belgilovchi.

PROTSESSUAL HUQUQ Odil sudlovni, shuningdek, tergov va ma'muriy organlar tomonidan ishlarni olib borish tartibini belgilovchi huquqiy tizim me'yorlari.

PROTSESSUAL KAFOLATLAR Sudlovni lozim darajada amalga oshirish, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik protsessida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha sudlov vazifalarini amalga oshirish uchun qonunda belgilangan huquqiy vositalar tizimi.

PROTSESSUAL KODEKS Jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini sudda

ko'rish va hal qilishni tartibga soluvchi, tizimlashtirilgan yagona qonun hujjati.

PROTSESSUAL MUDDAT Jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini sudga ko'rish va hal qilish uchun qonunda belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddat.

PROVAYDER [ingl. provider] O'z mijozlariga internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha turli xizmatlar ko'rsatuvchi firma, vositachi tashkilot.

PROVIDENSIALIZM [lot. providentia – xudoning irodasi] Tarixiy voqea-hodisalar o'z ichki qonuniyatlari asosida emas, balki xudoning irodasi bilan amalga oshadi, deb talqin qilish.

PROVOKATOR [lot. provocator – bir ish-harakatga, jangga chorlovchi] **1** Provokatsiya yo'li bilan ish ko'ruvchi; ig'vogar, fitnachi. **2** Provokatsiya uyushtirish maqsadida ayrim tashkilotga suqulib kirib olgan ayg'oqchi; sotqin.

PROVOKATSIYA [lot. provocatio – chaqiriq; shikoyat arizasi, shikoyat huquqi] **1** Qasddan uyushtirilgan va og'ir oqibatlariga olib keladigan xoinona ish yoki xatti-harakat. **2** Harbiy to'qnashuv, mojaro keltirib chiqarish maqsadida qilingan tajovuzkorlik xatti-harakati.

PSIXOLOGIYA [yun. psyche – jon, ruh + logos – fan, ta'limot] Inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakatida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarni o'rganuvchi fan.

PSIXOLOGIZM ["psixologiya" so'zidan] XX asr oxirlarida G'arb sotsiologiyasida vujudga kelgan oqim.

PSIXOTROP [yun. psyche – ruh + tropos – burilish, burish, yo'naltirish]: **psixotrop vositalar** Insonning ruhiy holatiga, umuman, psixik jarayonlarga kuchli ta'sir etuvchi dori moddalar.

PUBLITSIST Dolzarb, munozarali ijtimoiy-siyosiy mavzularda asar yozuvchi adib.

PUBLITSISTIKA [lot. publicus – jamiyatga, jamoatchilikka oid, ijtimoiy] **1** Davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda jamiyatning kundalik hayotiga bag'ishlangan adabiyot turi. **2** Shu janrga xos asar yoki asarlar majmui.

PUDRAT [rus. подрядить (vaqtinchalik ishga yubormoq) fe'lidan] Bir tomon ikkinchi tomon buyurtmasi asosida ma'lum bir ishni batamom (to'lig'icha) bajarib berish majburiyatini olganligi haqidagi shartnoma.

PUDRAT SHARTNOMASI Bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurmachi) ning topshirig'iga binoan ma'lum ishni bajarishi.

PUDRATCHI [rus. подрядчик] Pudrat asosida ishlaydigan shaxs yoki tashkilot.

PUL [fors. – pul, aqcha] **1** Sarmoya, mablag'. **2** Hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar; metall yoki qog'oz belgi ko'rinishidagi baho, qiymat o'lchovi. **3** Ish haqi; maosh.

PUL AYLANISHI Pulning muomalada bo'lishi.

PUL BIRLIGI Milliy qonunchilik tomonidan belgilanadigan tovar qiymati o'lchovi, tovar narxini aks ettiruvchi birlik.

PUL BOZORI Moliya bozorining asosan qisqa muddatli kredit operatsiyalari amalga oshiriladigan qismi.

PUL EMISSIYASI [fr. emission < lot. emissio - (pul) chiqarish] Davlat tomonidan muomalaga barcha turdagi pul belgilarini ko'plab chiqarish.

PUL ISLOHOTI Milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan mamlakat pul tizimini to'liq yoki qisman qayta tashkil etish.

PUL KAPITALI Pul shaklidagi, pul mablag'i ko'rinishidagi kapital.

PUL-KREDIT INQIROZI Pul-kredit tizimida muvozanatning davriy takrorlanib turadigan buzilishi.

PUL-KREDIT SIYOSATI Hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari.

PUL MUOMALASI Pulning bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar, sotib

olingan tovarlar haqini to'lash, hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish, nafaqa berish, qarzlarni qaytarish kabi jarayonlardagi uzluksiz harakati.


PUL NULLIFIKATSIYASI [lot. nullificatio - yo'q qilish, yo'qotish] O'z xarid quvvatini yo'qotgan, qadrsizlangan qog'oz pullarning davlat tomonidan bekor qilinishi.

PULLI SHARTNOMA Ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi turli huquqiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida pul talabnomasi asosidagi o'zaro kelishuv.

PULNING QADRSIZLANISHI Qog'oz pullarning muomalaga g'oyat darajada ortiq chiqarilishi tufayli ko'payib ketishi.

PULNING XARID QUVVATI Pul birligining muayyan miqdordagi tovar bilan ayirboshlash qobiliyati.

PURIZM [fr. purisme < lot. purus - sof, toza] **1** Adabiy tilni boshqa tillardan olingan o'zlashmalar, neologizmlardan tozalash hamda adabiy tilga me'yorlanmagan leksik va grammatik unsurlarning tabiiy ravishda kirib kelishidan saqlashga intilish. **2** Urf-odatlarining sofliги va jiddiyligiga intilish.



Q

QABILA [*a.* – avlod, nasl; urug']
1 Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi etnik birlik, ijtimoiy uyushma tipi. 2 Nasl-nasab jihatidan bir xil bo'lgan kishilar toifasi, guruhi.

QABILALAR ITTIFOQI Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirila boshlayotgan davrdagi ijtimoiy uyushma shakli.

QABILACHILIK Kishilar qabila-qabila bo'lib yashagan jamiyat; kishilarning qabilalarga bo'linib yashashiga asoslangan ijtimoiy tuzum.

QABRISTON [*a.+fors.* – qabrlar, go'rlar makoni; mozor, go'riston] Marhumlar dafn etiladigan maxsus joy.

QABULXONA [*a.+fors.*] Rasmiy idoralarda ish bilan keluvchilar navbat kutib o'tiradigan yoki qabul qilinadigan xona.

QADAMJOY [*a.* – (avliyolar) qadami tekkan joy] *din.* Ziyorat qilish, sig'inish uchun boriladigan, mo'jizali, muqaddas deb sanaluvchi joy; ziyoratgoh.

QADRIYAT [*a.* – qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi] Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun

qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, moddiy va ma'naviy boyliklar va b.

QAHRAMONLIK Qahramonlarga xos ish, harakat; mardlik, botirlik.

QALANDAR [*a.* – dunyo tashvishlaridan kechib, daydib yuruvchi darvesh]

1 Diniy g'azallar o'qib, musulmon dinini targ'ib qiluvchi darbadar, tarkidunyo qilgan, go'shanishinlikka berilgan so'fiy.

2 Dunyodan voz kechgan, tarkidunyo qilgan kishi; zohid

QALBAKI BITIM Taraflarning kelishuvi bo'yicha yuridik oqibatlar tug'dirish niyati bo'lmagan holda nomigagina tuzilgan bitim.

QALBAKI HUJJAT Soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq berilgan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatni qalbakilash-tirishi.

QALBAKI IMZO Vakolatiga ko'ra imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan shaxsning imzosini vakolati doirasiga

kirmaydigan boshqa shaxs tomonidan soxtalashtirish.

QALIN *etn.* Nikoh to'yida kuyov tomonidan kelin tomonga beriladigan pul, mol va sh. k.lar.

QAL'A [*a.* - devor bilan o'ralgan qo'rg'on, shahar] *tar.* Dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandaq bilan o'ralgan mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta'minlangan shahar.

QAMAL 1 Qal'a yoki mustahkamlangan shaharni ishg'ol qilish, dushman qo'shinlarini qurshab olish uchun olib boriladigan harbiy harakatlar usuli. **2** Biror davlatni siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan yakkalab qo'yish maqsadidagi xatti-harakatlar majmui.

QAMOQ Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar, mahbuslar, jinoyatchi va sh. k.lar qamaladigan joy; turma, qamoqxona.

QAMOQ JAZOSI Ozodlikdan mahrum etish yo'li bilan jazoni o'tash shakli.

QAMOQQA OLISH Jinoyat protsesida jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va sudda ishni ko'rish davrida ehtiyot chorasi tariqasida shaxs ozodligini majburiy cheklash.

QARAMA-QARSHILIK Moddiy olamdagi barcha predmet va hodisalarning mavjud bo'lishi, rivojlanishi jarayonida o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan, birisiz ikkinchisi mavjud bo'la olmaydigan ziddiyatli tomonlar birligini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

QARAMA-QARSHILIKLAR BIRLIGI VA KURASHI QONUNI Dialektikaning

asosiy qonunlaridan biri bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotida amal qiladigan yalpi umumiy qonundir.

QARAMLIK Mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa yo'llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarning hukmronligi o'rnatilishi va davlat hokimiyatining oliy suverenlik belgilaridan mahrum bo'lishi.

QARAMOG'IDA BO'LISH Fuqaroning asosiy yashash manbai hisoblangan mablag' bilan ta'minlanishi.

QARDOSHLIK Birodarlarga, qar-doshlarga xos munosabat.

QARILIK Organizm hayotining yoshga bog'liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayoni; keksalik.

QARINDOSH 1 Bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilar, ota-ona tomonidan bo'lgan shaxslar. **2** Kelib chiqish manbayi bir bo'lgan, bir-biriga yaqin kishilar.

QAROR [*a.* - to'xtam, hukm, xulosa; tub asos; tinchlik; turarjoy] Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh. k.ning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi.

QARORGOH [*a.+fors.*] **1** Davlat boshlig'i, hukumat yoki biror davlat arbobining doimiy yoki vaqtincha turadigan joyi, saroyi. **2** Harbiy boshliqlarning jang paytidagi safar chodirining nomi.

QARZ [*a.* - qarz; nasiya] Ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa, pul.

QARZDOR [*a.+fors.*] Korxonada, muassasa, tashkilotdan qarzi bor yuridik yoki jismoniy shaxs.

QARZDORLIK Xo'jalik yurituvchi subyekt sanaluvchi yuridik shaxsning yetkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat uchun boshqa tashkilotlar zimmasida bo'lgan haqi, boshqa tashkilotlardan undirib olinishi lozim bo'lgan pul summasi.

QARZDORLIK TILXATI Bir shaxsning ikkinchi shaxs oldida pul yoki buyum shaklidagi majburiyatga ega ekanligini tasdiqlovchi yozma hujjat.

QARSHI DA'VO 1 Fuqarolik huquqi va protsessida qarzdor yoki biror boshqa shaxs uchun majburiyatni bajargan fuqaro yoki tashkilotning to'langan pul summasini qoplash to'g'risidagi talabi. **2** Sudning ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar, javobgar tomonidan dastlabki da'vo bilan birga ko'rib, hal qilish uchun da'vogarga nisbatan sudga taqdim etilgan da'vo.

QARSHI HUJUM Mudofaada turgan qo'shinlarning bostirib kelayotgan dushmani tor-mor qilish maqsadida hujumga o'tishi.

QARSHI ZARBA Mudofaa janglari olib borilayotganda, qo'shinlar mudofaasiga suqulib kirgan yoki uning ichkarisiga yorib o'tgan dushmanga beriladigan zarba.

QARSHILIK KO'RSATISH HARAKATI Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya, Italiya, Yaponiya bosqinchilariga, ularning ittifoqchilariga va mahalliy sotqin agentlariga qarshi antifashistik milliy-ozodlik harakati.

QASAMYOD [*a.+fors.*] Vatanga sodiqlik haqidagi rasmiy va'da; ont, qasam.

QASIDA [*a.* - nazmiy asar turi] Sharq mumtoz adabiyotidagi she'riy janrlardan biri, ko'pincha biror shaxsning madhiga bag'ishlangan, shuningdek, falsafiy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy mazmundagi, ko'tarinki, tantanavor ohangli she'riy asar.

QATAG'ON Davlat organlari tomonidan nomaqbul, nomatlub deb topilgan aholi qatlamiga nisbatan qo'llanadigan jazo chorasi; repressiya.

QATL QILISH [*a.* - o'ldirish, qatl qilish] Buyruq bilan rasmiy tarzda o'ldirish.

QATLI OM, QATLIOM [*a.* - ommaviy qatl, qirg'in] Yoppasiga o'ldirish, qirg'in qilish, qirish.

QAVM [*a.* - xalq, millat; kishilar to'dasi, guruh] **1** Bir avloddan tarqalgan, o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasi; urug', aymoq, qabila. **2** Bir masjidida ibodat qiluvchi kishilar, bir masjidning namozxonlari va ularning har biri. **3** Kishilarning ma'lum bir ish va b. jihatdan bo'lgan birligi, guruhi; toifa.

QAVS [*a.* - kamon, yoy] Shamsiya yil hisobida to'qqizinchi oyning arabcha nomi (22-noyabr-21-dekabr orasidagi davr)

QAVCHIN *etn.* O'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi.

QAYTA QURISH Sobiq SSSRda XX asrning 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha; totalitar

tizimni isloh yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakat.

QIBLA [a. – qarshi tomonda turgan narsa; mehrob; janub] Musulmonlar namoz o'qiyotgan paytda yuzini qaratib turadigan tomon; Makka tomon.

QIDIRUV Vakolatli organlarning sudga kelishdan bosh tortgan ayblanuvchini, hukm ijrosidan bosh tortayotgan, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joyidan qochgan mahkumni, bedarak yo'qolgan shaxsni topishga qaratilgan faoliyati.

QIMMATLI QOG'OZLAR O'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, veksel, chek va b.).

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI Yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI ISHTIROKCHILARI Qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'oz egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek, birjalar va qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va b. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari hisoblanadi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHISI Qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini professional tarzda amalga oshiruvchi shaxs.

QIMMATLI QOG'OZLAR EGASI Qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

QIMMATLI QOG'OZLAR SERTIFIKATI Bir emissiyada chiqarilgan bir necha yoki bir dona qimmatli qog'ozga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat.

QIMMATLI QOG'OZLARGA DOIR BITIMLAR Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'oz egasining almashinuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar garovi.

QIMMATLI QOG'OZLARNI CHIQA-RISH Yuridik shaxsning fuqarolik huquqlari obyektini bo'lgan qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari.

QIMMATLI QOG'OZLARNING MUOMALASI Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.

QIMOR [a. – gardkam, tavakkal o'yin] Pul yoki buyum tikib o'ynaladigan har qanday o'yin.

QIMORBOZLIK Qimorga berilganlik; qimor o'yini.

QIPCHOQLAR O'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy urug'-qabilalardan biri.

QIROAT [a. – o'qish] Qur'on oyatlarini mavjud tajvid, talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda, o'ziga xos ohangda o'qish.

QIROL [rus. король < lot. Carl - Buyuk Karl nomidan] Qirollik maqomiga ega bo'lgan monarxiya davlati boshlig'i.

QIRQ I O'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri.

QIRQ II etn. Kishi vafotidan so'ng o'ttiz yettinchi yoki o'ttiz to'qqizinchi kuni o'tkaziladigan marosim.

QIRG'IN Kishilar ko'plab, yoppasiga qiriladigan, ko'p qon to'kiladigan urush; xunrezlik.

QIRG'INBAROT Qurolli qattiq jang; xunrezlik.

QISQA DEKLARATSIYA Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar qo'llanadigan qisqacha ma'lumotnoma.

QIT'A [a. - parcha, bo'lak, qism; yer bo'lagi, muayyan hudud] **1** Alohida ma'muriy hudud, mamlakat. **2** Yer yuzidagi quruqliklarning atrofidagi orollar bilan birga shartli ravishda ajratilgan qismlaridan har biri.

QIYMAT [a. - boylik, qimmatbaho narsa; qadriyat; narx, baho] **1** Tovar narxi. **2** Pulning xarid qobiliyati, muayyan bozor narxlari darajasida pul birligi hisobiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. **3** Tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati.

QIYMAT QONUNI Tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy qonuni; tovarlarni o'z ijtimoiy qiymatiga, ya'ni ularni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zarur mehnat miqdoriga muvofiq holda ayirboshlash.

QIYMAT SHAKLLARI Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi jarayonida tovarlar qiymati ifodalangan shakllari.

QIYOMAT [a. - insonlarning qayta tirilish kuni; tik turish; qo'zg'olon; to'polon] Diniy e'tiqodlarga ko'ra, go'yo bu dunyo tugagach, u dunyoda hamma tirilib, so'roqqa to'planadigan kun; oxirat.

QIYOSIY KRIMINOLOGIYA Kriminologiyaning ma'lum bir mamlakatlardagi jinoyatchilikning holatini, sodir etilish sharoiti va sabablarini, qonuniyatlarini qiyoslab o'rganuvchi alohida yo'nalishi.

QIYOSIY REKLAMA Raqobatchiga yoki u tomonidan taqdim etilayotgan muayyan bir turdagi mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynanlashtiriladigan reklama.

QIYOSIY-TARIXIY METOD Madaniy-tarixiy voqea-hodisalardagi umumiylik va xususiyliklar, o'xshashlik va tafovutlar, ular taraqqiyotidagi bosqich va tamoyillarni o'zaro solishtirish, qiyoslash yo'li bilan aniqlanadigan ilmiy-tadqiqot metodi.

QIYOSLASH Narsa va hodisalarning umumiy, o'xshash va farqli belgilarini o'zaro solishtirish orqali ularning muayyan belgi va xususiyatlarini turkumlashtirish va bir tizimga solish.

QIYOT tar. etn. O'g'uzlar tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan birining nomi.

QIZIL ARMIYA tar. Sobiq sovet hokimiyati harbiy kuchlarining 1918-1946-yillardagi rasmiy nomi.

QIZIL KITOB Yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjati. O'zbekiston hayvonot dunyosi (faunas) va o'simliklar olami (floras) bo'yicha bir necha marta "Qizil kitob"lar nashr etilgan.

QIZIL XOCH QOMITASI Mustaqil va betaraf xalqaro insonparvarlik tashkiloti bo'lib, unga 1863-yilda asos solingan: dunyoning barcha mamlakatlarida o'z faoliyatini beg'arazlik va betaraflik prinsiplaridan kelib chiqib amalga oshiradi. O'zbekistonda bu sohada 1925-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Qizil yarimoy jamiyati faoliyat ko'rsatadi.

QIZILBOSHLAR *tar.* **1** Safaviylar davrida Ozarbayjon va Shimoliy Erondagi turkiy qabilalardan eron qo'shinida xizmat qilgan askarlar. **2** Ana shu davrda sunniylarga qarshi diniy janglarda qatnashgan shia jangchilariga ularning bosh kiyimlariga qarab turklar tomonidan berilgan nom.

QISHLOQ FUQAROLAR YIG'INI Ma'lum bir hududda (qishloqda) yashaydigan barcha fuqarolarning kengashi, yig'ilishi.

QOBILIYAT [*a.* – mayl, qiziqish; sodiqlik, tarafdorlik; layoqat, qobiliyat, qodirlik] Bilim, ko'nikma, malakalardan farqli o'laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishni uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari.

QOBILIYATLI Biror ishga qobiliyati bo'lgan, biror ish qo'lidan keladigan; layoqatli.

QOIDA [*a.* – baza, asos; qonun-qoida, nizom] Turli hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni ifodalovchi, ma'lum sistema, amal va sh. k.ning asosini tashkil etuvchi tartib; qonun.

QOIDABUZARLIK Qonun-qoidalarga rioya qilmaslik, tartibni buzish.

QOMUS [*a.* – okean; lug'at; so'z boyligi] Muayyan tizimga solingan keng qamrovli bilimlar to'plami, ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr.

QONUN [*a.* – tartib, qoida, ko'rsatma; huquq; kodeks; usul, rasm] **1** *fls.* Obyektiv borliqda turli hodisalar o'rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo'lgan muhim, zaruriy, barqaror bog'lanish, munosabat. **2** Davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish-irodasiga ko'ra qabul qilingan va muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlardan iborat huquqiy hujjat. **3** Muayyan bir dinda qabul qilingan axloq va rasm-rusum qoidalari tizimi. **4** Bajarilishi shart, majburiy bo'lgan, odat, qoida tusiga kirgan ish-amal, talab, topshiriq va sh. k.

QONUN LOYIHASI Qonun chiqaruvchi organning muhokamasiga yoki tasdig'iga qo'yilgan birlamchi rasmiy hujjat (loyihasi).

QONUN USTUVORLIGI Barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning mahalliy

hokimiyatlar chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjat va yo'riqnomalardan ustun turishi.

QONUN CHIQUARUVCHI HOKIMIYAT Qonun qabul qilish, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, zarur hollarda bekor qilish huquqiga ega bo'lgan davlat organlari tizimi.

QONUNBUZAR Qonunga rioya qilmaydigan, unga xilof harakat qilgan yoki qiladigan, qonunni buzuvchi (shaxs).

QONUNBUZARLIK Muayyan qonun-qoidalarga rioya qilmaslik, ularni to'g'ri yoki umuman bajarmaslik.

QONUNIYLIK Qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlariga barcha davlat organlari, mansabdor va b. shaxslarning og'ishmay amal qilishligi.

QONUNOSTI HUJJATI Davlat hokimiyati organlarining qonunga nisbatan pastroq yuridik kuchga ega bo'lgan va qonunlarni ijro etish bo'yicha chiqargan hujjati.

QONUNCHILIK 1 Davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri: davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunlar chiqarish. **2** Ijtimoiy munosabatlarni to'la tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir sohasi

QONUNCHILIK JARAYONI Konsultatsiya, qonunlar va b. me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solingan qonunlarni qonun chiqaruvchi muassasa e'tiboriga havola qilish, uni

qabul qilish, nashr etish va kuchga kiritish jarayoni.

QONUNCHILIK KVOTASI Saylov jarayonida nomzodlarga saylovda g'olib chiqishi uchun berilgan ovozlar miqdori.

QONUNCHILIK TARTIBI Qonunchilik jarayonining o'zi; qonunchilik jarayonini tartibga solish mexanizmi; qonunchilik jarayonining o'ziga xos bosqichlari: qonun loyihasini parlamentga taklif etish, qonun sifatida muhokama qilish va qabul qilishni o'z ichiga oladi.

QONUNCHILIK TASHABBUSI Qonun loyihasini qonun chiqaruvchi muassasalarga taklif etish; qonun loyihasini qonun chiqaruvchi organlar muhokamasiga taqdim etish huquqi; mazkur organlar qonun loyihasini muhokama qilish va shu loyiha yuzasidan qaror qabul qilishga majbur.

QONUNCHILIK TEXNIKASI Qonun ijodkorligining asosiy tamoyillari; me'yoriy-huquqiy hujjat loyihalarini tuzish bo'yicha qoida va usullar yig'indisi.

QORAXONIYLAR DAVLATI Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yonbag'rida tashkil topgan va X asrning 2-yarmi - XIII asr boshlarida hukmronlik qilgan davlat.

QORI [*a.* - o'quvchi; Qur'onni qiroat bilan yoddan o'quvchi kishi] Qur'onning barcha suralarini yod olgan va qiroat bilan o'qiydigan kishi.

QOROVUL 1 Biror obyektни qo'riqlovchi qurolli shaxs, shaxslar guruhi; posbon, soqchi. **2** *harb.* Biror obyektни saqlash, muhofaza qilish vaziri

fasi yuklatilgan harbiy bo'linma. **3** Biror obyektga ziyon-zahmat yetkazmaslik, unda tartib-intizom va sh. k.ni saqlash uchun, qo'riqlash uchun qo'yiladigan shaxs; qo'riqchi.

QOROVULBEGI *tar.* O'rta Osiyo xonliklarida: qorovullik xizmatini bajaruvchi harbiy qismlarning boshlig'i.

QOROVULLIK Harbiy qorovul xizmati.

QOTIL [*a.* – o'ldiruvchi, qatl etuvchi; halokatli] Odam o'ldirgan kishi; odamkush.

QOTILLIK Qasddan kishini hayotdan mahrum etish.

QOZI [*a.* – ijro etuvchi, amalga oshiruvchi, hukm chiqaruvchi] *tar.* Musulmon davlatlarida: hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sudya; shar'iy mahkama raisi.

QOZILAR SUDI Islom paydo bo'lgan davrlardan musulmon mamlakatlaridagi ayblovchi va ijro etuvchi asosiy davlat organi.

QOZIXONA [*a.+fors.*] Qozi tomonidan sudlov ishlari amalga oshiriladigan mahkama.

QOG'OZ PULLAR Muomalada asl pullar – oltin va kumush o'rnida yuritiladigan, qog'ozdan yasalgan pul belgilari.

QUDRAT [*a.* – kuch, quvvat; qobiliyat, layoqat] Yuqori darajadagi kuch-quvvat; shunday kuch-quvvatli imkoniyat; qodirlik.

QULDORLIK TUZUMI Insoniyat tarixida dastlabki sinfiy-antagonistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya.

QUROL 1 Harbiy yarog', aslaha; jang, urush asbobi. **2** Biror maqsadga erishish, uni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan har qanday asbob, qurilma, vosita; dastak, omil.

QUROLLANMOQ Jang, urush quroliga ega bo'lmoq; uni tutgan, undan foydalanadigan holatda bo'lmoq.

QUROLLI HUJUM Quroldan foydalanigan holda shaxs hayoti va sog'lig'iga tajovuz qilish.

QUROLLI KUCHLAR Harbiy harakatlari olib borish hamda davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan ta'minlanuvchi qurollangan kishilarning uyushgan birlashmasi: siyosiy hokimiyatning muhim tarmog'i.

QUROLLI QO'ZG'OLON Biror ijtimoiy guruh yoki sinflarning siyosiy hokimiyatga qarshi qaratilgan qurolli harakati.

QUROLSIZLANISH Urush olib borish vositalarini butunlay yo'qotish yoki ularni qisman kamaytirish hamda urush xavfini bartaraf etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi.

QURULTOY [*turkiy-mo'g'.* – xurultoy] **1** Turkiy xalqlar va mo'g'ul xalqida qadimdan mavjud bo'lgan turli harbiy kengashlar va majlislarning umumiy nomi. **2** O'zbekistonda hozir: biror soha vakillari ishtirokida respublika miqyosida o'tkaziladigan katta yig'ilish.

QRUSHOV Tor-mor qilish yoki asir olish uchun dushmanning muayyan qo'shinlar guruhini boshqa qo'shinlardan ajratib qo'yish, o'rab olish.

QUR'ON [a. – o'qish, qiroat qilish] Musulmonlarning Ollah tomonidan Muhammad payg'ambarga vahiy orqali nozil qilingan, musulmon dinining aqidalari va qonun-qoidalari to'plamidan iborat muqaddas kitobi.

QUVG'UN O'z joyi, vatanidan haydash, quvish, surgun qilish, qilinish hat-ti-harakati; shunday holatdagi hayot.

QUSHBEGI *tar.* Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo'lgan yirik amaldor; hokim.

QO'LYOZMA Ilmiy, badiiy, tarixiy va sh. k. asarning qo'lda yozilgan yoki yozuv mashinkasida yozilgan, kompyuterda ko'chirilgan matni, nusxasi.

QO'MITA [*fr.* comite (komitet) so'zidan] **1** Maxsus tadbirlarni o'tkazish yoki biron-bir sohaga rahbarlikni amalga oshirish uchun tuziladigan davlat organi. **2** Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va b.larda saylab qo'yiladigan kollegial rahbar organ.

QO'MONDON [*fr.* commendante (komendant) so'zidan] Yirik harbiy qism yoki qo'shin boshlig'i, komandiri.

QO'PORMOQ Tag-tugi bilan yo'q qilmoq, tugatmoq.

QO'PORUVCHILIK Davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotga putur yetkazish maqsadida harbiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarni buzish, odamlarning sog'ligiga ziyon, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakat; diversiya.

QO'RBOSHI *tar.* O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari va ayrim

Sharq davlatlarida dastlab: shaharni tunda qo'riqlovchi mirshab, so'ngra: qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi, boshlig'i.

QO'RG'ON 1 O'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar-qal'a. **2** Qal'a, shahar, qo'rg'on va sh. k.ni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor

QO'RG'ONBEGI *tar.* Qal'ani, qo'rg'onni himoya qiluvchi soqchilarning boshlig'i; qal'a komendanti.

QO'ZG'OLON Biror ijtimoiy tuzum, hukmron sinf va sh. k.larga qarshi ko'tarilgan ommaviy harakat; isyon, g'alayon.

QO'ZG'OLONCHI Qo'zg'olon qatnashchisi, ishtirokchisi; isyonchi.

QO'SHILGAN QIYMAT Ishlab chiqarish jarayonida muayyan bir korxonada, firmada yangidan yaratilgan, bevosita o'stirilgan mahsulotning oldingi qiymatiga qo'shilgan qiymat.

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I Ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismini davlat byudjetiga olish shakli.

QO'SHILMASLIK HARAKATI Harbiy-siyosiy bloklar va guruhlarda qatnashmaslikni o'z tashqi siyosatining asosiy yo'li deb e'lon qilgan mamlakatlarni birlashtiruvchi harakat.

QO'SHIMCHA MAHSULOT Umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi: moddiy ishlab chiqarish sohasidagi bevosita ishlab chiqaruvchilar tomonidan zaruriy

mahsulotdan ortiqcha yaratilgan mahsulot.

QO'SHIMCHA MEHNAT Moddiy ishlab chiqarish sohasi xodimlari yaratadigan qo'shimcha mahsulot manbai.

QO'SHIN Qurolli kuchlar majmui yoki uning bir qismi; askar, armiya.

QO'SHMA KORXONA Boshqa mamlakatlar firmalari ishtirokida bunyod qi-

lingan, tashkiliy jihatdan yagona yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilgan korxonana.

QO'SHMACHI Fohishaxona tashkil etish yoki saqlash, shuningdek, begona ayol bilan begona kishi (erkak) ning qo'shiluviga vositachilik qilib kun ko'radigan odam.



R

RAB(B) [*a.* - olloh, xudo] *din.* Xudo, tangri, parvardigor.

RABIULAVVAL [*a.* - avval bahor] Qamariya yil hisobida 30 kundan iborat uchinchi oyning arabcha nomi.

RABIUSSONIY [*a.* - ikkinchi bahor] Qamariya yil hisobida 29 kundan iborat to'rtinchi oyning arabcha nomi.

RAD ETUVCHI REFERENDUM Kuchga kirgan qonunni amaldan olib tashlash uchun saylovchilar tomonidan o'tkaziladigan referendum.

RADDIYA [*a.* - inkor qilish; rad javobi] Muayyan xabar, ma'lumotni rad etuvchi, uning yolg'on va asossiz ekanligini isbot qiluvchi rasmiy bayonot.

RADIKAL [*lot.* radicalis - ildizga oid] **1** Tub, qat'iy va keskin choralar, o'zgarishlar, harakatlar, dasturlar tarafdori. **2** Radikalizmga asoslangan partiya a'zosi yoki shunday partiya tarafdori.

RADIKAL SIYOSAT Davlat manfaatlari va davlat doirasidagina demokratik islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosat.

RADIKALIZM [*lot.* radicalis - ildizga oid] *siyos.* **1** Mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o'zgarishlar

va demokratik islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim. **2** Nazariy va amaliy masalalarni hal etishda tub va qat'iy choralardan foydalanish; qat'iy harakat talab qilish va ularni qo'llash.

RADIO [*lot.* radiare - nur chiqarmoq, tarqatmoq] Axborotlarni radio-to'lqinlar yordamida ma'lum masofaga simsiz uzatish va qabul qilish usuli.

RADIOAXBOROT Davlatlar o'rtasidagi muzokaralar, xalqaro bitimlar va sh.k.lar to'g'risida radio orqali berilgan rasmiy xabar.

RADIOREPORTAJ Muxbir o'zi bevosita ishtirok etgan yoki ko'rgan biror voqea haqida radio uchun operativ ravishda xabar beradigan jurnalistika xabari.

RAHBAR [*fors.* - yo'l boshchi, yo'l boshlovchi, boshliq] Muayyan davlat, tashkilot, guruh, jamoa va sh.k. ni boshqaruvchi, rahbarlik qiluvchi; yo'l boshchi.

RAHBAR FAOLIYATI Rahbarning biror sohada olib boradigan ishi, mashg'uloti.

RAHBAR XODIM Biror idora yoki muassasada rahbarlik lavozimida ishlovchi shaxs.

RAHBARIYAT [*fors.+a.*] Rahbarlik qiluvchi guruh, doira.

RAHBARLIK 1 Rahbar mavqeyi, maqomi. 2 Boshchilik, boshliqlik; murabbiylik, ustozlik.

RAHNAME [*fors.* – yo'l ko'rsatuvchi] Yo'l ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi; rahbar.

RAHNAMELIK Yo'l boshchilik, rahbarlik.

RAIS [*a.* – rahbar, boshliq, sardor, boshqaruvchi] 1 Muayyan saylov organlari, tashkilot, idora, jamiyat va sh.k. ning boshlig'i, rahbari. 2 Majlis, anjuman yoki yig'inga rahbarlik qiluvchi shaxs. 3 *tar.* Diniy marosim va urf-odatlar, xayr-u ehson ishlarining o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

RAJAB [*a.* – "qo'rqmoq" fe'lidan] Qamariya yil hisobida 30 kundan iborat yettinchi oyning arabcha nomi

RAMAZON HAYITI Musulmonlarning ramazon oyi tugagan kundan keyin o'tadigan bayrami.

RAPORT [*fr.* rapport – olib kelish; olib borish; qaytarib olib kelish] 1 Idora yoki muassasa boshlig'iga yoki o'z rahbariga biror voqea-hodisa, bajarilgan ish, reja, majburiyat haqida taqdim etilgan xabar, axborot. 2 Harbiy xizmatchining o'zidan yuqori unvonli boshliqlarga ma'lum topshiriq bajarilganligi haqida yozma yoki og'zaki hisoboti.

RAQOBAT [*a.* – kuzatish, nazorat] Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda kelti-

radigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash.

RAQOBATBARDOSH *iq.* Raqobatlasha oladigan, raqobatga chidaydigan.

RAQOBATBARDOSH MAHSULOT Mamlakatda ishlab chiqarilgan, o'z sifat ko'rsatkichlari, tannarxi jihatidan milliy va jahon bozorida shunday mahsulotlar bilan raqobat qila oladigan mahsulot.

RAQOBATBARDOSHLIK Raqobat qila olishlik, raqobatga chidashlik; raqobatga kirisha olishlik.

RAQOBATLI BOZOR Sotuvchi bilan xaridorlar o'rtasidagi raqobatli tovar ayirboshlash munosabati.

RAQOBATCHILIK *iq.* O'zaro raqobat qilishlik, raqobatbardoshlik.

RAQOBATCHINI OBRO'SIZLAN-TIRISH Bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar tarqatish.

RASIZM [*fr.* racism < race – irq < *ital.* razza – tur, xil, nav] *q.* irqchilik.

RASMIY [*a.* – ma'muriy, ma'muriyatga aloqador] 1 Hukumat, davlat yoki muayyan tashkilotga oid, shular tomonidan belgilangan. 2 Hukumat, davlat organlari yoki muayyan tashkilot tomonidan e'lon qilingan, chiqarilgan, tarqatilgan. 3 Qonuniy ravishda tasdiqlangan, rasmiylashtirilgan.

RASMIY BAYONOT Davlatlararo diplomatik munosabatlar, munozaralar,

xalqaro munosabatlar va sh. k. masalalar haqida manfaatdor tomonlarning maqsadlarini ifodalaydigan rasmiy axboroti.

RASMIY DELEGATSIYA Biror muassasa, tashkilot yoki hukumatning saylab yoki belgilab yuborgan rasmiy vakillari.

RASMIY DIPLOMATIYA Davlat yoki hukumat boshliqlarining va tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi maxsus organlarning rasmiy faoliyati.

RASMIY RADDIYA Biron-bir da'voning yoki da'volar majmuining yolg'onligini rasman asoslash.

RASMIY SAFAR Rasmiy xizmat yuzasidan uchrashish maqsadida biror yerga borish.

RASMIY TAQDIMOT Muayyan narsani tantanali ravishda ko'pchilikka rasmiy tanishtirish.

RASMIY TASHRIF Hukumat, davlat yoki muayyan tashkilot vakilining biror elga yoki kimsa huzuriga qisqa muddatga borishi, kelishi.

RASMIYAT [a. – rasmiylik; rasmiy hujjatlar] Biror ishni, vazifani bajarish uchun o'rnatilgan tartib-qoida; ishning rasmiy tomoni.

RASMIYATCHILIK Quruq rasmiyatga berilib ketishlik; yuzakilik, to'rachilik.

RATIFIKATSIYA [lot. ratificatio < ratus – tasdiqlangan + facere – qilmoq, bajarmoq] **1** Ahdlashuvchi davlatlarning vakillari tuzgan xalqaro shartnomaning davlat hokimiyati oliy organi tomonidan tasdiqlanishi. **2** Ba'zi mamlakatlarda davlat parlamenti tomonidan qabul

qilingan, konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlarni tasdiqlashning maxsus tartibi.

RATIFIKATSIYA YORLIG'I Xalqaro konvensiya va shartnomalarni tasdiqlashda rasmiylashtiriladigan va oliy martabali rahbarlar tomonidan imzoladigan rasmiy hujjat.

RATIFIKATSIYALOVCHI REFERENDUM Parlament tomonidan yoki saylovchilar guruhi yoxud ijro hokimiyati tomonidan qonun loyihasining ishlab chiqilishi va qabul qilinib, kuchga kirguniga qadar, ma'lum bir vakillik organining aralashuvisiz ovozga qo'yilishi.

RATSIONALIZATSIYA [fr. rationalisation < lot. rationalis – aql-idrokka asoslangan] Ishlab chiqarish jarayonlarini tobora takomillashtirib, maqsadga eng muvofiq ravishda tashkil etish; ishlab chiqarish jarayonlarini ixchamlashtirish, mukammallashtirish, arzonlashtirish, shu yo'l bilan eng yuqori mehnat unumiga erishish.

RATSIONALIZM [fr. rationalisme < lot. rationalis – aql, idrokka asoslangan] fls. Aqlni haqiqiy bilishning va kishilar xulq-atvorining asosiy, hal qiluvchi manbai deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.

RAUND [ingl. round – to'garak, davra, doira] Xalqaro munosabatlarda muzokaralar jarayonidagi alohida, mustaqil bosqich.

RAYOSAT [a. – raislik qilish, prezidentlik; prezidium] **1** Majlis yoki kengashni boshqarish uchun saylangan

shaxslar guruhi; prezidium. **2** Davlat hokimiyati organi. **3** Ba'zi tashkilot va muassasalarning rahbarlik organi.

RAG'BAT [*a.* - xohish; yaxshi niyat; istak] Inson his-tuyg'ulari, ruhiy holatlarining rivoji va barqarorlashuviga yordam beruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta'sir.

REABILITATSIYA [*lot.* rehabilitatio - qayta tiklash] *huq.* **1** Jinoyat sodir etishda asossiz gumon qilingan yoki ayblangan shaxsning pok nomi, sha'ni va qadr-qimmatining huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan tiklanishi. **2** Sud yo'li bilan yoki ma'muriy tartibda avvalgi huquqlarini tiklash.

REAKSION *siyos.* Reaksiya manfaatlari uchun kurashuvchi, eski tartiblarni saqlab qolishga yoki tiklashga urinuvchi.

REAKSIONER [*fr.* reactionnaire < *lot.* re - qayta, takror, qarshi ma'nolaridagi old qo'shimcha. + actio - harakat] Siyosiy reaksiya tarafdori yoki qatnashchisi.

REAL [*lot.* realis - moddiy; haqiqiy < res - narsa, buyum] **1** Haqiqatan ham mavjud bo'lgan; haqiqiy, chin, voqeiy. **2** Amaliy; amalga oshishi aniq bo'lgan, bajarilishi mumkin bo'lgan.

REAL DAROMAD Aholining pul daromadlariga sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori.

REAL ISH HAQI Moddiy ne'mat va maishiy xizmatlarda ifodalangan, ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori: iste'molchilar o'zlarining haqiqiy ish haqlariga amalda

qancha miqdorda iste'mol ne'matlari sotib olishlari va xizmatlardan foydalanishlari mumkinligini ko'rsatadi.

REAL SEKTOR Ba'zi idora va muassasalarning muayyan faoliyatga ixtisoslashgan bo'limi.

REAL TASHQI XAVF Davlat va jamiyatning muhim manfaatlariga xavf-xatar tug'diruvchi favqulodda muqarrar sharoitlar.

REALIST 1 O'z faoliyatida real voqelik, atrof-muhit va iqlim shart-sharoitlarini, mavjud imkoniyatlarni hisobga olib ish ko'ruvchi shaxs. **2** Asoslanmagan, yetarli darajada tayyorlanmagan va shu sababli muvaffaqiyatli chiqishiga ishonch bo'lmagan rejalar, loyihalarga hamda boshqa sh. k. harakatlarga qarshi shaxs.

REALIZATSIYA [*lot.* realis - moddiy, haqiqiy] **1** Ma'lum bir reja, loyiha, dastur, maqsadni amalga oshirish, turmushga tatbiq etish. **2** *iq.* Tovar va mol-mulk sotish, mol-mulk yoki qimmatbaho qog'ozlarni pulga aylantirish.

REALIZM [*lot.* realis - moddiy, haqiqiy] *fls.* Ongdan tashqaridagi mavjud reallik go'yo ideal obyektlarning mavjudligidan yoki subyekt, bilish jarayoni va tajribaga bog'liq bo'lmagan bilish obyektidan iboratdir, deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.

REALLIK Mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ko'pchilik tomonidan tan olingan qismi.

REDUKSIYA [*lot.* reductio - avvalgi holatga qaytish] Metodologik uslub sifatida murakkabdan oddiyga o'tish,

dunyoning umumiy ilmiy manzarasini ilk oddiy tamoyillar asosida yoritish.

REEKSPORT [lot. re – qaytadan + eksport] *iq.t.* Ilgari mamlakatga chet eldan keltirilgan tovarlarni ishlov bermay yoki qisman ishlov bergan holda chetga sotish.

REEMIGRATSIYA [lot. re – qaytadan + emigrare – ko'chmoq, ko'chib ketmoq] Chet mamlakatga ketgan kishilar – muhojirlarning o'z vataniga qaytishi, qaytarilishi.

REEVAKUATSIYA [lot. re – qaytadan + evacuare – bo'shatish, xoli qilish] Urush, tabiiy ofatlar tufayli xavfsiz hududlarga ko'chirilgan aholi va muassasalarni, ularga tegishli mol-mulklarni, urush va tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etilgach, avvalgi joyiga qaytarish.

REFERAT [lot. referre – bildirmoq, xabar bermoq] **1** Biror mavzuga bag'ishlangan, tegishli badiiy, ilmiy va b. manbalar sharhini, tahlilini qamrab oluvchi ma'ruza. **2** Biror ilmiy asar, kitob, maqola mazmunining qisqacha yozma bayoni.

REFERENDUM [lot. referendum – e'lon qilinishi lozim bo'lgan xabar] Davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalar yuzasidan o'tkaziladigan va ba'zan qonunlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumxalq so'rovi; ovoz berish yo'li bilan xalq fikrini aniqlash.

REFERENT [lot. referens, referentis – xabar, ma'lumot beruvchi] **1** Referat tayyorlovchi, uni o'qib beruvchi, ma'lumot, xabar beruvchi shaxs. **2** Muayyan

masalalar yuzasidan rahbar xodim topshiriqlarini bajaruvchi, ma'ruza tayyorlovchi, axborot, ma'lumot, xabar, maslahat beruvchi mas'ul shaxs.

REFLEKSIYA [lot. reflexio – ortga qaytish, ortga nazar] *fls.* Kishining o'z ongida sodir bo'layotgan hodisalarni tushunib yetishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyat, bilishning alohida shakli.

REFORMA [fr. reforme < lot. reformare – qayta qurmoq, tubdan o'zgartirmoq] Isloh qilish, tubdan o'zgartirish, qaytadan, yangidan qurish; isloh, islohot.

REFORMATSIYA [lot. reformatio – o'zgartirish, isloh qilish] *tar.* XVI asrda G'arbiy va Markaziy Yevropada katta yer egalari va ularning asosiy tayanchi – katolik cherkoviga qarshi kurashgan ijtimoiy-siyosiy, diniy-ideologik harakat.

REFORMIZM *tar.* XIX asr oxirlarida kapitalizm doirasida isloh (reforma)lar o'tkazish yordamida sotsializmga o'tish uchun asos yaratishga intilgan siyosiy oqim.

REGENT [lot. regens, regentis – boshqaruvchi, idora qiluvchi] Monarxiyali mamlakatlarda – monarxning voyaga yetmaganligi, uzoq kasal bo'lishi yoki yo'qligi munosabati bilan uning o'rniga tayinlangan, muvaqqat hukmdorlik qiluvchi davlat boshlig'i.

REGIONAL [lot. regionalis – mahalliy, hududiy] Muayyan hududga, viloyatga, tumanga, bir yoki bir necha mamlakatga xos; mahalliy, hududiy.

REGIONAL BITIM Muayyan geografik hududlarda joylashgan bir necha

davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro bitim, shartnoma.

REGIONAL BOZOR Muayyan hudud, viloyat, tumanlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash joyi.

REGIONAL INTEGRATSIYA Ayrim hudud, viloyat, tumanlarning yoki bir necha mamlakatning bir-biriga qo'shilihi.

REGIONALIZM [lot. regionalis – mahalliy] iqt. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va sh.k muammolarni u yoki bu region (mintaqa, hudud)ning manfaat va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish va hal qilishdagi yondashuv, munosabat.

REGISTR [nem. Register < lot. registrum – ro'yxat; yozib qo'yilgan] Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ro'yxat, hisobiy hujjat; qaydnoma.

REGISTRATOR [nem. Registrator < lot. registrum – qayd etilgan, yozib qo'yilgan] Registratsiya ishlarini olib boruvchi, ro'yxatga oluvchi kishi.

REGISTRATSIYA [lot. registratio < registrum – qayd etilgan, yozib qo'yilgan] Ro'yxat qilish, ro'yxatga olish, qayd etish; ro'yxatdan o'tkazish.

REGLAMENT [fr. reglement < lot. regula – tartib, qoida] **1** Muayyan davlat organlari, muassasalari, tashkilotlarining ish tartibini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjat. **2** Majlis, konferensiya va sh. k.larni olib borish tartibi. **3** Xalqaro kongresslar va konferensiyalar qabul qilgan ayrim hujjatlarning nomi.

REGRESS [lot. regressus – orqaga ketish, qaytish] **1** Rivojlanishda orqaga

ketish, eski shakllarga qaytish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolish. **2** huq. Biror kishi yoki tashkilot majburiyatini bajargan kishi yoki idoraning shu ishni bajarish uchun qilingan xarajatlarni to'lashni talab qila olish huquqi.

REGRESS DA'VO Fuqarolik huquqi va jarayonida: qarzdor yoki biror boshqa shaxs uchun majburiyatlarni bajaragan fuqaro yoki tashkilotning sarflangan pul summasini qoplash to'g'risidagi talabi.

REGRESSANT [lot. regressus – qaytish, orqaga harakat] Fuqarolik huquqida o'zi tomonidan boshqa shaxsning aybi bilan qilingan xarajatlarning qoplanishi to'g'risida o'sha shaxsga nisbatan regress talabini qo'yuvchi shaxs.

REGRESSAT [lot. regressat] Fuqarolik huquqida regressantning qarshi da'vosi qaratilgan shaxs.

REGRESSIV SOLIQQA TORTISH Bir qator mamlakatlarda soliq bazasining ko'payishi bilan soliq stavkalarining kamayishida namoyon bo'ladigan daromadlarni soliqqa tortish tizimi.

REIMPORT [lot. re – qaytadan + import] Chet elga chiqarilgan, ammo u yerda qayta ishlov berilmagan va iste'mol qilinmagan tovarlarning uni chiqargan mamlakatga qaytarib olib kirilishi.

REINVESTITSIYA [lot. re – qayta + investitsiya] Investitsiya muomalalari bo'yicha daromadlar ko'rinishida olingan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qayta yo'naltirish.

REJA [fors. – kir yoyiladigan ip, arqon; saf, qator] Biror ishni yoki

muayyan dasturni tartibi bilan, o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal.

REJALASHTIRISH Milliy iqtisodiyotning turli darajalarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish shakllari majmui.

REJIM [*fr. regime < lot. regimen - boshqarish*] **1** Davlatni boshqarish, idora etish usuli; tuzum. **2** Mehnat, dam olish, ovqatlanish va sh.k.ning qat'iy belgilangan tartibi. **3** Biror maqsadni amalga oshirish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar tizimi.

REKET [*ingl. racket - qo'rqitish, do'q-po'pisa*] Tovlamachilik, qo'rqitish, do'q-po'pisa, zo'ravonlik va sh. k. yo'llar bilan biror narsa yoki pul undirish.

REKLAMA [*fr. reclame < lot. reclamare - qattiq qichqirmoq*] **1** Biror tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat turlari haqida xaridorlarni xabardor qilish, ularga nisbatan talab, ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to'g'risida berilgan ma'lumot. **2** Biron shaxs, tashkilot, narsani ommalashtirish maqsadida ular haqida ma'lumotlar tarqatish. **3** Shu maqsadda chiqarilgan e'lon, plakat.

REKLAMATSIYA [*lot. reclamatio - qat'iy norozilik*] Tovar sotib oluvchining tovar yetkazib beruvchiga yoki xizmatlarni bajaruvchiga tegishli majburiyatlarni bajarmaganligi to'g'risida yozma ravishda bildiradigan e'tirozi (da'vo xati), ko'rgan zararni to'lash haqidagi talabi.

REKOMENDATSIYA [*lot. (re)commendatio - ma'qullash*] Biror tashkilot yoki yangi joyga ishga kirishda beriladigan yozma yoki og'zaki tavsiya.

REKONSTRUKSIYA [*lot. re - qaytadan + constructio - tuzish, birlashtirish; qurilish*] **1** Mavjud narsani yaxshilash, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish. **2** Qadimgi inshoot, san'at asari va sh.k.larni hozirgacha saqlanib kelgan ayrim bo'laklariga, yozma manbalardagi tavsif yoki tasvirlariga asolanib qayta tiklash.

REKTOR [*lot. rector - boshqaruvchi; rahbar*] Universitetlar va b. ayrim oliy o'quv yurtlarining rahbari.

REKTORAT Oliy o'quv yurtlarining rektor va prorektorlar rahbarlik qiladigan ma'muriy-o'quv organi.

REKVIZITLAR [*lot. requisitum - kerakli, zarur*] Muayyan hujjatni haqiqiy deb topish uchun unda bo'lishi kerak bo'lgan zaruriy ma'lumotlar.

REKVIZITSIYA [*fr. requisition - mol-mulkdan mahrum qilish < lot. requisitio - talab qilib olish; olib qo'yish*] Xususiy kishilarning yoki jamoat tashkilotlarining mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida doimiy yoki vaqtincha davlat ixtiyoriga olib qo'yish.

RELYATIVIZM [*lot. relativus - nisbiy*] Inson bilishining nisbiyligini, shartlilikini, subyektivligini e'tirof etuvchi, mutlaq axloqiy me'yorlari va qoidalarini inkor etuvchi falsafiy qarash.

REMILITARIZATSIYA [*lot. re - qayta + militaris - harbiy*] Qaytadan qurol-

lantirish, avval qurolsizlantirilgan (demilitarizatsiya qilingan) davlat qurolli kuchlari va harbiy imkoniyatlarini qayta tiklash.

RENEGAT [*lot.* renegare – tonmoq, bo'yniga olmaslik] *siyos.* O'z maslagidan qaytib, dushman tomoniga o'tib ketgan odam; murtad, xoin.

RENESSANS [*fr.* Renaissance – Uyg'onish; qayta yuzaga kelish, tiklanish] Insoniyat ma'naviy va g'oyaviy taraqqiyotidagi uyg'onish, ko'tarilish davri (G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarining madaniy-g'oyaviy rivojlanish davri. XIV – XVI asrlar).

RENTA [*nem.* Rente, *fr.* rente < *lot.* reddita – qaytarib berilgan] **1** Mulk egalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasdan, yer, mol-mulk, kapitaldan muntazam oladigan foiz shaklidagi daromadi; ssudaga berilgan kapitaldan foiz, yer egalari ijara-ga berilgan yer uchastkasidan, uy-joy egalari ijara-ga berilgan binolardan muntazam oladigan daromadi. **2** Ayrim mamlakatlarda davlat zayomlari obligatsiyalari bo'yicha foiz yoki yutuq shaklida to'lanadigan daromad.

RENTA SHARTNOMASI Fuqarolik huquqiy shartnomalaridan biri; unga ko'ra, bir tomon boshqa tomonga mulkini berishi, renta to'lovchi esa olingan mulk o'rniga renta oluvchiga muayyan pul mablag'i shaklida renta to'lab turish yoki uni ta'minlash uchun boshqa shaklda mablag' to'lash majburiyati.

RENTABELLIK [*nem.* rentabel – daromadli, foydali] Korxonalar yoki tadbir-

korlikning daromaddorligi, samaradorligi; makroiqtisodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichi.

RENTABELSIZ Iqtisodiy jihatdan foydasiz, xarajatni qoplamaydigan, foyda keltirmaydigan.

REPARATSIYA [*lot.* reparatio – qayta tiklash] Xalqaro huquqda: urushda ko'rilgan zararlarni to'la yoki qisman qoplash uchun yengilgan va urushning chiqishiga sababchi bo'lgan davlat tomonidan g'olib davlatga to'lanadigan tovon.

REPATRIATSIYA [*lot.* repatriatio – vatanga qaytish, qaytarish] Urush oqibatida vatanidan tashqarida qolgan harbiy asirlar va fuqarolarni, shuningdek, fuqarolik huquqi qayta tiklangan muhojirlarni xalqaro bitim va kelishuvlar asosida o'z vataniga qaytarish.

REPORTAJ [*fr.* reportage < *ingl.* report – xabar yetkazmoq] Muxbirning o'zi bevosita ishtirok etgan yoki ko'rgan biror voqea joyidan matbuot, radio, televideniye orqali zudlik bilan xabar yetkazishi; shunday xabarning o'zi.

REPRESSALIYA [*lot.* repressaliae < reprehendere – ushlab turmoq, to'xtatmoq] Bir davlatning boshqa bir davlatga nisbatan uning noqonuniy harakatlari to'xtatish va keltirgan zararlarni to'latish maqsadida qo'llaydigan majburlash tadbirlari.

REPRESSIYA [*lot.* repressio – bosim, tazyiq] Davlat organlari tomonidan ayrim fuqarolar, aholi, millat, xalq va etnik guruhlariga nisbatan qo'llanadigan jazo chorasi; qatag'on qilish.

REPRIVATIZATSIYA [*lot. re - qaytadan + privatus - xususiy*] Ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan korxonalar, bank, aksiyalar va sh.k.larni qaytadan xususiylashtirish.

REPRODUKSIYA [*lot. re - qaytadan + productio - hosil qilish, yaratish*] Qaytadan tiklash.

REPRODUKTIV HUQUQ Inson huquqlarini qaytadan tiklash; qayta tiklangan huquq.

REPRODUKTIV SALOMATLIK Inson salomatligini qaytadan tiklash; qaytadan tiklanadigan sog'liq.

RESPONDENT [*ingl. respond - javob bermoq*] Ijtimoiy so'rovda qatnashuvchi shaxs; anketa savollariga javob beruvchi kishi.

RESPUBLIKA [*lot. respublica - umumxalq, jamoatchilik ishi < res - ish + publica - ijtimoiy, umumxalq*] Davlat hokimiyati yuqori organlari ma'lum muddatga saylanadigan yoki umum-milliy hokimiyat (parlament) tomonidan shakllantiriladigan, fuqarolar shaxsiy va siyosiy huquqlar bilan ta'minlanadigan davlat boshqaruvi shakli.

RESTAVRATSIYA [*lot. reauratio - tiklash, qayta tiklash*] **1** Davrlar o'tishi bilan eskirgan va ma'lum qayta ishlashlar natijasida asl holini yo'qotgan, buzilgan san'at asari yoki arxitektura yodgorliklarini, arxeologik qazilmalar va qadimiy skeletlarni dastlabki holatiga keltirish. **2** siyos. Inqilob yo'li bilan ag'darib tashlangan eski tuzum yoki saltanatni qayta tiklash.

RESTITUTSIYA [*lot. restitutio - avvalgi holatga qaytish, tiklash*] **1** Fuqarolik

huquqida: tuzilgan shartnoma haqiqiy emas deb topilganda, shu shartnoma asosida olingan narsalarning hammasini taraflarga qaytarish, asl mulkiy holatni tiklash. **2** Xalqaro huquqda: bir tomonning ikkinchi tomonga noqonuniy xatti-harakati (mas., urush) tufayli keltirgan zararini to'lashga, qoplashga, ya'ni ushbu noqonuniy xatti-harakatgacha bo'lgan holatga qaytarishga yo'naltirilgan tadbir; moddiy shakldagi to'lov.

RESTRIKSIYA [*lot. restrictio - cheklash*] **1** Tadbirkorlik amaliyotida tovarlar narxini ko'tarish maqsadida tovar ishlab chiqarishni, sotishni va eksport qilishni cheklash. **2** Mamlakatning markaziy banki tomonidan tijorat banklariga berilayotgan kreditlarni cheklash.

RESURS [*fr. ressources - yordamchi vosita, usul; pul mablag'i*] Zarurat tug'ilganda foydalanilishi mumkin bo'lgan mablag', boylik, narsalarning mavjud zaxirasi.

RESURSLAR KAMYOBLIGI Jamiyat hayotida ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan va tiklanmaydigan resurslarning tobora kamayib borishi.

RETORSIYA [*lot. retorsio - qarshi harakat*] Xalqaro huquqda: bir davlat qo'llagan tadbirga qarshi ikkinchi davlatning javob tadbiri.

RETSIDIV [*lot. recidivus - qaytib kelayotgan, qaytayotgan*] Ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsning yana qasddan xuddi shunday yoki shunga o'xshash yangi jinoyat sodir etishi.

REVALVATSIYA [lot. re – qaytadan + lot. valeo – ahamiyatga egaman, arziyman] *iqd.* Davlat tomonidan milliy valyuta-pul birligi kursini boshqa mamlakatlar yoki xalqaro valyuta-pul birliklari kursiga nisbatan rasmiy ravishda oshirish.

REVANSH [fr. revanche – o'ch, qasos(olish): qarimta] Urushda yengilgan tomonning o'ch olishi, qasos yoki o'ch olish uchun qilgan harakati.

REVANSHIST *tar.* Revanshizm tarafdori, revanshizm siyosatini yurizuvchi, qasos olishga intiluvchi.

REVANSHIZM [fr. revanche – to'lov, qasos olish] Urushda yengilgan tomonning o'ch olish va mag'lubiyat oqibatida qo'ldan boy berib qo'ygan hududlarini qaytarib olishga, ilgari mavqeyini tiklashga intilishi.

REVIZIONIZM [lot. revisio – taftish, qaytadan ko'rish] XIX asr oxirlarida vujudga kelgan oqim bo'lib, uning mohiyati ishchilarning inqilobiy harakatini markscha talqin etish g'oyalarini qaytadan ko'rib chiqish va yangi davr talablari, tamoyillaridan kelib chiqqan holda yondashishni targ'ib etishdan iborat.

REVIZIYA [lot. revisio – qayta ko'rish] **1** Korxonalar, tashkilot, muassasa yoki mansabdor shaxslarning ma'lum bir davrdagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish, taftish qilish. **2** Biror ta'limot yoki nazariyani o'zgartirish, uning asoslarini buzish niyatida qaytadan ko'rib chiqish.

REVOKATSIYA [lot. revocatio – chaqirib olish] *dip.* Biror davlatdagi o'z

elchisi yoki rasmiy vakilini o'z mamlakatiga chaqirib olish.

REVOLYUZION VAZIYAT Revolyutsiyani amalga oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitning yetilganligini bildiruvchi holat.

REVOLYUZIYA [lot. revolutio – to'ntarish] Bir ijtimoiy tuzumni boshqasi bilan almashtirish orqali bo'ladigan o'zgarish; to'ntarish.

REYD [ingl. raid – bostirib kirish, yopirilib kelish < nem. bereit – tayyor, shay] **1** Davlat va jamoat tashkilotlari, matbuot organlari vakillari topshirig'iga muvofiq muayyan obyektlarni, korxonalar va sh.k faoliyatini to'satdan tekshirish. **2** *harb.* Harakatdagi qism va qo'shilmalarning dushmanning orqa tomoniga o'tishi.

REYESTR [lot. registrum – ro'yxat, sanoq] Ma'lum ishlar, ish hujjatlari, mulk va b. ro'yxati hamda shu ro'yxatlar qayd qilinadigan daftar.

REYTING [ingl. rating – baho, daraja] **1** O'quvchilar va talabalarning bilimni nazorat qilish va baholash usuli va tizimi. **2** Faoliyat turining samaradorligi va nufuzini belgilovchi usul. **3** Siyosat, madaniyat va sh.k. sohalardagi taniqli arboblarning jamoatchilik fikrini o'rganish yo'li bilan aniqlanadigan mashhurlik darajasi.

REZERV [fr. reserve < lot. reservare – saqlamoq, ehtiyot qilmoq; tejamoq] **1** Yangi, hali ishga solinmagan kuch, mablag' va boylik manbai. **2** Sanoat, qishloq xo'jaligi, davlat apparati va ijtimoiy tashkilotlarning safini to'ldirish

uchun tayyorlangan kishilar, ishchi va mutaxassislar. **3** Harbiy burchni o'tab, zaxiraga o'tgan kishilar. **4** Qo'shinning zarur paytda jangga kiritish uchun qo'mondonlik ixtiyorida qoldirilgan qismi.

REZERV VALYUTA Mamlakat hukumati va markaziy banki valyuta, pul mablag'lari zaxiralarini tashkil etishda, tashqi savdo operatsiyalari va b.da foydalanadigan, erkin almashtiriladigan, kurslari bo'yicha g'oyat barqaror chet el valyutalari.

REZIDENSIYA [*lot. residens, residentis* - biror joyda bo'luvchi, turuvchi] Davlat boshlig'i yoki hukumatning, shuningdek. katta mansab egalarning doimiy qarorgohi, turarjoyi, saroyi.

REZIDENT [*lot. residens, residentis* - o'tiruvchi, bir joyda qoluvchi] **1** O'rta asrlarda: muayyan mamlakatda doimiy yashovchi chet el diplomatik vakili. **2** Biror davlatning boshqa bir xorijiy davlatda doimiy yashovchi fuqarosi. **3** Chet el razvedkasining boshqa biror davlatda yashirin ish olib boruvchi vakili. **4** Muayyan mamlakatda uning milliy qonunchiligiga to'la rioya qiluvchi, ro'y-xatdan o'tgan yuridik yoxud jismoniy shaxs.

REZOLYUTSIYA [*lot. resolutio* - qaror; ruxsat] **1** Majlis, kengash va sh.k. da biror masala muhokamasidan keyin qabul qilingan qaror. **2** Mansabdor shaxslarning rasmiy hujjatdagi farmoyishi, yakuniy xulosasi.

RIELTOR, riyeltor [*ingl. realtor* - ko'chmas mulkni sotish bo'yicha agent <

realty - ko'chmas mulk] Ko'chmas mulkni sotib olish va sotish bilan professional darajada shug'ullanuvchi mutaxassis; ko'chmas mulkni sotish/sotib olish kelishuvlarida vositachilik qiluvchi shaxs.

RIELTORLIK Yuridik va jismoniy shaxslarning shartnoma asosida ko'chmas mulk obyektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati.

RIGORIZM [*fr. rigorisme* < *lot. rigor* - qat'iyat, jiddiylik] Ma'lum prinsiplarni, qoidalarni, ayniqsa, axloqqa oid masalalarni qat'iyat bilan amalga oshirish.

RISOLA [*a.* - maktub, noma; ilmiy asar; xat, xabar] **1** Muayyan kasb-hunar va uning tartib-qoidalariga oid kitobcha; yo'riqnoma, nizomnoma. **2** Kichik hajmli kitob, broshyura. **3** Biror ilmiy masalaga bag'ishlangan asar, traktat.

RITSAR [*nem. Ritter* - otliq, chavandoz] **1 tar.** O'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropada dastlab og'ir qurollangan harbiy feodal, keyinchalik (XVI asrdan) alohida dvoryanlar tabaqasi vakili.

RITSARLIK tar. O'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropada asosan harbiy feodallardan iborat imtiyozli ijtimoiy tabaqa.

RITUAL [*lot. ritualis* - ta'limot] Muayyan subyektni biror-bir diniy qadriyatlar tizimi bilan bog'liqligini ifodasi bo'lgan simvolik harakatlar shakllaridan biri.

RIVOJLANISH Olamdagi ilgari lanma harakatni, obyektlardagi sifat

o'zgarishlarini, borliqda yangi shakllarning vujudga kelishini ifodalovchi falsafiy kategoriya.

RIYOZAT [a. – qiyinchilik, mashaqqat] *din.* Dunyoviy ishlardan o'zini, o'z nafsini tiyib qiynalish, o'zini qiynash; tasavvufda tariqatning asosiy shartlaridan biri.

RIZQ [a. – yashash vositasi, ta'minot; ulush, nasiba] **1** Hayot uchun zarur oziq, ozuqa, qut, nasiba, ovqat. **2** *din.* Islom diniga ko'ra, xudo har bir kishi, jonivor uchun atagan, o'lchab, belgilab qo'ygan nasiba, ulush.

ROMANTIZM [*fr.* romantisme < *lot.* romanuis – Rumoga (Rimga) oid] XIX asrning birinchi choragida Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan hamda jahon bo'ylab keng tarqalgan milliy va individual o'ziga xoslikka, ideal qahramonlar va tuyg'ularni tasvirlashga intilgan yo'nalish, oqim.

ROTA [*pol.* rota < *nem.* Rotte – o'lmon; jangchilar guruhi] *harb.* Maxsus qo'shinlarda bir necha vavoddan tashkil topgan, batalyon tarkibiga kiradigan harbiy bo'linma, qism.

ROTMISTR [*pol.* rotmistrz < *nem.* Rittmeister < Ritte – otliq askarlar otryadi + Meister – boshliq] *tar.* Chor armiyasida otliq qo'shin ofitserlariga beriladigan, piyoda askarlardagi kapitan unvoniga to'g'ri keladigan zobitlik un-

voni va shu unvonga ega bo'lgan kishi.

ROYALIST [*fr.* royaliste < roy – qiro] Royalizm tarafdori; monarxist.

ROYALIZM [*fr.* royalisme < royal – qiroлга oid] Qirollik hokimiyatiga, monarxizmga tarafdorlik.

RUH [a. – jon] Ma'naviy-ruhiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

RUHIY HAYAJON Shaxsning o'z harakatlari ahamiyatini tushunish yoki ularni boshqarish qobiliyatini pasaytiradigan holat.

RUHIYAT [a. – ma'naviylik; ruhiy holat, ruhiy kayfiyat] Yuksak darajada tashkil topgan materiyaning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati.


RUHONIY [a.– ruhiy, ma'naviy; diniy] Diniy lavozimda xizmat qiluvchi, dinni targ'ib qiluvchi, din peshvosi.

RUHSHUNOS [a.+fors. – ruhni tekshiruvchi, o'rganuvchi] Psixologiya olimi, mutaxassisi.

RUSLASHTIRISH Rus tili va rus urf-odatlarini zo'rlab singdirish, unga bo'ysundirish.

RUXSATNOMA [a.+fors.] **1** Yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat. **2** *iq.* ayn. **litsenziya.**

RO'ZA [fors. – ro'za; kunduzgi ish] Islom dinida musulmonlikning beshta shartlaridan biri.



SABAB [a. - yo'l, usul; aloqa] *fls.* Olamning harakati va muayyan vaqt mobaynida bo'lgan o'zgarishdan so'ng ikkinchi boshqa bir natijaning zaruran kelib chiqishini ta'minlovchi asosiy hodisa.

SABAB VA OQIBAT Olamdagi narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi, ta'siri va aks ta'sirini, voqelikka xos ana shunday munosabatlar jarayonidagi sabab va oqibat bog'lanishini ifodalaydigan kategoriya.

SABABIY BOG'LANISH Huquqda vujudga kelgan oqibat bilan sababning uzviy bog'liqligi.

SABABIYAT [a. - bog'liqlik, aloqadorlik] *fls.* Hodisalarning tabiiy, ijtimoiy, obyektiv o'zaro aloqasini, bog'lanishini bildiradigan kategoriya.

SABOQ [a. - tortishuv, musobaqa] Namuna bo'ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa.

SABOTAJ [*fr.* sabotage < saboter - yog'och kavush bilan taqillatmoq] Biror ishni bajarishdan ochiqdan-ochiq bosh tortish yoki o'zini shu ishni bajarayotganday qilib ko'rsatib, aslida unga

to'g'onoq bo'lish yo'li bilan zarar yetkazish.

SADAQA [a. - xayr, ehson, sadaqa] **1** Miskin, bechorahol, qashshoq, muhtoj kishilarga ixtiyoriy beriladigan xayr-ehson. **2** Xudo yo'lga, aziz-avliyolarga ulardan najot istab qilinadigan ehson, qurbonlik.

SAFAR [a. - sayohat, sayr] Sayohat qilish, uchrashish maqsadida yoki xizmat yo'li bilan biror yerga borish.

SAFARBARLIK Armiya saflariga chaqirish, chaqirilish; jangovar holatda bo'lish.

SAFORAT [a. - vositachilik, elchilik; elchixon] *esk., kt.* Biror mamlakatning chet eldagi vakolatxonasi, diplomatik vakillik.

SAFORATXONA *esk., kt.* Muayyan davlatning chet eldagi vakolatxonasi binosi.

SAHOBALAR [a. - hamroh, do'st] Muhammad payg'ambar safdoshlari; Muhammad payg'ambarning yaqin safdoshlari va yordamchilari.

SAKRASH Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha; taraqqi-

yotning uzluksiz ko'inishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayon.

SALDO [ital. saldo – hisob-kitob, qoldiq] **1** Buxgalteriya hisobida muayyan davrdagi pul tushumlari va qilingan xarajatlar o'rtasidagi ayirma. **2** Birja operatsiyalarida muayyan davr uchun mijozning brokerlik firmasidan yoki brokerlik firmasining mijozdan qarzi. **3** Tashqi savdo munosabatlarida eksport va import qiymatlari o'rtasidagi farq, tafovut.

SALIB YURISHLARI [a. – but, xoch] tar. 1096–1270-yillarda G'arbiy yevropa zodagonlari va katolik cherkovi tomonidan ma'lum diniy shior ostida Suriya, Falastin va Shimoliy Afrikaga qilingan (7 marta) bosqinchilik urushlari.

SALIBCHILAR [a. – but, xoch, krest] 1096–1270-yillarda yevropaliklarning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlariga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari ishtirokchilari. Kiyimlariga xoch (krest) tasvirini tushirib olganlari uchun "xochdorlar" deb ham atalgan. Bu urushlar tarixda "salib (xoch) yurishlari" nomini olgan.

SALORLAR etn. Xitoyning ba'zi viloyatlarida yashovchi musulmon turkiy xalq.

SALTANAT [a. – sultonlik, hokimiyat; hukmdorlik] Xon, amir, podsho hukmdorligi va shunday hukmdor qo'l ostidagi davlat; imperiya.

SAMARADOR IQTISODIYOT Xo'jalik faoliyati natijalari bilan mehnat sarflari o'rtasidagi nisbat.

SAMARADORLIK PRINSIPI Yangi hukumatning o'z davlati hududida

hokimiyatni amalga oshirish samaradorligiga oid qoidasi.

SAMMIT [ingl. summit – tepa, yuqori, cho'qqi; yuksak daraja, avj] siyos. Bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo'yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

SAMURAY [yap. – samurau – xizmat qilmoq] **1** O'rta asrlarda Yaponiyada: zodagonlar, mayda dvoryanlarning harbiy tabaqasi. **2** Yapon harbiy doiralari, umuman, yapon harbiylari, askarlari.

SANATSIYA [lot. sanatio – davolash, sog'lomlashtirish] iqt. Korxonalar, firmalar, kompaniyalar va b.larni bankrotlik xavfidan qutqarish, ularning moliyaviy ahvolini yaxshilashga, tiklashga qaratilgan davlat va bank chora-tadbirlari tizimi.

SANATSIYA OBYEKLARI Zarar ko'rib ishlovchi, to'lovga qobiliyatsiz va iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga tushib qolgan qishloq xo'jaligi korxonalari.

SANATSIYA SUBYEKTLARI Nodavlat qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkinging mulkdorlari, kreditorlar yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslar.

SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA XIZMATI Davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini amalga oshiradigan, sanitariya-profilaktika va epidemiyaga qarshi choralarni amalga tatbiq etish bilan shug'ullanadigan davlat muassasalari tizimi.

SANITARIYA QONUNCHILIGI Aholining mehnat va turmush sharoiti, tash-

qi muhitning sanitariya-epidemiologiya xizmati ko'rsatish sohasi bo'yicha davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan qonunlar majmui.

SANKSIYA [lot. sanctio – qat'iy, jiddiy qaror] **1** Huquqbuzarga nisbatan davlat tomonida qo'llanadigan ehtiyot choralar. **2** Jinoyatda gumon qilingan shaxsga nisbatan majburiy choralar ko'rish. **3** Xalqaro huquqda: xalqaro majburiyatlarni yoki xalqaro huquq me'yorlarini buzgan davlatlarga nisbatan qo'llanadigan ta'sir chorasi. **4** Yuqori organ tomonidan biror hujjat, qarorning tasdiqlanishi.

SANOAT [a. – san'at, mahorat; kasb-hunar; ishlab chiqarish] Xalq xo'jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan eng muhim sohasi.

SANOAT INQILOBI Qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura sanoatidan mashinalashgan yirik industriyaga o'tish jarayonini ifodalovchi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tizimi.

SANOAT IQTISODIYOTI Sanoat, ishlab chiqarish sohasida mehnat samaradorligi va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni aniqlaydigan ijtimoiy, texnik va tashkiliy omillar yig'indisi.

SANOAT KAPITALI Qo'shimcha qiyamat hosil qilishga jalb etilgan va moddiy ishlab chiqarishda xizmat qiluvchi kapital.

SANOAT MAHSULOTI Barcha sanoat korxonalarining ma'lum davrdagi ishlab chiqarish faoliyatining pul hisobidagi ifodasi.

SARBADORLAR [fors. – boshini dorga tikkan] Mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni qatnashchilari.

SARBADORLAR QO'ZG'OLONI Eron va Markaziy Osiyoda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni.

SARBOZ [fors. – bosh o'ynatuvchi: boshni, jonni fido qiluvchi] tar. Amir, xon qo'shinining oddiy piyoda askari; askar, soldat.

SARDOR [fors. – kallali, kallasi bor: bosh qo'mondon, sarkarda] **1** Yirik amaldor, qabila boshlig'i. **2** Xiva xonligida harbiy mansab.

SARHAD [fors.+a. – chegaraning boshi: chegara, hudud; chek, doira] Davlat hududi doirasini belgilaydigan chiziq.

SARIQ MATBUOT Uyatli, sharmandali, janjalli voqealarni yoritishni maqsad qilib olgan, siyqa, sayoz, past sifatli matbuot.

SARKARDA [fors. – boshchilik qiluvchi, boshliq, rahbar] tar. Yirik harbiy qism yoki qo'shin boshlig'i.

SARKOTIB [fors.+a. – bosh, asosiy kotib, mirza] Kotiblar boshlig'i; bosh kotib.

SARMOYA [fors. – kapital, pul; boylik; asos, manba, sabab] Asosiy savdo mablag'i.

SARMOYADOR [fors. – sarmoya egasi] Katta sarmoya egasi.

SARMUNSHIY [fors.+a. – munshiy-lar boshlig'i; devonxona boshlig'i] tar. Amir, xon saroyida bosh munshiy, bosh kotib; mirzaboshi.

SATELLIT [lot. satelles, satellitis – tansoqchi; sherik] Rasmiy jihatdan

mustaqil bo'lgan, lekin amalda boshqa, o'zidan kuchliroq davlat amri, xohishi bilan ish tutadigan davlat.

SATISFAKSIYA [*lot.* satisfactio – qoniqish] Xalqaro-huquqiy javobgarlik shakllaridan biri bo'lib, huquqbuzar davlatning jabrlangan davlatga ko'rilgan zararni qoplashga so'z berishi.

SAVDO [*fors.* – oldi-sotdi, savdo-sotiq; oldi-sotdi bitimi] **1** Xalq xo'jaligi tarmog'i; tovarni sotish, ayirboshlash bilan bog'liq bo'lgan ikki tomonlama munosabatga doir muomala. **2** Sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi molning narxi haqidagi munosabatlar.

SAVDO AKSEPTI Pul, hisob-kitob, tovar haqini to'lashga rozilik yoki kafillik berish, taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzilishiga rozilik berish.

SAVDO BALANSI Mamlakatning import va eksport qilinadigan mollar balansi.

SAVDO BIRJASI Ayrim davlatlarda standartlar yoki namunalarga asoslanib sotiladigan ommaviy tovarlarning muntazam mavjud bo'lgan ulgurji bozori.

SAVDO BITIMI Savdoda ikki va undan ortiq tomonning shartlari, o'zaro munosabatlarini belgilab beruvchi kelishuv.

SAVDO HUQUQI Aholining oziq-ovqat va sanoat tovarlariga bo'lgan talablarini haq baravariga qanoatlantirish sohasidagi munosabatlarga oid huquqiy me'yorlar yig'indisi.

SAVDO KAPITALI Ijtimoiy kapitalning tovar muomalasi jarayonida band bo'lgan qismi.

SAVDO PALATASI Iqtisodiyot va savdoni, birinchi navbatda, mamlakatlar o'rtasida tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro jamoat yoki davlat tashkiloti.

SAVDO-SANOAT PALATASI Korxonalar va tadbirkorlar, ularning ittifoqlari va uyushmalarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkiloti.

SAVDO SIYOSATI Davlatning savdo borasida amalga oshiradigan tadbirlari tizimi.

SAVDO VAKOLATXONASI O'zbekistonning chet ellardagi tashqi savdo monopoliyasiga tegishli huquqni amalga oshiradigan organ.

SAVDOGAR [*fors.* – savdo qiluvchi, tijoratchi] Savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, savdo-sotiqni kasb qilib olgan kishi.

SAVDOGARLIK Savdo-sotiq bilan shug'ullanish, savdogar kasbi.

SAVIYA [*a.* – tenglik, baravarlik] Shaxs, narsa yoki hodisaning sifat, taraqqiyot darajasi.

SAVOB [*a.* – ajr, evaz, mukofot; xayrli ezgu ish] *din.* **1** Diniy e'tiqodga ko'ra, xudoning marhamatiga loyiq ish va shunday ish uchun xudoning marhamati. **2** O'zgalarga beminnat qilinadigan xolis yordam; yaxshi, ezgu ish.

SAVODLILIK **1** Insonning adabiy til me'yorlariga mos og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligi. **2** Biror soha bo'yicha yetarli bilimga egalik.

SAYID [*a.* – mustaqil; hukmdor; janob] Muhammad payg'ambar avlodlari

ga mansub kishi; Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvoni.

SAYLAB QO'YILADIGAN ORGAN

Aholi yoki biror organ tomonidan saylov yo'li bilan tashkil etiladigan davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoatchilik organi.

SAYLAB QO'YISH Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish hamda tarkibini belgilash usullaridan biri; aholi tomonidan deputatlarni va aholi yoki vakillik organlari tomonidan tegishli mansabdor shaxslarni saylashdan iborat.

SAYLOV Ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish jarayoni.

SAYLOV BYULLETENI Belgilangan shaklda tasdiqlangan, yashirin ovoz berish uchun mo'ljallangan saylov hujjati.

SAYLOV HARAKATI Fuqarolarning siyosiy xarakterdagi vaqtinchalik birlashishi bo'lib, ularning asosiy vazifasi vakillik muassasasiga saylovlarda o'z nomzodlarini g'alaba bilan ta'minlashdir.

SAYLOV HUQUQI Saylanadigan davlat idoralari shakllanishini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimi.

SAYLOV KAMPANIYASI O'tkaziladigan saylovlarda saylovchilarning yuqori qo'llab-quvvatlashlariga erishish maqsadida siyosiy partiyalar va mustaqil nomzodlar tomonidan o'tkaziladigan choralar, tartibotlar tizimi.

SAYLOV KASSATSIYASI Saylov kampaniyasi davrida ovoz berish tartibi

va saylov natijalarining buzilishi sababli o'tkazilgan saylovni haqiqiy emas deb topish.

SAYLOV KODEKSI Qator davlatlarda saylov huquqining asosiy me'yorlarini tashkil etuvchi maxsus qonunchilik hujjati.

SAYLOV KOMISSIYASI Mamlakat prezidenti va vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlarni tashkil etuvchi maxsus kollegial organ.

SAYLOV KORPUSI Qonunga muvofiq ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar.

SAYLOV KVOTASI Bitta deputatni saylash uchun zarur bo'lgan eng kam ovoz soni.

SAYLOV OKRUGI Davlat boshlig'i yoki hokimiyatning vakillik organlariga saylov o'tkazish uchun tuziladigan aholi-hududiy tashkilotining asosiy bo'g'ini.

SAYLOV SENZI Saylov huquqini olish yoki amalga oshirish uchun konstitutsiya yoki saylov qonunlari bilan belgilanadigan shart.

SAYLOV TIZIMI Vakillik muassasalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylanishi munosabati bilan vujudga keluvchi davlat ijtimoiy munosabatlari tizimi.

SAYLOV UCHASTKASI Saylovda ovoz berish va ovozlarni hisoblash uchun tashkil etiladigan hududiy birlik va bino.

SAYLOVCHI Saylovda qatnashuvchi kishi, saylov majlisining, tadbir-marosimining ishtirokchisi.

SAYLOVCHILAR RO'YXATI Ovoz berishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning shaxsiy tarkibini belgilovchi saylov hujjati.

SAYLOVCHILAR VOTUMI Parlament, prezident, munitsipalitet va h.k. saylash bo'yicha saylov kampaniyalari natijasi.

SAYT [ingl. site - o'rin, joy] Internetda: muayyan mavzu yo'nalishi bo'yicha to'plangan va shakllantirilgan, doimo yangilanib, to'ldirib boriladigan, o'z nomi (sarlavhasi)ga ega bo'lgan ma'lumotlar yig'indisi; elektron sahifa.

SAYYOH [a. - sayohatchi, turist] Sayohat qiluvchi; sayohatchi.

SAYYOHLIK BIZNESI Sayyohlik tashkilotlariga daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati.

SAZOVI [fors. - jazoga loyiq ko'rilgan] Qadimgi Sharqdagi jazo turlaridan biri; aybdorning yuziga qorakuya surtilib, eshakka teskari mindirilgan va ko'chalarni aylantirib yurilgan.

SEKTA [lot. sesta - ta'limot, oqim] Hukmron diniy yo'nalishdan ajralib chiqqan diniy guruh; mazhab, maslak.

SEKTANT Biror diniy mazhabga (sektaga) mansub kishi.

SEKTANTLIK Diniy mazhabchilik; hukmron din yoki cherkovdan ajralib chiqqan mazhab.

SEKSIYA [lot. sectio - kesish, qirgish] **1** Ayrim idora, tashkilot, jamiyat va sh. k.ning alohida bo'limi. **2** Konferensiya va kengashlarda alo-

hida, ma'lum sohaga oid masalalarni muhokama qiluvchi qatnashchilar guruhi.

SEKTOR [lot. sessor - qirquvchi, qirqib ajratuvchi] **1** Ayrim idora va muassasalarning muayyan faoliyatga ixtisoslashgan bo'limi. **2** Xalq xo'jaligining muayyan iqtisodiy va ijtimoiy belgilar bilan ajralib turadigan sohasi.

SEKVESTR [lot. sequestrum - ajratish, saqlash, depozit] Davlat organlari tomonidan biror xususiy mulkdan foydalanish yoki unga egallik qilish huquqini cheklab qo'yish.

SELEKTOR [lot. selector - saralagich, tanlab oluvchi] *tex.* **1** Bir qancha maskan (nuqta)larning markaz bilan tezkor telefon aloqasini amalga oshirish maqsadida boshqa apparatlar tarmog'iga ulangan elektromexanik qurilma, apparat. **2** Turli hududlardan turib, o'zaro onlayn aloqada o'tkaziladigan yig'ilish turi.

SEMURG' [fors. - o'ttizta qush: afsonaviy qush nomi] Afsonaviy baxt-tole qushi, davlat qushi.

SENAT [lot. senatus < senex - keksa, qariya: qariyalar kengashi] **1 tar.** Qadimgi Rim davlatida oliy hokimiyat organi. **2 tar.** Rossiyada: 1711-1917-yillarda qonun chiqaruvchi va davlatni boshqaruvchi oliy davlat organi. **3** Bir qancha mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda: parlamentning yuqori palatasi nomi.

SENATOR [lot. senator] Senat a'zosi.

SENATORLIK Senator ishi, vazifasi, faoliyati.

SENSUALIZM [*lot. sensus* - his-tuyg'u, sezgi] *fls.* Bilishning birdan-bir manbai sezgidir, deb hisoblovchi falsafiy ta'limot.

SENT [*ingl. cent* < *lot. centum* - yuz] AQSH, Kanada va b. ayrim mamlakatlarda shu mamlakatlar asosiy pul birliklarining yuzdan biriga teng bo'lgan tanga pul.

SENTIMENTALIZM [*fr. sentimentalisme* - sezuvchanlik < *sentiment* - his-tuyg'u] XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning boshlarida Yevropa va AQSH adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan oqim.

SENTRALIZM [*ingl. centralism* < *lot. centrum* - markaz] *tar.* Mahalliy muassasa va tashkilotlar markaziy hokimiyatga, yagona bir markazga bo'ysundirilgan va uning ko'rsatmalari asosida faoliyat ko'rsatadigan boshqaruv tizimi.

SENTRIST Sentrizm tarafdori, izdoshi.

SENTRIZM [*ingl. centrism* < *lot. centrum* - markaz] *tar., siyos.* Siyosiy arboblardan va tashkilotlarning ijtimoiy barqarorlikka erishish maqsadida turli xil mo'tadil harakat va partiyalarni birlashtirish yo'lidagi intilishi.

SENZ [*lot. census* - baholash; baholangan mol-mulk < *censere* - baholamoq, ro'yxatga olmoq] Kishilarning ayrim huquqlaridan, xususan, vakolatli hokimiyat organlariga saylash va

saylanish huquqidan foydalanishga ruxsat berishdagi cheklovchi shartlar (yosh senzi, mulk senzi, saylov senzi va h. k.).

SENZOR [*lot. censor* - jiddiy tanqidchi] Senzura xizmatidagi, matbuot va ommaviy axborot vositalari ustidan nazorat qiluvchi shaxs.

SENZURA [*lot. censura* - jiddiy muhokama, shafqatsiz tanqid] Bosmadan chiqadigan mahsulotlar, ularning chop etilishi, tarqatilishi ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radioeshitirishlar va teleko'rsatuvlar, ba'zida esa shaxsiy yozishmalarining mazmuni va ijrosi ustidan rasmiy hokimiyat organlarining nazorat o'rnatishi.

SEPARAT KENGASH Bir tomonlama kengash, manfaatdor tomonlarning bir qismini chetda qoldirib o'tkazilgan kengash.

SEPARAT SULH Manfaatdor tomonlarning bir qismini chetda qoldirib, ular bilan kelishmay, dushman bilan tuzilgan sulh.

SEPARATIZM [*fr. separatisme* < *lot. separatus* - ajratilgan] *siyos.* Ajralib chiqishga, alohida bo'lishga intilish; davlatning bir qismini milliy, diniy, etnik, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra ajratib olib, yangi davlat tuzilmasini tuzish yoki mamlakatning bir qismini muxtoriyatga aylantirish harakati.

SERIYA [*lot. series* - qator] **1** Bir xil, o'xshash yoki umumiy belgi, xususiyatlari jihatidan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan narsalar guruhi. **2** Qimmatbaho

qog'ozlar, hujjatlar va sh. k. ning harf yoki raqamlar bilan guruhlanib belgilangan razryadi, kategoriyasi.

SERJANT [fr. sergent < lot. serviens - xizmatchi] Ko'pgina davlatlarning qurolli kuchlarida kichik komandirlarga beriladigan harbiy unvon hamda shu unvonga ega bo'lgan kishi.

SERTIFIKAT [fr. certificat < lot. certum - aniq, to'g'ri, rost + facere - qilmoq] **1** Davlat organlarining moliyaviy qarz majburiyati, zayomi. **2** Omonatchining, belgilangan muddat o'tgach, bankka qo'yilgan omonat summasini hamda uning foizlarini olish huquqi haqidagi yozma hujjat. **3** Tashqi savdo amaliyotida: tegishli vakolatli organlar tomonidan beriladigan va tovarning sifati, og'irligi, ishlab chiqarilgan joyi va b. xususiyatlarini tasdiqlaydigan hujjat. **4** Muayyan narsa, voqea haqidagi rasmiy yozma guvohnoma; diplom.

SERTIFIKATLASH Muayyan mahsulot yoki xizmat sifat tavsifining sifat standartida talab etilgan darajaga mos kelishini aniqlash, tasdiqlash.

SERVIS [ingl. service - xizmat] Jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman, keng aholiga sifatli xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish, texnika maqsadlaridagi mahsulotlarni, madaniy-maishiy, xo'jalik va b. sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalari.

SERVITUT [lot. servitus, servitutis - vazifa, majburiyat, itoatkorlik] **1** O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi.

2 Xalqaro huquqda: bir davlatning hududiy suverenitetining boshqa davlat yoki davlatlar manfaati, foydasi uchun cheklanishi.

SESSIYA (цессия) I [lot. cessio -] **1** Biron-bir shaxsning majburiyatlar bo'yicha talabini boshqa shaxsga berishi; biror narsaga bo'lgan huquqini boshqa shaxsga o'tkazishi. **2** Xalqaro huquqda: bir davlatning hududini boshqa davlatga o'zaro kelishuv asosida berish.

SESSIYA II [lot. sessio - o'tirish; majlis, yig'ilish] **1** Vakolatli organlar, sud, ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlarining ma'lum vaqtda chaqiriladigan majlisi, ma'lum munosabat bilan o'tkazadigan yig'ilishi. **2** Birjalar faoliyatining tashkiliy shakli: kun davomida savdo qilish uchun belgilangan qat'iy vaqt.

SESSIYAGA CHAQIRIQ Vakillik organining raisi, kengashi yoki prezidiumi tomonidan navbatdagi yoxud navbatdan tashqari sessiyani o'tkazish va bu haqda deputatlarga xabar berish uchun qabul qilinadigan qaror.

SIFAT BELGISI O'zbekistonda sanoatning yuksak sifatli mahsulotlariga qo'yiladigan belgi.

SIFAT SERTIFIKATI Tashqi savdo amaliyotida tegishli vakolatli organlar tomonidan beriladigan va tovarning sifatini va uning shartnoma shartlariga javob berishini tasdiqlaydigan hujjat.

SIKL [yun. kyklos - doira, aylana] Ma'lum vaqt ichida takrorlanib turadigan ish, hodisa, jarayon va b.larning har bir davrasi.

SIMVOLIZM [yun. symbolon – belgi, ramz; timso] XIX asr oxiri – XX asr boshlarida dastlab Fransiyada, keyin Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan adabiy-falsafiy oqim.

SIMPOZIUM [lot. symposium < yun. symposion – yig'in, ziyofat, bazm] Muayyan ilmiy masala bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro ilmiy kengash; ilmiy anjuman.

SINDIKALIST Sindikalizm tarafdori, sindikalizm yo'lini tutuvchi.

SINDIKALIZM [fr. syndicat – kasabalar uyushmasi, birlashmasi < yun. syndikos – birga harakat qiluvchi, hammaslak] XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ishchilar harakatida keng tarqalgan, kasaba uyushmalarini, mehnatkashlarni uyushtirishning eng oliy shakli deb qarovchi va ishlab chiqarish vositalari kasaba uyushmalari ixtiyoriga berilishi kerak, deb hisoblovchi oqim.

SINDIKAT [fr. syndicat < yun. syndikos – birga harakat qiluvchi, hammaslak] **1** iqt. Ishlab chiqarish va yuridik mustaqilligini saqlagan holda, umumiy tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar (ishbilarmonlar) birlashmasi; monopoliyaning bir ko'rinishi. **2** Fransiyada va b. ba'zi mamlakatlarda: kasaba uyushmalarining nomi.

SINF [a. – xil, nav; toifa, bo'linma] Kishilarning tarixan shakllangan ishlab chiqarish tizimida, ijtimoiy mehnatni tashkil etishda muayyan mavqe va o'ringa ega bo'lgan, ishlab chiqarish vositalariga, ijtimoiy boylikning

taqsimlanishiga bir xil daxldorligi va manfaatlarining umumiyligi jihatidan birlashgan katta guruhi; nisbatan barqaror bo'lgan katta ijtimoiy qatlam.

SINFIY [a. – sinfga oid, tur, toifaga aloqador] **1** Sinflarga, ijtimoiy qatlamga oid. **2** Muayyan sinfga xos bo'lgan, biror sinfga mansub.

SINFIY KURASH Manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan yoki zid bo'lgan sinflar o'rtasidagi kurash.

SINFIY MAFKURA Jamiyatdagi muayyan siyosiy qarashlar va g'oyalar majmui.

SINIZM [yun. kynismos – kiniklar ta'limoti] Jamiyat madaniyati, uning ma'naviy va, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarini nazar-pisand qilmaslik, umum e'tirof etgan axloq, odob me'yorlariga nafrat bilan munosabatda bo'lish; behayolik.

SINKRETIZM [yun. synkretismos – birlashtirish, qo'shish] **1** Biron-bir hodisaning qismlarga bo'linmasligini, ibtidoiy holda rivojlanmay qolganligini ifodalovchi tushuncha. **2** fls. O'zaro qararama-qarshi, bir-biriga muvofiq bo'lmagan qarashlarning qo'shilishi, birlashishi.

SINOLOGIYA [lot. Sina – Xitoy + yun. logos – bilim, tushuncha] Xitoy tarixi, iqtisodiyoti, siyosati, falsafasi, tili, adabiyoti, madaniyatini o'rganuvchi fanlar majmui.

SINTEZ [yun. synthesis – qo'shilish, birikish] Falsafa va turli xil fanlarda narsa va hodisalarni yaxlit, bir butun holda olib, ularning tarkibiy

qismlarini o'zaro bir-biri bilan bog'lab tekshirish usuli.

SIONIZM [Quddusdagi Sion tepaligi nomidan olingan] Yahudiylarning Falastinga kelishini rag'batlantirish va u yerda yahudiylar davlatini tuzish orqali yahudiylarning o'zini o'zi anglashini tiklashga qaratilgan mafkura.

SIRKULAR [nem. Zirkular < lot. circularis - aylanma] Yuqori rahbar organlar tomonidan o'ziga qarashli tashkilotlarga yoki barcha tobe mansabdor shaxslarga yuboriladigan farmoyish, buyruq; ko'rsatma.

SIROT [a. - yo'l] din. Islom manbalarida: qiyomat kuni jannatga borish yo'lida jahannam (do'zax) uzra tortiladigan qilko'prik.

SISTEMA [yun. systema - qismlardan tashkil topgan; yaxlit, qo'shilgan] Qonuniy tartibda joylashgan va o'zaro uzviy bog'langan qismlardan, elementlardan tarkib topgan butunlik.

SISTEMALI TAHLIL Turli usul va vositalarni qo'llagan holda murakkab obyektlarni tizimli, sistemali tadqiq etish va loyihalashtirish.

SISTEMALI YONDASHUV Fanda turli tipdagi sistemalarni tadqiq etish va loyihalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan metodologik yo'nalish.

SITATA [lot. citatum < citare - keltirmoq, e'lon qilmoq] Biror asardan, matndan so'zma-so'z olingan parcha.

SITATABOZLIK Sitatalar keltirishga berilib ketish, o'rinli, o'rinsiz ravishda sitatalar keltiraverish.

SIVILIZATSIYA [fr. civilisation < lot. civilis - fuqaroga xos, davlatga taalluqli] **1** Moddiy va ma'naviy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotida erishilgan muayyan bosqich; madaniy taraqqiyot darajasi, tamaddun. **2** Insoniyatning yovvoyilik va vahshiylik davridan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi.

SIYOSAT [a. - boshqarish; rahbarlik qilish, boshlab borish] Davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimiyat shakllarini amalga oshirish va boshqarish; davlat hokimiyatining mamlakat boshqaruvida va xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li; davlatni boshqarish san'ati.

SIYOSATSHUNOS [a.+fors.] Siyosat bilan shug'ullanadigan, siyosatni tushunadigan shaxs, siyosatchi.

SIYOSATSHUNOSLIK Siyosiy hokimiyat va uning amal qilish qonuniyatlari, kategoriyalari, tushunchalari haqidagi fan.

SIYOSIY [a. - siyosatga, diplomatiyaga doir] **1** Siyosatga oid, siyosat bilan bog'liq bo'lgan. **2** Davlatga, davlatchilikka va fuqarolik haq-huquqiga oid.

SIYOSIY AGENT Tashkilot, muassasa va sh.k.ning siyosiy vakili, topshiriq bajaruvchi, vakolat egasi.

SIYOSIY AVANTYURIZM Real kuch, shart-sharoit va imkoniyatlarini hisobga olmay qilinadigan, ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonunlariga zid bo'lgan va shu sababli barbod bo'lishga mahkum etilgan siyosiy harakat.

SIYOSIY AXBOROT Davlatlar o'rtasidagi muzokaralar, xalqaro bitimlar va b.lar to'g'risidagi rasmiy xabar.

SIYOSIY BITIM Ikki va undan ortiq tomonning shartlari, o'zaro munosabatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab beruvchi kelishuv.

SIYOSIY BOSHANA Tegishli shaxsga davlat hududida cheklanmagan vaqt mobaynida bo'lish (yashash), unga va oila a'zolariga shu davlat himoyasidan foydalanish imkoniyatini berish.

SIYOSIY DEKLARATSIYA Davlat tashqi yoki ichki siyosatining asosiy tamoyillari, siyosiy partiyalarning dasturiy qoidalari.

SIYOSIY FAOLIYAT Kishilar faoliyatining siyosiy tizim faoliyatini ta'minlashga, jamiyatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlarini muhofaza qilishga va o'zgartirishga qaratilgan bir ko'rinishi.

SIYOSIY HUQUQ Fuqarolarga ma'lum bir davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida beriladigan huquqlar.

SIYOSIY INSTITUTLAR Davlatning ichki yoki tashqi siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan davlat muassasalari, siyosiy partiyalari va jamiyatlari.

SIYOSIY IQTISOD Kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni iqtisodiy munosabatlari to'g'risidagi fan.

SIYOSIY MADANIYAT Siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligini ifodalash va shaxs, ijtimoiy guruh yoki butun jami-

yatning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettirish.

SIYOSIY MAFKURA Jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik va falsafiy qarashlar, g'oyalar tizimi.

SIYOSIY MUNOSABATLAR Ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlarning siyosiy faoliyati jarayonida ularning o'rtasida va ichida qaror topadigan turli-tuman aloqalar.

SIYOSIY MUSTAQILLIK Davlatning tashqi yoki ichki ishlarida boshqa davlatga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi.

SIYOSIY NAMOYISH Jamoat fikri, xalq tantanasi yoki qahr-g'azabi, siyosiy talabi, noroziligining ommaviy ifodasi.

SIYOSIY OQIMLAR Jamiyat siyosiy hayotida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarda mustaqil ravishda yoki biror uyushma tarkibida o'zining alohida manfaatlarini ifoda etuvchi guruhlar.

SIYOSIY PARTIYA Umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot; fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan, hozirgi zamon huquqiy-demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri.

SIYOSIY PARTIYA FRAKSIYA-SI Biror siyosiy partiya siyosatini o'tkazish maqsadida parlamentda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida va sharoit talab qilgan boshqa

saylangan tashkilotlarda shu partiya vakillaridan iborat deputatlar guruhi.

SIYOSIY PLYURALIZM Muayyan davlatda turli mafkuraviy oqimlarning va ular fikrini ifodalovchi jamoat birlashmalari, shu jumladan, siyosiy partiyalar va harakatlarning mavjud bo'lish imkoniyati.

SIYOSIY REJIM Davlat va huquq nazariyasiga ko'ra, davlat boshqaruvini tashkil etishning bir shakli.

SIYOSIY STATUS Fuqaro yoki yuridik shaxsning huquqiy holati.

SIYOSIY TAFAKKUR Jamiyatdagi mavjud siyosiy munosabatlar, nazariya va qarashlarni o'zida aks ettiruvchi siyosiy ong shakli.

SIYOSIY TARBIYA Ijtimoiy tarbiyaning siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan muhim shakllaridan biri.

SIYOSIY TIZIM Jamiyatdagi muayyan siyosiy funksiyani bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi.

SIYOSIY TUZUM Tegishli jamiyat va davlatdagi hokimiyatning tashkil etilish xarakteri, uning tartibot tizimi, ommaviy ishlarni boshqarishda davlat va jamoat negizlarining nisbati, shaxsning holati, real amaldagi rejim.

SIYOSIY VAZIYAT Jamiyatning siyosiy hayotida vujudga kelgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar yig'indisi.

SIYOSIY XARITA Dunyoning, qit'alarining davlatlarga bo'linishini, davlatlar yoki ularning ayrim qismla-

rining hozirgi kundagi siyosiy-ma'muriy tuzilishini ko'rsatuvchi xarita.

SKEPTITSIZM [yun. skeptikos - tekshiruvchi, kuzatuvchi] fls. Haqiqatni to'g'ri va aniq bilish mumkinligiga shubha va ishonchsizlik bilan qaraydigan falsafiy oqim.

SMETA [rus. сметить (mo'ljallamoq, ko'zlamog) fe'lidan] Korxonada va muassasaning oldindan tuzilgan kirim-chiqim hisobi va shunday hisoblar yozilgan hujjat.

SMETA XARAJATLARI Mahsulot ishlab chiqarish, ish, xizmatlarni bajarish bo'yicha to'liq xarajatlar hisobi.

SOBIQ ITTIFOQ Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududining katta qismida 1922-1991-yillarda mavjud bo'lgan, SSSR deb atalgan mustabid davlat.

SOBOR [rus. собор - ruhoniylar yig'ini] 1 XVI - XVII asrlarda Rossiyada: eng muhim ishlarni muhokama qilish va hal etish uchun to'plangan dunyoviy va ruhoniylar mansabdor shaxslar yig'ini. 2 Oliy martabali ruhoniylar toat-ibodat qiladigan yirik xristian ibodatxonasi.

SOF DAROMAD Moddiy ishlab chiqarish sohasida yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatining qo'shimcha mehnat orqali yaratiladigan qismi.

SOF FOYDA Yalpi foydaning korxonada qoladigan qismi.

SOFIZM [yun. sophisma - hiyla, ayyorlik qilish, aldash] Rasman to'g'ri, chinga o'xshab tuyuladigan, aslida yolg'on tuzilgan xulosa, soxta isbot; makkorlik vositasi.

SOHIBQIRON [a.- qiron egasi] Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron va Turon zaminda qudratli hukmdor, jahongir unvoni.

SOLIPSIZM [lot. solus - bir, yagona + a ipse - o'zim] Voqelikda faqat inson va uning ongi mavjud, obyektiv dunyo va b. odamlar shu individning ongidagina mavjuddir, deb hisoblovchi falsafiy nazariya.

SOLIQ Davlat tomonidan amaldagi qonunlar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning daromadi yoki mol-mulkidan undiriladigan va byudjetga o'tkaziladigan majburiy to'lov.

SOLIQ DEKLARATSIYASI Fuqarolarning soliq to'lash, o'z daromadlari va mol-mulki bilan bog'liq bo'lgan soliq hisobotida taqdim etiladigan hujjat.

SOLIQ HUQUQI Soliqlarni belgilash, kiritish va undirish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat bo'lgan moliyaviy institut.

SOLIQ IMTIYOZLARI Davlat tomonidan soliq to'lovchilarga berilgan yengillik: soliqlar miqdorini kamaytirish, soliq to'lash shartini yengillashtirish yoki soliqlardan to'la ozod etish kabilar.

SOLIQ ISLOHOTLARI Soliq nazariyasi va amaliyotini muvofiqlashtirish asosida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq yordamida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan davlat tadbirlari.

SOLIQ MAJBURIYATI Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.

SOLIQ SIYOSATI Hukumat va boshqaruv organlarining ishlab chiqarishni ta'minlash va jamiyat boyligini oshirishga qaratilgan taktik va strategik huquqiy harakati.

SOLIQ STAVKASI Soliq obyektining muayyan birligiga nisbatan undiriladigan soliq miqdori.

SOLIQ TIZIMI Mamlakat hududida, Soliq kodeksiga muvofiq, soliq to'lovchilardan yig'ib olinadigan soliqlar va b. turli yig'imlar majmui.

SOLIQQA TORTISH TIZIMI Soliq sohasidagi vakolatli organlar, mexanizmlar va usullar tizimi.

SOLNOMA [fors. - yilnoma; taqvim] Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayotida ro'y bergan muhim voqealar tadrijiy ravishda bayon etib borilgan yozma yodgorlik.

SOMONIYLAR IX - X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan sulola.

SOTSIAL [lot. socialis - ijtimoiy] 1 Ijtimoiy tuzumga aloqador, hayot bilan va kishilarning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'langan. 2 Ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirishga qaratilgan.

SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYA Sotsial-demokratiyaga aloqador, sotsial-demokratlarga oid partiya.

SOTSIAL-DEMOKRATIYA XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan, dastlab

inqilobiy kurash yo'li bilan, keyinchalik demokratik metodlar, islohotlar yo'li bilan ijtimoiy adolatga, erkinlik va tenglikka asoslangan tuzumni o'rnatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan g'oyaviy-siyosiy oqim.

SOTSIAL GURUH Kishilarning muayyan jamiyat doirasida tarixan shakllanadigan, umumiy manfaat, intilish va xulq me'yorlariga ega bo'lgan nisbatan barqaror majmui.

SOTSIAL STRATIFIKATSIYA Moddiy ne'matlar, hokimiyat funksiyalari va imtiyozlarning individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtada notekis taqsimlanishini ifodalaydigan ijtimoiy falsafa.

SOTSIAL TA'MINOT Keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarni, shuningdek, bolali oilalarni ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish tizimi.

SOTSIAL TUZUM Ijtimoiy, davlat qurilishi tizimi; muayyan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatning siyosiy tizimi.

SOTSIALISTIK MAFKURA Muayyan bir sinfning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy qarashlar tizimi.

SOTSIALIZATSIYA [lot. socialis - ijtimoiy] tar. Xususiy mulk hisoblangan yer, ishlab chiqarish vositalari va sh.k.ni jamiyat mulkiga, umum mulkiga aylantirish.

SOTSIALIZM [fr. socialisme < lot. socialis - ijtimoiy] 1 tar. Xususiy mulkni ijtimoiy mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglik, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta'limot.

2 XX asrda bir qator davlatlarda: jamiyat hayotining barcha sohalariga davlatning aralashuvini taqozo etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning nomi.

SOTSILOGIYA [lot. soci(etas) - jamiyat + yun. logos - ta'limot, fan] Bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari, kishilarning o'zaro muomala qonuniyatlari to'g'risidagi fan.

SOVET [rus. совет - kengash; maslahat] tar. Davlat hokimiyatining vakillik organi, jamiyatni siyosiy jihatdan tashkil etish shakllaridan biri.

SOVET ITTIFOQI KOMMUNISTIK PARTIYASI tar. Sobiq Ittifoqda: ishchilar, dehqonlar va ziyolilarning birlashgan partiyasi.

SOVUQ QUROL Hujumda va hiyoyada jarohat yetkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan, porox va portlash moddalari bilan bog'liq bo'lmagan qurol.

SOXTA BANKROTLIK Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi, kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishidan iborat jinoyat.

SOXTA TADBIRKORLIK Ustav faoliyatini amalga oshirishni mo'ljallamagan holda ssudalar, kreditlar olish, foydani soliqdan ozod qilish yoki boshqa mulkiy foyda olish maqsadida korxonalarni va b. tadbirkorlik tashkilotlarini tashkil etish.

SPIKER [ingl. speaker - notiq, so'zlovchi] **1** Angliyada parlament umum palatasining raisi. **2** Bir qator mamlakatlar parlamentlarida parlament raisi yoki palata raisi. **3** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi yoki Senat raisi.

SSIYENTIZM [lot. scientia - bilim, fan] Ilmiy bilim madaniyatning eng oliy qadriyati, degan tasavvur beradigan yo'nalish.

SSUDA [rus. ссудить (qarz bermoq) fe'lidan] Milliy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik.

STARTAP [ingl. start-up - jarayonni boshlash, ishga tushirish] Biznesning istalgan turi, bozorga avval foydalanilmagan uslubda qonun bilan taqiqlanmagan mahsulotlar yoki xizmatlar taqdim etish.

STRATEGIK DAVLAT DASTURLARI Iqtisodiyot, siyosat va madaniyatning hayotiy muhim tarmoqlari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini aks ettiruvchi tizimli hujjatlar.

STRATEGIK SIYOSAT Davlatni idora etish uslubi.

STRATEGIYA [yun. strategia < stratos - qo'shin + ago - boshlab boraman] **1** Harbiy san'atning eng oliy sohasi. **2** Urush olib borish haqidagi fan. **3** Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmi.

STRUKTURA [lot. structura - tuzilish; bog'lanish] **1** Muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlar-

ning joylashishi va o'zaro bog'liqligi. **2** Obyektning yaxlitligi va aynan o'zligini ta'minlaydigan, ya'ni turli tashqi va ichki o'zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror aloqalari majmui.

STRUKTURALIZM [lot. structura - tuzilish] Gumanitar fanlardagi (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, etnografiya va h.k.), struktur metoddan, modellashtirish, semiotika elementlaridan foydalanadigan yo'nalish.

SUBSIDIAR JAVOBGARLIK [lot. subsidiarius - zaxira; qo'shimcha, yordamchi] Qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda majburiyat lozim darajada bajarilmaganligi uchun kreditor oldida qarzdor bilan bir qatorda javob beradigan shaxslarning qo'shimcha javobgarligi.

SUBSIDIYA [lot. subsidium - yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash] Davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy hokimiyat organlariga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natura shaklidagi yordam.

SUBSTANSIYA [lot. substantia - mohiyat] Narsa va hodisalarning mohiyati, asosini ifodalovchi tushuncha.

SUBSTITUTSIYA [lot. substitutio - o'rniga qo'yish, o'rniga almashtirish] **1** Vasiyatda: birinchi, asosiy merosxo'r o'z huquqidan vaqtida foydalanmagan taqdirda boshqa, o'rinbosar merosxo'rning tayinlanishi. **2** Xalqaro huquqda: davlatning moddiy javobgarligi shaklla-

ridan biri; qonunga xilof ravishda yo'q qilingan yoki zarar yetkazilgan mulkni, shu jumladan, binolar, transport vositalari, san'at boyliklari, xususiy mulkni teng qiymatli boshqa mulkka almashtirish.

SUBSTRAT [lot. substratum – to'shama, asos] fls. Turli-tuman hodisa va jarayonlarning umumiy moddiy asosi, hodisalar o'rtasidagi umumiylik yoki o'xshashlikning negizi.

SUBVENSIYA [lot. subvenire – yordamga kelmoq] Markaziy organlar tomonidan muayyan tadbirni, obyektini maqsadli moliyalash uchun ajratilgan pul nafaqasi.

SUBYEKT [lot. subjectum – ostida, asosida turuvchi] Faol ish-harakat qiluvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh.

SUBYEKTIV HUQUQ Muayyan shaxsning aniq, konkret huquqi.

SUBYEKTIV IDEALIZM fls. Idealizm shakllaridan biri: inson ongidan tashqarida va inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda hech qanday reallik, voqelik yo'q, deb talqin qiluvchi falsafiy ta'limot.

SUBYEKTIVIST Subyektivizm tarafdori.

SUBYEKTIVIZM [lot. subjectus – asosida turuvchi] Obyektiv olamdagi barcha narsa va hodisalarning mavjudligi va o'zgarib borishini faqat subyekt faoliyatiga bog'lab tushuntiruvchi ta'limot.

SUD [qad.rus. судъ – ish; hukm] 1 Odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat

organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan, jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va b. toifadagi ishlarni protsessual tartibda ko'rib chiqish, hal qilish. 2 Jamoat tartibini buzuvchilarni yoki biror kishining xulq-atvorini muhokama qilish, chora ko'rish uchun saylab qo'yilgan jamoat organi.

SUD AJRIMI Jinoiy ishni ko'rish paytida birinchi instansiya sudi chiqaradigan hukmdan boshqa sud qarori.

SUD EKSPERTIZASI Fan va texnika yutuqlaridan jinoiy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy protsessda foydalanishning bir shakli.

SUD HOKIMIYATI Davlatning sudlov ishlari bilan bog'liq faoliyatini amalga oshiruvchi alohida hokimiyat shakli.

SUD IJROCHISI Fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha sudlarning hal qiluvchi qarorlari, ajrim va b. qarorlarini, jinoyat ishlari bo'yicha hukm, qaror va ajrimlarning mulkiy jazoni ijro etish, moddiy qiymatlarni undirishga oid qismlarini, shuningdek, qonunlarda ko'zda tutilgan boshqa hollarda ma'muriy idoralarning qaror va farmoyishlarini majburiy ravishda amalga oshiruvchi mansabdor shaxs.

SUD MUHOKAMASI Sud majlislarida muayyan ishlarni ko'rish va hal qilish.

SUD NAZORATI Quyi sudlar chiqargan qarorlarning yuqori sudlar tomonidan tekshirilishi.

SUD PLENUMI Sudyalardan iborat tarkibdagi sud tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik

sudida mavjud eng yuqori sud instansiyalari.

SUD PRETSEDENTI [*lot. praecedens* - bo'lib o'tgan] Bir sud tomonidan chiqarilgan qarorning boshqa sudlar tomonidan ko'rib, aynan bir xil qaror chiqarilishini ta'minlash.

SUD QARORI Fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy va jinoyat ishlari bo'yicha sud tarkibi yoki sudya chiqaradigan huquqiy hujjat.

SUD TIZIMI Muayyan davlatdagi barcha sudlarning yig'indisi.

SUD XARAJATLARI Ishlarni sudda ko'rish bilan bog'liq protsessual chiqimlar.

SUDLASHISH Biror kishi bilan sudda da'volashish.

SUDLOV Ma'lum tartibda fuqaroviy yoki jinoiy ishni sudda ko'rish; shunday ishlarning sudda ko'rilishi.

SUDXO'R [*fors.* - foydaxo'r, foyda oluvchi] Pul qarz berib, foizi, foydasi hisobiga boylik orttiruvchi shaxs.

SUDXO'RLIK Og'ir shartlar bilan qarz berib, foyda olinadigan faoliyat.

SUDYA [*rus.* "суд" so'zidan] Sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko'ruvchi, hukm chiqaruvchi lavozimli shaxs.

SUDYALARNING MUSTAQILLIGI Odil sudlovni faqat qonunga asosan amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan demokratik huquqiy prinsip.

SUDYALIK Sudyaning vazifasi, ishi, faoliyati.

SUIISTE'MOL [*a.* - noo'rin, noto'g'ri ishlatish, o'z manfaati uchun foydalanish]

Amal, boylikdan o'z manfaati uchun yo'l qo'yilganidan ortiqcha foydalanish.

SUITSID [*fr. suicide* < *lot. suicidium* - o'zini o'zi o'ldirish < *sui* - o'zini + *caedere* - o'ldirmoq] *huq.* O'zini o'zi o'ldirish, o'z joniga qasd qilish.

SULH [*a.*- tinchlik; yarashish] **1** Uru-shuvchi tomonlar o'rtasidagi yarashuv, kelishuv. **2** *din.* Musulmonlar bilan fath etilgan viloyatlar aholisi o'rtasida tuziladigan tinchlik bitimi.

SULOILA [*a.* - nasl, zot, zurriyot; urug', oila] **1** Muayyan urug'dan, avlod-dan tarqalib, vorislik, valiahdlilik huquqi-ga asosan birin-ketin taxtga o'tirgan podshohlar, amirlar, xonlar nasli. **2** Ish-faoliyat an'alarini, mahorat sirlarini davom ettiruvchi avlod, nasl.

SULTON [*a.* - oliy hukmdor, podshoh] Musulmon davlatlarida amir, xon, shohlarning unvoni.

SUNAMI [*yap.* - ajal va vayronalik keltiruvchi to'lqinlar] Suv ostida yoki sohil bo'yida kuchli zilzila bo'lganda yoki suvosti vulqonlari otilganda, dengiz ustida paydo bo'ladigan juda katta halokatli to'lqinlar.

SURGUN **1** Jinoiy jazo turi; mah-kumni jazo tariqasida boshqa bir yerda yashash uchun majburiy ravishda ko'chi-rish; badarg'a. **2** Shunday jazoga mah-kum etilgan kishilar badarg'a qilinadigan joy va u yerdagi hayot.

SUVEREN **I** [*fr. souverain* - oliy, yuqori] Xalqaro huquqda: mustaqil oliy hokimiyat egasi.

SUVEREN **II** *sft.* **1** Oliy hokimiyatga ega bo'lgan, oliy hokimiyatni amalga

oshiruvchi. **2 Suverenitetga** ega, erkin, mustaqil; qaram bo'lmagan.

SUVEREN DAVLAT Jamiyat birligi va yaxlitligini ta'minlovchi, davlat mexanizmi vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi, suveren omma-viy hokimiyatni amalga oshiruvchi, huquqqa umummajburiylik maqomini beruvchi, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, qonuniylik va huquq-tartibotni kafolatlovchi siyosiy tashkilot.

SUVEREN HUQUQLAR Mustaqil davlatga tegishli bo'lgan huquqlar: o'zining ichki va tashqi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini mustaqil belgilash, xalqaro shartnomalar tuzish kabi huquqlar.

SUVERENITET [*fr.* souverainete – oliy hokimiyat] Davlat mustaqilligining umumiy hamda ajralmas maqomi bo'lib, boshqa davlatlar bilan teng ekanligini, ichki va tashqi siyosatda boshqa davlatlarga qaram emasligini ifodalaydigan siyosiy-huquqiy tushuncha.

SUYURG'OL [*mo'g'.* so'yorxo'l – in'om, sovg'a qilish] *tar.* Shoh, xon, amir tomonidan amaldor va sarkardalarga saltanat oldida ko'rsatgan alohida xizmati uchun in'om qilingan yer-suv, mol-mulk.

SUG'URTA Har xil baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun va b. pul qoplamalarini to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi.

SUG'URTA AGENTI Sug'urtalovchi nomidan, uning topshirig'iga binolan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

SUG'URTA BOZORI Sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui.

SUG'URTA KOMPANIYASI Sug'urta faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs, sug'urta xizmati bozoringa professional ishtirokchisi.

SUG'URTA POLISI Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga berilgan, har ikkala taraf tomonidan imzolangan sug'urta shartnomasining barcha shartlari belgilab qo'yilgan yozma hujjat.

SUG'URTA PULI Sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtalangan shaxsga to'lanadigan pul summasi.

SUG'URTA QOPLAMASI *q. sug'urta puli.*

SUG'URTA TOVONI Sug'urta hodisasi yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yuridik fakt sodir bo'lganda, sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi doirasida to'lanadigan pul summasi.

SUG'URTA SHARTNOMASI Fuqaro yoki yuridik shaxs o'rtasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosi.

SUG'URTALASH Muayyan hodisalar yuz bergan taqdirda jismoniy va huquqiy shaxslarning mulkiy manfaatlarini shu shaxslar to'lagan sug'urta badallaridan

shakllantirilgan pul fondlari hisobidan sug'urta to'voni yoki sug'urta ta'minoti yo'li bilan mukofotlash bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

SXEMATIZM [*yun.* schema – qiyofa; shakl, qolip] Konkret xususiyatlarni hisobga olmasdan, umumiy tarzda yuzaki, siyqa va bir qolipda muhokama yuritish, tasvirlash, tavsiflash.

SXOLASTIKA [*yun.* scholastikos – maktabga, olimga oid] Diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intilgan, o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada keng tarqalgan diniy falsafa.

SYURREALIZM [*fr.* surrealisme – o'ta realizm] Jamiyat madaniy va ma'naviy hayotida ilm-fanning (asosan, tabiiy fanlar, matematika) ahamiyatini mutlaqlashtirish. XX asrning 20-yillarida fransuz adabiyotida paydo bo'lib, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, teatr, kino sohalariga, keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan avangardlik yo'nalishi.

SYUZEREN [*fr.* suzerain] Feodalizm davrida o'ziga qaram, tobe bo'lgan vas-

sallarga nisbatan yirik feodal (baron, graf, gersog kabi). Qirol oliy darajadagi syuzeren hisoblangan.

SYUZEREN HUQUQ Xalqaro huquqda: hukmron davlatning vassal, qaram davlatga nisbatan huquqi.


SYUZERENITET [*nem.* Suzeranität < *fr.* suzerainete] **1** Syuzeren davlatlarining huquqlari. **2** Syuzerenning vassalga nisbatan oliy huquqi, hokimiyati

SO'FIYLIK *q. tasavvuf.*

SO'M O'zbekiston Respublikasining pul birligi.

SO'ROVNOMA **1** Ishga qabul qilishda to'ldiriladigan rasmiy hujjat. **2** To'ldirayotgan odam haqida biron-bir ma'lumot olish yoki muayyan dastur bo'yicha tuzilgan savollarga javob olish uchun beriladigan so'rov varaqasi, anketa.

SO'Z ERKINLIGI Fuqarolarning siyosiy-demokratik huquqlaridan biri; o'z fikrini og'zaki va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yozma bayon etish imkoniyati.



TAASSUB [a. - biror narsa yoki g'oyaga behad berilish, ko'r-ko'rona ergashish; fanatizm] E'tiqod, maslak va sh.k.ga ko'r-ko'rona berilish; fanatizm.

TABAQA [a. - qatlam; qavat; daraja, guruh, bo'lak] Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy guruh; jamiyat aholisining bir qismi; urf-odat yoki qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan vorislik huquqi va majburiyatlariga ega bo'lgan insonlarning bir bo'lagi.

TABAQAVIY MONARXIYA Dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklarning tabaqaviy vakolat organlari bilan uyg'unlashgan feodal davlat shakli.

TABAQACHILIK Jamiyat tabaqalarining o'ziga xos belgilari, tartib-qoidalari va ularga asoslangan ijtimoiy munosabatlar.

TABIY HUQUQ Har bir inson tug'ilgandan boshlab ega bo'lgan muayyan huquq va erkinliklar - yashash, qadr-qimmatini poymol qilinmasligi, shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirlarining sir saqlanishi, o'z obro'sini himoya qilish va b. huquqlar.

TABRIKNOMA [tabrik+noma] Tabrik so'zlari yozilgan maktub, tabrik xati; adres.

TABU [fr. tabou - jiddiy taqiq; taqiqlash < polinezcha tapu - muqaddas, daxlsiz] Ibtidoiy jamiyatdagi taqiqlash tizimi. Tabu obyektlari sifatida buyumlar, so'zlar, hayvonlar, kishini seskantiradigan jonivorlar va b. voqea-jarayonlar nazarda tutiladi.

TADBIRKOR [a.+fors. - tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi] Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

TADBIRKORLAR VA ISHBILAR-MONLAR HARAKATI O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP)ning 2003-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy fraksiya.

TADBIRKORLIK Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi asosida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat; ishbi-larmonlik, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish.

TADRIJIY TARAQQIYOT Asta-sekin yuzaga keladigan miqdoriy yoki sifat o'zgarishlar, tabiat va jamiyat hodisalarining harakat shakli; evolyutsion rivojlanish, yuksalish.

TAFAKKUR [a. - fikr yuritish, o'ylash, fikrlash] Inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqealarning ongda aks etish jarayoni.

TAFSIR [a. - sharh, tushuntirish, ochib berish, izoh] **1** Islom an'anasida: asosan, Qur'oni karim oyatlarini sharhlash, tushuntirib berish. **2** Qur'onning madrasalarda alohida fan sifatida o'rganiladigan mufassal sharhi.

TAFTISH [a. - izlash, qidirish, tekshirish] Bo'lib o'tgan ish, hodisa va sh.k.lar yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv; korxonalar, kompaniyalar, tashkilotlar, muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini, mansabdor shaxslarning xizmat faoliyatini, hujjatlar, byudjet muassasalarida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini tekshirish.

TAJOVUZ XATTI-HARAKATI Zo'rlik va kuch ishlatish hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki noqonuniy tuzilgan hujjat.

TAKLIF [a. - buyruq, topshiriq; burch, majburiyat] Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini yaxshilashga qaratilgan murojaatlari.

TALABNOMA [a.+fors.] Huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilgan xo'jalik

yurituvchi subyektning mazkur huquq va manfaatlarini buzgan xo'jalik yurituvchi subyektni nisbatan yozma talabi.

TALMUD [qadimiy yahudiycha lameyd - o'rganish; ta'limot] din. Iudaizm dinida: yahudiylarning qadimgi diniy kitoblarni tafsiridan iborat muqaddas kitobi: miloddan avvalgi IV asrdan milodiy VI asrgacha Tavrotni sharhlash va qayta izohlash natijasida vujudga kelgan.

TALONCHILIK Bironing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun undirish: oshkora yoki yashirin ravishda sodir etilishi mumkin.

TALOQ [a. - ajralish; xotin bilan ajralish, qo'yib yuborish] Islom dini, shariatga ko'ra nikohning bekor qilinishi: er tomonidan shu so'zning aytilishi xotinni barcha xotinlik majburiyatlaridan to'la ozod qiladi. Ayollar ham taloq talab qilish huquqiga ega.

TAMADDUN [a. - madaniyat] Ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va ma'naviy madaniyat darajasi bosqichi. Ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli.

TAMAGIRLIK Butun xatti-harakatini shaxsiy manfaat olishga qaratgan shaxsning xulq-atvorini ta'riflaydigan salbiy sifat; manfaatparastlikning bir ko'rinishi.

TAMOYIL [a. - tebranish; o'zgaruvchanlik; moyillik] Biror-bir ta'limot, dunyoqarashning asosiy, birlamchi qoidasi, ustuvor g'oyalari, amaliy faoliyatning asosiy yo'nalishi; insonning borliqqa munosabati, uning xatti-harakati va faoliyati me'yorlarini belgilovchi ichki omil.

TAMG'A [*turkiy.-mo'g'*. - belgi, muhr] Dastlab turk-mo'g'ul chorvador qavmlarida xususiy mulkning keng tarqalgan belgisi: daraxtga, qurol-yarog'ga, hayvon terisi va b.ga qo'yilgan; keyinchalik: oliy hukmdorning hujjat, yorliq va farmonlariga bosiladigan muhr.

TAN JAZOSI Ibtidoiy jamoa davrida, shuningdek, musulmon huquqida: jinoyat sodir etgani uchun jinoyatchini jismoniy qiynash, azoblash, unga tan jarohati yetkazish; jismoniy jazo.

TAN OLISH Biror-bir mamlakat mustaqilligini rasman e'tirof etish, qo'llab-quvvatlash.

TANAZZUL [*a.* - o'zini past tutish; tubanlashish; inqiroz] Tamaddun va umumijtimoiy taraqqiyotning ziddi, tabiiy-ijtimoiy o'zgarishlarning beqarorlashuvi, inson va jamiyatning zaiflashib, muammolar ichida qolishi.

TANLOV 1 Xodimlarni muayyan lavozimlarga tanlab olishning maxsus tartibi: bunda xodim ish beruvchi tomonidan tanlab olinmaydi, balki kollegial organning qarori asosida tanlab olinadi. **2** Kimoshdi savdosini o'tkazish shakllaridan biri.

TANOSUX [*a.* - ruhning boshqa bировda mavjudligi] Hozirgi odamlarda ilgari zamonlarda yashab o'tgan biror-bir kishining joni yashayotgani haqidagi ta'limot. Islom dinida bu ta'limot qat'iyana rad etilgan.

TANQID [*a.* - baho berish maqsadida tahlil qilish, muhokama qilish] Muayyan narsa haqida salbiy fikr bildi-

rish; kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladigan fikr-mulohazalar yig'indisi.

TANTRIZM Buddizm va hinduiylik dinlarida milodning boshlarida paydo bo'lgan yo'nalish: muqaddas yozuv (tantra)lari bor.

TANTYEMA [*fr.* *tantieme* - ulush, qism] Aksiyadorlar jamiyati, bank va sug'urta kompaniyalari rahbarlari hamda boshqaruv a'zolarini korxonaga olgan foyda hisobidan qo'shimcha rag'batlantirish.

TANXOH [*fors.* - haq, maosh, pul, in'om qilingan yer] XVI - XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda: harbiy kishilar va davlat xizmatida bo'lgan kichik mansabdorlarga xon tomonidan berilgan maxsus in'om; ma'lum hududdan o'z maoshi uchun soliq undirib olish huquqi.

TANZIMAT [*a.* - tartibga solish] Usmonli turk sultonligida o'tkazilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va shu islohotlar o'tkazilgan davr (1839-1870-yillar).

TAOLO [*a.* - yuksaklik; g'urur, mag'rurlik] *din.* Xudo, Ollohning epitetlaridan biri; eng yuksakka, eng yuqoriga ko'tarilgan.

TAOMIL [*a.* - o'zaro aloqa; hamkorlik] Biror jamiyatda, el-xalqda odat hukmiga kirgan tartib-qoida, rasm-rusum, an'ana.

TAQVO [*a.* - dindorlik; xudodan qo'rqish] *din.* Mustahkam diniy e'tiqod; xudojo'ylik, dindorlik, harom-xarishdan hazar qilish, o'zini saqlash.

TAQVODORLIK Barcha dinlarda o'ta dindorlikni ifodalovchi tushuncha:

Qur'on va hadislarda Oллоhdan qo'rqish, do'zaxdan saqlanish, nafsini tiyish va b. mazmunlarda keladi.

TAQDIMNOMA [a.+fors.] Taqdim, tavsiya mazmunidagi yozma hujjat, tavsiyanoma.

TAQDIR [a. – hisoblab chiqarish; e'tirof etish; faraz; baholash] Har bir inson hayoti va faoliyatini hamda olamdagi barcha hodisalarni yagona yaratuvchi – Oллоh amriga bog'lovchi diniy aqida; oldindan belgilab qo'yilgan, peshonaga bitilgan ko'rgilik; yozmish.

TAQCHILLIK Ilgari belgilangan, rejalashtirilgan yoki zarur darajadagi mablag', xazira, mahsulotlarning yetishmasligi, tanqisligi.

TARAFKASH O'zaro qarama-qarshi bo'lgan tomonlardan biriga yon bosuvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, tarafbataraf bo'lib kurashuvchi, guruhboz; biror g'oya yoki harakatni himoya qiluvchi, shu g'oya, harakat uchun kurashuvchi shaxs, tashkilot.

TARAQQIYOT DAVRI Yuksalish, rivojlanishda eng yuqori darajaga ko'tarilish jarayoni.

TARAQQIYOT YO'LI Har bir davlatning o'z rivojlanish yo'li.

TARAQQIYOTNING MUSTAQIL YO'LI Davlat va jamiyat rivojlanishi va o'sishining suveren, ya'ni boshqaga qaram bo'lmagan mustaqil yo'nalishi.

TARAQQIYPARVAR [a.+fors.] Yuksalish, rivojlanish, o'sish, mukammallashish tarafdori, taraqqiyot uchun, jamiyatning olg'a qarab rivojlanishi uchun kurashuvchi.

TARBIYA [a. – rivojlantirish; parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish] Shaxsning ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish hamda rivojlantirish jarayonidan iborat ijtimoiy hodisa. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon.

TARBIYA KOLONIYASI Voyaga yetmagan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan, jazoni ijro etish muassasasi.

TARIF [fr. tarif – aniqlash; qat'iy to'lovlar tizimi < a. – aniqlash; boj to'lovlari haqida bildirish] Turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xizmatlari uchun to'lov stavkalari (haqlari) tizimi.

TARIF VA SAVDO BO'YICHA BOSH BITIM Savdo rejimi va savdo siyosati to'g'risida ko'p tomonlama bitim. Bitimga 1947-yilda dastlab 23 mamlakat imzo chekkan bo'lsa, hozirgi davrda turli shartlar bilan unda 100 dan ortiq davlat ishtirok etadi. Bosh bitim doirasida bojxona bojlarini o'zaro kamaytirish va xalqaro savdodagi boshqa to'siqlar to'g'risida muzokaralar olib boriladi. Qarorgohi Shveytsariyaning Jeneva shahrida joylashgan.

TARIF SETKASI Ish toifalari nisbatiga qarab ish haqi to'lash tizimi.

TARIQAT [a. – yo'l, usul; maslak] Tasavvufga xos tushuncha: so'fiylikda diniy-axloqiy kamolotga va chin haqiqatga erishish yo'li. Unga ko'ra, so'fiy tirikchilikning barcha tashvish-

laridan voz kechishi, doim kambag'allikda qanoat qilib yashashi, tarkidunyo qilishi, har narsani xudodan deb bilishi, xudoni sevishi va unga intilishi, ixtiyori-ni pir, murshidga topshirishi lozim.

TARIX [a. - o'tmish; davr, vaqt; sana] **1** Jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyotini o'rganuvchi fan. **2** Tabiat va jamiyatning, undagi ma'lum sohalarining rivojlanishi, o'zgarishi bilan bog'liq tomonlarni o'rganuvchi fan. **3** O'tmishga oid fakt va hodisalar majmui; o'tmish; kechmish.

TARIX FALSAFASI Tarixni falsafiy sharhlash va baholash. Tarix falsafasi uchun inson hissiyoti va tuyg'usi orqali olamni anglash, o'tmishga nazar solish va uni baholash asosiy mezon sanaladi.

TARIX FANI Insoniyat va uning mahsuli bo'lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyoti jarayonini o'rganuvchi fan.

TARIXIY O'tmishga, tarixga oid; biror voqea-hodisaning butun tarixiga oid, butun tarixiy jarayoni bilan bog'liq.

TARIXIY AN'ANALAR Tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan ma'naviy hodisalar.

TARIXIY MAKTAB Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tarixiy jihatdan tushunishga, ularni batafsil tadqiq etishga asoslangan yo'nalish.

TARIXIY MANBALAR Kishilik jamiyati tarixini o'rganish uchun asosiy material xizmatini o'taydigan moddiy va

madaniy yodgorliklar va asarlar. Tarixiy manbalar, asosan, ikki qismga bo'linadi: **1)** moddiy yoki moddiy-madaniy yodgorliklar; **2)** yozma manbalar (yilnomalar, xronologik manbalar, geografik, biografik asarlar, etnografik va lingvistik manbalar, toponimika, folklor, rasmiy hujjatlar va h.k.).

TARIXIY MATERIALIZM [lot. materialis - moddiy] Tarixni materialistik tushunish; kishilik jamiyati taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan. Unga ko'ra, kishilar ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatida bo'ladilar.

TARIXIY YODGORLIKLAR Insoniyat jamiyati tarixi haqida dalolat beruvchi o'tmish yodgorligi; o'tmishdan qolgan, eslab yuriladigan narsa, me'moriy obida. Tarixiy yodgorliklar - moddiy yodgorliklar, memorial yodgorliklar, og'zaki va yozuv yodgorliklariga bo'linadi. Tarixiy yodgorliklar va manbalar, odatda, qonun bilan qo'riqlanadi.

TARIXIY SHAXS Insoniyat va jamiyat uchun qilgan buyuk xizmatlari bilan tarixda munosib o'rin qoldirgan shaxs.

TARIXIYLIK Har bir narsa yoki hodisani uni yuzaga keltirgan aniq tarixiy sharoit bilan uzviy bog'lanishda tekshirish va baholashdan iborat dialektik tamoyil.

TARIXNING BURILISH NUQTASI Muayyan bir xalqning, millatning kela-jak taqdiri hal qilinadigan vaqt.

TARIXSHUNOSLIK Tarix fanining tarixini, insoniyat jamiyati taraqqiyoti hamda tarixiy tadqiqot metodlari-

ning takomillashtirilishi haqida bilimlar to'plash, sinflar kurashini aks ettiradigan ijtimoiy hodisalarni talqin etish sohasidagi oqimlar kurashi va tarixiy taraqqiyot qonunlarini ochish tarixi kabilarni o'rganuvchi fan.

TAROVIIH [a. – hordiq chiqarish, tin olish] *din*. Ro'za kunlari kechki, oxirgi namozdan keyin o'qiladigan qo'shimcha namoz.

TARXON [*turkiy.+mo'g'*. – temirchi; ozod kishi] *tar*. **1** Ayrim turkiy xalqlarda o'rta asrlarda: soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan; imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug', zot yoki mansabdor). **2** Tarxon (darxon) imtiyoziga ega bo'lgan shaxslarga qarashli yersuv, mol-mulk.

TARXONLIK YORLIG'I O'rta asrlarda markaziy hukumat tomonidan tarxon imtiyozini olgan kishilarga berilgan maxsus yorliq (inoyatnoma).

TARG'IBOT [a. "targ'ib" (rag'batlantirish, qiziqtirish) so'zining ko'pligi] Ijtimoiy faoliyatning alohida turi: ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarini, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat.

TASARRUF [a. – o'z ixtiyoriga olish, egalik qilish] Biror narsadan foydalanish, egalik huquqi, ixtiyori; egalik, xo'jayinlik.

TASAVVUF [a. – so'fiylik] Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda umuminsoniy va diniy, ma'naviy-axloqiy tamoyillarning uyg'unlashtirilishi; islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi, uni ruhiy-axloqiy jihatdan komillik sari

yo'llovchi ta'limot, diniy e'tiqod; so'fiylik.

TASBEH [a. – (xudoni) maqtash, vasf etish] Xudoning nomini zikr etish, duolar va ibodat so'zlarini hisoblash uchun ishlatiladigan munchoq shodasi.

TASNIF [a. – saralash, turlarga ajratish, tartibga solish] Hodisa, narsa va tushunchalarni ma'lum bir belgilariga ko'ra mantiqiy tur, turkumlarga ajratish; klassifikatsiya.

TAXT [*fors.* – o'rindiq] Saroyda hukmdor (shoh, xon, xoqon, qirol, amir va b.) rasmiy qabul marosimi, mashvarat va turli tantanalar paytida o'tiradigan, maxsus joyga o'rnatilgan, qimmatbaho ma'danlar bilan ziynatlangan o'rindiq.

TAXT VORISI *ayn. valiahd*.

TAXTIRAVON [*fors.* – yuruvchi taxt] Qadimgi va o'rta asr Sharq mamlakatlarida ikki uzun yog'ochga o'rnatilib ko'tarib yuriladigan o'rindiq, ikki uchidan (sopidan) ikki kishi yelkasida ko'tarib yurgan. Unda podsho, xon, amir, lashkarboshi, turli amaldorlar, shuningdek, malikalar, badavlat xonadonlarga mansub ayollar ko'tarib yurilgan.

TAVHID [a. – birikish, yaxlitlanish] Umumiy ma'noda – yaratuvchining yagonaligi va barcha mavjudot manbai ekanligi g'oyasi. Tavhid islomda Ollohga shirk keltirishning turli ko'rinishlaridan voz kechish va Ollohning birligiga e'tiqod qilishdir.

TAVOF [a. – atrofida yurish, aylanish] – *din*. Ka'ba atrofida aylanish jarayoni. Haj va umra marosimlari tarkibiga kiradi. Umra qiluvchilar bir marta, hajga

kelganlar uch marta tavof amalini ado etadi.

TAVQE [a. - imzo(lash), uyg'unlik; shoh yorlig'i, farmoni, muhri] Xattotlik uslubi, arab yozuvidagi xat uslublaridan biri. Shohning farmon va nishonlari, qozixona, mahkama hujjatlari, asosan, tavqeda yozilgan. Ba'zi hollarda Qur'on suralarining boshlanishi, undan keltirilgan ibora va jumlar hamda kitob xotimalari ushbu uslubda bitilgan.

TAVROT [qad.yah. tora - ta'limot, qonun] din. Iudaizm (yahudiylik) dini ning muqaddas kitobi.

TAVSIFNOMA [a.+fors.] Biror kishiga oid ma'lumotlar; uning sifatleri qayd etilgan hujjat, yozma tavsif.

TAVSIYANOMA [a.+fors.] Yozma tavsiya, maslahat (rasmiy hujjat turlaridan biri).

TASHABBUS [a. - tirishqoqlik; Qat'iylik; g'ayrat] Faoliyatning yangi shakllariga bo'lgan ichki g'ayrat, tadbirkorlik, biror harakatdagi rahbarlik. Shaxslar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy faollik, ijtimoiy ijod ko'rinishlaridan biri.

TASHABBUSKORLIK Shaxsning ijtimoiy-siyosiy faoliyat jarayonida biror ishni boshlash, unga da'vat etish, ijodiy yondashishda namoyon bo'ladigan xususiyati.

TASHKILY HUYJATLAR Tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarining huquqiy

tomonlari kabi masalalarni aks ettiruvchi hujjatlar, mas.: guvohnoma, yo'riq-noma, nizom, ustav, qoida, shartnoma h.k.

TASHKILY MADANIYAT Biror-bir tashkilot, jamoa, ishchi guruh orasida ish faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish madaniyati.

TASHKILY-SIYOSIY ISH Tuzish, tuzilish va siyosiy masalalar bilan bog'liq bo'lgan vazifa.

TASHKILY-XO'JALIK ISH Biror korxonaga yoki tashkilotning tuzilishi va xo'jaligiga doir faoliyat.

TASHKILOT [a. "tashkil" (tuzilish, shakllanish; muassasa; tarkib) so'zining ko'pligi] Aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan, ijtimoiy xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi..

TASHKILOTCHI Biror korxonaga yoki tashkilotni tuzgan shaxs yoki ijtimoiy guruh; biror ish-harakatni boshlab bergan, tashkil etgan, uyushtirgan yoki boshchilik qiladigan shaxs yoki ijtimoiy guruh.

TASHKILOTCHILIK Tashkillashtirish, uyushtirish, boshchilik qilish ishi, faoliyati bilan shug'ullanish.

TASHQI ALOQALAR Mamlakat yoki uning davlat organlari, yuridik hamda jismoniy shaxslarining boshqa xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslari, fuqarolari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatishga va uni rivojlantirishga qaratilgan harakatlari yig'indisi.

TASHQI BOSHQARUV Bankrot bo'lgan korxonada ishni qayta tashkil etish jarayoni.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT *q.* tashqi aloqalar.

TASHQI ISHLAR Davlat tomonidan xalqaro maydonda hal qilinadigan tashqi siyosiy (boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy munosabatlar), tashqi iqtisodiy, shu bilan birga, qisman harbiy masalalarning umumlashgan nomi.

TASHQI MUNOSABATLAR ORGANLARI Bir davlatning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tashqi aloqalarini amalga oshiradigan, shuningdek, ushbu davlatning xalqaro munosabatlardagi huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organlar. Bular: parlament, davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vazirligi, tashqi iqtisodiy aloqalar idorasi, chet ellardagi elchixonalar, konsulxonalar va x.k.

TASHQI RAZVEDKA Xavfsizlikni ta'minlash kuchlarining tarkibiy qismi sifatida davlat tomonidan maxsus tuziladigan, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini tashqi tahdidlardan himoya qilishni ta'minlashi lozim bo'lgan organ.

TASHQI RAZVEDKA XIZMATI Mavjud qonunlardan foydalangan holda, jamiyat, davlat va shaxsning xavfsizligini ta'minlash maqsadida maxsus tuzilgan davlat organlari majmui.

TASHQI SAVDO Muayyan bir davlatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni oldi-sotdi qoidalari bo'yicha boshqa mamlakatlarga eksport qilish (olib chiqish) va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa bir davlatga import qilish (olib kirish).

TASHQI SAVDO MONOPOLIYASI

Muayyan bir davlatning mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishdagi favqulodda huquqi. Tashqi savdo monopoliyasi maxsus idora etish organlari orqali tashqi iqtisodiy faoliyatga davlatning rahbarlik qilishini, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan tashkilotlarni aniqlashni, tashqi savdoni rejalashtirishni, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni valyuta bilan tartibga solib turishni, mahsulotlar olib kelish va olib chiqish tartibini o'rnatishni, shuningdek, ana shu tartiblarga rioya qilish ustidan nazorat qilishni anglatadi.

TASHQI SIYOSAT Ma'lum bir davlatning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarining butun majmui, shuningdek, davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy tutgan yo'li; xalqaro maydonda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga solib turuvchi siyosat. Tashqi siyosat ichki siyosat bilan chambarchas bog'langan va har ikkalasi birgalikda davlat hamda ijtimoiy tuzumning xususiyatlarini ifodalaydi.

TASHQI SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI Davlatning xalqaro munosabatlardagi asosiy yo'nalishini belgilovchi asosiy omillar, prinsiplar.

TASHQI TOLERANTLIK Shaxsning o'zida shakllangan bag'rikenglik tamoyillarini birovlariga nisbatan qo'llay olish va boshqalar bilan hamkorlik qilish jarayoni.

TASHRIF [*a.* - hurmat, ehtirom; marhamat qilib kelish] Biror davlatga,

yerga, yurtga, xonadonga yoki biror kimsa huzuriga qisqa muddatga borish, kelish; vizit.

TASHVIQOT [*a.* "tashviq" (qiziqish, xohishni kuchaytirish) so'zining ko'pligi – shavq uyg'otish] Kishida biror narsaga qiziqish, ishonch tuyg'ularini uyg'otish maqsadida yozma va og'zaki tarzda qilinadigan tadbirlar.

TANGRI [*mo'g'.* tenger – osmon, xudo] Olooh, Xudo, Parvardigor; dinda xudoning nomi. Ushbu termin Osiyodagi ko'plab xalqlarning eng qadimiy mifologik fondiga kiradi.

TA'BIRNOMA [*a.+fors.*] Tush ta'biri-ni bayon qiluvchi kitoblar majmui.

TA'LIM [*a.* – o'rgatish, o'qitish, ilm berish; ma'lumot] **1** Inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni. **2** Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui.

TA'LIM FALSAFASI Ta'limning mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini va inson rivojlanishidagi o'rnini tadqiq etuvchi nazariy soha.

TA'LIM GRANTLARI O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining yuksalishi, yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom o'sishi va ularni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan jamg'arma.

TA'LIM IDEOLOGIYASI Davlat va jamiyat hayotida ta'limga oid g'oya va qarashlar tizimi, uning maqsadi, unga erishish yo'llari. O'z mohiyatiga ko'ra, u umumiy pedagogik yo'nalish, biror ki-

shi, ijtimoiy guruh, tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar va partiyalar ilgari suradigan tushunchalarning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tavsifidan iborat.

TA'LIM INNOVATSIYALARI Xilma-xil tashabbuslar va yangiliklar asosida vujudga kelgan, ta'limning rivojlanishi uchun istiqbolli hisoblangan, keng multimadaniy ta'lim makoni taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, dolzarb ahamiyatga molik yangi pedagogik hodisalar.

TA'LIM INFRATUZILMASI Ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning yig'indisi, majmui.

TA'LIM JARAYONI Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni.

TA'LIM KONSEPSIYASI Ta'limdagi muayyan narsa yoki hodisaning tizimli tavsifi. Bu uning tushunilishiga, sharhlanishiga, uning qurilishi yoki faoliyat ko'rsatishi bo'yicha yetakchi g'oyalarning aniqlanishiga ko'maklashadi.

TA'LIM OLISH HUQUQI O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 9 yillik umumiy o'rta ta'lim va 3 yillik ixtiyoriy-majburiy o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini olish huquqi.

"TA'LIM – OMMAGA" Jamiyat barcha a'zolarining jinsidan, ijtimoiy holatidan hamda moddiy ta'minlanganlik darajasidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqini bayon etuvchi, ta'limni rivojlantirish borasidagi YUNESKO tomonidan ilgari surilgan global konsepsiya.

TA'LIM SIFATI NAZORATI Ta'limning davlat ta'lim standartlariga mos

bo'lishini ta'minlash ustidan olib boriladigan nazorat.

TA'LIM SIYOSATI Ijtimoiy tashkilotlar va davlat hokimiyati idoralarining ta'lim tizimining amal qilishi va rivojlantirishini belgilovchi, ta'lim to'g'risidagi mavjud qonunchilikni, ta'limdagi tashkilotchilik va boshqaruvchilik faoliyati umumiy yo'nalishini aks ettiruvchi faoliyati.

TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI TAMOYILLARI Biror-bir mamlakatning ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplari. Masalan, O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini - akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish va sh.k.

TA'LIM STANDARTI Ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlantirishning muayyan bosqichida turmush uchun zarur va yetarli deb hisoblangan o'rtacha statistik darajasi.

TA'LIM STRATEGIYASI Ta'lim siyosatining asosi bo'lib hisoblanuvchi konsepsiya. Ta'lim tizimini yaxlit ijtimoiy institut sifatida rivojlantirishning uzoq muddatli, eng oqilona, muhim qoidalari, rejalari, asosiy yo'nalishlari va tamoyillari.

TA'LIMDAGI DISKRIMINATSIYA Muayyan toifadagi fuqarolarning to'laqonli ta'lim olishi haqida rasman e'lon qilingan huquqlarini cheklash yoki undan mahrum qilish.

TA'LIMNI BAYNALMILALLASHTIRISH Turli mamlakatlar milliy ta'lim amaliyotida umumiy unsurlarning ko'payishi; texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tavsifidagi muayyan o'xshashlikka, shuningdek, xalqaro uyg'unlashish jarayoniga asoslanadi.

TA'LIMNI INSONPARVARLASHTIRISH Ta'lim jarayonini shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga, umuminsoniy ustuvor qadriyatlarga, shaxs va ijtimoiy fikrning o'zaro aloqasini optimallashtirishga qaratish.

TA'LIMNI MINTAQALASHTIRISH Ta'lim tizimida: ta'limning mintaqasharoitlari va ehtiyojiga yo'naltirilishini kuchaytirish bilan tavsiflanuvchi zamonaviy rivojlanish yo'nalishlaridan biri.

TA'LIMNING MILLIY MODELI Ta'lim tizimini yangilangan, sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish

bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondashuvlar majmui.

TA'LIMOT [*a.* "ta'lim" so'zining ko'pligi.] Ijtimoiy hayot, jamiyat, fan sohaları va sh.k.lar to'g'risidagi ilmiy qarashlar, nazariy qoida va xulosalar majmui; nazariya.

TA'SIS ETISH [*a.* – tuzish, tashkil etish; joriy qilish] Yangi organni tuzish, huquqiy institutni shakllantirish.

TA'TIL [*a.* – to'xtash, to'xtatish; berkitish] Xodimlarga ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlangan holda, har yili dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun beriladigan vaqt, muddat.

TA'ZIYA [*a.* – yupatish, hamdardlik bildirish] Biror kishining vafoti munosabati bilan tutiladigan aza, motam; azador kishiga tasalli berish, hol-ahvol so'rash, hamdardlik bildirish odati.

TEIZM [*yun.* theos – xudo] Diniy-falsafiy ta'limot: Xudo olamdan tashqarida turadi, u olamni o'z irodasi bilan yaratgan va olamda mavjud bo'lgan mutlaq shaxs deb tushunuvchi diniy dunyoqarash.

TEKINXO'RLIK Ijtimoiy hayotda – boshqalarning mehnati hisobiga, mehnat qilmay topilgan daromadlar hisobiga, buning ustiga boshqa kishilarning kuchini va imkoniyatini ekspluatatsiya qilish orqali yashash.

TELEOLOGIYA [*yun.* telos, teleos – maqsad + logos – ta'limot, tushuncha] Maqsad va maqsadga muvofiqlik haqidagi ta'limot: bu ta'limot tabiat hodisa va jarayonlariga maqsadlar (maq-

sadga muvofiqlik yoki biror maqsadga yo'nalish qobiliyatini) sabab qilib ko'rsatadi, bu maqsadlar xudo tomonidan belgilanadi yoki tabiatning ichki sabablari hisoblanadi, deb biladi.

TELERADIOKOMPANIYA Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy axborotlarni tarqatuvchi ommaviy axborot vositasi hisoblanuvchi televideniye va radio birlashmasi.

TELEVIDENIYE [*yun.* tele – uzoq va *rus.* видение – ko'rish] Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy axborotlarni oq-qora yoki rangli tasvirda ko'rsatish orqali tarqatuvchi ommaviy axborot vositasi.

TEMIR DAVRI Insoniyatning ibtidoiy jamoa va ilk ishlab chiqarish xo'jaligi shakllanayotgan davri. Bu davr xo'jalikda temir metallurgiyasi yuzaga kelishi, tarqalishi va temir qurollar ishlatilishi bilan belgilanadi. "Temir davri" atamasi, garchi antik dunyoda tosh, jez asri tushunchalari qatorida vujudga kelgan bo'lsa-da, fanga XX asr o'rtalarida daniyalik arxeolog K.Tomsen tomonidan kiritilgan.

TENDENSIOZLIK [*lot.* tendere – harakat qilmoq, yo'nalmoq, intilmoq] Muayyan bir an'anaga, tendensiyaga asoslanganlik, oldindan o'ylab qo'yilgan g'oya, fikr, qarorga ishonirishga intilishlik.

TENDENSIYA [*nem.* Tendenz < *lot.* tendere – yo'nalmoq, intilmoq] Biror narsaga ongli ravishda berilish, intilish, moyillik; biror hodisa taraqqiyotidagi yo'nalish.

TENDER [ingl. tender < tend - xizmat ko'rsatmoq, xizmat qilmoq] **1** Ochiq turdagi yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli. **2** Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, muddatli shartnoma bo'yicha mahsulotlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma taklif. **3** Xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, inženerlik xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish.

TEOKRATIYA [yun. theos - xudo + kratos - hokimiyat] Davlat boshqaruvi shakli. Bunda davlat (odatda, monarxiya davlati)ning boshlig'i bir vaqtning o'zida diniy boshliq ham hisoblanadi. Teokratiya "ilohiy hokimiyat" ma'nosini ham anglatadi.

TEOLOGIYA [yun. theos - xudo + logos - ta'limot, tushuncha] Xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta'limotlar majmui, ilohiyot: Xudo o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi, degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi.

TERROR [lot. terror - qo'rqinch, dahshat] Qo'rqitish, zo'raonlik siyosati, siyosiy muxoliflarni zo'raonlik bilan bostirish, shuningdek, dushmani jismoniy jihatdan yo'q qilib tashlashgacha borish, undan o'ch olish.

TERRORISTIK HARAKAT Konstitutsiyaviy tuzum asoslariga va davlat

xavfsizligiga qarshi qaratilgan, davlat yoki jamoat arboblari hayotiga suiqasd qilish bilan bog'liq bo'lgan yovuzlik, terrorchilik harakati.

TERRORIZM [lot. terror - qo'rqinch, dahshat] Jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat: xalqning tinchligini buzish, qo'rqitish yoki hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir o'tkazish maqsadida odamlarning hayotiga xavf soladigan, mol-mulkka katta miqdorda ziyon yetkazadigan yoki jamiyat uchun xavfli oqibatlariga olib keladigan harakatlarni (ta'qib qilish, garovga olish, qotillik, buzish, portlatish, o't qo'yish va h.k.) sodir etish.

TEST [ingl. test - sinash, tekshirish] Shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatleri, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart topshiriqlar, mashqlar.

TETRARX [yun. tetrarch - to'rt hokim] To'rt kishi birgalikda boshqargan davlatda to'rt hokimdan biri, tetrarxiya hukmdori.

TETRARXIYA [yun. tetrarchia - to'rt hokimiyatchilik] Qadimgi Yunonistonda: to'rt ma'muriy va harbiy okrugga bo'lingan viloyat, tetrarx boshqaradigan viloyatning to'rtinchi qismi.

TENG SAYLOV HUQUQI Har bir fuqaro - saylovchi bir ovozga ega, saylovda barcha teng asoslarda qatnashadi: ayollar va erkaklarning teng saylov huquqlariga egaligi; harbiy xizmatchilar ham barcha boshqa fuqarolar

bilan teng ravishda saylov huquqlariga egaligi; hech kim saylovda boshqa shaxslarga nisbatan biror-bir afzallikka ega emasligi.

TENGLIK Jamiyatdagi barcha shaxs, qatlam, guruh, partiya va sh. k.larning qonun oldida baravarligi, har bir shaxs teng hajmdagi huquq va erkinliklarga ega bo'lish bilan birga, unga bir xil hajmdagi yuridik majburiyatlar ham yuklatiladi. Odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-mezonga soladigan, turli kamsitishlar yoki ortiqcha tobeliklarga chek qo'yadigan tenghuquqlilik.

TENGHUQUQLILIK Fuqarolarning davlat, qonun, sud oldida rasman e'tirof etilgan tengligi. Ularning huquq, erkinlik va majburiyatlarga bir xil hajmda ega bo'lishi; ikki tomonlama kelishuv va o'zaro munosabatlarining o'zaro tenglikda hal etilishi.

TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH HUQUQI Fuqarolarning ijtimoiy huquqlaridan biri: yetarli darajada malakali tibbiy mutaxassislar, zamonaviy tibbiy uskunalar, samarali dori-darmonlardan foydalanish huquqi.

TIL BIRIKTIRISH Ikki yoki undan ortiq jismoniy yoki yuridik shaxslarning o'zaro kelishib olishi, biror ish bo'yicha (odatda, kimlardandir yashirin holda) muayyan xulosaga kelib olishi.

TILXAT Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

TIM [fors. - bozor (yaqini)dagi karvonsaroy; gumbazli bino] Sharq mamlakatlarida, shuningdek, Markaziy Osiyo shaharlarida zo'r did bilan qurilgan, usti gumbaz shaklida yopilgan va ko'plab savdo do'konlari hamda hunarmandchilik ustaxonalarini o'z ichiga olgan maxsus bozor; karvonsaroy.

TIMOKRATIYA [yun. timokratia < time - shon-sharaf + kratos - kuch, hokimiyat] Fuqarolarning mulkiga, mavqeyiga yoki daromadiga yarasha siyosiy huquqqa ega bo'lish tartibi o'rnatilgan davlat. Unda hokimiyat yuqori mulk egalari qo'lida bo'ladi.

TINCHLIK Xalqlar va davlatlar o'rtasida zo'rlik ishlatmasdan tashqi siyosat olib borishga, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga va, odatda, xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishga asoslangan tinch holat.

TINCHLIK KORPUSI Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ishlash uchun turli kasb-kordagi amerikalik mutaxassislar orasidan "ko'ngillilar" yuborish yo'li bilan ana shu mamlakatlarga rasman yordam berish maqsadida 1961-yilda AQSHda tuzilgan tashkilot.

TINCHLIK TARAFDORLARI HARAKATI Urushga qarshi, tinchlik, xalqlar xavfsizligi va hamkorligi uchun boshlangan, turli millat, siyosiy va diniy e'tiqoddagi kishilarni birlashtirgan xalqaro ommaviy harakat. 1949-yilda Tinchlik tarafdorlari harakati I jahon kongressida 72 mamlakatdan kelgan 2 mingdan ortiq vakil ishtirokida rasmiylashtirilgan.

TINCHLIK VA BARQARORLIK

Urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy yo'llar bilan hal etish; mamlakat ichidagi kelish-movchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash tamoyillari.

TINCHLIK XIYOBONI Yaponiyaning atom bombasi tashlangan Xirosima shahridagi xotira maydoni.

TIRAN [*yun.* tyrannos - o'zboshimcha] Qadimgi shahar-davlatlarda zo'rvonlik bilan hokimiyatni egallab olgan shaxs; hokimiyati o'zboshimchalik va zo'rvonlikka asoslangan hukmdor.

TIRIKCHILIK MINIMUMI Muayyan davr (yil, oy)da kishining tirikchiligini quyi darajada ta'minlash uchun zarur bo'lgan ne'matlar, hayot vositalari to'plami qiymati; ishlaydigan odamlarga oilani (yoki bir kishini) boqish uchun eng kam - minimal darajada zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning pulda ifodalangan qiymati.

TITUL [*lot.* titulus - ustyo'zuv; faxriy unvon] Feodal jamiyat davrida avloddan avlodga o'tgan yoki in'om etilgan faxriy unvonlar (amir, sulton, xon, graf, knyaz, lord va h.k.); ayrim mamlakatlarda hozirgi kunga qadar saqlangan.

TITUL MILLAT Ijtimoiy fanlarda, shuningdek, konstitutsiyaviy huquqda qo'llanadigan, nomi muayyan bir davlat yoki milliy-davlat tuzilmasini nomlash uchun asos bo'lgan millat.

TIG'DAN O'TKAZISH Aholini yop-pasiga qirish, qatliom: odatda, dush-manga qattiq qarshilik ko'rsatgan va

uning g'azabini qo'zg'agan manzilgohlar aholisi shunday jazoga loyiq ko'rilgan.

TOAT [*a.* - itoat qilish, bo'syunish] Ollohga e'tiqod qilish, itoat etishni namoyon qilish; diniy majburiyatlarni ado etish.

TOBELIK Qaramlik, bironing ixtiyorida, izmida bo'lish; erksizlik.

TOBE'INLAR [*a.* - qaram, izdosh] Muhammad payg'ambarning as'hab (do'st)larini ko'rgan kishilar: Islom tarixida sahobalardan keyin ularning ishini davom ettirgan ilohiyotchilar qatlami.

TOIFAVIY MONARXIYA *ayn. ta-baqaviy monarxiya.*

TOJ [*fors.* - gulchambar; jig'a; gulto] Hukmdorning mavqeyi, darajasi, martabasini bildiradigan, qimmatbaho toshlar qadalgan bosh kiyim: monarxiya davlatlarida davlat hokimiyati belgisi.

TOLERANTLIK [*lot.* tolerantia - sabr-toqat, chidam] Bag'rikenglik, chidamlilik: o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish.

TOPSHIRILADIGAN OVOZ Ovoz berish vakolatini boshqa shaxsga topshirish bilan bog'liq saylov tizimining bir turi: unda saylovchi saylov ro'yxatida o'zi afzal ko'rgan nomzodni belgilaydi.

TORI [*ingl.* tory - katta yer egalari] Angliyada katta yer egalari - dvoryanlar va ruhoniylarning manfaatlarini ifodalovchi, XVII asr 70-yillar oxiri - 80-yillar boshlarida yuzaga kelgan siyosiy partiya; XIX asr o'rtalarida tori

konservatorlar partiyasining vujudga kelishiga asos solgan.

TOTAL URUSH [*lot.* totalis - butun, barcha; to'la, mukammal] Tinch aholini, uning moddiy va madaniy boyliklarini ommaviy suratda yo'q qilib tashlash, qurolli kuchlardan, barcha zaxira va vositalardan beistisno foydalanish bilan xarakterlanadigan, aholining katta qismi bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan harbiy harakatlar; yalpi urush.

TOTALITAR [*fr.* totalitaire < *lot.* totalis - butun, to'la, mukammal] Totalitarizmga asoslangan, doir.

TOTALITAR DAVLAT Jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi, to'la nazorati o'rnatilgan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tugatilgan, taraqqiyparvar tashkilotlar va arboblarga qarshi terror uyushtirilgan, bir shaxs yoki guruhlarining yakkahokimligi amalga oshirilgan rejim; siyosiy boshqaruv shakli.

TOTALITAR MAFKURA Jamiyatning har bir a'zosi amal qiladigan, keng qamrovli siyosiy doktrinalar yig'indisi.

TOTALITAR SOTSIALIZM Sobiq sho'rolar vaqtida (1917-yil oktyabridan 1991-yil avgust oyigacha) hukm surgan istibdod davri: xususiy mulkdan mahrum aholining davlatga, hukmron mafkuraga qaram bo'lib qolishi, bozor munosabatlarining va xususiy mulkchilikning yo'q qilinishi, uning o'rniga yagona davlat va kolxoz-kooperativ mulkining o'rnatilishi, barcha fuqarolarning davlatning dastyoriga aylantirilishi bilan xarakterlanadi.

TOTALITAR TUZUM Istibdod, mustabidlik tuzumi: fuqarolar ustidan cheklanmagan hukmronlikning o'rnatilishi, avtoritar hokimiyat, diktatura, zo'ravonlik, mustamlakachilik, qatag'on kabi ijtimoiy holatlar bilan uzviy bog'liq yakkahokimlik tuzumi.

TOTALITARIZM [*fr.* totalitarisme < *lot.* totalis - bir butun, to'liq, yaxlit] *siyos.* Davlat boshqaruvi shakllaridan biri: jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi (total) nazorat o'rnatishi, konstitutsion huquq va erkinliklarining yo'qotilishi, bir shaxs yoki ijtimoiy guruh (siyosiy partiya)ning yakkahokimligi, muxoliflarga nisbatan qatag'on uyushtirilishi bilan xarakterlanadi.

TOTEM [*ingl.* totem < *indeyscha* ototem - "uning nasli, urug'i"] ma'nosidagi so'z: muqaddas sanalgan narsa] *etn.* Ibtidoiy urug', qabilalarda diniy hurmat-ehtirom obyekt bo'lgan, ya'ni ilohiylashtirilgan hayvon, o'simlik, biror narsa-buyum yoki tabiat hodisasi (har bir urug', qabila o'z totemi nomi bilan atalgan).

TOTEMIZM [*ingl.* totemism] *etn.* Ilk urug'chilik tuzumidagi din, e'tiqod shakli; ma'lum bir urug'ning urug' asoschisi va homiysi deb hisoblangan biror-bir totem bilan g'ayritabiiy aloqasiga va qon-qarindoshligiga ishonch bilan xarakterlanadi.

TOTUVLIK Odamlar, oila, mahalla yoki guruh a'zolari orasidagi o'zaro ahil ma'naviy-murosaviy munosabat; fuqarolarning ma'naviy-axloqiy mezonlari,

xatti-harakatlari, hayotga munosabatlarida ko'zga tashlanadigan ma'naviy hodisa.

TOVAR Inson mehnatining mahsuloli. Insonning biror ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan hamda ayirboshlash (oldi-sotdi) vositasi, bozor munosabatlari obyekti.

TOVAR BIRJASI Yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, birja savdosini tashkil qilish yo'li bilan ulgurji bozorni amalga oshiruvchi va tartibga soluvchi tashkilot.

TOVON TO'LASH *huq.* Fuqaroning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan moddiy ziyonni yoxud uning o'ziga yetkazilgan ma'naviy zararining o'rnini qoplash.

TOYON [*turkiy.* - qabila boshlig'i] XVII asrda yoqutlar (saxalar)da qabila boshlig'i unvoni: Sibir Rossiya tarkibiga kiritilgach, toyonlar rus ma'muriyatining tayanchiga aylangan.

TRANSFERT, transfer [*fr.* transfert - o'tkazish, ko'chirish, jo'natish < *lot.* transferre - o'tkazmoq, ko'chirmoq, jo'natmoq] **1** Chet el valyutasi yoki oltinni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish. **2** Nomi yozilgan qimmatli qog'ozlarga egalik huquqini bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga berish. **3** Bitishuvlarga doir to'lovlarni bir hisob varaqdan boshqasiga o'tkazish; markaziy hokimiyat tomonidan undirilgan soliqlarning bir qismini mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazish. **4** Davlatlar o'rtasida kelishuv asosida aholini ayirboshlash; fuqarolikning avtomatik o'zgarishi.

TRANSFORMATSIYA HARAKATI

Tub ijtimoiy o'zgarishlar o'tkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ijtimoiy harakat.

TRANSMILLIY [*lot.* trans - uchun, orqali + milliy] Bir millat, mamlakat doirasidan chiqadigan, xalqaro yoki mintaqaviy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq.

TRANSMILLIY JINOYATCHILIK Noqonuniy migrantlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik.

TRANSMILLIY KORPORATSIYA

Bir necha mamlakat kapitallarining birlashuvi yoki individual kapital faoliyatining yiriklashib, xalqaro ahamiyat kasb etishidan shakllangan birlashma.

TRANSENDENTALIST Transsendentalizm vakili, shu ta'limot tarafdori.

TRANSENDENTALIZM [*lot.* transcendens, transcendentis - chegaradan chiquvchi] Ijtimoiy-siyosiy hodisalarni tajriba bilan emas, aql-idrok bilan tasavvur etish mumkin, deb biladigan idealistik falsafiy ta'limot.

TRAYBALIZM [*ingl.* tribalism < tribal - qabila, urug'ga oid] Qabilalar o'rtasidagi nizo; qabilalarning ajralib chiqishga, alohidalikka intilishi; urug'-qabilachilikka bo'linish odati hali ham mavjud bo'lgan jamiyatda traybalizm uchrab turadi.

TRED-YUNIONIZM [*ingl.* tradeunionism < trade - kasb-hunar + union - birlashma, ittifoq] **1** XIX asrda korxonalar rahbarlarining zug'umiga qarshi turish maqsadida tuzilgan ishchi kasaba uyushmalari. **2** Ingliz tili-

da so'zlashuvchi, Britaniya imperiyasi doirasidagi bir qator mamlakatlarda: milliy kasaba uyushmalarining nomi.

TREST [ingl. trust – umid, ishonch; vasiylik] Monopolistik birlashma shakllaridan biri; ishtirok etuvchilar ishlab chiqarish, tijorat va yuridik mustaqilligini to'la yo'qotib, yagona boshqaruvga bo'ysunadi.

TRECHENTO [ital. trecento – uch yuz] XIV asrning italyancha nomi, bu davr italyan madaniyatida gumanizm g'oyalari jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi.

TRIBUNAL [lot. tribunal – sud qilinadigan joy] **1** Sud hay'ati; favqulodda yoki ixtisoslashgan sud. **2** Mamlakatning mudofaa hamda harbiy qudratiga putur yetkazishga qaratilgan jinoyatlarni ko'rib chiquvchi harbiy sud.

TRIBUNLAR [lot. tribunus – mansabdor kishi; otashin kurashchi, notiq] **1** Qadimgi Rimda turli mansabdor kishilar nomi. **2** Jamoat arbobi – mashhur notiq va publitsistlar.

TRIUMF [lot. triumphus – oliy tantanali marosim] Qadimgi Rimda muzaffar sarkardaning qo'shin bilan poytaxtga tantanali kirib kelish marosimi: senat qarori bilan o'tkazilgan va sarkarda uchun eng oliy mukofot sanalgan.

TRIUMVIRAT [lot. triumviratus < tres, trium – uch + vir – erkak] **1** Qadimgi Rimda miloddan avvalgi I asrda davlatni boshqarish va senatorlar oligarxiyasiga qarshi kurashish maqsadida uchta

nufuzli siyosiy va harbiy arbobning ittifoqi.

TROGLODIT [yun. troglodytes – g'orda yashovchi] G'orlarni makon tutgan jundor, nutqi rivojlanmagan ibtidoiy odam.

TRUBADURLAR [fr. troubadour < provanscha. trobador, trobar – topish, she'r yig'ish] XI – XIII asrlarda Fransiya, Italiya, Ispaniyadagi provans shoir-qo'shiqchilar va she'riyat maktabi; trubadurlar ijtimoiy, siyosiy va diniy hayotda faol qatnashganlar.

TUB MILLAT Muayyan bir hudud da tarixan birinchi bo'lib joylashgan, shuning uchun ham mazkur hududga nisbatan alohida huquqlarga ega millat.

TUBANLIK Xudbinlikning eng tuban darajasi: o'z shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga kuchli hirs qo'yib, jamiyat manfaatlarini mensimaslikdan iborat juda tuban xarakter xislati.

TUDUN, tutun [turkiy. – unvon nomi] Turk xoqonligi boshqaruvida xoqon xonadoniga mansub va unga tobe viloyatlardagi hokimlar faoliyatini nazorat qilib, o'lpon va soliqlar yig'ishni tashkil etish maqsadida tayinlangan noib unvoni.

TUMAN [turkiy-mo'g'. – o'n ming] **1** VII – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Xurosonda 10 ming kishidan iborat harbiy qism, diviziya. **2** Eron (XIII – XVI asrlar) va Markaziy Osiyo (XIII – XIX asrlar) da 10 ming va undan ortiq askar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'muriy-hududiy birlik. **3** O'rta asrlardan Eronda muomalada bo'lgan pul

birligi - 10000 dinor. **4** O'zbekiston Respublikasida: viloyat, shahar hududida ularning tarkibiy qismi bo'lgan ma'muriy-hududiy bo'linma.

TUMANBOSHI O'n ming jangchidan iborat harbiy qism, diviziya qo'mondoni. Turkiy manbalarda bu so'zning *no'yon*, *tuman oqosi*, *tumanbegi* kabi ma'nodoshlari ham mavjud.

TUMOR [a. - o'rog'liq xat; noma, yozuv] Xalq tasavvurida g'ayritabiiy, sehrli kuchga ega bo'lgan, egasini ofat va falokatlardan, yomon ko'zlardan asraydigan, ichiga duo bitilgan qog'oz joylashgan buyum, narsa.

TUNQOTAR, **tunotar** [turkiy. - soqchi, qorovul] Kechasi bilan uxlamay, xonni, hukmdor turgan joyni qo'riqlaydigan tungi qorovul, soqchi.

TURARJOY DAXLSIZLIGI HUQUQI Biror-bir yuridik yoki jismoniy shaxsning turarjoyiga uning ruxsatisiz kirishni cheklovchi taqiq; faqat qonunda belgilangan hollarda yoki sud qaroriga ko'ra mazkur taqiqdan chekinish mumkin.

TURIZM [fr. tourisme < tour - aylanish; sayr, sayohat qilish] **1** Ham dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat. **2** *sprt.* Organizmni jismoniy chiniqtirish maqsadida uyushtiriladigan jamoaviy yurishlar, safarlar.

TURKISTON MILLIY-OZODLIK HARAKATI MAFKURASI Turkistonni feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, o'lka, xalq va millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy

davlat bunyod etish, konstitutsiyaviy, ozod va farovon jamiyat qurish, milliy pul birligi va milliy qo'shinga ega bo'lishdan iborat jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari.

TURKISTON MUXTORIYATI Qo'qon shahrida 1917-yil 27-noyabrdan 1918-yil 19-fevralgacha faoliyat yuritgan, o'lkada milliy-demokratik davlatni barpo etishga harakat qilgan va XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o'rin tutgan dastlabki demokratik hukumat.

"TURKISTON VILOYATINING GAZETI" Turkiston o'lkasida birinchi marta o'zbek tilida chop etilgan, 1-soni 1870-yilning iyulida chiqqan va 1917-yilning fevraliga qadar o'z faoliyatini davom ettirgan gazeta: asosiy vazifasi chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini targ'ib etish bo'lgan. Uning sahifalarida o'sha davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy hayotiga oid nihoyatda qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

TURMA O'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun, shuningdek, o'ta xavfli jinoyatchi deb topilgan shaxslar tayinlangan jazoning sud tomonidan belgilangan muddatni o'taydigan axloq tuza-tish muassasasi.

TURMUSH Kishilarning kundalik yashash tarzi; ularning moddiy (ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, sog'liqni saqlash) ehtiyojlarni qondirishi, shuningdek, ma'naviy boylıklardan bahramand bo'lishi, dam olishi, ko'ngil ochishini o'z

ichiga oluvchi, ishlab chiqarishga daxldor bo'lmagan kundalik hayoti.

TURMUSH DARAJASI Aholining moddiy va ma'naviy boyliklarni iste'mol etish darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotining muayyan bosqichida shu boyliklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish darajasi.

TURMUSH TARZI Kishilik jamiyati tarixining turli bosqichlarida turlicha xarakter kasb etishi: har bir sinf, har xil millat va elatning o'ziga xos yashash usuli, o'zining ijobiy yoki salbiy xatti-harakatiga ega bo'lishi, turlicha tarzda yashab kelishi.

TURNIKET [fr. *tourniquet* - aylanuvchi moslama] Korxonalar, tashkilot yoki o'quv muassasalariga kirish joyida xodim, ishchi, talaba yoki o'quvchi unga ruxsat beruvchi guvohnomasini tekkinganida o'tish uchun ochiladigan, ichiga maxsus tablo joylashtiriladigan aylanib turadigan krest shaklli metall to'siq.

TURON [fors. - turkiylar] Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama.

TURG'UNLIK Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, moddiy ishlab chiqarishning asosiy sohalarida mutanosiblikning buzilishi.

TURG'UNLIK DAVRI tar. Sho'rolar hukumati tarixida XX asr 60-yillaridan boshlangan, iqtisodiy tushkunlik, hokimiyat tuzilmalaridagi poraxo'rlik, ma'naviy-axloqiy buzilish va shunga bog'liq holda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi bilan xarakterlanadigan davr.

TUZUK tar., huq., Qonun-qoidalar to'plami; nizom.

TUZUN [turkiy. - mansab nomi] Qoraxoniylar davridagi mahalliy mansablardan biri: qishloq boshqaruvi va qishloqning bosh mirobligi tuzunning qo'lida bo'lgan.

TUG' [turkiy. - nishon, bayroq] Qadim zamonda va o'rta asrlarda qo'shinni bir-biridan ajratib turadigan nishon, bayroq; Sharq mamlakatlarida hukmdorlik, vazirlik, beklilik va h.k. belgisi.

TUG'ILGANLIK HAQIDA GUVOHNOMA Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan farzand tug'ilganligi haqida beriladigan guvohnoma, yozma hujjat.

TUG'RO [turkiy. - belgi] Sharq mamlakatlarida podshoh va xonlarning farmonlari boshida ularning unvoni - nomi va amallarini ko'rsatuvchi, maxsus bezakli yozuv, ramziy belgi; jumlaning bezak sifatida yozilishi.

TUG'CHIBOSHI O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida tug' (harbiy bayroq)ni olib yuruvchi va qo'riqlovchi harbiy qism boshlig'i.

TO'LOV BALANSI Muayyan davr (yil, chorak va h.k.) mobaynida muayyan bir davlatning xorijdan keladigan pul kirimlarining va uning xorijga to'laydigan barcha to'lovlarining nisbatini aks ettiruvchi jadval, ro'yxat.

TO'QNASHUV Mintaqaviy mojaro-lar, ya'ni dunyoning u yoki bu nuqtasidagi ayrim davlatlar va kuchlar o'rtasidagi ixtilof, nizo va sh.k. natijasida yuz

bergan yoki yuz beradigan qurolli olishuv, kurash.

TO'QSABO, to'qsoba [turkiy. – harbiy qism boshlig'i] Harbiy unvon. XVI – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida xon bayrog'ini qo'riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i. XIX asrda umuman bir polkdan iborat bo'lgan harbiy qism boshlig'i.

TO'RA [turkiy. – qonun, qoida, intizom; urf-odat] *tar.* **1** Qadimgi turkiylar ijtimoiy hayotini tartibga solgan majburiy qoidalar majmui. **2** Markaziy Osiyoda mo'g'ullar istilosidan keyin shakllangan zodagonlarning bir guruhi. **3** Turkiston o'lkasida amir va xon o'g'illari, rus podshosi ma'murlari nomiga hurmat yuzasidan qo'shib aytilgan atama.


TO'RTINCHI HOKIMIYAT Ommaviy axborot vositalari (OAV)ga nisbatan qo'llanadigan shartli va obrazli atama; OAVning jamiyat va davlatda ishlarning

borishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishiga urg'u berilgan.

TO'G'RIDAN-TO'G'RI PREZIDENTLIK BOSHQARUVI Davlat hududining u yoki bu qismini bevosita prezident boshqaruviga o'tkazish; davlatning ma'lum hududida notinchlik holati va mazkur hududning mahalliy hokimiyat organlari fuqarolarning hayoti va tartibni ta'minlashga noqobilligi tufayli joriy etiladi.

TO'G'RIDAN-TO'G'RI SAYLASH HUQUQI Fuqarolarning turli vakillik organlariga deputatlarni va saylanadigan mansabdor shaxslarni bevosita saylash huquqi.

TO'G'RIDAN-TO'G'RI SAYLOVLAR Davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining deputatlari va mansabdor shaxslarning bevosita aholi tomonidan saylanishi.



TO'G'UZ (TO'QQIZ)-O'G'UZ *tar.* Ilk o'rta asrlardagi uyg'ur qabila ittifoqi.

ULGURJI BOZOR Tovar iste'molchilariga yoki ularni chakana sotadigan xaridorlarga tovarlar yirik to'p(partiya) lari bilan ko'tarasiga sotiladigan bozor.

ULUFA [*a.* - ozuqa, yem-xashak] Markaziy Osiyoda harbiy qo'shin va lashkar ixtiyoridagi ot-ulov uchun aholidan to'planadigan natural soliq. Jangchilarga beriladigan maosh ham *ulufa* deb atalgan.

ULUS [*mo'g'.* - davlat; el, xalq] *tar.* 1 XI - XII asrlarda mo'g'ullar davlatida ma'lum bir no'yonga (mo'g'ul asilzodasiga) qarashli yerlarda unga tobe holda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar, urug'lar guruhi. 2 Mo'g'ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizxon farzandlariga (shahzodalar va sultonlarga) ajratib berilgan yer, hudud.

ULUSBEGI Ulus hokimi: XIII - XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda ulusbegi o'z ulusida oddiy hukmdor nomidan ish yurgizgan; bu lavozimga, odatda, xonning qarindosh-urug'lari tayinlangan. U oliy hukmdorning har xil topshiriqlarini

bajargan, urush paytida safarga hukmdor bilan birga otlangan.

ULTIMATUM [*fr.* ultimatum - qat'iy, uzil-kesil talab < *lot.* ultimus - eng oxirgi, so'nggi] Xalqaro huquqda: biron masala yuzasidan bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumatiga diplomatik hujjatda yoki og'zaki shaklda bayon qilingan, hech qanday bahs yoki e'tirozga o'rin qoldirmaydigan qat'iy talabi.

UMAVIYLAR Yaqin va O'rta Sharq hamda Movarounnahrda 661-750-yillarda hukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi

"UMID" JAMG'ARMASI 1997-yil 7-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni bilan tuzilgan jamg'arma: asosiy maqsadi iste'dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o'quv yurtlarida jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlariga moddiy-ma'naviy homiylik qilishdan iborat bo'lgan.

“UMID NIHOLLARI” SPORT O‘YINLARI O‘zbekiston Respublikasining umumiy o‘rta ta‘lim va bolalar-o‘smirlar sport maktablari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan ommaviy sport musobaqalari.

UMMAT, *umma* [a. – xalq, millat; dinga e‘tiqod qiluvchilar jamoasi] *din*. Madinada Muhammad payg‘ambar izidan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi.

UMRA [a. – kichik haj] Islom an‘anasida kichik haj: Qur‘on oyati va Payg‘ambar alayhissalom sunnatlari bilan sobit bo‘lgan amal.

UMUMBASHARIY [a. – insoniyat] Butun insoniyatga, odamzodga oid.

UMUMHARBIY MAJBURIYAT Muayyan yoshdagi shaxsning harbiy tayyorgarlik davridan o‘tishini ko‘zda tutuvchi davlat xizmati tizimi.

UMUMINSONIY QADRIYATLAR Jahondagi barcha insonlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezonini hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimi.

UMUMINSONIY QADRIYATLAR USTUVORLIGI TAMOYILI Barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etadigan, insoniyatning umumiy manfaatiga mos keladigan moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, qadrli jihatlarning ustuvor bo‘lishiga tayangan g‘oyalar asosidagi faoliyat majmui.

UMUMINSONIY G‘OYALAR O‘z mohiyati va miqyosiga ko‘ra butun insoniyatning ongi va qalbini egallagan, dunyodagi barcha odamlar va har bir

xalq uchun juda yuksak ahamiyatga molik bo‘lgan, uning ezgu maqsadlariga xizmat qiladigan g‘oyalar.

UMUMIY HARBIY MAJBURIYAT Fuqaroning harbiy xizmatni ado etish va vatanni himoya qilish majburiyati.

UMUMIY MULK Ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo‘lgan va ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5 – 9-sinf-lariga beriladigan ta‘lim; O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilgan uzluksiz ta‘lim bosqichlaridan biri: zarur hajmdagi bilimlarga zamin yaratadi, mustaqil fikrlash malakasini rivojlantiradi; tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajribani yuzaga keltiradi; boshlang‘ich kasbiy yo‘nalishni va ta‘limning keyingi bosqichini tanlashga ko‘maklashadi.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM BO‘YICHA DAVLAT TA‘LIM STANDARTI Umumiy o‘rta ta‘lim mazmunini, ta‘lim sifatini nazorat qilish, shakl va usullarini belgilash bo‘yicha tayanch me‘yoriy hujjat.

UMUMMILLIY OZODLIK KURASHI Mustamlaka istibdodiga, o‘rtaasrchilikka, feodal qoloqlikka qarshi, ma‘rifat va taraqqiyot yo‘liga chiqib olish, islom va shariat islohi uchun Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning birinchi choragida olib borilgan milliy-ozodlik harakati.

UMUMTA‘LIM MUASSASASI Uzluk-siz ta‘lim tizimining asosiy bo‘g‘ini:

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'lim standartlari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

UMUMXALQ BAYRAMI Muayyan bir mamlakatning barcha aholisi tantana, bayram qiladigan kun.

UMUMXALQ DAVLATI Butun xalqning manfaatlarini va irodasini ifoda etadigan davlat; uning bosh vazifasi - ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, jamiyat uchun yuksak axloqli va har tomonlama bilimli kishini tarbiyalab yetishtirish, aholining moddiy va madaniy turmush darajasini oshirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tinchlikni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir.

UMUMXALQ FIKRI Referendumda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala yuzasidan yalpi ovoz berish orqali olinadigan fikr.

UMUMXALQ MUHOKAMASI Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini xalq muhokamasiga taqdim etish, umumiy ovoz (referendum)ga qo'yish.

UMUMXALQ MULKI Xalqning umumiy boyligi, jamiyat mulkining asosiy shakli. yer, yerosti va yerusti boylıkları, suvlar, o'rmonlar faqat umumxalq (davlat) mulkidir.

UMUMXALQ OVOZ BERISHI Umumiy ovoz (referendum)ning aynan o'zi: davlatning butun hududidagi aholining muhim masalalar bo'yicha ovoz berishi; jamiyat va davlat ahamiyatiga

molik masalani hal qilish uchun umumxalq ovozigga, so'roviga qo'yish.

UMUMXALQ REFERENDUMI Jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llanadigan tadbirlardan biri: ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovozigga, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etish.

UMUMXALQ SAYLOVI Mamlakat prezidenti va mamlakat qonunchilik palatasi, shahar, viloyat va tuman kengashi deputatlarini saylash.

UNITAR DAVLAT [fr. unitaire - yagona, yaxlit < lot. unitas - birlik; birlashish] Davlat tuzilishi shakli; bunda butun davlat hududi, federatsiyadan farqli ravishda, o'z tarkibida federativ birliklar (respublikalar, shtatlar va sh. k.)ga ega bo'lmaydi, balki davlat suvereniteti aloqalari bo'lmagan ma'muriy-hududiy birliklar (departamentlar, viloyatlar, tumanlar va b.)ga bo'linadi.

UNITAR KORXONA Mulk egasi tomonidan o'ziga birlashtirib qo'yilgan mulkka egalik qilish huquqi berilmagan tijorat tashkiloti ko'rinishidagi davlat yoki mahalliy boshqaruv idoralari korxonasi.

UNITARIZM q. unitar davlat.

UNIVERSITET [nem. Universität < lot. universitas - jami, barchasi, majmui] Tabiiy, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi bir qancha fakultetlari bo'lgan, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ko'p tarmoqli oliy o'quv-ilmiiy muassasa.

UNIYA [lot. unio - birlik, birlashma] **1** Davlatlarning birlashmasi, ittifoqi. **2** Pravoslav va katolik cherkovlarining

Rim papasi hukmronligini tan olib, o'z marosim va ibodatlarini saqlagan holda birlashishi.

UNIYA CHERKOVI Rim-katolik cherkovining barcha xristian cherkovlarini o'ziga bo'ysundirishga intilishi tufayli Rim papasi hokimiyati ostida pravoslav cherkovining bir qismini katolik cherkovi bilan birlashishi natijasida yuzaga kelgan cherkov.

UNVON [a. – sarlavha, nom; belgi, ramz] Biror ish-faoliyat sohasidagi alohida xizmatni yoki mutaxassislik darajasini rasman e'tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan nom.

URBANIZATSIYA [fr. urbanization < lot. urbanus – shaharga oid, mansub < urbs – shahar] **1** Jamiyat hayotida demokratiya va madaniyatning umumiy rivoji bilan bog'liq holda sanoat, ishlab chiqarish va aholining shaharlarda to'planishi hamda shaharlar mavqeyi (roli)ning oshib borishidan iborat ijobiy ijtimoiy-demografik jarayon. **2** Shaharga, sanoat markaziga xos belgi va xususiyatlarning tarqalishi, joriy bo'lishi (mas., qishloq joylarda).

URF-ODAT Ma'naviy hayot hodisasi: an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan, tarixan tarkib topgan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil.

URUG' [turkiy. – qarindosh, avlod, ijtimoiy birlik] Bir ota-onadan, ajdoddan tarqalgan, umumiy bir nom bilan ataladigan qon-qarindoshlik jamoasi. O'rta Osiy xalqlari ko'pgina qabila va urug'larga ega bo'lgan. Masalan, o'zbeklar 92

dan ortiq qabilalar va urug'larga, ular esa yana bir necha urug'larga bo'lingan.

URUG' JAMOASI Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tashkiloti. Uning ilk bosqichida, onalik (matriarxat) va otalik (patriarxat)ning boshlang'ich davrlarida qon-qarindosh kishilar guruhining xo'jalik, ijtimoiy va g'oyaviy uyushmasi.

URUG'CHILIK JAMIYATI Ibtidoiy jamoa tuzumining ibtidoiy to'da davridan keyin boshlangan bosqichlaridan biri: xo'jalik va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'langan qon-qarindoshlar jamoasi.

URUSH Ijtimoiy guruhlar, millat (xalq)lar, davlatlar o'rtasidagi nizolarning kuch, odatda, qurolli kuchlar yordamida hal qilinishi; oldindan tayyorgarlik ko'rilgan, muayyan maqsad yo'lida olib boriladigan harbiy harakatlar.

"USTOZ" RESPUBLIKA JAMG'AR-MASI O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 30-dekabrda tashkil etilgan jamg'arma. Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini bunyod etish, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalarni o'zlashtirish, oliy va maxsus o'rta ta'lim mutaxassislarining rivojlangan xorijiy davlatlarning o'quv markazlarida tajriba almashib kelishiga imkoniyat yaratish maqsadida tuzilgan.

USTQURMA Tarixan shakllangan ijtimoiy munosabatlar va siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy qarashlar va ularga mos keluvchi va

jamiyatning iqtisodiy bazisi tomonidan boshqariladigan, o'z navbatida, bazisga ta'sir o'tkazuvchi muassasalar majmui.

"USULI JADID" MAKTABLARI

Yangi usul maktablari: Turkistonda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bolalarning savodini chiqarish, ularni axloqiy-ma'naviy tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan ta'lim muassasalari.

UTILITARIZM [*lot.* utilitas - foyda, manfaat] Barcha hodisalarni ularning faqat foyda keltirishi, muayyan maqsadga erishish uchun vosita bo'lib xizmat qilish imkoniyati nuqtayi nazaridan baholash prinsipi.

UTOPIK SOTSIALIZM [*yun.* utopos - xayoliy + *lot.* socialis - ijtimoiy; jamiyatga oid] Ijtimoiy-tarixiy sharoitlardan, ishchilarning sinfiy kurashidan ajralgan holda vujudga kelgan, feodal tuzumning yemirilish davrida paydo bo'lgan sotsialistik ta'limot; xususiy mulk va sinflarni tugatish, kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga chek qo'yish asosida jamiyatni sotsialistik asosda qayta qurish nazariyasi.

UTOPIYA [*yun.* u - yo'q + topos - joy > utopia - yo'q joy, xayoliy joy yoki *yun.* eu - farovon + topos - joy, ya'ni eutopos - farovon, go'zal joy] **1** Ilmiy asoslab berilmagan ideal ijtimoiy tuzum tasviri. **2** Ilmiy fantastika janri; ijtimoiy qayta o'zgarishlarning noreal rejalari aks etgan barcha asarlarning belgisi.

UTOPIZM [*yun.* utopos - xayoliy, mavjud bo'lmagan joy] Inson, davlat yoki jamiyatning kelajakdagi mukammal (ideal) shakli haqidagi ta'limot.

UY-JOY MULKDORLARINING

SHIRKATLARI Uy-joy mulkdorlarining uydan foydalanish, uning saqlanishini birgalikda boshqarish va ta'minlash, umumiy foydalanishdagi obyektlarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlari hamda tartibini belgilash, umumiy mulkdagi mol-mulkning lozim darajadagi holatini ta'minlash maqsadida tuzilgan birlashmasi.

UY-JOY FONDI Insonning yashashi uchun yaroqli bo'lgan turarjoydan, ya'ni uylar, xonadonlar, xizmat turarjoylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va b. maxsus maqsadli uylardan) iborat bo'lgan jamg'arma.

UY-JOY HUQUQI Fuqarolarning turarjoy binolariga ega bo'lish, ulardan foydalanish qoidalari va sh. k.larni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmui.

UYUSHGAN JINOYATCHILIK Oldindan maxsus uyushgan guruhlar (tashkilotlar) tomonidan amalga oshiriladigan jinoiy xatti-harakatlar.

UYG'ONISH DAVRI Sharqda IX-XII va XV asrlarda va G'arbiy Yevropada XIV-XVI asrlarda yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri; fan, adabiyot va san'at taraqqiyoti hamda ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan va antik madaniyatga qiziqish kuchaygan davr.

UZLAT [*a.* - chekinish; kishilardan chetlashish] Yolg'izlikni ixtiyor etish;

tanholik; dunyoni xilma-xil g'avg'olari-dan forig'lik.

UZLUKSIZ TA'LIM O'zaro mantiqiy izchillikka asoslangan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

UZLUKSIZ TA'LIM KONSEPSIYASI Ta'lim amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan nuqtayi nazarlarning zamonaviy muqobil tizimi.

UZURPATOR [lot. usurpator – egalab olgan, tortib olgan] Hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga olgan kishi; birovning huquqini qonunga xilof ravishda poymol qilgan shaxs.


UZURPATSIYA [lot. usurpatio – foydalanish; egallab olish, tortib olish]

Qonunsiz ravishda hokimiyatni bosib olish yoki o'zgalarning biror narsaga bo'lgan huquqini o'ziniki qilib olish.

UG'RUQ [turkiy. – chodir] Tarixiy termin: dastlab: amir yoki xonning xotini, bolalari, xizmatkorlari yashagan chodirlarni, keyinchalik: harbiy harakatlar vaqtida qo'shin ortidan boruvchi karvonni anglatgan.

USHR [a. – o'ndan bir] Musulmon mamlakatlarida dehqonchilikdan keladigan daromadning o'ndan biri hisobida olinadigan soliq. Ushr Buxoro amirligida "dahyak" (o'ndan bir) deb atalgan.

"UCHINCHI DUNYO" Sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar: yer shari aholisining ko'p qismi uchinchi dunyo mamlakatlarida yashaydi.



VAGNER QONUNI AQSHda mehnat munosabatlarini tartibga solish haqidagi qonun; shu qonun asosida ishchilar jamoa shartnomasi tuzish huquqini olgan; nemis iqtisodchisi Adolf Vagner tomonidan ishlab chiqilgan.

VAHDONIYAT [a. - yakkalik] Islomning asosiy g'oyasi hisoblangan Ollohning yakka-yagonaligini tanish va e'tirof etish.

VAHIY [a. - ilohiy xabar] Islom aqidasi ga ko'ra, payg'ambarlarga farishtalar orqali Olloh tomonidan yuborilgan buyruq yoki ko'rsatmalar.

VAHHOBIY Vahhobiylik oqimining izdoshi, tarafdori.

VAHHOBIYLIK, VAHHOBIZM [a. - Muhammad Abdulvahhob (oqimning asoschisi) nomidan] Markaziy Arabistonda XIX asrda paydo bo'lgan, islom dinining sunniylik yo'nalishi - hanbaliya mazhabidagi aqidaparast oqim (dastlab islom dinining ilk davrdagi holatini tiklash uchun kurashuvchi diniy oqim sifatida maydonga chiqqan, keyinchalik uning faoliyati siyosiy, hatto terroristik tus olgan).

VAKANSIYA [fr.vacance - bo'sh, egallanmagan] Idora va muassasadagi bo'sh, egallanmagan lavozim.

VAKIL [a. - ishonchli, vakolatli shaxs] Belgilangan vakolatlar doirasida bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish uchun ishonch bildirgan shaxs.

VAKILLIK Biror shaxsning ikkinchi shaxs, tashkilot, korxonaga yoki muassasa nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishi. Vakillik, asosan, bir shaxsning vakolat bo'yicha tuzgan bitimi; vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

VAKILLIK ME'YORI Saylov okruglarini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan saylovchilar yoki aholi soni.

VAKILLIK ORGANI Aholi tomonidan saylanadigan deputat (vakil)lardan iborat davlat hokimiyati yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining umumlashtirilgan va qadimdan qabul qilingan nomi.

VAKOLAT [a. - vakillik; huquqdorlik] Muassasa, tashkilot, davlat yoki

biror shaxs nomidan ish qilish uchun berilgan huquq. Vakolat ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki ma'muriy hujjat asosida yuzaga keladi.

VAKOLATDOR Vakillik huquqiga ega bo'lgan shaxs.

VAKOLATLARNI SOQIT QILISH Ma'lum bir organning yoki mansabdor shaxsning o'z vakolatlarini to'xtatishni e'lon qilishi.

VAKOLATNOMA Tashkilot va fuqarolarning vakillik qilish uchun berilgan yozma hujjati; ishonchnoma.

VAKOLATXONA Ma'lum davlat tomonidan boshqa mamlakatda ta'sis etilgan va uning manfaatlarini ko'zlab ish ko'radigan muassasa.

VALIAHD [a. – taxt vorisi] Podshoh yoki xon o'z tirikligida o'rniga tayinlab qo'yadigan taxt vorisi. Valiahd podshohning o'g'li yoki boshqa bir kishi ham bo'lishi mumkin.

VALINE'MAT [a. – ne'mat egasi, boquvchi; oliyhimmat] **1** Kishilarni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi shaxs. **2** Xayr-saxovatli, qo'li ochiq kishi.

VALIY [a. – ega, sohib; avliyo] *din.* Bo'lajak hodisa, voqealarni oldindan aytish, g'oyibdan xabar berish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; avliyo.

VALIZA [*fr.* valise – chemodan] Diplomatik xatlarni tashuvchi (kurer) ning daxlsizlik huquqi yozilgan, muhrlangan, plombalangan pochta qopi yoki paket.

VALYUTA [*ital.* valuta – qiymat, baho < *lot.* valere – qadrlanmoq, ba-

holanmoq] **1** Mamlakatning pul birligi va uning turi. **2** Chet mamlakatlarning xalqaro muomalada qo'llanuvchi pul-lari, shuningdek, shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov hujjatlari (veksellar, cheklar va b.).

VALYUTA BOZORI Chet el valyutalari va chet el valyutasi hisobidagi to'lov hujjatlarining oldi-sotdisi bo'yicha barqaror iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar tizimi.

VALYUTA DEMPINGI Milliy valyuta kursining mamlakat ichida kamaygan xarid qobiliyatiga qaraganda ko'proq pasayishi.

VALYUTA INQIROZI *q.* valyuta tangligi.

VALYUTA INTERVENSIYASI Mamlakat markaziy bankining valyuta bozoriga va valyuta kursiga chet el valyutasining katta summasini sotib olish yo'li bilan aralashuvi.

VALYUTA JINOYATLARI Qonunga xilof ravishda valyuta boyligini olish, o'tkazish va sotish.

VALYUTA KONVERTATSIYASI [*lot.* conversio – almashtirish] Mamlakat milliy valyutasining xorij valyutalariga yoki xalqaro to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi valyutaga erkin almashtirish.

VALYUTA KURSI Mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

VALYUTA OPERATSIYALARI Milliy qonunchilik yoki xalqaro shartnomalar

bilan tartibga solingan valyuta boyliklari bilan bog'liq bo'lgan bitimlar.

VALYUTA SIYOSATI Davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari.

VALYUTA TANGLIGI Pul-kredit tizimining izdan chiqishi: valyuta kursining keskin tebranishlari, valyuta rezervlarining hajm jihatdan sezilarli va tezlikda mamlakat hududidan oqib ketishi, valyutalarning devalvatsiya va revalvatsiya qilinishi.

VALYUTA TIZIMI Valyuta harakati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar majmui.

VALYUTANI TARTIBGA SOLISH Davlatning xalqaro hisob-kitoblar, valyuta boyliklari bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirishni reglamentatsiya qilishga qaratilgan faoliyati.

VANDALIZM [ot. Vandali – qadimiy sharqiy german qabilalaridan birining nomi] Moddiy va madaniy boyliklarni shafqatsizlarcha buzish va yo'q qilib tashlash.

VAQF [a. – xayriya maqsadlarida vasiyat qilingan mulk] Musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyojlar yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk.

VAQFNOMA Musulmon huquqida: ma'lum bir diniy muassasaga hadya, xayriya tariqasida berilgan yoki vasi-

yat qilib qoldirilgan mulkka nisbatan huquqni tasdiqlovchi hujjat.

VAQTINCHA MEHNATGA LAYOQATSIZLIK Xodimning sog'lig'i yomonlashgani sababli qisqa muddat davomida ishni bajara olmasligi.

VAQTINCHA MEHNATGA LAYOQATSIZLIK NAFAQASI Davlat davolash-profilaktika muassasalari tomonidan vaqtincha mehnatga layoqatsiz deb topilgan va vaqtincha layoqatsizlik varaqasi berilgan xodimlarga davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqa.

VAQTLI MATBUOT Vaqti-vaqti bilan, belgili muddatlarda bosib chiqariladigan gazeta va jurnallar.

VARAQA [a. – barg, yaproq; qog'oz; hujjat] **1** Ijtimoiy-siyosiy tashviqot vositalaridan biri bo'lib, muhim bir gap, matn bosilgan va ommaga tarqatish uchun mo'ljallangan qog'oz; ijtimoiy-siyosiy tashviqot vositalaridan biri. **2** Ma'lum bir narsalar haqida ma'lumot yozish uchun belgilangan rasmiy qog'oz; blanka.

VARRANT [ingl. warrant – vakolat, ishonch] Muayyan muddat davomida belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarni sotib olish huquqi, vakolati.

VARVARIZMLAR [yun. barbaros – kelgindi, ajnabiy] Ma'lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotligi bilinib turadigan so'z.

VASIQA [a. – hujjat; shahodat] Musulmon huquqida u yoki bu mol-mulkning ma'lum bir shaxsga tegishli ekan-

ligini qozi tomonidan guvohlantirilib berilgan hujjat.

VASIY [a. - homiy; vasiyatni bajaruvchi] Voyaga yetmagan yetim bolalarga g'amxo'rlik qilishni va ularga meros qolgan mol-mulkka qarab turishni o'z zimmasiga olgan shaxs; ma'naviy ota.

VASIYAT [a. - o'lim oldidagi oxirgi so'z] Marhumning, keksa odamning o'z yaqinlariga aytib yoki yozib qoldirgan topshirig'i, istagi.

VASIYATNOMA Fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka bo'lgan huquqini vafot etganidan so'ng boshqa shaxsning tasarruf etishini belgilovchi xohish-irodasi ifodalangan hujjat.

VASIYLIK Voyaga yetmagan bolalarning, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan 14 yoshga to'lmagan bolalarning davlat tomonidan himoya qilinishi holati.

VASSAL [lot. vassalus < vassus - xizmatkor] 1 O'rta asrlarda: G'arbiy Yevropada yirik feodalga undan yer-suv in'om olgani uchun tobe bo'lgan kichik feodal. 2 Bo'ysundirilgan odam yoki davlat.

VATAN [a. - tug'ilib o'sgan joy, yurt] Kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui.

VATANFURUSH O'z vatanini sotuvchi, vataniga xiyonat qiluvchi.

VATANGADO Vatandan kechib, qochib, o'zga ellarda darbadar yuruvchi; qochqin.

VATANGADOLIK O'zga yurtlarda vatangado bo'lib yashash.

VATANPARVARLIK Kishilarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

VAUCHER [ingl. voucher - tilxat] 1 Privatizatsiya yoki mulkni xususiy-lashtirish jarayonida privatizatsiya qilingan mulkni olish (xususiy-lashtirish, o'zlashtirish) huquqini beruvchi mulkiy kupon. 2 Yozma guvohlik, kafolat tavsiya xati. 3 Shaxs nomi ko'rsatilgan privatizatsiya cheki.

VAZIR [a. - vazir, ministr] 1 Markaziy Osiyo xonliklarida: hukumat idorasi yoki kengashi boshlig'i; devonboshi. 2 O'zbekistonda: boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qiluvchi, mamlakatda muayyan ijroviy tarmoq faoliyatini, jumladan, muayyan vazirliklarni boshqaruvchi shaxslar.

VAZIRI A'ZAM Ulug', eng katta vazir; vazirlar boshlig'i: o'rta asrlarda hukumatning oliy idoralarini boshqargan yuqori mansabdagi shaxs; hozirgi bosh vazir lavozimiga to'g'ri keladi.

VAZIRLAR MAHKAMASI O'zbekistonda hukumat nomi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi; u Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat.

VAZIRLAR MAHKAMASINING AP-PARATI Vazirlar Mahkamasi va uning

Rayosati majlislarini tayyorlash, tegishli qarorlar loyihalarini, tahliliy axborot va b. materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini tekshirib borish maqsadida tuzilgan, davlatning ijro etuvchi organlari tarkibiga kiruvchi tuzilma.

VAZIRLIK Davlatning markaziy ijro hokimiyati organi. O'zbekiston Respublikasida ijro organining muhim qismi.

VA'Z [a. - pand-nasihah; nasihat qilish] Yaxshilik va ezgulikka chaqiruvchi da'vat.

VA'Z AYTMOQ Nasihatomuz yoki tashviqiy nutq so'zlash; pand, nasihat, o'git, tashviq-targ'ib mazmunidagi so'zlar aytmoq.

VA'ZXONLIK 1 Diniy mazmundagi tashviqiy nutq. **2** Ish o'rniga hadeb nutq so'zlayverish, quruq gap sotish.

VEBINAR [ingl. webinar - internet orqali o'tkaziladigan seminar] Internet va axborot texnologiyalari orqali onlayn ta'lim faoliyati (kurslar, treninglar, mahorat darslari, seminarlar).

VEB-PORTAL Aholiga kompyuter tarmog'i orqali bir yo'nalish bo'yicha turli interfaol xizmatlar ko'rsatuvchi saytlar va loyihalar jamlamasi.

VEKSEL [nem. Wechsel - ayirboshlash] Ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat; qimmatli qog'oz.

VEKSEL EGASI Veksel o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

VERBAL NOTA [lot. verbalis - og'zaki] Xalqaro amaliyotda diplomatik yozishmalarning keng tarqalgan usuli.

VERDIKT [ingl. verdict < lot. veredictum - (so'zma-so'z) to'g'ri aytilgan] Sudda qasamyod qilgan maslahatchilarning sudlanuvchining aybdorligi masalasida og'zaki ayblov hujjatini tasdiqlash yoki tan olmaslik shaklida yoxud sud tomonidan maxsus qo'yilgan yozma savollarga javoblar ko'rinishida chiqargan qarori.

VERIFIKATSIYA [fr. verification < lot. veris - haqiqiy + facere - qilmoq] Bilish va baholash prinsipi; unga ko'ra, ilmiy mulohazalarning haqiqiyligi tajribada tekshirish, hissiy ma'lumotlar bilan taqqoslash natijasida o'rnatiladi.

VETO [lot. veto - taqiqlayman] Rivojlangan davlatlarda birorta organ, tashkilot qonuni yoki qarorining kuchga kirishini to'xtatish yoki kuchga kirishga yo'l qo'ymaslik huquqi.

VIDEOKONFERENSALOQA Uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio- va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interfaol hamkorlik qilishi; videoselektor.

VIDEOSELEKTOR q. videokonferensaloqa.

VIJDON ERKINLIGI Insonning xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqi; BMTning Bosh assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan rezolyutsiyasida belgilangan insonning asosiy huquqlaridan

biri; siyosiy jihatdan vijdon erkinligi demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi.

VIKTIMLIK Insonning ayrim (diniy, jismoniy va kasbiy) sifatлари tufayli muayyan obyektiv shart-sharoitlarda jinoiy tajovuzning qurboni bo'lish xususiyati.

VIKTIMOLOGIYA [*lot.* viktima – qurbon + logos – ta'limot] Jinoiy qurboni haqidagi ta'limot, jinoiy zo'rvonlik qurboniga xos xususiyatga ega bo'lgan jabrlanuvchi(lar) to'g'risidagi fan.

VILOYAT [*a.* – boshqaruv; chekka joy, o'lka] O'zbekiston Respublikasi tarkibida: bir necha shahar va tumanni o'z ichiga olgan yirik ma'muriy-hududiy birlik.

VILOYAT MARKAZI O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining ma'muriy markazi.

VILOYAT SUDI Umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'ini.

VILOYAT (TUMAN, SHAHAR) XALQ DEPUTATLARI KENGASHI O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining nomi.

VINDIKATSIYA [*lot.* vindicatio – himoya, muhofaza] Fuqarolik huquqida: mol-mulk egasining o'z mulkiga boshqa shaxslarning qonunsiz egaligidan talab qilib olishi.

VIRTUAL QABULXONA Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga

qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlashga qaratilgan yangi elektron tizim

VITSE-KONSUL Biror mamlakatning boshqa bir davlatdagi elchisi o'rinbosari.

VITSE-PREZIDENT [*lot.* vice – o'rniga + prezident] **1** Respublika boshqaruv shakli bo'lgan ayrim davlatlarda (AQSH, Hindiston va h.k.) prezidentning doimiy o'rinbosari. **2** Ba'zi ilmiy muassasalarda (akademiya, ilmiy jamiyat kabilarda), xalqaro tashkilotlarda saylab qo'yiladigan lavozim (mas., O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti).

VIZA [*lot.* visum – ko'zdan kechirilgan, ko'rilgan] **1** Biror davlat fuqarolarining boshqa biron davlatga kirishi, undan chiqishi, qisqa muddat yashashi yoki davlat hududidan o'tishi uchun hukumat mas'ul organlari tomonidan fuqaro pasportiga qo'yiladigan maxsus rasmiy ruxsat belgisi. **2** Mansabdor shaxs tomonidan biror hujjatga uning to'g'riligini tasdiqlash uchun qo'yilgan huquqiy imzo.

VOIZ [*a.* – targ'ib qiluvchi; va'xon] Chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus notiqlik salohiyatiga ega bo'lgan, jamoat oldida nutq so'zlovchi, voizlik bilan shug'ullanuvchi kishi; professional notiq.

VOLONTYOR [*fr.* volontair – ko'ngilli, ixtiyoriy < *lot.* voluntas – iroda, xohish] Dastlab harbiy xizmatga ko'ngilli ravishda boruvchi, keyinchalik ko'plab

ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy harakatlarda ixtiyoriy qatnashuvchi shaxs.

VOLYUNTARIZM [*lot. voluntas – iroda; intilish*] **1** Irodani borliqning eng oliy ko'rinishi, tamoyili deb qarovchi falsafiy oqim. **2** Tarixiy jarayonlarning obyektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan, o'zboshimchalik bilan siyosat yuritish.

VORIS [*q. – merosxo'r*] Meros olish huquqiga ega bo'lgan shaxs; meros egasi; merosxo'r.

VORISLIK Vafot etgan shaxsning mol-mulki, huquq va majburiyatlarining boshqa shaxsga (merosxo'rga) o'tishi bilan bog'liq munosabatlar.

VORISLIK HUQUQI Vafot etgan (meros qoldirgan) shaxs mulkining vorislariga o'tishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar majmui.

VOSITA [*q. – chora, tadbir; o'rtadagi*] Biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol.


VOSITACHI Fuqarolik huquqida: vositachilik shartnomasida bir taraf sifatida ishtirok etuvchi shaxs; vosita bo'luvchi kishi.

VOSITACHILIK Diplomatik vositalar yordamida davlatlarning o'zaro munosabatlarida vujudga keladigan nizolar, harbiy to'qnashuvlar va h. k.ni hal etish shakli.

VOTUM [*lot. votum – xohish, tilak*] Saylovchilar yoki vakillik organlarining ko'pchilik ovoz bilan qilgan qarori yoki fikri.

VOYAGA YETMAGAN O'zbekiston Respublikasi huquqida o'n sakkizga to'lmagan shaxs. Ushbu tushuncha huquqning turli sohalarida 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi.

VUJUDIYUN [*q. – borliq; mavjudot*] Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan falsafiy ta'limot. Unga ko'ra, Olloh va real borliq bir butun vujud –mavjudotni tashkil etadi.



XABARNOMA [*a.+fors.*] Biror narsa, voqea haqida xabar beruvchi hujjat; chaqiruv qog'ozi.

XAKER [*ingl. hacker* < *hack* – buzmoq; kesmoq, qirmoq] **1** Kompyuter dasturlari va qoidalarini buzuvchi – huquqi bo'lmagani holda kompyuter dasturlariga o'zgartirishlar kiritadigan shaxs; yuqori malakali dasturchi. **2** Bank, tijorat, davlat, harbiy va b. tashkilotlardagi axborotlarning ximoya vositalarini yo'qotib, o'ta qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish, o'zga hisobraqamlardagi pulni o'zlashtirish, kompyuterlarga virus yuqtirish kabi ishlarni amalga oshirishga urinuvchi shaxs.

XALFA [*a.* – ergashish; o'rin almashishi] **1** Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida kosib ustaning yordamchisi. **2** Eski maktablarda talabalarning kattasi, muallimning yordamchisi.

XALIFA [*a.* – o'rinbosar, noib, izdosh] **1** Sharqdagi bir qancha musulmon davlatlarida diniy va dunyoviy hokimiyatga ega oliy hukmdor. **2** Islomning ilk davrlarida jamoa hayotini shariat bo'yicha tartibga solish va Olloh taolo ko'rsatmalariga musulmonlar to-

monidan amal etilishini nazorat qilish yuklatilgan hukmdor.

XALIFALIK Xalifa rahbarligidagi musulmon feodal-teokratik davlat: Muhammad payg'ambar vafotidan so'ng (632-yil) vujudga kelgan; 1258-yili mo'g'ullar bosqini natijasida xalifalik barham topgan.

XALQ [*a.* – yaratilgan jonzot, odamlar] **1** Kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan birligi. **2** Tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari: millat, elat, etnik birlik, urug' kabilar. **3** Kelib chiqishidan qat'i nazar, davlatning yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy bir butunligini tashkil etuvchi jami aholi.

XALQ-DEMOKRATIK PARTIYASI (XDP) O'zbekiston Respublikasida 1991-yil 1-noyabrda tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy partiya; ziyolilar, ishchilar, xizmatchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, yoshlar va faxriylarni, 100 ga yaqin millat va elat vakillarini birlashtiradi. O'zXDPning markaziy matbuot nashr-

lari sifatida "O'zbekiston ovozi", "Голос Узбекистана" gazetalari va "Muloqot" jurnali chop etiladi.

XALQ DEMOKRATIYASI Jamiyatdagi siyosiy tashkilot shakli. Mamlakatda qator demokratik o'zgartirishlarni joriy etish; asta-sekin va nisbatan tinch amalga oshiriladigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari. Ular deputatlardan iborat bo'lib, viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil qilinadi.

XALQ DEPUTATLARI POSYOLKA KENGASHI Davlat hokimiyati mahalliy organining eng quyi tizimi – qishloq, ovul va posyolka kengashlari 1992-yildan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organiga aylantiriladi, 1993-yildan tugatilgan.

XALQ DEPUTATLARI SHAHAR KENGASHI Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimiyatning hokim boshchilik qiladigan va killik organi.

XALQ DUSHMANI Sho'ro tuzumida shunday ayblovl, shunday nom bilan minglab odamlar qatag'on qilingan, tazyiqqa uchragan, haq-huquqlaridan mahrum qilingan.

XALQ FRONTI Urushga va aholining hayotiy manfaatlariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan turli xil tashqi ta'sirlarning xurujiga qarshi kurashda, milliy mustaqillik, demokratiya, ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda keng xalq ommasini birlashtirish shakli.

XALQ IJODI Xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati.

XALQ LASHKARI Chet el bosqinchilariga qarshi kurashish uchun xalq ommasi ichida tashkil topgan ko'ngilli harbiy qismlar. Xalq lashkari dushman bosib olmagan hududlarda tuzilgan.

XALQ MASLAHATCHILARI Jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rishda qatnashish uchun saylangan, ish bo'yicha qaror chiqarishda sudya bilan teng huquqqa ega bo'lgan fuqarolar.

XALQ MUHOKAMASI Davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlari loyihalarining, shuningdek, davlat yoki tegishli hudud hayotining eng muhim masalalarining xalq tomonidan ko'rib chiqilishi.

XALQ NAZORATI Qonuniy kuchga kirgan hukmlar va b. sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish: davlat qonunlari va b. me'yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishi, davlat intizomiga rioya etilishi, moliyaviy mablag'lar va davlat yoki munitsipal mulkka qarashli mol-mulkdan tegishli foydalanish, fuqarolarning takliflari, arizalari va shikoyatlari bilan ishlashning tashkil etilishini nazorat qilish.

XALQ PEDAGOGIKASI Xalqning hayotiy tajribasi, ta'lim-tarbiyasi, turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui. Muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyat.

"XALQ SO'ZI" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'sis etilgan va 1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ommaviy ijtimoiy-siyosiy gazeta. O'zR Oliy Majlisi, uning organlari va Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini, mamlakatda va xorijda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlarni xolis va beg'araz yoritish gazetaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XALQ TASHABBUSI Fuqarolarning hokimiyat vakillik organi yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi muhokamasiga yoki tegishli mansabdor shaxsga ularning qarori loyahasini yoki ularning vakolatlariga kiruvchi biror-bir muhim masalani ko'rib chiqish to'g'risidagi, mazkur masalaning xalq muhokamasini tashkil etish yuzasidan xalq referendumini o'tkazish to'g'risidagi taklifni kiritish huquqi.

XALQ TA'LIMI Mamlakatda tarbiyaviy, o'quv va madaniy-ma'rifiy muassasa va tadbirlar tizimi hamda ularni boshqarish organlari. "Xalq ta'limi" atamasi XX asrning 80-yillarida o'zbek tili leksikasidan o'rin olgan. Ungacha kishilarning bilimi va ongini oshirish, umumiy saviyasini ko'tarishga qaratilgan ta'lim-tarbiya tarzida, nisbatan torroq ma'nodagi "xalq maorifi" atamasi qo'llangan.

XALQ TA'LIMI BO'LIMI Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi (XTMFMTEB).

XALQ TRIBUNLARI Qadimgi Rimda: plebey (oddiy xalq)larning yuqori mansabi. Xalq tribunlarining shaxsi daxlsiz hisoblangan. Ular mansabdorlarning har qanday buyrug'ini man etish (veto), hatto senat qarorini ham bekor qilish, plebeylar yig'ilishini chaqirish huquqiga ega bo'lganlar.

XALQ VAKILI Aholi tomonidan davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va b. vakillik organlari yoxud mahalliy vakillik organlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga saylangan shaxs, ya'ni deputat. U o'z saylovchilarini, butun xalqning manfaatini ifoda etadi.

XALQ VAKILLIGI Davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakillik (ya'ni xalq tomonidan saylanadigan) organlari tizimi.

XALQ XO'JALIGI Muayyan mamlakatning mehnat taqsimoti orqali o'zaro bog'langan ishlab chiqarish tarmoqlari majmui, butun mamlakat xo'jaligi, iqtisodiyoti. "Xalq xo'jaligi" atamasi sobiq sho'ro tizimi davrida keng qo'llangan. Hozirgi kunda asosan "milliy iqtisodiyot" atamasi ishlatiladi.

XALQARO BIRJA Qatnashuvchilar ishtirokida, qat'iy belgilangan joyda o'tkaziladigan savdo joyi.

XALQARO BITIM Yirik siyosiy ahamiyatga ega xalqaro shartnoma.

XALQARO EHTIROM Davlatlaro munosabatlarda rioya qilinadigan, xalqaro amaliyotda hammaga rasm bo'lib qolgan etiket qoidalari, izzat, hurmat majmuasidir. Uni buzish dav-

latni haqorat qilish va uning obro'siga zarar yetkazish deb hisoblanadi.

XALQARO "EKOSAN" JAMG'ARMA-SI Tabiat muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida tuzilgan tashkilot.

XALQARO ERKIN KASABA UYUSHMALARI KONFEDERATSIYASI Xalqaro kasaba uyushmalari markazi: 150 dan ortiq mamlakatdagi 250 dan ko'p milliy kasaba uyushma markazlarini birlashtiradi. 1949-yilda Londonda bo'lib o'tgan ta'sis syezdidan asos solingan. Qarorgohi Belgiyaning Bryussel shahrida joylashgan.

XALQARO FUTBOL ASSOTSIATSIYALARI FEDERATSIYASI (FIFA) 1904-yil 21-mayda Parij shahrida Shveytsariya qonunlari asosida tashkil topgan. FIFA soliq to'lamaydigan yuridik shaxs maqomiga ega.

XALQARO HARBIIY TRIBUNAL Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin asosiy harbiy jinoyatchilarning ishini ko'rib chiqish uchun 1945-yilda SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi bitimga muvofiq tuzilgan sud organi.

XALQARO HUDUD Geografik jihatdan davlat hududidan tashqarida bo'lgan, biron-bir davlatga alohida holda taalluqli bo'lmagan, xalqaro huquqda belgilangan huquqiy maqom va rejim bo'yicha butun insoniyat, davlatlar tomonidan mushtarak foydalanilishi mumkin bo'lgan hudud (mas., havo bo'shlig'i, Antarktida va b.).

XALQARO HUQUQ Mustaqil huquq tizimi: davlatlararo munosabatlarni,

xalqaro huquq tizimidagi barcha subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar, odat me'yorlari va tamoyillaridan iborat.

XALQARO HUQUQ ASSOTSIATSIYASI Xalqaro nohukumat ilmiy tashkilot: BMT tizimidagi bir qator tashkilotlarda o'z maslahatchilik maqomiga ega; xalqaro huquqning yanada rivojlanishiga, huquqning aholi tomonidan ongliga, ixtiyoriy qo'llanishiga, qonundagi kamchiliklarni yo'qotishga, xalqaro munosabatlarning o'zaro kelishuvlar asosida amalga oshirilishiga harakat qiladi.

XALQARO HUQUQIY JAVOBGARLIK Huquq talabini bajarish majburiyati va huquq talabini bajarishdagi majburiylik.

XALQARO HUQUQIY TAN OLISH Yangi davlatlar yoki hukumatlar yoxud boshqa organlarning mavjud davlatlar tomonidan xalqaro huquqqa muvofiq tan olinishi; ular bilan rasmiy yoki norasmiy, to'la yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik munosabatlar o'rnatilishi.

XALQARO HUQUQNING ASOSIY TAMOYILLARI Ma'lum tarixiy davrda xalqaro hayotning asosiy va muhim masalalari bo'yicha xalqaro munosabat subyektlarining xatti-harakatlari aks ettirilgan, umumiy tan olingan qoidalar.

XALQARO ISHCHILAR SINFI Osmaviy demokratik harakatlarning yetakchi kuchlari. Ular faqat o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, turmush darajasini oshirish, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish uchun kurashibgina qolmay, balki boshqa sinflar, ijtimoiy guruhlar va aholi turli qatlam-

larining manfaatlariga daxldor bo'lgan muammolarni ham ijobiy hal qilishga xayrixohdirlar.

XALQARO JINOYATLAR Bir necha yoki barcha davlatlar manfaatlari va holatlariga daxldor bo'lgan, ular natijasida ijtimoiy xavf tug'dirgan qilmish, og'ir jinoyat, xalqaro huquqqa zid harakat.

XALQARO KOOPERATIV ALYANSI (XKA) Matlubot, qishloq xo'jaligi, kredit va b. kooperativlarning milliy va hududiy ittifoqlari va federatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro tashkilot. BMTda maslahat maqomiga ega. 1895-yilda Londonda tashkil etilgan. 100 ga yaqin mamlakatning 200 dan ortiq kooperativ tashkilotini birlashtiradi. Asosiy maqsadi barcha mamlakatlarda kooperatsiyalar rivojlanishiga yordam berish, kooperativ harakat tamoyillarini targ'ib etish, turli mamlakatlardagi kooperativ tashkilotlar o'rtasida hamkorlik o'rnatish, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga yordam berish va b.

XALQARO MADANIYAT KARVON-SAROYI O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiasining ilmiy-ma'rifiy markazi; o'zbek-yapon hamkorligi asosida 2002-yilda tashkil etilgan. Uning binosi Xirayama Ikuo mablag'iga qurilgan.

XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI Global bozorlarda savdo qilayotgan mamlakat va mintaqalarning o'zaro bog'liqligi; ijtimoiy-hududiy mehnat taqsimotining yuqori shakli, jahon bozoringa va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarning muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisos-

lashuvi va mahsulotlarni o'zaro ayirboshlashi.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI (XMT) 1919-yilda tuzilgan. 1949-yildan boshlab BMTning ixtisoslashgan tashkiloti. Uning asosiy maqsadi – mehnatkashlarning mehnat sharoiti va turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni o'rnatish, baxtsiz holatlar va kasb kasalliklaridan himoya qilish va h.k. XMTga 200 ga yaqin davlat a'zo, jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham 1992-yildan XMTga a'zo hisoblanadi.

XALQARO MOLIYA KORPORATSIYASI (XMK) BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi. Jahon banki guruhiga kiradi. 1956-yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)ning filiali tarzida tashkil etilgan; keyinchalik mustaqil yuridik shaxs. A'zo davlatlar soni 200 ga yaqin. Qarorgohi Vashington shahrida joylashgan.

XALQARO MUSIQA KUNI YUNESKO tomonidan 1975-yil 1-oktyabrda "Xalqaro musiqa kuni"ni (1-oktyabr) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan.

XALQARO NAVRO'Z KUNI 2010-yil 19-fevralda BMT Bosh assambleyasining 64-sessiyasida 21-martni xalqaro miqyosdagi bayram qilinishi haqida qaror qabul qilingan.

XALQARO OLIMPIYA QO'MITASI (XOQ) Hozirgi zamon olimpiya harakatining yuqori organi – 1894-yilda Parijda bo'lib o'tgan xalqaro kongressda tuzilgan. Uning vazifasi – Olimpiya o'yinlarini muntazam ravishda o'tkazib turish va ularni doimo takomillashtirib borish,

havaskorlar sportini rivojlantirishga rahbarlik qilish, barcha mamlakatlar sportchilari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga ko'maklashish. XOQning qarorgohi Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan.

XALQARO OLIIY MAKTAB AKADEMIYASI Butun jahonda ta'lim tizimini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini yuksaltirish maqsadida tuzilgan xalqaro tashkilot.

XALQARO PAKT Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risida qabul qilinadigan xalqaro hujjat.

XALQARO QIZIL XOCH (XQX) Harbiy asirlarga, yaradorlarga va urushning boshqa qurbonlariga, shuningdek, bemorlarga va tabiiy ofatdan zarar ko'rganlarga yordam berishni o'z maqsadi deb e'lon qilgan milliy va xalqaro tashkilotlar birlashmasi. XQXning yuqori organi - Xalqaro konferensiya. XQX rahbar organlarining qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan.

XALQARO SANKSIYA Ayrim davlatlarning xalqaro huquq me'yorlariga rioya etmasligi natijasida ularga nisbatan xalqaro tashkilotlar, asosan, BMT tomonidan siyosiy, iqtisodiy va h.k. majburlov choralarini qo'llash.

XALQARO STANDARTLASHTIRISH TASHKILOTI Butun jahon mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan (xalqaro) standartlarni ishlab chiqish hamda standartlashtirish sohasida jahon miqyosida hamkorlik qilish bilan shug'ullandigan nodavlat tashkilot. Bu tashki-

lot Londonda 1946-yilda 25-davlatning standartlashtirish bo'yicha tashkilotlari tomonidan ta'sis etilgan. Xalqaro standartlashtirish tashkilotiga 100 ga yaqin mamlakatning standartlashtirish milliy tashkiloti a'zo, jumladan, "O'zstandart" agentligi 1992-yil martdan boshlab unga a'zo hisoblanadi. Qarorgohi London shahrida joylashgan.

XALQARO SUD Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1945-yilda tuzilgan asosiy sud organi. U 15-sudyadan iborat bo'lib, ularni Xavfsizlik kengashi va BMTning Bosh assambleyasi mutlaq ko'pchilik ovoz bilan to'qqiz yil muddatga saylaydi. Xalqaro siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, hududiy masalalarni hal etishda yuzaga kelgan barcha muammolar bo'yicha, vaziyat talab qilganda, o'z fikrini aytadi yoki hukmini chiqaradi. Qarorgohi Niderlandiya (Gollandiya) ning Gaaga shahrida joylashgan.

XALQARO TALABALAR ITTIFOQI 1946-yilda tuzilgan demokratik talaba yoshlar uyushmasi. Uning maqsadi barcha mamlakatlarda yuqori darajada ma'lumot olishga, talabalarning to'la akademik erkinliklari va huquqlarini ta'minlashga, barcha mamlakatlar talabalar harakatining birligiga erishishga, butun dunyo talabalari o'rtasida do'stlik, o'zaro tushunish va hamkorlikka erishishga, turli ko'rinisdagi kamsitishlarni, ayniqsa, irqiy kamsitishlarni tag-tomiri bilan yo'q qilishga qaratilgan. Qarorgohi Chexiyaning Praga shahrida joylashgan.

XALQARO TARAQQIYOT UYUSHMASI (XTU) BMTning ixtisoslashgan

muassasasi. Jahon banki guruhiga kiradi. 1960-yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)ning filiali tarzida tashkil topgan. 200 ga yaqin davlat a'zo. Boshqaruvi va qarorgohi XTTB bilan birga Vashington shahrida joylashgan.

XALQARO TASHKILOTLAR Xalqaro bitimlar asosida tuziladigan hukumatlararo va nohukumat xarakterdagi doimiy birlashgan tashkilotlar. Ular davlatlar hamkorligini har tomonlama rivojlantirishga va ta'sis hujjatlariga asoslangan holda, xalqaro muammolarni hal qilishga, aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga kelgan va Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab tuzila boshladi.

XALQARO TASHKILOTLAR SHARTNOMALARI Bir yoki bir necha davlatlar tomonidan o'zaro yoki bir necha tashkilotlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar.

XALQARO TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI (XTTB) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi. Jahon banki guruhiga kiradi. Xalqaro valyuta fondi bilan bir vaqtda, BMTning 1944-yilda AQSHda o'tkazilgan xalqaro valyuta-moliya konferensiyasi qaroriga ko'ra tashkil etilgan. 1946-yildan o'z faoliyatini boshlagan. Unga faqat davlatlarga a'zo bo'lishi mumkin. A'zo davlatlar soni 200 ga yaqin. Qarorgohi Vashington shahrida joylashgan.

XALQARO TILLAR Turli davlatlar xalqlarining aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillar. BMT tomonidan ingliz,

fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tillari rasman xalqaro tillar sifatida e'tirof etilgan.

XALQARO TRANZIT Transport vositalaridan foydalangan holda bir suveren davlatning ustidan, hududidan suv, havo orqali, yer usti, yer ostidan boshqa bir davlatga yuk olib o'tish.

XALQARO VALYUTA FONDI (XVF) Bretton-Vuds (AQSH)dagi konferensiya qaroriga muvofiq 1944-yilda ta'sis etilgan xalqaro moliya tashkiloti. BMTning ixtisoslashtirilgan statusiga ega bo'lib, unga 200 ga yaqin davlat a'zo bo'lgan. XVFning rasmiy maqsadlari – valyuta-moliya sohasida xalqaro hamkorlik qilishga va jahon savdosini rivojlantirishga ko'maklashish, uning a'zolari bo'lgan mamlakatlarning valyuta kursini tartibga solish. XVFning yuqori organi – boshqaruvchilar kengashi. Qarorgohi AQSHning Vashington shahrida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi XVFga 1992-yil 21-oktyabrda a'zo bo'lgan.

XALQARO XAYRIYA FONDRLARI Hukumatga qarashli bo'lmagan xayriya jamg'armalari.

XALQARO YOSHLAR KUNI Butunjahon demokratik yoshlar federatsiyasi tashabbusi bilan 1945-yil 29-oktyabr-10-noyabrda Londonda bo'lib o'tgan I Xalqaro yoshlar kongressida 10-noyabr kunini bayram qilish g'oyasi ilgari surilgan.

XALQARO SHARTNOMA Davlatlarning ikki yoki ko'p tomonlama tuzilgan kelishuvi. Ularda davlatlar asosiy tomonlar sanaladi. Xalqaro

shartnoma xorijiy davlatlar yoki xalqaro birlashmalarning o'zaro kelishuvi natijasida yozma ravishda tuziladi. Xalqaro shartnomalar *shartnoma*, *pakt*, *bitim*, *konvensiya* deb ham ataladi.

XALQARO SHARTNOMA HUQUQI

Xalqaro huquq sohasi bo'lib, undagi me'yorlar xalqaro shartnomalarning mazmuni, tuzilish tartibi, amal qilishi, o'zgarishi va tugallanishini belgilaydi.

XALQLARNING BUYUK KO'CHISHI Yevropada milodning IV - VII asrlarida germanlar, slavyanlar, sarmatlar va b. qabilalarning Rim imperiyasi hududiga o'tishidan iborat yalpi etnik ko'chishlarining shartli nomi. IV asrning 70-yillaridan boshlab xunnlarning ommaviy ravishda G'arbgga siljishlari xalqlarning buyuk ko'chishiga bevosita turtki bo'lgan.

XALQCHIL SIYOSAT Xalq manfaati yo'lida odilona amalga oshiriladigan siyosat.

XARIZMA [yun. charisma - muruvvat, ilohiy qobiliyat] Insonning mantiqan tushuntirish imkonsiz o'ta qobiliyatligi va o'ziga xosligi; yo'l boshchilik, rahnamolik qobiliyati.

XARIZMATIK SIYOSIY RAHNAMELIK Odamlarga va ijtimoiy guruhlariga ta'sir o'tkaza oladigan rahnamoning oldindan ilg'ab olish, faraz qilish qobiliyati.

XARTIYA [yun. chartes - papirus varag'i, papirus qog'ozi; yorliq] Ijtimoiy-huquqiy, siyosiy mazmunga ega bo'lgan va umumiy prinsiplar va maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan

hujjat (xalqaro hujjat). "Deklaratsiya" so'zining sinonimi hisoblanadi.

XATIB [a. - targ'ibotchi, voiz, va'zxon, notiq] Masjidida juma va hayit namozi paytida xutba o'qiydigan, va'z aytadigan ruhoni.

XATMI QUR'ON [a. - Qur'onni to'liq o'qish] 1 Qur'onni to'liq o'qib tushurish. 2 Marhumlar arvohiga atab Qur'on tushirish va shu munosabat bilan o'tkaziladigan diniy marosim.

XAVFSIZLIK KENGASHI BMTning eng nufuzli organlaridan biri: 15 davlat vakillaridan tashkil topib, ularning 5 tasi (AQSH, Rossiya, Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniya) doimiy a'zo, qolganlari har ikki yilda almashinib turadi. Xavfsizlik kengashi davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyalarning oldini olish, yangi a'zolar qabul qilish va b. masalalarni o'rganadi, qarorlar qabul qiladi yoki tavsiyalar beradi.

XAVFSIZLIK XIZMATI Davlat xizmati organi. Rasmiy nomi - Milliy xavfsizlik xizmati. Uning faoliyati xorijiy, maxsus xizmatlar (razvedka)ga, qo'poruvchilik faoliyatining oldini olishga, shuningdek, mavjud huquq-tartibotni buzish maqsadida, dushmanlik kayfiyatida bo'lgan kuchlarning harakatlariga chek qo'yishga qaratilgan.

XAYR-EHSON [a. - ezgulik, yaxshilik] Islom ta'limoti bo'yicha bechorahol, miskin, muhtoj va qashshoq kishilarga beriladigan majburiy yoki ixtiyoriy xayr-sadaqa.

XAYRIYA [a. - xayr-saxovat, ehson; yaxshilik qilish, muhtojlarga yordam

berish] Boshqalarga yaxshilik qilish, kambag'allarga yordamlashish; yakka shaxslar va tashkilotlar (umuman, davlat, xususan, korxonalar, firmalar, jamg'armalar va b.)ning kambag'allar, kam ta'minlanganlarga rahm-shafqat yuzasidan moddiy yordam ko'rsatishi.

XAYRIYA JAMIYATI Moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan, o'z nizomi va dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy uyushma, jamiyat.

XIROJ, XAROJ [*a.* - chiqim, xarajat; yer solig'i] Feodalizm davridagi asosiy soliqlardan biri: dastlab VII asrda arablar tomonidan joriy etilgan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda va yangi davrda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. yer-suvning umumiy sharoiti (yerning unumdorligi, suvga seroblighi), ekin maydonining shaharga yaqin yoki yiroq bo'lishi, shuningdek, mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab, qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosilning uchdan birgacha qismi.

"XIROJ" YERLAR Ekin ekishga yaroqli yerlar. Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi bosib olinganidan keyin bosib olingan xalqlarning o'zida qoldirilgan yerlar. Evaziga xazinaga bu yerlardan "xiroj" solig'i undirilgan.

XOJAI KALON [*fors.* - katta xo'ja; diniy mansab] Diniy mansabdorlar markaziy boshqaruvida shayxulislomdan keyingi o'rinda turgan amaldor: davlat ishlari, hukmdorning farmon va qarorlari shariat qonunlari asosida bo'lishi yoki shariatga mos kelishiga mas'ul bo'lgan.

XOLDING KOMPANIYA [*ingl.* holding-company < holding - egalik qiluvchi, ega bo'lgan + kompaniya] *iqt.* Asosiy faoliyati boshqa firmalar, korxonalar aksiyalarini o'z tasarrufiga olish orqali ularning ishini nazorat qilishdan iborat bo'lgan kompaniya, bosh korxonona.

XOLOPLIK [*rus.* холопство - qullik] Qadimgi Rusda IX - XII asrlardan XVIII asr boshlarigacha feodal qaramlikning qullikka yaqin bo'lgan bir shakli: asir olingan, sud hukmi bilan jazolangan, qarzini uzolmagan, o'zini qullikka sotgan, qul ayolga uylangan kishilardan tashkil topgan. Xoloplar o'z xo'jayinining mulki hisoblangan. Ular hech qanday fuqarolik huquqlariga ega bo'lmagan. Pyotr I imzolagan bir qator farmonlar asosida xoloplik tugatilgan va krepostnoy dehqonlarga qo'shib yuborilgan.

XON [*turkiy.*-mo'g'. qoon - hukmdor] **1** Turkiy xalqlar va mo'g'ullarda dastlab qabila boshlig'i, keyinroq oliy hukmdor; mo'g'ul imperiyasida ulus boshlig'i. **2** Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida hukmdorlar unvoni.

XONAQOH [*fors.* - kulba, uy] **1** O'rta asrlarda darveshlar va musofirlar uchun qurilgan masjid va madrasalar. **2** *din.* So'fiylar mashg'ulot o'tkazadigan katta xona va uning atrofidagi hujralar.

XONAQOHNISHIN [*fors.* - xonaqohda o'tiruvchi] Xonaqohdan chiqmasdan toat-ibodat bilan shug'ullanadigan; tarkidunyo qilgan (kishi).

XONAVODA [*fors.* - oila, avlod, nasab; sulola] Davlat boshqaruvi bilan bog'liq va asrlar davomida davlatni boshqargan sulola.

XONLIK Xon tomonidan boshqarilgan davlat.

XOQON [turkiy.-mo'g'. – buyuk podshoh, xonlar xoni, shohanshoh] Hazar, turkiy, xitoy, mo'g'ul xonliklarida oliy hukmdorlarning unvoni. Oltoylik turkiylar tilida – ulug', buyuk.

XOQONLIK Keng hududlarni o'z hokimiyatiga bo'ysundirgan hukmdor – xoqonga qarashli hudud, davlat yoki mamlakat.

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 11-noyabrdagi farmoni bilan Urganch shahrida qaytadan tashkil qilingan akademik ilmiy-tadqiqot markazi: Markaziy Osiyo tarixidagi birinchi akademiya – Xorazm Ma'mun akademiyasi 1004-1005-yillarda tashkil topgan va 1017-yilda o'z faoliyatini to'xtatgan.

XORAZMSHOH Xorazm hukmdorlari unvoni; Beruniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, "xorazmshoh" unvoni bilan Xorazmni dastlab Kayxusrav boshqargan.

XORIIY VALYUTA Boshqa mamlakatlarning milliy puli.

XOSXONA [a.+fors. – xona] Katta mansab egalari yoki hukumat boshlig'i turadigan joy, saroy; qarorgoh, rezidensiya.

XOTIN-QIZLARNING XALQARO DEMOKRATIK FEDERATSIYASI Xotin-qizlarning 1945-yilda Parijda bo'lib o'tgan xalqaro kongressida tuzilgan. 114 mamlakat xotin-qizlarining 129 tashkilotini, xotin-qizlarni irqi, millati, diniy va siyosiy qarashlaridan qat'i nazar birlashtiradi. Yuqori organi – Jahon xo-

tin-qizlar kongressi. Qarorgohi Germaniyaning Berlin shahrida joylashgan.

XOTIRA KUNI Sobiq sovet mustamlakachiligi davrida yangi o'ylab topilgan sotsialistik urf-odat; kishilar hayotiga zo'rlab tiqishtirilib, o'zbek xalqining azaliy bayrami bo'lgan Navro'z bayrami o'rniga o'tkazilgan. 1986-yildan boshlab, mart oyining oxirgi yakshanbasini "Xotira kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror e'lon qilingan. Navro'z bayramiga diniy tus berilib, uni "Navbahor" bayrami deb atash taklifi o'rtaga tashlangan.

"XOTIRA MAYDONI" MAJMUASI Fashizmga qarshi janglarda qurbon bo'lgan o'zbekistonlik jangchilar xotirasi abadiylashtirilgan, Toshkent shahri markazida barpo etilgan yodgorlik-majmua.

XOTIRA VA QADRLASH KUNI O'zbekiston Respublikasida 1999-yil 9-maydan boshlab har yili nishonlanadigan kun.

XOTUN, qatun [turkiy. – xoqon xotini] Hukmdor ayol va xoqon xotinig nisbatan qo'llangan unvon. Dastlab xunlar davrida – miloddan avvalgi III – milodiy III asrlarda qayd etilgan.

XOCHDORLAR q. salibchilar.

XRISTIAN SOTSIALIZMI Xristian dinini sotsializm ideallari (tinchlik, qar-doshlik, gumanizm va b. ideallar) bilan bog'lashga intiluvchi diniy-g'oyaviy oqim – XIX asrning ikkinchi choragida Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va b. mamlakatlarda paydo bo'lgan; katolik hamda protestant cherkovlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

XRISTIANLIK Xristian dini; jahonda keng yoyilgan uchta katta dindand (buddizm, xristian va islom) bittasi. Xristianlik milodiy I – II asrlarda paydo bo'lgan. Xristianlik dini uning asoschisi – afsonaviy Iusus Xristos (Iso Masih) nomi bilan bog'liq.

XRISTOS [lot. Chrystos – yerdagi odamzodning xaloskori] Xristian diniga asos solgan afsonaviy shaxs – Iusus Xristos (Iso Masih). Xristian dini ta'limotiga ko'ra Xristos "xudoning o'g'li", odam qiyofasiga kirgan: odamlarni qutqarish uchun osmondan yerga tushgan, azob-uqubatlarga duchor bo'lgan, hatto hukmdor va ruhoniylar tomonidan chormix qilingan, ya'ni o'ldirilgan, keyin qayta tirilib, yana osmonga ko'tarilgan.

XRIZOBUL, xrisovul [yun. chryso-bullon – oltin muhr] Vizantiya imperatorining tantanali yorlig'i. Qonunlar, xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar, muhim imperator in'omlari xrizobul (xrisovul) shaklida e'lon qilingan.

XRONIKA [lot. chronikos – vaqtga, davrga aloqador] **1** O'rta asrlarda: bo'lib o'tgan, bo'lib turadigan muhim voqealar yilma-yil tartib bilan yozilgan tarixiy asar. **2** Hukmdor va badavlat kishilarning oilasida bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan adabiy asar. **3** Ommaviy axborot vositalarida kundalik voqea-hodisalarni yoritishga bag'ishlangan qisqa axborot; janr.

XRONOGRAMMA [yun. chronogrammos – vaqt yozuvi] Biror tarixiy yoki ijtimoiy voqeaning qisqacha bayoni.

XRONOLOGIYA [yun. chronos – davr, vaqt + logos – ta'limot] **1** Eng muhim, dolzarb voqea-hodisalarning sanalari ketma-ket ko'rsatib yozilgan bayoni, ro'yxati. **2** Tarixiy voqealar va tarixiy hujjatlarning sodir bo'lgan va yozilgan vaqtini aniqlovchi qo'shimcha tarix fani.

XUDBINLIK [fors. – manman, o'zini o'ylovchi, egoist] O'z shaxsiy ehtiyojlari boshqa kishilar manfaatidan yuqori qo'yishga kuchli intilishda namoyon bo'ladigan salbiy axloqiy xislat. U manfaatparastlik va shaxsiyatparastlikni o'z ichiga oladi.

XUDOSIZLAR TASHKILOTI 1927–1930-yillarda Samarqand va Toshkent shaharlarida dinga qarshi seminarlar, to'garaklar va kurslar tashkil etgan targ'ibot-tashviqot tashkiloti.

XUDOYI [fors. – xudo yo'liga sadaqa] Marhumlar ruhiga bag'ishlab yoki biror illatdan qutulganligi uchun xudo yo'liga qilinadigan sadaqa, qurbonlik.

XUDPARASTLIK Ishonch, halollik va b. barcha ezgu sifatlarni barbod qilib, o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yish.

XULAFOUR ROSHIDIN [a. – to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar; fors. choryorlar – to'rt do'st] Muhammad payg'ambar vafotidan so'ng, uning bevosita taxt vorisi bo'lmaganligi uchun, arab xalifaligida hokimiyatni ketma-ket boshqargan to'rt xalifa – Abu Bakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–656), Ali (656–661). Eron, Afg'oniston va Markaziy Osiyodagi oddiy dindorlar orasida ularni "choryorlar" deb atash rasm bo'lgan.

XULQ [*a.* – fe'l-atvor, tabiat; kayfiyat; g'azab] Jamiyatning, davrning axloqiy talablarini o'ziga singdirish orqali insonda shakllanadigan xarakter, xususiyat.

XULQ-ATVOR MADANIYATI Axloqiy-etik tamoyillar, ijtimoiy me'yorlar, etika qoidalariga mos keladigan mezonlar.

XUMSON [*a.* – beshdan bir] Islom an'anasida musulmon qo'shinlari qo'lga kiritgan o'ljalarning beshdan bir qismi. U avval Muhammad payg'ambar ixtiyoriga, so'ng xalifalar xazinasi (baytulmol)ga ajratilgan, qolgan qismi harbiy boshliqlar va lashkarlarga tarqatilgan.

XUNTA [*isp.* junta – yig'ilish; birlashma, uyushma] Ispaniyadagi va Lotin Amerikasining ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy tashkilot yoki birlashma. Hokimiyatni g'ayriqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritib olib, zo'ravonlik bilan hukm surayotgan bir guruh reaksiyon harbiylar ittifoqi.

XURAL [*mo'g'.* – majlis, yig'ilish; vakolatli organ] Mo'g'uliston Respublikasida davlat hokimiyati organining nomi. Hokimiyatning oliy organi – Ulug' Xalq xuruli.

XUROFOT [*a.* – bid'at, taassub, afsona] Jamiyat taraqqiyotidan orqada qolgan ayrim qoloq kishilarning bid'atga, behuda so'zlarga, irim-sirimlarga ishonishi va amal qilishi.

XURRAMIYLAR Insonlarning millati va dinlaridan qat'i nazar, o'zaro tenglik, zohidlik (tarkidunyochilik) bilan hayot kechirish singari tushunchalarga asoslangan g'oya tarafdorlari (VIII asr o'rtalari); ular yirik yer mulkchiligini

yo'qotish va yerlarni dehqon jamoalariga topshirish shiori bilan chiqqanlar.

XURULTAY [*mo'g'.* xurultay – qurultoy, kengash, majlis] q. **qurultoy**.

XUSUSIY BUZG'UNCHI G'OYALAR Jamiyatning biron-bir qatlami, ijtimoiy harakat a'zolarining buzg'unchi faoliyati. O'zlarining xususiy maqsad va manfaatlarini mutlaqlashtirish, boshqalarni o'z izmiga solish hamda shu yo'ldan yurishga majburlash. Axloqsizlik, boylikka ruju qo'yish, jamoaviy buzg'unchilik, g'yohvandlik, alkogolizm va b.

XUSUSIY HUQUQ Turli davlatlar milliy huquq tizimlariga, xalqaro huquq, xalqaro shartnomalar, konvensiyalarga taalluqli huquqiy me'yorlar yig'indisidan tashkil topgan huquq.

XUSUSIY MULK Shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulki; shuningdek, fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga tegishli mulk ham xususiy mulk hisoblanadi. Xususiy mulk hisoblanadigan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

XUSUSIY MULK HUQUQI Shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

XUSUSIY UY-JOY FONDI Fuqarolar mulki bo'lgan uy-joy fondi (yakka tartibda qurilgan uylar, xususiy lashtirilgan, sotib olingan xonadonlar, uylar va h. k.) hamda xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va b. nodavlat yuridik shaxslarning mulki bo'lgan va

ularning mablag'lari hisobidan qurilgan, shuningdek, auksionda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan uy-joy jamg'armasi.

XUSUSIY XAT Diplomatik yozishmaning bir turi: tanish rasmiy shaxslarga yoziladigan yarim rasmiy shaxsiy xat. U, odatda, verbal yoki shaxsiy nota yuborish mo'ljallanmagan paytda yoziladi.

XUSUSIYLASHTIRISH Jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishi.

XUTBA [a. - nutq; pand-nasihat; va'z, duo-ibodat] Juma va hayit namozi kunlari masjidida imom-xatib (masjid imomi) tomonidan qilinadigan va'zxonlik; diniy pand-nasihatlar.

XUTOR [ukr. - muyulish, burchak] Yakka hovlilardan iborat kichik qishloq; o'rta asrlardan boshlab yangi o'zlashtirilgan yerlarda paydo bo'lgan aholi yashaydigan kichik qishloq.

XUTOR XO'JALIGI Qishloq xo'jaligini boshqarishning maxsus shakli: bunday xo'jalik alohida-alohida bo'lgan yer uchastkalaridan tashkil etilgan bo'lib, unda yer egasining qo'rg'oni ham joylashgan bo'ladi.

XUSHOMADGO'YLIK Shaxsiy manfaatlari yo'lida o'zga kishilar, ayniqsa, mansabdor kishilar oldida o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini poymol qilishdan iborat o'ta tuban xarakter xislati.

XO'JALAR, xojalar [fors. - obro'-e'tiborli kishi; xo'jayin, janob] **1 tar.** Yaqin

va O'rta Sharq xalqlarida: feodal jamiyatdagi hukmron tabaqa vakillari. **2 tar., etn.** O'rta Osiyoda ilgari ma'lum imtiyozlarga ega bo'lgan, o'zlarini choryorlarning avlodlari deb hisoblovchi musulmonlarning faxriy unvoni.


XO'JALIK SUDI Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasida, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasida, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etuvchi mustaqil sud organlari.

XO'JALIK YURITISH SUBYEKTINING BANKROTLIGI Qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga, jumladan, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar qilishga qodir bo'lmay qolishi.

XO'JALIK SHARTNOMASI Tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi subyektlar o'rtasida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomasi.

XO'JALIK SHIRKATI Tadbirkorlikni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyekt. Uning muassislari mulkiy badallar qo'shishdan tashqari shirkat faoliyatida shaxsan ishtirok etishlari lozim.

XO'JALIK SHIRKATLARI VA JAMIYATLARI Ulushlarga (qo'shilgan hissalariga) yoki muassislar (ishtirokchilar) ning aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi.



YADRO QUROLI Yadro qurol-yarog'lari, ularni nishonga eltuvchi vositalar va boshqarish vositalari majmui.

YADRO QUROLINI TARQATMASLIK Tinchlikni mustahkamlash, xalqaro ke-skinlikni yumshatish maqsadida yadro qurolini cheklash, ishlab chiqarishni, yetkazishni qisqartirib borish jarayoni.

YADRO QUROLSIZLANISHI Omma-viy qirg'in quroli bo'lgan yadro quroli-ni uzluksiz to'planib borishi munosabati bilan insoniyat oldida vujudga kelgan eng murakkab muammolardan biri.

YADROSIZ HUDUD Yadro qurolini joylashtirish, yadro sinovlarini o'tka-zish shartnomaviy tartibda taqiqlangan hudud.

YAGONA IQTISODIY MAKON Iqti-sodiy ittifoqqa birlashgan bir necha davlatlar tomonidan tashkil etiladigan yaxlit iqtisodiy hudud.

YAGONA OILA Kishilarning ta-biiy-biologik, iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib, insonga yashashi uchun qulay sharoit yaratib beradi, uning turli ehti-yojlarini qondiradi.

YAKDIL [*fors.* – hamjihat(lik), bir fikrli (lik)] Fikri, maqsadi bir, bir xil; inoq, ahil, hamnafas.

YAKKA MEHNAT NIZOLARI. Ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonunlar va b. me'yoriy hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llash yuzasidan kelib chiqqan kelish-movchiliklar.

YAKKA TADBIRKOR Davlat ro'y-xatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqaro.

YAKKABOSHCHILIK Biron-bir organ, muassasa, korxonah rahbarlariga o'z funk-siyalarini to'la bajarish uchun keng vako-latlar berish, shuningdek, ish natijalari uchun unga shaxsiy javobgarlik yuklash.

YAKKALIK, XUSUSIYLIK VA UMUMIYLIK Falsafiy tushunchalar bo'lib, olamdagi hodisalar, voqealar, jarayonlar orasidagi o'zaro aloqalarni hamda bu aloqalarni bilish darajalarini ifodalash.

YAKSHANBALIK Biror yakshanba kuni jamoa bo'lib, ixtiyoriy ravishda bajariladigan ijtimoiy ish.

YALPI IJTIMOY MAHSULOT Muayyan davr davomida jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar qiymati.

YALPI MAHSULOT Korxonalar yoki moddiy ishlab chiqarish tarmog'ida muayyan davrda ishlab chiqarilgan, barqaror, ulgurji baholarda ifodalangan yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismi.

YALPI MAJLIS Vakillik hokimiyati organlari faoliyatining muhim shakli; bunda parlament, uning palatalari yoki boshqa vakillik organlarining to'la tarkibda o'tkazadigan yig'ilishi.

YALPI MILLIY MAHSULOT Ma'lum bir muddat ichida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati.

YAQIN QARINDOSHLAR Qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, aka-uka, opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-ona, aka-uka va opa-singillari.

YARMARKA [*nem.* Jahrmarkt – har yillik savdo < Jahr – yil + Markt – savdo] 1 Belgilangan joyda va bir vaqtda muntazam uyushtiriladigan tovarlar bozori. 2 Savdo va sanoat tashkilotlari, tijoratchilar, ishlab chiqaruvchilar, matlubotchilarning asosan ko'rgazmaga qo'yilgan tovarlarni ulgurji sotish va sotib olish maqsadida davriy ravishda o'tkaziladigan yig'ini, qurultoyi.

YASOVUL *tar.* Markaziy Osiyo xonliklari davrida: yuqori mansabdagi

amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon.

YASOVULBOSHI Yasovullar boshlig'i; Turkiston xonliklarida: saroy mansablaridan biri.

YASOVULXONA *tar.* Yasovullar, soqchilar va qurol-yarog' turadigan bino yoki maxsus xona.

YASSAVIYLIK O'rta Sharqdagi turkiy xalqlar o'rtasida tarqalgan so'fiylik harakati.

YASHASH JOYI Fuqaroning turar-joyi.

YASHIRIN IQTISODIYOT Kriminologiyada qonunga xilof, davlat tomonidan hisobga olinmagan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladigan iqtisodiy faoliyat turlari; shular oqibatida fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va, umuman, jamiyat o'rtasida kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

YASHIRIN REKLAMA Iste'molchining idrokiga, uning o'zi anglamagan holda, ta'sir o'tkazadigan, shu jumladan, maxsus videoilovalardan foydalanish yo'li bilan hamda boshqa usullar bilan ta'sir o'tkazadigan reklama.

YASHIRIN SHIRKAT Oddiy shirkat shartnomasida uning mavjudligini uchinchi shaxslarga ma'lum qilmaslik.

YASHIQ O'zbek urug'laridan biri bo'lib, qipchoq qabilasining bir bo'lagi hisoblanadi.

YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR XX asrning so'nggi o'n yilliklarida iqtisodiy taraqqiyotda keskin o'zgarish-

larga erishgan, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi.

YANGI TARIX Jahon tarixini davrlashtirishda, asosan, tarix fanida o'rta asr tarixi bilan eng yangi tarix oralig'idagi davrning umumiy nomi.

YEFREYTOR [*nem.* Gefreiter] Ba'zi mamlakatlarda oddiy askarga beriladigan boshlang'ich harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

YEPISKOP [*yun.* episkopos - nozir, nazoratchi] Xristian cherkovlarida oliy martabali ruhoniylk unvoni; cherkovga qarashli ma'muriy-hududiy birlik boshlig'i.

YER EGALIGI Mulka yerni tasarruf etish va meros qolgan yerdan umrbod foydalanishga va ijaraga oid huquqlarga muvofiq egalik qilish.

YER FONDI Mamlakatning jami yer resurslari maydoni.

YER HUQUQI Fuqarolik huquqi me'yorlaridan biri bo'lib, huquqning yer munosabatlarini tartibga soluvchi sohasi.

YER KADASTRI KITABI Yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi; yerga egalik qiluvchilarning yer hisobi hujjati.

YER KODEKSI O'zbekistonda yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar majmui.

YER MONITORINGI Yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish uchun yer fondining holatini kuzatib turish.

YER RENTASI Yer egasining o'z yerini tabiiy resurs tarzida ijaraga berganligi uchun oladigan daromadi.

YER RESURSLARI Xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin bo'lgan yerlar.

YER SOLIG'I Yerga mulkchilikning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, yerdan foydalanganlik uchun davlatga majburiy to'lanadigan soliq turi.

YERNI MUSODARA QILISH Davlat tomonidan yerni egalaridan biron-bir haq to'lamay majburiy ravishda tortib olish.

YETAKCHI Yo'l boshchi, rahbar; boshqaruvchi.

YETAKCHILIK Boshchilik, rahbarlik.

YETIM [*a.* - ota-onasiz; yakka-yu yagona] Otasi, onasi yoki ularning har ikkisidan ajralgan shaxs.

YETIMXONA Yetimlar va qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalaydigan va o'qitadigan muassasa.

YETISHMOVCHILIK Biror jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan narsalarning yetishmaslik holati; kamchilik, tanqislik.

YETTI MO'JIZA Qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan 7 ta me'morlik va haykaltaroshlik obidalarining katta mahorat bilan yaratilganligi uchun ular asrlar mobaynida "Dunyoning yetti mo'jizasi" deb hisoblangan. Ular quyidagilar: Misr ehromlari; Semiramida osma bog'lari; Rodos orolidagi Artemida ibodatxonasi; Zevsning Yunonistonning Olimpiya shahridagi ulkan haykali; Rodos oroli ko'rfazidagi yunonlarning quyosh ma'budi Gelios haykali; Kariya shohi Mavsolning miloddan avval IV

asrda Galikarnas shahrida o'zi uchun qurdirgan mahobatli maqbarasi; Iskandariya shahridagi ulkan mayoq.

YETTI QASHQA O'zbek-qipchoqlar tarkibidagi urug'lardan biri.

YETTI URUG' Zarafshon daryosining o'rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashagan, o'zbek-qipchoqlar tarkibidagi yirik urug'lar guruhi.

YETUKLIK Yetuk ekanlik, yetuk darajaga egalik.

YEVRO Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyati a'zolarining 1999-yil 1-yanvardan muomalaga chiqargan pul birligi.

YEVROOSIYO Yevropa va Osiyodan iborat bo'lgan, Yer sharidagi eng katta materik.

YEVROPA [yun. Europe - G'arb] Yevroosiy materigining g'arbiy qismi.

YEVROPA IQTISODIY HAMJAMIYATI Iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'tarish yo'li bilan yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga xizmat qiladigan mintaqaviy integratsiya tashkilotlaridan biri.

YEVROPA ITTIFOQI Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish maqsadida o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlatlar xususiyatini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma.

YEVROPA KENGASHI Yevropa davlatlarining har tomonlama hamkorlik qilishiga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot.

YEVROPA PARLAMENTI Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar fuqarolari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylovlar

orqali besh yil muddatga saylanadigan Yevropa ittifoqi muassasalaridan biri.

YEVROPA XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK TASHKILOTI (YEXHT) Davlatlar o'rtasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlarini muvofiqlashtiruvchi va ularning rivojlanish tamoyillarini belgilab beruvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot.

YIL O'n ikki oylik vaqt bilan hisoblanadigan kalendar tizimi.

YIL HISOBI Katta vaqt oraliqlarini hisoblash tizimi.

YILBAY Yiliga baylashilgan, yillik qilib shartlashilgan, bir yil davomida yoki bir yilda bir marta haq to'lanadigan

YILNOMA Voqea-hodisalar izchil tarzda, yilma-yil qayd etib borilgan tarixiy yozma hujjat; solnoma.

YILNOMACHI Solnoma tuzuvchi, tarixni yozib boruvchi; solnomachi.

YIRIK KAPITAL O'z egasiga katta daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar.

YIRIK KAPITALIST Katta kapital egasi.

YIG'IM 1 Biror maqsad uchun xalqdan olinadigan haq yoki pul; soliq.
2 Bank va uning tarmoqlarida mijozlarga ko'rsatiladigan pul muomalasi xizmati uchun olinadigan haq.

YIG'IN Kishilarning fikr olishuv yoki biror masalani hal qilish uchun to'planishi; yig'ilish.

YODGORLIK Biror shaxs yoki vo-

qea xotirasi uchun tiklangan haykal, byust; me'moriy obidalar, shuningdek, tarixiy-badiiy qimmatga ega bo'lgan yozma asarlar.

YODNOMA Marhumni eslashga bag'ishlangan maqola; yozma yodgorlik.

YOLLANISH *harb.* To'qnashuvchi mamlakat fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi bo'lmagan, to'qnashuvchi taraf tomonidan nazorat qilinayotgan hududda doimiy yashamaydigan yoki qurolli kuchlar tarkibida rasmiy majburiyatlarni bajarish uchun hech bir davlat tomonidan jalb qilinmagan shaxsning chet davlat hududida yoki tarafida qurolli to'qnashuvda yoki harbiy harakatlarda qatnashishi.

YOLLANMA Ma'lum shartlar asosida ishlaydigan, yollangan.

YOLLANMA MEHNAT Yollanma xodimlar mehnati. Yollanma mehnat bozor iqtisodiyotida amal qiladigan, mehnat bozorida oldi-sotdi qilinadigan asosiy tovar hisoblanadi.

YOLLANMA QO'SHINLAR Davlatlar, shaharlar, ayrim badavlat mulkdorlar tomonidan yollangan, professional jangchilardan tuzilgan qo'shinlar.

YOLLANUVCHI Qurolli to'qnashuvda jang qilish uchun chet ellarda maxsus yollangan qurolli kuchlar shaxsiy tarkibiga kiruvchi, shaxsiy naf olish istagida bo'lgan, urush bo'layotgan joyda doimiy yashamaydigan jangari.

YOLG'ON DETEKTORI Insonning biologik, ruhiy va jismoniy holatini belgilovchi, shunga ko'ra uning rost yoki

yolg'on so'zlayotganini aniqlashga yordam beruvchi texnikaviy asbob.

YOLG'ON GUVOHLIK BERISH Surishtiruv, dastlabki tergov yoki ishni sudda ko'rish vaqtida guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib, yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib, noto'g'ri xulosa berishi, shuningdek, tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi.

YOMONOTLIQ BO'LMOQ Yomon deb nom chiqarmoq, sharmanda bo'lmoq.

YON BERMOQ Yengilmoq, past kelmoq; rozi bo'lmoq.

YOPIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI Aksiyalari faqat o'zining ta'sischilari yoki oldindan belgilab qo'yilgan boshqa shaxslar o'rtasida taqsimlanadigan jamiyat.

YOPIQ JAMIYAT Totalitar, korporativ va b. nodemokratik qadriyatlar yordamida tartibga solinadigan hayotga asoslangan jamiyat turi.

YOPIQ MAJLIS Ma'lum shaxslarning ishtiroki bilangina o'tkaziladigan majlis.

YOPIQ OVOZ BERMOQ Saylovlarda byulleten tashlash yo'li bilan hech kimga ko'rsatmay (yashirin) o'z xohish-irodasini bildirmoq.

YOQUTLAR Rossiyaning Saxa Respublikasida yashovchi turkiy xalqning nomi; shu millatga tegishli xalq; saxa xalqi.

YORDAMCHI XO'JALIKLAR Korxon va tashkilotlarning asosiy faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin ularning ichki ishlab chiqarish imkoniyat-

larini kengaytirish maqsadida tashkil etiladigan qo'shimcha tarkibiy xo'jalik yuritish bo'linmasi.

YORLIQ 1 Turk-mo'g'ul xonlari e'lon qilgan yozma hujjatlar: diplomatik notalar va davlatlararo bitimlar matni xon yorliqlari jumlasiga kirgan. **2** Amirlar va ruhoniylarga biror imtiyoz berilishi haqida podsho, xon muhri bosilgan rasmiy hujjat. **3** Tovarining ustiga qo'yilgan va uning xili, o'lchami, miqdori, bahosi va sh. k.larni ko'rsatadigan belgi. **4** Rasmiy hujjat, mas, ishonch yorlig'i.

YORUG'LIKKA CHIQQOQ Baxtli, ozod hayotga erishmoq; mustaqillikka chiqmoq.

YOTOQXONA Korxon, muassasa yoki o'quv yurtining o'z xodimlari, o'quvchi va talabalari uchun qurgan va ular yashaydigan bino.

YOZISHMA O'zaro yozilgan xatlar, yozma aloqa.

YOZISHMABOZLIK Turli xil xatlar yozish bilan band bo'lishlik.

YOZMA BITIMLAR Oddiy yoki notarial tasdiqlangan shaklda tuzilgan, og'zaki bitimlar bilan bir qatorda turuvchi bitimlarning yozma shakli.

YOZMA DALILLAR Jinoyat-fuqarolik ishlari va xo'jalik nizolari bo'yicha dalil sifatida ishlatiluvchi yozma manbalar, shaxsiy xususiyatdagi yozishmalar, u yoki bu holatlarga taalluqli ma'lumotlar qayd etilgan hujjatlar.

YOZUV Muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi.

YOZUVCHI 1 Badiiy asar yozish bilan shug'ullanadigan shaxs; adib. **2** Ig'vogar, oraga nifoq soluvchi.

YOVMUT Turkiy va turkman qabilalaridan biri.

YOSH SENZI Turli davlatlarda davlat organlariga saylanish va saylash huquqi uchun belgilangan yosh chegarasi.

YUBILEY [lot. jubilaeus < qad. yahudiycha. jobel - qo'y shoxi] Tarixiy voqealar, buyuk shaxslar hayoti va faoliyatining, biror tashkilot, muassasa va b.larning ma'lum bir yilligini keng jamoatchilik tomonidan tantanali ravishda nishonlash marosimi.

YUBILYAR Yubileyi nishonlanayotgan shaxs, tashkilot, muassasa va sh. k.lar.

YUKSALISH Taraqqiy etish, o'sish, yuksak darajaga erishish.

YUNESKO [ingl. UNESCO - United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization] Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi, ixtisoslashgan hukumatlararo tashkiloti.

YUNIDO Birlashgan Millatlar Tashkilotining rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatiga yordam beruvchi ixtisoslashgan muassasasi.

YUNISTRAL Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo bo'yicha komissiyasi.

YUNKER [nem. Junker - yirik yer egasi] **1** Feodal Prussiyada: yirik

yer egasi, dvoryan; umuman, nemis pomeshchigi. **2** Chor Rossiyasida ofitserlar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtining o'quvchisi. **3** XIX asrning 60-yillarigacha Rossiyada ma'lum muddat harbiy xizmat qilib, imtihon topshirgandan keyin ofitser unvonini olish huquqiga ega bo'lgan dvoryan farzandi.

YUNKTAD Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va taraqqiyot konferensiyasi: xalqaro savdoni rivojlantirish, o'zaro foydali hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlari bilan shug'ullanadi.

YURIDIK [lot. iudicus – sud va sudlovga oid]. Huquqqa, huquqshunoslikka oid; huquqiy.

YURIDIK AMALIYOT Vakolatli huquq subyektlarining ijtimoiy-huquqiy tajribaga tayangan holda, huquqni qabul qilish, uni sharhlash va qo'llashga qaratilgan amaliy faoliyati.

YURIDIK BURCH Muayyan huquqiy munosabat ishtirokchisining huquqiy burchi.

YURIDIK FAN Huquqni ijtimoiy me'yorlar va huquqni qo'llash faoliyatining turli jihatlarini sifatida maxsus tizim asosida o'rganadigan ijtimoiy fan.

YURIDIK HUQUQ Ma'lum bir huquqiy munosabatlar ishtirokchisi huquqining qonun, shartnoma tuzish yo'li bilan belgilanishi.

YURIDIK JAVOBGARLIK Huquqbuzarga nisbatan davlat qo'llaydigan choralar.

YURIDIK KAFOLATLAR Fuqarolar va tashkilotlarning subyektiv huquqla-

rini muhofaza qilishning qonunda mustahkamlangan vositalari, ularni amalga oshirish usullari hamda qonuniylikni ta'minlash va huquqiy tartibot, shaxsni, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish vositalari.

YURIDIK KOLLIZIYA [lot. collisio – to'qnashuv] Bir turdagi masalalarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan ikki yoki undan ortiq amaldagi huquq me'yorlarining to'qnashuvi.

YURIDIK KUCH Davlat va huquq nazariyasida: me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazkur hujjatlar iyerarxiyasida tutgan o'rni, shuningdek, ularning amal qilishi, majburiyligi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga nisbati bilan bog'liq tushuncha.

YURIDIK MAJBURIYAT Ma'lum bir (muayyan) huquqiy munosabatlar ishtirokchisining, majburiyatni bajaruvchining qonunda, shartnomada belgilangan doiradagi xatti-harakati.

YURIDIK MASLAHAT Yuridik va jismoniy shaxslarga advokat hamda advokatura tuzilmalari va yuridik maslahatxonalar, yuridik klinikalar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam turi.

YURIDIK PSIXOLOGIYA Qonuniylikni va kishilarning qonun doirasida boshqariladigan psixik faoliyatlarini o'rganuvchi fan sohasi.

YURIDIK TA'MINOT Yuridik fanlarning kelib chiqishi, rivojlanishi hamda yuridik hodisalar, tushunchalar haqidagi qarashlar, nazariyalar, konsepsiyalar, maktablar, yo'nalishlar majmui.

YURIDIK YORDAM Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga, tashkilotlarning faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga yordam berish.

YURIDIK SHAXS Fuqarolik huquqi va majburiyatlarining subyekti hisoblanuvchi korxon, muassasa, tashkilot.

YURISDIKSIYA [*lot. jurisdictio* - sud qilish, sud jarayoni] **1** Sud yoki boshqa davlat organlari vakolatlarining chegarasi. U qonun yoki boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasidagi vakolatlar majmui bo'lib, shu asosda huquqiy munosabatlar va nizolar, huquqbuzarlik bilan bog'liq ishlar hal etiladi, huquqbuzarlarga nisbatan yuridik sanksiyalar qo'llanadi. **2** Muayyan davlat organi vakolatlari doirasidagi huquq sohasi.

YURISKONSULT [*lot. juris consultus* - huquqshunos; huquq maslahatchisi] **1** Yuridik texnika: barcha yuridik hujjatlarning mazmuni va tuzilishini ishlab chiqishda hamda uni amalga oshirishda qo'llanadigan muayyan usullar yig'indisi. **2** Biror muassasaning huquqiy masalalar bo'yicha doimiy maslahatchisi; shu muassasa manfaatlarini sud va b. tashkilotlarda himoya qiluvchi shaxs.

YURISPRUDENSIYA [*lot. jurisprudentia* - huquqshunoslik] Huquq to'g'risidagi fanlar va huquq me'yorlarining amaliy qo'llanishi bilan aloqador bilimlar majmui.

YURIST [*nem. Jurist < lot. jurista* - huquqshunos] Yuridik fan va yuridik amaliyotning muayyan sohasi bo'yicha

yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxs.

YURTBOSHI O'zbekiston Respublikasida: davlatning ichki va tashqi ishlariga oliy rahbarlikni amalga oshiruvchi shaxs; mustaqil O'zbekistonda: Prezidentga nisbatan hurmat ma'nosida qo'llanadigan epitet.

JUSTINIAN KODEKSI IV asrdagi Vizantiya huquqining sistemalashtirilgan bayoni.

JUSTITSIYA [*lot. justitia* - adolat, odillik; qonuniylik] **1** O'z faoliyatida odil sudlovni amalga oshiruvchi sud muassasalari, shuningdek, sud idoralari tizimi. **2** Adliya idoralari, sud idoralari.

YUTUQ **1** Ish faoliyatida erishilgan muvaffaqiyat; g'alaba. **2** Lotereyalar, o'yinlar, tanlov va sh. k. boshqa tadbirlardan olingan, natura hoida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va b. daromadlar.

YUVENAL [*ingl. juvenilis justice* - adliya] Xalqaro termin bo'lib, voyaga yetmaganlar uchun odil sudlov yoki voyaga yetmaganlar sudi ma'nolarini bildiradi.

YUZ, juz Yirik o'zbek qabilalaridan biri, XX asrning boshlarida yuzlar O'zbekiston va Tojikiston hududlarida yashagan.

YUZBOSHI *tar.* **1** XVIII - XIX asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida yuzta otliq askarga qo'mondonlik qilgan harbiy boshliq. **2** Qishloq yoki mahalla oqsoqoli.

YUZLASHTIRISH Tergov va sud harakatlarini yuritishda dalillar to'plash yo'llaridan biri.

YO'L JAMG'ARMASI Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, qayta qurish, tuzatish va saqlash ishlarini mablag' bilan ta'minlaydigan mustaqil moliya-kredit davlat muassasasi.

YO'L XARITASI Biror ish yoki maqsadni amalga oshirish uchun vizual ravishda ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar dasturi, rejasi.

YO'LBOSHCHI Biror sinf, partiya yoki ijtimoiy harakatning g'oyaviy va siyosiy rahbari.

YO'LBOSHCHILIK Yo'lboshchi bo'lish, boshqaruvchilik.

YO'LKIRA Yo'l transportidan foydalanlik uchun to'lanadigan haq.

YO'LLAMOQ Yo'l ko'rsatmoq, yo'l boshlamoq, yo'naltirmoq.

YO'LLANMA 1 Biror joyga yuboriluvchi kishiga beriladigan rasmiy guvohnoma, hujjat. **2** Transport haydovchilarning marshruti va qilayotgan ishi yozib qo'yiladigan alohida varaqa. **3** Yo'l-yo'riq, ko'rsatma.

YO'LTO'SAR Yo'lovchilarni to'sib, ularni talaydigan shaxs; qaroqchi.

YO'L-YO'RIQ Biror ish, tadbirni amalga oshirish tartib-qoidalari majmui.

YO'NALISH Ilm-fan va b. sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog'i.


YO'QLAMA Kishilarning bor yoki yo'qligini bilish uchun ularning ism va familiyasini ro'yxat bo'yicha aytib chiqish.

YO'QLOV Ma'lum munosabat bilan qutlash yoki hol-ahvol so'rash uchun qarindosh-urug', do'st-tanishlarning bir-birlarinikiga borishidan iborat marosim.

YO'QSIL Muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bo'lmagan shaxs.

YO'QCHILIK Iqtisodiy tanqislik, yetishmovchilik; muhtojlik.

YO'RIQNOMA Qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat.



ZABT QILMOQ [*a.* - hibs, musodara; tergov] **1** Bosib olmoq, ishg'ol qilmoq, egallamoq. **2** O'z hukmiga bo'ysundirmoq, jilovlamoq.

ZABUR [*fors.* - xat, kitob: Injilning to'rt kitobidan biri] *din*. Xudo tomonidan Dovud payg'ambarga yuborilgan muqaddas kitob.

ZAFAR QUCHMOQ G'alabaga erishmoq, yutmoq.

ZAFARLI Zafar qozongan, g'alaba va muvaffaqiyatlarga eltuvchi.

ZAFARNOMA G'alabalar haqida qissa.

ZAHARLAMOQ Kishi ongiga, fe'l-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib buzmoq, yo'ldan chiqarmoq.

ZAHMATKASH [*a.* + *fors.* - mehnat-kash] Mehnatkash, mehnat qiluvchi, jafokash.

ZAKOT [*a.* - poklik, poklanish; sadaqa] **1** Ro'za vaqtida puldor, baddavlat musulmonlar tomonidan o'ziga qarashli mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida beva-bechoralarga, kambag'al-qashshoqlarga beriladigan xayr-sadaqa. **2 tar.** Markaziy Osiyo xonliklarida: chorva

va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq.

ZAKOTCHI Zakot yig'uvchi.

ZAMINDOR [*fors.* - yer egasi] *esk.* Markaziy Osiyo xonliklari davrida katta yer-suv egasi.

ZAMON [*fors.* - davr, vaqt] Hodisalarning va materiya holatlarining izchil almashinish shakli; davomiylik, takrorlanmaslik, qaytarilmaslik kabi umumiy xossalarga ega bo'lgan vaqt.

ZAMONASOZ Zamonga moslashuvchi, zamon oqimiga qarab ish tutuvchi kishi; o'y-fikri beqaror odam.

ZAMONAVIY Hozirgi zamonga xos; zamona talablariga javob beradigan; hozirgi.

ZAMONAVIYLIK Zamonga xoslik, zamon bilan birgalik.

ZAMONDOSH Biror kimsa bilan bir zamonada, bir davrda yashagan kishi.

ZAMZAM [*a.* - buloq nomi] Makka shahrida Ka'ba yaqinidagi muqaddas buloq.

ZARARKUNANDA [*fors.* - zarar qiluvchi, keltiruvchi] Jamiyatga zarar keltiruvchi; jinoyatchi.

ZARARNI QOPLASH G'ayriqonuniy harakat tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga zararni qoplash majburiyatini yuklash.

ZARBA BERMOQ Shiddatli hujum bilan yakson qilmoq.

ZARBXONA [a.+fors.] Tanga, orden, medal va sh.k.larni zarb qiladigan davlat korxonasi.

ZARDUSHT 1 Yakkaxudolikni targ'ib qilgan ilk mutafakkirlardan biri. 2 Zardusht asos solgan otashparastlar diniga ergashuvchi, sig'inuvchi odam.

ZARDUSHTIYLIK Zardusht asos solgan, miloddan avvalgi VII - VI asrlarda quyi Amudaryo hududlarida paydo bo'lgan otashparastlik dini; majusiylik.

ZARURIY MUDOFAA Mudofaa-lanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini ularga nisbatan g'ayrihuquqiy tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish.

ZAXIRADAGI HARBIYLAR *harb.* Zarur paytda safarbar qilish uchun maxsus ro'yxatga olib qo'yilgan harbiylar toifasi.

ZAYOM [rus. - qarz] Davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun chiqariladigan qimmatbaho qog'oz

ZIDDIYAT [a. - dushmanlik; qarshi chiqish] Bir-biriga xiloflik, fikriy qarama-qarshilik; murosaga keltirib bo'lmaydigan qarama-qarshilik, dushmanlik.

ZIDDIYAT QONUNI Ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtda va ayni

bir nisbatda to'g'ri bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatuvchi qonun.

ZIMDAN Yashirincha, bildirmasdan; maxfiy suratda.

ZIMMASIGA OLMOQ Biror ish yoki vazifani bajarish mas'uliyatini bo'yniga olmoq.

ZINDON [fors. - bandixona] *tar.* Amir va xonlar zamonida yer ostiga qurilgan zax va qorong'i qamoqxona.

ZINDONBAND Zindonga solingan, qamalgan.

ZIYOKOR [a.+fors. - ziyo, bilim tarqatuvchi] Ilm tarqatuvchi, ma'rifatparvar, bilim targ'ib qiluvchi.

ZIYOLI Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi; ilmi, o'qimishli shaxs.

ZIYORAT [a. - tashrif; safar qilish] Muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish.

ZIYORATGOH [a.+fors.] Tabarruk qadamjo, ziyorat qilinadigan muqaddas joy.

ZOBIT [a. - zabt qiluvchi; ofitser] Qurolli kuchlar tizimida komandir martabasidagi harbiy xizmatchi; ofitser.

ZODAGON [fors. - yaxshi oila farzandlari] *tar.* Ilgari zamonlarda oq-suyaklarga, imtiyozli tabaqaga mansub shaxs; asilzoda.

ZOHID [a. - taqvodor; sabr-qanoatli] *din.* Tarkidunyo qilgan dindor kishi.

ZOLIM [a. - zulm qiluvchi] Jabr, zulm qiluvchi; rahm-shafqatni bilmaydigan, berahm; jabr-zulm bilan to'lib-toshgan, qahrli.

ZOTI OLIY Oliy zot, ulug' inson.

ZULHIJJA [*a.* – qamariy oy nomi] Qamariya yil hisobida yigirma to'qqiz kundan iborat o'n ikkinchi oyning arabcha nomi.

ZULLISONAYN [*a.* – ikki til sohibi] Ikki tilni biluvchi; ikki tilda yoza oladigan shoir yoki yozuvchi.

ZULM [*a.* – jabr-sitam, adolatsizlik] Hukmdor va hokimlarning fuqaroga, zolimlarning mazlumlarga ko'rsatgan jabri; shafqatsizlik.

ZULM KO'RMOQ Nohaq jabrlanmoq, qiynalmoq.


ZULMKOR Azob beruvchi, jafokor, jabr-zulm qiluvchi.

ZULQA'DA [*a.* – qamariy oy nomi] Qamariya yil hisobida o'ttiz kundan iborat o'n birinchi oyning arabcha nomi.

ZURRIYOT [*a.* – bolalar; nasl] Nasl-nasab; bir ajdoddan tarqalgan avlod; farzand.

ZO'RAVONLIK Zo'ravonlarga xos xatti-harakat; zo'rlik, kuch ishlatish.

ZO'RLIK Biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo'rlik qilishi, zo'ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan xo'rlash, jabr-zulm qilish.



O'GAY Bir onadan tug'ilmagan yoki bir otadan bo'lmagan, otasi yoki onasi boshqa, tug'ishmagan farzandlarni ifodalaydigan atama.

O'JARLIK Birovning izmidan yurmaslik, o'z bilganidan qolmaslik; qaysarlik.

O'LIK TILLAR Hozirda jonli iste'moldan chiqqan, tarixiy yozma yodgorliklarda saqlangan tillar.

O'LIM Ortga qaytmas jarayon bo'lib, organizm hayot faoliyatining butunlay to'xtashi.

O'LIM JAZOSI Jazoning favqulodda turi sifatida faqat alohida og'ir, inson hayotiga qasd qilingan jinoyat uchun belgilangan chora; oliy jinoiy jazo chorasi. O'zbekistonda o'lim jazosi bekor qilingan.

O'LIMLIK Kimsaning o'z dafn marosimlari uchun oldindan ajratib, saqlab qo'ygan buyumlari yoki puli.

O'LJA Urushda zafar quchgan g'oliblar tomonidan qo'lga kiritilgan qurol-yarog', jangovar texnika va harbiy asbob-anjomlar.

O'LPON *tar.* Yerdan foydalanganlik uchun olinadigan soliq; yer solig'i.

O'NBOSHI *tar.* O'n kishidan iborat eng kichik harbiy bo'linma boshlig'i; harbiy unvon.

O'QUV YILI O'quv yurtlarida: har yili mashg'ulotlar boshlanishidan yozgi ta'tilgacha bo'lgan davr. O'zbekistonda o'quv yili 1-sentyabrdan 20-iyungacha davom etadi.

O'QUV REJASI O'quv yurtlarida: o'qitiladigan fanlar, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat.

O'RDA *tar.* **1** Turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'a. **2** Qo'shin qarorgohi, lashgargoh.

O'RINBOSAR Boshliq yoki rahbarlik vazifasini bajarish huquqiga ega bo'lgan rasmiy yordamchi; muovin.

O'RINDOSHLIK Xodimning asosiy lavozimi bilan bir paytda ishdan bo'sh paytda ish haqi to'lanadigan boshqa lavozimni ham mehnat shartnomasi asosida egallab turishi.

O'RTA TA'LIM Majburiy umumiy ta'limning bosqichlaridan biri bo'lib,

shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlovchi bilim, ta'lim.

O'RTACHA ISH HAQI Ishchi yoki xizmatchining muayyan davrdagi o'rtacha ish haqi miqdori.

O'SISH *iq.* Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yillarga nisbatan ko'payishi.

O'SISH SUR'ATLARI Ish-harakat va voqea-hodisaning o'sish jarayoni va sh. k.larning jadallik darajasi.

O'TPARAST *q.* otashparast.

O'TPARASTLIK *q.* otashparastlik.

O'TROQLIK Ma'lum bir hududda uzoq vaqt turg'un hayot kechirish, turg'un yashash tarzi.

O'ZARO ALOQADORLIK Olam mavjudligining eng umumiy qonuniyati. Unga ko'ra, barcha narsalar va hodisalar universal, o'zaro bir-biriga ta'sir natijasida yuz beradi.

O'ZARO TA'SIR Obyektlarning bir-biriga ta'sir etishini, ularning o'zaro bog'liqligini va bir obyektning boshqa obyektни vujudga keltirish jarayonini anglatuvchi falsafiy tushuncha.

O'ZBEK O'zbekiston Respublikasi tub aholisining nomi; turkiy tillardan birida so'zlashuvchi xalq.

O'ZBEK LOTIN YOZUVI Lotin grafikasiga asoslangan harf-tovush yozuv turi. O'zbek xalqi va yozuvi tarixida 2 marta joriy etilgan: birinchi marta bu yozuv 1930-1940-yillarda amal qilgan, ikkinchi marta bu yozuvni joriy qilish haqida 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining alohida farmoni e'lon qilingan.

O'ZBEK TILI Turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan biri; O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi "Davlat tili haqida"gi qonuniga muvofiq o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan.

O'ZBEK ULUSI *tar.* Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Abulxayrxon (1412-1468) asos solgan davlat va uning aholisi.

O'ZBOSHIMCHALIK Boshqalar bilan hisoblashmaslik; o'z xohishi bilan ish tutishlik.

O'ZGARMAS BAHOLAR Milliy daromad va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, o'sish sur'atlarini rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilishda qo'llanadigan doimiy baholar.

O'ZIBO'LARCHILIK Mas'uliyatsizlik; ishni o'z holiga tashlab qo'yish; beparvolik.


O'ZINI O'ZI BAND QILISH Mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan va o'z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydigan, mehnat stajining hisobga olinishi kabi va b. rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan vaqtinchalik mehnat guvohnomalari ni belgilangan tartibda rasmiylashtirgan jismoniy shaxslar faoliyati.

O'G'RILIK O'zgalar mulkini o'z shaxsiy manfaati uchun ishlatish maqsadida g'ayriqonuniy, yashirin ravishda olish, olib ketish.

O'G'UZ *etn.* O'zbek xalqining genetik tarkibiga kirgan qabilalardan

birining nomi; shu qabila aholisiga mansub kishi.

O'CH OLMOQ Yomonlik (ziyon yetkazish, tahqirlash va sh. k.) uchun javob tarzida qilinadigan harakat.



G'ARBIY YEVROPA ITTIFOQI

Yevropa davlatlarining 1954-yildagi Parij bitimiga muvofiq tuzilgan harbiy-agressiv bloki. Unga 7 ta davlat: Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, GFR, Italiya, Lyuksemburg va Fransiya a'zo bo'lgan. Ittifoq aslida NATOning Yevropadagi filiali hisoblanib, 1998-yilgacha bo'lgan muddatga tuzilgan edi.

G'ARBLASHTIRISH G'arb davlatlarining ijtimoiy konsepsiyalaridan biri. Uning maqsadi mustaqillikka erishgan davlatlar xalqlarini G'arb davlatlari iqtisodiy va siyosiy tizimlarining "afzalliklariga" ishontirish, ularni g'arbcha taraqqiyot yo'lini tanlab olishga undash bo'lgan.

G'AVS [*a.* - yordam berish] Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, bandalarga yordam berish uchun avliyolar orasidan tanlab olingan, shunday vazifa yuklatilgan valiy.

G'AYRIAXLOQIYLIK [*a.* - axloqqa zidlik] Kishilarning rasman tan olingan yoki amalda mavjud bo'lgan axloq me'yorlari, talablari, an'analari, xulq-atvor namunalariga mos kelmay-

digan xatti-harakati, xulqi; axloqsizlik; ma'naviy buzilish.

G'AYRIKONSTITUTSIYAVIY HARAKATLAR Davlatdagi muhim ijtimoiy aloqalar tizimiga qarshi bo'lgan, uning konstitutsiyaviy tizimiga qarshi qaratilgan harakatlar.

G'AZOVOT, g'azot [*a.* - hujum qilish, urush olib borish; din uchun kurash] Islomda: musulmonlarning Islom dini uchun g'ayridinlarga qarshi muqaddas urushi; jehod. Bunda har bir musulmon kishi, g'ayridinlar bo'ysunmagan taqdirda, ularni qilichdan o'tkazib, musulmon dinini tarqatishi lozim bo'lgan. Hozirda u radikalizm va terrorizm sifatida namoyon bo'lmoqda va baholanmoqda.

G'OYA [*a.* - maqsad, intilish; niyat, qasd] **1** Obyektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining obyektiv borliqqa, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi, odamlarni maqsad sari yetaklovchi fikr, tushuncha, tasavvur. **2** Badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr.

G'OYALAR VA MAFKURALAR

TIZIMI Muayyan mafkura va g'oyalarning bir zamon, makondagi aloqasi va bog'liqligi asosida shakllanadigan hamda davr, jamiyat, millat yoki davlatning (boshqa ijtimoiy subyektlarning ham) ijtimoiy-siyosiy, moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy tuzilishiga tayanadigan g'oyalar va mafkuralar majmuasi.

G'OYAVIY BO'SHLIQ Muayyan sharoitda jamiyat, undagi toifa va qatlamlarning ongida sodir bo'ladigan g'oyasizlik, mafkuraviy bo'shliq holati: jamiyatda mafkuraviy tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab qo'yilganligi oqibatida yuzaga keladi.

G'OYAVIY-ESTETIK VAZIFA Jamiyatdagi kamchilik va nuqsonlarni fosh etish, ijobiy hodisalarni tasdiqlash, yangi davr kishisini tarbiyalash.

G'OYAVIY MUTAASSIBLIK To'g'ri deb hisoblangan muayyan fikr, g'oya, aqida va yo'ldan boshqa hamma narsani noto'g'ri, yolg'on deb bilishga, ularni ko'r-ko'rona inkor etishga asoslangan qarashlar.

G'OYAVIY PAROKANDALIK Jamiyat, xalq, ijtimoiy qatlamlarning o'z maqsadlarini aniq-ravshan belgilab olmagan, orzu-intilishlari va manfaatlarini ifodalovchi mafkura yaratilmagan sabab ijtimoiy ong va ma'naviy hayotda yuzaga keladigan g'oyaviy boshboshdoqlik, beqarorlik.

G'OYAVIY QARAMLIK Millat, jamiyatning o'z manfaatlarini va maqsadlariga mos kelmaydigan, unga zid bo'lgan

g'oyaviy oqimlarga bog'liqligini, yot va begona g'oyalarga bo'ysunishini namoyon etuvchi holat: g'oyasizlik, g'oyaviy bo'shliq yoki parokandalik oqibatida kelib chiqadi.

G'OYAVIY QO'PORUVCHILIK

Mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lgan sharoitda, turli buzg'unchi kuchlar, shu jumladan, hokimiyatga intiluvchi soxta demokratlar va din niqobidagi o'rta-asrchilik tarafdorlarining mafkuraviy yakkahokimlikdan qutulgan fuqarolar, xususan, mustaqil fikrga va mustahkam e'tiqodga ega bo'lmagan yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan noqonuniy harakatlari.

G'OYAVIY SAVODSIZLIK Mafkuraviy jihatdan yetarli bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lmagan insonlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, uning asosini mustaqil fikrga, sobit e'tiqodga, mustahkam iroda va dunyoqarashga ega bo'lmaslik tashkil etadi.

G'OYAVIY TAJOVUZ Muayyan bir jamiyat, millat, ijtimoiy qatlam yoki guruh ongi va ruhiyatiga tashqaridan o'tkaziladigan mafkuraviy xuruj; begona va yot maqsad-manfaatlariga xizmat qiladigan g'oyaviy bosqinchilik.

G'OYAVIY TA'SIR OBYEKTI Ishonch va e'tiqod: inson ishonchsiz, e'tiqodsiz, g'oyasiz va fikrlashsiz yashay olmaydi. Shaxs e'tiqodining shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq. Ishonch va e'tiqod odamning muayyan qarash, ta'limot, nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emotsional-hissiy qabul

qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuini ifodalaydigan tushunchalar sanaladi.

G'OYAVIY TURG'UNLIK Muayyan mafkura tizimidagi takomillashish va yangilanish jarayonining to'xtab, mafkuraviy aqidalarning real hayot, amaliyotdan uzilib qolishi.

G'OYAVIY ZAIFLIK Jamiyat, davlat yoki xalqning mafkuraviy masalalarda uyushmagani, ma'naviyatga yetarli darajada e'tibor bermagani, tarbiya sohasida o'zibo'larchilikka yo'l qo'ygani natijasida sodir bo'ladigan g'oyaviy

ojizlik holati bo'lib, u ma'naviy beqarorlik va g'oyaviy parokandalikka olib keladi.

G'OYAVIY ZIDDIYAT Turli manfaat, maqsad va intilishlarni ifodalovchi g'oyalar va ularga tayanadigan kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli holat hamda qarama-qarshi munosabatlar.

G'OZIY [a. - zabt qiluvchi, g'azot qiluvchi] Islom dini uchun g'ayridinlarga qarshi muqaddas urush (g'azovot)ga rahbarlik qilgan yoki alohida mahorat bilan urushgan jangchiga beriladigan faxriy unvon.



SHABLON [*nem.* Schablone – andoza, namuna] Chaynalgan, siyqasi chiqqan narsaga koʻr-koʻrona ergashish, shunday yoʻl; quruq safsata.

SHABLONCHILIK Ish yoki harakatda koʻr-koʻrona taqlid qilish, siyqasi chiqqan usulni qoʻllash.

SHAFE [*a.* – tarafini oluvchi, homiy; vositachi] Birovga yon bosuvchi, homiylik qiluvchi; homiy.

SHAFQAT [*a.* – rahmdillik, achinish, hamdardlik; iltifot] Ayash, rahm histuygʻusi; shunday his-tuygʻuli munosabat.

SHAFQATSIZLIK Shafqatsiz munosabatda boʻlish, shafqatsiz xatti-harakat.

SHAHID [*a.* – urushda oʻlgan, oʻldirilgan; aziyat chekuvchi] **1** Din yoki mazhab yoʻlida va b. ayrim holatlarda halok boʻlgan shaxs. **2** Vatan urushi uchun yoki haqqoniyat yoʻlida qurbon boʻlgan, jonini qurbon qilgan odam.

SHAHODATNOMA [*a.+fors.*] **1** Biror oʻquv yurtini tamomlaganlik haqidagi rasmiy hujjat; guvohnoma. **2** Biror fakti, boʻlib oʻtgan voqea yoki holatni tasdiqlaydigan rasmiy hujjat.

SHAHRISTON [*fors.* – mustahkamlangan shahar markazi] *tar.* Sharqda oʻrta asrlarda shaharlarning mudofaa devorlari bilan qurshalgan asosiy qismi, markazi.

SHAHZODA [*fors.* – shohning oʻgʻli, farzandi] Shohning oʻgʻli, shoh nasli.

SHAJARA [*a.* – daraxt] Maʼlum bir urugʻ avlodlarining kelib chiqishi va oʻzaro qarindoshlik darajasini izchillik bilan koʻrsatuvchi roʻyxat, tarix; silsila.

SHAK I [*a.* – shubha, ishonmaslik] Shubha, gumon. **Shak keltirmoq** Shubha bilan qaramoq, ishonmaslik.

SHAK II Ramazon oyi kirishidan oldingi kun; roʻza arafasi.

SHAKKOK [*a.* – shubha bilan qaraydigan, ishonmaydigan] Diniy aqidalarga shubha bilan qaraydigan, shak keltiradigan kishi.

SHAKKOKLIK Shakkok ishi, xatti-harakati; shak keltirish.

SHAKSIZ Muqarrar ravishda; aniq, shubhasiz.

SHAMSIYA [*a.* – quyoshga, quyosh yiliga oid] Quyoshning yillik harakat sikliga qarab belgilanadigan, 365 yoki 366 kundan iborat, 22-martdan boshlanadigan yil; quyosh yili (Shamsiya yili quyidagi oylardan iborat: hut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jadiy, dalv).

SHANBA [*fors.* – haftaning birinchi kuni; Islom dinida juma muborak kun, dam olish kuni deb qabul qilingach,

shanba yangi haftaning boshlanish kuni bo'lib qolgan] Haftaning jumadan keyingi, yakshanbadan oldingi oltinchi kuni.

SHANBALIK Jamoa bo'lib, ommaviy va ixtiyoriy ravishda, biror ijtimoiy foydali ishni bajarish (dastlab bunday ishlar shanba kunlari bajarilgan).

SHANTAJ [*fr.* chantage – tovlamachilik; do'q-po'pisa bilan undirish] O'z maqsadiga erishish, biror foyda ko'rish uchun qilinadigan ig'vo, do'q urish, qo'rqitish kabi yomon niyatdagi xatti-harakat, do'q-po'pisa.

SHANTAJCHI Shantaj bilan shug'ullanuvchi.

SHARAFLAMOQ Hurmat va iftixor bilan tilga olmoq, shon-sharaf bilan qayd etmoq.

SHARHLOVCHI Biror voqea-hodisani tushuntirib beruvchi, izoh beruvchi; gazeta, jurnal, radio, televideniye va internet saytlarida muayyan voqealarga bag'ishlangan sharhlar muallifi.

SHARIAT [*a.* – to'g'ri yo'l; Islom hukmlari, qonun-qoidalarini] *din*. Islom huquq tizimida musulmonlarning Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy, ijtimoiy va fuqarolik qonun va qoidalarini majmui.

SHARIAT PESHVOLARI Shariat qonun-qoidalarini mukammal biladigan, u haqda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan kishilar (qozi, ulamo va b.).

SHARIATPANOH [*a.* – shariat himoyachisi, panohi] Shariat qonun-qoidalarini izchillik bilan amalga oshiruvchi, shariatni himoya qiluvchi, qo'llab quvvatlovchi shaxs.

SHARLATAN [*fr.* charlatan – dastlab: sayyor dori sotuvchi; keyin: firibgar < *ital.* ciallare – quruq gap sotish] Al-

dam-qaldamga nihoyatda usta, aldamchi, tovlamachi, firibgar.

SHARQ RENESSANSI Sharqda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotdagi Uyg'onish, ya'ni Sharq xalqlari rivojining yuksalish davrlari.

SHARQSHUNOSLIK [*a.+fors.*] Sharq davlatlarining tarixi, iqtisodiyoti, tili, adabiyoti, etnografiyasi, dini, falsafasi, madaniyatini kompleks o'rganuvchi fan.

SHART [*a.* – talab; holat, vaziyat; tartib-qoida] Biror ish yoki masala yuzasidan yozma yoki og'zaki o'zaro kelishib olish; o'zaro kelishuv.

SHARTLI Biror shart asosida o'zaro kelishilgan, shartlashilgan.

SHARTNOMA [*a.+fors.*] Tomonlar (ikki yoki bir necha shaxs) o'rtasida tuzilgan, ularning huquq va majburiyatlari qayd etilgan bitim.

SHAR'AN [*a.* – shariat yuzasidan] *din*. Shariat qonun-qoidalariga binoan, shariat bo'yicha.

SHAR'IY [*a.* – shariatga tegishli, mansub] *din*. Shariat aqidalari, qonun-qoidalariga mos keladigan; shariatga ko'ra, qonuniy.

SHAXS DAXLSIZLIGI Har bir kishining tug'ilganidan boshlab tan olinadigan uzviy huquqi.

SHAXSIY Shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan, shu shaxsning o'zi foydalanadigan; xususiy, o'z.

SHAXSIY TARKIB Korxonada, muassasa, harbiy qism va sh. k.larda ishlaydigan xodimlar.

SHAXSIYAT [*a.* – odam, kishi; zot, inson; o'ziga xoslik] O'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan shaxs; shaxsning o'zligini belgilovchi tomonlari, xususiyatlari majmui, o'zlik, kim ekanlik.

SHAXSIYATGA TEGMOQ Muayyan shaxsning qadri, izzat-nafsi va b. jihatidan tahqirlovchi xatti-harakat qilmoq.

SHAXSIYATPARASTLIK Faqat o'z manfaatini, shaxsiyatini ko'zlab ish tutish.

SHAXSNING HUQUQIY HOLATI Shaxsning jamiyat, davlat va b. shaxslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlardagi real ahvolini ko'rsatuvchi holati.

SHAYTANAT [a. - shaytonlik, iblislik] **1** din. Shaytonlar; shaytonlar makoni. **2** Makkorlar, firibgarlar to'dasi. **3** Shaytonlik, makkorlik, firibgarlik.

SHAYTON [a. - iblis; jin, ajina] din. Odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i; iblis.

SHAYTONIY [a. - shaytonga xos, oid] Ayyor, firibgarlarga xos.

SHAYX [a. - qariya, kekxa; urug', qabila boshlig'i; diniy rahbar, olim, murabbiy] Islom mamlakatlarida, avvalo, bilimdon kishilarga, so'ngra ulamo va faqihlarga berilgan nom; keyinchalik muqaddas joylarning mutasaddilari ham "shayx" deb yuritilgan. Hozirda oliy diniy maktablarning mudarrislariga va yirik ulamolarga ham shayxlik unvoni beriladi.

SHAYXLIK Shayx maqomi, lavozimi.

SHAYXULISLOM [a. - islom dini shayxi; diniy qonunlarni sharhlovchi] din. **1** Musulmon ruhoniylari boshlig'ining unvoni. **2** Oliy diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoni. **3** Ba'zi mamlakatlarda islom tashkilotlari yoki musulmonlar jamoasining boshlig'i, oliy ruhoni unvon.

SHEF [fr. chef - boshliq, rahbar; korxon boshlig'i] **1** Boshliq, rahbar

(bo'ysunuvchi, tobe kishilarga nisbatan). **2** Biror muassasani, korxon va sh. k.larni otaliqqa olgan tashkilot.

SHIA, shiyy [a. - shia; mazhab] din. Shialik (shiizm) tarafdori bo'lgan musulmonlar.

SHIALIK, shiizm [a. - shiaga aloqador] Muhammad payg'ambar davridagi Qur'onni tan olib, unga keyinchalik qo'shilgan diniy aqidalarni, sunniy xalifalarni tan olmaydigan oqim, islom dinidagi ikki asosiy mazhabdan biri.

SHIKOYAT [a. - arz qilish; norozilik; ayblash] Norozilik va ma'lum talab bilan og'zaki yoki yozma tarzda bildirilgan fikr; arz.

SHIKOYATBOZ [a.+fors. - shikoyat qilishni yaxshi ko'ruvchi] Doim shikoyat qilish, shikoyat yozish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

SHIKOYATNOMA [a.+fors.] Rasmiy tarzda yozma shikoyat.

SHIRKAT [a. - sheriklik; uyushma] **1** Ma'lum ishni birga amalga oshirish maqsadida birlashgan kishilar hamkorligi, o'rtoqlik uyushmasi, ixtiyoriy birlashmasi. **2** Teng huquqli ishtirokchilardan tashkil topgan sanoat yoki savdo birlashmasi.

SHIG'OVUL tar. Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs.

SHOFE'INLIK [a. - tarafini oluvchi] Sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri: imom Shofe' diniy maktabining izdoshlari.

SHOHANSHOH [fors. - ulug' shoh; shohlarning shohi] Eron shohining unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

SHOM [*fors.* – kechki ovqat; kechki payt, oqshom] Quyosh botib, qorong'ilik boshlangan payt va shu vaqtda o'qiladigan namoz.

SHOMONLIK Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonchdan iborat ibtidoiy e'tiqod shakli.

SHOU [*ingl.* show – ko'rsatish, tomosha; namoyish qilish] Omma-viy tomoshabinlar va tinglovchilarga mo'ljallangan dabdabali, televizion yoki konsert estrada tomoshasi.

SHOU-BIZNES [*ingl.* show-business – tomosha-tijorat faoliyati] Shou tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq ishbilarmonlik faoliyati; shou tashkil etish yo'li bilan daromad topish.

SHOVINISTIK Shovinizmga oid; shovinizm ruhi bilan sug'orilgan.

SHOVINIZM [*fr.* chauvinisme] Millatchilikning o'zga millatlarni kam-sitish, tahqirlash, o'z millatini boshqa millatdan ustun qo'yish, milliy takaburlik, milliy xudbinlik illatlarini o'zida mujassam etgan o'ta tajovuzkor shakli.

SHPION [*nem.* Spion < spahen – kuzatmoq, ayg'oqchilik qilmoq] **1** Davlatga oid va harbiy sirlarni maxfiy ravishda bilib, o'g'irlab olib, boshqa mamlakatga, dushman tomonga yetkazuvchi shaxs; josus. **2** Shpionga xos ish tutuvchi, xatti-harakat qiluvchi.

SHTAB-KVARTIRA Harbiy shtab o'rnashgan joy, shtab qarorgohi.

SHTAMP [*nem.* Stampfe < *ital.* stampa – muhr] Muhrning, odatda, to'g'ri burchakli turi, unda muassasa nomi, manzili va b.lar ko'rsatilgan bo'ladi.

SHTAT [*nem.* Staat – davlat; boshqaruv < *lot.* status – holat, xossa] Kor-

xona, muassasa, tashkilot xodimlarining doimiy, barqaror shaxsiy tarkibi, ularning lavozim va maoshlari ko'rsatilgan ro'yxati.

SHTAT BIRLIGI Tashkilot shtat jadvalidagi ish o'rinlariga muvofiq keladigan lavozimlar ro'yxatidagi birlik.

SHTAT JADVALI Tashkilot, mulk egasi, yuqori turuvchi rahbar yoki organ tomonidan tasdiqlanadigan doimiy xizmatchilar lavozimlarining ro'yxati.

SHTEMPEL [*nem.* Stempel – muhr, tamg'a] Tamg'a bosadigan asbob, muhr; shunday predmetning izi.

SHUHRATPARASTLIK Shon-shuhrat ketidan quvuvchi axloqiy illat; shuhratparastga xos ish, xatti-harakat, xislat.


SHUKRONALIK Shukr qilish, qanoatli va mamnun holat.

SHU'BA [*a.* – soha, tarmoq; shoxobcha; filial] Biror tashkilot yoki muassasaning alohida bir qismi, bo'lim; idora.

SHU'BA KORXONA Xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan, bir unitar korxonaga o'z mol-mulkingning bir qismini belgilangan tartibda berish yo'li bilan yuridik shaxs sifatida tashkil etgan boshqa unitar korxonaga.

SHVEYTSAR [*nem.* Schweizer – shveysariyalik; fransuz qirollarini qo'riqlagan shveysariyalik soldat] Mehmonxona, restoran, muassasa va sh. k.larning kiraverishida qorovullik qiluvchi shaxs.

SHO'RO [*a.* – maslahat; kengash] **1** Sobiq sovet hokimiyatining XX asrning 40-yillarigacha o'zbek va b. turkiy tillarda ishlatilgan nomi. **2** O'sha davrlarda saylab yoki tayinlab qo'yiladigan boshqaruv-rahbarlik, davlat yoki jamoat organi va u joylashgan bino.



CHAKANA SAVDO Donalab, maydalab yoki kichik to'p bilan sotiladigan va sotib olinadigan savdo turi.

CHAKIDA [*fors.* – tomgan, tomib turgan] Qoradori, ko'knori shirasidan olinadigan giyohvand modda; afyun.

CHAKIDAXO'R Qoradori iste'mol qiluvchi.

CHALAMULLA O'z sohasini yaxshi egallamagan, bilmaydigan; bilimsiz.

CHANDIR *etn.* Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida VIII – IX asrlarda yashagan turkiy qabila.

CHAQIRILUVCHI Harbiy xizmatga chaqirilgan yoki chaqirilish yoshida bo'lgan shaxs.

CHARLAR *etn.* Nikoh to'yidan so'ng kelin yoki kuyov sharafiga har ikki qudalar uyida o'tkaziladigan birinchi chaqiriq.

CHARTER [*ingl.* charter – shartnoma] Dengiz yoki havo orqali yo'lovchi hamda yuk tashish uchun kema, samolyot egasi bilan uni yollovchi shaxs o'rtasida tegishli transport vositasini yoki uning bir qismini ma'lum reys yoki vaqtga ijaraga olish haqida tuzilgan shartnoma.

CHARTER REYS Shunday shartnoma asosida amalga oshiriladigan reys.

CHAYQOV Olibsotarlik; foyda olish maqsadida, arzonga olib, qimmatga sotish.

CHAYQOV BOZORI Olibsotarlar savdo qiladigan bozor.

CHAYQOVCHILIK Olibsotarlik, chayqov bilan shug'ullanish; chayqov.

CHAG'RAK Turkiy etnik guruh. Taxmin qilinishicha, chag'raklar qipchoq qabilalaridan biri bo'lib, XI – XII asrlarda Farg'ona vodiysida yashagan.

CHEGARA Qo'shni davlatlarning quruqlik va suvdagi hududini, doirasini belgilaydigan chiziq.

CHEGARA DELIMITATSIYASI Davlat chegarasi chizig'ini shartnomaviy asosda belgilash va uni shartnomaga ilova qilinadigan xaritaga tushirish.

CHEGARA DEMARKATSIYASI Chegara delimitatsiyasi to'g'risidagi shartnomaga asosan, davlat chegarasidagi joyning chizig'ini unga ilova qilingan xarita va tavsif bo'yicha aniqlab belgilash.

CHEGARA QO'SHINLARI Davlatning quruqlikdagi, dengiz va daryodagi

chegarasini himoya qilishga mo'ljallangan qo'shinlar.

CHEGARADOSH Umumiy chegara-
ga ega bo'lgan, yonma-yon joylashgan;
qo'shni.

CHEK [ingl. check – pul muomala-
siga doir hujjat; shartnoma] **1** Ma'lum
yuridik shaxsning joriy hisobraqamidan
muayyan miqdordagi pulni berish yoki
o'tkazish haqidagi yozma farmoyishdan
iborat maxsus hujjat. **2** Kassa tomoni-
dan beriladigan, tovar uchun to'langan
summa ko'rsatilgan talon, shuningdek,
to'lanishi lozim bo'lgan summa ko'rsa-
tilgan va kassaga taqdim etiladigan kvi-
tansiya.

CHEKINMOQ *harb.* Dushman huj-
mi natijasida ilgarigi pozitsiyalarni tash-
lab, orqaga ketishga majbur bo'lmoq.

CHEMPION [ingl. champion – jang-
chi, kurashchi] Sportning biror turi
bo'yicha o'tkazilgan musobaqa g'olibi
bo'lgan sportchi yoki sport jamoasi.

CHEMPIONAT Chempion unvonini
olish, chempionni aniqlash uchun o'tka-
ziladigan musobaqa, bellashuv.

CHERIK [mo'g'. чэрэк – askar, jang-
chi < *sanskritcha* ksatrika – qo'shin,
lashkar] Turk xoqonligi, qoraxoniylar,
saljuqiylar, chingiziylar, temuriylar,
shayboniylar davrida, Xiva va Buxoro
xonliklarida: harbiy yurish vaqtida tu-
man, viloyat, o'lka va uluslardan oliy
hukmdor tomonidan chiqarilgan far-
monlarga muvofiq yig'iladigan munta-
zam qo'shin.

CHERKOV [rus. церковь < yun.
kyriake – xudoning uyi] **1** Xristianlikda:

o'z diniy aqidalari va marosimlari tizimi-
ga ega bo'lgan maxsus diniy tashkilot.
2 Xristian dinida: ibodat qilish uchun
maxsus bino.

CHERKOV HUQUQI Cherkov bilan
boshqariladigan huquq.

CHERKOV NIKOHI Cherkovda diniy
an'analar bo'yicha tuzilgan nikoh.

CHE T EL FUQAROLARI Ma'lum dav-
latning fuqarolari bo'lmagan va boshqa
davlatning fuqarosi ekanligi to'g'risida
tegishli dalillari bo'lgan shaxslar.

CHE T EL INVESTITSİYALARI Chet
ellik investorlar, asosan, daromad (foy-
da) olish maqsadida tadbirkorlik faoliya-
ti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan
boshqa turdagi faoliyat obyektlariga
qo'shadigan barcha turdagi moddiy va
nomoddiy boyliklar.

CHE T EL VALYUTASI Muomalada
bo'lgan hamda xorijiy davlatda qonuniy
to'lov vositasi hisoblangan banknotlar,
xazina biletlari va tangalar ko'rinishida-
gi chet el pul belgilari.

CHE TLATMOQ Ishdan bo'shatmoq;
biror ish qilish yoki biror ishda qatna-
shish huquqidan mahrum etmoq.

CHIGILLAR O'zbek xalqining etnik
tarkibiga kirgan turkiy qabilalar ittifoqi.

CHILLA [fors. – qirq (kun)] **1** Hayot-
da ba'zi hodisa va holatlarning eng
og'ir, xatarli yoki mas'uliyatli davrini
ifodalovchi tushuncha. **2** Yilning eng
issiq yoki eng sovuq qirq kuni: yoz chil-
lasi 25-iyundan 5-avgustgacha bo'lgan
eng issiq qirq kundan, qish chillasi esa
25-dekabrda 5-fevralgacha bo'lgan
eng sovuq qirq kundan iborat.

CHILLAGUZARON [*fors.* – chillaning o'tishi] *etn.* Yangi farzand ko'rgan onaning chillasi chiqqandan so'ng o'z ota-onasinikiga yoki boshqa yaqinlarinikiga mehmonga borishi va shu munosabat bilan o'tkaziladigan marosim.

CHILTON, chiltan [*fors.* – qirq kishi, qirqta ruh] Diniy tasavvurlarga ko'ra, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan afsonaviy qirqta ruh.

CHILYOSIN [*fors.+a.* – qirq yosin] Qur'onning Yosin surasini o'qish bilan bog'liq bo'lgan diniy odat: og'ir kasalni tuzatish yoki yengillashtirish maqsadida kasal tepasida Yosin surasini qirq marta o'qib, dam solish.

CHIMILDIQ Nikoh to'yi kuni qizning uyidagi kuyov kiradigan xonaga va kuyovning uyidagi kelin tushadigan xonaning bir burchagiga yoki uyning to'riga tutiladigan maxsus oq parda yoki gulli choyshab; go'shanga.

CHIN-MOCHIN *esk.* Janubiy Xitoy, Tibet va Sharqiy Turkiston hududining eski, tarixiy manbalarda uchraydigan nomi.

CHIQIM Sarflangan yoki sarflanadigan moddiy mablag'; xarajat.

CHIQUIMDOR Ko'p chiqim, xarajat talab qiladigan; serchiqim.

CHIG'ATOY 1 O'zbek urug'laridan birining nomi. **2** Eski o'zbek tili va adabiyotining g'arb ilmiy adabiyotida noto'g'ri qo'llanib kelgan nomi.

CHIG'ATOY GURUNGI *tar.* Abdu-rauf Fitrat boshchiligidagi Turkiston jadidlari tomonidan tashkil etilgan, 1919-1921-yillarda faoliyat ko'rsatgan

madaniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy tashkilot.

CHIG'ATOY TILI *q. eski o'zbek tili.*

CHIG'ATOY ULUSI *tar.* Chingiziyalar saltanatida: Chingizxonning o'g'li Chig'atoy qo'l ostida bo'lgan, Qashqar, Yettisuv, Movarounnahr yerlarini qamrab olgan hudud.

CHODIR [*fors.* – kapa, bostirma] *etn.* **1** Go'shanga, chimildiq. **2** Ayollar paranji o'rnida yopinadigan maxsus yopinchiq.

CHOPAR *tar.* Davlat ahamiyatiga ega va shoshilinch xabarni yetkazish uchun yuborilgan otliq, suvori.

CHOPOVUL 1 *tar. harb.* XIV-XIX arlarda Markaziy Osiyoda dushman tomoniga qo'qqisdan hujum qilib, uni parokandalikka uchratishdan iborat taktik usul. **2** *tar.* Dushman harbiy kuchlari va obyektlariga to'satdan hujum qilib, o'lja keltiruvchi suvori guruh.

CHOR HUKUMATI [*rus.* царь – podshoh, hukmdor] *tar.* Rossiya podshosi, podsholigi.

CHORAK [*fors.* – to'rt dan bir] **1** To'rt dan bir ulush. **2** O'quv yilining to'rt dan bir qismi.

CHORAKOR [*fors.* – to'rt dan birga ishlovchi] *tar.* Boylar yeridan olinadigan hosilning to'rt dan uch qismini yer egasiga berish sharti bilan yollanib ishlagan, o'z yeri yoki ot-uloviga ega bo'lmagan dehqon.

CHORIZM [*rus.* царизм – podshohlik] *tar.* Rossiya podshohining, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatiga asoslangan davlat tuzumi.

CHORSU [*fors.* – to'rt tomon; chor-rahadagi bozor joy] Tarixiy shaharlarda: odatda, usti yopiq bo'lgan savdo-sotiq joyi, ya'ni bozorning markaziy, rastalar kesishgan joyi.

CHORYOR [*fors.* – to'rt do'st: Muhammad payg'ambarning to'rt izdoshi] *tar., din.* Muhammad payg'ambar vafotidan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki to'rt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali). Ularni "choryorlar" deb atash Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyodagi oddiy dindorlar orasida rasm bo'lgan.

CHOYMOMO O'zbek folklorida shamol homiysi deb tasavvur qilingan mifologik obrazlardan biri.

CHUHRA [*turkiy.* – xos mahram] Temuriylar, shayboniylar davrida hukmdor saroyida xizmat qilgan xos mahram. Chuhralardan saroy qo'riqchilari, ya'ni hukmdorning shaxsiy gvardiyasi tashkil etilgan; chuhralikka asilzoda, zodagon

va yuqori tabaqa farzandlari jalb qilingan.

CHUHRA OQOSI [*turkiy.* – xos mahram (chuhra) boshlig'i] Hukmdor shaxsiy gvardiyasi, xos soqchilar boshlig'i. Ushbu lavozimga hukmdor e'tiborini qozongan shaxslar tayinlangan va ular saroyni qo'riqlashga mas'ul sanalgan.

CHO'LLANISH Qurg'oqchil iqlimli o'lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi; tabiiy o'simliklar va hayvonlar turi miqdorining kamayishi, tuproq unumdorligining pasayishi va sh. k.

CHO'QINDI *din.* Musulmon dinidan qaytib, xristian diniga kirgan, cho'qingan.

CHO'QINMOQ *din.* **1** Qo'l uchini peshonasiga va ikki yelkasiga keltirib ibodat qilmoq, xudoga sig'inmoq (xristianlarda). **2** Umuman, ibodat, sajda qilmoq, sig'inmoq, topinmoq.

CHO'RI *tar.* **1** Qul xotin; tutqunlikdagi ayol. **2** Xizmatkor xotin, oqsoch.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
Lug'atda qo'llangan shartli qisqartmalar ro'yxati.....	6
A.....	7
B.....	26
D.....	44
E.....	59
F.....	67
G.....	78
H.....	84
I.....	93
J.....	111
K.....	117
L.....	134
M.....	138
N.....	160
O.....	167
P.....	174
Q.....	190
R.....	200
S.....	212
T.....	231
U.....	251
V.....	257
X.....	264
Y.....	277
Z.....	286
O'.....	289
G'.....	292
SH.....	295
CH.....	299

Ilmiy-ommabop nashr

**A.Madvaliyev, N.Mahkamov, Sh.Ko'chimov,
Z.Mirahmedova, A.Saidno'monov**

IJTIMOII-SIYOSIIY TERMINLARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

*Filologiya fanlari doktori, professor
N.Mahmudov tahriri ostida*

Muharrir *Sobir O'narov*
Badiiy muharrir *Akbarali Mamasoliyev*
Sahifalovchi *Davronbek Mamasoliyev*
Texnik muharrir *Rustam Isoqulov*



"SAHHOF" nashriyoti

100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30

☎: +99899 111-94-62

✉: +99894 659-94-62

Bosishga 2020-yil 25-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma.

«Good Pro» garniturası. Shartli bosma tabog'i 24,7. Adadi 2000 dona.

Буюртма № 466

«AZMIR NASHR PRINT» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
100200, Тошкент шаҳри, Адҳам Раҳмат кўчаси, 10-уй.



DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
DEPARTAMENTI



SAHHOF

ISBN 978-9943-6666-3-4



9 789943 666634